

gf.  
V - 30.

X.VAXOBOV, N.R.ALIMKULOV, N.B.SULTANOVA

# GEOGRAFIYA O'QITISH METODIKASI



91.  
V-30

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT  
PEDAGOGIKA UNIVERSITETI

X.VAXOBOV, N.R.ALIMKULOV, N.B.SULTANOVA

- 5939 - /xe

# GEOGRAFIYA O'QITISH METODIKASI

(Darslik) O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
AXBOROT RESURS MARKAZI  
1-FILIALI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSIALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
AXBOROT RESURS MARKAZI

"Nodirabegim" nashriyoti  
Toshkent – 2021

**KBK: 26.8я7**

**V 30**

**UO'K: 91(075)**

**ISBN 978-9943-6939-6-8**

**Vaxobov X., Alimqulov N.R., Sultanova N.B.**

Geografiya o'qitish metodikasi [Matn] : darslik / **X. Vaxobov, N.R. Alimqulov, N.B. Sultanova.** - Toshkent: Nodirabegim, 2021. – 360 b.

Ushbu darslikda bo'lg'usi geografiya o'qituvchilarining ilmiy-metodik tayyorgarligini tarkib toptirish va rivojlantrish uchun zarur bo'lgan geografiya o'qitish metodikasining maqsad va vazifalari, rivojlanish tarixi, geografiya o'qitishning dolzarb muammolariga doir ma'lumotlar berilgan.

Darslik 5110500 – “Geografiya o'qitish metodikasi”, “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” ta'lim yo'nalishlari talabalari va geografiya fani o'qituvchilariga mo'ljallangan.

**Taqrizchilar:**

**P.Baratov** – Nizomiy nomidagi TDPU, prof.

**Sh.M.Sharipov** – O'zbekiston Milliy universiteti, “Geografiya va tabiiy resurslar” fakulteti dekani, g.f.n., dots.

**Geografiya o'qitish metodikasi:** 5110500 – “Geografiya o'qitish metodikasi” va “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” ta'lim yo'nalishi talabalari va geografiya fani o'qituvchilar uchun mo'ljallangan.

Mazkur darslik O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 14-avgustdagi 418-sonli buyrug'iga asosan nashrga ruxsat berilgan.

© **X. Vaxobov, N.R. Alimqulov, N.B. Sultanova.**

© “Nodirabegim” nashriyoti, 2021.

## KIRISH

O'zbekistonda ta'lim davlat siyosati darajasiga ko'tarilishi munosabati bilan geografiya ta'limida ham muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Maktab geografiyasining mazmuni va tuzilishida tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirildi. Ayrim o'quv fanlari maktab dasturidan olib tashlandi, ayrimlarining mazmuni o'zgartirildi, ayrim fanlar yangidan yaratilib, o'quv tizimiga joriy qilindi.

O'zbekistonda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», va «Ta'lim to'g'risidagi qonun»i qabul qilinishi munosabati bilan o'quv qo'llanmalari va darsliklarga bo'lgan talablar keskin o'zgardi. Barcha fanlarda bo'lganidek, maktab geografiyasi fanida ham tubdan o'zgarishlar sodir bo'ldi. Geografiya predmetlarining dasturi va tuzilishi O'zbekiston maktab ta'limi tizimida sodir bo'lgan o'zgarishlarni hisobga olgan xolda qaytadan ko'rib chiqildi.

Shu munosabat bilan geografiya o'qitish metodikasida ham muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Geografiya o'qitish metodikasida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llash zaruriyatining vujudga kelishi munosabati bilan o'qitish metodikasida tubdan o'zgarishlar, xususan, geografiya faniga oid pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish va dasturiy ta'minotlarni yaratishga kirishildi.

Shu munosabat bilan mazkur darslik tayyorlandi. Mazkur darslik kirish va besh qismdan iborat:

- I-qism Geografiya o'qitish metodikasi fanining maqsadi va vazifalari, rivojlanish bosqichlari, geografiya ta'limida ilmiy tadqiqot ishlarni tashkil etish muammolari, xorijda geografiya fanining o'qitilishi, xalqaro baholash tadqiqotlari va uni o'ziga xos tomonlari, geografiya fanini o'qitishning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari, maktab geografiyasining mazmun, tarkibi va o'qitish texnologiyalariga bag'ishlangan.

- Darslikning II-qismi o'qitish metodlariga qaratilgan, unda maktab geografiyasining mazmuni va tarkibi, o'qitish metodlari tasnifi, o'qitish usullari o'qitishda pedagogik texnologiyalar, noana'naviy usullar va kompyuter texnologiyalardan foydalanan tajribasiga katta e'tibor berilgan.

- Darslikning III-qismida o'quv vositalari yoritilgan bo'lib, mazkur qismda o'quv ko'rgazmali quollar, asbob va jihozlar, natural va texnik vositalari, ular bilan ishslash texnologiyasi berilgan.

- Darslikning IV- geografiya ta'limini tashkil etish shakllari deb nomlangan qismida geografiya darslari va ularga qo'yiladigan talablar,

dars tiplari, geografiya darslarini rejalashtirish, bilim, ko'nikma va malakalar, qo'yiladigan talablar va shakllantirish metodikasi, geografiya xonasi va uni jihozlash haqida bilimlar yoritilgan.

- Geografiya ta'llimida sinfdan tashqari ishlar darslikning V-qismida berilgan. Unda sinfdan tashqari ishlarning maqsad va vazifalari, sinfdan tashqari ishlarning shakllari hisoblanga o'quv sayohatlari, to'garaklar va ularni o'tkazishni ilmiy-metodik asoslari yoritib berilgan.

Darslikning mukammal bo'lishi yuzasidan fikr-mulohazalarni Nizomiy nomidagi TDPU, Geografiya va uni o'qitish metodikasi kafedrasiga yuborish so'raladi va fikr bildirgan ustozlar va hamkasblarga avvaldan minnatdorchilik bildiriladi.

## I-QISM. GEOGRAFIYA O'QITISH METODIKASI FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

### I BOB. GEOGRAFIYA O'QITISH METODIKASI FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

#### 1. Geografiya o'qitish metodikasi fan va o'quv fan sifatida

Geografiya ta'llimi deganda o'quvchilarga tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy majmualarning tuzilishi va asosiy qonuniyatlari haqida bilimlar beradigan geografiya fanlari tizimi tushuniladi.

Geografiya ta'llimi metodikasi esa umumta'llim mакtablar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida tabiiy geografiya, iqtisodiy geografiya va boshqa maxsus geografiya fanlarini o'qitish jarayonini o'rganadigan va pedagogika fanlari tizimiga kiradigan fandir.

Geografiya ta'llimi metodikasi umumiy didaktika va tarbiya nazariyasi bilan chambarchas bog'langan. Didaktika fani ta'llim berish va tarbiya jarayonini umumiy qonuniyatlarini, ta'llim mazmunini tadqiq qiladigan nazariy fandir. Didaktika fani aniq o'quv fanlarini o'qitish metodikasi bilan shug'ullanmaydi. Ayni vaqtida har bir o'quv fani o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning ayrimlarini maqsadi nazariy bilim va ko'nikmalarni shakllantirish (geografiya, biologiya, kimyo), ayrimlari faqat ko'nikmalarni (chet tillar), boshqalari esa borliqqa estetik munosabatda bo'lishini shakillantiradi (tasviriy san'at). Shuning uchun alohida fanlarni o'qitish metodikasi bilan xususiy didaktika fanlari shug'ullanadi. Mazkur fanlar qatoriga «Geografiya o'qitish metodikasi» fani ham kiradi. Geografiya o'qitish metodikasining nazariy va amaliy jihatlari mavjud. Geografiya o'qitish metodikasi fani quyidagi nazariy va amaliy metodologik muammolarni tadqiq qiladi:

a) geografiya o'qitish metodikasining predmeti, tadqiqot usullari, rivojlanish tarixi;

b) geografiya o'qitish metodikasining maqsad va vazifalarini umumiy va alohida predmetlar bo'yicha aniqlash;

c) ta'llim va tarbiyaning birligini amalga oshirish;

Geografiya o'qitish metodikasi ikkita katta qismdan iborat: umumiy va hususiy geografiya o'qitish metodikasi.

*Umumiy geografiya o'qitish metodikasi* – bu geografiyaning didaktikasi hisoblanadi. U geografiya o'qitish jarayonini o'ziga xos xususiyatlarini o'rganadi.

Geografiya o'qitishning umumiy metodikasi nazariy va metodik masalalarini ishlab chiqadi, yani predmetni o'zini tadqiqot usullarini o'rganadi, bunda asosiy e'tibor o'quv-tarbiyaviy maqsadlarni ishlab chiqishga qaratiladi. Aniqlangan o'quv-tarbiyaviy maqsadlar asosida geografiya ta'limining mazmuni ishlab chiqiladi. Umumiy geografiya o'qitish metodikasi ikki qismga bo'linadi:

- tabiiy geografiyani o'qitish metodikasi;  
-ijtisodiy va ijtimoiy geografiyani o'qitish metodikasi;

*Geografiya o'qitishning hususiy metodikasi* – alohida o'quv predmetilarini maqsad va vazifalarini ishlab chiqadi va umumnazariy xolatlarni aniq o'quv predmetlarini o'qitish jarayonida qo'llash masalalarini o'rganadi.

Xususiy geografiya o'qitish metodikasi tabiiy hamda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarini alohida predmetlari bo'yicha o'quv tarbiyaviy jarayonlarni o'ziga xos hususiyatlarini ishlab chiqadi. Hususiy geografiya o'qitish metodikasi alohida geografiya fanlarining mazmuni uchun umumiy metodikaning nazariy ishlannalarini aniqlashtiradi, har bir sinf gerografiya kursining mazmuni va tuzilishi, geografik tushunchalarini shakllantirish, o'quv ishlari usullarini, o'quvchilarning mustaqil ishlarini tahlil qilish muammolarini ishlab chiqadi.

### **1.1. Geografiya o‘qitish metodikasining maqsadi va vazifalari**

Geografiya fanining maqsad va vazifalari turli davrlarda o'zgarib va qaytadan shakillanib turgan. O'qitishning maqsadini aniqlash qadimdan didaktika va geografiya o'qitish metodikasining eng muhim muammolaridan hisoblanib kelmoqda. Ushbu muammoni qanday yechish matab geografiyasining tuzilishi, mazmuni va o'qitish metodlarinimg turlari bilan bog'liq. XX asr davomida o'qitish maqsadini ishlab chiqish muammoisiga katta e'tibor berildi. Hozirgi davrda (XXI asr) ham geografiya ta'llimining mazmunini o'zgarishi munosabati bilan mazkur muammoga yanada ko'proq e'tibor berilmoqda.

Geografiya o'qitish metodikasi geografiya fani asoslari bilan bog'liq bo'lган о'кув jarayonlari, tamoyil (prinsip)lar va qonuniyatlar to'g'risidagi fandir. Mazkur tamoyil va qonuniyatlarni bilish o'qituvchiga maktab geografiya kursi bilan bog'liq о'кув-tarbiyaviy jarayonlarni zamon talablariga mos holda tashkil etish va boshqarish imkonini beradi.

Geografiya o'qitish metodikasining *obyekti* - mazkur o'quv fani bilan aloqador bo'lgan ta'lim-tarbiyaviy jarayon.

Geografiya o'qitish metodikasining ***predmeti*** - geografik ta'larning maqsadi, mazmuni, o'qitish usullari, shakllari, o'quvchilarning tarbiyasi va rivojlanishidir.

Geografiya o'qitish metodikasining **maqsadi** – geografiya o'quv fanlarining mazmuni, uning o'qitish shakllari, metodlari, vositalarini o'zaro bog'liq holda joriy etish.

Geografiya o'qitish metodikasining *vazifasi* – geografiya o'quv fanlarining mazmuni, uning o'qitish shakllari, metodlari, vositalarini o'zaro bog'liq holda joriy etish. Shuningdek geografiya o'qitish metodikasi quyidagi larni ham o'z oldiga vazifa qilib qo'yadi:

- bo'lajak o'qituvchilarga geografik o'quv fanlar bo'yicha chuqur va atroficha bilim berish;
  - maktab geografiyasining ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantirish imkoniyatlarini ochib berish;
  - maktab geografiyasining mazmunini zamon talablariga mos ravishda yanada takomillashtirish;
  - maktab geografiyasi mazmuni va tuzilishida zamonaviy fan yutuqlarini aks ettirish;
  - geografiya darslarini tuzilishi, tarkibi va turlarini yanada takomillashtirish;
  - geografiya o'qitishni yangi pedagogik va va axborot texnologiyalarini ishlab chiqish va amalda qo'llash;
  - geografik ekskursiyalar, tadqiqotlar o'tkazish texnologiyasini yanada takomillashtirish;
  - o'quvchilarda amaliy geografik ko'nikmalarni shakillantirish texnologiyasini takomillashtirish;
  - o'quvchilarning har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida kamol topishiga ko'mak beruvchi o'quv fanlar mazmunini, o'qitish shakllari, vositalari va metodlarini ishlab chiqishdan iborat.

Geografiya o'qitish metodikasi talabalar va o'qituvchilarni o'qitish nazariyasi va tarbiyasi bilan qurollantiradi.

## **1.2. Geografiya ta’limi metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi**

Geografiya o'qitish metodikasi qator tabiiy va iqtisodiy hamda ijtimoiy – gumanitar fanlar bilan o'zaro bog'langan. Geografiya o'qitish metodikasini geografiya fani bilan bog'liqligi quyidagilarda namoyon bo'ladi:

- geografiya fani maktab geografiyasi mazmuni asosini tashkil qiladi va uning rivojlanishi uchun asos hisoblanadi. Geografiya fanidagi yutuqlar

va o'zgarishlar maktab geografiyasining mazmunida va tuzilishida aks etib boradi;

- geografiya fanining mazmuni maktab geografiyasining tuzilishida aks etgan. Maktab geografiyasi ikki qismidan iborat: tabiiy va iqtisodiy geografiya. Shuningdek, umumiy o'rta ta'lim hamda akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o'tiladigan «Amaliy geografiya» darsligida injinerlik geografiyasining mazmuni aks etgan;

- o'quv vositalari va ular bilan ishlash usullari geografiya fanida qo'llaniladigan usullar bilan aniqlanadi. Masalan: geografiyada keng qo'llaniladigan kartografik usul, maktab geografiyasida ham keng qo'llaniladi (xaritalar bilan ishlash), dalada olib boriladigan tadqiqot ishlari maktab geografiyasida o'tkaziladigan o'quv – sayohatlarda aks etgan;

- geografiya ta'limining mazmuni va tuzulishi geografiya fanining rivojlanishi bilan muntazam takamillashib boradi. Hozirgi paytda maktab geografiyasida yangi-yangi tushunchalar paydo bo'lmoqda: ekologik-geografik sharoit, tizimli usul, geosiyosat, bashorat, baholash, monitoring va h.k.

Didaktika barcha o'quv predmetlarini metodikasini umumiy ilmiy asosini tashkil qiladi. Geografiya ta'limi metodikasi didaktika fani tomonidan asoslab berilgan qonunyatlar, qonunlar va qoidalar asosida rivojlanadi. Didaktika fani geografiya o'qitish jarayonining tarkibiy qismlari o'rtasidagi qonuniy bog'lanish va munosabatlarni oydinlashtiradi va shu asosida o'qitishni maqsadi, mazmuni, usullari hamda o'qitish jarayonini jihozlashga doir talablarni belgilab beradi. Geografiya o'qitish metodikasi fani didaktika faniga suyanibgina qolmasdan balki uning rivojlanishi uchun muhim ma'lumotlar beradi. Masalan, o'quvchilarning geografik bilmi, ko'nikma va malakalarni baholash, geografik tasavvur, tushuncha, g'oyalar tizimini shakllantirish va boshqalar.

Psixologiya fani o'quvchilardagi ruhiy faoliyatning umumiy qonunyatlarini o'rgansa, geografiya o'qitish metodikasi esa o'quvchilarning ruhiy faoliyatini ularning geografik bilimlarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan tomonlarni o'rganadi. Geografiya predmetini o'qitishda o'quvchilarning yoshi, bilimi, fikrlash qobiliyatini e'tiborga olmasdan turib, ularning o'quv faoliyatiga samarali ta'sir etib bo'lmaydi. Shu tufayli geografiya o'qitish metodikasi psixologiya fani bilan chambarchas bog'langan.

Geografiya ta'limi metodikasi ekologiya fani bilan ham uzviy bog'langan. Maktab, akademik litsey va kasb hunar kollejlari uchun o'quvchilarning ruhiy faoliyatini ularning geografik bilimlarni o'zlashtirish bilan bog'liq bo'lgan tomonlarni o'rganadi. Geografiya ta'limi metodikasi esa o'quvchilarning yoshi, bilimi, fikrlash qobiliyatini e'tiborga olmasdan turib, ularning o'quv faoliyatiga samarali ta'sir etib bo'lmaydi. Shu tufayli geografiya o'qitish metodikasi psixologiya fani bilan chambarchas bog'langan.

geografiya ta'limida atrof-muhit muhofazasiga va tabiiy resruslardan oqilona foydalanish masalalariga katta e'tibor berilgan. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursidan boshlab (5-sinf), umumiy o'rta ta'lim geografiya predmetlarida tabiiy resruslardan oqilona foydalanish, tabiiy resurslarni inson xo'jalik faoliyati ta'sirida ifloslanishi, ularni oldini olish va atrof-muhit muhofazasi masalalari atroflichcha ko'rib chiqilgan.

Geografiya ta'limi metodikasi tarix, til va adabiyot va boshqa gumanitar fanlar bilan ham bog'langan. Maktab geografiyasida geografik bilimlarning rivojlanishini, har bir materik va o'lkalarning tabiatini va uni o'zlashtirilish tarixini o'rganish tarixiy manbalarinrini o'rganish bilan bog'liq. Geografik nomlarni to'g'ri yozilishi, ularni talqini, kelib chiqishi va mazmunini aniqlash tilshunoslik qonunyatları va qoidalari asosida olib boriladi. Maktab geografiyasida geografik qobiqning tarkibiy qismlari va undagi jarayonlarni o'quvchilarga tushuntirilishida, jahon mamlakatlari, hududlar va alohida mamlakatlarni o'rganishda, badiiy adabiyotlardagi yorqin ifodalar, talqinlar va tavsiflardan foydalaniladi.

Geografiya o'qitish metodikasi kimyo, biologiya va qishloq xo'jaligi fanlari bilan ham chambarchars bog'langan. Geografik qobiqning kimyoviy tarkibini, tabiatni kimyoviy modddalar bilan ifloslanishini va ularni oldini olish yo'llarini o'rganishda maktab geografiyası kimyo fanining yutuqlariiga asoslanadi. Geografik qobiqning asosiy tarkibiy qismi bo'lgan tuproq, o'simlik qoplami, hayvonot dunyosining turlari, ularning yashash sharoitiga moslashishi va turli xil ekinlarni yetishtirishning o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda maktab geografiyası biologiya va qishloq xo'jaligi fanlari tizimi yutuqlariga asoslanadi.

Geografiya ta'limida ma'lumotlarni umumlashtirish, o'quvchilarning mustaqil va amaliy ishlarini tashkil qilishda, zamonaviy texnika vositalaridan foydalanishda maktab geografiyası matematika, statistika va axborot texnologiyalari fanlari yutuqlariga asoslanadi.

Hozirgi davrda geografiya ta'limida pedagogik texnologiyalar qo'llanilmoqda va ulardan foydalanishning ilmiy-metodologik asoslari ishlab chiqilmoqda. Ushbu sohada geografiya ta'limi pedagogik texnologiyalar fani yutuqlariga tayanadi.

**Tayanch so'z va iboralar:** didaktika, pedagogika, geografiya, metodika, o'qituvchi, o'quvchi, ta'lim, tarbiya, qonun, qoniniyat, qoida, maqsad, vazifa, obyekt, predmet,

## TALABALARING O'ZLASHTIRGAN BILIMLARINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Geografiya o'qitish metodikasi qanday fanlar tizimiga kiradi?
2. Geografiya o'qitish metodikasi qanday qisimlarga bo'linadi?
3. Didaktika nimani o'r ganadi?
4. Geografianing umumiy metodikasi nimani o'r ganadi?
5. Xususiy geografiya kurslarini o'qitish metodikasi bilan qanday fanlar shug'ullanadi?
6. Geografiya o'qitish metodikasining umumiy vazifalariga ta'rif bering.
7. Geografiya ta'limi metodikasi qaysi fanlar bilan bog'langan?
8. Geografiya ta'limi metodikasi fanini geografiya fani bilan bog'liqligi nimalarda ifodalishining chizmasini tuzing?
9. Geografiya ta'limi metodikasi qaysi fan ishlab chiqqan qoida, qonuniyat va qonunlar asosida rivojlanadi?
10. Geografiya o'qitish metodikasi psixalogiya fani bilan qanday bog'langan?
11. Geografiya o'qitish metodikasini boshqa fanlar bilan bog'lanish chizmasini tuzing.
12. Geografiya fanining boshqa fanlar aloqasiga klaster tuzing.

## II BOB. GEOGRAFIYA TA'LIMINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH TARIXI

### 1. Geografiya ta'luming rivojlanish bosqichlari

Geografiya fani eng qadimgi fanlar qatoriga kiradi, shuning uchun ham uning rivojlanish tarixi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, bir necha bosqichlarga boi'linadi. Har bir bosqichda geografiya fanining ayrim tarmoqlari ma'lum bir sharoit ta'sirida juda tez rivojlanib kelgan.

**Qadimgi davrda geografiya ta'luming rivojlanishi.** Qadimgi davrda geografiya fani va ta'luming rivojlanishini ikki bosqichga bo'lib o'r ganish mumkin: a) geografik bilimlarning dastlabki to'planishi; b) geografiya fanining shakllanish va rivojlanish.

Geografik bilimlarning dastlabki to'planishi eramizdan oldingi VII asrgacha davom etgan. Geografik bilimlar ibtidoiy jamoa davrida odamlarning ehtiyoji munosabati bilan qo'llana boshlangan. Ularning dastlabki geografik bilimlari joyda mo'ljal olish va eng sodda xaritalar tuzishdan iborat bo'lgan. Odamlarni dengiz bo'y lab suza boshlashi, geografiya fanini rivojlanishida juda katta omil hisoblanadi. Ayniqsa, kritliklarning O'rta dengiz bo'y lab suzishlari va Gibraltar bo'g'ozli orqali Atlantika okeaniga chiqishlari juda ko'p geografik nomlarni vujudga shug'ullanadi.

kelishiga sabab bo'lgan. Bunday nomlarga Yevropa va Osiyo nomini aytish mumkin. Kritliklar uchun g'arb tomon Yevropa, sharq tomon Osiyoni bildirgan. Eramizdan avvalgi VII asrlarga kelib geografiya fanini rivojlanish markazi qadimgi Yunonistonga ko'chdi. Yunonistonda juda ko'p fanlar shakllandi va rivojlandi. Mazkur davrdagi mashhur olimlardan Gomer tomonidan miloddan oldingi XII asrda dunyo xaritasi tuzilgan va bu xaritada asosan O'rta dengiz atrofi tasvirlangan.

**Geografiya fanining shakllanishi bosqichi.** (Eramizdan avval VII asrdan eramizning V-VI asrlarigacha) mazkur bosqichda kemachilikning rivojlanishi odamlarning dunyo haqidagi bilimlarini kengaytirdi hamda yirik davlatlarning vujudga kelishi tufayli falsafa fani rivojiana boshladi. Ushbu bosqichda geografiya va boshqa fanlar falsafa tarkibida rivojlangan. Eramizgacha VI asrga kelib yerning shakllanishi haqida turli fikr va qarashlar paydo bo'ldi. Mazkur bosqichda Anaksimandir (eramizgacha VI asr) o'sha paytda fanga ma'lum bo'lgan dunyo xaritasini chizib, yerni tavsifini tuzgan. Shundan boshlab geografiya bo'yicha yirik asarlar yozila boshlandi. Ular geografik darsliklar o'rnini bosgan. Aristotel tomonidan miloddan avvalgi IV asrda yerning sharsimonligi, yerda issiqlik mintaqalarining mavjudligi isbotlandi. Dunyo xaritasi tuzildi. Uning xaritasida Gomer xaritasidagi joylar yanada kengaytirilib, Afrikaning Shimoliy qismi, Osiyo va Yevropa qit'alari tasvirlangan. Osiyodagi Hindiston, Amudaryo va Sirdaryo, Kaspiy dengizi, Yevropadagi Italiya, Makedoniya, Ichki (O'rta) dengiz, Iberiya va boshqa joylar tasvirlangan. Aristotel Yer sharini kishilar yashaydigan issiqlik mintaqasi va kishilar yashamaydigan sovuq mintaqasi ajratilgan. Aristotel tomonidan "Meteorologiya" kitobini yozgan.

Geografiya predmeti bo'yicha birinchi darslikni miloddan avvalgi III asrda Eratosfen yozdi va "Geografiya" atamasini fanga olib kirdi. Mazkur darslik uch qismdan iborat bo'lgan. Birinchi qismida geografianing rivojlanish tarixi, ikkinchi qisimida Yerning o'lchamlari, quriqlik va okeanlar chegaralari, iqlimlar tavsifi berilgan, uchunchi qismida esa quriqlikni materiklar va okeanlarga bo'linishi va o'sha davrdagi yirik davlatlar tavsifi berilgan. Bundan tashqari Erosfen dunyo xaritasini tuzgan va Yerning o'lchamlarini aniqlagan.

Eramizgacha bo'lgan II asrning oxiri va eramizning birinchi asrida Strabon 17 tomli "Geografiya" nomli asar yozgan. Strabon tomonidan mamlakatshunoslik geografiyasini rivojlantirilgan.

Huddi shu davrda geografiya fanining rivojlanishiga Klavdiy Ptolomiy juda ulkan hissa qo'shgan. U geografik xaritalarni daraja to'ri

bilan tuzish usulini ixtiro qilgan. Shu usulda dunyo xaritasini tuzgan va 8-tomlik “Geografiya” asarini yozgan. Uning kitobida keltirilgan xaritalar konusli va slindrik proektsiyalarda tuzilgan. Shimol doimo xaritalarning yuqori qismida tasvirlangan.

Demak, qadimgi bosqichlarda geografiya atamasi fanga olib kirilgan, dunyo xaritasi tuzilgan, geografiya predmeti bo‘yicha kitoblar va darsliklar yozilgan. Xaritalarni daraja to‘g‘ri bilan tuzish usuli ixtiro qilingan. Shimol tomon xaritalarni yuqori qismida tasvirlanishi mustahkamlangan.

**O‘rta asrlarda geografiya ta’limining rivojlanishi.** O‘rta asrlarda geografiya fani va uni o‘qitish metodikasi yanada rivojlandi va chuqurlashdi. Yangi kitob va darsliklar yozildi, yangi yerlar ochilishi bilan dunyo xaritasi yanada aniqlasha boshladi.

O‘rta asrlarda geografiya ta’limining rivojlanishini ikki bosqichga bo‘lishimiz mumkin:

- o‘rta asrning birinchi yarmida geografiya ta’limining rivojlanishi;
- buyuk geografik kashfiyotlar bosqichida geografiya ta’limining rivojlanishi.

**O‘rta asrlarning birinchi bosqichida geografiya ta’limining rivojlanishi.** VII-XII asrlar davomida Markaziy Osiyoda madaniyat, ilm-fan beqiyos rivojlana bordi. Ayniqsa, aniq fanlarga qiziqishlar keskin orta boshladi. O‘scha tarixiy davrda al-Xorazmiy, Farobi, Farg‘oniy, Beruniy, Ibn Sino kabi olimlar dunyoga keldi. Ular ta’sirida dunyoviy ilmlar rivojlandi. O‘scha ulug‘ mutaffakkirlar inson madaniy-ma’rifiy qarashlarini o’stirishda o‘z davrida va keyinchalik ham asosiy rol o‘ynaydilar, inson kamolotiga doir beqiyos ta’limotni yaratadilar.

Bu davrda arab tili ilmiy va aloqa tili edi. X asr o‘rtalariga kelib, forstojik tilida ham ish yuritila boshlandi. Bu davrda Buxoroda kitob do‘konlari bo‘lib, unda yirik olimlar va fozil kishilar uchrashib, ilm-fan to‘g‘risida turli xil baxslar yuritishar edi. Abu Ali Ibn Sino kitob do‘konlaridan birida Farobiyning Aristotel “Metafizika”siga yozgan sharhlarini sotib olganligi fikrimizning yorqin isbotidir.

Tarix zarvaraqlaridan ma’lumki, XI asrda Xorazmda ilm-fan ayniqsa rivojlandi. Xorazm shoxi Ma’mun o‘z saroyiga eng zabardast olimlarni taklif etadi. U tashkil etgan “Baytul hikmat”, ya’ni, “Donishmandlar uyi” da qomusiy olimlar Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr ibn Iroq kabi olimlar ijod bilan shug‘llandilar. Bu keyinchalik “Ma’mun” akademiyasi nomi bilan dunyoga mashhur bo‘lgan.

Tarix zarvaraqlaridan ma’lumki, XI asrda Xorazmda ilm-fan ayniqsa rivojlandi. Xorazm shoxi Ma’mun o‘z saroyiga eng zabardast olimlarni

taklif etadi. U tashkil etgan “Baytul hikmat”, “Donishmandlar uyi” da qomusiy olimlar Beruniy, Ibn Sino, Abu Nasr ibn Iroq kabi olimlar ijod bilan shug‘llandilar. Bu keyinchalik “Ma’mun” akademiyasi nomi bilan dunyoga mashhur bo‘lgan.

Sharq “Uyg‘onish davri” da ilm-fan rivojlanishi uch yo‘nalishda bo‘ldi.

- Birinchi yo‘nalish – matematika-tibbiyot yo‘nalishi bo‘lib, bularga matematika, astronomiya, kimyo, geografiya, mineralogiya, tibbiyot, dorishunoslik kabi fanlar kiritilib, al-Xorazmiy, Ahmad Farobiylar matematikaga oid, Zakariyo ar-Roziy kimyo va tibbiyotga oid, ibn Sino tibbiyot, geografiya va falsafa, Beruniy geografiya, minerologiya, astronomiya, tibbiyotga oid, Jurjoniy tibbiyot va falsafaga oid yirik asarlar yaratdilar.

- Ikkinci yo‘nalish – ijtimoiy-falsafiy yo‘nalish bo‘lib, bunda falsafa, tarix, mantiq, ruhshunoslik, notiqlik va boshqa fanlar bo‘lib, bu sohada Farobi, al-Kihdiy, Ibn Sino, Muhammad Narshahiy kabilalar faoliyat ko‘rsatgan. Yuqorida aytib o‘tilgan olimlar qomusiy olimlardir.

- Uchinchi yo‘nalish – ta’limiy-ahloqiy yo‘nalish bo‘lib, bu sohada qomusiy olimlar o‘z qarashlarini ijtimoiy-falsafiy va ilmiy asarlari tarkibida yoki ahloqiy asarlarida bayon etganlar. Sharq uyg‘onish davrida inson muamosi ma’naviy sohasidagi asosiy masala bo‘lgan. Shuning uchun ham ta’lim-tarbiya masalasiga katta e’tibor berilgan, yaratilgan asarlarda sharqqa xos bo‘lgan insonning axloqiy-ruhiy kamolotini ulug‘lash yetakchi o‘rin tutgan. Mazkur ta’limiy-axloqiy asarlarda insonning ma’naviy kamolga yetishi yuksak xulq-odob, ilm-fanni egallashi asosidagina amalga oshishi mumkin degan g‘oya ilgari surildi. Ilmiy bilimga asoslanuvchi metod shakllandi, natijada aqliy tarbiya olimlar e’tiborida bo‘ldi. Xorazmiy, Farobiylar bu metodni asoslab berishgan buyuk mutaffakkirlar edi. Tabiat va unga bog‘liq ta’lim tarbiyani rivojlantirish bo‘yicha Farobi, Beruniy, Ibn Sinolarning qarashlari alohida ahamiyatga ega. Bular haqida quyida qisqacha ma’lumot berilmoqda.

Abu Nasr Farobi – o‘rta asr sharqining mashhur mutaffakiri, qadimgi yunon falsafasining sharqdagi eng yirik davomchisi va targ‘ibotchisidir. Farobi qadimgi yunon ilmining chuqr bilimdoni bo‘lgan, uning sharqda tarqalishi va rivojiga katta xissa qo‘shgani tufayli uni – “Sharq Aristotel”, “Sharq Arastusi” - “Muallimi Soniy” - “Ikkinci muallim” (birinchi muallim Aristotel) deb ataydilar.

Farobiy ta'lif – tarbiyaga bag'ishlangan asarlarida ta'lif tarbiyaning muhimligi, unda nimalarga e'tibor berish zuruligi, ta'lif-tarbiya usullari va uslubi haqida fikr yuritadi. "Fozil odamlar shahri", "Baxt-soatdatga erishuv to'g'risida", "Aql ma'nolari" kabi asarlarida ijtimoiy-tarbiyaviy qarashlari o'z ifodasini topgan.

Farobiy "Baxt-saodatga erishuv to'g'risida" asarida bilimlarni o'rganish tartibi haqida fikr bayon etgan uning ta'kidlashicha, avval bilih zarur bo'lgan ilm o'rganiladi, bu olam asoslari haqidagi ilmdir. Uni o'rgangach, tabiiy bilimlarni, tabiiy jismalarni tuzilishi, shaklini, osmon haqidagi bilimlarni o'rganish lozim. Undan so'ng, umuman, jonli tabiat o'simlik va hayvonlar haqidagi ilm o'rganiladi, deydi.

Farobiy ta'lif-tarbiyaga birinchi marta ta'rif bergan olim sanaladi. "Ta'lif" degan so'z *insonga o'qitish, tushuntirish asosida nazariy bilim berish; tarbiya-nazariy fazilatlarni, ma'lum hunarni egallash uchun zarur bo'lgan xulq normalarni va amaliy malakalarini o'rgatishdir*, deydi olim.

Farobiy o'z asarlarida axloqiy fazilatlarga to'xtalib o'z fikrlarini bayon etadi. Axloqiy fazilatlar deganda bilimdonlik, donolik va mulohazali bo'lish, vijdonlilik, kamtarlik, ko'pchilik ma'rifatini yuqori qo'yish, xaqiqat, ma'naviy yuksaklikka intilish,adolatlilik kabi xislatlarni tushundi. Ammo bu xislatlarning eng muhimi har bir insonning bilimli, ma'rifatli bo'lishidir. Shuning uchun Farobiy ahloq tushunchasiga aql bilan uzviy bog'liq holda tafakkurga asoslangan ahloq asosida qaraydi.

Farobiyning talim-tarbiya yo'llari, usullari, vositalari haqidagi qarashlari ham qimmatlidir. U insonda go'zal fazilatlar ikki yo'l – ta'lif va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lif nazariy fazilatlarni birlashtirsma, tarbiya nazariy va amaliy fazilatlarni birlashtiradi, deydi. Har ikkalasi birlashsa, yetuklik namoyon bo'ladi. Farobiy ta'lifda barcha fanlarni nazariy asoslari o'rganilsa, tarbiyada ma'naviy ahloqiy qoidalar, odob moyorlari o'rganiladi. Kasb – hunarga oid malakalar hosil qilinadi, deb uqtiradi.

Farobiy ta'lif-tarbiyada rag'batlantirish, odatlantirish, majbur etish metodlarini ilgari surgan. Har ikki usul ham insonni kamol tamoyilga yetkazish maqsadini ko'zlaydi. Farobiyning ta'lif-tarbiya haqidagi qarashlari hozircha o'z ahamiyatini saqlab kelmoqda.

Abu Rayhon Beruniy – jahon fanining taraqqiyotiga g'oyat ulkan xissa qo'shgan zo'r iste'dod egasi va tadqiqotchi edi. Uning o'lmasi ilmiy asarlarini jahon fani taraqqiyotida benihoya yuksak ahamiyatga molikdir. Beruniyning yirik asarlariga "Mineralogiya", "Hindiston", "Geodeziya", "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar", "Saydana" kabilarni olish

mumkin. Beruniy har bir yaratgan asarining kishi ruhiyatiga, qobiliyatiga mos, uni toliqtirmaydigan bo'lismiga e'tibor beradi. Beruniy yozadi: "Bizning maqsadimiz o'quvchini toliqtirib qo'ymaslikdir. Hadeb bir narsani o'qiy berish zerikarli bo'ladi. Agar o'quvchi bir masaladan boshqa bir masalaga o'tib tursa, u xuddi turli-tuman bog'-rog'larda sayr qilgandek bo'ladi, bir bog'dan o'tar-o'tmas, boshqa bog' boshlanadi. Keyin uning hammasini ko'rgisi va tomosha qilgisi keladi". Beruniyning ilmiy bilimlarini egallash yo'llari haqidagi fikrlari hozirgi davrda ham dolzarbdir. O'quvchiga bilim berishda:

- o'quvchini zeriktirmaslik;
- bilim berishda bir xil narsani yoki bir xil fanni o'rgatavermaslik;
- uzviylik, izchillik;
- yangi mavzularni, qiziqarli, asosan, ko'rgazmali bayon etish kerak deb uqtiradi.

Bilim olishda tushunib o'rganish, ilmiy tadqiqotchining poklikka rioya etishiga alohida e'tobor beradi, jamiyatning ravnaqi ma'rifatning rivojiga bog'liq degan g'oyani ilgari suradi.

Abu Rayhon Beruniy bilim olishni axloqiy tarbiya bilan bog'laydi. Zero, insonda komillikning muhim mezoni yuksak axloqlikdir. Beruniy inson har tomonlama kamolga yetishi uchun u ilmli bo'lishi bilan birga mehnatsevar va hunar egasi bo'lishi ham kerak deydi. U inson kamolotida uch narsa muhimligini ta'kidlaydi. Bu hozirgi davr pedagogikasida ham e'tirof qiluvchi irsiyat, muhit, tarbiyadir. Ma'lum bir davrda inson kamolotiga irsiyat, muhitning ta'sirini inkor etib, faqat tarbiyani tan oladilar. Lekin Beruniy o'z zamondoshlari – Farobiy, Ibn Sinolar kabi inson kamolotida har uchalasini ham muhim deb hisoblaydi. Ya'ni, u insonning kamolotga yetishida ilmu ma'rifat, san'at va amaliyot asosiy rol o'ynasada, nasl-nasab, ijtimoiy muhit va ijtimoiy turmush qonuniyatlari ham katta ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydi. Beruniy nazarida inson kamolga yetishning eng muhim omillari ilm-ma'rifatli bo'lishi va yuksak axloqlikdir. Beruniy ilmiy bilimga oid, ta'lif metodlari haqidagi qarashlari bilan ta'lif nazariyasida o'ziga xos maktab yaratadi. Beruniyning ham tabiiy, ham ijtimoiy fanlarni qamrab olgan 150 dan ortiq asari mavjuddir.

Abu Ali Ibn Sino – sharqning ulkan qomusiy allomasi, jahon ilmi va madaniyatining eng mashhur namoyondalaridan biridir. Ibn Sino o'rta asr fanining turli sohalari falsafa, tibbiyot tabiatshunoslik, badiiy adabiyot bo'yicha yozgan asarlari bilan o'chmas iz qoldirgan, u o'z davrida "Olimlar raisi" unvoni bilan taqdirlandi. Uning yirik asarlariga

quyidagilarni kiritish mumkin “Tib qonunlari”, “Ash-shifo”, “Al-Qonun”, “Al-Najot”, “Donishnoma” va boshqalar.

Ibn Sino o‘zining ta’lim-tarbiyaga oid qarashlarini ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan bog‘liq holda ifodalagan va maxsus risolalarda talqin qilgan. Shuningdek fanlarni tasnif etadi. Bunda u birinchi o‘ringa tibbiyot fanlarni qo‘yadi.

Ibn Sino bilim olishda bolalarni maktabda o‘qitish zarurligini qayd etar ekan, ta’limda quyidagi tomonlarga rioya qilish zarurligini ta’kidlaydi:

- bolaga bilim berishda birdaniga kitobga band qilib qo‘ymaslik;
- ta’limda yengildan og‘irga borish orqali bilim berish;
- o‘qitishda jamoa bo‘lib maktabda o‘qitishga e’tibor berish;
- bilim berishda bolalarning qiziqishi va qobiliyatini hisobga olish;
- o‘qitishni jismoniy mashqlar bilan qo‘sib olib borish;

Bu talablar hozirgi davr tamoyillariga ham mos kelishi bilan qimmatlidir.

Ibn Sino o‘qituvchining qanday bo‘lishi kerakligi to‘g‘risida qator fikrlarni bayon etadi. Ular quyidagilardir:

- bolalar bilan muomulada bosiq, jiddiy bo‘lish;
- berilayotgan bilimni talabalar qanday o‘zlashtirib olayotganiga e’tibor berish;
- ta’limda turli metod va shakklardan foydalanish;
- talabaning xotirasi, bilimlarini egallah qobiliyati, shaxsiy xususiyatlarini bilishi;
- fanga qiziqtira olish;
- berilayotgan bilimlarni eng muhimlarini ajratib bera olish;
- bilimlarni talabalarga tushunarli, uning yoshi, aqliy darajasiga mos ravishda berish;
- har bir so‘zning bolalar xissiyotini uyg‘otish darajasida bo‘lishiga erishish zarur, deydi olim.

Ibn Sino ta’limotida bilishda qaysi metodlardan foydalansin u og‘zaki ifodalash, tajribalarini baribir talabada haqiqiy bilim hosil qilish mustaqil, mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantrish, oлган bilimlarini amaliyotga tadbiq eta olish qobiliyatini tarkib toptirish asosiy maqsad bo‘lgan.

Ibn Sino aqliy, axloqiy tarbiya bilan bir qatorda inson kamolotida jismoniy tarbiyaning muhim ahamiyatini ham nazariy, ham amaliy jihatidan tahlil qiladi.

Ibn Sinogacha insonning kamolga yetishida jismoniy tarbiyaning ta’siri haqida bizlarda bir yaxlit ta’limot yaratilmagan edi.

Jismoniy mashqlar, to‘g‘ri ovqatlanish, uyqu, badanni toza tutish, tartibga rioya etish, inson sog‘lig‘ini saqlashda muhim omillardan ekanini ham ilmiy ham amaliy jihatidan asosladi.

Demak, Ibn Sinoning ta’lim-tarbiyaviy qarashlarida insonning ham aqliy, ham ahloqiy, estetik hamda jismoniy tomonidan rivojlanishi uning kamolga yetishining asosiy mezoni sifatida talqin etiladi.

**Buyuk geografik kashfiyotlar bosqichi.** Ushbu bosqichdan boshlab Yevropada fan yana rivojlnana boshladi. Natijada Dunyo ahamiyatiga ega bo‘lgan kashfiyotlar qilindi. 1492-yil Xristofor Kolumb tomonidan Amerika qit’asi ochildi. 1498-yili Vasko-da-Gama boshliq Portugaliya ekspeditsiyasi Afrikani aylanib o‘tib, Yeropadan Hindistonga dengiz yo‘lini ochdi. 1519-1521-yillari Fernan Magellan boshliq Ispaniya ekspeditsiyasi okean bo‘ylab Dunyo aylana sayohatni amalga oshirdi va Yerning sharsimonligini, Yer sharining katta qismi suvlikdan iborat ekanligini amalda isbotladi. 1650-yili Golland olimi B.Vareniy “Umumiy geografiya” nomli asarini bosilib chiqilishi ilmiy geografiyanı rivojlanishi uchun asos bo‘ldi. Mazkur asarda geografiya ikki qismga, ya’ni umumiy va xususiy qismlarga bo‘ladi.

**Ilmiy geografik tadqiqotlar davrida geografiya ta’limining rivojlanishi** XVII asrdan boshlab Yer yuzasi tabiatini o‘rganish bo‘yicha maxsus ekspeditsiyalar uyuştirila boshlandi. Geografik ma’lumotlarni yig‘ilishi va ularni umulashirish asosida yirik ilmiy va amaliy natijalar olindi. XVII asrning o‘rtalarigacha geografiya alohida predmet sifatida o‘qitilmas edi. Geografik bilimlar mamlakatshunoslik kurslari tarkibida berilgan. Buyuk geografik kashfiyotlar va ilmiy geografik tadqiqotlar bosqichi natijalari ta’sirida geografiya faniga bo‘lgan e’tibor kuchaydi. Natijada XVII asrning ikkinchi yarmidan boshlab G‘arbiy Yevropa davlatlari maktablarida geografiya alohida predmet sifatida o‘quv dasturiga kiritildi. XVIII asrdan boshlab esa geografiya barcha maktablarda o‘qitiladigan bo‘ldi. XVIII asrning boshlarida maktablarni ixtisoslashiga ko‘ra geografiyaning ma’lum bir tarmog‘i, masalan, matematik – navigatsiya maktablarida matematik geografiya, boshqlarida esa siyosiy geografiya o‘qitilar edi. Siyosiy geografiya asosan mamlakatlar tavsifidan iborat bo‘lgan. XVIII asrning boshlarida Ya.Gybner (1719) tomonidan “Geografiya va Yer sharini qisqacha tavsifi” nomli darslik nashr qilindi.

XVIII asrning ikkinchi yarmida geografiya o‘qitish metodikasi Gollandiya va Germaniyada rivojlandi. Juda ko‘p darsliklar e’lon qilindi. Amma mazkur darsliklarning mazmuni asosan geografik nomlar, AXBOROT RESURS MARKAZI

OZARKISTON RESPUBLIKASIUY TALIM  
OZARKISTON RESPUBLIKASIUY VAZIRLIGI  
FAKULTATIVSIZALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
AXBOROT RESURS MARKAZI

ma'lumotlar va sonlardan iborat bo'lib, o'quvchilar faoliyati ularni yodlab olishdan iborat edi.

Rossiyada geografiya fanini va uni o'qitish metodikasini rivojlanishida M.V.Lomonosov, X.Chebotaryovlar katta xizmat qilishdi. XVIII asrning ikkinchi yarmida X.Chebotaryov "Rossiya imperiyasini geografik va metodik tavsifi" nomli darsligini nashrdan chiqardi. Mazkur davrda geografiya ikkita sinfda o'qitilgan: III-sinfda umumiy geografiya, IV- sinfda Rossiya geografiyası.

XIX asrning boshlarida Yevropa davlatlari va Rossiyada barcha o'quv muassasalarida geografiya ta'limi joriy qilindi. 7-yillik gimnaziyalarning 3-sinfidan IX-sinfigacha geografiya predmeti o'rganilgan. Geografiya predmeti bo'yicha haftalik soatlar miqdori 14 soatni tashkil qilgan. Mazkur davrda Y.F. Zyablov, K.P.Arsenov darsliklari bo'yicha geografiya predmeti o'rganilgan.

XIX asrning ikkinchi yarmida geografiya ta'limining rivojlanishida K.D. Ushinskiy, D.D.Semenov ishlari muhim o'rinn tutgan. K.D.Ushinskiy geografiya o'qitishni bir necha tamoillarini ishlab chiqdi. D.D.Semenov "Уроки географии" ( Geografiya darslari) nomli darslik yozgan.

XIX asrning oxirida geografiya ta'limini rivojlanishda nemis olimi Oberlenderning metodikasi katta o'rinn tutadi. U "Oberlender geografiya metodikasi" deb nomlangan darslik yozgan. Mazkur darslikda quyidagi metodlar ajratilgan:

➤ analitik – avval Yerni umuman o'rganib so'ngra uni qismlarini o'rganish;

➤ sintetiya – avval alohida joylarni o'rganib so'ngra Yerni butunlay o'rganish;

➤ Konstruktiv – o'quvchilar xarita chizish mobaynida Yer yuzasining asosiy shakllari bilan tanishadi;

➤ bog'lovchi (assotsiativ) – o'rganilayotgan voqealarni va hodisalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarga katta e'tibor beriladi;

➤ guruhlashtiruvchi – bir xil geografik obyekt, hodisa va jarayonlarni guruhlarini qiyoslashga asoslanadi.

XX asrning boshlarida geografiya o'qitish metodikasini rivojlanishida D.N.Anuchin, N.Revskiy, A.Sokolyev, E. Petri, Ya.Rudnev, V.Budanov, S.Arjanov va boshqalarning ishlari katta ahamiyatga ega bo'ladi. Mazkur olimlar tomonidan Oberlender metodikasi yanada takomillashtirildi va rivojlanitirildi.

XX asrning 20-yillardan boshlab Rossiya va hamdo'stlik mamlakatlarda 9-yillik mehnat maktablari tashkil qilindi (1-bosqich I-IV

sinfalar, ikkinchi bosqich V-IX sinflar), natijada geografiya ta'limining maqsadi va mazmuni o'zgaradi. 1921 yil D.N.Anuchin tomonidan yagona geografiya dasturi ishlab chiqildi, bungacha har bir tuman va maktab o'zini dasturiga ega bo'lgan. D. N. Anuchin dasturiga binoan 3-sinfda o'z qishlog'i, shahri, tumani geografiyasi; 4-sinfda mamlakat turli mintaqalarining tabiatini; 5-sinfda "Qit'alar geografiyasi", 6-7-sinflarda Rossiya geografiyasi, 8-sinfda iqtisodiy geografiya, 9-sinfda astronomiya va astrologiya o'qitilgan.

XX asrning 25-30 yillarda geografiya ta'limiga e'tibor yana pasaydi. 1924-yildan maktablar yangi dasturga o'tdi, bu dastur bo'yicha alohida fanlar o'tilmas, balki tabiiy va ijtimoiy fanlar asosi majmuasi o'tilar edi. 1927-28 yildan boshlab geografiya yana alohida fan sifatida o'qitila boshlandi. 1934-yil 15 mayda geografiya fanini o'qitish bo'yicha davlat qarori chiqdi. Unda geografiya o'qitishni sifati o'ta pastligi qattiq tanqid qilindi. Mazkur qarorga muvosiq geografiya fani uch bo'g'inga bo'lib: boshlang'ich 3-sinfda o'z turar joyining tabiiy geografiyasi, 4-sinfda tabiat zonalari, 5-sinfda umumiy tabiiy geografiya, 6-sinfda qit'alar tabiiy geografiyasi, 7-sinfda mamlakat iqtisodiy geografiyasi o'qitila boshlandi, soatlar miqdori ko'paytirildi. "География в школье" jurnalni nashr qilina boshlandi. 1958 yil dekabrda davlat tomonidan maktab haqida qaror qabul qilindi. Unda o'z o'liasi geografiyasini o'rganishga katta e'tibor berildi. Ilmiy tekshirish institutlari tashkil qilindi, ularda geografiya metodikasi laboratoriyalari tashkil etildi.

Geografiya o'qitish metodikasi bo'yicha qator darsliklar A.V.Darinskiy, I.S.Matusov, L.M.Pancheshnikova va boshqalar tomonidan nashr qilindi.

## 2.Xorijda geografiya ta'limi

Keyingi o'n yilliklarda geografiya o'qituvchilarini tayyorlash va ularni malakasini oshirish tizimi ancha yuqori pog'onaga ko'tarildi. Hozirgi kunda geografiya ta'limi jahoning ko'pgina mamlakatlarida uchta yo'nalishda olib borilmoqda:

1. Barcha o'quvchilar uchun yagona o'quv rejasiga va dasturi asosida (Sharqiy Yevropa va hamdo'stlik davlatlarida) o'rganish;

2. Bir necha asosiy fanlar qatorida ayrim kurslarni fakul'tativ tarzda o'rganish (AQSH, Buyuk Britaniya, Kanada, Yevropaning ko'pchilik mamlakatlarida);

3. Barcha o'quvchilar uchun o'rganish majburiy bo'lgan fanlar qatorida qo'shimcha fakul'tativ mashg'ulotlar (Filippin, Fransiya, Yaponiya va ko'pchilik mamlakatlarda) o'tkazish.

Birinchi guruhga kiruvchi mamlakatlarda geografiya ta'limi asosan tabiiy va iqtisodiy geografiya kurslaridan tashkil topgan. Shahar va qishloq joylardagi barcha maktablarda yagona o'quv rejasi asosida o'tkaziladi.

Ikkinci guruh mamlakatlarida geografiya bilimlari maxsus fanlar tarzida emas, balki integratsiya (birikma) tarzida bo'lib, boshqa fanlar tarkibiga qo'shilib ketgan. Bunda geografiyani chuqur o'rganishni xoxlovchilar maxsus fakul'tativ mashg'ulotlar orqaligina o'z bilimlarini oshirish mumkin.

Shu tufayli ham bu guruhdagi davlatlarda geografiya ta'limi bo'yicha yagona davlat rejasi yo'q, har bir o'qituvchi muktab sharoiti nuqtai nazaridan kelib chiqib, o'quv dasturini tuzishi mumkin. Masalan; AQSHda 1700 dan ortiq okrug mavjud bo'lib, ularning barchasida o'ziga xos bo'lgan geografik ta'lim mavjud va bir-biriga o'xshamaydigan dasturlar bo'yicha ish yuritiladi.

Uchunchi guruh mamlakatlarida geografiya majburiy o'rganiladigan fanlar qatoriga kirmaydi va uni fakul'tativ mashg'ulotlar orqali o'rganish asosiy o'rinni egallaydi. Umuman olganda Yevropa va Amerikaning rivojlangan mamlakatlarda barcha o'quvchilar uchun majburiy bo'lgan fanlar qatorida xilma-xil murakkablikdagi fakul'tativ kurslar turi keng tarqalgan.

Jahon tajribasida ush bosqichli ta'lim tizimi asosiy hisoblanadi, ya'ni: boshlang'ich muktab 1-4 sinf, o'rta bosqich 5-9 sinf, yuqori bosqich 10-12 sinf.

Har bir bosqichda geografiya ta'limi o'ziga xos maqsadga ega. Masalan, birinchi bosqich maktablarida geografiya ta'limining asosiy maqsadi atrof-muhtni o'rganish. Ikkinci bosqichda o'z mamlakatining hayotini o'rganish va zarur kasblar haqida ma'lumotlar olish, ta'limiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishdan iborat. Uchinchi bosqichdagagi maktablarda insoniyatning global muammolarini va jahon xo'jaligini o'rganishdan iborat.

Jahon tajribasida geografiya o'qitishning ahvoli muhim emas. Shu tufayli uni o'quvchilarga o'rgatish bo'yicha ikki fikr (yo'nalish) tarafдорлари bor.

Birinchi yo'nalish tarafollarining fikri o'quv rejalarida geografiyani mustaqil fan sifatida muntazam o'qitishni amalgalashish bo'lsa, ikkinchi

yo'nalish tarafдорлари geografiyani boshqa o'quv fanlari bilan integratsiya (birikma) tarzida qo'shib o'qitishni isbotlab berishga urinadilar.

O'quv fanlarini biriktirish borasida AQSH jahonda yetakchi bo'lib, 40-50-yillardagi ta'lim islohatida ko'pgina fanlar qatori geografiya majburiy o'rganiladigan fanlar qatoridan chiqarib tashlandi, tarix va jamiyatshunoslik bilan birlashtirildi. Geografiyani bunday o'qitish o'quvchilarga talay qiyinchiliklarni tug'diradi. Natijada geografiya ta'limining sifati juda pasayib o'quvchilar zarur ko'nikma va malakaga ega bo'lmay qoldilar. Masalan, Michigan universitetining Geografiya fakultetida o'qish uchun ariza bergan 400 o'quvchining yarmi geografiyani faqat boshlang'ich sinflarda o'qiganlari ma'lum bo'ldi. Shu tufayli ham hozirgi kunda AQSHda geografiyani mustaqil fan sifatida tiklash uchun kurash ketayapti.

Jahonning ko'pgina mamlakatlarida fanlarni o'rganish ixtiyoriy bo'lib, o'quvchilar istak hohishlari ostida amalga oshiriladi. Bu guruhga kiruvchi mamlakatlar majburiy fanlar soni 7-8 tadan oshmaydi. Masalan, Finlandiya va Shvetsiyada fin va shved tili, iqtisodiy va sotsologiya, geografiya, kimyo, ingliz tili, din va sport majburiy fan hisoblanadi.

Fin mamlakatlarida 9-yillik majburiy ta'limdan keyin sifisiz gimnaziyalar keng tarqalgan. Bunday gimnaziyalarda o'quvchi yoki o'quvchilar guruhi o'ziga yillik o'quv rejasi tuzadi. Bunday yillik o'quv reja gimnazilarda kurs rahbarlari va ma'muriyat tomonidan tasdiqlanadi.

Gimnaziyada o'quv yili 6 davrga bo'linadi. Har bir davr 6 haftadan iborat bo'lib, kurslar 32 soatdan tashkil topadi. Har bir kursda bittadan fan kuniga bir soatdan o'qitiladi. Gimnazist kuniga 4-7 soat o'qiydi. Sport darslari mashg'ulotdan keyin o'tkaziladi. Har davr yakunida o'quvchilar bilimi baholanadi. Agar o'quvchi qoniqarsiz baho olsa, u shu kursni qaytadan tanlaydi.

Deyarli ko'pchilik mamlakatlarda geografiya ta'limi tizimi davlatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tizimi bilan bog'liq.

Tabiiy va iqtisodiy geografiyani o'rganish asos qilib olingan hamdo'stlik davlatlari va Sharqiy Yevropa mamlakatlarda tabiat va xo'jalikning rivojlanish qonuniyatlarini, jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlar, atrof muhit muammolarini geografiya ta'limining asosini tashkil qiladi.

Rivojlangan davlatlarda geografiya ta'limining mazmuni sifat jihatidan yuqori bo'lib, o'quvchilarda ma'lum ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Bu davlatlarda geografiya ta'limi ko'proq muammolarini, turli nazariya va qonunlarni, kategoriyalarni o'rganishga

bag'ishlangan bo'lib, o'quvchilarga fanni o'zlashtirishda bir mucha qiyinchiliklar tug'diradi.

Rivojlangan g'arb mamlakatlarida geografiya ta'limida ta'limning ruhiy jabhalari asosiy o'rinni egalagan. O'quvchi ruhiyati, uni bilish faoliyatini o'rganishga katta e'tibor beriladi. Geografiya ta'limi tadqiqotlari psixologlar ishtirokisiz deyarli amalga oshirilmaydi.

Geografiya ta'limida turli matnlar, o'yinlar, imitsiya keng qo'llaniladi. Masalan, o'quvchi biror kompaniyani prezidenti sifatida fikrlaydi, ish yuritadi, biror muammoni hal qiladi, o'zi xulosalar chiqaradi. Umuman bunday ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarni kelgusi hayotga, ya'ni ishbilarmonlikka tayyorlashdan iborat.

Turli mamlakatlardagi geografiyadan o'quv darsliklari va qo'llanmalarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ularda bitta kursni o'qish uchun bir necha qo'llanma chiqariladi. Ko'pchilik hollarda ular qiziqarli ma'lumotlarga boy bo'lib, axborot xususiyatiga ega. Bunday qo'llanmalarda matn 20-30 % ni, tasvir 20 % ni, statistika 20 % ni, savol va topshiriqlar 20 % ni tashkil etadi. Kitobdagi tasvirlar nihoyatda sifatli. Quyi sinflar qo'llanmalarida esa deyarli xarita yo'q, ular o'rmini xarita sxemalar egallagan. Matnda raqamli sonlar deyarli uchramaydi, mavjudlari ham taqqoslash harakteriga ega bo'lib, ular eng past, eng yuqori, eng kichik, eng baland, eng uzun kabi tarzlarda berilgan.

Mavzu yoki bo'limdan keyin qo'yiladigan savollar va topshiriqlar mavzu mazmunini aks ettirmasligi ham mumkin. Qo'yiladigan savollarning aksariyati muammoli topshiriqlar, diskussiya savollari, amaliy o'yinlar tarzida berilgan. O'quvchilar uchun chiqarilgan geografiya darsliklarda kompyuterlar bilan ishlash uchun maxsus savollar, qizqarli topshiriqlar, matematik statistika usullari, turli o'yinlar, testlar tarzida geografik bilimlarni egallahga keng o'rin berilgan. O'quvchilar ularni mustaqil bajarishlari jarayonida tadqiqotchi rolini o'ynaydilar.

Angliya geografiya ta'limining kuchli tomonlari quyidagilardan iborat:

➤ ta'limning nazariy tomonlarini kuchaytirish, ya'ni unda hozirgi zamon geografiya tadqiqot metodlarini ko'proq o'rgatish;

➤ geografiya ta'limi jarayonida psixologik-pedagogik tadqiqot metodlaridan unumli foydalanish, o'quvchilarni gipotezalar tuzishga o'rgatish;

➤ darslarda turli mazmundagi eksperimentlar uyuştirish ya'ni tessavur, tushuncha va turli xil qarashlarni shakllantirish metodlariga keng o'rin berilgan;

➤ o'tilayotgan maummoni muallif fikri asosida va unga qarshi asosda o'rganish;

➤ 5-8 sinflarda geografiyaga haftada ikki soat vaqt ajratilgan. Bu sinflarda asosan Yevropa va Yevropadan tashqari mamlakatlar geografiyasi o'rganiladi. Topografiya va kartografiya asoslari bo'yicha ham bilimlar beriladi.

O'qituvchilar diqqatiga bir nechta variantdagi darsliklar tavsiya etiladi. "Mamlakatlar va xalqlar", "Yer va inson", "Yangi geografiya", "Yer bilimi" va h.k.

9-10 sinflarda geografiya mustaqil fan sifatida o'rganilmaydi desa ham bo'ladi. Ayrim yerlardagina qiziquvchi o'quvchilar bilan Yevropa va Germaniya geografiyasi chuqur o'rganiladi. Bu kurslarda mamlakatlar iqtisodi, siyosiy va davlat tuzimiga oid bilimlar yetakchi o'rinni egallaydi. Keyingi paytlarda geografiya, tarix, ijtimoiyogiya, iqtisod bilimlari birlashtirilgan kurslar orqali o'qitishga e'tibor kuchaymoqda.

Gimnaziyada (11-13-sinflar) ayrim joylardagina geografiya qisman mustaqil fan sifatida o'qtiladi. Ba'zi geografik bilimlar birlashtirilgan kurslar turkumidagi fanlarda ham beriladi.

Yuqori sinflarda geografiya fanlarida mujassam muammolarni o'rganishga ko'proq e'tibor beriladi. Masalan, "Insoniyatning ko'payishi", "Ocharchilik muammolari", "Transport muammosi", "Sanoat markazlarida inson hayoti", "Sanoat iqtisodi" va h.k.

Fransiya maktablarida geografiya ta'limi bir mucha yaxshi e'tibor qaratilgan. Geografiya o'qitishning maqsadi va vazifalari juda aniq belgilab qo'yilgan.

Fransiyada geografiya dasturi ikki bosqichli maktablarga mo'ljallangan. Shunisi qiziqki, Fransiyada sinflar tezkari hisob bilan yuritiladi. 1- bosqich maktab 6,5,4,3 (o'quvchilar yoshi 11- 15 yoshgacha). Oliy ma'lumot olish faqat litseylarda amalga oshiriladi.

2-bosqich, 2,1 va bitiruvchi (15-17yosh) sinflardan iborat. Geografiya ta'limi 6-sinfdan boshlanadi, bunda "Umumiy geografiya va Afrika materigi" o'rganiladi. 5- snifda Amerika, Osiyo, Avstraliya, Antarktida, 4-sinfda Yevropa (Fransiyadan tashqari), 3- snifda Fransiya geografiyasi o'qitiladi. Litseyda o'qishni davom ettirish 2,1 va bitiruvchi sinflarga to'g'ri keladi.

2-sinfda geografiya dasturi kollejda olgan (6-5-4-3) bilim va ko'nikmalar chuqurlashtiriladi.

Litseyning birinchi sinfida Fransiya geografiyasi bo'yicha o'quvchilar 2-bosqich maktabida olgan bilimlari chuqurlashtiriladi. Bitiruvchi

sinflarda to'rtta yirik davlat-AQSH, Rossiya, Xitoy, Yaponiya geografiyasi chuqur o'r ganiladi.

Fransiya geografiya darsliklarining ustun tomoni shundaki, ular muammoli qilib yozilgan. Barcha muammolar "inson -tabiat" mazmunidan kelib chiqadi.

Finlandiya maktablarida ham geografiya ta'limi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, geografiya o'qitilishi rivojlangan mamlakatlarga qaranganda birmuncha yuqori pog'onada turadi. Ta'lim ikki bosqichdan iborat: 1- bosqich 9 yillik majburiy ummuta'lim xalq maktabi, 2- bosqich gimnaziyalardan iborat.

Birinchi bosqich maktabda geografiya ta'limi 3-sinfdan boshlanadi va 9-sinfda tugaydi, 3-4 sinfda o'z mamlakati va qo'shni Shimoliy davlatlarni tabiatini va xo'jaligiga oid muammolar beriladi.

Gimnaziyaning birinchi yilda geografiya majburiy fan sifatida o'r ganiladi, boshqa sinflarda esa o'quvchilar xoxishiga ko'ra maxsus kurs sifatida o'rganish mumkin. Finlandiyada o'quv rejasini tez-tez almashtirib turiladi.

Vengriya maktablarida geografiya ta'limi 7-yil davom etadi. 4 yil asosiy (5-8 sinf) va 3 yil (9-10-11 sinf gimnaziyada) darslar haftada 2 soat. Geografiya ta'limi jarayonida 65% vaqt yangi mavzuni bayon qilishga 6% sayohatga, 29% amaliy mashg'ulotlarga ajratiladi. Keyingi paytlarda Vengriya gimnaziyalarida geografiyaga ajratilgan soatlar kamayishi kuzatilmoxda.

Rivojlanayotgan mamlakatlarda xalq maorifiga keyingi yillarda katta e'tibor berilmoqda. Masalan, Osiyoning ko'pgina mamlakatlari 1985 yillargacha xalq ta'limi uchun ajratilgan mablag' 20 barobardan ortiq o'sdi. Ayniqsa Malayziya, Saudiya Arabiston, Iordaniya, Singapur, Janubiy Koreya, Tailand, Suriya, Hindiston, Pokiston, Turkiya kabi mamlakatlarda xalq maorifi rivojlanishi ancha yuqori bo'ldi.

Osiyodagi ko'pchilik mamlakatlarda majburiy ta'lim 5 yildan 10 yilgacha, o'rta maktabda o'qishni davom ettirish 4 yildan 8 yilgacha.

Geografiya o'quv dasturlari ko'pchilik davlatlarda bir xil bo'lib, mamlakatning tabiiy va iqtisodiy geografiyasini o'rganishga bag'ishlanadi.

Keyingi paytlarda rivojlanayotgan mamlakatlarda o'quv dasturlari geografiya darslari mamlakat xalq xo'jaligi ehtiyojini e'tiborga olgan xolda tuzilmoqda va yaratilmoqda.

Chet el davlatlarida geografiya ta'limida eng ko'p qo'llaniladigan usullar quyidagilar hisoblanadi:

1. Evristik suhbat usuli. Bunda asosiy e'tibor o'quvchilarni ko'proq mustaqil bilim olishga, kichik tadqiqotlar qilishga o'rgatishdan iborat. Rasmlar, turli xil xujjatlar, vositalar asosida muammolar va savollar o'quvchilar diqqatiga havola etiladi. Bunday usul ko'proq AQSH, Buyuk Britaniya, Yangi Zillandiya, G'arbiy Yevropa davlatlarida keng tarqalgan.

2. Tarqatma kartochkalar usulida turli chizmalar, jadvallar, xaritalar turlicha xatoliklarga yo'l qo'yib tuziladi va tarqatiladi, o'quvchilar yo'l qo'yilgan o'sha xatolarni mustaqil topishlari talab qilinadi. Turli xil misollar va masalalar yechish ham o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish tufayli ulardan keng qo'llaniladi, o'quvchilarda ishbilarmonlik, uddaburonlik hislatlarini shakllantirish uchun ham ko'proq misol va masalalardan foydalilanadi. Tayyor mahsulotni qayerda sotish, transport harajatlarini aniqlash, mehnat resurslaridan unumli foydalanish kabi misol va masalalar yechishsiz amalgaga oshmaydi.

3. Matnlar, ya'ni javoblar to'g'ri, noto'g'ri tarzda aralashtirilib berilishi shulardan to'g'risini raqamlar bilan belgilab ajratish keng tarqalgan usullardan hisoblanadi.

4. Statistik manbalar bilan ishslash, kartografik qo'llanmalardan foydalanish, matematik modellashtirishusullari ham keng tarqalgan. Ayniqsa diskussiya, tortishuvlar kapitalistik mamlakatlar geografiya ta'limida keng tarqalgan.

*Tayanch so'z va iboralar: antik davr, o'rta asr, buyuk geografik ishlar, ilmiy geografik ishlar, darslik, o'quv qo'llanma, kartografik qo'llanma, Ya. Gyubner, M.V.Lomonosov, X.Chebotaryov, K.D. Ushinskiy, D.D.Semenov, D.N. Anuchin, Oberlender.*

#### **TALABALARING O'ZLASHTIRGAN BILIMLARINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Birinchi "Geografiya" kitobini qachon va kim tomonidan yaratgan?
2. Qadimgi davlatlarda qaysi olimlar geografiya fanini va o'qitish metodikasini rivojlanirishga katta hissa qo'shgan?
3. O'rta asrlarda geografiyanı va o'qitish metodikasini rivojlanishiga katta hissa qo'shgan olimlarni aniqlang va ularning qilgan ishlari haqida o'rtoqlaringiz bilan fikr almashing.
4. Ilmiy geografik tadqiqotlar davrida o'qitish metodikasi bo'yicha qanday darsliklar yaratilgan?
5. Oberlender geografiya metodikasida qanday metodlar ajratilgan?
6. XX asrda xorijning qaysi davlatlarda geografiya ta'limi yaxshi rivojlandi?
7. Rossiya va O'zbekistonda geografiya fanining o'qitilishi nomli Venn diagrammasi tuzing.

### **III BOB. O'ZBEKISTONDA GEOGRAFIYA TA'LIMINING RIVOJLANISHI**

O'zbekistonda jumladan, O'rta Osiyoda geografiya ta'liming rivojlanishi uzoq tarixga ega. Ma'lumki, o'rta asrlarda geografiya ta'liming markazi sharqqa ko'chgan. Mazkur davr geograflarining asosiy qismini yurtimizdan yetishib chiqqan buyuk o'zbek olimlari tashkil qiladi. Ularga Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Abu Rayhon Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Zahiriddin Muhammad Bobur va boshqalar kiradi.

#### **1. XIX arsnинг oxiri va XX asr boshlarida geografiya ta'liming rivojlanishi**

Mazkur davrda yurtimizda geografiya ta'liming rivojlanishi rus-tuzem maktablarining ochilishi va mazkur maktab o'quvchilar uchun darsliklar va o'quv qo'llanmalari yaratilishi bilan bog'liq. Shu munosabat bilan XIX arsning oxiri va XX asr boshlarida o'zbek tilida juda ko'p darslik va qo'llanmalar chop etildi. Ushbu davrda geografiya fanini rivojlanishi ma'lum bir omillarga bog'liq bo'lgan. Jumladan, Rossiya O'rta Osiyon bosib olgandan so'ng, uni boshqarish uchun rus tilini biladigan mahalliy millat vakillari zarur edi. Ikkinchisi tomonidan, XIX arsning oxirlarida Turkistonda milliy uyg'onish davri boshlandi, ya'ni jadidchilik davrda millat taraqqiyotini yanada jadallashtirish maqsadida yangi usul mакtablari tashkil qilina boshlandi.

Mazkur mакtablarda geografiya fanini o'qitishga alohida e'tibor berilgan. Jadidchilik davrda chop etilgan geografik darsliklar, qo'llanmalar yaratilish tarixi, O.Mo'minov (1986 y), B.Qosimov (1999 y), D.Alimova va D.Rashidova (1998 y), X.Vaxobov va N.Alimova (2001 y) va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

**Jadidchilik harakatida ta'lim va tarbiya.** Toshkentda 1900 yili "Yangi usul" mакtabi ochildi. Mazkur mакtablarda geografiyaga alohida ahamiyat berildi. 1905 yil Samarqanddagi yangi usul mакtablari uchun o'zbek tilida "Turkiston va unga qo'shni mamlakatlar xaritasi" nashr qilinadi. Shundan so'ng o'zbek tilida qator darslik va qo'llanmalar chop etila boshlandi: 1909 yil Fotix Karimning geografiya fani bo'yicha darsligi Orenburgda nashr etiladi. 1914 yilda nashr etilgan Muhammad Amin Karimiyning "Jug'rofiyai riyoziy" (Matematik geografiya) risolasi 4 va 5 sinflar uchun nashr qilindi. 1915 yil "Yer yuzi" darsligi chop etiladi.

O.Mo'minov ma'lumotiga binoan 1870 yildan boshlab o'zbek tilida "Turkiston viloyati" gazetasi nashr qilina boshlandi. Mazkur gazeta sahifalarida geografiyaga oid juda ko'p maqolalar e'lon qilindi. Unda Mahmudxo'ja Behbudiy, Zokirjon Furqat va boshqalarning sayohatnomalari haqidagi ma'lumotlar e'lon qilina boshlandi. Bu esa o'sha davrdagi ziyolilarni dunyoqarashlariga katta ta'sir ko'rsatdi. XIX arsning 80-yillarda Turkistonda "rus-tuzem" mакtablari tashkil qilinishi boshlandi. Mazkur mакtablar uchun nemis olimi A.Geykiyning "Yer xususidagi ilmdan olingan so'zlar" nomli kitobi 1899 va 1901 yillari nashr etildi. 1910 yildan so'ng rus-tuzem mакtablarining 3 va 4 sinflar uchun haftasiga 4 soat geografiya darsi o'quv rejasiga kiritilgan, bu esa boshqa fanlarga nisbatan ancha ko'p edi.

Jadidchilik davrda geografiyanı o'qitishga alohida e'tibor qaratildi ("Jadid" so'zi arabcha so'z bo'lib, "yangi", "jadidchilik" esa yangilik tarafdoरlari degan ma'noni bildiradi). XIX asr oxiri – XX arsning boshlarida Turkistonda chor mustamlakachiligining kuchayishi natijasida o'lkada jadidchilik harakatining vujudga kelishiga sabab bo'ldi. Jadidlar Misr, Turkiya, Kavkaz, Turkiston va boshqa o'lkalarda siyosiy oqim sifatida yuzaga keldi. Jadidlar o'z davrining eng ilg'or kishilaridir. Bu kishilar jamiyatning qaysi tabaqasiga mansubligidan qat'iy nazar, yangilik, taraqqiyot, ma'rifat va madaniyat tarafdoi bo'lib chiqdilar.

Turkistonlik jadidlar ona Vatanlarini mustaqil, ozod holda ko'rishni o'zlarining bosh maqsadlari deb bildilar. Jadidchilik nomoyondalari milliy ozodlik kurashida quroq kuchi bilan muvoffaqiyat qozonib bo'lmaslini bitishar. Shu bois ular milliy istibdodga tushib qolishlarining sabablarini tahlil qilib, bularning tub ildizlarini yo'q qilib tashlash lozimligini anglab yetdilar. Natijada jadidlarining "hamma narsadan oldin xalqqa ma'rifat berish lozim" degan g'oyasi yuzaga keldi. Jadidlar 1906 yildayoq "Taraqqiyot" deb nomlangan gazeta nashr ettirib, o'z g'oyalarini tarqata boshladilar. Turkistonning turli shaharlarida jadid mакtablari ochilib, ularda diniy ilmlar bilan birgalikda dunyoviy bilimlar jumladan tabiat haqidagi bilimlar ham targ'ib qilina boshlandi. Jadidlar uchun ilm va ma'rifat yagona quroq bo'lib, ular shu quroq yordamida o'lkada ijtimoiy – iqtisodiy va madaniy taraqqiyot uchun kurashmoqchi bo'ldilar. Jadidlar o'z ezgu orzularini, faqat mакtab, ma'orif va ta'lim tarbiyani to'g'ri yo'liga qo'yish, uni rivojlantirish bilangina amalga oshirish mumkin, deb bildilar.

Jadidlar ma'rifati haqida gap ketganda dastlab Qirimlik Ismoil Gaspirinskiyni tilga olish kerak. U Rossiya musulmonlari orasida birinchi

bo‘lib “Maktabi usuli jadida” ya’ni “Yangi usul maktabi”ga asos soldi. Ismoil Gaspirinskiy taklif etgan

“Usuli jadid” maktabining tuzilishi, darslarning tashkil qilinishi, o‘qitish metodikasi, nazorat turlari ko‘p jihatdan Yevropa ta’lim tizimiga yaqin bo‘lgan. U madrasalarni isloh qilish, dunyoviy fanlarni o‘qitish masalalarini ko‘tardi. Jumladan, diniy fanlar bilan birga tibbiyat, kimyo kabi fanlarni o‘rganish zarurligi haqida so‘z yuritadi. I.Gaspirinskiy yangi usulni targ‘ib qilish, jadid maktablarini tashkil ettirish uchun turli joylarga safar qiladi. Turkistonda ham 2 marta bo‘lib, mahalliy xalq yordamida, dastlabki yangi usul maktablari ochishga muvaffaq bo‘ldi.

Markaziy Osiyo jadidchiligi haqida gap ketganda buni Behbudiy, Munavvar qori, Shakuriy, Fitrat, A.Avloniy kabi o‘nlab ma’rifatparvar ilm darg‘alarning faoliyatjisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi.

Ushbu davrda eng mashhur allomalardan biri Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkistonda jadidlar harakati asoschilaridan bo‘lib, jahonga mashhur bo‘lgan geograf, atoqli jamoat arbobi, buyuk islamshunos, pedagog olimdir. Uning tomonidan “Yangi usul maktablari” uchun “Turkiston xaritasi”, “Muntahabi jug‘rofiyai umumiyy”(qisqacha umumiyy geografiya), “Madhali jug‘rofiyaiy imroniy”(Aholi geografiyasiga kirish), “Muxtasari jug‘rofiyaiy Rusiy” (Rusyaning qisqacha geografiyasi) darsliklari va qator sayohatnomalar e’lon qilingan. Ushbu darslikda geografiya haqida keng va tushunarli ma’lumotlar berilgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiyning “Kitobi muntahabi jug‘rofiyai umumiyy va namunai jug‘rofiya” darsligi 1905 yili 24 avgustda Sankt-Peterburg senzurasidan ruhsat olinib, 1906 yil Samarcandda chop etilgan va 106 sahifadan iborat bo‘lgan. Darslik adibning tanlangan asarlarining (1999 y) kirish qismida geografik nuqtai nazardan juda yaxshi va har tomonlama tahlil qilingan. Darslikning muhim va ilmiy metodik jihatlaridan biri u Turkiston nuqtai nazardan, Turkiston aholisining bilim saviyasi nuqtai nazardan yozilganidir. Darslikdagi har bir mavzu yoritilganda Turkistonning tabiatni, xo‘jaligi, aholisiga oid albatta misol keltiriladi yoki mazkur bilimlar Turkiston haqidagi bilimlar, turkistonliklar bilimi bilan solishtirildi. Demak, Mahmudxo‘ja Behbudiyning darsliklarida o‘lkashunoslik ma’lumotlaridan foydalanish va yosh avlodga vatanga nisbatan muhabbat tushunchalarini shakllantirishni asoschilaridan biri deyishga to‘la asosimiz bor. Chunki, ushbu darslikda umumduyoviy bilimlar o‘lkashunoslik bilimlari bilan chambarchas bog‘langan holda berilgan. Bundan tashqari darslikda asrimiz boshlaridagi Turkistonda

dunyoviy bilimlarni o‘qitish xolati va ommaning hamda ulamolarning bilim darajasiga ham aniq va haqqoniy baho berilgan.

“Kitobi muntahabi jug‘rofiyai umumiyy va namunai jug‘rofiya” darsligining mazmuni quyidagidan iborat: kirish; “jug‘rofiya” degan so‘zning ma’nosi; jug‘rofiya qachon paydo bo‘lgan; Turkistonlik donishmandlar; jug‘rofiyani o‘qimoqni nafi; jug‘rofiyani o‘qimoq musulmonlarga lozimdir; eski va yangi donishmandlar; yangi muhokamani so‘zidan namuna; Yer aylanganda ustidagilar yiqilmasligi; atrof; jixoyati asliya; xarita; plan; xukumat va xukumronlar; din va odat; o‘lchak masshtab; Amriqoning topilishi; tavsil va tabix.

“Geografiya” so‘zing ma’nosini Mahmudho‘ja Behbudiy ta’rifi bo‘yicha “Yer va tuprog‘ni bayon qilaturg‘on ilimni aytadur”. Darslikda geografiyani quyidagi tarmog‘lari ajratiladi: “Matematik geografiya” (Jug‘rofiyai riyoziy), Tabiiy geografiya (Jug‘rofiyai tabiiy), Tarixiy geografiya (Jug‘rofiyai tarixiy), Siyosiy geografiya (Jug‘rofiyai siyosiy) va h.k. lar. Xulosa qilib adib geografiyani dunyo va undagi tabiiy va ijtimoiy hodisalar haqida bilim beradigan jahonnomadur deb ta’rif beradi.

“Geografiya qachon paydo bo‘lgan” qismida geografiyaning qisqacha rivojlanish tarixi quyidagi bosqichlarga bo‘linib yoritiladi: qadimgi, o‘rta asrlar, buyuk geografik kashfiyotlar va hozirgi bosqich. Har bir bosqichda geografik bilimlarning rivojlanishi chuqur tahlil qilingan.

“Turkiston donishmandlari” bo‘limida Turkistonlik allomalarning geografiya faniga qo‘sghan hissasi yoritilgan. Mazkur bo‘limda Turkiston tarixida tilga olinmagan allomalarning nomlari ham uchraydi.

“Jug‘rofiyani o‘rganmoqni nafi” bo‘limida geografik bilimlarini kundalik hayotda va ta’limda naqadar ahamiyatli ekanligini misollar bilan yoritib berilgan.

“Jug‘rofiyani o‘rganmoq musulmonlarga lozimdir” bo‘limida musulmon allomalari asariga tayangan xolda musulmonlar uchun geografik bilimlarni ahamiyatli ochiib berilgan.

“Atrof, Jixoyati Asliya; Xarita; Plan” bo‘limida ufq va ufqning asosiy va oraliq tomonlari, xarita va plan haqida bilimlar tizimi berilgan. Xaritaning Behbudiy “xaritai umumiya, xaritai xususiy, xaritai to‘pugrafik” (umumiyy, mavzuli, topografik) kabi turlarga ajratgan, ular hozirgi turlarga mos keladi.

“Xukumat va xukumronlar” bo‘limida davlatlarni boshqarishning turlari keltirilgan bo‘lib, mazkur turlar hozirgi turlarga diyarli mos keladi.

“Din va odat” bo‘limida din geografiyasi, aholi geografiyasi haqida to‘xtalib o‘tilgan. Xulosa qilib aytganda, mazkur darslik juda katta amaliy

va ilmiy ahamiyatga ega. U o‘lka geografiyasini rivojlanishida juda muhim, har bir bo‘limi alohida tafsinga sazovar bo‘lgan asardir.

Munavvar qori Abdurashidxon o‘g‘li XX asrning birinchi choragida faqat Turkistondagida emas, Rossiya musulmon ziyorilari orasida ham mashhur edi. Jamoatchilik uni yangi usul maktablari asoschisi, mohir muallim, darslik va o‘quv kitoblari muallifi, jamoat arbobi sifatida hurmat bilan tilga olardi.

Munavvar qori Toshkentda “usuli savtiya” maktabini ochadi. U maktabni avval o‘z hovlisida, keyin boshqa joylarda ochishga harakat qildi. U maktabni isloh qilmay turib, odamlarning ongida o‘zgarish yasab bo‘lmasligini yaxshi tushunib yetgan edi.

Munavvar qori yoshlarni chet elga yuborishni, u yerda ilm fanni o‘rganishni targ‘ib qiladi. U 1916 yili Toshkentda yig‘ilishda nutq so‘zlab shunday deydi: “O‘zbek ziyorliy bolalarining Germaniyaga borib o‘qitishga juda muhtojmiz, bolalar o‘qib, ilm tahsil olib kelsalar, millatga katta xizmat qila oladilar”. Munavvar qori fors, arab, rus, turk tillarini mukammal bilgan. Munavvar qori 1917 yil may oyida taraqqiyarvar musulmon yoshlari va ruhoniylar ishtirokida o‘tgan quriltoydagi “Sho‘roi islomiya” jamiyatni raisini muovini etib saylanadi. Natijada ilg‘or fikrli kishilar uning atrofida to‘plana boshlaydi. U 1918 yil may oyida Toshkent shahrida “Turk o‘chog‘i” ilmiy madaniy jamiyatini tuzadi. U insonning ma‘rifatli bo‘lib, ko‘zi ochilmaguncha na o‘zini, na xalqining erkini muhofaza qila olishini, bu iymonsiz ekanini mutafakkirona noziklik bilan o‘z asarlarida ifoda etadi.

Abdulla Avloniy 1907-yilda Toshkentning Mirobod mahallasida, keyinchalik Degrez mahallasida yangi usuldagagi maktablar ochdi. Xadrada “Maktab kutubxonasi” nomli kitob do‘konasi ochdi. Avloniyning maktabi o‘z oldiga qo‘yan maqsad va vazifalariga mashg‘ulotlarni sinf – dars tizimi asosida o‘z ona tilida olib borilishi bilan eski usul maktablaridan farq qilar edi. U o‘z maktablarida bolalarga tabiat, geografiya, tarix, adabiyot, til, hisob kabi fanlardan ma’lumotlar berar edi.

A. Avloniy “Usuli jadid” maktablari uchun to‘rt qismdan iborat “Adabiyot yoxud milliy she’rlar”, “Birinchi muallim”, “Turkiy guliston yoxud ahloq”, “Ikkinchi muallim”, “Maktab gulistoni” kabi darslik va o‘qish kitoblari yaratdi. Bu asarlarida dunyo xalqlari asarlarini ulug‘lab, o‘z xalqini dunyoviy ilmlarni egallahsga, madaniyatli va ma‘rifatli bo‘lishsga chaqiradi.

U bolalarda fikrlash qobiliyatini o‘stirish va bu tarbiya bilan muntazam shug‘ullanishi benihoyat zarur va muqaddas bir vazifa deb

biladi. Binobarin, u ushbu vazifani muallimlarning “diqqatlariga suyangan, vijdonlariga yuklangan muqaddas bir vazifadir. Negaki fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog‘liqdir” deb ta‘kidlaydi. A. Avloniy ilmning jamiyat taraqqiyotidagi rolini tushunardi. Shuning uchun yoshlarni ilm sirlarini bilishga, ayniqsa tabiiy fanlarni bilishga chaqiradi. Chunki bu fanlar tabiatda bo‘lgan hodisalarini mohiyatini yechishga imkon beradi. Yoshlarni kitob mutoala qilishga chaqiradi. Uning fikricha, “ilm agar jamiyat manfatiga xizmat qilmasa, xalq farovonligi yo‘lida qo‘llanmasa, u o‘likdir”. A. Avloniy o‘z ilmini amalda qo‘llay oladigan kishilarga yuksak baho beradi, ularni *dono insonlar*, deb biladi.

Abdurauf Fitrat XX asr boshlarida Vatan mustaqilligi va millat farovonligi uchun kurashgan jadidchilik harakati namoyondalaridan biri, u yirik olim, davlat va siyosat arbobi, mohir pedagog va buyuk ma‘rifatparvardir. Fitrat o‘zbek olimlari ichida birinchi bo‘lib, o‘scha davrda professor unvoniga ega bo‘lgan olimdir. Fitrat o‘z asarlarida ta‘lim-tarbiya va uning maqsadlari, maktab-maorif ishlari, bilim berish usullari va vositalari haqida, ma‘rifatli insonlarni tarbiyalash yo‘llari haqida to‘xtalgan. Fitrat yoshlarni chet tillarni o‘rganishga da‘vat etgan. U mamlakatni rivojlanishi uchun chet ellar fani, madaniyatidan habardor bo‘lishi lozim deb bilardi. U xalq maorifi noziri bo‘lgan davrda talabalarni Germaniya, Turkiyaga u yerdagi ilg‘or Yevropa ilm-fan, tabobat, texnika sirlarini o‘rganish uchun yuborish tashkilotchilaridan biri bo‘ldi. Fitrat insonning kamolotga yetishish uchun badan tarbiya muhim ahamiyatga ega ekanligini aytilib, insonning butun a’zosi salomat va quvvatga ega bo‘lmasa, unday inson uzoq yashamasligini qayd qiladi.

Jadidlarning ta‘lim-tarbiya haqidagi qarashlari va harakatlarini natijasida O‘rta Osiyoda, jumladan O‘zbekistonda dunyoviy ilmlar, tabiat fanlari, fan-texnika, tabobatga oid ilmlarni rivojlanishiga turki bo‘ldi. Jadidlarning ta‘lim-tarbiya to‘g‘risidagi qarashlari shu bilan harakterlik, ular ajodolarimizning bu boradagi qimmatli ilg‘or fikrlarini zamонавији qarashlar bilan uyg‘unlashtirdilar.

### 1.1. XX arsda O‘zbekistonda geografiya ta‘limining rivojlanishi

XX asrning 90 yillarigacha O‘zbekiston davlati Sobiq Ittifoq tarkibida bo‘lgan, shuning uchun geografiya ta‘limining ushbu davrda rivojlanishi ma‘lum bir ma’muriy va siyosiy qoliplarda olib borilgan. Mazkur davrda geografiya ta‘limining rivojlanishi O. Mo‘minov (1986 y) tomonidan to‘la

va har tomonlama o'rganilgan va quyidagicha davrlarga ajratilgan: geografiya ta'limini tashkil qilish davri; geografiya ta'limining tartibga solish davri; geografiya ta'limini hayot bilan bog'lanish davri; geografiya ta'limini takomillashuvi davri.

**O'zbekistonda geografiya ta'limini tashkil etish davri (1918-1934 yil).** Ushbu davrning boshlarida geografiya ta'limida yagona o'quv dasturi mavjud bo'lmagan, har maktab, tuman va shahar o'zining o'quv dasturini ishlab chiqar edi. Masalan, 1920 yili Toshkent eski shahar ma'orif bo'limi tomonidan mahalliy sharoitni hisobga olgan xolda birinchi bosqich maktablari uchun geografiya fanidan o'quv dasturini nashrdan chiqardi. Dastlabki umumdavlat o'quv dasturi geografiya predmeti bo'yicha D.N.Anuchin rahbarligida A.A.Borzov va S.V.Chefranov tomonidan ishlab chiqildi. Mazkur o'quv dasturi asosida Turkiston xalq ma'orif komissariyati geografiya fanidan o'quv dasturini ishlab chiqdi. 1923-1924 yillardan boshlab mehnat maktablari uchun kompleks dasturlar ishlab chiqildi. 1925-1930 yillarda "O'zbekiston sho'rolar jumhuriyatining birlik asosidagi mehnat maktablari uchun dastur", "Birinchi va ikkinchi bosqich maktablari uchun dastur", "Ikkinchi bosqich maktablari uchun jug'rofiya dasturi" va "O'zbekiston birinchi bosqich maktablarining dasturlari" kabi bir necha kompleks dasturlar nashr etildi.

1934 yil 5 sentyabrda "Boshlang'ich va o'rta maktablar to'g'risida" davlat qarori chiqdi. Mazkur qaror muktab geografiyasini rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'ldi. Ushbu dasturlarda o'lkashunoslikni o'rganishga katta ahamiyat berilgan. Ammo mazkur dasturlarning salbiy tomoni mavjud bo'lib, dasturga muvofiq barcha tabiiy geografik kurslar 5-sinfdan, iqtisodiy geografiya kurslari esa 6-7 sinflarda o'rganilar edi. Bu esa geografiya kurslari mazmunini juda ham qisqarishiga olib keldi.

1935 yil 25 avgustda "Boshlang'ich va o'rta maktablarni dasturlari va o'quv rejalarini" haqida yangi qaror chiqdi. Ushbu qarorda mavjud dasturlar juda murakkab bo'lib ketganligi qattiq tanqid ostiga olindi. Natijada dasturlardan ortiqcha materialllar olib tashlandi. Shundan so'ng geografiya dasturlari qaytadan ishlab chiqildi. Geografiya predmetlarini soatlari ko'paydi. Iqtisodiy geografiya kurslari 1,5 yil o'tiladigan bo'ldi.

Maktablarda o'quv ishlarini tashkil qilish bo'yicha ham ko'rsatmalar berildi, dars o'quv mashg'ulotlarining asosiy va muhim sharti sifatida qaytadan tiklandi. Ushbu davrda geografiya ta'limini asosiy shartlaridan biri bo'lgan darsliklar va o'quv qo'llanmalari yaratish hamda kadrlar tayyorlash milliy dasturi bo'yicha sezilarli ishlar qilindi. Mazkur davrda

nashr qilingan darslik va o'quv qo'llanmalarni O.Mo'minov (1986 y) quyidagi qismga bo'ladi:

- rus tilidan o'zbek tiliga tarjima qilingan darsliklar. Bunday darsliklarga "Boshlanma geografiya" (A.Kruber va boshqalar darsligining tarjimasi), "Turkiston", "Boshlang'ich jug'rofiya saboqligi" (G.I.Ivanov) va boshqalar. Mazkur davrda nemis olimi A.Geykining "Tabiiy jug'rofiya" darsligi (1925 y);

- rus tilidan erkin tarjima qilingan darsliklar: "Boshlang'ich jug'rofiya" (G.I.Ivanov);

- O'zbekistonda nashr qilingan darsliklar: "O'zbekiston va unga qo'shni jumhuriyatlar hamda viloyatlar" (N.Balashov, 1925 y), "Jug'rofiya" (N.P.Arhangelskiy, 1933 y), "O'zbekiston sotsalistik sho'rolar jo'g'rofiyasi" (L.Obizov, 1934 y) va b.lar.

Geografiya ta'limi sohasida ishlar juda kam bajarilgan. Faqat 1933 yilda nashr qilingan. N.I.Leonovning "Jug'rofiya metodikasi bo'yicha ocherklar" metodik qo'llanmasi mavjud edi. Bunday tashqari mazkur davrda ma'orif sohasida qator ilmiy jurnallar nashr qilina boshlandi, ularda geografiya ta'limi bo'yicha ma'lumotlar muntazam berib turilgan: "Maorif" (1918 yildan), "Maorif va o'qituvchi" (1925 yil) jurnallari, "Madaniy inqilob"- "O'qituvchilar gazetasi" 1931 yildan nashr qilina boshlandi.

**O'zbekistonda geografiya ta'limini tartibga solish davri.** Mazkur davrda geografiya ta'limini rivojlanishida 1934 yil 16 mayda chiqqan "Boshlang'ich va o'rta maktabda geografiya o'qitilishi to'g'risida" nomli qarori katta ahamiyatga ega bo'ldi. Mazkur qarorda har bir sinfda geografiya predmetini o'qitish bo'yicha tavsiyalar berilgan:

- III va IV sinflarda geografik nomlarni mustahkam o'rganishga katta etibor berilgan;

- V sinf asosan tabiiy geografiya bo'yicha berilgan bilimlar berilishi va dastur o'quvchilarning yoshini hisobga olgan xolda soddalashtirilishi ko'rsatilgan;

- VI sinf o'quv dasturida qit'alar tabiiy geografik sharoitini o'rganishga e'tibor kuchaytirilgan;

- VII sinf dasturida mamlakatning umumiyl tabiiy geografik tavsifi qoldirilishi va o'quv materialining osonlashtirilish, har bir sobiq ittifoq respublikasining geografik tavsifi kiritilishi ko'rsatilgan. Mazkur qarordan so'ng geografiya predmetiga ajratilgan soatlar hajmi 15 soatga yetkazildi.

Ushbu bosqichda yangi dastur asosida qator o'quv qo'llanmalari va darsliklar tayyorlandi va nashr qilindi. 1936 yil 5-sinf uchun A.S.Barkov

va A.A.Polovinkinlarning “Tabiiy jug‘rofiya”, 6-sinf uchun. G.I.Ivanovning “Dunyo qit‘alari tabiiy geografiyasi”, 7-sinf uchun N.N.Baranskiy “SSSR tabiiy jug‘rofiyasi” (1-qism), S.B. Chefranov “SSSR tabiiy jug‘rifiyasi” (2-qism), 8-sinf uchun N.N.Baranskiy “SSSR iqtisodiy geografiyasi”, I.A.Vitver 9-sinflar uchun “Kapitalistik mamlakatlar iqtisodiy jug‘rofiyasi” darsliklari nashr qilindi.

Ushbu bosqichda maktablar uchun atlaslar va metodik qo‘llanmalar nashr qilindi va ular o‘zbek tiliga tarjima qilindi. 1939 yili N.P.Arhangelskiy tomonidan “Boshlang‘ich maktablarda jug‘rofiyadan ko‘rsatmalar” va F.A.Ushinov tomonidan “Geografik materiallar” nomli metodik ishlari nashr qilindi.

Geografik atamalar sohasida ham qator qo‘llanmalar nashr qilindi: 1935 yil O.Ibrohimov “Geografiya atamalari”, 1940 yil M.X.Bektemirov va S.Saydrasulovlar tomonidan “Qisqacha ruscha-o‘zbekcha geografiya terminlari lug‘ati” nashr qilindi.

**Geografiya ta’limining hayot bilan bog‘lash bosqichi.** 1958 yil 12 noyabrda qabul qilingan qonunga muofiq maktab o‘quvchilarini hayotga tayyorlash vazifasiga katta e’tibor berildi. Shuning uchun ushbu davrda geografiya fanining boshlang‘ich va umumta’lim maktablarida o‘qitish hayot bilan bog‘langan xolda olib borila boshlandi. Su munosabat bilan maktab geografiya darsliklari qaytadan ishlab chiqildi va nashr qilindi. Natijada ayrim kurslar ikkita sinfda o‘qitiladigan bo‘lib qoldi. Masalan, “Dunyo qit‘alari tabiiy geografiyasi” VI va VII sinflarda, “SSSR geografiyasi” VII va VIII sinflarda o‘rganiladigan bo‘ldi. Bu esa olingan bilimlarni umumlashgan xolda xulosalashni qiyinlashtirib qo‘ydi.

Ushbu davrda mayjud darslikning mazmuni va tuzilishi o‘zgardi, o‘qitish metodikasi bo‘yicha qo‘llanmalar nashr qilindi: N.F.Kurazovning “Geografiya o‘qitish metodikasi”(1952 y), V.P.Budanovning “Tabiiy geografiya o‘qitish metodikasi” nashr qilindi.

**O‘zbekiston maktaklarida geografiya ta’limini takomillashuvi.** 1966 yil 10 noyabrda “O‘rtta umumiyligi ta’lim maktablarining ishini yanada yaxshilash choralarini to‘g‘risida” davlat qarori qabul qilindi. Qarorga muvofiq geografiya ta’limini yaxshilash bo‘yicha komissiya tuzildi. Mazkur komissiya tavsiyasiga binoan maktab geografiya kurslari sinflar bo‘yicha quyidagicha taqsimlangan: II sinfda Tabiatshunoslik kursi-35 soat; III-sinfda Tabiatshunoslik kursi-70 soat; IV-sinfda Tabiatshunoslik kursi 70-soat; V-sinfda Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi-70 soat; VI-sinfda Materiklar geografiyasi -105 soat; VII-sinf SSSR tabiiy geografiyasi

-70 soat; VIII-sinf SSSR iqtisodiy geografiyasi-70 soat; IX-sinfda Chet el mamlakatlar iqtisodiy geografiyasi-70 soat;

O‘zbekistonda geografiya o‘qitish metodikasi sohasida XX - arsnинг oxiri va mustaqillik yillarda yirik olimlar yetishib chiqdi. Geografiya o‘qitish metodikasi sohasida O.Mo‘minov, P.Baratov, H.Vaxobov, R.Qurban niyozov, P.Musaev, P.G‘ulomov, G.Pardaev va boshqalar katta ishlarni amalgalash oshi rishgan.

Umumta’lim maktablari uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalari tayyorlashda N.Dolimov, O.Mo‘minov, T. Abdullayeva, P.Musaev, P.G‘ulomov, X.Vaxobov, A.Qayumov, P.Baratov, M.Mamatqulov, A.Abdulqosimov, R.Qurban niyozov, A.Soatov va boshqalarining xizmati katta.

Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik va o‘quv qo‘llanmalari P.Baratov, X.Vaxobov, M.Mamatqulov, A.Rafiqov, G.Asanov, M.Nabixonov, I.Safarov, G.Pardaev, A.Nizomov, A.Xodjimatov, N.Alimqulov, N.Sultanova va boshqalar tomonidan yaratilgan.

## 2. O‘zbekistonda kadrlar tayyorlash milliy dasturi

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng umumiyligi ta’lim-tarbiya sohasini isloh qilish zaruriyati tug‘ildi. Ayrim o‘quv fanlari dars tizimidan chiqarib tashlandi, ayrimlarining mazmuni o‘zgartirildi, ayrim fanlar yangidan yaratilib o‘quv tizimiga joriy qilindi.

Maktab geografiya ta’limi sohasida ham muhim o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Umumiyligi ta’lim maktablarida “SSSR tabiiy geografiyasi” (8-sinf) va “SSSR iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” (9-sinf) o‘quv kurslari dasturdan olib tashlandi.

Umumiyligi majburiy ta’lim 9-yilga o‘tkazilgani musosabati bilan ayrim o‘quv kurslari o‘rganiladigan sinflar o‘zgardi. 5-sinfga yangi “Tabiiyot” kursi kiritildi. Ammo mazkur kurs o‘zlashtirish qiyin bo‘lganligi, hamda unda tabiiy geografiya va boshqa fanlardagi bilimlar qaytarilganligi tufayli 1999 yil o‘quv dasturidan olib tashlandi.

“Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi”, “Materik va okeanlar tabiiy geografiyasi” kursi bilan qo‘sib 6-sinfda o‘tiladigan bo‘ldi, ammo bu ham o‘zini oqlamadi. Natijada yangi dastur (1999 yil) bo‘yicha yana 5-sinfda “Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi” o‘qitiladigan bo‘ldi. Bundan tashqari O‘zbekiston va Turkiston hududidan tashqari ilgari sobiq “SSSR tabiiy geografiyasi”da o‘rganiladigan tabiiy geografik o‘lkalar “Materik

va okeanlar tabiiy geografiyasi” kursida o’tkazildi va mazkur kirsda o’qitiladigan bo’ldi.

O’quv dasturiga tamoman yangi “Turkiston tabiiy geografiyasi” kursi kiritildi (7-sinflar uchun).

9-sinfda o’qitiladigan “Jahonning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” kursida ham o’zgarishlar sodir bo’ldi. Endi O’zbekiston Respublikasidan tashqari hamma davlatlar shu kursda o’rganiladi.

Yangi dasturga muofiq tayanch majburiy ta’limga moslangan geografiya kurslarining sinflar bo'yicha taqsimoti quyidagicha:

- 5-sinfda “Tabiiy geografiya”, boshlang’ich kursi ;
- 6-sinfda “Materik va okeanlar tabiiy geografiyasi” ;
- 7-sinfda: birinchi yarim yillikda “Turkiston tabiiy geografiyasi” (hozirda O’rta Osiyo tabiiy geografiyasi), ikkinchi yarim yillikda “O’zbekiston tabiiy geografiyasi”;
- 8-sinfda “O’zbekiston ijtimoiy va iqtisodiy geografiyasi”;
- 9- sinfda “Jahon iqtisodiy-ijtimoiygeografiyasi”.

Har qanday davlatning kelajaini, buyukligini va quadratini yuksak darajada bilimga ega bo’lgan kadrlar belgilab beradi. Bunday kadrlarning yetishtirish uchun esa davlatning ta’lim tizimi yuqori darajada takomillashtirish va xalqaro standartlar talabiga javob beradigan darajada bo’lishi kerak.

O’zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov Oliy Majlisning 9-sessiyasida (30.08.97) mazkur muammo to’g’risida shunday degan edi “Har qaysi millat nafaqat yer osti va yer usti tabiiy boyliklari bilan, harbiy quadrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, balki birinchi navbatda o’zining yuksak madaniyati va ma’naviyati bilan kuchlidir”.

1997 yil avgustda Oliy Majlisda ko’rilgan ta’lim qonuni O’zbekiston ta’lim tizimining takomillashtirish va barkomol avlodni tarbiyalash sohasidagi qo’ygan qadamlarining eng yirigidir.

O’zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimovning ta’lim to’g’risidagi qonun bo'yicha O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 9- sessiyasida so’zlagan nutqini quyidagi qismlargacha bo’lish mumkin:

1. O’zbekiston mustaqillikka erishgandan so’ng o’rta va oliy ta’limda erishilgan yutuqlar tahlili.
2. Hozirgi ta’lim tizimining hayot talablariga javob bermasligining asosiy sabablarini tahlili.
3. Oliy ta’lim islohotining asosiy yo’nalishlari.
4. Ta’limdagi islohotlarni bosqichma – bosqich amalga oshirilishi.

5. Kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish va faoliyat ko’rsatishining asosiy tamoyillari.

6. Umumtalim dasturining tuzilishi.

7. Milliy dasturni amalga oshirishdagi murakkabliklar.

Mazkur masalalarni alohida-alohida ko’rib chiqamiz:

I.O’rta va oliy ta’limda erishilgan yutuqlar. Mazkur sohadagi yutuqlar quydagilardan iborat:

### **1. O’rta maktab sohasida:**

- “Ta’lim tog’risi”gi Qonun qabul qilindi;
- 1996-1997 o’quv yilidan boshlab birinchi sinflarda o’qish yangi alifboda olib borildi;
- 300 ga yaqin yangi ta’lim muassasalari ochildi;
- 12 yillik ta’limg
- ko’p o’qituvchilar xorijiy davlatlarni ilg’or tajribasini o’rganib keldilar.

### **2. O’rta maxsus ta’lim sohasida:**

- viloyatlarda, joylarda biznes maktablari, kichik va o’rta maktablar uchun kasb-hunar kurslari ochildi;
- bozor iqtisodi talablaridan kelib chiqib, yangi mutaxassisliklar kiritildi (Fermer, soliq va bojxona xodimi, audit va h.k.);
- Toshkent, Samarqand, Urganch, To’rtko’l va Andijonda bank kollejlari tashkil qilindi.

### **3. Oliy maktab sohasida:**

- kirish imtihonlarida test usuli joriy qilindi;
- viloyat markazlaridagi pedagogika institutlari universitetlarga aylantirildi;
- 2000 dan ortiq talaba chet elga borib o’qib keldi; 200 dan ortiq mutaxasis institutlarda ishlash uchun xorijdan chaqirildi;
- Davlat va ijtimoiy qurilish akademiyasi, bank va moliya akademiyalari tashkil qilindi;
- turli xil fondlar tashkil qilindi. “Mahalla”, “Sog’lom avlod uchun”, “Nuroniy”, “Umid jamg’armasi”.

**II. Amalga oshirilgan tadbirlarni hozirgi hayot talablariga to’la javob bermasligining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:**

- ta’lim tizimiga eski mafkuraviy qarashlardan va sarqitlardan xoli bo’linganicha yo’q;
- barcha amaldagi o’zgarishlar va tadbirlar yuzaki bo’lib, uzlusiz ta’lim-tarbiya tizimimiz rivojlangan demokratik davlatlar talablariga javob bermaydi.

## **1. Maktab sohasida.**

- maktablarning moddiy bazasi juda nochor;
- o'qituvchilarni tayyorlashni keskin yaxshilash kerak (rag'batlantirish va h.k.)
- boshlang'ich sinflardagi ta'limga katta e'tibor berish kerak, ilgari bunga e'tibor berilmagan;
- darsliklar yaratish ancha nochor ahvolda;
- bolalar erkin fikrlaydigan bo'lishi kerak;
- 9- sinfni har yili deyarli 450 ming o'quvchi bitiradi. Ularni 250 mingtasi 10-sinfda o'qishni davom ettiradi, 100 ming tasi hunar texnika bilimlarida taxsil oladi, ya'ni 100 ming tasi ko'chada qolmoqda;
- 11- sinfni bitirganlarni hammasi bo'lib 10 foizi o'qishga kirishi mumkin;

## **2. Hunar- texnika bilim yurtlari sohasida.**

- hozirgi paytda ularda 250 mingta bolalar ta'lim olmoqda;
- moddiy texnika bazasi nochor;
- berilayotgan bilim saviyasi past.

## **3. Texnikumlar va o'rta maxsus bilim yurtlari.**

- 22 vazirlikka qarashli 268 ta maxsus bilim yurti, texnikum mavjud va ularda 170 mingga yaqin bolalar o'qimoqda;
- bozor iqtisodi talablariga javob bermaydi.

## **4. Oliy o'quv yurtlari.**

- tayyorlanayotgan talabalarni hayot talablariga qarab tayyorlash kerak;
- ta'lim bo'yicha davlat standartlari ishlab chiqilmagan.

## **III. Oliy o'quv yurtlaridagi islohotlar yo'nalishi.**

- ✓ Oliy o'quv yurtini bitirayotganlar qanday talablarga javob berish kerakligini aniqlab olishimiz kerak;
- ✓ iste'dodli bolalarni topish, tanlash va Oliy o'quv yurtiga qabul qilishdaadolatli tizim va tartib o'rnatish;
- ✓ oliy o'quv yurtlirida qanday va necha xil mutaxassislik bo'yicha ta'lim berishni aniqlab olishimiz kerak;
- ✓ o'quv yurtlarini shakli, qiyofasi va tarkibi, moddiy bazasini yaxshilash kerak;
- ✓ o'quv dastur va dasturlarni zamonaviy talablarga moslashtirib yillik va kelajagimizni ko'zlagan holda tuzib olishimiz va joriy etishimiz darkor;
- ✓ boshqa davlatlardagi oliy o'quv yurtlari bilan aloqani mustahkamlash;

✓ o'qituvchilarni tayyorlash bo'yicha maxsus fond tashkil qilish kerak (chet elga chiqib kelish uchun).

## **IV. Ta'limgi isloh qilish bosqichlari.**

Birinchi bosqich – o'tish davri. 1997-2001 yillarda, ya'ni 4- yilda amalga oshiriladi. Bu bosqichda quyidagi vazifalar bajariladi:

Milliy dasturni amalga oshirishining boshlanishi: yangi talablarga javob beradigan pedagog kadrlarni tayyorlash, o'quv standartlarini yaratish, yangi o'quv dasturlari ustida ishlash, umum ta'lim maktablarini qayta qurish, uch yillik ta'lim tizimini yaratish.

Ikkinci bosqich – 2001-2005 yillar. Milliy dasturni to'la amalga oshirish. Kerakli sharoitlarni hisobga olib dasturlar va qoidalarga o'zgartirishlar kiritish.

Uchinchi bosqich – 2005 yildan keyingi yillarga mo'ljallangan. To'plangan tajribalar tahlil qilinadi va umumlashtiriladi.

## **V. Kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish va faoliyat ko'rsatishning asosiy tamoyillari:**

- ✓ barcha ta'lim muassasalarida yuqori malakali mutaxasislar tayyorlash uchun uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish;
- ✓ davlat ta'lim standartlarini joriy qilish va ularni faoliyat mexanizmini ishlab chiqish;
- ✓ o'qituvchilar va murabbiylarni qayta tayyorlash;
- ✓ davlat va ijtimoiy muassasalarning kasbga yo'naltirish bo'yicha faoliyatini takomillashtirish;
- ✓ o'quvchilarni vatanga sadoqat, yuksak ahloq, mehnatga muhabbat ruvida tarbiyalash;
- ✓ ta'lim muassasalarini davlat tomonidan moddiy texnikaviy ta'minotini yaxshilash;
- ✓ o'quv muassasalarining moddiy va moliyaviy sharoitini aniqlashda kadrlarni iste'molchilari bo'lgan korxonalar imkoniyatidan to'la foydalanish;
- ✓ kadrlar tayyorlash va ta'lim sohasiga xalqaro fondlar mablag'ini jaib qilish;
- ✓ Oliy o'quv yurtlariga mustaqillik berish va o'z - o'zini boshqarish usullarini joriy etish.

## **VI. Umumta'lim dasturining tuzilishi.**

Dastur quyidagi bosqichlardan iborat:

- ✓ maktabgacha ta'lim;

- ✓ boshlang'ich ta'lism. 6-7 yoshdan boshlanadi. 1-4 sinflarni o'z ichiga oladi;
- ✓ umumiy ta'lism, 5-9 sinflarni o'z ichiga oladi;
- ✓ o'rta maxsus bilim va kasb- hunar ta'limi. O'qish muddati 3- yil;
- Oliy mutaxasislik ta'limi ikki qismidan iborat:

**Bakalavrlik** - o'qish muddati 4- yil. Tayanch mutaxasislik diplomini olish bilan tugaydi.

**Magistratura** - aniq mutaxasislik bo'yicha Oliy kasbiy ta'lism bo'lib, bakalavrlik negizida kamida ikki yil davom etadi. Magistrlik dissertatsiyasini himoya qilish bilan tugaydi.

**Tayanch doktorantura** – 3 yil

#### VII. Milliy dasturni amalga oshirishdagi murakkabliklar.

- ✓ har bir hududni geografik – muhitini, xususiyatini hisobga olib qishloqlarda 3 – yillik kasb- hunar maktablarini tashkil qilish;
- ✓ maxsus (akademik) sinflarda ta'lism beradigan o'qituvchilarni tayyorlash;
- ✓ o'quv jarayonini tashkil etish, ta'lism mazmunini belgilash, ularni maxsus dasturlar, o'quv qo'llanmalari bilan ta'minlash masalalaridir.

Hozirda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev tomonidan ta'lism tizimini rivojlantirish borasida qator ishlар amalga oshirilmoqda. Olib borgan islohatlar natijasida 2018 yildan boshlab 12 yillik ta'limdан 11 yillik ta'limga o'tildi. Shuningdek, xorijiy malakatlar (20 dan ortiq) va respublikadagi yirik oliy o'quv yurtlarining O'zbekistondagi filiallari tashkil etildi. Masalan, Italiyaning Turin, Singapurning MDIS, Hindistonning AMITY, Sharda, Janubiy Koreyaning Inha, YEOJU, Bucheon va h.k. lar shular jumlasidandir.

2020 yil 23 sentabrda O'zbekiston Respublikasining yangi "Ta'lism to'g'risida"gu Qonuni qabul qilindi. Agar birinchi qabul qilingan "Ta'lism to'g'risida"gu Qonun (02.07.1992 y) 7 bob, 44 moddadadan; ikkinchisi (29.08.1997 y) 5 bob 34 moddadadan tashkil topgan bo'lsa, yangi Qonun 11 bob, 75 moddadadan iborat.Ushbu Qonun quyidagi boblardan tashkil topgan:

- 1-bob. Umumiyl qoidalar;
- 2-bob. Ta'lism tizimi, turlari va shakllari;
- 3-bob. Ta'lism tizimini boshqarish;
- 4-bob. Ta'lism faoliyatini tashkil etish va uning nazaratini amalga oshirish;
- 5-bob. Ta'lism tashkilotlari pedagog xodimlarining huquqiy maqomi;
- 6-bob. Ta'lism oluvchilarning, ular ota-onasining hamda boshqa qonuniy vakillarining huquq va majburiyatlar;

7-bob. Ta'lism-tarbiya jarayoni ishtirokchilarini ijtimoiy himoya qilish;

8-bob. Nodavlat ta'lism tashkilotlari faoliyatini litsenziyalash, ta'lism tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish. Xorijiy davlatda olingen ta'lism to'g'risidagi hujjatni tan olish, ta'lism sohasidagi hujjatlarga apostil qo'yish;

9-bob. Ta'lismni moliyalashtirish va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash;

10-bob. Ta'lism sohasidagi xalqaro hamkorlik;

11-bob. Yakunlovchi qoidalar.

**Tayanch so'z va iboralar:** jadidchilik, M.Behbudiy, A.Avlonyi, A.Fitrat, M.Qori, O.A.Mo'minov, "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi", maktabgacha ta'lism, umumiy o'rta ta'lism, akademik litsey va kasb-hunar kolleji, oliy ta'lism, magistratura, aspirantura, doktarantura.

#### TALABALARING O'ZLASHTIRGAN BILIMLARINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Jadidchilik harakatini vujudga kelish sababi nimada edi?
2. Jadidchilik dastlab qaerda vujudga keldi va asoschisi kim?
3. Jadidchilar harakatining asosiy maqsadi nimadan iborat?
4. Jadidchilarning ta'lism va tarbiya haqida qanday qarashlari mavjud?
5. Behbudiy geografiya ta'limini rivojlanishiga qanday hissa qo'shgan?
6. O.A.Mo'minovning geografiya ta'limini rivojlanishiga qo'shgan hissasini gapirib bering.
7. Nima sababdan "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" qabul qilindi?
8. Ta'lism sohasidagi kamchiliklар nimalardan iborat edi? O'rtoqlaringiz bilan fikr almashing.

#### IV BOB. GEOGRAFIYA TA'LIMDA ILMIY TADQIQOTLARINI TASHKIL ETISH

##### 1. Geografiya ta'limida ilmiy tadqiqot ishlарini tashkil etish muammolari

Geografiya o'qitish metodikasining rivojlanishi yangi o'qitish metodlarini ishlab chiqish, majmualarni takomillashtirish, ilg'or metodlarni qo'llash bilan bog'liq. Mazkur muammolarni xal qilish ko'p jihatdan pedagogik tadqiqotlarda qo'llanadigan metodlarga asoslanadi.

Geografiya ta'limi metodikasi bo'yicha tadqiqot ishlарini olib borishni dastlabki manbai O'zbekiston Respublikasining "Ta'lism to'g'risida"gi

Qonuni, "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi" va boshqa hukumat qarorlaridir.

Har qanday fanda ham tatqiqod metodlarini ishlab chiqish va tadqiqotlar olib borish, metodologiya va ilmiy tatqiqod metodlari tushunchalari bilan bog'liq

**Metodologiya** – bu borliqni bilish va o'zgartirish metodlari haqidagi ta'lomidir.

**Ilmiy tatqiqod metodlari** – bu tadqqod olib borish usullaridir.

Geografiya ta'limi metodikasida ilmiy tadqiqot metodlari ikkita katta guruhga bo'linadi: eksperimental-emprik va nazariy metodlar;

Eksperimental-emprik metodlar pedagogik tadqiqotlar bosqichida qo'llaniladi, nazariy metodlar esa yig'ilgan ma'lumotlarni umumlashtirish va nazariyalar tuzish bosqichida qo'llaniladi.

Geografiya ta'lmini rivojlantirishni dastlabki bosqichlarida asosiy eksperimental-emprik metodlar qo'llanilgan. Ammo XX asrning 2-yarmidan boshlab geografiya ta'limi metodikasining nazariy jihatlarini rivojlanishi oqibatida u xususiy didaktika faniga aylandi. Geografiya asosida metodik tadqiqotlarda nazariy metodlar va ularning alohida qismlari keng qo'llanila boshlandi. Masalan, tizimli-tarkibli yondoshish, bilimlarni mantiqiy dedaktik tahlili, o'quv materialini tarkibiy-mantiqiy va mantiqiy tushuncha tahlili.

Tadqiqot metodlarini tanlash qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqadi. Masalan, muammoning dolzarbliji, maqsad va vazifalarni aniqlash va boshqalar mavjud ilmiy adabiyotlarni nazariy tahlil qilishni talab etiladi.

### 1.1.Nazariy tadqiqot metodlari

Nazariy tadqiqot metodlariga adabiyotlar va geografik xaritalarni tahlil qilish, statistik-matematik, tarixiy, qiyosiy va tizimli usullar kiradi.

**Adabiyotlar bilan ishlash metodi.** Har qanday ilmiy ish shu sohada e'lon qilingan adabiyotlarni o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish bilan boshlanadi. Mazkur metod yordamida boshqa tadqiqotchilar tomonidan olingan ma'lumotlar to'planadi, o'rganiladi va umumlashtiriladi. Geografiya ta'limi metodikasida quyidagi sohalar bo'yicha ma'lumotlar to'planadi va tahlil qilinadi: ta'lim bo'yicha davlat tomonidan chiqarilgan qonunlar, qarorlar va boshqa xujjalalar; bilish nazariyasi bo'yicha falsafiy adabiyotlar o'rganiladi; mantiq, psixologiya va didaktika bo'yicha ma'lumotlar o'rganiladi va tahlil qilinadi: o'qitish metodikasi bo'yicha

e'lon qilingan ilmiy ishlar alohida tahlil qilinadi. Adabiyotlar tahlili amalga oshirilgandan so'ng o'rganilayotgan muammoning dolzarbliji, o'rganilmay qolgan jihatlari aniqlanadi.

**Statistik- matematik metodlar.** O'qitish metodikasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijalarini hisobga olish va ularni umumlashtirish maqsadida ko'rsatiladi. Miqdoriy ko'rsatgichlarni tanlash, ularni tartibga keltirish va tahlil qilish metodik tadqiqotlarda katta ahamiyatga ega. Chunki ular juda ko'p pedagogik tadqiqotlarning o'lchami hisoblanadi. Masalan, muayyan mavzuni o'qitish samaradorligini aniqlash maqsadida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalarini. Miqdoriy ko'rsatgichlar yordamida tarbiya va o'qitishda qo'llaniladigan pedagogik vositalarning qanchalik foydalilagini aniqlash mumkin.

**Oiyosiy usul.** Mazkur usul yordamida fandagi va maktab geografiyasidagi bilimlar tizimi, o'qitish jarayonida qo'llaniladigan metodlar, o'quv vositalari, baholash usullari, dars turlari tanqidiy nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Bu esa tadqiq qilinayotgan muammoni umumiyligi va o'ziga xos xususiyatlarni ochib berishga imkon beradi.

**Tarixiy metod.** Ushbu metod yordamida o'rganilayotgan metodik muammoning rivojlanishi o'ziga xos xususiyatlari ochib beriladi. Bundan tashqari ma'lum bir muammoni ayrim davrlarda rivojlanish xususiyatlarini ham ochib beradi.

**Tizimli tuzilish metod.** Bu umumiy fanlararo tadqiqot metod bo'lib, XX asrning 70-yillardan boshlab ilmiy tadqiqot ishlarida keng qo'llanila boshlandi. Mazkur metod bir butun bo'lgan geografik borliqni eng muhim xususiyatini ochib berish va uni tarkibiy tuzilishining darajalarini aniqlashdan iborat. Geografiyanı o'qitish metodikasida mazkur usul yordamida ma'lum bir tizim tizimchalarga bo'linadi. Geografiya o'qitish metodikasida o'quv materiali tizim sifatida qaraladi, uning tarkibiy qismlari, yani, Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi, Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyası, O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyası, O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiygeografiyası va h.k.lar esa tizimchalar sifatida qaraladi.

Tizim-tuzilish metodlarini tarkibida mantiqiy-tuzilish tahlili mavjud. Mazkur usul yordamida o'quv materialining tuzilishi va ularni bayon etilishining ketma-ketligi aniqlanadi. Mazkur usul bir butun geografik borliqni tuzilishini tatqiq qilishga, masalan, tabiiy geografiya bo'yicha o'rganilayotgan hududning geologik tuzilishi va foydali qazilmalari, relyefi, iqlimi, ichki suvlari, tuprog'i, o'simliklari, hayvonot dunyosi, tabiat zonalari, tabiiy geografik rayonlari ketma-ketligida o'rganishga

imkon beradi va undan alohida qismlarni ajratishga va ular orasidagi bog'liqliklarni ochishga yordam beradi.

## 1.2. Eksperimental-emprik metodlar

Mazkur metodlarga asosan maktab tajribasini o'rganishga yo'naltirilgan metodlar kiradi. Ular kuzatish, anketa, maktab xujjatlarini tekshirish metodlari va pedagogik eksperiment kiradi.

Kuzatish. Eng keng tarqalgan pedagogik tadqiqot metod hisoblanadi. Mazkur usul pedagogik jarayonni bilishni eng muhim metodlardidan biri hisoblanadi. Har qanday o'qituvchi darsni kuzata bilish qobiliyatiga ega bo'lmog'i lozim. Kuzatish metodi tuzilishi, mazmuni, turi, kuzatish texnikasi, o'rganilayotgan muammoning mohiyati va xususiyatlari, tadqiqot metodlariga bog'liq.

Kuzatish turli xil bo'ladi, ular dasturi, tashkil qilinishi va maqsadiga ko'ra ma'lum bir guruhlarga bo'linadi.

So'rovnama (anketa) metodi. Mazkur metod geografiya ta'limida keng qo'llaniladi. Bunda turli metodik ma'lumotlar uchun ma'lum bir yo'nalishda ma'lumotlar yig'iladi. So'rovnomaning mazmuni o'quvchilar, o'qituvchilar va metodestlar uchun alohida ishlab chiqiladi. Masalan, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya predmeti bo'yicha o'qituvchi uchun o'qitish metodlarini takomillashtirish bo'yicha so'rovnama mazmuni quyidagicha bo'lishi mumkin:

1. o'quvchilarning faoliyatini tashkil qilishda qanday usullardan foydalanasiz: a) yangi mavzuni o'qitishda; b) o'quvchilar bilmini tekshirishda;

2. sizning darsligingizda ko'proq qaysi metod asosiy bo'lib hisoblanadi?

3. sizning darslaringizda VIII-IX sinf o'quvchilarning ishlari nimasi bilan farqlanadi:

- a) xarita bilan ishlanadi;
- b) darslikdagi rasmlar bilan, jadvallar bilan;
- 4. o'qituvchilar qobiliyatini qanday vositalar va usullar bilan rivojlantirasiz;
- 5. o'quvchilarni bilish faoliyatini qaysi darajada tashkil qilasiz;
  - a) bilimlarni tayyor xolda berasizmi?
  - b) materialni faqat bir qismini o'zingiz tushuntirasiz?
  - v) mavzuni o'quvchilar o'zları mustaqil o'zlashtirishadi.

O'qituvchilardan so'rovnama o'tkazish bilan bir vaqtning o'zida o'quvchilar bilan ham so'rovnama o'tkaziladi (1-jadval). Yangi materialni qaysi usulda o'rganilganda siz yaxshi esda saqlab qolasiz va yaxshi tushunasiz? Agar darsni yaxshi tushunsangiz va eslab qolsangiz «+» belgisini, tushunishga qiyalsangiz «-» belgisini qo'ying.

1-jadval

| O'quvchilar uchun so'rovnama |  |   |   |
|------------------------------|--|---|---|
| Nº                           | Yangi mavzuni o'rganish usuli  | + | - |
| 1                            | O'qituvchining og'zaki tushuntirishi   |   |   |
| 2                            | O'qituvchini topshirig'iga binoan mustaqil ish bajarishi   |   |   |
| 3                            | Sinfda suhbat o'tkazish:<br>a) o'quvchi savollariga javob berish:<br>b) sinfdoshini javobi asosida xulosa chiqarish        |   |   |
| 4                            | O'qituvchi bilimlarni hammasini o'zi tushuntirib beradi va tayyor holda beradi   |   |   |
| 5                            | Bilimlarni ma'lum bir qismini o'zingiz o'qituvchi topshirig'iga binoan xarita va darsliklar bilan ishlash davomida olasiz. |   |   |
| 6                            | Sinfdoshlar ma'ruzasi va habarları   |   |   |
| 7                            | O'qituvchining tushuntirishi   |   |   |
| 8                            | Atlaslar va darslikdagi xaritalar bilan ishlash  |   |   |
| 9                            | Kinofilmlar, videofilmlar va deapozitivlar bilan ishlash   |   |   |
| 10                           | Sinfda darslik bilan ishlash   |   |   |
| 11                           | Axborot vositalari bilan ishlash   |   |   |
| 12                           | O'qituvchi yordamida amaliy ishlar bajarish  |   |   |
| 13                           | Olingan bilimlar asosida yangi mavzuni mustaqil o'rganish  |   |   |
| 14                           | Turli xil usullarni birga qo'llash   |   |   |
| 15                           | Yana qanday usullar sizni yangi mavzuni o'zlashtirishingizda yordam beradi   |   |   |

So'rovnama asosida olingan ma'lumotlar matematik usullar bilan qayta ishlanadi va umulashtiriladi. Turli viloyatlarda o'tkazilgan so'rovnomalarning javobi mos bo'lsa o'rganilayotgan pedagogik jarayonlarning to'g'riligini tasdiqlaydi.

Pedagogik tadqiqotlar eng keng tarqalgan usullardan biri hisoblanadi. Uning yordamida har bir o'qitish metodlarni afzalliklarini aniqlash mumkin.

I.S.Matusov fikricha, pedagogik eksperiment deganda nazorat qilinayotgan va hisobga olinayotgan sharoitda tadqiq qilinayotgan pedagogik jarayonlarni kuzatishga imkon beradigan ilmiy jihatdan tashkil qilingan ta'lim va tarbiya tajribasidir. Pedagogik eksperimentning maqsadi o'rganilayotgan voqeа va hodisalarni qonuniyatlarini aniqlash, u yoki bu metodik masalani mohiyatini ochib berishdir.

Pedagogik eksperimentga quyidagi talablar quyiladi:

- pedagogik eksperiment mukammal darajada loyihalashtirilgan bo'lmog'i;
- metodologik jihatdan asoslangan gipotezaga tayanmog'i;
- o'rganilayotgan muammo o'zida qarama-qarshiliklarni va yangiliklar kurtagini aks ettirmog'i lozim;

Pedagogik eksperiment o'tkaziladigan vaqt, o'rganilayotgan hodisalar tarkibi, tashkil qilinishiga ko'ra turlicha bo'lishi mumkin. Pedagogik eksperimentlar o'tkazilish vaqtiga ko'ra qisqa va uzoq muddatli, o'rganilayotgan hodisani tarkibiga ko'ra oddiy va murakkab, tashkil qilinishiga ko'ra tajribali (bir guruh o'quvchilar bilan o'tkaziladi), tabiiy (bir sinf yoki bir necha maktabdagи bir xil sinflar bilan o'tkaziladi), kompleks eksperimentlarda tajriba va tabiiy usullar uyg'unlashgan holda qo'llaniladi.

Oldiga qo'ygan maqsadiga ko'ra pedagogik eksperimentlar tasdiqlovchi, (mavjud qoidalarni) shakillantiruvchi yoki yaratuvchi, nazorat qiluvchi yoki nazorat.

Pedagogik eksperiment yordamida nazariy hollar tekshiriladi, ta'lim va tarbiya jarayoni haqida to'la va aniq ma'lumotlar olishga imkon beradi. Bu o'rinda

"Eksperiment" va "Tajriba" tushunchalarini chalkashtirmaslik lozim.

**Eksperiment** – pedagogik jarayonda bo'ladigan qonuniy aloqalarni o'rganish. Eksperimental ishlар aniq hisobga olinadigan sharoitlarda o'tkaziladi, uning natijasida aniq bir nazariy natijalar olinadi. Shuning uchun eksperiment natijasida aniq maqsadlar amalga oshiriladi.

**Tajriba ishlari** – eksperimental tadqiqotlar asosida yaratilgan metodik tizimlarni samaradorligini tekshirish vositasidir. Tajriba ishlari yordamida yoki ishlab chiqarilgan usullar o'quv jarayoniga qanday ijobiy ta'sir qilgани aniqlanadi. Qisqa qilib aytganda pedagogik eksperiment natijasida olingen nazariy xolatlarni amalda qo'llash mumkinligini aniqlashga yordam beradi. Buning uchun o'qitish eksperimental va asosiy sinflarda bir vaqtning o'zida olib boriladi.

Shuningdek, eksperimentning yana quyidagi usullar mavjud:

- suhbat usuli, bunda tadqiqotchi o'qituvchilar, o'qtuvchilar va maktab rahbariyati bilan ma'lum bir mavzu bo'yicha suhbatlashadi;

- maktab xujjatlarini o'rganish usuli. Bunda sinf jurnallari, dasturlar o'qituvchi xujjatlari, o'quvchilarining yozma ishlari, sinfdan tashqari ishlar hamda mustaqil va amaliy ishlar xujjatlari o'rganiladi.

## 2. Metodik tadqiqotlar bosqichlari

Ta'lim va tarbiya ishlарini ma'lum bir maqsadlar va yo'naliishlarda borishi, ularning samaradorligi ilmiy pedagogik ishlarning to'g'ri tashkil qilinishiga hamda ularning natijalariga bog'liq. Shu maqsadda metodik tadqiqotlar bir necha bosqichlarda olib boriladi. Ular quyidagilardan iborat:

- muammoning qo'yilishi;
- tadqiqot obyekti va predmetini tanlash;
- tadqiqotni maqsad va vazifalarini aniqlash;
- ishchi g'oynani ishlab chiqish;
- ishlab chiqilgan g'oynani pedagogik tajribalarni kuzatish va eksperimental ishlarni bevosita o'rganish asosida tekshirish;
- olingen yangi ma'lumotlar va bilimlar asosida nazariy xulosalar ishlab chiqiladi va tadqiqot natijalarini tekshirish amalga oshiriladi.

**Muammoni go'yish bosqichi.** Mazkur bosqichda tanlangan mavzu bo'yicha mavjud adabiyotlar o'rganib chiqiladi, natijada muammoning tarixi va nazariyasi o'rganiladi, maktablarning tajribasi va yuqori pedagogik tajribalar tahlil qilinadi. Buning natijasida muammoning o'rganilganlik darjasи aniqlanadi. Muammoning qaysi tomonlariga to'la va mukammal, qaysi tomonlari kam yoki umuman o'rganilmaganligi aniqlanadi. Mazkur ish davomida nazariy xolatlar tahlil qilinadi va o'quv jarayonining aniq xolatini tavsifi tuziladi. Bunday tasdiqlovchi tadqiqot **eksperiment usuli** deb ataladi. Ushbu bosqichning oxirida tadqiqot ishlарini kengaytirilgan dastur loyihasи ishlab chiqiladi.

**Tadqiqot obyektlari va predmetini tanlash bosqichi.** Mazkur bosqichda muammoning xususiyatlardan kelib chiqqan holda tadqiqotning obyekti va predmeti aniqlanadi. Tadqiqotning obyekti bo'lib ma'lum bir sinfda olib boriladigan o'quv jarayonining ba'zi jihatlari bo'lishi mumkin. Masalan, 5-sinfda o'qitiladigan "Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi"da tabiatni kuzatish ko'nikmalarini shakllantirish ishning predmeti bo'lishi mumkin.

Iqtisodiy geografiya tushunchalarini shakllantirishda tadqiqot obyekti “O‘zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” kursi, tadqiqot predmeti esa iqtisodni o‘qitish texnologiyasi bo‘lishi mumkin.

Tadqiqotni maqsad va vazifalarini aniqlash bosqichi. Mazkur bosqich eng muhim bosqich hisoblanadi. Maqsad va vazifalarni to‘g‘ri va aniq ishlab chiqilishi keyingi bosqichlardagi ishlarni to‘g‘ri va aniq loyihalashtirishga va amalga oshirishga yordam beradi. Odatda maqsad va vazifalar muammoni hozirgi holatiga baho berish asosida o‘rganiladigan muammoni o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqadi (2-jadval).

2-jadval

### Metodik tadqiqotlar bosqichlari (Matrusov bo‘yicha)

|   | Bosqichlar   | Misollar   |
|---|--|--|
| 1 | 2  | 3  |
| 1 | Tadqiqotning asosiy muammolarini aniqlash (adabiyotlar va maktab tajribasini o‘rganish asosida)  | 1. Darslik bilan ishlash usullari  |
| 2 | G‘oyani olg‘a surish   | 2.O‘quvchilarning bilimi va ko‘nikmasi quyidagi hollarda yuqori bo‘ladi:<br>a) ular darslikni tuzilishi va metodik jihozini bilan tanish bo‘lsa;<br>b) darslikning metodik jihozlarini ayrim elementlaridan foydalanish usullarini bilishsa;<br>v) o‘quvchilarni bilim va ko‘nikmalarini tekshirishda, dars jarayonida darslik keng qo‘llanilsa;<br>g) dars davomida darslikdagi matn, xaritalar, sonlar, rasmlar, jadvallar, savol va topshiriqlar bilan doimiy ishlab borilsa; |
| 3 | Asosiy muammoni yechish va g‘oyani tekshirish jarayonida vazifalarini aniqlash va shakllantirish | 3. Ishni ratsional usullarini aniqlash:<br>- matn bilan;<br>- sonli materiallar bilan;<br>- xarita va rasmlar bilan;<br>- darslikdagi savol va topshiriqlar bilan;   |
| 4 | Tadqiqot metodini tanlash  | Darslikni metodik jihozini tahliliga, darslardagi kuzatishga va eksperimentga tizimli-tarkibli yondoshishga  |

|   |   |  |
|---|---|--|
| 5 | Har bir vazifani yechish uchun eksperimental materiallarni tayyorlash | 5. Darsning turli bosqichlarida darslikning turli variantlaridagi metodik jihozlanishida o‘quvchilarning mustaqil ishlari uchun mavzuli va dars pejasini, topshiriqlarini hamda tarqatma didaktik materiallarni, o‘quvchilarni aqliy va amaliy harakatlari tartibi haqida ko‘rsatmalar ishlab chiqish va h.k |
| 6 | Eksperimental o‘tkazish   | 6. Eksperimental sinflarda darslik bilan muntazam ish olib boriladi: nazorat sinflarida esa odatdagidek.   |
| 7 | Tadqiqotni xulosalarini ishlab chiqish                                | 7. Xulosada darslik bilan ishlash o‘quvchilarni bilim va malakasiga qanday ta’sir ko‘rsatgani, darslik bilan ishlashning qanday usullari yaxshi samara berishi ifodalaniladi.  |
| 8 | Olingan natijalarni amaliy ahamiyatini ko‘rsatish                     | 8.Tadqiqot natijalari o‘quvchilar uchun darslik bilan ishlash bo‘yicha metodik ko‘rsatma tayyorlashda qo‘llaniladi.  |

Ishchi g‘oyani ishlab chiqish. Ishchi g‘oyani ishlab chiqish pedagogik eksperimentning asosiy qismlaridan biri sanalanadi. Ishlab chiqilgan ishchi g‘oya butun tadqiqot davomida olib boriladigan ishlarni asosiy o‘zagi bo‘lib hisoblanadi. Masalan, umumta’lim mакtablarida kartografik tushunchalarni shakllantirish g‘oyasi 5-sinfdan 9-sinfgacha davom etadi va tadqiqotlarning asosiy yo‘nalishi bo‘lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan g‘oyani sinash. Ushbu bosqichda pedagogik eksperiment, kuzatish va boshqa usullar orqali ishlab chiqilgan g‘oya tekshiriladi, uning ahamiyati, samaradorligi baholanadi.

Nazariy xulosalar ishlab chiqish. Tadqiqot davomida olingan natijalar umumlashtiriladi va nazariy hulosalar ishlab chiqiladi. Uning asosida ishlab chiqilgan g‘oyalari va ilmiy holatlarning samaradorlik darajasi aniqlanadi, u yoki bu metod tanlab olinadi va yangi metodik tizim. Yangi ishlab chiqilgan metodik tizimning afzalligini aniqlashning asosiy o‘lchovi o‘quvchilarning bilim va malakalarini sifati hisoblanadi. Shuning uchun ayrim metodlarni samaradorligini aniqlashda tadqiqotlar ikkita paralell sinflarda olib boriladi, ya’ni eksperimental va oddiy. Oddiy sinflarda dars qabul qilingan metodikani qo‘llash orqali, eksperimental sinflarda esa yangi ishlab chiqilgan usul yordamida o‘tkaziladi. So‘ngra eksperimental va oddiy sinflardagi o‘quvchilar bilimlari solishtiriladi.

Oxirgi paytlarda metodik tadqiqotlarda ijtimoiy ekspert va matn usullari keng qo‘llanilmoqda.

Ijtimoiy tadqiqotlarda turli mutaxasisliklar o'rtasida anketa so'rovi o'tkaziladi. Olingan ma'lumotlar statistik-matematik usullar yordamida qayta ishlanadi va ularning natijalarini tahlili asosida gaografiya ta'lifi mazmuniga o'zgarishlar kiritiladi.

Ekspert usullari yordamida ishlab chiqilgan muammoni yechish yo'llari aniqlanadi, masalan, geografiya ta'lifi mazmuni, o'qitish metodlari va boshqa masalalarni muhokama qilishda qo'llaniladi. Bunda asosan ekspertlar xulosalari tahlil qilinadi.

Test usuli hozirgi davrda eng keng tarqalgan usullardan biri hisoblanadi. Uning natijalari asosida har bir o'quvchining va sinfning bilim darajasini aniq baholash mumkin.

**Tayanch so'z va iboralar:** Metodologiya, metod, usul, eksperiment, pedagogik eksperiment, tajriba, eksperimental-emprik, nazariy tadqiqot, adabiyotlar bilan ishlash, statistik- matematik, qiyosiy tahlil, tarixiy, taqoslash.

#### **TALABALARING O'ZLASHTIRGAN BILIMLARINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Metodologiya deganda nimani tushunasi?
2. Ilmiy-tadqiqot metodlarining vazifasi nimadan iborat?
3. Tadqiqot metodlari qanday usullarga bo'linadi?
4. Nazariy metodlarga qaysi usullar kiradi?
5. Geografiya ta'liming rivojlanishni dastlabki bosqichlarida qanday metodlar ko'proq qo'llaniladi?
6. Statistik-matematik usullarni ahamiyati nimadan iborat?
7. Tarixiy usul haqida so'zlab bering.
8. Tizimli tuzilish usullarini qanday hollarda qo'llash mumkin?
9. Eksperimental-emprik usullar qanday qismlardan iborat ekanligini so'zlab bering.
10. Kuzatish obyektiga nimalar kiradi?
11. So'rovnomaga usuli qanday hollarda qo'llaniladi?
12. Pedagogik eksperiment haqida so'zlab bering.

#### **V BOB. XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARI VA ULARNI O'ZIGA XOS TOMONLARI**

##### **1. Xalqaro baholash tadqiqotlarining ta'lif sifatini baholashdagi ahamiyati**

Mamlakatimiz innovatsion taraqqiyot yo'lida shiddat bilan rivojlanib bormoqda. Ushbu davrda, albatta, kelajagimiz davomchilar bo'lgan yoshlarni ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini davlat ta'lif standartlari asosida shakllantirish hamda ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro mezon va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlanirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli farmoni bilan tasdiqlangan "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlanirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" doirasida O'zbekistonda ta'lif sifatini baholashda yangicha monitoring tizimini xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash va qiyoslashga asoslangan tizimi shakllantirilmoqda.

Uzluksiz ta'lif tiziming barcha bo'g'inlarida ta'lif sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish, mavjud tizimni har tomonlama qiyosiy tahlil qilish, tegishli yo'naliishdagi xalqaro va xorijiy tashkilotlar, agentliklar, ilmiy-tadqiqot muassasalari bilan yaqindan hamkorlik qilish, ta'lif sifatini baholash bo'yicha xalqaro loyihalarni amalga oshirish, zamon talablariga javob beradigan munosib milliy baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi "Xalq ta'lifi tizimida ta'lif sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-sonli qarori qabul qilindi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga<sup>1</sup> muvofiq umumiyo'rti va muktabdan tashqari ta'lifni tizimli isloh qilishning ustuvor yo'naliishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma'naviy-axloqiy va intellektual rivojlanirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayoniga ta'lifning innovatsion shakllari va usullarini joriy etish maqsadida O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'lifi tizimini 2030-yilgacha rivojlanirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" 2019-yil 29-apreldagi PF-5712 - sonli farmoni.

kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahoning birinchi 30 ta ilg'or mamlakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi doirasida, o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash, tahlil qilish kompetensiyalari va malakalarining rivojlanishiga alohida urg'u berishni hisobga olgan holda, zamonaviy innovatsion iqtisodiyot talablariga javob beradigan umumta'lim dasturlari va yangi davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarning bilim darajasini, ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro PISA, TIMSS, PIRLS va boshqa dasturlarda doimiy ishtirok etish nazarda tutilgan.

**PISA** - o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro dastur (The Programme for International Student Assessment –PISA);

**PIRLS** - boshlang'ich sinf o'quvchilarining matnni o'qib tushunish darajasini baholash xalqaro dasturi (Progress in International Reading and Literacy Study – PIRLS);

**TIMSS** - o'quvchilarning matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan o'zlashtirish darajasini baholash dasturi (Trends in International Mathematics and Science Study – TIMSS);

Shuningdek, mazkur tizimda ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish, xalqaro aloqalarni o'rnatish, o'quvchi yoshlarning ilmiy–tadqiqot va innovatsion faoliyatini, eng avvalo, yosh avlodning ijodiy g'oyalari va ijodkorligini har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda rag'batlantirish maqsadida hukumat qaroriga muvofiq<sup>2</sup>: rahbar va pedagog kadrlarning umumiyl o'rta ta'lim muassasalarida o'qitish va ta'lim olish muhitini hamda o'qituvchilarning ish sharoitlarini o'rganish bo'yicha xalqaro baholash dasturlarini (The Teaching and Learning International Survey – TALIS) tashkil etishga kirishildi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 8 dekabrdagi "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 997-son qaroriga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи huzuridagi Ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi qoshida **Ta'lim sifatini**

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-son qarori.

**baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi** (Milliy markaz) tashkil etildi. Qarorga muvofiq Milliy markaz zummasiga:

- ✓ ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish va joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish;
- ✓ ta'lim sifatini baholash sohasida fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazish;
- ✓ ta'lim sifatini baholash bo'yicha tadqiqotlarni ilmiy va uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash Milliy markazning asosiy vazifalari va faoliyatining yo'nalishlari etib belgilandi<sup>3</sup>.

O'z navbatida, "Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazi"ga ta'lim tizimida o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini rivojlantirishning innovatsion metodlarini ishlab chiqish hamda joriy etishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar olib borish, ta'lim sifatini baholash sohasida xalqaro aloqalarni o'rnatish, xalqaro loyihalarni ishlab chiqish, amalga oshirish kabi vazifalar yuklatildi.

Shu bilan bir qatorda, Milliy markaz direktori – Xalqaro tadqiqotlarning milliy loyiha menejeri hisoblanib, xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish hamda muvofiqlashtirishda O'zbekiston Respublikasining vakili sifatida ishtirok etishi belgilab qo'yildi.

Yuqorida belgilangan vazifalarning amaliy ifodasi sifatida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasи huzuridagi ta'lim sifatini nazorat qilish davlat inspeksiysi bilan Xalqaro hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti o'rtasida o'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro PISA dasturda (Agreement for participation programme for international student assessment - PISA 2021) ishtirok etish to'g'risidagi kelishuvga erishildi. Umumiyl o'rta ta'lim muassasalarining xalqaro tadqiqotlarda muvaffaqiyatlari ishtirok etishini ta'minlash, 2019-2021-yillarda o'quvchilar savodxonligini baholashning milliy tizimini takomillashtirish va amaliy ko'nikmalarini shakllantirilishni baholashga qaratilgan sinovlarni tizimli ravishda o'tkazish vazifalari belgilangan.

Xalqaro baholash dasturi tadqiqotlarida ijobiy natijaga erishish uchun quyidagilarni amalga oshirish lozim:

- ✓ O'qitishning zamonaviy pedagogik va axbotot texnologiyalari, interaktiv metodlardan ta'lim jarayonida samarali foydalanish;

<sup>3</sup> Раджиев А.Б., Исмаилов А.А., Нарзиев Ж.Р., Ахмедов Х.П., Тогаева Г.О. Ўкувчилар саводхонлигини баҳолаш бўйича халқаро тадқикотлар дастури. Кўлланма, Тошкент, 2019

- ✓ O'qitish jarayonida fanlararo integratsiyani kuchaytirish, fanning turli sohalarida mavzularni hayotiy jarayonlarga bog'lab o'qitish;
- ✓ Amaliy mashg'ulotlarni yanada samarali tashkil etish;
- ✓ Dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.

## **2. PISA tadqiqotlari , ularni tashkil etish va o'tkazish metodikasi**

Yuqorida ta'kidlaganimizdek xalqaro baholashning PIRLS, TIMSS, PISA va TALIS kabi turlari mavjud. Ular uziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, quyida ularga to'xtalib o'tamiz.

PISA (inglizcha - *Programme for International Student Assessment*) – o'quvchilarning savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi bo'lib, dasturning asosiy maqsadi 15 yoshli o'quvchi yoshlarning o'qish, (matnni tushunish), matematika va tabiiy fanlar bo'yicha savodxonlik darajalarini hamda ijodiy fikrlash ko'nikmalarini turli xil testlar yordamida baholashdan iboratdir. Ushbu loyihibar o'quvchi yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrashi, egallagan bilimlarini hayotda qo'llay olish layoqatiga baho berish va keyinchalik bu ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

PISA - xalqaro baholash dasturining natijalari asosida dunyo mamlakatlari o'quv dasturlarida mavjud bo'lgan dasturlar asosida o'quvchilarning o'z bilim va ko'nikmalarini hayotiy vaziyatlarda qo'llash, fikrlash va muloqat qilish qobiliyatlariga baho beriladi.

PISA hech qanday o'quv dasturini belgilamaydi yoki targ'ib qilmaydi yoki umumiy e'tirof etishni taqozo etmaydi. Ishtirokchi mamlakatlar ekspertlari va iqtisodchilari o'quvchilarda tabiiy fanlardan bilim, ko'nikmalar shakllanishi hamda mustahkamlanishi davlatlarning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun dastlabki muhim qadam deb e'tirof etadi.

PISA tadqiqoti Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (IHTT (OECD)– Organisation for Economic Cooperation and Development) tomonidan amalga oshiriladi.

PISA turli davlatlarda 15 yoshli o'quvchilarning savodxonligini (o'qish, matematika, tabiiy fanlar) hamda bilimlarini amaliyotda qo'llash qobiliyatini baholovchi dastur.

Dastur dastlab 1997-yilda ishlab chiqilgan va 2000-yilda birinchi marta qo'llanilgan. Bu dastur bo'yicha har uch yilda o'quvchilarning bilimini baholash maqsadida sinovlar o'tkaziladi. Hozirgi kungacha jami 7 marta (2000, 2003, 2006, 2009, 2012, 2015 va 2018-yillar) PISA dasturi

bo'yicha testlar o'tkazilgan bo'lib, keyingi sinovlar 2021-yilda bo'lishi rejalashtirilgan. Hozirgi kunda PISA xalqaro baholash dasturida qariyb 80 dan ortiq davlatlar ishtirok etmoqda. Tadqiqotning har uch yilda bir marotaba o'tkazilishi esa davlatlarga o'z ta'lim tizimida kelajakda erishish ko'zdautilgan asosiy maqsadlarni aniqlab olishga imkon yaratadi.

Mamlakatimiz ham 2021-yildan bu dasturga ilk marotaba ishtirok etadi. Mamlakatimizning bu dasturdan qatnashishdan maqsad testlarni o'tkazish yoki o'quvchilarni testga tayyorlash emas, balki o'quvchilarimizda XXI asr ko'nikmalarini shakllantirish, raqobatbordosh kadrlarni yaratish uchun mustahkam zamin yaratish hisoblanadi.

PISA dasturining asosiy **maqsadi** – o'quvchi yoshlarning ijodiy va tanqidiy fikrlashlariga, olgan bilimlarini hayotda qo'llay olish qobiliyatlariga, ularni mакtabni tugatgandan so'ng hayotda o'z o'rнilarini egallashlariga imkon beradigan chuqur bilimga ega ekanliklarini baholashdir. Dastur keyinchalik bu ko'nikmalarni rivojlantirishga undaydi.

PISAning asosiy **vazifasi** mamlakatlarni ta'lim siyosatiga oid ma'lumotlar bilan ta'minlash va qarorlar qabul qilishda ularni qo'llab-quvvatlashdan iborat.

*PISA tadqiqoti quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:*

- ta'lim sohasidagi eng yirik, keng ko'lamli xalqaro monitoring tadqiqotlaridan biri sanaladi;
- tadqiqotda umumiy o'rtta ta'lim muassasalarida ta'lim olayotgan 15 yoshlio'quvchilar ishtirok etadi;
- o'quvchilarning "hayotga tayyorlik" darajasi, ya'ni ularning mакtabda egallagan bilim va ko'nikmalaridan hayot faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan muammolarni hal etishda qay darajada foydalana olishlari baholanadi;
- o'quvchilarning matematika, o'qish (matnni tushunish), tabiiy fanlar yo'nalishlari va global muammolarni hal etish borasidagi funksional savodxonligi<sup>4</sup> baholanadi;
- tadqiqotda ishtirokchi mamlakatlar ta'lim tizimining o'ziga xosligi bo'yicha ma'lumot olish imkonini beradigan kontekst axborot to'planadi.
- O'zbekistonning PISA tadqiqotida ishtirok etishi quyidagilarga imkon yaratadi:
  - umumta'lim maktablari bitiruvchilarining ta'lim olishni davom ettirishga qay darajada tayyor ekanini aniqlash;

<sup>4</sup> funksional savodxonlik – insonlarning tashqi muhit va jamiyat bilan munosabatga kirishishi, tez o'zgaruvchan sharoitlarga moslasha olish qobiliyati

➤ mamlakatda umumiy o‘rtta ta’limni takomillashtirish yo‘nalishlarini aniqlash;

➤ o‘quvchilarning ta’lim sohasidagi yutuqlari, shuningdek, turli mamlakatlar ta’lim tizimlari haqida qiyosiy ma’lumotlar olish.

PISA topshiriqlarining o‘ziga xos xususiyati shundaki, ularda hayotiy muammoli vaziyatlar aks etadi va bunga **kontekst** deb ataladi. Kontekst matn, jadval, grafik, rasmlarni o‘z ichiga oladi. PISAning 2015 yilda o‘tkazilgan topshiriqlarida muammoli vaziyatlar quyidagi kontekstlarda ifodalangan: salomatlik; tabiiy resurslar; atrof-muhit; xavf-xatar; ilm-fan va texnologiya sohasidagi yangi bilimlar.

Topshiriqning kognitiv (lotincha “cognize” – bilmoq, anglamoq, tushunmoq, fikrlamoq) darajasi – bu topshiriqni bajarish talab qilinadigan fikrlash jarayonining murakkabligi va topshiriqni bajarish uchun zarur bo‘ladigan bilim, ko‘nikmalar ko‘lamiga ko‘ra uchta: quyi, o‘rtta va yuqori darajalarga ajratiladi. Topshiriqlar quyidagi kognitiv darajalardan biriga ega bo‘ladi:

➤ *quyi daraja* (bir bosqichli amallarni bajarish, masalan, dalil, atama, qonuniyat va tushunchani yodga olish, jadval yoki grafikdan so‘ralgan ma’lumot ifodalangan nuqtani topish);

➤ *o‘rtta daraja* (hodisalarni tavsiflash va tushuntirishda tegishli bilimlardan foydalana olish va qo‘llay olish, ikki yoki undan ortiq bosqichli faoliyatni talab qiladigan tegishli amallarni tanlay olish, grafiklar yoki jadvallar ko‘rinishidagi oddiy ma’lumotlar to‘plamini talqin qila olish yoki qo‘llay olish);

➤ *yuqori daraja* (murakkab ma’lumotlarni tahlil qilish, dalillarni umumlashtirish yoki baholash, asoslash, axborotning turli manbalaridan foydalangan holda muammoni hal qilish rejasini tuzish yoki amallar ketma-ketligini belgilash).

Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik kompetensiyalarini baholashda quyidagi uch turdagи topshiriqlardan foydalilanadi:

➤ bitta to‘g‘ri javob tanlanadigan topshiriqlar: to‘rtta javob variantidan bittasini tanlash; matn yoki grafikdan “qaynoq nuqta”ni topish.

➤ Bir nechta to‘g‘ri javob tanlanadigan topshiriqlar. Bular: “Ha” yoki “Yo‘q” javobli topshiriqlar (javoblar soni ko‘p bo‘lishiga qaramasdan, baholashda ularga yaxlit bitta javob sifatida qaraladi); bir nechta javob variantlari orasidan bittadan ortiq to‘g‘ri javobni tanlash; “ochiladigan menyu”dan foydalanib, jumlaning bir qancha ochiq qolgan joylarini to‘ldirish; “siljитish va joylashtirish” usulidan foydalanib, ekrandagi

elementlarni siljитish orqali taqqoslash, tartib bilan joylashtirish, klassifikatsiyalashga oid topshiriqlar.

➤ Ochiq javobli topshiriqlar: bunday topshiriqlarning javobi yoziladi yoki chiziladi. Yozma javob qisqa iboradan tortib, 2–4 tagacha jumladan iborat bo‘lishi mumkin. Ochiq javobli ba’zi topshiriqlarda chizish talab etiladi (masalan, grafik, diagrammalar). Kompyuterga asoslangan baholashda bunday topshiriqlarni bajarish uchun oddiy rasm muharrirlaridan foydalilanadi.

PISA testlari 5 ta yo‘nalish bo‘yicha o‘tkaziladi, ya’ni, o‘qish, matematik, savodxonlik, tabiiy-ilmiy fanlar. Ushbu fanlar hamkorlikda muammolarni hal qilish va moliyaviy savodxonlik yo‘nalishlaridagi fanlardir. Geografiya ta’limida ushbu testlarning tabiiy-ilmiy savodxonlik yo‘nalishidan foydalilanadi.

Tabiiy-ilmiy fanlar savodxonligi bo‘limining asosiy maqsadi: hayotiy hodisalarda ilmiy usulda hal qilinishi mumkin bo‘lgan muammolarni aniqlash, kuzatuv va tajribalar asosida xulosalar chiqarish kompetensiyasi hamda atrofimizdagi olamni tushinish va inson faoliyati natijasida unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlarni anglab yetish, kerakli qarorlar qabul qila olish ko‘nikmasini rivojlantirish, ijodiy va tanqidiy fikrashlarini o‘stirishdan iborat. Albatta, ushbu savodxonlikning asosi fizika (astronomiya elementlari bilan birga), biologiya, kimyo va geografiya fanlari o‘qitilish jarayonida beriladi. Testlarda asosiy e’tibor o‘quvchilarning mazkur yo‘nalishlar bo‘yicha eng asosiy tushunchalarni bilishi, ba’zaviy bilim va ko‘nikmalarni egallagani, ulardan hayotiy vaziyatlarda foydalana olishiga qaratiladi. Bu testlarda o‘quvchilarning dars davomida aniq mavzular bo‘yicha o‘rgangan bilimlarini sinovdan o‘tkazish nazarda tutilmaydi. Masalan, “Dunyo okeani” mavzusida dunyo okeani, uning qismlari, okean suvlaringin xususiyatlari, tabiat mintaqalari, dunyo okeani tabiiy boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilishga oid ilmiy bilimlarni berish nazarda tutiladi. Mazkur bilimlarga tayangan holda quyidagicha PISA testlarini tuzish va shu o‘quvchilarni PISA test topshiriqlarini yechishga tayyorlab borish maqsadga muvofiq:

Karib dengizi Atlantika okeanining Katta Antil orollari, Janubiy Amerika materigining shimoli-g‘arbiy qirg‘oqlari orasida joylashgan eng yirik dengizlaridan biri. Uning maydoni 2 777 000 km<sup>2</sup>, suv miqdori 6860 000 km<sup>3</sup> ga teng. Karib dengizining o‘rtacha chuqurligi 2491 metr, eng chuqur joyi esa 7680 metrga teng. Yil davomida suv yuzasidagi o‘rtacha harorat 23–27° C, yog‘in miqdori sharqida 500 mm, g‘arbida 2000 mm. Suvining o‘rtacha sho‘rligi 36‰ ga yaqin. Karib dengizi muhim iqtisodiy

va strategik ahamiyatga ega. Dengiz suvining iliqligi va chiroli manzaralar ko'plab turistlarni o'ziga jalb qiladi.

**1-Topshiriq.** Karib dengizining eng cnuqur joyiga exolotdan yuborilgan tovush necha sekundda qaytib kelishini toping.

- A) 5,12 sekund
- B) 2,56 sekund
- C) 10,24 sekund
- D) 13,68 sekund

**2-Topshiriq.** Karib dengizi suvining o'rtacha sho'rligi 36 % ga teng bo'lsa, 216 kg tuz olish uchun qancha dengiz suvi kerak bo 'lishini hisoblang.

- A) 4.8 tonna
- B) 6 tonna
- C) 5 tonna
- D) 12 tonna

**3-Topshiriq.** Karib dengizi suvining yuzasida harorat + 27 ° C ga teng bo'lsa, dengizning eng chuqur qismidagi suvning haroratini aniqlang.

- A) + 41,66 ° C
- B) + 7,17 ° C
- C) + 11,64 ° C
- D) - 5,51 ° C

**4-Topshiriq.** Karib dengizi qirg'og'ida dam olayotgan sayyoh qirg'oqdan dengiz ichkarisi tomon suza boshladi. U 300 metr suzib borgandan so'ng, orqaga suzib keldi. Sayyoh borib kelish uchun 45 minut vaqt sarfladi. Agar sayyoh qirg'oqqa qaytib kelishi uchun borishiga qaraganda ikki barobar ko'p vaqt sarflagan bo'lsa, uning qaytishi uchun ketgan vaqtini toping.

- A) 20 minut
- B) 25 minut
- C) 30 minut
- D) 35 minut

Yuqoridagilarni amalga oshirish uchun oliy o'quv yurtlar ida bo'lajak o'qituvchilarni zamon talablari asosida o'qitish lozim hamda o'qituvchilarga PISA test va savollarni qanday tuzish lozimligi va tuzishda nimalarga e'tibor berish kerakligini tushuntirish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun esa amaliy mashg'ulot darslarida talabalarni mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikirlash qobiliyatlarini rivojlanishiga xizmat qiladigan metod va usullarni to'g'ri tanlash lozim. Bu albatta talabalarga berilgan muammoli savol va topshiriqlarni o'zlarini mustaqil bajarishlariga imkon

yaratadi. Shuningdek, talabalarda PISA test topshiriqlari va savollarni mustaqil tuza olish ko'nikmalari rivojlanadi va uning natijasida talabalarda quyidagi xususiyatlar tarkib topishiga yordam beradi:

- o'ziga bo'lgan ishonchni oshishishiga;
- bilim va iqtidorini yuzaga chiqarishga;
- hayotda o'z o'mini topishga;
- egallagan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlanishiga.

Dars davomida auditoriyada 20-30 va undanda ortiq talabalar bilan mashg'ulotlar olib boriladi. Auditoriyadagi talabalarning xotirasi, diqqati, psixofiziologik rivojlanishi, fikirlash qobiliyati bir-biridan farq qiladi. Shuning uchun bo'lajak o'qituvchilar PISA test va savollarini tuzish jarayonida o'quvchilarning yuqoridagi xususiyatlarini hisobga olmog'i lozim. Shunga muvofiq ravishda PISA dasturlarida o'quvchilarning bilim teranligining quyidagi 4 ta darajasi baholanadi.

*1-darajada.* Darslik matnidagi ma'lumotlarni eslab qolish va gapirib berish, xaritadan ma'lum voqeja va hodisa bilan bog'liq joylarni ko'rsata olish talab etiladi. Bu darajaning kalit so'zлari : "ko'rsating", "aniqlang", "eslang", "o'Ichang", "ta'riflang". Masalan, "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" kursida "Yevrosiyo materigi tabiat zonalari" mavzusida yuzasidan ushbu darajada quyidagicha PISA topshirig'ini tuzish mumkin:

1. Tabiat zonalari xaritasidan foydalanim Yevrosiyo materigida qanday tabiat zonalari shakillanganligini aniqlang.
2. Xaritadan foydalanim Yevrosiyo materigining mo'tadil iqlim mintaqasida tarqalgan tabiat zonalarini ko'rsating.

*2- darajada.* G'oya va malakalar: talabandan savol va muammolarga nisbatan qaror qabul qilish talab etadi. Topshiriqlari bajarishda axborotlardan yoki konseptual bilimlardan foydalanish; berilgan savol yoki muammolarni hal qilish uchun ijodiy fikirlash talab etiladi. Bu jarayonlar koproq aqliy tafakkurni talab etadi. Bu darajani ajratib ko'rsatadigan kalit so'zlariga "tasniflang", "tahlil qiling", "baholering", "kuzatishlar olib boring", "ma'lumotlar yig'ing va ko'rsating", "ma'lumotlarni taqqoslang" kabi fe'llar kiradi. Bu harakatlar bir necha bosqichni ko'zda tutadi. Masalan,

1. Yevrosiyo materigida tabiat zonalarini shakllanishida qaysi omillarning ta'siri katta, ularga baho bering va javobingizni asoslang.
2. Xaritadan Yevrosiyo materigi mo'tadil iqlim mintaqasida nima sababdan mazkur tabiat zonalarini shakllangan? Dengiz, kontinental va

musson iqlim tiplari tarqalgan hududlardagi tabiat zonalarini taqqoslang va ularning farqli jihatlarini tahlil qiling.

*3-darajada.* Strategik fikirlash: talabidan murakkabroq fikirlash va tahlil qilish, chuqr tushuncha hosil qilish talab etiladi. Talabalar muammoni yechishi va xulosa chiqarishi kerak. Oldingi darajalarga nisbatan dalil-isbotlar va fikr yuritishning bir muncha yuqori darajasi bo'lib, mulohaza yuritish, rejalashtirishni talab qiladi. Masalan,

1. Yevrosiyo materigi geografaik o'rni, relyefi, iqlimi, ichki suvlari va tabiat zonalarining shakillanishi o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlang?

2. Yevrosiyo materigining tabiiy, tabiat zonalari va siyosiy xaritalarini tahlil qiling va tabiat zonalarining iqlimi xususiyatlari, ularning ichki suvlari, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi mamlakatlar iqtisodiyotiga qanday ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatadi?

*4-darajada.* Kengaytirilgan fikirlash: talabidan darslikdan tashqari bir necha manbalardan olingen bilimlar va boshqa fanlardan olgan bilimlarni integratsiyalashni talab qiladi. Keng dunyoqarashlar uzoq vaqt davomida keng majmuali mulohaza yuritish, rejalashtirish, qarashlarni rivojlantirishni talab etadi. Agar talab qilinadigan ish faqat takroriy bo'lib, muhim konsteptual tushunchani va yuqori darajadagi qarashlarni qo'llashni talab qilmasa, vaqt chegaralanmaydi. Masalan,

1. Jahon miqyosida vujudga kelgan sho'rlanish, cho'llanish kabi global muammolari natijasida Yevrosiyo materigida qaday o'zgarishlar vujudga keladi? Global isishni bartaraf etish bo'yicha fikr va mulohazalaringizni bildiring.


2. Xarita va atlaslardan foydalanib, Yevrosiyo materigi tabiat zonalarda vujudga kelayotgan o'zgarishlar va ularning ijobiy va salbiy tomonlarini izohlang.

Yuqoridagilardan ko'rinish turibdiki, PISA testlarini tuzish murakkab jarayon bo'lib. U o'qituvchilardan ham mantiqiy va ijodiy fikrlash, fikrlar teanligi, chuqr bilim va h.k. kabu ko'plab pedagogic xususiyat va ma'suliyatni talab etadi.


Yerning ichki harakatlari natijasida vujudga keladigan vulqon otilishiga oid PISA topshiriqlarini quyidagicha tuzishimiz mumkin.

**Vulqon otilishi.** Sayyoramizda yerning ichki harakatlari faol davom etayotgan mintaqalar mavjud. Yerning ichki harakatlari, ya'ni ichki kuchlar ta'sirida Yer po'stida siljish, yorilish, ko'tarilish, cho'kish, bukilish kabi harakatlar ro'y beradi. Ushbu harakatlar bizga vulqon otilishi, zilzila ko'rinishlarida ma'lum. Yer sharining ko'pgina hududlarida mazkur vulqon otilishlari va zilzilalar odamlar hayotiga xavf soladi.

Quyida berilgan xaritalarda sayyoramizning yirik seysmik mintaqalari tushirilgan bo'lib, 1-xaritada vulqonlarning geografik joylashuvi, 2-xaritada zilzilalarning geografik joylashuvi ko'rsatilgan. Har ikkala xaritada "Olovli halqa" deb nomlangan hudud ko'rsatilgan. Ushbu hudud Tinch okeani mintaqasida joylashganligi uchun "Tinch okeani olovli halqasi" deb ham nomlanadi. Ushbu matndan foydalanib o'quvchilarga bir nechta topshiriqlar berishimiz mumkin. Berilgan topshiriqlar o'quvchilarga bir nechta kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi.



1-xarita. Vulqonlar




2-xarita. Zilzilalar

### 1-topshiriq:

"Yer po'stining harakatlari" matnini diqqat bilan o'qing va quyidagi savolga javob bering. Quyidagi xaritada vulqon otilishlari va zilzilalarning sodir bo'lish ehtimolligi eng kam bo'lgan hududni tanlang. O'zingiz tanlagan harfni belgilang.


Mazkur topshiriq o'quvchilarning ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish kompetensiyasini baholashga qaratilgan bo'lib, unga javob berish uchun o'quvchilar sxematik xaritalarga oid egallagan bilimlariga tayanadi va yuqoridagi 1-rasmida berilgan "Vulqon" xaritasida aks etgan ma'lumotlarni talqin etgan holda, vulqon otilishlari va zilzilalar eng kam sodir bo'lish ehtimolligi yuqori bo'lgan joyni, ya'ni nuqtalar eng kam joyni aniqlash kerak.



To'g'ri javob: "B".

**Vulqon otilishining Quyosh radiatsiyasiga ta'siri.** Vulqonlar otilganda yer qimirlashi, portlashlar ro'y beradi, gumburlagan ovozlar eshitiladi. Vulqon og'zidan atmosferaga vulqon kuli, toshlar, oltingugurt dioksidi va karbonat angidrid gazi ( $\text{CO}_2$ ) ajralib chiqadi. Vulqon otilishi natijasida atmosferaga chiqarilgan bunday chiqindilar Yer yuzasiga tushgan Quyosh radiatsiyasiga ta'siri ko'rsatadi. Quyidagi grafikda ushbu ta'sir ko'rsatilgan.

### Turli yillarda Yer yuzasiga tushgan Quyosh radiatsiyasi



### 2-topshiriq:

"**Vulqon otilishining Quyosh radiatsiyasiga ta'siri**" matnini o'qing, grafikni tahlil qiling va quyidagi savolga javob yozing. Nima sababdan Yerga tushadigan Quyosh radiatsiyasining miqdori vulqon otilganidan so'ng o'zgaradi?

O'quvchilar ushbu savolga javob berishlari uchun grafikda keltirilgan ma'lumotlarni tahlil qiladi, kuchli vulqon otilishlari yuz berganda atmosferaga chiqarilgan vulqon kuli, tosh, gaz va boshqa chiqindilar Quyosh kelayotgan radiatsiyasni yutishi yoki qaytarishi hisobiga Yerga tushadigan Quyosh radiatsiyasi miqdorining kamayishini tushuntirishlari kerak. Mazkur topshiriq o'quvchilarning ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish kompetensiyasini baholashga qaratilgan bo'lib, uni bajarish davomida o'quvchilarda ushbu kompetensiya rivojlantiriladi.

Javob: \_\_\_\_\_  
\_\_\_\_\_

### 3-topshiriq:

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslangan holda, vulqon otilishlari atmosferadagi karbonat angidrid gazi miqdoriga qanday ta'sir ko'rsatadi?

A. Kuchli ta'sir ko'rsatadi, chunki vulqonlar otilganda CO<sub>2</sub> ko'p ajralib chiqadi.

B. Kuchli ta'sir ko'rsatadi, chunki vulqon otilganda ko'p moddalar atmosferaga chiqarilishi natijasida CO<sub>2</sub> miqdori ortadi.

C. Kuchsiz ta'sir ko'rsatadi, chunki vulqon otilganda CO<sub>2</sub> boshqa omillarga qaraganda kam ajralib chiqadi.

D. Kuchsiz ta'sir ko'rsatadi, chunki vulqon otilganda chiqqan vulqon kuli, tosh, gazning chiqishi natijasida atmosferada CO<sub>2</sub> miqdori kamayadi.

O'quvchilar mazkur topshiriqni bajarishda grafikdagi ma'lumotlarni talil qilgan holda, vulqon otilishlari atmosferadagi karbonat angidrid gazi miqdori ortishiga boshqa manbalarga qaraganda sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmasligini aniqlay olishlari kerak.

To'g'ri javob: C Kuchsiz ta'sir ko'rsatadi, chunki vulqon otilganda CO<sub>2</sub> boshqa omillarga qaraganda kam ajralib chiqadi.

Ushbu topshiriq o'quvchilarning ma'lumotlar va dalillarni ilmiy talqin qilish kompetensiyasini baholashga qaratilgan bo'lib, javob berishda metodologik bilimlariga tayanishlari kerak.

Yuqorida kabi PISA topshiriqlari bilan o'quvchilarni tanishtirish va ularda halqaro baholash dasturlariga oid tushunchalarni shakllantirib borish lozim.

### 3. PIRLS va TIMSS xalqaro baholash tadqiqotlari va ularnngi o'ziga xos tomonlari

**PIRLS** - (inglizcha -*Progress in International Reading Literacy Study* – matnni o'qish va tushunish darajasini aniqlovchi xalqaro tadqiqot) mazkur xalqaro tadqiqotning maqsadi turli xil ta'lim tizimidan iborat bo'lgan davlatlarda boshlang'ich maktab o'quvchilarining matnni o'qish va qabul qilish bo'yicha tayyorgarligi hamda o'quvchilarning ta'limda yutuqlarga erishishga sabab bo'luvchi ta'lim tizimidagi o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash va baholashdan iborat.

PIRLS – xalqaro baholash dasturiga ko'ra boshlang'ich 4-sinf o'quvchilarining matnni o'qish va tushunish darajasi baholanadi.

Albatta bunday tadqiqot xalq ta'limi sohasidagi xodimlari, olimlar, metodistlar, o'qituvchilar, ota-onalar va jamoat vakillari uchun katta ahamiyatga egadir.

**PIRLS** tadqiqotlari Xalqaro ta'lim institutlari assotsiatsiyasi (**IEA**) tomonidan muvosiflashtiriladi. **PIRLS** loyihasi to'rtinchisi sinf o'quvchilarining o'qish qobiliyatini rivojlantirish darajasini aniqlash

bo'yicha yetakchi xalqaro tadqiqotlar doirasida olib borildi. Xalqaro ekspertlar ta'kidlashicha, ushbu tadqiqot orqali boshlang'ich maktabda maktab o'quvchilarining keyingi tarbiyasida muvaffaqiyat qozonish uchun poydevor qo'yilgan.

**PIRLS** tadqiqotining natijalari maktab o'quvchilarining o'qish va rivojlanishidagi muvaffaqiyatlarga (maktab va oilaning ta'lim resurslari, ota-onalarning qiziqishi va bolalarning o'qish madaniyatini shakllantirishdagi ishtiroki va boshqalar) ta'sir ko'rsatadigan omillarning regressiv tahlilini ta'minlaydi.

**PIRLS** tadqiqotida 3 ta davr (2001, 2006, 2011) uchun Gonkong (571), Rossiya Federatsiyasi (568), Finlyandiya (568) va Singapur (567) kabi davlatlar yetakchilik qilmoqda. Qozog'iston ushbu loyihada birinchi marta 2016 yilning aprelida ishtirok etdi.

**TIMSS-maktab matematika va tabiiy fanlar ta'lim sifatining Xalqaro monitoringi.** Maktab matematika va tabiiy fanlar ta'lim sifatining Xalqaro monitoringi (inglizcha – *Trends in Mathematics and Science Study*) - bu dastur bilim yutuqlarini baholash xalqaro uyushmasi tomonidan tashkillangan (IEA). Ushbu tadqiqot boshlang'ich ta'limning 4-sinf o'quvchilari va 8-sinf o'quvchilarini turli davlatlarda matematika va tabiiy fanlar bilimlarining darajasi va sifatini solishtirishga hamda milliy ta'lim tizimidagi farqlarni aniqlashga ko'maklashadi.

TIMSS baholash dasturiga ko'ra 4- va 8-sinf o'quvchilarining tabiiy ilmiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasi baholanadi.

Ushbu tatqiqot 4 yilda bir marta o'tkaziladi. Shu kunga qadar 6 marta 1995, 1999, 2003, 2007, 2011 va 2015 yillarda o'tkazildi.

1995 yildan (oxirgisi 2015 yilda) maktab bitiruvchilarining (Rossiyada 11-sinf, AQSHda -12-sinf) yutuqlarini aniqlashni o'z ichiga olgan xolda kengaytirilgan tadqiqot ishlari (Advanced TIMSS) olib borilmoqda.

TIMSS baholash dasturi yordamida maktabning matematika va tabiiy fanlar ta'limi sifatiga solishtirma baho beriladi. Har 4 yil davomida 4- va 8-sinf o'quvchilarining ta'lim yutuqlariga baho berib boriladi va shu bilan birga, nafaqat ularining bilim va ko'nikmasi, balki ularning ushbu fanlarga bo'lgan munosabati, qiziqishi hamda ta'limga bo'lgan motivatsiyasini solishtirishga imkon beradi. Tadqiqotning asosiy rejasи: 4 yil davomida 4-sinf o'quvchisi 8-sinfga yetgunga qadar uning matematika va tabiy fanlar bilimining natijalari kuzatib boriladi. Shu yo'sinda maktabning boshlang'ich va yuqori sinf o'quvchilarining bilim yutuqlarining monitoringi amalga oshiriladi.

2019 yilning may oyida Xalq ta'lifi vazirligi va YuNISEF ning O'zbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida "O'quvchilarining muvaffaqiyatli o'zlashtirishiga salbiy ta'sir etuvchi omillarni aniqlash" mavzusida tadqiqot o'tkazilgan. Unda respublika bo'yicha tanlab olingan 255 ta maktabda tahlil olayotgan 4-sinf o'quvchilarining matematika, o'qish va tabiatshunoslik fanidan bilimi tajriba tariqasida sinovdan o'tkaziladi. Monitoring uchun TIMSS tadqiqoti materiallari mazmuni, talabidan kelib chiqib, test savollari tayyorlangan.

**Tayanch so'z va iboralar:** PISA, PIRLS, TIMMS, TALIS, xalqaro baholash tadqiqotlari, xalqaro standart, xalqaro baholash dasturi.

#### **TALABALARING O'ZLASHTIRGAN BILIMLARINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Nima sababdan O'zbekistonda xalqaro baholash tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda?
2. Xalqaro baholash tizimi deganda nimani tushunasiz?
3. PISA nima? U qaysi mamlakatlarda olib borilmoqda?
4. Xalqaro baholash tizimiga o'tish uchun qanday ishlar amalga oshirilishi lozim?
5. Nima sababdan o'qish, matematika va tabiiy yo'nalishdagi fanlardan xalqaro tadqiqotlar yo'nalishlaridagi savollar milliy bazasini yaratish zarur?
6. PIRLS nima? U qanday amalga oshiriladi?
7. PIRLS halqaro baholash dasturining maqsadi nima?
8. TIMMS nima? U qanday afzallikka ega?
9. TIMMS xalqaro baholash tadqiqotlari qaysi fanlarning ta'lif sifatiga solishtirma baho beradi?
10. TALLIS nima? Nima sababdan ushbu baholash tizimi amalga oshiriladi?
11. PISA, PIRLS, TIMMS va TALLIS baholash tizimlariga VENN diagrammasi tuzing.
12. PISA, PIRLS, TIMMS xalqaro baholash dasturi asosida topshiriqlar tuzing.

#### **VI. GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHNING TA'LIMIY, TARBIYAVIY VA RIVOJLANTIRUVCHI MAQSADLARI**

##### **1. Geografiya ta'limenting maqsadlari va vazifalari**

Geografiya ta'lifi uzlusiz ta'lif tizimining barcha bo'g'inlarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonning ajralmas va uzviy bog'langan tarkibiy qismi sifatida mazkur ta'lif muassasaslari oldiga qo'yilgan umumiyl maqsadlarga muvofiq barkamol o'quvchi shaxsini tarbiyalashga xizmat qildi. Shuningdek, geografiya ta'lifi o'quvchi va talabalarda Yer to'g'risidagi ilmiy dunyoqarashlarni shakllantiradi, iqtisodiy-ijtimoiy bilimlarni tarkib toptiradi, dunyo davlatlari va turli regionlarda jamiyat va tabiatning o'zaro bog'liqligi, geografik obyekt, jarayon va hodisalar haqidagi bilim va tushunchalar bilan qurollantiradi, umuminsoniy madaniyatni tarkibiy qismi bo'lgan geografik madaniyatni tarbiyalaydi.

**Geografiya ta'limenting asosiy masqsad va vazifalari** Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6-apreldagi 187-son qarorining 4-bobida quyidagicha belgilab berilgan:

**Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida tabiiyot va geografiya o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi:**

- ✓ o'quvchilarda tayanch hamda tabiiyot va geografiya o'quv faniga oid umumiyl kompetensiyalarni shakllantirish;
- ✓ jamiyat va tabiatning o'zaro bog'liqligi, geografik obyektlar, jarayon va hodisalar, Yer yuzining tabiiy manzarasi, tabiatdan oqilona foydalanish, Yer yuzidagi global ekologik muammolar haqida fikr-mulohaza yuritishga o'rgatish, tabiatni qadrlash va muhofaza qilish, olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llash mahoratini shakllantirish;
- ✓ o'quvchilarning hayotiy tasavvurlari bilan amaliy faoliyatlarini umumlashtirib borib, geografik bilimlarni hayotga tatbiq eta olish salohiyatini shakllantirish va rivojlantirish.

**Umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limida tabiiyot va geografiya fanini o'qitishning asosiy vazifalari:**

- o'quvchilarda atrofimizdagi olamga, o'z Vataniga muhabbat hissini uyg'otish;
- tabiatni asrash va muhofaza qilish, nazariy bilimlarini amalda qo'llash malakalarini shakllantirish;
- tabiatni kuzatish, tahvil qilish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarkib toptirish;

- ijtimoiy hayot va ta'lim olishni davom ettirishlari uchun zarur bo'lgan bilimlarni egallash;

- hozirgi zamон talabлari, ta'lim sohasidagi jahon andozalari va milliy rivojlanish manfaatlariga mos keladigan tafakkur va bilimlarni egallashi, shu bilan birga ulardan kundalik hayotlarida foydalana olishga o'rgatishdan iborat.

O'qituvchi yuqorida география та'limining asosiy vazifalarini amalga oshirish, география та'lim samaradorligiga erishish va o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish hamda boshqarishi uchun ta'lim mazmunining tarkibiy qismlari va ularni o'quvchilar tomonidan o'zlashtirish usullarini bilishi lozim.

Geografiya o'qitishning hozirgi davrda samarali bo'lishi o'quvchilarning o'quv-bilish, mehnat va jamoat faoliyatlarida qatnashishi uchun zarur bo'lgan geografik bilimlar, ko'nikmalar, malakalarni egallaganliklar, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati bilan belgilanadi. Ular esa o'z navbatida o'quvchilarning geografik bilimlarni egallaganlik, tarbiyalanganlik natijasida dunyoqarashi, e'tiqodi, tabiat, jamiyat va shaxsga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi. O'quvchilarning rivojlanish darajasi, qobiliyati, jismoniy va aqliy jihatdan takomillashtirishga bo'lgan ehtiyoji bilan ifodalanadi.

Geografiya fanlar tizimida har bir geografiya fanining o'ziga xos jihatlari mavjud. Mazkur jihatlar geografiya fanining maqsadini belgilab beradi. Geografiya o'qituvchisi har bir sinf geografiya kursini maqsadlarini bilishi lozim.

Geografiya ta'limining maqsadlarini uch guruhga bo'lish mukin: ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi.

#### **Ta'limiy maqsadlar quyidagilardan iborat:**

-o'quvchiga geografiya, ya'ni, tabiiy hamda iqtisodiy va ijtimoiy geografik hamda amaliy geografiya asoslari bo'yicha mustahkam bilimlar berish. Tabiatdan foydalanishni va uni muhofaza qilishni ilmiy, texnik, iqtisodiy asoslarini ochib berish;

-umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarini iqtisodiy, ekologik, geosiyosiy bilimlarni egallashlariga imkon yaratish hamda kasbga yo'naltirish;

- o'quvchilarni geografik borliq va hodisalarni o'rganish usullari bilan qurollantirish. Mazkur usullar (metodlar) bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish;

- tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografiya, amaliy geografiya va boshqa oraliq geografik fanlarni yirik xalq xo'jaligi muammolarini yechishdagi

o'rni va ahamiyatini ochib berish. Masalan, Orol muammosini yechimini, tuproqqa meliorativ ishlov berishda agrotexnika qoidalariga rioya qilmaslik oqibatida eroziya jarayonini tezlashuvi va uni oldini olishni, O'zbekistonning buyuk davlat bo'lishini geografik asoslarini ishlab chiqish;

- o'quvchilarni geografik xaritalardan, statistik ma'lumotnomalardan, qo'shimcha adabiyotlardan foydalanishga o'rgatish, egallagan nazariy geografik bilimlarini amalda va yangi sharoitlarda qo'llay bilish ko'nikmalarini shakllantirish. O'quvchilarda geografik madaniyatni shakllantirish.

#### **Tarbiyaviy maqsadlar quyidagilardan iborat:**

Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limining davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida» 187-son qarori bilan umumiyo o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimidagi har bir umumta'lim fani, shu jumladan, geografiya fani bo'yicha malaka talablari ishlab chiqildi, tasdiqlandi va amaliyotga joriy qilindi. Geografiya fani malaka talablarining yangi tuzilmasi quyidagicha:

I. Geografiya fanini o'rganishning quyidagi *bosqichlari* (darajalari) belgilandi:

- 1) tayanch darajasi (**A2**) - umumiyo o'rta ta'lim maktablarida;
- 2) kuchaytirilgan tayanch darajasi (**A2+**) - umumiyo o'rta ta'lim maktablarining geografiya fani chuqur o'rganiladigan sinflari va geografiya fani chuqur o'rganiladigan ixtisoslashtirilgan umumiyo o'rta ta'lim maktablarida;

3) umumiyo darajasi (**V1**) - umumiyo o'rta ta'lim maktablarining 10 sinflari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida;

4) kuchaytirilgan umumiyo darajasi (**V1+**) - geografiya fani chuqur o'rganiladigan umumiyo o'rta ta'lim maktablari hamda ixtisoslashtirilgan umumiyo o'rta ta'lim maktablarining 10 sinflari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida;

II. Geografiya fanini o'rganishning asosiy *maqsadi* va *vazifalari* aniqlandi (o'quvchilarga geografik obyektlar, jarayon va hodisalar, Yer yuzining tabiiy manzarasi, tabiatdan oqilona foydalanish, tabiatni qadrlash va muhofaza qilish, global ekologik muammolar, jamiyat va tabiatning o'zaro aloqadorligi haqida geografik bilimlar berish, ularda geografik ilmiy dunyoqarash, mantiqiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish *maqsadi* va shu asosda o'quvchilarda tayanch hamda geografiya faniga oid umumiyo kompetensiyalarni, yani mayjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyatini.shakllantirish *vazifalari*);

III. Geografiya ta'limining uzlusizligi, uzviyliги, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlari mos holda quyidagi tayanch hamda geografiya faniga oid umumiy kompetensiyalarni shakllantirish majburiyligi belgilandi.

IV. Geografiya fanini o'rganishning *mazmuni* yuqorida ta'kidlangan o'rganish bosqichlari (darajalari), maqsad va vazifalar, tayanch hamda geografiya faniga oid umumiy kompetensiyalarga muvofiq aniqlanishi belgilandi.

V. Geografiya fani bo'yicha umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari bitiruvchilariga qo'yilgan *malaka talablari* o'quvchilarga geografiya faniga oid umumiy kompetensiyalarni tegishli darajalar bo'yicha fan mazmunidan kelib chiqqan holda shakllantirish sifatida belgilandi.

Yuqoridagilardan ko'rinish turbdiki, geografiya fanining yangi malaka talablarida muvofiq, geografiyanı oqitishda o'quvchilarga ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi, ta'lim va tarbiya berish bilan birgalikda ularda egallagan nazariy bilimlarni amaliyatda qo'llay olish, ya'ni kompetensiyani shakllantirish mجبuriy qilib belgilab qo'yildi.

**Kompetensiya** — mavjud bilim, ko'nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo'llay olish qobiliyati.

O'zbekiston Respublikasida ta'limning uzlusizligi, uzviyliги, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh psixofiziologik xususiyatlari mos tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi. Kompetensiya shakllantirish xususiyatiga ko'ra **tayanch kompetensiya va fanga oid kompetensiyaga** bo'linadi.

1) *tayanch kompetensiyalar*: a) kommunikativ kompetensiya; b) axborotlar bilan ishslash kompetensiyasi; v) o'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi; g) ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi; d) milliy va umummadaniy kompetensiya; j) matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanan kompetensiyasi;

2) *geografiya faniga oid umumiy kompetensiyalar*: a) tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy jarayon hamda hodisalarni kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiyasi; b) geografik obyektlar, joy nomlarini to'g'ri qo'llay olish kompetensiyasi; v) globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyatda foydalana olish kompetensiyasi; g) tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetensiyasi;

O'quvchilarda shakllantirilishi lozim bo'lgan tayanch kompetensiya quyidagilarni shakllantirishni nazarda tutadi:

**Kommunikativ kompetensiya** — ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida hamda biror xorijiy tilda o'zaro muloqotga kirisha olishni, muloqotda muomala madaniyatiga amal qilishni, ijtimoiy moslashuvchanlikni, hamkorlikda jamoada samarali ishlay olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Kommunikativ kompetensiyalar doirasida mustaqil fikrini og'zaki va yozma tarzda erkin ifoda eta olish, guruhlarda ijodiy tarzda ishlay olish, geografik atama va tayanch so'zlarni xorijiy tilda aytishi va yozilishini bilishi (A2), Yer shari, materiklar va okeanlar, tabiiy geografik o'lklar, O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiatiga doir turli manbalardan foydalanan ma'lumotlar topish (A2+);

**Axborotlar bilan ishslash kompetensiyasi** — mediamanbalardan zarur tavsiflarni izlab topa olishni, saralashni, qayta ishslashni, saqlashni, ulardan samarali foydalana olishni, ularning xavfsizligini ta'minlashni, media madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Axborotlar bilan ishslash kompetensiyasi doirasida geografik adabiyotlardan samarali foydalana olish, ular asosida mavzuli axborotlarni tayyorlay olish, ommaviy axborot vositalari hamda Internet-saytlardan geografik mazmunga ega bo'lgan ma'lumotlarni topish va ularni tahlil qila olish, media madaniyatga rioya qilish (A2), mavzularga doir qiziqarli referatlar tayyorlash (A2+);

**O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi** — doimiy ravishda o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish, kamolotga intilish, hayot davomida mustaqil o'qib-o'rganish, kognitivlik ko'nikmalarini va hayotiy tajribani mustaqil ravishda muntazam oshirib borish, o'z hatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish ko'nikmalarini egallashni nazarda tutadi. O'zini-o'zi rivojlantirish kompetensiyasi doirasida o'quvchilar bilimini mustaqil ravishda oshirib borish, o'qib o'rganganlarini o'rtoqlari bilan muhokama qilish, halol va to'g'ri so'z bo'lish, o'z hatti-harakatini nazorat qilish, do'stona tanqidni to'g'ri qabul qilish, atrofidagi tabiat manzaralari va madaniy landshaftlarni estetik his etish (A2), tabiat manzaralari va madaniy landshaftlari o'zgartirilgan hududlarni manbalardan topa olish (A2+);

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi** — jamiyatda bo'layotgan voqeja, hodisa va jarayonlarga daxldorlikni his etish va ularda faol ishtirok etish, o'zining fuqarolik burch va huquqlarini bilish, unga rioya qilish, mehnat va fuqarolik munosabatlarida muomala va huquqiy madaniyatga ega bo'lish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi doirasida o'quvchilar maktab, mahallada olib borilayotgan tadbirlarda maqsad yo'lida faol ishtirok etish, muomala

madaniyatga ega bo'lish (A2), tabiatni muhofaza qilishga oid tadbirlarda o'z fikrini dadil bayon etish (A2+);

**Milliy va umummadaniy kompetensiya** — vatanga sadoqatli, insonlarga mehr-oqibatli hamda umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, badiiy va san'at asarlarini tushunish, orasta kiyinish, madaniy qoidalarga va sog'lom turmush tarziga amal qilish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Milliy va umummadaniy kompetensiya doirasida umuminsoniy va milliy qadriyatlarga e'tiqodli bo'lish, geografik sayohat va kashfiyotlar tarixini insoniyat tarixining ajralmas qismi sifatida anglash, o'zgalarining milliy va etnik xususiyatlari, an'ana va marosimlarini hurmat qilish (A2), Yer yuzining kashf etilishida o'z hissasini qo'shgan geograf sayohatchi va kashfiyotchilar haqida ma'lumotlar to'plash (A2+);

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi** — aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy, oilaviy, kasbiy va iqtisodiy rejalarini tuza olish, kundalik faoliyatda turli diagramma, chizma va modellarni o'qiy olish, inson mehnatini yengillashtiradigan, mehnat unumdonligini oshiradigan, qulay shart-sharoitga olib keladigan fan va texnika yangiliklaridan foydalana olish layoqatlarini shakllantirishni nazarda tutadi. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiyasi doirasida Yer yuzi tabiatni, aholisining hayoti va ishlab chiqarish faoliyatini tadqiq etishning zamonaviy usul va texnik vositalari haqida tasavvurga ega bo'lish, aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda shaxsiy rejalarini tuza olish, hisob-kitob bilan ish yuritish (A2), globus va xaritalardan materiklar va okeanlarning joylashgan o'rnnini, geografik koordinatalarini aniqlab topish (A2+). Mazkur kompetensiylar umumta'lim fanlari orqali o'quvchilarda shakllantiriladi.

Shuningdek har bir umumta'lim geografiya fanining mazmunidan kelib chiqqan holda o'quvchilarda shakllantiriladigan *fanga oid umumi kompetensiylarda* quyidagilar shakllantiriladi:

**Tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiyjarayon hamda hodisalarni kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiyasida** o'quvchilar Quyosh tizimidagi sayyoralarining nomlarini ayta oladi, Yer yuzidagi tabiiy jarayon va hodisalarni kuzatadi, ayta oladi, tun va kun, yil fasllari almashinishini kuzatadi va aytib bera oladi, kundalik hayotda ob-havoning o'zgarishini mahalliy belgilarga qarab aniqlay oladi, termometr yordamida havo haroratini o'lchay oladi, usq tomonlarini kompas va mahalliy belgilarga qarab aniqlay oladi, O'zbekiston Respublikasi va uning

viloyatlari tabiatni haqida biladi va ayta oladi (A1); Yer yuzi tabiatining vaqt davomida o'zgarishi va rivojlanishi haqida biladi va ayta oladi (A1+); Geografik qobiq va uning tarkibiy qismlari — litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosferada kechadigan tabiiy hodisa hamda jarayonlarning mohiyatini anglaydi, tushunadi va tushuntira oladi, tabiiy hodisa va jarayonlarni kundalik hayotda turli asboblar (kompas, termometr, barometr, flyuger va b.) yordamida o'lchash va aniqlashni bajara oladi, materiklar, okeanlar, O'rta Osiyo va O'zbekistonning tabiiy sharoiti va resurslariga tavsif bera oladi, ularning hududiy xususiyatlarini tahlil qiladi va o'zaro taqqoslay oladi, Yer yuzi tabiatining xilma-xilligini keltirib chiqaruvchi asosiy geografik omil va qonuniyatlarini biladi, anglaydi, misollar bilan izo hlay oladi, jahon xo'jaligi, dunyoning yirik mintaqasi va davlatlari, O'zbekistonning iqtisodiy geografik rayonlari va viloyatlari, O'zbekistonga yaqin joylashgan mamlakatlarga kompleks iqtisodiy-geografik tavsif bera oladi, hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan taqqoslay oladi, aholi va ishlab chiqarishning joylashuviga ta'sir etuvchi geografik omillarni ayta oladi va misollar bilan izohlay oladi, aholi dinamikasi va tarkibi, zamonaviy demografik jarayonlar, urbanizatsiya va aholi migratsiyasining mohiyatini tushunadi va tahlil qila oladi, dunyoning siyosiy xaritasi, uning tuzilishini tushunadi va tushuntira oladi, geografik bilimlar asosida tabiiy hamda iqtisodiy-ijtimoiy jarayon va hodisalarga doir amaliy topshiriqlarni yecha oladi (A2); Geografik qobiq va uning tarkibiy qismlarida kechadigan tabiiy hodisa hamda jarayonlarning mohiyatini biladi, tushunadi, tushuntira oladi va misollar bilan o'z o'lkasi tabiatida namoyon bo'lish holatlarini tafsiflay oladi, tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy hodisa va jarayonlarning turli o'lcham va kattaliklarini (harorat, yog'in miqdori, aholi soni va hokazolarni) tasvirlovchi grafiklarni tuza oladi; statistik ma'lumotlardan foydalanib, jadval va diagrammalarini tuza oladi va ularni tahlil qila oladi, turli ma'lumot manbalaridan foydalangan holda hududlarning kompleks tafsifini mustaqil ravishda tuza oladi, ishlab chiqarish tarmoq va korxonalarini hududiy tashkil etish omil va qonuniyatlarini ayta oladi, alohida tarmoq yoki korxonalar misolida ularni izohlay oladi (A2+); Yer yuzi tabiatiga fazoviy (tashqi) va sayyoraviy (ichki) omillarning ta'sirini tushunadi va tushuntira oladi, geografik qobiqning asosiy qonuniyatları — bir butunlik, modda va energiya almashinuvni, ritmiklik, zonallik, azonallik, balandlik mintaqalanishini biladi, globalashuv ta'sirida jahon xo'jaligi, dunyoning geosiyosiy tuzilishida ro'y berayotgan o'zgarishlarni biladi va tahlil qiladi, ularni misollar bilan izohlay oladi, insoniyatning global muammolari haqida

tushunchaga ega bo‘ladi, jahoning yirik mintaqalari va turli davlatlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishiga ta’sir etuvchi geografik omillarni tushunadi va tushuntiradi, Markaziy Osiyo va O‘zbekistonning zamonaviy geosiyosiy va geoijtisodiy o‘rnini biladi (B1); hozirgi zamonning dolzarb muammolar — suv, energetika, oziq-ovqat, xom ashyo muammolarining mohiyatini tushunadi va tushuntira oladi, ularning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda turli ko‘rinishda namoyon bo‘lishlarini misollar bilan izohlay oladi, O‘zbekiston milliy iqtisodiyotida amalga oshirayotgan islohotlar, tarkibiy o‘zgarishlar, mintaqaviy siyosatning hududlar, jumladan o‘zi yashaydigan joydagи iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanish jarayonlariga ta’sirini biladi (B2+).

**Geografik obyektlar, joy nomlarini to‘g‘ri qo‘llay olish kompetentsiyasi:** O‘zi yashaydigan joy (mahalla, qishloq, tuman, shahar) nomlarini biladi, u yerdagi geografik obyektlarning (tog‘, tekislik, suv havzalari va boshqalarning) nomlanishini og‘zaki va yozma ravishda to‘g‘ri qo‘llay oladi, O‘zbekistondagi viloyat va shaharlarning nomlarini aya oladi va to‘g‘ri yoza oladi (A1); joy nomlarining o‘ziga xos mazmun va tarixiy ahamiyatga ega ekanligini aya oladi. (A1+); materiklar, qit’alar va okeanlarning o‘rganilish tarixi va uning geografik obyektlar nomlarida aks etganligini aya oladi, tabiiy geografik o‘lkalar, davlatlar, poytaxt va yirik shaharlarning nomlarini aya oladi va to‘g‘ri yoza oladi, geografik obyektlar nomlarining o‘ziga xos ma’no-mazmunini tushuntira oladi, o‘zi yashaydigan joy (hudud)ning toponimikasini aya oladi(A2); davlatlar, ularning poytaxti va yirik shaharlari, O‘zbekistondagi ayrim tuman va shaharlar, tabiiy geografik obyektlarning tarixda turli nomlanganligini, geografik obyektlarning qayta nomlanish holatlarini misollar bilan izohlay oladi, geografik xaritalarda shahar, shaharcha va qishloqlarning yozilish qoidalaridagi farqini aya oladi va amaliyotda qo‘llaydi (A2+), dunyoning tabiiy va geosiyosiy mintaqalarning nomlarini izohlay oladi, bir-biriga yaqin geografik nomlarning (Lotin Amerika va Markaziy Amerika, O‘rta Osiyo va Markaziy Osiyo va h.k.larning) o‘zaro farqini aya oladi (B1); davlatlar, mintaqalar, shaharlar va boshqa obyektlarning nomlari tarixiy, madaniy va siyosiy mazmun-mohiyatga ega ekanligini biladi (B1+).

**Globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetentsiyasi:** globus, dunyoning yarim sharlari xaritasi, O‘zbekiston tabiiy va siyosiy xaritalaridan geografik obyektlarning joylashgan o‘rnini ko‘rsata oladi, O‘zbekistonning tabiiy xaritasidan o‘zi yashaydigan hududni, mamlakatimizdagi eng baland tog‘lar, tekisliklar, daryolar va boshqa geografik obyektlarni ko‘rsata oladi (A1);

Globus va geografik xaritalarning mashtablari yordamida geografik obyektlarning o‘lchamlarini hisoblab chiqara oladi (A1+); globus va geografik xaritalar, o‘quv atlaslari masshtabi, daraja to‘ri (meridian va parallellar) yordamida geografik obyektlarning joylashgan o‘rnini va geografik koordinatalarini hamda o‘lchamlarini aniqlay oladi; joy tuzilishi va topografik xaritalardan milliy iqtisodiyotning turli sohalarida, joylarda yo‘nalish olish, relyefni o‘rganish maqsadlarida foydalana oladi, mavzuli tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy xaritalar yordamida hududlarning tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi va xo‘jaligini tavsiflay oladi, o‘quv atlasi yordamida yozuv siz xaritalarga materiklar va okeanlar, davlatlarning siyosiy, tabiiy (iqlim, tabiat zonalari va b.), iqtisodiy-ijtimoiy (sanoat, qishloq xo‘jaligi va b.) xaritalarini tushira oladi (A2); xaritalarda qo‘sishimcha ma’lumot sifatida berilgan jadval, diagramma va grafiklar bilan ishlay oladi, kartografik andozalarni meridian va parallellarning ko‘rinishidan ajrata oladi, geografik xaritalardan foydalanib hududlarning kompleks geografik profillarini tuza oladi (A2+); geografik xaritalar yordamida dunyoning mintaqalari, Markaziy Osiyo va O‘zbekistonning tabiiy, iqtisodiy-ijtimoiy sharoitiga tavsif beradi va qiyosiy tahlil qila oladi (B1); mavzuli xaritalar asosida ma’lum bir hududlarning tabiatini, aholisi va xo‘jaligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlay oladi (B1+).

**Tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetentsiyasi:** O‘zi yashaydigan joy tabiatini, O‘zbekistondagi tabiat boyliklari, diqqatga sazovor tabiat obyektlari, ularni muhofaza qilish haqida aytib bera oladi, tevarak atrofdagi tabiiy muhitni (suv, havo, tuproqni) asrab, ulardan tejamkorlik bilan foydalana oladi (A1); mamlakatimizning cho‘l, vodiyo, adir, tog‘, yaylov mintaqalarida tabiatni muhofaza qilish haqida biladi va aytib bera oladi (A1+); tabiatdan oqilona foydalanish, insonning tabiatga ta’siri, global va mintaqaviy ekologik muammolarning kelib chiqish sabablarini biladi va misollar bilan tushuntira oladi, tabiiy resurslarning jamiyat hayotidagi o‘rnini haqida aya oladi, materiklar, turli mamlakatlar, O‘zbekiston Respublikasidagi muhofaza etiladigan hududlar, ularning turlari, hududiy joylashushi va amaliy ahamiyatini aya oladi va misollar bilan izohlay oladi (A2); tabiiy resurslarning hududiy tarqalish qonuniyatlarini haqida aya oladi va ularni misollar bilan izohlay oladi (A2+); Yevropa, Osiyo, Shimoliy Amerika, Lotin Amerikasi, Afrika, Avstraliya va Okeaniya kabi yirik mintaqalardagi dolzarb ekologik muammolarning mohiyati va kelib chiqishi omillarini tahlil qila oladi, O‘zbekiston va Markaziy Osiyo mamlakatlaridagi ekologik muammolarning mohiyati va kelib chiqish omillarini biladi, mintaqadagi

yagona ekologik muhit, transchegaraviy ekologik muammolar mohiyatini tushunadi (B1); Xalqaro tashkilotlar va turli davlatlar tomonidan global ekologik muammolarni hal etishga qaratilgan hatti-harakatlar, bu boradagi tuzilgan va imzolangan xalqaro va davlatlararo shartnomalar haqida biladi va ayta oladi (B1+).

**Tayanch so'z va iboralar:** kompetensiya, tayanch kompetensiya, fanga oid kompetensiya, ta'limiy maqsad, tarbiyaviy maqsad, rivojlaniruvchi maqsad, qiziquvchanlik qobiliyat.

#### **TALABALARING O'ZLASHTIRGAN BILIMLARINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Tabiiyot va geografiya o'quv fanini o'qitishning asosiy maqsadi nima?
2. Tabiiyot va geografiya o'quv fanini o'qitishning asosiy vazifalari nimalardan iborat?
3. Geografiyanı o'qitishning ta'limiy maqsadi deganda nimani tushunasiz?
4. Geografiyanı o'qitishning tarbiyaviy va rivojlaniruvchi maqsadlarini tahlil qiling va o'tog'ingiz bilan fikr almashing.
5. O'quvchilarining qiziquvchanlik qobiliyatı deganda nimani tushunasiz?
6. Kompetensiya nima? Uning qanday turlari mavjud?
7. Umumiy o'rta ta'lim maktablari 5-9-sinflarda o'qitiladigan geografiya predmetlari bo'yicha kompetensiyalar jadvalini tuzing va to'ldiring.

#### **VII BOB. MAKTAB GEOGRAFIYASINING MAZMUNI VA TARKIBI**

##### **1. Geografiyadan Davlat ta'lim standarti**

Geografiya ta'limi shakllari va bosqichlariga binoan turlicha tuzilishga ega.

Geografiya ta'limi hozirgi davrda quydagi qismrlarga bo'linadi:

- umuta'lim maktablarida geografiya ta'limi;
- akademik litsey va kasb-hunar kollejlardida geografiya ta'limi;
- oliy geografiya ta'limi;
- Yordamchi maktablarda geografiya ta'limi;
- Malaka oshirish muassasalarida geografiya ta'limi.

Umumta'lim maktablari geografiyasining asosiy qoidalaridan biri tabiiy va iqtisodiy geografiyanı alohida-alohida o'rganishdir. Bu esa umumta'lim maktablari geografiyasida tabiiy va iqtisodiy geografiyaning asoslarini to'la aks ettirishga imkon beradi.

Umum ta'lim maktabi geografiya kurslari zinapoyasimon tuzilishga ega. Bunda asta-sekin quyi sinfdan, yuqori sinflarga qarab murakkablashib boradi, qaytarishlarga yo'l qo'yilmaydi, lekin yangi ma'lumotlar ilgari o'tilgan ma'lumotlar asosida beriladi. Bu esa o'quvchilarni yangi ma'lumotlarni umuman darsni yaxshi va to'la o'zlashtirishga imkon beradi.

Geografiya predmetining ayrim kurslarini o'rganish tartibi quyidagidan iborat:

- I-IV sinf – atrofimizdagi olam va tabiatshunoslik;
- V sinf – tabiiy geografiya boshlang'ich kursi;
- VI sinf – materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi;
- VII sinf – O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiy geografiyasi;
- VIII sinf – O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi;
- IX sinf – Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi;
- X sinf – Amaliy geografiya.

**Tabiatshunoslik kursi** – tabiiy hodisalar, moddalar, yer haqida oddiy ma'lumotlarni beradi. Bu kurs quydagi bo'limlardan iborat:

1. Vatanimiz tabiat: joy tomonlarini aniqlash (ufq va ufq chizig'i, kompas bilan joy tomonlarini aniqlash: plan va masshtab: sinf, maktab, shahar plani, joy planini o'qish: plan va geografik xarita) vatanimiz xaritasi oldida

2. O'zbekiston tabiatining xilma – xilligi: cho'llar (tabiat, qumli barxan, cho'l tabiatini inson tomonidan o'zlashtirish, o'simlik va hayvonlar, cho'lida kechasi, cho'l aholisining yumushlari, Qizilqumda kumushsimon o'rmon, cho'l mo'jizasi): tog' tabiat

3. O'zbekiston tabiatini qo'riqlash: tabiat va insonni o'zaro ta'siri, tuproq, suv va havoni qo'riqlash, Qizil kitob, qo'riqxonalar, O'zbekiston tabiatini yodgorliklari.

**Tabiiy geografiya kurslari** o'quvchilarga geografik qobiqda sodir bo'ladigan voqe va hodisalar, ularni kelib chiqish sabablari va rivojlanish oqibatlari, Yer qobiqlari orasidagi aloqalar haqida har bir materik, okeanning tabiat, O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiat haqida ma'lumotlar beradi.

**Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya** kurslari o'quvchilarga O'zbekiston va jahon iqtisodiyotining asosiy xususiyatlari haqida bilimlar beradi.

**Amaliy geografiya** – umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinfi hamda akademik litsey va kasb – hunar kollejlarning I-kursida o'tiladi. Mazukr kurs geografiya fanining amaliy tomonlarini ochib beradi.

Oliy geografiya ta'limida mutaxasislik fanlari o'rganiladi.

Yordamchi maktablarda geografiya ta'limining tuzilishi quydagи qismlardan iboart:

- VI sinf – tabiiy geografiya (boshlang'ich kurs);
- VII sinf – materiklar va okeanlar geografiyasi;
- VIII sinf – O'rta Osiyo va O'zbekiston geografiyasi;

Yordamchi maktablardagi geografiya kurslarining asosiy xususiyatlaridan biri ularning soddalashtirilganidadir.

O'zbekiston mustaqillik erishgach Davlat ta'lim standarti ta'lim tizimimg barcha bo'g'inlari uchun ishlab chiqiladi va amaliyotga tadbiq etildi.

"Standart" so'z inglizcha bo'lib, "nusxa", "o'lcham", "me'yor" degan ma'nolarni anglatadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini ro'yobga chiqarishning birinchi bosqichida yuqorida qayd etilgan ta'lim muassasalari uchun DTS ishlab chiqildi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 16-avgustdagи 390-qaroriga binoan amaliyotga joriy etildi. Unda "Davlat ta'lim standartini bajarish O'zbekiston Respublikasining barcha ta'lim lamuassasalari uchun majburiydir» deb belgilab qo'yilgan. Umumiyl o'rta ta'limning davlat ta'lim standartini ishlab chiqishda quyidagi tamoyillar asos qilib olingan:

- ✓ DTSning davlat va jamiyat talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi;
- ✓ o'quv dasturlari mazmunining jamiyatimizda ro'y berayotgan ma'naviy-ma'rifiy, iqtisodiy-ijtimoiy o'zgarishlar, fan-texnika taraqqiyoti bilan bog'liqligi;
- ✓ umumiyl o'rta ta'limning uzluksiz ta'limning boshqa turlari va bosqichlari bilan uzluksizligi va ta'lim mazmunining uzviyligi;
- ✓ umumiyl o'rta ta'lim mazmunining insonparvarligi;
- ✓ ta'lim mazmunining respublikadagi barcha hududlarda birligi va yaxlitliligi;
- ✓ umumiyl o'rta ta'lim mazmuni, shakli, vositalari va usullarini tanlashda innovatsiya texnologiyalariga tayanish;
- ✓ o'qituvchilarning pedagogik tafakkurida qaror topgan an'anaviy qarashlar bilan «Ta'lim to'g'risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» da ifodalangan zamonaviy talablarning uzviyligi;

Umumiyl o'rta ta'limning DTS o'quvchilar umumta'lim tayyorlarligiga, saviyasiga qo'yiladigan majburiy minimal darajani belgilab beradi.

DTS ta'lim mazmuni, shakllari, vositalari, usullari va uning sifatini baholash tartibini belgilaydi.

DTS o'z mohiyatiga ko'ra o'quv dasturlari, darsliklar, qo'llanmalar, Nizomlar va boshqa me'yoriy hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Umumiyl o'rta ta'lim maktablarining geografiyadan DTS o'quv fani bo'yicha o'quvchilarga beriladigan bilimlar miqdori, ular egallaydigan ko'nikma va malakalarning hajmini (BKM-bilim, ko'nikma va malaka) ko'rsatuvchi me'yor bo'lib, u umumiyl o'rta ta'lim maktablarida geografiya ta'limi mazmunining negizini belgilovchi ko'rsatkichlar hamda o'quvchilarning geografik tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar majmuasidan iborat bo'lgan rasmiy hujjat bo'lib hisoblanadi.

«Ta'lim mazmuni negizini belgilovchi ko'rsatkichlar» umumiyl o'rta ta'lim maktablarida geografiyadan beriladigan bilimlarning minimal darjasini, ya'ni ta'lim mazmunining negizini ifodalaydi. Mazkur ko'rsatkichlar umumiyl o'rta ta'lim maktablari uchun geografiya o'quv fani dasturi va darsliklarini yaratishda hamda ta'lim-tarbiya ishlarini tashkil etishda mo'ljal vazifasini bajaradi.

Geografiya ta'limi standartidagi «O'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan minimal talablar» o'quvchilar tomonidan o'zlash-tirilishi shart bo'lgan ko'rsatkichlarni ifodalaydi. Bunda o'quvchilarning bilishi, anglashi, amaliy ishlarni bajara oladigan ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlarini ta'minlash va ularning sifatini aniqlashga imkon beradi. Belgilangan ko'rsatkich va talablar geografiya ta'limining asosiy sifatlarini baholashda o'chov bo'lib xizmat qiladi.

Umumiyl o'rta ta'lim maktablarining geografiyadan davlat ta'lim standartida keltirilgan ko'rsatkich va talablar mifik geografiya ta'limi mazmunini to'liq qamrab oladi.

Umumiyl o'rta ta'lim maktablarida geografiyadan tuzilgan DTSda qayd etilgan maksimal talablar asosida o'quv dasturi tayyorlanadi. O'quv dasturida o'quv fani bo'yicha o'rganiladigan bob va mavzular o'quvchilarning yoshlik va psixologik xususiyatlari, mavzular o'rtasidagi uzviylik va izchillik asosida mantiqiy bir tizimga keltirilgan holda beriladi. O'quv dasturida o'rganiladigan boblar ularni o'rganish uchun ajratilgan soatlar ko'rsatiladi, mazkur boblar tarkibiga kiradigan mavzularning qisqacha mazmuni yoritiladi. Geografiyadan tuzilgan o'quv dasturi mazkur o'quv fanining mazmunini belgilab beradigan va bajarilishi majburiy bo'lgan me'yoriy hujjat sanaladi

*Geografiya ta'lim standartining tarkibiy qismlari.*

Geografiya ta'lim standarti geografiya ta'limining maqsad va vazifalarini yoritishdan boshlanadi. Geografiya ta'limining bosh maqsadi

o‘quvchi shaxsini tarbiyalashdan iborat. Geografiya ta’lim standartida geografiya ta’limning asosiy vazifalari atroflicha yoritib berilgan.

Tabiiyot va geografiya fanidan umumiy o‘rtta ta’limning davlat ta’lim standartining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- ✓ umumiy o‘rtta ta’limning tayanch o‘quv rejasi;
- ✓ umumiy o‘rtta ta’limning o‘quv dasturi;
- ✓ umumiy o‘rtta ta’limning malaka talablari;
- ✓ baholash tizimi.

Tayanch o‘quv rejaga muvofiq Tabiiyot va geografiya fanidan o‘quv soatlari quyidagicha ajratilgan (3-jadval).

3-jadval

#### Umumiy o‘rtta ta’limning tayanch o‘quv REJASI (2018 y)

| T/r | O‘quv fanlari          | Sinflar |   |   |   |   |   |   |   |   |    | Haftalik umumiy soat |
|-----|------------------------|---------|---|---|---|---|---|---|---|---|----|----------------------|
|     |                        | 1       | 2 | 3 | 4 | 5 | 6 | 7 | 8 | 9 | 10 |                      |
| 1.  | Tabiiyot va geografiya | 1       | 1 | 1 | 1 | 1 | 2 | 2 | 2 | 2 | 1  | 14                   |

Umumiy o‘rtta ta’limning ***o‘quv dasturi*** tayanch o‘quv rejaga muvofiq o‘quv fanlarining sinflar va mavzular bo‘yicha hajmi, mazmuni, o‘rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari belgilangan hujjat hisoblanadi.

O‘quv dasturi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va tasdiqlanadi.

Umumiy o‘rtta ta’limning malaka talablari umumta’lim fanlari bo‘yicha ta’lim mazmunining majburiy minimumi va yakuniy maqsadlariga, o‘quv yuklamalari hajmiga hamda ta’lim sifatiga qo‘yiladigan talablardan iborat bo‘lib, u bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarlardan tashkil topadi. Ularning mazmuni qisqacha quyidagicha:

*bilim* - o‘rganilgan ma’lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish;

*ko‘nikma* - o‘rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo‘llay olish;

*malaka* - o‘rganilgan bilim va shakllangan ko‘nikmalarni notanish vaziyatlarda qo‘llay olish va yangi bilimlar hosil qilish;

*kompetensiya* - mavjud bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati.

***Baholash tizimi*** - davlat ta’lim standarti bo‘yicha umumiy o‘rtta ta’limning malaka talablari o‘quvchilar tomonidan o‘zlashtirilish darajasini hamda umumiy o‘rtta ta’lim muassasasining faoliyati samaradorligini aniqlaydigan mezonlar majmuidan iborat.

DTS talablariga rioya etish va uni bajarilish tartibi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan nazorat qilib boriladi. DTS talablariga rioya qilish ustidan nazoratni amalga oshirishning maqsadi — davlat ta’lim standarti talablarini bajarish darajasini aniqlash, zarrur choratadbirlarni amalga oshirish asosida ta’lim sifatini ta’minlashdan iborat. DTS talablariga rioya qilish ustidan nazorat umumiy o‘rtta ta’lim muassasalarida o‘quvchilar egallashi lozim bo‘lgan malaka talablariga baho berish, tayanch o‘quv reja va o‘quv dasturlarining bajarilishini tahlil qilish, ularni bajarilishi va ta’lim sifatiga ta’sir etuvchi omillarni, foydalilanigan pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining natijaviyligini tahlili kabi ko‘rinishlarda amalga oshiriladi.

Umumiy o‘rtta ta’lim sifatini nazorat qilish: ichki, tashqi, davlat va jamoatchilik nazorati hamda milliy va xalqaro darajada baholash kabi turlarga bo‘linadi. Bunda:

*ichki nazorat* - O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan tartib asosida umumiy o‘rtta ta’lim muassasasining monitoring guruhi tomonidan amalga oshiriladi;

*tashqi nazorat* - ta’lim sohasidagi vakolatli davlat organlari, hududiy xalq ta’limi boshqaruvi organlari tomonidan amalga oshiriladi;

*davlat-jamoatchilik nazorati* - qonun hujjalarda belgilangan tartibda hududiy xalq ta’limi boshqaruvi organlari va nodavlat notijorat tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi;

*milliy va xalqaro darajada baholash* - hukumatning tegishli qarori va xalqaro shartnomalar asosida xalq ta’limi boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va xalqaro tashkilotlar hamkorligida amalga oshiriladi.

Umumiy o‘rtta ta’lim muassasasi o‘quvchilarining bilimi sifatini nazorat qilishning reyting tizimi tartibi O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirligi hamda Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi tomonidan tasdiqlanadi.

Davlat ta’lim standartin ishlab chiqishdagi asosiy tamoyillaridan biri “davlat ta’lim standartini davlat, jamiyat, talablariga, shaxs ehtiyojiga mosligi” dir.

Umumta’lim maktablarida o‘qitiladigan barcha fanlar qatori geografiyadan 1999 yil tasdiqlangan Davlat ta’lim standartlari (DTS)ga

berilgan sharxlar “2004-2009 yillarda Maktab ta’limini rivojlantirish Davlat umummilliyl dasturi” doirasida qayta ko’rib chiqildi. Tahlillar asosida DTS bo‘yicha o‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikm va malakalar bir-biridan ajratilib, sinflar kesimida alohida-alohida belgilab berildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat maslahatchisi xizmati va Vazirlar Mahkamasi Ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy muhofaza, axborot tizimlari va telekommunikasiyalar kompleksining 2010 yil 17-martdagি qo‘shma yig‘ilishi bayonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minalash maqsadida, yuqori kasb mahoratiga ega bo‘lgan geograf o‘qituvchilar, yetakchi olim va mutaxassislar jalb etilib, ishchi guruh tuzildi. Mazkur ishchi guruh tomonidan umumiyl o‘rtta va o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limining DTS, o‘quv dasturlari va darsliklari uzviyligi, uzluksizligi hamda o‘quvchilarining yosh va psixofiziologik xususiyatlari mosligi tahlil qilindi. Tahlilning birinchi bosqichida umumiyl o‘rtta ta’limda o‘qitiladigan 24 ta o‘quv fani bo‘yicha DTS, o‘quv dasturlari va darsliklar mazmuni sinflar kesimida tahlil qilindi va takliflar tayyorlandi. Ikkinci bosqichida esa umumiyl o‘rtta va o‘rtta maxsus ta’limning DTSlari o‘quv dasturlari uzviylik va uzluksizlik jihatdan tahlil qilinib, o‘quvchilarining ta’lim bosqichlarida egallashi lozim bo‘lgan bilimlarning hajmi optimallashtirildi. Optimallashtirish natijasida tabiiyot va geografiya fanidan jami 9 soat hajmdagi 8 ta mavzu optimallashtirildi. Shundan, 6 soat mavzu takrorlangan deb topildi. 5-sinfda 2 ta mavzu sinfdan sinfga o‘tkazildi, 6-sinfda 4 ta mavzu dasturdan chiqarildi. 3 ta mavzu yuqori sinf, kasb-hunar kollejlari va akademik litsey o‘quvchilar yoshiga xosligi sababli umumiyl o‘rtta ta’lim dasturidan chiqarildi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 6 apreldagi 187-sun qarori bilan umumiyl o‘rtta va kasb hunar ta’limining davlat ta’lim standartini qayta ko‘rib chiqish va tegishli o‘zgartirishlar kiritish belgilab berildi. Ushbu qarorning asosiy maqsadi - «Ta’lim to‘g‘risida»gi va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida»gi O‘zbekiston Respublikasi qonunlariga muvofiq, umumta’lim fanlarini o‘qitishning uzluksizligi va izchilligini ta’minalash, zamonaviy metodologiyasini yaratish, umumiyl o‘rtta va o‘rtta maxsus, kasb-hunar ta’limi davlat ta’lim standartlarini kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish, o‘quv-metodik majmualarning yangi avlodini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishdir. Mazkur qarorni ijrosi sifatida ushbu yil yangi DTS qabul qilindi. DTS umumiyl o‘rtta ta’lim tizimini respublikada amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohatlar,

rivojlangan xorijiy mamlakatlarning ilg‘or tajribalari hamda ilm-fan va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalar asosida darslarni tashkil etish orqali geografik bilim berish hamda ma’naviy barkamol va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash.

### 1.1. Geografiyadan o‘quv dasturlari tahlili

Maktablarda o‘qitilgan har bir o‘quv fanining mazmuni o‘quvchilar bilishi lozim bo‘lgan bilimlar, o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan o‘quv ko‘nikmalar, malakalar yig‘indisini ifoda qiluvchi xujjat – o‘quv dasturi hisoblanadi. Unda o‘quv fanini o‘qitishdan maqsad, vazifalar, o‘quvchilar o‘zlashtirish kerak bo‘lgan bilimlar, ko‘nikmalar majmuasi o‘z ifodasini topadi.

Geografiya kursining o‘quv dasturini boshida uqtirish xati beriladi. Uqdirish xatida geografiya kursining qanday fan ekanligi, u qanday o‘quv fanlardan tashkil topganligi, ana shu o‘quv fanlar mazmunidagi o‘zgarishlar qisqacha bayon etiladi. Xususan, “Tabiiy geografiya” boshlang‘ich kursi V- sinfda, “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” VI-sinfda, “O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tabiiy geografiyasi” VII sinfda, “O‘zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” VIII-sinfda, “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” IX-sinfda, “Amaliy geografiya” o‘quv fani X- sinf va akademik litsey va kasb-hunar kollejlariда o‘qitilishi qayd qilingan.

Geografiya kursining o‘qitishga oid metodik ko‘rsatmalarda darsda va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda dalillar, hodisalar bilan cheklanmay, asosiy g‘oyalar, tushunchalarning o‘quvchilar tomonidan puxta va ongli o‘zlashtirilishiga e’tiborni qaratish lozimligi qayd qilinadi.

O‘quv dasturidan ko‘zlangan yana bir maqsad ta’lim bilan tarbiyaning uyg‘unligini amalga oshirishdan iborat. Ushbi fanda o‘qitiladigan mavzular mazmuni bilan uzviy bog‘liq holda, o‘quvchilarining ahloqiy, vatanparvarlik, estetik, ekologik, gigiyenik, iqtisodiy va jinsiy tarbiyasiga ahamiyat berish lozimligi ta’kidlangan.

Geografik o‘quv mavzularga o‘quvchilarining qiziquvchanligini oshirish uchun geografik xarita, tabiiy-tasviriy, dinamik, jadval, sxematik ko‘rgazmali va audio, video vositalardan ta’lim berish jarayonida samarali foydalanish va o‘quvchilar faoliyatini faollashtirish hamda mustaqil bilim olishini tashkil etish maqsadida faollashtiruvchi metodlaridan zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalardan keng foydalanish tavsiya etilgan.

O'quv dasturida Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi o'quv fani uchun 34 soat (haftasiga 1 soat), Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi o'quv fani uchun 68 soat (haftasiga 2 soat), O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi o'quv fani uchun 68 soat (haftasiga 2 soat), O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi o'quv fani uchun 68 soat (haftasiga 2 soat), Jahon mamlakatlari iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi o'quv fani uchun 68 soat (haftasiga 2 soat), Amaliy geografiya o'quv fani uchun 34 soat (akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida 40 soat, haftasiga 1 soat) vaqt ajratilganligi ta'kidlanadi.

O'quv dasturida har bir o'quv fani bo'yicha o'qitiladigan asosiy mavzular mazmuni, ularni o'tish uchun kerakli jihozlar keltirilgan. O'quv dasturida ana shu mavzularning qanday dars tiplaridan foydalanim o'qitish kerakligi haqida ham ma'lumotlar berilgan.

Masalan, maktab Tabiiy geografiya boshlang'ich kursida geografiya nimani o'rganadi?, geografik kashfiyotlar va hozirgi zamon geografiyasi, Yer - Quyosh tizimidagi sayyora, joy plani va geografik xaritalar, yerning qattiq qobig'i – litosfera, yerning suv qobig'i – gidrosfera, yerning havo qobig'i – atmosfera, biosfera, inson va tabiat kabi asosiy mavzular o'tiladi (4-jadval).

4-jadval

#### **Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi mavzulari**

| T/r | Yirik boblar                                 | Soatlar taqsimoti |         |        |
|-----|--|-------------------|---------|--------|
|     |  | Jami              | Nazariy | Amaliy |
| 1   | I-BOB. Geografiya fani va uning rivojlanishi | 2                 | 2       | -      |
| 2   | 2-BOB. Yer - Quyosh sistemasidagi sayyora    | 3                 | 3       | -      |
| 3   | 3-BOB. Geografik xaritalar                   | 7                 | 5       | 2      |
| 4   | 4-BOB. Yerning qattiq qobig'i – Litosfera    | 4                 | 4       | -      |
| 5   | 5-BOB. Yerning suv qobig'i – Gidrosfera      | 4                 | 4       | -      |
| 6   | 6-BOB. Yerning havo qobig'i – Atmosfera      | 7                 | 6       | 1      |
| 7   | 7-BOB. Biosfera. Inson va tabiat             | 3                 | 3       | -      |
|     | Jami   | 30                | 27      | 3      |

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi o'quv fanida esa kirish, materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi nimani o'rganadi?, Geografik

xaritalar va ularning turlari. Atlaslar va globuslar, geografik qobiq, dunyo okeani, materiklar va okeanlar tabiatini: Afrika materigi, Avstraliya materigi va Okeaniya, Antarktida materigi, Janubiy Amerika materigi, Shimoliy Amerika materigi, Yevrosiyo materigi, Tinch okeani, Atlantika okeani, Hind okeani, Shimoliy Muz okeani kabi mavzular o'tiladi.

O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi o'quv dasturida esa kirish, O'rta Osyoning geografik o'rni, chegaralari va tabiiy geografik o'lka sifatida o'ziga xos xususiyatlari, geografik xaritalar, vaqt hisobi, O'rta Osyoning geologik tuzilishi, foydali qazilmalari va relyefi, O'rta Osiyo iqlimi, O'rta Osyoning suvlar, O'rta Osiyo tuproqlari, o'simliklari, hayvonot dunyosi, tabiat zonalari, O'rta Osyoning hududiy tavsifi, O'zbekiston tabiatining umumiy tavsifi, O'zbekistonning tabiiy geografik okruglari tavsifi kabi mavzular diqqat markazida bo'ladi.

O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi o'quv dasturida kirish, O'zbekistonning geografik o'rni va ma'muriy-hududiy tuzilishi, O'zbekistonning tabiiy boyliklari, aholisi va mehnat resurslari, milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi, O'zbekistonning regional tavsifi o'rganiladi.

Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasida jahoning siyosiy xaritasi, jahon tabiiy resurslari, jahon aholisi, jahon xo'jaligi, Yevropa mamlakatlari, Osiyo mamlakatlari, Afrika, Avstraliya va Okeaniya, Amerika mamlakatlari kabi mavzular berilgan.

Amaliy geografiya o'quv dasturida esa geografiya fanlari tizimi haqida tushuncha, Yer tabiatini, jamiyat va tabiat, amaliy geografik tadqiqotlar, dunyo aholisi, dunyoning geosiyosiy manzarasi va global muammolar, Yevropa va Amerika subregionlari, Afrika subregionlari, Okeaniya davlatlari, Osiyo subregionlari, O'zbekiston Respublikasi kabi yirik mavzular egallaydi.

O'quv dasturida geografiya o'quv fani bo'yicha ta'lim oluvchilar tayyorlarligining zarur va yetarlicha darajasi hamda ta'lim muassasalarini bitiruvchilariga qo'yiladigan malaka talablarini belgilab berilgan. Malaka talablarida o'quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalar turlari bo'yicha alohida-alohida ko'rsatib berilgan.

O'quv dasturi har bir mavzuni o'tish uchun soatlar ajratilgan, jihozlar, dars shakllari ko'rsatilgan. O'qituvchilarning bilimi va pedagogik mahoratini oshirishni maqsad qilib, har bir o'quv fani so'ngida o'qituvchilar uchun ilmiy va metodik adabiyotlar ro'yhati keltirilgan.

## 1.2. Maktab geografiyasi mazmuning tarkibiy qismlari.

Maktab geografiyasining mazmuni bilim, ko'nikma va dunyoqarash g'oyalarini o'z ichiga oladi.

Bilim - tashqi dunyoni, obyektiv borliqni ongimizda aks etishining yozma va og'zaki shakli. Bilimlar nazariy va empirik bilimlarga bo'linadi.

**Nazariy bilimlar** narsa va hodisalarni mohiyatini, ular orasidagi bog'liqlik va aloqalarni aks etdiradi. Nazariy bilimlar – bu umumlashgan bilimlardir, ularga nazariyalar, qonunlar, qonuniyatlar, sabab va oqibatlar, tushunchalar kiradi. Hozirgi paytda geografiyada nazariy bilimlarning salmog'i oshib bormoqda. Geografiya kurslarining hammasi umumiyl tushunchalar (relyef shakllari, iqlim turlari, iqtisodiy rayonlar, mehnatni geografik taqsimlanishi, sabab va oqibatlar) muhim o'rinn tutadi.

**Empirik bilimlar** – *tasavvur-* geografik borliqning (obyektning) hayoliy (hissiy) tasviri, shakli. Emprik bilimlar geografik borliq va hodisalarni tashqi xususiyatlarini aks etiradi. Unga tasavvur va dalillar (fakt) kiradi. Tasavvurlar hayoliy va aniq turlarga bo'linadi. Aniq tasavvur voqeа va hodisalarni bevosita ko'rish orqali paydo bo'ladi. Hayoliy tasavvur esa, ma'lum bir hodisalarni va sharoitni bayonini yoki ta'rifini o'qish orqali paydo bo'ladi.

**Tushuncha**–borliqning kishi tafakkurida aks etishining bir shakli. Tushunchalar abstrakt tafakkur natijasida hosil bo'ladi. Tushuncha bilihsning asosiy birligi hisoblanib, umumiyl tushunchalarga bo'linadi.

**Umumiyl tushunchalar** - deganda alohida voqeа va hodisalar haqida emas, balki umumiyl bir xil nomga ega bo'lgan voqeа va hodisalar tushuniladi. Masalan, daryolar, tog'lar, xalq xo'jaligi tarmog'i, iqtisodiy rayon. Umumiyl tushunchalarning mohiyatini aniqlaganda, hamma voqeа va hodisalar uchun umumiyl bo'lgan xususiyatlar (belgilar, sifatlar) ochib beriladi. Masalan: "Geosinklinallar" deb Yer qobig'inining harakatchan qismlarga aytildi. Umumiyl tushunchalar geografiya kurslarining ilmiy asosini tashkil qiladi. Maktab dasturida quyidagi umumiyl tushunchalari ko'rishimiz mumkin: "Quyosh radiatsiyasi", "Havo massasi", "Mehnat resurslari", "Urbanizatsiya" va h.k.

**Aniq tushunchalar** – o'zining nomiga ega bo'lgang aniq geografik borliq, hudud: Volga daryosi, Qora dengiz, Afrika, Fransiya, Pomir va h.k.

Tushunchalar asosiy va bo'ysungan tushunchalarga bo'linadi. Masalan, "tog' jinslari" asosiy tushuncha "magmatik tog' jinsi" bo'ysungan tushuncha.

**Sabab va oqibatlar** - geografik voqeа va hodisalar orasidagi sabab va oqibatlarni aks etiradi.

Tabiiy geografiya kurslarda quyidagi sabab va oqibatlar ochib beriladi: relyef, iqlim, quruqlik suvlari, dunyo okeani, tuproqlar. Relyef yerning ichki va tashqi kuchlarini oqibati deb qaraladi. Tabiiy – geografik komplekslar ham sabab va oqibatlarni ochib berish tufayli ajratiladi.

Iqtisodiy geografiya kurslarida sabab va oqibatlarni quyidagi turlari ochib beriladi: ijtimoiy- iqtisodiy tuzum va xo'jalik o'rtasidagi: davlatning tarixiy rivojlanishi va xo'jaligining hozirgi xususiyatlari o'rtasidagi: davlat rivojlanishi bilan uning iqtisodiy geografik joylanishi o'rtasidagi tabiiy sharoit va xo'jalikning tuzulishi o'rtasidagi.

**Qonunyatlar** - geografik borliq (obyekt), hodisa, jarayonlar o'rtasida eng muhim va nisbatan mustahkam aloqa va bog'liqlarni aks etiradi. Tabiiy geografiyada quyidagi qonuniyatlar ochib beriladi: bir butunlik, moddalarning aylama harakati, davriylik, zonallik, hamda ayrim tabiat tarkiblarni vujudga kelish qonunyatlar (iqlim , relyefi).

**Nazariya** - bu kishilar ilmiy faoliyatini umumlashmasidir. Nazariya tabiat yoki jamiyatning ayrim qismlarini rivojlanish qonunyatlarni aks etiradi. Masalan, tabiiy geografik rayonlashtirish nazariysi iqtisodiy geografik rivojlantirish nazariysi, tabiiy-hududiy majmualar (THM) nazariysi h.k.

**Dalillar** - maktab geografiyasi mazmunida ko'proq obyektning o'chamlari, yog' inlar, havo, suv sarfi, iqtisodiy dalillar uchraydi.

**Ko'nikmalar** - bu faoliyat usullari. Bu usullar orqali o'quvchilar olgan bilimlarini amalda qo'llashadi. Ko'nikmalarni qo'llash har safar o'ylashni talab qiladi, shuning uchun ko'nikmaga avtomatizim xos emas.

**Malaka - avtomatik ravishda tez bajariladigan faoliyat.**

Ko'nikmalar o'quv vazifasiga va maqsadlariga qarab turli guruhlarda bo'linishi mumkin. Bu esa quyidagi ko'nikmalarni bir –biridan ajratishga imkon beradi: obyektlar bayoni, THM va HICHM tushunchalar ta'rifи va h.k.

Ko'nikmalar yordamida o'quvchilar turli xil tafakkur usullarini qo'llashi mumkin: analiz, sintez, umumlashtirish, abstrakt qiyoslash.

**Dunyoqarash g'oyalari** - bu aniq geografik bilimlarni g'oyaviy umumlashmasidir. Tabiiy geografiyada tabiatga dialektik nuqtai nazardan qarash g'oyasi mavjud, ya'ni hamma tabiat tarkiblari bir –biri bilan chambarchas bog'langan.

**Tayanch so‘z va atamalar:** Standart atamasi, ta’lim standarti, geografiya ta’limi davlat standarti, o‘quv dasturi, geografiya o‘quv dasturi.

## **TALABALARING O‘ZLASHTIRGAN BILIMLARINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLARI**

1. Ta’lim standarining lug‘aviy ma’nosini nimani bildiradi?
2. Geografiya bo‘yicha umumiy o‘rta ta’lim davlat standartida o‘quvchilar o‘zlashtirishi lozim bo‘lgan ta’lim qanday yo‘nalishlarda berilgan;
3. Geografiya o‘quv dasturida metodik tavsiyalar necha banddan iborat;
4. Maktab geografiya kursi qanday o‘quv fanlardan tashkil topgan; Test topshiriqlar:
  1. Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi o‘quv fani uchun necha soat vaqt ajratilgan?
    - A. 68; B. 44; C. 34; D. 54.
    2. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursi o‘quv fani uchun necha soat vaqt ajratilgan?
      - A. 34; B. 44; C. 68; D. 54.
    - 3.O‘zbekiston tabiiy geografiyasi kursi o‘quv fani uchun necha soat vaqt ajratilgan?
      - A. 68; B. 44; C. 34; D. 54 .
    4. O‘zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi kursi o‘quv fani uchun necha soat vaqt ajratilgan?
      - A. 48; B. 44; C. 34; D. 68
      5. Juhon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi o‘quv fani uchun necha soat vaqt berilgan?
        - A. 54; B. 68; C. 34; D. 102.

### **2. Boshlang‘ich ta’limda geografiya ta’limi mazmuni**

Boshlang‘ich ta’limda geografiyaga oid dastlabki bilimlar 1-2-sinflarda “Atrofimizdag‘ olam”, 3-4-sinflarda “Tabiatshunoslik” o‘quv fanlari orqali beriladi.

#### **2.1. Atrofimizdag‘ olam kursining mazmuni, tuzilishi va o‘rganish texnologiyalari**

Hozirgi ishlab chiqarish, texnika va tabiatdan foydalanish jadal rivojlanayotgan, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik, demografik, geosiyosiy sharoit tadrijiy ravishda o‘zgarib borayotgan vaqtida maktablarda atrofimizdag‘ olam fanini mazmun jihatdan yangicha o‘qitish zamon talabi hisoblanadi, natijada ushbu fan I-sinfdan o‘qitiladigan bo‘ldi.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan “Atrofimizdag‘ olam” va “Tabiatshunoslik” o‘quv fanlari yuqori sinflarda o‘qitiladigan geografiya, biologiya, kimyo, fizika va astranomiya kabi fanlar uchun fundamental asos vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham “Atrofimizdag‘ olam” fanidan ta’lim berish, uning ilm-fan taraqqiyotida, ishlab chiqarish va tabiatdan foydalanish sohalari, ijtimoiy-madaniy va kundalik hayotda tutgan o‘rnini bilan belgilanadi.

**Atrofimizdag‘ olam fanini o‘qitishning asosiy maqsadi:** o‘quvchilarda tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy obyekti, jarayoni va hodisalar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish tushunchalarni shakllantirish, tahliliy fikrlashga o‘rgatish, o‘rganishni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

**Umumiy o‘rta ta’limda “Atrofimizdag‘ olam” fanini o‘qitishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:**

- ✓ joy nomlari va atamalarni to‘g‘ri qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish;
- ✓ hozirgi zamon jamiyat va tabiat o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarining mohiyati va xususiyatlari to‘g‘risida tasavvur hosil qilish, yosh avlodning ekologik madaniyatini, milliy boyliklarga nisbatan tejamkorlik munosabatini o‘stirish;
- ✓ o‘quvchilarni Vatanga muhabbat, milliy iftixon, fuqarolik mas’uliyati ruhida tarbiyalash.

I-II sinflarda “Atrofimizdag‘ olam” kursi dasturi o‘quvchilarni o‘zi yashab turgan mahalla bilan tanishtirish, ko‘chada yurish qoidalari, shaxsiy gigiyena, tabiatdagi mavsumiy o‘zgarishlar va unda kishilar mehnati bilan tanishtirishni nazarda tutadi. Maktab atrofisidagi (kuz, qish, bahor va yozda) ro‘y beradigan tabiat hodisalarini kuzatish o‘quvchilarda tabiat haqidagi dastlabki tasavvur va elementar tushunchalarni shakllantiradi. I-II sinflarda “Atrofimizdag‘ olam” o‘quv fanini o‘rganish davomida atrofimizdag‘ olam va uning xilma-xilligi, tabiat, tabiatni muhofaza qilish, shahar, qishloq, ulardag‘i kishilar hayoti, mehnati haqida boshlang‘ich tafsiflar berilgan.

O‘quvchilarning I-II-sinflarda oladigan bilimlari tabiatda bo‘ladigan hodisalarining turli tomonlarini qamrab oladi. Ular yilning turli fasllaridagi kishilar mehnatidagi o‘zgarishlar, kun va tun uzunligi, ob-havoning (havo harorati, yog‘in turi va miqdori) o‘zgarishini, daryo va ko‘llar (muzlashi, suvining ko‘payishi yoki kamayishi), o‘simgiliklar va hayvonlar hayotini bilib oladilar.

**Atrofimizdag'i olam o'quv fani o'rganish natijasida o'quvchilarning o'quv faoliyatiga qo'yiladigan talablar qo'yiladi:**

- ✓ tabiiy hodisa va jarayonlarni, tun va kun, yil fasllari almashinishi kuzatadi;
- ✓ kuz faslda dala va bog'larda hosillarning yig'ib-terib olinishi, kishilar mehnatini biladi;
- ✓ hayvonot olami, uy hayvonlari va parrandalarning fasllarga moslashishini biladi;
- ✓ o'zi yashaydigan shahar, qishloq, mahallasi nomini va maktabi joylashgan ko'chalarning nomlanishini to'g'ri aytadi;
- ✓ muktab, sinfonalar, kutubxona, muktab bog'i, mahallasi, ko'chasini toza saqlashda o'z hissasini qo'shamdi.

Atrofimizdag'i olam o'quv fanini o'rganish jarayonida o'quvchilarda quyidagi tayanch kompetensiyalar elementlari shakllantiriladi:

**Kommunikativ kompetensiya** - mustaqil fikrini og'zaki va yozma tarzda bayon eta olish, darslik, o'quv atlasi tavsiflardan samarali foydalana olish, guruhlar bilan ishlaganda muomala madaniyatiga amal qilish.

**Axborotlar bilan ishslash kompetensiysi**- kompyuter, televizor va boshqa manbaalardan mavzuga doir zarur tavsiflarni izlab topish, ulardan samarali foydalana olish va media madaniyatga rioya qilish; media vositalardan foydalanib, mavzuga doir didaktik topshiriqlarni bajara olish.

**O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiysi** - fan to'garagida, uuda rasmiy kitoblar, jurnallardan foydalanib, mustaqil ishlay olish, sportning yoshiga mos turi bilan shug'ullana olish, o'zini tuta olish, o'zining xatosini tushuna olish.

**Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiysi** - farzandlik va o'quvchilik burchini biladi, unga rioya qilish, muktabda, sinfdagi jihozlar, o'quv qurollarini asrab-avaylash.

**Milliy va umummadaniy kompetensiya** - o'zi yashaydigan joyning maftunkor tabiatni, tarixiy obidalarini, dam olish maskanlarini asrab avaylash va ularning qadriga yetish; o'zi yashaydigan joyning maftunkor tabiatni, tarixiy obidalariga doir albomlar tayyorlay olish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalanish kompetensiysi** - xarita, globus bilan ishslashda hisoblashning qulay usullarini qo'llay olish, aniq hisob-kitoblarga asoslangan holda kundalik faoliyatda zarur bo'lgan dastlabki rejalarini tuza olish, uuda, muktabda suvni isrof qilmaslik va uni tejab ishlatishga amal qilish.

Shuningdek, "Atrofimizdag'i olam" kursini o'rganish jarayonida o'quvchilarda fanga oid quyidagi umumi kompetensiyalar ham shakllantiriladi:

**Tabiiy, ijtisodiy-ijtimoiy jarayon hamda hodisalarini kuzatish, aniqlash, tushunish va tushuntirish kompetensiysi** - tabiatda bo'ladigan jarayonlarni, haroratning tun va kunduzi farq qilishini kuzatadi va ayta oladi; tog' va tekisliklarning tabiatni o'ziga xosligini, xazonrezgilik jarayonini kuzatadi va gerbariy tayyorlay oladi; o'lkamizda uchraydigan hayvonlar va hasharotlar hayoti, qushlarning kuzdag'i hayotini kuzatadi; qish faslidagi ob-havo, kishilarning qishdag'i mehnati, issiqxonalarda ko'chatlarni parvarishlash va yetishtirish haqidagi ma'lumotlarni tushunadi va aytib bera oladi. Bahorgi mehnat, dalalarda ekin ekish ishlarini kuzatadi va tushunadi (A1), kuzgi xazonrezgilik davrida atrof-mufitni toza saqlash, bahorda muktab, mahallasi, o'z hovlisiga ko'chat va gullarni ekish ishlarini bajarish (A1+).

**Geografik obyektlar, joy nomlarini to'g'ri qo'llay olish kompetensiysi** - Yer yuzidagi va o'zi yashaydigan joy, undagi tog'lar, tekisliklar hamda suv havzalarining nomlarini to'g'ri qo'llay oladi (A1), o'zi yashaydigan joyning (shahar, qishloq) nomlarini ayta oladi va to'g'ri yoza oladi (A1+).

**Globus, geografik atlas va xaritalardan amaliyotda foydalana olish kompetensiysi** – O'zbekistonning tabiiy va siyosiy ma'muriy xaritasidan o'zi yashaydigan vatanni, hududni aniqlab, ko'rsata oladi (A1), O'zbekistonning tabiiy va siyosiy ma'muriy xaritasidan o'z hududiga chegaradosh davlatlarni topib ko'rsata oladi (A1+).

**Tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyat kompetensiysi**- o'zi yashaydigan joyda suv havzalari, o'simlik, hayvonot olamini muhofaza qilishga doir o'tkaziladigan tadbirlerda ishtirot etadi, qushlarga g'amxo'rlik qiladi (A1), foydali hasharotlarni asrash va ko'paytirish, zararkunanda hasharotlarga qarshi kurashish tadbirlerida ishtirot eta oladi (A1+)<sup>5</sup>.

Atrofimizdag'i olam ta'limida o'rganiladigan tabiiy, ijtimoiy hodisalar va tushunchalar, qonuniyatlarini o'quvchilarga tushunarli holda umumi o'rta ta'lim muktablari darsliklarida sodda va aniq bayon etilgan bo'lib, bunda asosiy e'tiborni o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini va o'quvchilarning bilim olish va o'quv materialini tushunish hamda puxta va mukammal o'zlashtirish imkoniyatiga qaratilgan.

<sup>5</sup> Umumi o'rta ta'limning tabiiyot fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Toshkent, 2017 y.

## **2.2. Tabiatshunoslik kursining mazmuni, tuzilishi va o'qitish texnologiyalari**

**Tabiatshunoslik kursining mazmuni va tuzilishi.** Tabiatshunoslik kursi umumiy o'rta ta'lif maktablarning 3-4- sinflarda "Atrofimizdag'i olam" o'quv predmetining davomi sifatida o'qitiladi. Usbu predmetni o'rganish davomida o'quvchilarning geografik bilim doiralari yanada kengayadi, jonli va jonsiz tabiat haqidagi bilimlari umumlashtiradi va bir tizimga keltiradi.

**Tabiatshunoslik fanini o'qitishning asosiy maqsadi** - o'quvchilarda tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy obyekt, jarayon va hodisalar, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ekologik muammolar haqida tushunchalarni shakllantirish, tahliliy fikrlashga o'rgatish, olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llash ko'nikmalarini rivojlan Tirishdan iborat.

Ta'lif va tarbiya tabiatshunoslik kursi oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- ✓ jonli va jonsiz tabiatning asosiy obyektlari va hodisalar, ular o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik haqidagi bilimlar tizimini shakllantirish, tabiat hodisalarini kuzatish va tajribalar o'tkazishga oid muayyan amaliy ko'nikma va malakalar hosil qilish;

- ✓ o'quvchilarda milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarkib toptirish hamda ijtimoiy hayot va ta'lif olishni davom ettirishlari uchun zarrur bo'lgan bilimlarni egallashi, hozirgi zamon talablar, ta'lif sohasidagi jahon andozalari va milliy rivojlanish manfaatlariga mos keladigan tafakkur va bilimlarni egallashi;

- ✓ o'quvchilarning bilish faoliyatidagi faolligini oshirish, ularda o'z olkasi tabiatini sevish va uni muhofaza qilish hissiyotlarni tarbiyalash hamda o'z olkasi tabiatini o'rganishga qiziqish uyg'otish va ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlan Tirish;

- ✓ Tabiatshunoslikning barcha mavzularida o'qituvchi o'quvchilarga tabiat obyektlari va hodisalarining moddiyligini ko'rsatish imkoniyatiga ega. Kuzatish va tajribalar jarayonida o'quvchilar barcha tabiat jismlari muayyan moddalardan tashkil topganiga ishonch hosil qilishi;

- ✓ o'quvchilarda tabiatga, o'z Vataniga muhabbat hissini uyg'otish, tabiatni asrash va muhofaza qilish, nazariy bilimlarini amalda qo'llash malakalarini shakllantirish;

- ✓ egallangan bilimlardan kundalik hayotlarida foydalana olishga o'rgatishdan iborat.

Tabiatshunoslik fanini o'rganishning birinchi davri I va II sinflarda Atrofimizdag'i olam fanida Yer, Quyosh, ob-havo, fasllar, Yer yuzasining tuzilishi, tabiatni muhofaza qilish, shahar, qishloq, ulardag'i kishilar hayoti, mehnati haqida, III-IV sinflarda tabiat, tabiat hodisalar, mamlakatimiz geografiyasini haqida boshlang'ich tafsiflar beriladi.

Tabiatshunoslik kursida o'quvchilar suvning hususiyatlari, ahamiyati, atrofimizni o'rabi turgan havo, yer osti boyliklari va ularning xususiyatlari, odam tanasining tuzilishi haqidagi dastlabki tushunchalar shakllantiriladi. Shuningdek, o'quvchilar yulduzlar, Quyosh tizimidagi sayyoralar, Yerning harakatlari, globus, geografik xarita, ufq tomonlariga oid bilimlarni ham egallay boshlaydilar.

Shundah keyin o'quvchilar O'zbekistonning dastlabki tabiiy geografik xususiyatlari – relyefi, muhim foydali qazilmalari, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi bilan tanishadilar. O'quvchilarning mahalliy tabiat haqidagi tasavvurlariga tayangan holda o'qituvchi ularda O'zbekiston relyefi tekislik, tepalik va tog'), cho'llari, dashtlari, foydali qazilmalari (granit, qum va gil, kalsitlar, toshko'mir, neft va tabiiy gaz, temir, mis) haqida, o'lkamiz suv havzalari (soy, daryo, ko'l), tabiatda suvning aylanishi, o'simliklarning ayrim turlari (madaniy, dorivor, manzarali va yovvoyi o'simliklar, poliz ekinlari, donli ekinlar, o'tlar) va hayvonlar, respublikamiz viloyatlarining tabiatini haqida dastlabki umumiy yushunchalar shakllantiriladi.

Tabiatshunoslik darslarida o'qituvchining tushuntirishi, darslik matnlarining izohli o'qish bilan birga, amaliy ko'nikmalarni rivojlan Tirishga qaratilgan (masalan, xaritadan respublika poytaxtini topish, viloyatlarni chegaralash, O'zbekistonning eng baland va eng past nuqtalarini topish) amaliy ishlar olib boriladi, oddiy tajribalar (masalan, Yerning o'z o'qi atrofida aylanishi harakatini ko'rsatish maqsadida globus bilan ishlash, Yerning Quyosh atrofida aylanishi haqida tasavvur hosil qilish maqsadida telluriy bilan tajriba o'tkazish, fil'trlash bilan suvni tozalash va h.k.) o'tkaziladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari tabiatshunoslik kursi materiallarini o'rganish davomida tabiatda ob-havo (turli asboblar yordamida), o'z o'lkasi o'simliklari va hayvonot dunyosidagi, shuningdek, aholi faoliyatidagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatib boradilar. O'z o'lkasi tabiatini o'rganish maqsadida ekskursiya uyuştirish maqsadga muvofiq. Chunki, tabiatshunoslik kursida beriladigan bilimlar bevosita kuzatishga asoslangan. Shuning uchun ham ekskursiya davomida olib boriladigan

kuzatishlar o'quvchilarning tabiatni bilish, o'rganishga bo'lgan qiziqishini orttiradi, hodisalarning sabablarini aniqlash imkonini beradi.

Tabiatshunoslik kurslarining barcha mavzularida o'quvchilarga vatanparvarlik tarbiyasi beriladi, o'quvchilarda milliy g'urur va iftixor tuyg'usi shakllantirilib boriladi. Shuningdek, vatanparvarlik tarbiyasining tarkibiy qismi sifatida estetik tarbiya ham berib boriladi. Har bir bolada tabiat go'zalligini his etish qobiliyati mavjuddir. Bolani har xil toshlarni, gullarni, hashoratlarni yig'ishga intilishi, tabiat go'zalligini ulug'vorligidan zavqlanishi tabiatga qiziqishdan kelib chiqadi. O'quvchilarning mazkur go'zallikni his etish va idrok etish qobiliyatini rivojlantirish va rag'batlantirishda o'qituvchining roli kattadir.

Jonli va jonsiz tabiat go'zalligini o'quvchilar dars jarayonida, shuningdek, ekskursiya va sayrlarda, tabiatdagи mavsumiy o'zgarishlarni, o'simlik va hayvonot dunyosi hayotini kuzatishda, tabiat bilan bevosita muloqatda bo'lishda idrok etadilar.

O'quvchilarning tabiatni muhofaza qilish yuzasidan olib boriladigan ishlар juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Tabiatshunoslik darslarida o'quvchilar tabiatning bir butunligi, uning barcha unsurlari (komponentlari) o'rtasidagi mustahkam o'zaro aloqalar to'g'risidagi bilimlarga ega bo'ladilar. O'qituvchi o'quvchilarda shu aloqalarning tabiat komponentlarining birida bo'lgan o'zgarish qolganlarining ham halokatga olib keladi, degan tushunchani shakllantirib borishi lozim.

III-IV-sinflarda Tabiatshunoslik fanidan mavzuli rejalashtirish quydagicha (5-jadval)

(5-jadval)

#### Tabiatshunoslik fanidan mavzuiy rejalashtirish

| T/r           | Boblar nomi                       | Soatlar taqsimoti |           |          |
|---------------|-----------------------------------|-------------------|-----------|----------|
|               |                                   | Jami              | Nazariy   | Amaliy   |
| <b>3-sinf</b> |                                   |                   |           |          |
| 1             | Kirish                            | 1                 | 1         | -        |
| 2             | I BOB. Tabiatda suv va havo       | 7                 | 6         | 1        |
| 3             | II BOB. Yer osti boyliklari       | 5                 | 5         | -        |
| 4             | III BOB. Tuproq                   | 2                 | 2         | -        |
| 5             | IV BOB. O'simliklar dunyosi       | 9                 | 9         | -        |
| 6             | V BOB. Hayvonot dunyosi           | 5                 | 5         | -        |
| 7             | VI. Odamning tuzilishi            | 2                 | 2         | -        |
| 8             | VII BOB. Tabiatni muhofaza qilish | 3                 | 3         | -        |
| <b>Jami</b>   |                                   | <b>34</b>         | <b>33</b> | <b>1</b> |

| <b>4-sinf</b> |  |           |           |   |
|---------------|--|-----------|-----------|---|
| 1             | Kirish                                       | 1         | 1         | - |
| 2             | I BOB. Yer – Quyosh sistemasidagi sayyora    | 6         | 6         | - |
|               | II BOB. Yer yuzasi tabiatining xilma-xilligi | 15        | 15        | - |
|               | <b>3-BOB.</b> Vatanimiz bo'ylab sayohat      | 11        | 11        | - |
|               | Takrorlash                                   | 1         | 1         | - |
|               | <b>Jami</b>                                  | <b>34</b> | <b>34</b> | - |

Tabiatshunoslik kurslarining "Kirish" mavzusida o'quvchilar jonli va jonsiz tabiat to'g'risidagi mavjud bilimlarni kengaytiradilar. Ularda jism, predmetlar va tabiat hodisalari, inson tomonidan tabiat va tabiat hodisalarining o'rganilishi, tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilish tushunchalar tarkib topadi.

"Tabiatda suv va havo" bobida okean va dengizlar, daryo va ko'llar, muzliklar, yer osti suvlari, suvning ahamiyati, suvning uch holati, toza va chuchuk suvlari, ularning ifloslanishi, ichimlik suvlari, suvlarni tejash va muhofaza qilish, tabiatda havoning ahamiyat, havo harorati, ob-havo va uning mahalliy belgilari, shamolning paydo bo'lishi, yog'inlar va ularning turlari, tabiatda suvning aylanishi haqidagi bilimlar V-sinf Tabiiy geografiya boshlang'ich kursini o'zlashtirish uchun muhim.

Suv mavzusiga oid darslarda suv havzalarini tozaligini muhofaza qilishga jiddiy e'tibor berishi lozim. Mavzuni o'rganish jarayonida tabiat hodisalari va kishilar mehnati yuzasidan kuzatishlar olib borish davom ettiriladi.

"Yer osti boyliklari" mavzusini o'rganishda o'quvchilar foydali qazilmalarning hosil bo'lishi, qazib olinishi, turlari, ulardan olinadigan mahsulotlar, ushbu mahsulotlarning ishlatilishi, foydali qazilmalardan oqilona foydalanish va ularni tejash haqida bilim oladilar. Shuningdek, o'quvchilar mamlakatimiz foydali qazilmalarining eng muhim turlari va ularning xossalari to'g'risida dastblabki bilimlar beriladi.

"Tuproq" mavzusida o'quvchilar tuproqning paydo bo'lish jarayonlari, tuproq turlari va xossalari haqida bilim oladilar.

"O'simliklar dunyosi" mavzusida o'quvchilar tabiiy o'simliklar – o'tlar, butalar, daraxtlar, o'simliklarning nafas olishi va oziqlanishi, ularning rivojlanishi, madaniy o'simliklar, kartoshka va sabzavotlar ularni parvarish qilish va hosilini yig'ish, begona o'simliklar va ekin maydonlarni begona o'tlardan tozalash, poliz ekinlari va ularni parvarish

qilish, mevali daraxtlar butalar, manzarali o'simliklar, dorivor o'simliklar va ularning shifobaxshlik xususiyatlari haqida olib borgan kuzatishlari natijasida to'plagan materiallari va o'qituvchining ma'lumotlari asosida tahlil qiladi hamda o'simlik olamining evolyusiyasi, paleontologiyasi haqida dastlabki ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

"Hayvonot dunyosi" mavzusida hayvonot olami va uning xilma-xilligi, ularning ahamiyati va muhofaza qilishga oid tushunchalarga ega bo'lsalar,

"Tabiatni muhofaza qilish" mavzusida o'quvchilarda insонning tabiatga ta'siri (ijobiylar, salbiylar), tabiatni muhofaza qilish tadbirlari, "O'zbekiston Respublikasi Qizil kitob"i, "Qizil kitob"ga kiritilgan o'simliklar va hayvonlar, ularni asrash to'g'risidagi tushunchalar tarkib topadi.

"Yer – Quyosh sistemasidagi sayyora" mavzusida o'quvchilar yulduzlar, Quyosh, sayyoralar, Quyosh sistemasidagi boshqa osmon jismlari, Oy, Yerning shakli, o'chamlari, ularning harakatlari bilan birinchi bor tanishadilar. Shuningdek, Globus – Yer sharining modeli ekanligini bilib oladi.

"Yer yuzasi tabiatining xilma-xilligi" bobida o'quvchilar, uning asosiy tomonlari, Yer yuzasining asosiy shakllari, xaritalar, tabiat zonalari, cho'l va voha, adir, tog', o'rmon, insонning tabiatga ta'siri. O'zbekistondagi o'ziga xos tabiat boyliklari, diqqatga sazovor tabiat obyektlari, ularni muhofaza qilish, O'zbekiston qo'riqxonalar haqida bilimga ega bo'ladilar.

"Vatanimiz bo'ylab sayohat" bobida O'zbekistonning ma'muriy xaritasi, O'zbekiston viloyatlarining egallagan maydoni, tabiat, tabiiy boyliklari, aholisi va uning yashash tarzi, tabiatini muhofaza qilish, O'zbekistondagi tabiat yodgorliklari, tarixiy obidalar va qadimgi yodgorliklariga oid dastlabki tushunchalarga ega bo'ldi.

**Tabiatshunoslik kursining o'rganish texnologiyalari.**  
Tabiatshunoslik ta'limini yuqori tashkil etish va o'tkazish, o'qituvchining o'qitish metodlari, usullari va tamoyillaridan to'g'ri foydalanishiga bog'liq. O'qituvchi to'g'ri tanlagan o'qitish metodi yordamida o'quvchilarning bilish faoliyati faollashadi, bilim, ko'nikma va malakalarini egallahlariga erishiladi.

Tabiatshunoslik kursida asosan quyidagi texnologiya va metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq:

1. Didaktik o'yinlar texnologiyasi;
2. Interfaol metodlar;

3. O'qitishning og'zaki metodlari – hikoya, suhbat, tushuntirish, oqib berish;

4. Kuzatish, tajriba o'tkazish va amaliy ishlar (asosan o'quvchilarning mustaqil ishlarida qo'llaniladi);

5. Darslik va kartografik qo'llanmalar bilan ishlash.

6. Tabiatga doir maqol, matal, topishmoq, ertak va sh'erlardan foydalanish.

Tsbiatshunoslik kursining "Kirish" darsi "jism", "modda" va "tabiat hodisalari" kabi tushunchalarning tarkib topishi uchun zamin tayyorlaydi. O'qituvchi kirish darsida o'quvchilrni qiziqtirishi, ularni diqqat e'tiborini fanni o'rganishga jalb qilishi va bu orqali keyingi o'tiladigan darslarning samaradorligiga zamin tayyorlashi lozim.

"Suv" mavzusida suvning taqralishi, ahamiyati va xossalarni juda ham xilma-xil tarzda, ya'ni rolli o'yinlar, interfaol metodlar, hikoya usulidan foydalangan holda o'rganish mumkin. Shuningdek, o'quvchilarning mustaqil va amaliy ishlari, o'quv filmlarini ko'rsatish, globus va xarita bilan ishlash ham muhim o'rinnegallaydi.

Suv mavzusiga oid darslarda suv havzalarining tozaligini muhofaza qilishga jiddiy e'tibor berish lozim. Mavzuni o'rganish jarayonida tabiat hodisalari va kishilar mehnati yuzasidan kuzatishlar olib borish maqsadga muvofiq.

"Havo" mavzusini o'rganishda o'quvchilar bevosita o'zlarini olib borgan kuzatishlariga asoslanib, O'zbekiston yil fasllarining o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida mustaqil xulosalar chiqarishga, ob-havoni oldindan aytishga o'rganadilar. O'quvchilarni atmosferani ifloslanishidan qo'riqlash yuzasidan olib borilayotgan tadbirlar bilan tanishtirish orqali o'quvchilarni tabiatni muhofaza qilishga o'rgatib boriladi.

"Yer osti boyliklari" mavzusini o'rganishda o'quvchilar o'qituvchining tushuntirishi orqali tabiatda, yer yuzasida, tog' jinslarida insonga bog'liq bo'lmagan o'zgarishni bilib oladilar.

"Tuproq" mavzusini o'rganishda, tuproq – jonsiz va jonli tabiat elementlaridan iborat jism ekanligini bilib oladi. Bu o'z navbatida jonli va jonsiz tabiat elementlarining bir-biriga bog'liq va o'zaro aloqadorligini isbotlaydi.

"Yer – Quyosh sistemasidagi sayyora" mavzusini o'rganish – o'quvchilarda – osmon jismlarining qiyosiy o'chamlari, ular orasidagi masofalar, Quyosh sistemasidagi sayyoralarining joylashishi va harakatlari haqidagi fazoviy tasavvurlarning rivojlanishiga yordam beradi. Mazkur mavzuni o'qitishda hikoya, rolli o'yin, o'yin mashqlari va interfaol

metodlardan foydalanish orqali dars samaradorligiga erishish mumkin. Shuningdek, kuzatish ishlarini olib borish ham o'zining ijobiy natijasini beradi.

O'quv yilining dastlabki kunlaridan boshlaboq, o'quvchilar Quyoshning ufqdan balandligini, Quyoshning chiqish va botishini, kun va tunning uzunligini, Oy fazalarini o'zgarishini, ayrim yulduzlar holatini kuzatib borishlari lozim. Mazkur mavzuni o'rganish vaqtida kuzatishdan tashqari hajmli qo'llanma va modellar, jumladan, globus bilan ishslash ham katta ahamiyatga ega.

“Yer – Quyosh sistemasidagi sayyora” mavzusini o'rganishda o'quvchilar “sayyora”, “kometa”, “asteroid”, “meteor”, “meteorit” kabi yangi atamalarni o'zlashtirishga duch keladilar. Bu atamalarni o'qituvchi sinf taxtasiga yozib borishi, o'quvchilar esa daftarlariiga to'g'ri ko'chirib borishlari shart.

“Vatanimiz bo'ylab sayohat” mavzusida O'zbekistonning geografik xususiyatlari, respublikamiz viloyatlarining maydoni, ma'muriy markazi, tabiat, tabiiy boyliklari, aholisi va uning yashash tarzi, tabiatini muhofaza qilish muammolarini kartografik qo'llanmalardan foydalanib xilma-xil tarzda o'rganish mumkin.

O'zbekiston viloyatlarining joylashgan o'rni, chegaradosh viloyatlari, o'zi yashab turgan viloyat ma'muriy markazidan respublikamiz poytaxti hisoblangan Toshkent shahrigacha bo'lgan masofani xarita yordamida amaliy hisoblab topishi lozim.

Umuman Tabiatshunoslik kursi mavzularini o'qitishda mavzuring mazmunidan kelib chiqqan holda o'qitish metodlarini to'g'ri tanlash bilan birga dars jarayonida xalqimizmimg tabiatga doir maqol, matal, topishmoq, ertak va sh'erlardan foydalanish orqali ta'lif va tarbiyaning yuqori samaradorligiga erishishimiz mumkin.

Shuningdek, zamon talablari asosida xalqaro masshtabida o'quvchilarga ta'lif-tarbiya berishda umumta'lif fanlari bo'yicha fanlararo bog'lanish va amaliy yondashuvni kuchaytirish lozim. O'qish, matematika, texnologiya va tasviriy san'at fanlari bilan o'zaro bog'liqlikda o'qitish dars samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Axborot kommunikatsion texnologiyalar jadal rivojlanayotgan davrda o'qituvchi tomonidan dars jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanishi dars samaradorligining oshishiga va o'quvchilarning fanga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga xizmat qiladi.

**Tayanch so'z va atamalar:** Atrofimizdag'i olam, Tabiatshunoslik, tabiat, tabiatni muhofaza qilish, shahar, qishloq, mehnat, Quyosh, Yer fasllar, odam,

### **TALABALARING O'ZLASHTIRGAN BILIMLARINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLARI**

1. Atofimizdag'i olam va Tabiatshunoslik o'quv fanlari dasturlarini tahlil qiling.
2. Atofimizdag'i olam va Tabiatshunoslik darsliklarining tuzilishini o'rganib chiqing.
3. Atofimizdag'i olam va Tabiatshunoslik o'quv fanlari darsliklarining metodik jihozlanishini tahlil qiling va o'rtog'ingiz bilan fikr almashing.
4. Atofimizdag'i olam va Tabiatshunoslik o'quv fanlari kompetensiyalariga xos jihatlarni ajrating.
5. Atofimizdag'i olam va Tabiatshunoslik o'quv fanlari yuzasidan VENN diagrammasi tuzing.

### **3. Tabiiy geografiya kursining mazmuni va vazifalari**

Umumiyoq o'rta ta'lif maktablarida oq'itiladigan tabiiy geografiya fanlariga “Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi” (5-sinf), “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi” (6-sinf), “O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi” (7-sinf) kabi o'quv fanlarini o'z ichiga oladi.

#### **3.1. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursining mazmuni, tuzilishi va o'qitish texnologiyalari**

**Tabiiy geografiya boshlang'ich kursining mazmuni va tuzilishi.** Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi umumiyoq o'rta ta'lif maktablarining 5-sinfida o'qitiladi. Ushbu fani mifik geografiya kurslari mazmunini tashkil etuvchi umumiyoq va xususiy tushuncha, ko'nikma malakalar tizimidan tarkib topgan.

Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi oquvchilarning tabiatshunoslik kurslaridan olgan bilimlarini kengaytiradi. Binobarin, ushbu fan umumiyoq Yer bilimiga taaluqli ma'lumotlar beradi. Mazkur fanni o'rganish jarayonida o'quvchilar tabiat komponentlari orasidagi aloqalarni tushunib oladilar hamda keyingib geografiya kurslarini o'rganish uchun zamin tayyorlaydilar.

Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi **fanini o'qitishning asosiy maqsadi:** o'quvchilarda tabiiy jarayon va hodisalar, ularning kelib chiqish sabablari va rivojlanish qonuniyatları, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish, tabiatni muhofaza qilish va uni asrash haqidagi tushunchalarni

shakllantirish, tahliliy fikrlashga o'rgatish, olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llash ko'nikmalarini rivojlanirishdan iborat.

#### Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi **fanini o'qitishning asosiy vazifalari**:

✓ geografiya fani va uning rivojlanishi, Yer sayyorasi, joy plani va geografik xaritalar, geografik qobiqlar, inson va tabiat haqidagi tizimli va majmuali bilimlarni tarkib toptirish;

✓ joy nomlari va geografik atamalarni to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish;

✓ hozirgi zamon jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning mohiyati va xususiyatlari to'g'risida tasavvur hosil qilish, yosh avlodning ekologik madaniyatini, milliy boyliklarga nisbatan tejamkorlik munosabatini o'stirish;

✓ turli axborot manbalaridan foydalangan holda, tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy obyekti hamda hodisalarini tavsiflash, geografik xaritalar, statistik va grafik tavsiflar bilan ishlashning amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish;

✓ geografik bilimlar asosida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash doirasini kengaytirish;

✓ o'quvchilarni Vatanga mahabbat, milliy iftixor, fuqarolik mas'uliyati ruhida tarbiyalash.

Geografiya o'quv fanini o'rganishning birinchi davri 1- va 2-sinflarda Yer, Quyosh, ob-havo, fasllar, Yer yuzasining tuzilishi, tabiatni muhofaza qilish, shahar, qishloq, ulardagi kishilar hayoti, mehnati haqida, 3-4 sinflarda tabiat hodisalarini, mamlakatimiz tabiatni haqida boshlang'ich tavsiflar beriladi. Fanni o'rganishning ikkinchi davri umumiyligi o'rta ta'limga muktablarining 5-sinfidan boshlanib, o'quvchilar umumiyligi o'rta ta'limga muktablarida fizika, biologiya, kimyo, matematika fanlarida o'rganiladigan mavzularga zamin yaratadi.

Tabiiy geografiyaning o'rganish obyekti geografik qobiq (epigeosfera)dir. Geografik qobiq bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan yer po'sti, atmosferaning quyi qatlamlari, okean va materik suvlari, tuproqlar, o'simliklar hamda hayvonlardan tarkib topgan. Geografik qobiqnning ayrim tarkibiy qismlari, komponentlarini o'rganish bilan tabiiy geografiyaga yaqin va u bilan uzviy bog'liq bo'lgan fanlar geologiya, geomorfologiya, iqlimshunoslik, gidrologiya, tuproqshunoslik, biogeografiya shug'ullanadi. Geografik qobiq – bir butun tizim sifatida, uning tuzilishi, rivojlanishi va o'ziga xos xususiyatlari hamda asosiy qonuniyatlarini tabiiy geografiyaning umumiyligi bilimi deb ataluvchi bo'limida o'rganiladi. Geografik qobiqni tahlil qilish uning bir butunligini, uni tashkil etuvchi komponentlarning

hamda unda ro'y beruvchi tabiiy jarayonlarning o'zaro aloqadorligi va bir-biriga bog'liqligini ko'rsatadi. Biroq geografik qobiq bir butunligi bilan birga, makonda, ya'ni bir joydan ikkinchi joyga farq qilishi bilan ham harakterlidir.

Geografik qobiqning umumiyligi qonuniyatlarini umumiyligi o'rta ta'limga muktablarida 5-sinf "Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi"da o'qitiladi.

5-sinf Tabiiy geografiya boshlang'ich kursida umumiyligi geografik tushunchalar geosferalar (itosfera, gidrosfera, atmosfera va biosfera) asosida o'rganiladi. Quyosh, Oy va yulduzlar, Yer sayyorasi, uning shakli va o'lchamlari, o'z o'qi va Quyosh atrofida aylanishi, ularning sayyoramiz tabiatini va insoniyat hayotiga ta'siri, joy plani va geografik xaritalarning masshtabi, geografik koordinatalar, Yerning qattiq (itosfera), suv (gidrosfera), havo (atmosfera) hamda hayat (biosfera) qobiqlari va ularni tashkil euvchi tabiiy obyektlarning eng muhim xususiyatlari, inson va tabiiy muhit o'rtasidagi munosabatlar va ekologik muammolar to'g'risida tavsiflar beriladi hamda amaliyotda qo'llash masalalariga alohida e'tibor qaratiladi.

O'quvchilar tabiiy geografiya boshlang'ich kursida tevarak atrofdagi landshaft, predmet va hodisalarining mohiyatini aniqlaydilar, natijada, dunyoda g'ayri-tabiiy narsa yo'q ekanligiga, dunyonni moddiyiligidagi, inson tabiatda ro'y beradigan hodisa va qonuniyatlarini o'rganishi mumkin ekanligiga ishonch hosil qiladilar.

Yuqori sinflarda o'qitiladigan, xususan, Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi, O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi o'quv predmetlarini o'rganishda ham tabiiy geografiya boshlang'ich kursida egallagan tushuncha va ko'nikmalar zamin bo'lib xizmat qiladi.

Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi 7 ta yirik bobdan iborat.

Kursning birinchi bobi "Geografiya fani va uning rivojlanishi" (2 soat) da o'quvchilar geografiya va uning tarmoqlari haqidagi dastlabki tushunchalarga ega bo'lish bilan birga tabiiy geografiyaning ahamiyati, tabiiy geografiya boshlang'ich kursida o'rganiladigan asosiy qonuniyatlar, geografik kashfiyotlar va hozirgi zamon geografiyasi, hozirgi zamon geografik tadqiqotlari va ularning amalga oshirishda fan-texnika yutuqlaridan foydalananishga oid muayyan ko'nikmalar hosil qiladilar.

"Yer – Quyosh sistemasidagi sayyora" (3 soat) bobida Quyosh, Oy va yulduzlar, Yerning shakli va o'lchamlari hamda Yerning o'z o'qi va Quyosh atrofida aylanishiga oid bilimlarni egallaydilar va muayyan ko'nikmalar hosil qiladilar. Ushbu mavzuda yulduzlar va yulduzlar turkumi, Quyosh, uning kattaligi, harorati va uning tarkibidagi sayyoralar,

sayyoralarning yulduzlardan farqi, Oy va uning harakati, ko'rinishlari, Quyosh va Oyning tortishishi, yulduz va Quyoshga qarab oriyentirlash, Yerning shakli va kattaligi, Yerning shakli haqidagi tasavvurlar, globus, geografik qutblar, ekvator, parallel, meridian, Yerning o'z o'qi atrofida aylanishi, sutka, Yerning Quyosh atrofida aylanishi, kabisa yili, Quyosh turish kunlari, shimoliy va janubiy tropiklar, qutbiy doiralar va ularning ahamiyatini o'rganadilar.

Ikkinci bobni o'rganishda o'quvchilarda Quyosh va kompas bilan oriyentirlash, ufqning asosiy va oraliq tomonlarini aniqlash ko'nikmalari shakllanadi.

"Geografik xaritalar" (7 soat) bobida o'quvchilar geografik xaritalar va ularning turlari, azimut, masofani o'lhash usullari, relyef, mutloq va nisbiy balandliklar, relyefni gorizontallar bilan tasvirlanishi, masshtab, daraja to'ri, geografik koordinatalar (geografik kenglik va geografik uzunlik) bilan tanishadilar. Shuningdek, ushbu bo'limni o'rganish davomida o'quvchilrda predmet azimutlarini aniqlash, joyning oddiy planini olish va o'qiy olish, globus va geografik xaritalarning daraja to'ri va masshtabidan foydalana olish, masofani o'lhash, daraja to'ri yordamida nuqtaning joylashgan o'rnnini aniqlash, daraja to'ri yordamida geografik koordinatalarni aniqlash kabi ko'nikmalar shakllantiriladi.

"Yerning tosh qobig'i – litosfera" (4 soat) bobida o'quvchilar Yerni ichki tuzilishi va uni tashkil etuvchi jinslar, seysmik mintaqalar, mineral boyliklar, tektonik harakatlar, vulqonlarning otilishi, zilzilalarning ro'y berishi, yer yuzasi relyefining asosiy shakllari, relyefning vujudga kelishida ichki va tashqi kuchlar ta'siri va ularning o'zgarishi, yirik reyef shakllari (tug'lar va tekisliklar) va ularning geografik joylashuvi bilan tanishadilar.

"Yerning suv qobig'i – gidrosfera" (4 soat) bobida gidrosferaing tarkibi, suvning tabiatda aylanishi va uning ahamiyati, okeanlar, dengizlar va ularning qismi, okean tubi relyefi va okean tubi boyliklari, daryolar va ularning qismi, tog' va tekislik daryolari, sharshalar, ko'llar va ularning ko'rsatkichlari bo'yicha turlari, muzliklar, ularning paydo bo'lishi, yer osti suvlari, ularning vujudga kelish sabablari (suv o'tkazadigan va suv o'tkazmaydigan jinslar), yer osti suvlarining turlari va ularning ahamiyatini o'rganadilar.

"Yerning havo qobig'i – atmosfera" (7 soat) bobida o'quvchilar havo qobigi, unga xos bo'lgan xususiyatlari (tuzilishi, tarkibi, havo harorati, atmosfera bosimi, shamol va uning vujudga kelishi, turlari, havoning namligi (suv bug'lari), bulut, yog'inlar, ularning hosil bo'lishi, ob-havo va

iqlim, iqlimning tarkib topishi va iqlim hosil qiluvchi omillar haqida umumiyl tushunchalar oladilar. O'quvchilar atmosferada ro'y beradigan jarayon va hodisalar, muhim qonuniyatlar, yuqoriga ko'tarilgan sari havo harorati va bosimning o'zgarishi bilan tanishadilar. Binibarin, ushbu bo'bni o'rganish jarayonida o'quvchilarda havoning sytkalik, oylik va yillik o'rtacha harorati va amplitudasini aniqlash, havo harorati va bosimning yuqoriga ko'tarilgan sari o'zgarishini aniqlash, shamolning yo'nalishi va kuchini aniqlash, havo namligini va namlanish darajasini hisoblash ko'nikmalari shakllanib boradi.

"Biosfera. Inson va tabiat" (3 soat) bobida o'quvchilar yerning hayot qobig'i hisoblangan biosferaning xususiyatlari, yerda tirik organizmlarning tarqalishi, tabiat zonalarining vujudga kelishi, ularning turlari va xususiyatlari haqidagi tushunchalarga ega bo'ladilar.

Tabiiy geografiya boshlang'ich kursida o'rganiladigan bilimlar astasekin murakkablashib, xarita to'g'risidagi bilimlar kengayib, takomillashib boradi. Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi – umumiyl tabiiy geografik tushunchalardan iborat. Bu kursda o'rganiladigan tushuncha, predmet va hodisalarning ko'pchiligi maktab atrofida uchraganligidan tabiiy geografiya boshlang'ich kursidagi ta'limni o'lkashunoslik tamoyili asosida tashkil etish imkoniyatini beradi. Demak, ko'pchilik predmet va hodisalar haqidagi tushunchalar mahalliy materiallar asosida shakllantiriladi.

Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi, dastlab, 1965-66 o'quv yildan boshlab uzoq vaqt davomida N.A.Maksakovskiyning "Tabiiy geografiya" (5-sinf) darsligi asosida o'rganib kelingan bo'lsa, hozirda P.G'ulomov, R.Qurban niyozov, M.Avezov, N.Saidovalarning "Geografiya" (2020) darsligi asosida o'rganilmoqda.

**Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi materiallarini o'rganish texnologiyalari.** Tabiiy geografiya boshlang'ich kursida umumiyl tushunchalar asosiy o'rinn egallaydi va ulardagi predmet hamda hodisalarning asosiy qismi (relyef shakllari, ariq, daryo, yer osti suvlari, atmosfera hodisalari va h.k.) bevosita maktab atrofida uchraydi. Mazkur kursni o'rganish jarayonida o'quvchilar maktab atrofidagi tabiat obyektlari va hodisalarni kuzatadilar, natijada ular kuzatishga oid muayyan amaliy ko'nikma va malakalarni egallaydilar.

Tabiiy geografiya boshlang'ich kursidagi yangi bilim va ma'lumotlarni o'rganishda ko'proq o'gzaki bayon metodining suhbat, tushuntirish, hikoya usullari, kartografik texnologiya, interfaol metodlar va didaktik o'yinlar texnologiyalaridan va turli mazmundagi o'quv qurollaridan foydalanish zarur.

“Kirish” darsida o‘qituvchi o‘quvchilar bilan tanishgach, darsni suhbat va tushuntirish usullaridan foydalanib shunday jonli tashkil etish kerakki, guyoki o‘quvchi tabiatda bo‘layotgan voqeа va hodisalarni bevosita kuztuvchisi yoki ishtirokchisiga aylansin. Dars geografiya nimani o‘rganishi haqida borar ekan, fanga o‘quvchilarning havasi va qiziqishini orttirishga alohida e’tibor berish kerak. Binobarin, geografiya darsi uchun kerakli o‘quv qurollari (geografiya darsligi, katak daftari, atlas, yozuvlari xarita, rangli qalam) va ulardan foydalanish yo‘llari ham ushbu darsda tushuntirilishi lozim.

“Geografik kashfiyotlar va hozirgi zamon geografiyası” mavzusini o‘rganishda qo‘srimcha adabiyotlardan foydalanib, suhbat va hikoya usullari, turli illyustrasiyalar va axborot texnologiyalari asosida Eetrosfen, Klavdiy Ptolomey, Muhammad Muso al-Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Qoshg‘ariy, Nosir Hisrav, Zahriddin Muhammad Bobur, Xristofor Kolumb, Fernan Magellanning geografiya fanini rivojlanishiga qo‘sghan hissalari haqida ma’lumot beriladi, hozirgi zamon geografik kashfiyotlari va tadqiqotlari, ob-havoni kuzatish yo‘llari va h.k.larni ham videolavhalar, ham mahalliy sharoit misolida o‘rgatiladi.

O‘quv yilining dastlabki kunlaridan boshlab ob-havoni kuzatish boshlanadi. Quyoshning ufqdan balandligini skafis yoki “uglomer” yordamida kuzatish mumkin. Kuzda o‘quvchilarini maktab atrofiga kuzgi ekskursiyaga olib chiqiladi. Kuzgi ekskursiyaga qadar o‘quvchilar ayrim asboblar (masalan, skafis, burchak o‘lchagich, planshet va h.k.)ni qo‘lda yasashga o‘rgatiladi.

Kuzgi ekskursiya joy yer yuzasining tuzilishi, tog‘ jinslari va ularning joylanishi, daryo yoki kanalning kengligi, chuqurligi va tezligi haqida aniq bilim berish maqsadida o‘tkaziladi. O‘qituvchi ekskursiya uchun shunday joyni tanlashi kerakki, tanlangan joyda o‘tkazilgan ekskursiya natijasi ijobjiy chiqsin. Ekskursiyada o‘quvchilar tepe yoki qirg‘oq balandligini niviler, yonbag‘irning qiyaligini eklimer bilan o‘lchashni o‘rganadilar.

“Quyosh, Oy va yulduzlar”, “Yerning shakli va o‘lchamlari”, “Yerning o‘z o‘qi va Quyosh atrofida aylanishi” mavzularini o‘rganishda bir qancha amaliy ko‘nikma va malakalar hosil qilish kerak bo‘ladi. Ushbu mavzularni o‘rganish jarayonida o‘quvchilarda Yerning shakli va kattaligi, qutblar, ekvator, meridian, parallelarga oid kartografik tushuncha va tasavvurlarni shakllantirishda kartografik va tasvirli qo‘llanmalardan ham foydalaniladi. Bunda avval globusda, keyin yarimsharlar, Ozbekiston xaritalaridan foydalanish maqsadga muvofiқ. Globus, yarimsharlar va O‘zbekiston xaritalaridan foydalanib Yer sharining aylanasi, parallel va meridianlar uzunligini o‘lchach, o‘zi yashab turgan viloyat ma’muriy markazining geografik kenglik va uzunligini aniqlab topish, masofalarni masshtab yordamida aniqlash orqali xarita bilan ishslash amaliy ko‘nikma va malakalar ham shakllantiriladi.

meridianlar uzunligini o‘lchach orqali xarita bilan amaliy ko‘nikma va malakalar ham shakllantiriladi.

“Azimut va masofani o‘lchash”, “Joy balandligi”, “Masshtab”, “Geografik xaritalar” va “Geografik koordinatalar” mavzularini o‘rganishda og‘zaki bayon metodi, amaliy metodlar, kartografik texnologiya va interfaol metodlarning “Kim topqir”, “Uchnchisi ortiqcha”, “Moychechak gul”, “Soatdagи so‘z” kabi ko‘plab turlaridan foydalaniladi.

O‘quvchilarda shakllantiriladigan kartografik tushunchalarni joy planini olishdan boshlash lozim. O‘quvchilar o‘z mahallasi yoki maktabining planini o‘qituvchi rahbarligi va ko‘rsatmalarasi asosida chizishlari zarur. Chunonchi, ushbu mavzularni o‘rganishda masshtab, azimut, geografik xarita, daraja to‘ri, geografik kenglik, geografik uzunlik, geografik koordinatalarga oid kartografik tushuncha va tasavvurlar shakllantiriladi. Ushbu tushuncha va tasavvurlarni shakllantirishda kartografik va tasvirli qo‘llanmalardan foydalaniladi. Mazkur kartografik tushuncha va tasavvurlarni shakllantirishda avval globusda, keyin yarimsharlar, Ozbekiston xaritalaridan foydalanish maqsadga muvofiқ. Globus, yarimsharlar va O‘zbekiston xaritalaridan foydalanib Yer sharining aylanasi, parallel va meridianlar uzunligini o‘lchach, o‘zi yashab turgan viloyat ma’muriy markazining geografik kenglik va uzunligini aniqlab topish, masofalarni masshtab yordamida aniqlash orqali xarita bilan ishslash amaliy ko‘nikma va malakalar ham shakllantiriladi.

“Litosfera. Tog‘ jinslari” mavzusi ancha murakkab bo‘lishi bilan birga o‘quvchilar uchun qiziqarli mavzudir. Bu mavzuda maktab atrofidagi obyektlarni asl holatida o‘rganish imkoniyati mayjud, ammo maktab atrofida uchramaydigan predmet va hodisalarni modellar, manzarali rasmlar, tasvirli o‘quv qo‘llanmalari (zilzilaning ro‘y berishi, vulqon, geyzrlarning otlishi jarayonlari va ularning salbiy oqibatlarini videolavhalar) yordamida o‘rganishga to‘g‘ri keladi. Yerning ichki tuzilishi va uni o‘rganilish usullari, vulqonlar, tog‘larning paydo bo‘lishi, zilzilalarning sodir bo‘lishi kabilrni tushuntirish usulida chizma va sxemalar yordamida tushuntirish mumkin. Ammo, relyef va yer po‘stining tashkil etuvchi jinslarni esa amaliy jihatdan bilib olish uchun ekskursiya tashkil etish maqsadga muvofiқ. Ekskursiya paytida o‘quvchilar relyef shakllari va yer yuzasi qatlamlarining tuzilishini, undagi jinslarni o‘z ko‘zlarini bilan ko‘radilar.

“Gidrosferaning tarkibi, Dunyo okeani” mavzusidagi dastlabki ma’lumotlar gidrosfera va uning tarkibiy qismlarining umumiy xususiyatlari haqida berilgan. Dunyo okeani va uning haqidagi bilimlarni

O'zbekiston maktablaridagi o'quvchilar bevosita ko'ra va kuzata olmaydilar. Shuning uchun okean, okean tagi relyefi haqida so'zlaganda turli rasm, videolavha, kinofilm yoki sinf doskasiga chizib qo'yiladigan sxemalarni ko'rsatish kerak. Okean qismalari, qirg'oq chizig'i to'g'risidagi tushunchalarni geografiya maydonchasidagi suniy suv havzasidan ko'rish mumkin, yoki, internet tarmog'iga ulanib to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatish, yoki, yana uchinchi varianti videolavhalar yordamida ham ko'rish mumkin. Daryolar, ko'llar, muzliklar va yer osti suvlarini maktab atrofidagi ariq, anhor, daryo, buloq, quduq, ko'l yoki suv omborlari misolida o'rganish, shuningdek, ular bo'yiga ekskursiyalar tashkil etish, kuzatishlar (suvning ko'payishi yoki kamayishi, muzlashi, loyqaligi va h.k.) tashkil etish orqali o'rganish ham maqsadga muvofiq .

"Atmosfera" bobi bo'yicha o'rganiladigan tushuncha, hodisa va jarayonlar, xususan, havoning o'rtacha harorati, shamolning yo'nalishi, havoning namligi, yog'inlarning turlari, ob-havoning holati kabilarni bevosita tabiatda kuzatish yo'li va zaruriy meteorologik asboblar bilan ishslash tufayligini idrok etish, tushunib yetish mumkin. Shuning uchun ham ushbu bobda beriladigan bilimlarni o'zlashtirishda o'quvchilar kuzatish va tajriba metodlaridan ko'proq foydalanishlari hamda interfaol metodlarning bir nechta turlari va amaliy topshiriqlardan foydalanishlari maqsadga muvofiq .

Suv hamda quruqlikning notekis isishi, yog'inlarning hosil bo'lishi tajriba asosida, atmosfera hodisalari kuzatish asosida o'rganiladi. Kuzatish natijasida olingan ma'lumotlarni ishlab chiqishda turli mazmundagi iqlim diagrammalari, grafik, shamol gulini chizish kabi amaliy ishlar qo'l keladi (Mo'minov O., 1986).

"Ob-havo va iqlim" mavzusi yuzasidan meteorologik stansiya va undagi asboblarning ishi, ob-havoni oldindan aytish usullari bilan tanishtirish maqsadida o'quvchilarni meteorologik stansiyaga olib borish o'zining ijobjiy natijasini beradi.

O'qituvchi o'quvchilarga ob-havo holatini kuzatib borish vazifasini topshirar ekan ahyon-ahyonda kuzatish natijalarini teksirishi va ularning ishlariga tegishli baho qo'yib borishi kerak.

"Biosfera" qobig'iga oid mavzularni o'rganishda tabiat zonalarini ifodalovchi manzaralari rasmlar, o'quv filmlaridan, ayrim o'simlik namunalardan, ya'ni gerbariylardan keng foydalaniladi.

Ushbu mavzuni o'rganishda o'lka materiallaridan foydalanishning ahamiyati ayniqsa katta. Bunda o'quvchilar boshqa zonalarning iqlimi, o'simlik va hayvonot dunyosi, ularning bir-biriga bo'lgan ta'sirini o'z

o'lkasiniki bilan taqqoslab o'rganadilar. O'z o'lkasi iqlimi o'simlik va hayvonot dunyosini boshqa o'lkalarni bilan taqqoslash natijasida o'quvchilarda o'z Vatanidan fahrlanish hissi, milliy g'urur, milliy iftixor tuyg'ulari ham shakllanib va rivojlanib boradi.

"Inson va tabiat" mavzusidagi materiallar asosan hikoya usuli va didaktik o'yinlar texnologiyasining "Syujetli rolli o'yinlar" metodlaridan foydalanib o'rganiladi.

Tabiiy geografiya boshlang'ich kursida o'qituvchi o'quvchilarga turli rasm, animatsion materiallar va illyustratsiyalarni tilga kirituvchi savollar berib ularni tabiat hodisalarini qanchalik darajada bilishlarini, masalan, vulqon otilishi jarayonini yoki buloqni hosil bo'lishini, tabiatda suvni aylanib yurishini tushunganliklarini bilib olish mumkin. Bu usulda so'rash o'quvchilarning geografiya faniga bo'lgan qiziqishlarini orttiradi va ularni kelajakda ma'lum bir kasbni to'g'ri tanlashlariga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, o'qituvchi o'quvchilar bilimini hisobga olishda ularning turli kuzatish asboblari bilan ishlay olishlarini ham e'tiborga olishi zarur.

### **3.2. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursining mazmuni, tuzilishi va o'qitish texnologiyalari**

**Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursining mazmuni va tuzilishi.** Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi predmeti umumiyo'rta ta'lim maktablarining 6-sinfida o'qitiladi. Ushbu kurs mifik geografiya fanlari tizimida dastlabki regional kursdir. Materiklar va okeanlar geografik qobiqdan keyin turuvchi tabiat kompleksi bo'lib, ular geografik qobiqni tashkil etuvchi komponentlar hamda unda ro'y beruvchi jarayonlarning o'zaro qarama-qarshi ta'siri natijasida rivojlanishi natijasidir. Geografik qobiq hududiy bo'linishi natijasida nisbatan bir xil joylarning murakkab tabiiy tizimiga ajraladi, bu joylar tashqi ko'rinishi va ichki xususiyatlari jihatidan bir-biridan farq qiladi. Ularning kattakichikligi va bir xillik darajasi turlicha bo'lishi mumkin.

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi geografik qobiqning tabiiy chegaralar bo'yicha ajratilgan ayrim hududiy birliklarini o'rganadi.

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi o'rganishda orqali o'quvchilarda har bir materik va ular tarkibiga kiruvchi tabiiy geografik rayonlar, materiklarning aholisi hamda okeanlarning tabiiy geografik xususiyatlari haqidagi tasavvur va xususiy tushunchalar shakllantiriladi.

Ushbu kurs materiallarini o'rganish jarayonida tabiiy geografiya boshlang'ich kursi (5-sinf)da olingan bilimlarga tayaniлади, avval

egallangan umumiy tushunchalar xususiy tushunchalar bilan yanada aniqlashtiriladi va mustahkamlanadi. Masalan, Afrika materigi iqlimini o'rganishda 5-sinfda o'rganilgan izoterma, ekvatorial va tropik havo massalari, passatlar, passatlarning okean oqimlari va yog'lnarga ta'siri haqidagi umumiy tushunchalar Afrika materigi iqlimini o'rganish jarayonida xususiy tushuncha tarzida beriladi. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursida berilgan materiallarni o'rganish natijasida Yer sharining iqlimi va iqlim hosil bo'lismiga ta'sir etuvchi omillar, atmosfera sirkulyatsiyasi, iqlim mintaqalari haqida o'quvchilarda yangi umumiy tushunchalar shakllanadi.

Butun geografik qobiq haqida va uni tashkil etuvchi tizimlar, tabiiy komplekslar haqida fikr yuritilganida, kishilik jamiyatni faoliyatining tabiatga ko'rsatadigan juda katta ta'sirini unutmaslik kerak. Umuman geografik qobiq va uning ayrim qismlari tabiiy hududiy tizimlar sifatida garchi, Yer sharining rivojlanishi jarayonida shakllangan bo'lsada, bu tizimlar kishilik jamiyatining ta'sirida ma'lum darajada o'zgargan. Jamiyatning rivojlanish darajasiga, uning qaysi iqtisodiy-ijtimoiy formatsiyaga mansubligiga, o'rganilayotgan hududda aholining zinch joylashganligiga qarab tabiiy komplekslarning inson tomonidan o'zgartirilishi turlicha harakterda bo'lishi mumkin.

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursida barcha materiklar va okeanlarning ularga tutash qismlari (dengizlar va orollar bilan birga) o'rganiladi. Bunda quruqlikka asosiy e'tibor beriladi, okeanlar va dengizlar esa asosan ularning materiklar tabiiy sharoitining shakllanishidagi ahamiyati va aholining hayoti hamda faoliyatiga ta'siri nuqtai nazaridan ko'rib chiqiladi.

Har bir materikning ta'rifi regional tabiiy geografik ta'riflashning umum qabul qilingan muayyan rejasi bo'yicha beriladi. Bu rejani geografik qobiq doirasida tabiiy hududiy komplekslarni hosil qiluvchi tabiat komponentlarining o'zaro aloqadorligi va bir-biriga bog'liqligi taqozo etadi.

Dastlab materikning, uning xususiyatlari, shakli, geografik o'rni, tabiat asosiy xususiyatlarining umumiy ta'rifi beriladi. Bu nisbatan kichik kirish qismidan so'ng mazkur materikni o'rab turuvchi okeanlarning qirg'oq bo'yi qismlari qisqacha ta'riflanadi. Materik umumiy tavsifining oxirida uni tabiatining hududiy taqsimlanish xususiyatlari va uning doirasida ajratiladigan tabiiy majmualar (komplekslar) tizimi masalasi ko'rib chiqiladi. Geografik qobiqning ajratiladigan regionlari murakkab tabiiy komplekslardan iborat bo'lib, ular tarkibida umuman geografik

qobiqni tashkil etuvchi barcha tabiat komponentlari ishtirot etadi va o'zaro bir-biriga ta'sir etib turadi. Mazkur kursda rayonlashtirishning asosiy birligi va geografik ta'riflashning asosiy obyekti bir butun, geografik jihatdan alohida ajralib turuvchi hudud (yoki orollar bilan birga olingan akvatoriya)dir; bu hudud (yoki akvatoriya)ning asosiy qismi bir iqlim mintaqasida joylashgan bo'lib, bir geotektonik oblastga kiradi. Uning doirasida bir iqlim tipi bilan va biror morfostruktura tipining ustun turishi bilan harakterlanuvchi nisbatan kichik tabiiy hududiy birliklar ajratiladi.

O'quvchilarda kartografik bilimlarni, xaritani o'qish va tushunib yetish ko'nikmalarini rivojlantirish materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Har bir materik va okeanlarni o'rganish davomida o'quvchilar xarita asosida hududlarning tabiiy sharoitidagi o'xshashlik va tafovutlarni ajratadi hamda tavsiflashni o'rganadilar. Bu o'z navbatida o'quvchilarda xarita bilan ishlashga oid amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursida o'quvchilarga beriladigan bilimlarning mazmuni quyidagilardan iborat: har bir materikning tabiiy geografik xususiyatlari: materikning asosiy xususiyatlari, geografik o'rni, o'rganilish tarixi, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari, relyefi, iqlimining tarkib topishi, iqlimi xususiyatlari, iqlim mintaqalari, ichki suvlari – daryolari, ko'llari, yer osti suvlari, tabiat zonalari, tabiiy-geografik o'lkalari, aholisi haqida tushuncha beradi. O'quvchular har bir materik va okean tabiatiga xos bo'lgan xususiyatlarni, boshqa materik va okean tabiatidan nimalar bilar bialn farq qilishi, uning tabiiy sharoiti qanday omillar ta'sirida tarkib topganligi, tabiiy resurslaridan inson qay tarzda foydalananayotganligini bilishlari lozim.

Ushbu kursni o'rganish jarayonida o'quvchilar har bir materik va okeanning tekshirilish tarixi, aholisi, insonning tabiatga ta'siri bilan ham tanishadilar. O'quvchilar materik aholisining soni, aholini materik bo'yicha taqsimlanishi, xo'jalik faoliyati, ularning tabiatga ta'siri va oqibatlarini bilib oladilar.

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi mazmunan 4 ta bo'limdan iborat. Bular: so'zboshi, geografik qobiq, okeanlar tabiat, materiklar tabiat.

Birinchi "Sozboshi" bo'limida (2 soat) materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursida nimalar o'rganilishi, darslikning qisqacha mazmuni, materiklar, okeanlar va ularning tarkibiy qismlari, geografik xaritalar va

ularning tasnifi, geografik atlaslar, globuslar va ularning turlari haqida bilimlar beriladi.

“Geografik qobiq” bo‘limini (10 soat) o‘rganish orqali o‘quvchilar geografik qobiq, uning chegaralari, xususiyatlari, geografik qobiqning rivojlanish bosqichlari, geografik qobiqning umumiy qonuniyatları (bir butunlik, modda va energiyaning tabiatda aylanib yurushi, davriy yoki ritmik xodisalar, geografik zonallik va balandlik mintaqalanishi) haqidagi bilimlarga ega bo‘ladilar.

“Litosfera va Yer relyefi” va “Materiklar va okenlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi” mavzularida yer po‘stining harakatchan va nisbatan turg‘un qismlari, quruqlik va okean osti relyef shakllari, Yer va litosferaning, materiklar va okean botiqlarining paydo bo‘lishi haqidagi gipotezalarga oid tushunchalar beriladi.

“Gidrosfera, uning tarkibiy qismlari” mavzusida gidrosferaning tarkibiy qismlari, okean suvlari, ularning harorati, sho‘rliqi, ahamiyati va quruqlik suvlarinining turlari (daryolar, ko‘llar, suv omborlari, kanallar, muzliklar, yer osti suvlari, ko‘p yillik muzloq yerlar), maydoni, tarqalishi va xususiyatlari haqidagi bilimlarga ega bo‘lailar. Binobarin, o‘qituvchi ushbu yangi material haqida so‘zlar ekan bunda o‘quvchilarning 5-sinfda egallagan bilim va ko‘nikmalarini e’tiborga olmog‘i kerak. Ushbu mavzuga oid bilimlarni shakllantirishda xarita bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratmoq lozim.

“Atmosfera, Yerning iqlim mintaqalari” mavzusi o‘quvchilar uchun qiziqarli mavzulardan bo‘lib, ushbu mavzu orqali o‘quvchilar atmosferaning tarkibi va tuzilishi, ularga xos xususiyatlari, yer yuzasi iqlimining xilma-xilligi va uni hosil bo‘lishiga ta’sir etuvchi omillar, iqlim mintaqalari, iqlimini shakllanishiga ta’sir etuvchi havo massalari hamda iqlim xususiyatlarini o‘rganadilar.

“Tabiat komplekslari, ularning almashinuvi va zonalligi” mavzusida o‘quvchilar tabiat komponentlari va tabiat komplekslari, ularning iqlimi xususiyatga bog‘liq ravishda almashinuvi va tabiat zonalarining tarkib topishi, tabiat komplekslarining gorizontal va verikal almashinuvi haqida bilim oladilar.

“Yer yuzi aholisi, irqlar” mavzusida o‘quvchilar Yer yuzi aholisi soninig turli davrlarda o‘sib borishi, jahondagi aholi soni eng ko‘p mamlakatlar, irqlar, aholining joylashish xususiyatlari, tabiiy boyliklar va ularning inson uchun ahamiyati, aholining tabiat bilan aloqadorligi, landshaftlar va ularning turlari haqida ma’lumotga ega bo‘ladilar.

Uchinchi “Okeanlar tabiat” bo‘limida (5 soat) Dunyo okeani, uning qismlari va okean tubi relyefi, okean suvning xususiyatlari, okeanlarning materiklar tabiatiga ta’siri, okean boyliklari, ulardan foydalanish va muhofaza qilish, okeanlarning jahon xo‘jaligidagi tutgan hozirgi va istiqboldagi o‘rni haqida ma’lumotlar berilgan.

“Dunyo okeani va uning qismlari” va “Dunyo okeani tubining geologik tuzilishi, relyefi” mavzuslarida o‘quvchilar Dunyo okeani va okeanlar to‘g‘risidagi 5-sinfda egallagan bilimlariga tayangan holda okeanlarning o‘rganilish tarixi va uning qismlari (okean, dengiz, qo‘ltiq, bo‘g‘iz), geologik tuzilishi, okean tubi relyefi bilan tanishadilar va ular to‘g‘risidagi tushunchalar shakllanadi. Oquvchilar dengiz, qo‘ltiq va bo‘gizlarni globus va xaritalardan topishni bilib oladilar.

“Okean suvining xususiyatlari” mavzusida okean suvining sho‘rliqi va uning kengliklar bo‘yicha o‘zgarib borishi, okean suvining harorati va uning kenglik, uzunlik hamda chuqurlik tomon o‘zgarishi, okean suvlarinining harakatlari (oqimlari, to‘lqinlar va okean suvining qalqisi) to‘g‘risida muayyan bilimlar oladilar va amaliy ko‘nikmalar hosil qiladilar. Ushbu mavzuni o‘rganishda o‘quvchilarda okean va dengiz suvlarinining sho‘rliqi va haroratini aniqlash amaliy ko‘nikmalar shakllanadi.

“Dunyo okeanining atmosfera va quruqlikka ta’siri” va “okean boyliklari, ularfdan foydalanish va muhofaza qilish” mavzularida o‘quvchilar Dunyo okeanining Yerni boshqa qobiqlari bilan muntazam aloqada bo‘lib, sayyoramiz tabiatiga kuchli ta’sir etib turishi, okeanning atmosfera va quruqlikka ta’sir etishida havo massalarining o‘rni va ahamiyati, okean boyliklarining turlari, ulardan foydalanish, Dunyo okeanini milliy, regional va xalqaro miqyosda muhofaza qilish yo‘llari bilan tanishadilar. Shuningdek, “bentos”, “nekton”, “plankton”, “biologik resurs”, “kimyoiy resurs”, “ma’danli resurs” va “yoqilg‘i-energetika resurslari” kabi yangi tushunchalar beriladi. Globus va xaritadan foydalanib okean oqimlari (iliq va sovuq) ning materiklar tabiatini shakllanishiga ta’sirini tahlil qilish ko‘nikma va malakalari hosil qilinadi.

To‘rtinchi “Materiklar va okeanlar tabiat” bo‘limi (51 soat) dastur bo‘yicha quyidagi tartibda o‘rganiladi: Afrika, Atlantika okeani, Hind okeani, Avstraliya va Okeaniya, Tinch okeani, Antarktida, Janubiy Amerika, Shimoliy Amerika, Shimoliy Muz okeani, Yevrosiyo. Bunday izchillik didaktikaning “oddiydan murakkabga” tamoyiliga asoslangan bo‘lib, tushunchalarni asta-sekin shakllantirish imkoniyatini vujudga

keltiradi. Materiklar va okeanlar tabiatini yuqorida ta'kidlaganimizdek, umumqabul qilingan reja asosida o'rganiladi.

Afrika materigining qirg'oq chizig'inining deyarli tekis; qiyofasi, tabiat komponentlarining joylashishi nisbatan oddiy; materikdagi zonallik aniq bo'lganligidan zonallikka oid geografik qonuniyatni oquvchilar oson tushunib oladilar. Afrika materigining tabiatini va aholisining tarkibi va turli xususiyatlari jihatidan Vatanimiznikidan o'zgachaligi, o'xshamasligi o'quvchilarda juda katta qiziqish paydo qiladi.

Yevrosiyo materigini barcha materik va okeanlar tabiatini o'rganib bo'linganidan so'ng o'rganilishi, mazkur kurs bilan "O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi" kursining mantiqiy bog'lanishini vujudga keltiradi, ayni vaqtida Yevrosiyoning faqat xorijiy o'lkalarinigina o'rganish bilan kifoyatlanishiga imkon beradi. Materiklar tabiatiga beriladigan ta'rif ikki qismidan iborat bo'lib, uning birinchi qismida materiklarga umumiyyat tafsif berilsa, ikkinchi qismida yirik tabiiy geografik o'lkalarga berilgan tabiiy geografik tafsifdan iborat.

Materiklarning umumiyyat tabiiy-geografik tafsifida materik tabiatini ayrim komponentlari: relyefi, iqlimi, ichki suvlari, tuprog'i, osimligi va hayvonot dunyosi (tabiat zonalari)ning o'ziga xos xususiyatlari va ularning joylanishidagi qonuniyatlar o'rganiladi. Shu bilan birgalikda umumiyyat geografik tushunchalar ham shakllanadi.

Tabiiy geografik o'lkalarini o'rganishda tabiat komponentlari ortasidagi bog'lanish va ularning bir-birini taqazo etishi, tabiat bilan insonning bir-biriga ta'siri ko'rsatiladi. Shuningdek, tabiiy-geografik o'lkalarning tabiatdagi o'ziga xos xususiyatlariga alohida e'tibor qaratiladi.

Okeanlarni o'rganishda har bir okeanning o'ziga xos xususiyatlari, geografik o'rni, o'rganish tarixi va tadqiq etilishi, har bir okeanning o'ziga xos tabiiy sharoiti haqida ma'lumotlar beriladi.

**Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursi materiallarini o'rganish texnologiyalari.** Mazkur kursni o'rganishda xilma-xil ta'lim metodlari, pedagogik va axborot texnologiyalardan ijodiy yobdashib foydalanish imkoniyati katta. Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursida yangi bilimlarni o'zlashtirishda tabiatshunoslik kursi va V sinf tabiiy geografiya boshlang'ich kursida egallagan bilim va ko'nikmalariga tayanipladi.

Shuningdek, botanika, tarix, matematika fanlaridan egallagan bilim va kompetensiyalari ham muhim ahamiyatga egadir. O'quvchilarga o'simliklarning anatomiyasi va fiziologiyasi, muhim madaniy o'simliklar

botanika kursidan ma'lum. Materiklarning o'simliklari o'rganilayotganda ushbu bilimlaridan foydalanish mumkin. Tarix fanidan egallagan bilimlari esa materiklar tabiatini o'rganish tarixi, aholisini o'rganishda foydalanish maqsadga muvofiq.

Matematik kompetensiyalar o'quvchilarni raqamli ma'lumotlar bilan ishlashlarini osonlashtiradi va ayrim masalalarni ongli o'zlashtirish imkoniyatini beradi.

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursida kartografik qo'llanmalardan tabiiy geografiya boshlang'ich kursiga nisbatan ko'proq foydalilanadi. Shuning uchun ham o'quvchilarda xarita bilan ishlashga oid quyidagi ko'nikmalar shakllantiriladi:

- ✓ turli xaritalar (materiklarning umumgeografik xaritasi, relyef, iqlim, geografik mintaqalar, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi xaritalari, shuningdek, tabiiy-geografik o'lkalar, siyosiy-ma'muriy xaritalar) bilan tanishtirib, ma'lum bir hududga tafsif berishga o'rganish;

- ✓ darslikda berilgan karta-sxema, turli illyustratsiya va raqamli ma'lumotlardan bilim manbai sifatida foydalilanish;

- ✓ darslik matnidan mustaqil bilim olish va matnga oid mashq va topshiriqlarni mutazam bajarib borish. Bunda darslik matnnini o'rganib va uni tahlil qilib turli mazmundagi jadvallarni to'ldirish yaxshi natija beradi.

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursi uchun geografik atlas va yozuv siz xaritalar to'plami nashr etilgan. Bunda har bir materikning alohida yozusiz xaritalari berilgan. Yozuv siz xaritalardan atlasdan foydalaniib materiklarning geografik o'rni, qirg'oq chiziqlari, relyefi va foydali qazilmalari, iqlim mintaqalari, daryo va ko'llari, tabiat zonalari va siyosiy xaritasiga oid dastur talab etgan ma'lumotlarni tushurish va bilimlarni mustahkamlash, tasavvurlarni kengaytirish maqsadida foydalilaniladi.

Ushbu kursda o'rganiladigan hududlar o'quvchilar yashab turgan muhitdan ancha farq qiladi, ayni vaqtida ularni ko'rsatish imkoniyati ham yoq. Shuning uchun ular haqida hikoya qilib berish va qo'shimcha o'quv qo'llanmlarini ko'rsatish lozim. Hikoya ta'sirchan bo'lishi uchun qo'shimcha adabiyotlar va turli xrestomatik materiallardan aniq va qiziq materiallarni topib obrazli tarzda o'qib berish kerak. Shuningdek, manzarali rasmlar, kolleksiyalar va gerbariyalar ahamiyatlidir. Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'rganilayotgan hududga oid o'quv filmlari mavjud bo'lsa ulardan yoki turli internet saytlaridan olingan rasmlar, videolavhardan foydalaniib ko'rsatish imkoniyati ham bugungi kunda mavjud.

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasini o'rganishda suhbat va debat usullaridan keng foydalanish kerak. Ayniqsa, xarita bilan ishslash, o'quv qurollari va vositalarining boshqa turlaridan foydalanish ushbu usullarni tadbiq etishni taqazo etadi. Materiklarga tabiiy-geografik tavsif berish va obyektlarni ta'riflashda hikoya usulidan foydalanish maqsadga muvofiq.

Barcha materiklar bir xil plan asosida o'rganilishi o'quvchilarning mustaqil ishlarini samarali tashkil etishga qulaylik tug'diradi. Bunda materiklarning joylashgan geografik o'rniga tavsif berish, chekka nuqtalarining geografik koordinatalarini aniqlash, materiklarning bo'yisi va kengligini o'chash ishlari imkoniyati boricha xarita yordamida mustaqil bajarilishi lozim.

Afrika materigining geografik o'rni og'zaki metodning suhbat va hikoya usulidan foydalanib o'rganilsa, Avstraliya va Okeaniyaning geografik o'rni suhbat usulida o'rganilishi mumkin. Keyingi materiklarning geografik xususiyatlарини esa modulli ta'lrim texnologiyasi, hamkorlikda o'qitish texnologiyasi, didaktik o'zinlar texnologiyalari va interfaol metodlardan foydalanib, o'zları orttirgan ko'nikma va malakalariga tayanib mustaqil o'rganishlari mumkin.

Materiklarning, xususan, Afrikaning relyefi o'rganilayotganda relyefga oid asosiy ma'lumotlar (platformalar, yer po'stining harakatchan qismlari haqidagi tushunchalar) tushuntirish usuli asosida yer yuzasining xususiyatlari va foydali qazilmalarini ushbi mavzularga oid xaritalarni tahlil qilish asosida o'rganilsa, keyingi materiklarning relyefi pedagogik va axborot texnologiyalar hamda interfaol metodlar asosida xaritadan foydalanib, orttirilgan ko'nikma va malakalar tayanib mustaqil o'rganiladi. Chunonchi, mavzuning mustahkamlash qismida relyefga oid VENN diarammasi tuzish topshiriqlarini berish orqali ham xaritada foydalanish amaliy ko'nikm' va malakalarini rivojlantirish mumkin.

Materiklar iqlimini iqlim xaritalari va raqamli ma'lumotlar yordamida o'rganish yaxshi natija beradi. Tabiiy va iqlim xaritalarini bir-biriga taqqoslash orqali iqlimni shakllanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash mumkin. Iqlim xaritalarini tahlil qilishlari natijasida har qaysi materikka yog'adigan yog'inlarning notekis taqsimlanishi, izotermalarning tarqalishi haqida mustaqil bilim olishlari va ularning sabablarini aniqlashlari mumkin. Shuningdek, materiklarning yillik o'rtacha harorati, yillik amplitudasini aniqlash ishlari ham xarita yordamida mustaqil bajarilishi mumkin.

Materiklarning ichki suvlarini o'rganishda yuqorida ta'kidlangan metod va texnologiyalar bilan bir qatorda xarita bilan ishslash, mustaqil topshiriqlarni bajarish orqali o'quvchilar ular haqida birmuncha to'liq va mukammal bilim oladilar hamda fanga oid kompetesiyalar, amaliy ko'nikmalar hosil bo'ladi. Tabiat zonalariga oid materiallarni o'rganishda o'quvchilar avval olgan bilimlariga tayanishi lozim. Ushbu mavzuni o'rganishda didaktik o'zinlar texnologiyasining syujetli rollo o'zinlar, yoki hamkarlikda o'qitish texnologiyasining "zig-zag" yoki "arra" metodlaridan foydalanish ijobjiy natijalar beradi.

Umumiy o'rta ta'lrim maktablarida o'qitiladigan boshqa geografiya kurslari singari materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasini kursida ham birinchi dars – kirish darsi bo'lib, keyingi mavzularni o'rganishda ko'proq aralash dars, shuningdek, yangi bilimlarni o'rganish darsi turlaridan foydalaniladi.

Har bir yirik mavzudan so'ng yakunlovchi takrorlash darsi o'tkaziladi. Ushbu darslarda asosiy e'tibor tabiatning ayrim komponentlari o'rtasidagi bog'lanishlar va sabab-oqibatlarni aniqlashga, hududni majmuiali (kompleks) geografik tavsiflashga qaratilmog'i lozim.

Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasini kursida o'quvchilar bilim va ko'nikmalarini aniqlash uchun o'ziga xos usullar, interfaol metodlar va pedagogik texnologiyalar mavjud. Ularning qay biridan (og'zaki, yozma, grafik organayzer) foydalanib o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini aniqlash, samarali natijaga erishish o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq.

### **3.3. O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasini kursining mazmuni, tuzilishi va o'qitish texnologiyalari**

**O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasini kursining mazmuni va tuzilishi.** Umumiy o'rta ta'lrim maktablarining 7-sinflarida O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'qitiladi. O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasini fani ikki qismdam iborat bo'lib, o'quv yilining I-II-choraklarida, ya'ni 34 soat hajmda O'rta Osiyo tabiiy geografiyasini, III-IV-choraklarda 34 soat hajmda O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'qitiladi.

O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasini umumiy o'rta ta'lrim maktablarida o'qitiladiga geografiya fanlar tizimining tarkibiy qismlariga kiruvchi asosiy fanlardan biri hisoblanadi. O'quvchilar O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'rganar ekanlar, O'rta Osiyo va

O'zbekiston hududidagi geografik qobiqning rivojlanish qonuniyatlarini bilib oladilar. Chunki bu fanni o'qib o'rganish orqali o'quvchilar o'zi yashab turgan Vatani O'rta Osiyo va O'zbekistonning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslarini chuqur o'rganadilar hamda tabiiy komponentlarning bir-biriga uzviy bog'liq va aloqadorlik qonuniyatlarini tushunib yetadilar. Bu qonuniyatlarni o'zlashtirilishi o'quvchilar bilimini yanada kengayishga, ularda geografik muhitdagi tabiat obyektlari va hodisalarining o'zgarishi, rivojlanishiga ilmiy nuqtai nazaridan qarashning shakllanishiga imkon beradi.

O'quvchilar mazkur kursda o'z Ona-Vatani – O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'rganadilar, uning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslarini yaxshiroq bilib oladilar. Natijada o'z Vatani tabiatini chuqur va har tomonlama biluvchi, uning tabiiy boyliklaridan oqilona foydalaniib, muhofaza qiladigan yosh avlod voyaga yetadi.

O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasini kursi materiallarini o'rganish O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiatini haqidagi tushunchalar tizimini shakllantirish jarayonida o'quvchilarning V-VI sinflarda olgan tabiiy geografik tushunchalarini rivojlanitadi, o'z navbatida yangi umumiyligi tushunchalar ham beradi.

O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'rganishda tabiatshunoslik, tabiiy geografiya boshlang'ich kursi, materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasidan, shuningdek, botanika, zoologiya, matematika, fizika fanlaridan olingan bilimlarga tayanaladi. O'z navbatida O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasini o'rganish uchun zamin tayyorlaydi.

O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'rganish bilan o'quvchilarda o'zi yashab turgan o'lkasi va Vatani O'zbekiston turlituman tabiiy boyliklarga boy ekanligiga ishonch hosil bo'ladi.

VII sinfda o'quvchilar tomonidan o'zlashtiriladigan tushunchalar tizimi tabiat komponentlarini tarkib topishi va geografik qobiqdagi murakkab tabiiy bog'lanish qonuniyatlarini ochib berishga imkon beradi.

Ushbu kursni o'rganish jarayonida o'quvchilarning kartografik tayyorgarligi yanada kengayadi. Ular xarita andozalari (kartografik proeksiyalar), xaritadagi xatolar, turli tabiiy geografik hodisalar va obyektlarning topografik va geografik xaritalarda tasvirlash usullari haqidagi tushunchalarni yanada kengroq egallaydilar. O'quvchilar O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasini kursida topografik xaritalarning mazmuni va xususiyatlari bilan tanishadilar, topografik xaritada relyefni tasvirlash va uni o'qishni o'rganadilar.

O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasini kursi ikki bo'limdan iborat.

I bo'lim O'rta Osiyo tabiiy geografiyasini, II bo'lim O'zbekiston tabiiy geografiyasini deb nomlanadi.

O'rta Osiyo tabiiy geografiyasini bo'limi "O'rta Osiyo tabiiy geografik o'lkasi haqida tushuncha" mavzusidan boshlanadi. Ushbu mavzuda O'rta Osiyo o'lkasining chegaradosh o'lkalari, chegaralarining tabiiy belgilari, va o'lkadan yetishib chiqqan buyuk insonlar haqida ma'lumot beriladi.

So'ngra "O'rta Osiyo tabiiy o'lkasining geografik o'rni, chegaralari va o'ziga xos xususiyatlari" mavzusi o'rganiladi. O'rta Osyoning geografik o'rni, chekka nuqtalari, o'lka chegarasida joylashgan tabiiy obyektlar, alohida tabiiy geografik o'lka sifatida ajratishga asos bo'ladigan tabiiy xususiyatlar haqida bilim beriladi.

"O'rta Osyoning geografik o'rganilish tarixi" mavzusida o'quvchilar o'lka tabiatini o'rganish tarixini bir necha bosqichga: "Buyuk ipak yo'li" mavjud bo'lgan davr, O'rta Osyon Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinishi arafasidan to oktyabr to'ntarishigacha bo'lgan davr, oktyabr to'ntarishidan O'zbekiston mustaqillikka erishguncha bo'lgan davrga bo'lib o'rganadilar.

"O'rta Osiyo aholisi va siyosiy xaritasi" mavzusida o'quvchilar o'lka aholisining soni, tarkibi va joylanishi, siyosiy xaritasining shakllanish bosqichlari va hozirgi holati bilan tanishadilar.

"Geografik xaritalar, xarita andozalari (proeksiyalar) haqida tushuncha", "Geografik xaritalar va ularning shartli belgilari", "Xaritalarning turlari va ularning shartli belgilari" mavzuslarida xaritadagi xatoliklar, obyekt va xodisalarni xaritalarda tasvirlanishi, xarita tuzish andozalari va ularning turlari, yordmchi geometrik sirtlar, xaritalar to'g'risida umumiyligi tushunchalar, ularning shartli belgilari, xaritalar va geografik atlaslar va ularning shartli belgilari, xarita va atlaslarning xalq xo'jaligidagi ahamiyati, xarita yordamida masofa, maydon va burchaklarni o'lhash yo'llari haqida bilimlar beriladi. "Topografik xaritalar", "Topografik xaritalardan foydalanish" mavzulari esa topografik xaritalar haqida tushunchalarni, ularning shartli belgilarini, davlat geodezik tayanch nuqtalari, topografik xaritalar bilan ishlash usullari va xaritaga qarab azimutlarni aniqlash usullari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Mazkur mavzulardan olingan kartografik bilim va ko'nikmalardan keyingi barcha mavzularni o'rganishda foydalaniladi.

"Vaqt o'lchovi. Soat mintaqalari. Taqvimlar" mavzusida vaqt o'lchovi va undan xalqaro miqyosda foydalanish maqsadida kiritilgan tushunchalar

(mahalliy vaqt, mintaqaga vaqt, dunyo vaqt), soat mintaqalari, taqvim va uning turlari haqida bilim beriladi.

“O‘rta Osiyoning geologik tuzilishi. Geologik vaqt hisobi” va “O‘rta Osiyo hududining rivojlanish tarixi. Foydali qazilmalari” mavzularida O‘rta Osiyo yer yuzasining hozirgi ko‘rinishining vujudga kelishi, geologik sana, tog‘ jinslarining yoshi va uni aniqlash usullari, O‘rta Osiyo yer yuzasining rivojlanish tarixi, o‘lka hududida sodir bo‘ladigan zilzilalar haqida bilimlar beriladi. O‘lka hududidagi foydali qazilmalarning hosil bo‘lishi va tarqalishi o‘rganiladi.

“Yer yuzasi tuzilishining asosiy xususiyatlari” mavzusida o‘lka relyefining asisiy turlari (tekisliklar, tog‘lar hamda tog‘oldi va tog‘lar oralig‘ida joylahgan tekisliklar), xususiyatlari va tarkib topishi haqida bilim beriladi.

O‘rta Osiyoning iqlimini ifodalovchi “O‘rta Osiyo iqlimi. Iqlimga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar”, “Havo massalari. Siklon va antisiklonlar”, “O‘lka iqlimining ta’rifi. Tekislik iqlimi”, “O‘rta Osiyo tog‘larining iqlimi”, “O‘rta Osiyodagi iqlimi tafovutlar” mavzularida o‘quvchilar o‘lka iqlimiga xos bo‘lgan asosiy sifatlar, iqlim hosil qiluvchi omillarning va ularning iqlim hosil bo‘lishidagi ahamiyati, havo frontlari, siklon va antisiklonlar hamda ularda ob-havoning holati, tekislik iqlimining shakllanishi va unga ta’sir etuvchi havo massalari, balandlikka ko‘tarilgan sari harorat va yog‘in miqdorining o‘zgarishi, tog‘lar iqlimi, o‘lkaning iqlimi tafovutlar va iqlimi kichik o‘lkalarining xususiyatlari haqidagi bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar. Ushbu mavzularni o‘rganish jarayonida Quyosh radiatsiyasi, havo massalari, siklon va antisiklon kabi umumiyligi tushunchalar bilan birga iqlim tiplari haqida ham ma’lumot oladilar.

O‘lka ichki suvlariga oid “O‘rta Osiyo suvlar haqida umumiyligi tushunchasi”, “Daryolari”, “Ko‘llari va suv omborlari”, “Yer osti suvlar” mavzularida O‘rta osiyoning gidrografik xususiyatlari, tog‘lar va tekislik hududlarida yog‘in-sochinga bog‘liq ravishda doimiy oqar suv manbalarining taqsimlanishi, daryolarning joylanishi va to‘yinishinga ko‘ra guruhlari, yirik daryolarining gidrografik xususiyatlari, ko‘llarning paydo bo‘lishiga ko‘ra turlari, Orol dengizi, suv omborlari, yer osti suvlar haqida umumiyligi tushunchalar bilan birga iqlim tiplari haqida ma’lumot oladilar.

“Tuproqlar haqida tushunchasi”, “O‘rta Osiyoda tuproqlari” mavzularida o‘quvchilarning tuproq haqidagi tushunchalari kengaytirilib,

tuproqning hosil bo‘lishi, O‘rta Osiyodagi asosiy tuproq turlari va ularni muhofaza qilishga e’tibor qaratiladi.

O‘rta Osiyo o‘simliklari va hayvonot dunyosiga oid asosiy tushuncha va bilimlar “O‘rta Osiyo o‘simliklari”, “Cho‘l o‘simliklari”, “Adit, tog‘ va yaylov o‘simliklari”, “Hayvonot dunyosi” mavzularda o‘z ifodasini topgan. Mazkur mavzularda o‘lka o‘simliklarini turlarining tabiat mintaqalari (tekislikda – dasht, chalacho‘l, cho‘l, tog‘larda – adir, tog, yaylov) bo‘yicha tarqalishi, hayvonot dunyosining yashash sharoitiga moslashishi va ularning balandlik mintaqalari bo‘yicha tarqalishi haqidagi bilimlarni berish nazarda tutilgan.

“Tabiat zonalari” mavzusida O‘rta Osiyo hududida tabiat zonalarining joylanish qonuniyatlar haqida, har bir tabiat zonasining o‘ziga xos xususiyatlari haqida bilimlar berilgan.

O‘rta Osyonni tabiiy geografik rayonlashtirish bo‘yicha “Tabiiy geografik rayonlashtirish haqida tushunchasi” va “O‘rta Osiyoning kichik o‘lkalarini va tabiiy rayonlari” mavzulari berilgan. O‘quvchilar ushbu mavzularda O‘rta Osiyo tabiiy sharoitining xilma-xilligi, o‘lka doirasidagi geografik tafovutlar bilan bog‘liq holda ajratilgan yirik tabiiy geografik kichik o‘lkalar hamda tog‘lik va tekislik tabiiy geografik rayonlari, ularning chegaralari, xususiyatlari va tabiiy rayonlar guruhlari va tabiiy sharoitiga xos xususiyatlari haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

“O‘rta Osiyoning ekologik muammolari va tabiatini muhofaza qilish” mavzusini o‘rganish bilan O‘rta Osiyo tabiiy geografiyasini tugallanadi. Ushbu mavzuda O‘rta Osiyo tabiiy boyliklari, ularning xalq xo‘jaligidagi ahamiyati, foydalanish holati, muhofaza qilish masalalariga to‘xtalib o‘tilgan.

“O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tabiiy geografiyasasi” kursining ikkinchi bo‘limi “O‘zbekiston tabiiy geografiyasasi” deb nomlanib, unda O‘zbekiston Respublikasining tabiiy geografik xususiyatlari yoritilgan.

Ushbu bo‘lim “O‘zbekistonning geografik o‘rni, chegaralari va maydoni” mavzusidan boshlanadi. Mazkur mavzuda o‘quvchilar O‘zbekistonning joylashgan o‘rni, chekka nuqtalari, chegaralari, aholisi va ma’muriy-hududiy bo‘linishi haqidagi ma’lumotlar bilan tanishadilar va xarita bilan ishlash amaliy ko‘nikmalari rivojlantiriladi.

“Yer yuzasi, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari” mavzusida O‘zbekistonning relyef xususiyatlari, telyef shakllari va ularni joylashishi haqida bilim bersa, “Geologik tuzilishi va yer yuzasining taraqqiyoti” mavzusida esa yer yuzasining tarkib topishi, tektonik harakatlar davom etayotgan hududlarda sodir bo‘layotgan jarayonlar (zilzilalar),

respublikaning asosiy foydali qazilmalari va ularning joylanishi haqida bilim beradi.

“O‘zbekiston iqlimi”, “Yil fasllari va iqlim resurslari” mavzusida o‘quvchilar O‘zbekistonning iqlimi xususiyatlari, iqlim hosil qiluvchi omillar, respublika hududida harorat va yog‘inning taqsimlanishi, shamollar va mahalliy shamollar, yil fasllariga xos xususiyatlар va iqlimi resurslar, ularning xo‘jalikdagi ahamiyati to‘g‘risida bilim berishni nazarda tutadi.

Respublika ichki suvlariga oid “O‘zbekistonning ichki suvlari va suv boyliklari”, “Ko‘llari, suv omborlari va yerosti suvlari”, “O‘zbekistonning suv boyliklaridan foydalanish va ularni muhofaza qilish” mavzularida O‘zbekiston daryo tarmoqlari zichligi, tog‘ va tekislik daryolariga xos jihatlar, daryolarning to‘yinishi bo‘yicha guruhlari, yirik daryolarining gidrografik xususiyatlari, ko‘llar, suv omborlar va yer osti suvlarining hudud bo‘yicha taqsimlanishi va ularning turlari, inson hayoti va xo‘jalikda suv boyliklarining ahamiyati hamda suvni ifloslovchi asosiy tarmoqlar va ularni muhofaza qilish haqida o‘quvchilar bilim va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘ladilar.

“O‘zbekiston tuproqlari, o‘simliklari va hayvonot dunyosi” mavzusida o‘quvchilar mazkur komponentlarni tabiat mintaqalari bo‘yicha o‘rganadilar. “O‘zbekiston tabiiy boyliklari va ularni muhofazqa qilish” mavzusida tabiiy resurslar va ularning turlari, tabiiy resurslarning xo‘jalik tarmoqlarida ishlatalishi, tabiiy resurslarni muhofaza qilish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, “O‘zbekiston Qizil kitobi”, qo‘riqxona, milliy bog‘ va buyurtmaxonalar haqida ma’lumotlar berilgan.

“Tabiat komplekslari tavsifi. O‘zbekistonning tabiiy geografik okruglari” mavzusida respublikaning tekislik va tog‘lik hududlarining tabiiy geografik xususiyatlari jihatidan farqli jihatlari hamda yirik tabiiy hududiy kiompleks – okruglarga bo‘linishi haqida ma’lumotlar berilgan. Ushbu mavzudan so‘ng O‘zbekistonning tabiiy geografik okruglari o‘rganiladi. O‘zbekistonning tabiiy geografik okruglarini o‘rganishga 21 soat ajratilgan bo‘lib, ular quyidagi ketma-ketlikda berilgan:

1. Chirchiq-Ohangaron tabiiy geografik okrugi (2 soat).
2. Farg‘ona tabiiy geografik okrugi (2 soat).
3. Mirzachol tabiiy geografik okrugi (2 soat).
4. O‘rta Zarafshon tabiiy geografik okrugi (2 soat).
5. Qashqadaryo tabiiy geografik okrugi (2 soat).
6. Surxondaryo tabiiy geografik okrugi (2 soat).
7. Quyi Zarafshon tabiiy geografik okrugi (2 soat).

8. Qizilqum tabiiy geografik okrugi (2 soat).
9. Quyi Amudaryo tabiiy geografik okrugi (2 soat).

- 10.Ustyurt tabiiy geografik okrugi (2 soat).
- 11.Orol tabiiy geografik okrugi (1 soat).

Har bir tabiiy geografik okrug quyidagi izchillikda o‘rganiladi:

- geografik o‘rni;
- relyefi, geologik tuzilishi va foydali qazilmalari;
- iqlimi xususiyatlari;
- ichki suvlari (daryolari, ko‘llari, yer osti suvlari);
- tuproq turlari;
- o‘simliklar qoplami;
- hayvonot dunyosi;
- tabiatini muhofaza qilish.

**O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tabiiy geografiysi kursi materiallarini o‘rganish texnologiyalari.** Ushbu kursda geografik qonuniyatlar oldingi kurslarga nisbatan ancha chuqurroq o‘rganiladi. Shu sababli ham mazkur kursni o‘qitishda xilma-xil metod, usullar, interfaol metodlar, pedagogik va axborot texnologiyalar hamda o‘qitish vositalaridan foydalanish imkoniyati katta. Faqatgina, darslarda tadbiq etiladigan metodlar, usullar, interfaol metod, pedagogik va axborot texnologiyalar o‘rganiladigan mavzuning mazmuni, o‘quvchilarning bilim doirasi, psixofiziologik xususiyatlari va maktabning o‘quv moddiy bazalarning mavjudligiga qarab belgilanadi.

Kursning kirish qismi va “O‘rta Osiyo tabiiy geografik o‘lkasi haqida tushuncha” mavzusida hikoya va debat (savol-javob) usullaridan foydalanib asosiy e’tibor Yevrosiyo materigining tabiiy geografik o‘lkalari, O‘rta Osiyo o‘lkasiga chegaradosh o‘lkalar, o‘lka o‘lkalari, O‘rta Osiyo o‘lkasiga chegaradosh o‘lkalar, o‘lka chegaralarining tabiiy belgilari, va o‘lkadan yetishib chiqqan buyuk insonlar va ularning qilgan ishlarini yoritishga qaratilmog‘i lozim. Ushbu mavzuni o‘rganish orqali o‘quvchilarda ona Vataniga mehr-muhabbat, sadoqat, ota-bobolaridan faxrlanish, milliy g‘urur tuyg‘ulari rivojlantiriladi.

So‘ngra “O‘rta Osiyo tabiiy o‘lkasining geografik o‘rni, chegaralari va o‘ziga xos xususiyatlari” mavzusida o‘quvchilarning avval egallagan tushunchalariga asoslanib kartagrafik texnologiya asosida olib boriladigan mustaqil ishlar debat usulidan foydalanib o‘rganiladi.

“O‘rta osiyoning geografik o‘rganilish tarixi” va “O‘rta Osiyo aholisi va siyosiy xaritasi” mavzulari modulli ta’lim texnologiyasi va interfaol

metodlardan uyg‘un ravishda foydalaniб, qo‘shimcha ma’lumotlar asosida o‘rganish maqsadga muvofiq.

“Geografik xaritalar, xarita andozalari (proeksiyalar) haqida tushuncha”, “Geografik xaritalar va ularning shartli belgilari”, “Xaritalarning turlari va ularning shartli belgilari” “Vaqt o‘lchovi. Soat mintaqalari. Taqvimlar” mavzuslari o‘rganilar ekan, o‘quvchilarning geografik va topografik xaritalarga oid bilimlarini rivojlantirish maqsadida ularda turli joylar (obyekt) va hodisalarning masshtab asosisa tasvirlanishini aniqlaydilar, xaritalarda masofani o‘lchash yoki xaritalar masshtabini aniqlashga oid amaliy ishlar bajaradilar. Xaritaga qarab gorizontal (izogips) lar bilan bilan tasvirlash va profil chizish yo‘llarini o‘rganadilar. Yer sharining turli hududlarida vaqt hisobi va uni aniqlashga oid amaliy ko‘nikmalar hosil qilinadi. Demak, ushbu mavzularni o‘rganish jarayonida o‘quvchilar nazariy bilimlarni egallash bilan birga mustaqil topshiriqlarni bajarish orqali amaliy ko‘nikmalar rivojlantirib boriladi.

“O‘rta Osiyoning geologik tuzilishi. Geologik vaqt hisobi” va “O‘rta Osiyo hududining rivojlanish tarixi. Foydali qazilmalari” “Yer yuzasi tuzilishining asosiy xususiyatlari” mavzulari ancha murakkab. Bunda o‘quvchilar avval o‘rganmagan noma’lum bo‘lgan yangi masalalar bilan shug‘ullanadilar. Ushbu mavzular og‘zaki bayonning tushuntirish usuli, modulli ta’lim texnologiyasining kichik guruhlarda ishlash va hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining “Birgalikda o‘qiymiz” yoki “zig-zag” usullaridan foydalangan holda o‘rganiladi. Mavzu materiallarini o‘qituvchi og‘zaki bayon etganda asosiy atama va tushunchalarni doskaga yozadi, teguishli jadval, sxemalar chizadi, tektonik xarita va maketlardan ko‘rsatib beradi. Pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etilsa ushbu ishlar o‘qituvchu topshirig‘i va ko‘rsatmasi asosida kichik guruh a‘zolari tomonidan amalga oshiriladi. O‘rta Osiyoning tektonik sxemasi, vulkanizm va zilzila bo‘lib turadigan joylar, asosiy relyef shakllari yozuvlari, tabiiy resurslari, inson faoliyati natijasida tabiatning o‘zgarishi rejasidagi asosida o‘rganiladi.

“O‘rta Osiyo iqlimi. Iqlimga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar”, “Havo massalari. Siklon va antisiklonlar”, “O‘lka iqlimining ta’rifi. Tekislik iqlimi”, “O‘rta Osiyo tog‘larining iqlimi”, “O‘rta Osiyodagi iqlimi tafovutlar” mavzularini kuzatilgan ob-havo ma’lumotlari asosida o‘rganmoq kerak. O‘lka iqlimini o‘rganish iqlim hosil qiluvchin omil, yer usti tuzilishi va holatini o‘rganishdan boshlanadi. Atmosfera sirkulyatsiyasiga oid ma’lumotlar – havo frontlari, siklon va antisiklonlar hamda ularda ob-havoning holatiga ta’siri aniq misollar asosida o‘zlashtirilishi lozim. Harorat amplitudasining o‘zgarishi bilan yillik

o‘rtacha yog‘inning o‘zgarishini solishtirish natijasida o‘quvchilar O‘rta Osiyo iqlimining kontinental iqlim bo‘lib, tekislikdan tog‘ga tomon harorat pasayib, yog‘in miqdori ortib boradi degan xulosaga keladi va buning sababini tushunib, bilib oladi.

Mazkur mavzuda o‘quvchilar iqlim xaritasi va diagrammalarini tahlil qiladilar. Xaritadan yalpi radiatsiya, bug‘lanish miqdori, turli joylardagi namlanish koeffitsenti, yillik amplitudani aniqlash mashqlarini bajaradilar.

O‘lka ichki suvlariga oid “O‘rta Osiyo suvlar haqida umumiy tushuncha”, “Daryolari”, “Ko‘llari va suv omborlari”, “Yer osti suvlari” mavzularini o‘quvchilar puxta va ongli o‘zlashtirishlari uchun o‘zlar yashab turgan joydagi suv havzalarini suvlarini kuzatib borishlari lozim. Usnbu mavzular didaktik o‘yinlar, muammoli ta’lim va kartografik texnologiyalar asosida o‘rganiladi. Yirik darolarning uzunligi xaritada o‘lchanadi.

O‘rta Osiyo tuproqlari, o‘simgiliklari va hayvonot dunyosi, tabiat zonalariga oid mavzularni badiiy, hajmli qo‘llanmalar, AKT dan foydalaniб o‘rganiladi. Ushbu mavzularni o‘rganishda tabiat zonalariga oid bilimlarni takrorlashdan boshlash kerak. Ushbu mavzularda tuproqning hosil bo‘lishi va rivojlanish sharoiti, ayrim tuproq, o‘simgilik va hayvon turlari haqidagi ma’lumotlar chuqurlashtiriladi. Zonalardagi o‘simgiliklarning xususiyatlari va ularning ahamiyatiga to‘xtaladi. Har bir tabiat zonasi zonaning geografik o‘rn, iqlim xususiyatlari, tuproq tiplari, o‘simgiliklarning xususiyatlari va ularning turlari, hayvonot dunyosi vakillari, tabiiy resurslari, inson faoliyati natijasida tabiatning o‘zgarishi rejasidagi asosida o‘rganiladi.

O‘rta Osiyonini tabiiy geografik rayonlashtirishga oid mavzulari interfaol metodlar va pedagogik texnologiyalar asosida o‘rganiladi. O‘lkaning tabiiy geografik rayonlari yozuvsiz xaritaga tushuriladi.

“O‘rta Osiyoning ekologik muammolari va tabiatini muhofaza qilish” mavzusida o‘qituvchi muammoli ta’lim texnologiyasi, “Nilufar gul”, “Charxpalak”, “Toifalash jadvali” kabi ko‘plab interfaol metodlardan foydalananadi. Usnbu metodlardan foydalish natijasida o‘qituvchi o‘quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga, sabab-oqibat bog‘lanishlarini ongli tushunib yetishga o‘rgatadi.

Ma’lumki, O‘zbekiston tabiiy geografiyasi bo‘limida respublikamizning tabiiy sharoitini o‘rganish orqali o‘quvchilarning tabiiy geografiyaga oid bilimlari qamrovi yanada kengayadi va ular butun respublika va undagi tabiiy hududiy majmualarning xususiyatlari haqida aniq bilimga ega bo‘ladi. Binobarin, mazkur bo‘limni o‘rganish jarayonida

ko'pgina kasb (topograf, kartograf, geolog, mineralog, tuproqshunos va h.k.) egalari haqida fikr yuritilishi geografiya fani bilan bog'liq bo'lgan mutaxassisliklarga o'quvchilarda qiziqish ortadi.

O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'qitish jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish imkoniyati katta. Chunki, mazkur kursning I-bo'limida va 5-6-sinflarda egallagan bilimlariga tayangan holda respublikaning tabiiy geografik xususiyatlari o'rGANILADI. Shuning uchun ham O'zbekistonning tabiiy geografik xususiyatlarini avval egallagan bilimlarni yangi sharoitda qo'llash orqali o'rGANISH maqsadga muvosif. Bu albatta, O'zbekistonning tabiiy geografik xususiyatlarini pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali o'rGANISH imkoniyati katta ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirish bo'limini kichik guruhlarga bo'linib, interfaol metodlar, pedagogik va axborot texnologiyalar yordamida o'rGANISH, mavzular mazmunidan kelib chiqqan holda xarita yordamida amaliy va mustaqil ishlarni tashkil etish orqali tanishish o'zining ijobjiy natijasini beradi. Ayniqsa, tekislik hamda tog' va tog' oldi tabiiy geografik okruglarini o'rGANISH jarayonida solishtirish, taqqoslash va umumiylar xulosa chiqarishga qaratilgan interfaol metodlar yordamida o'rGANILSA, o'quvchilarda mantiqiy, ijodiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirilishi bilan birga amaliy ko'nikmalar ham hosil qilbi boriladi.

**Tayanch so'z va atamalar:** Geografik qobiq, litosfera, atmosfera, gidrosfera, biosfera, tabiiy sharoit, relyef, iglim, iqlim mintaqalari, tabiat komponenti, tabiat kompleksi, materik, okean, tabiat zonalari, rayonlashtirish, tabiatni muhofaza qilish, o'lka, okrug.

#### **TALABALARING O'ZLASHTIRGAN BILIMLARINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLARI**

- Umumiy o'rta ta'lim maktablari Tabiiy geografiya o'quv fanlari dasturlarini tahlil qiling.
- Umumiy o'rta ta'lim maktablari Tabiiy geografiya darsliklarining tuzilishini o'rGANIB chiqing.
- Umumiy o'rta ta'lim maktablari Tabiiy geografiya o'quv fanlari darsliklarining metodik jihozlanishini tahlil qiling va o'rtog'ingiz bilan fikr almashing.
- Umumiy o'rta ta'lim maktablari Tabiiy geografiya o'quv fanlari kompetensiyalariga xos jihatlarni ajrating.
- Umumiy o'rta ta'lim maktablari Tabiiy geografiya o'quv fanlari yuzasidan VENN diagrammasi tuzing.

#### **4.Iqtisodiy geografiya kursining mazmuni va vazifalari**

##### **4.1. O'zbekiston ijtimoiy va iqtisodiy geografiyasi kursining mazmuni, tuzilishi va o'qitish texnologiyalari**

**O'zbekiston ijtimoiy va iqtisodiy geografiyasi kursining mazmuni va tuzilishi.** Umumiy o'rta ta'lim maktablarda O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi fani 8-sinf o'quvchilariga respublika tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari, aholisi, aholining mehnat faoliyati, iqtisodiyoti va iqtisodiyot tarmoqlarining joylshtirish qonuniyatlarini va omillari va ularning hududiy joylashuviga oid ta'lim berish, uning ilm-fan taraqqiyotida, ishlab chiqarish va tabiatdan foydalanish sohalari, ijtimoiy-madaniy va kundalik hayotda tutgan o'rniiga oid bilimlar bilan qurillantirishni nazarda tutadi.

O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi **fanini o'qitishning asosiy maqsadi:** o'quvchilarda tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy obyekt, jarayon va hodisalar, O'zbekistonning tabiiy sharoiti, aholisi va iqtisodiyoti, jamiyat va tabiatning o'zaro aloqadorligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarishni oqilona tashkil etish, global va regional muammolar haqida tushunchalarni shakllantirish, tahliliy fikrlashga o'rgatish, olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi **fanini o'qitishning asosiy vazifalari:**

- ✓ O'zbekiston Respublikasi tabiatni, aholisi hamda iqtisodiyoti haqidagi tizimli va majmuali tushuncha va bilimlarni tarkib toptirish;
- ✓ joy nomlari va geografik atamalarni to'g'ri qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish;
- ✓ hozirgi zamon jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarining mohiyati va xususiyatlari to'g'risida tasavvur hosil qilish, yosh avlodning ekologik madaniyatini, milliy boyliklarga nisbatan tejamkorlik munosabatini o'stirish;
- ✓ turli axborot manbalaridan foydalangan holda, tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy obyekt hodisalarini tavsiflash, geografik xaritalar, statistik ma'lumotlar bilan ishlashning amaliy ko'nikmalarni tarkib toptirish;
- ✓ geografik bilimlar asosida o'quvchilarning iqtisodiy va siyosiy fikrlash doirasini kengaytirish;
- ✓ o'quvchilarni Vatanga mahabbat, milliy iftixor, fuqarolik mas'uliyati ruhida tarbiyalash;

✓ egallangan aniq ma'lumotlar asosida o'quvchilarda O'zbekistonning iqtisodiy geografik o'rni, ishlab chiqarishni respublikada hududiy joylashishi, O'zbekiston iqtisodiyotini hududiy tashkil etish, iqtisodiy rayonlashtirish va iqtisodiy rayonlar, hududiy ishlab chqarish majmualari (HICHM) haqida umumiyligi iqtisodiy geografik tushunchalarini shakllantirish.

O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini o'rganish jarayonida o'quvchilar o'z o'lkasi tabiiy resurslari va boyliklari, aholining yashash sharoiti haqida kengroq bilim oladilar. Bu albatta o'quvchilarning ona Vatanga bo'lgan muhabbat, o'z Vatani boyliklaridan g'ururlanish, faxrlanish hissiyotini yanada rivojlantiradi.

Mazkur kursda o'quvchilar iqtisodiy xaritalar bilan ishslashni o'rganadilar. Bu esa ularda iqtisodiy xaritalardagi shartli belgilarni tushunib yetish, obyektlarni xaritada joylashgan o'rmini aniqlash, tabiiy va iqtisodiy xaritalarni qiyoslash, taqqoslash, turli mazmundagi xaritalar asosida ma'lum bir hududga iqtisodiy geografik tavsif berish imkoniyatini beradi.

O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini o'rganish davomida o'quvchilarda O'zbekiston iqtisodiyoti, iqtisodiyot tarmoqlari, aholisi va mehnat resurslari, ishlab chiqarish va uni samarali tashkil etish yo'llari, milliy daromad, yalpi ishki mahsulot, mahsulot tannarxi, mehnat samaradorligi kabi bir qancha iqtisodiy va siyosiy tushunchalarni tarkib toptirish orqali iqtisodiy bilim berib boriladi.

Albatta iqtisodiy bilim iqtisodiy tarbiyani nazarda tutadi. Bu esa bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobarbardosh kadrlarni tarbiyalash uchun qo'yilgan dastlabki qadamlardan biri sanaladi. Iqtisodiy tarbiya esa umumta'lim maktablarda o'quvchilarga singdiriladigan umumgeografdik madaniyatning, ahloqiy tarbiyaning tarkibiy qismidir. Shuningdek, o'quvchilarning kelajakda o'z kasbini to'g'ri tanlashida ham O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kursi materiallarining ham ahamiyati katta. Chunki, O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kursini o'rganish jarayonida o'quvchilar juda ham ko'plab kasblar bilan tanishadilarki, bu borada umumta'lim maktablarida o'qitiladigan hech qaysi fan bu fanga tehglasha olmaydi.

O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kursi asosan quyidagi to'rt bobdan iborat:

- O'zbekistonning geografik o'rni va ma'muriy-hududiy tuzilishi;
- O'zbekistonning tabiiy boyliklari, aholisi va mehnat resurslari;
- Milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi;

#### ➤ O'zbekistonning regional tavsifi.

O'zbekistonning geografik o'rni va ma'muriy-hududiy tuzilishi bobi kirishdan boshlanadi. Ushbu mavzu o'quvchilarga O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasining o'rganish obyekti, ijtimoiy mehnat unumdorligi va uning bozor munosabatlariiga o'tishdagi o'rni va ahamiyati haqida bilimlar beradi.

"O'zbekistonning geografik o'rni" mavzusida O'zbekistonning tabiiy, iqtisodiy va siyosiy geografik o'rnlaridagi qulaylik va noqulayliklar hamda ularning respublika iqtisodiyotini rivojlantirishdagi ahamiyatiga oid tushunchalar berilsa, "O'zbekistonning ma'muriy-hududiy tuzilishi" mavzusi orqali esa o'quvchilar respublika maydoni, uning jahon, Yevrosiyo va Osiyodagi o'rni va ma'muriy-hududiy tuzilishini tushunib yetishlari kerak. Shuningdek, xaritadan foydalanib, O'zbekistonning geografik o'rni va ma'muriy-hududiy tuzilishini qo'shni davlatlar bilan taqqoslash orqali mustaqil ijodiy fikrlashga o'rganib boradi va xarita bilan ishlash amaliy ko'nikmalari yanada rivojlantiriladi.

"Iqtisodiy-ijtimoiy xaritalar" mavzusida o'quvchilar geografik xaritalarga oid bilimlarini yanada rivojlantirib, iqtisodiy-ijtimoiy xaritalarning turlari va ularning geografik bilimlarni egallashdagi ahamiyati, elektron xaritalar va ularni tuzishda foydalanilayotgan dasturlar to'g'risida tushunchalarga ega bo'ladilar.

"O'zbekistonning tabiiy boyliklari, aholisi va mehnat resurslari" bobidagi "O'zbekistonning tabiiy sharoiti va tabiiy boyliklari" va "Tabiiy sharoit va tabiiy boyliklarning milliy iqtisodiyotdagি ahamiyati" mavzularida tabiiy sharoit va tabiiy boyliklarning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi ahamiyati, tabiiy boyliklarning turlari, tabiiy sharoit va tabiiy boyliklar (mineral, suv, iqlimi, yer, biologik)ni tabiat mintaqalari bo'yicha tarqalishi hamda ulardan foydalanish holati haqidagi bilimlarga ega bo'ladilar.

Respublika aholisiga oid "O'zbekiston aholisi", "O'zbekiston aholisining milliy tarkibi", "Aholi punktlari" mavzularida o'quvchilar O'zbekiston aholisining soni bo'yicha jahonda tutgan o'rni, aholi dinamikasi, aholining tabiiy va mexanik ko'payishi, aholining yoshi, mehnat resurslari, jinsiylari va milliy tarkibi, O'zbekiston shaharlari, shaharlarning funksiyalari, vujudga kelishi (foydalı qazılma konlarining ishga tushirilishi, yangi yerlarning o'zlashtirilishi va h.k.), qishloq aholi punktlari va ularning aholisi soniga ko'ra turlari, urbanizatsiya darajasini o'rganadilar.

O'zbekiston aholisiga oid mavzularni o'rganish jarayonida o'quvchilar migratsiya saldosi, aholi zichligi, urbanizatsiya darajasi, aholining milliy tarkibiga oid masalalarni yechish orqali amaliy ko'nikmalari rivojlantirilib boriladi.

"Milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi" bobi milliy iqtisodiyotning asosiy tarmoqlariga tavsif berishdan boshlanadi. Bunda milliy iqtisodiyotning tuzilishi, milliy iqtisodiyot tarmoqlarida erishilgan yutuqlar va navbatdagi iqtisodiy vazifalarga alohida e'tibor beriladi.

"Sanoat – milliy iqtisodiyotning tayanch tarmog'i" mavzusidan O'zbekiston sanoat tarmoqlari geografiyasi (yoqilg'i-energetika majmuasi (neft, gaz, ko'mir elektroenergetika – IES, GES sanoatlari), kimyo sanoati, metallurgiya sanoati (qora metallurgiya, rangli metallurgiya), mashinasozlik majmuasi (qishloq xo'jaligi, irrigatsiya, radioelektronika va elektrotexnika, kimyo va neft-kimyo, kommunal xo'jalik, avtomobilsozlik), yog'ochni qayta ishlash, qurilish materiallari sanoatilari va ularning geografiyasi o'rganiladi.

"Sanoat va ekologik muammolar" mavzusida sanoat tarmoqlarining atrof-muhitga ta'siri yo'nalishlari ko'ra farqlari, sanoat korxonalarini joylashtirishga ta'sir etuvchi ekologik omillar, metallurgyaning atrof-muhitga ta'siri to'g'risida tushunchalar beriladi.

"Agrosanoat majmuasi" mavzusi agrosanoat majmuasining tarkibi va uning milliy iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o'rni haqida tushunchalar berilsa, qishloq xo'jaligiga oid "Qishloq xo'jaligi", "Dehqonchilik", "Chorvachilik" mavzularida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining xususiyatlari, "Yashil inqilob", intensiv va ekstensiv xo'jalik tushunchalari, dehqonchilikning o'ziga xos jihatlari va tarmoqlari, chorvachilik va uning tarmoqlari, qishloq xo'jaligini mintaqalar bo'yicha ixtisoslashishi haqida o'quvchilarga bilim beriladi.

"Yengil sanoat" va "Oziq-ovqat sanoati" mavzularida ushbu sanoat tarmoqlari va ularning joylashuvi, rivojlanishi o'rganiladi.

"Sanoatni hududiy tashkil etish hamda joylashtirish shakllari" mavzusida ishlab chiqarish jarayonining o'zaro bog'liqlik darajasidan kelib chiqqan holda sanoat korxonalarini hududiy joylashtirish shakllari, erkin iqtisodiy zona va uni tashkil etishning iqtisodiy ahamiyati haqida o'quvchilar ma'lumotlarga ega bo'ladilar.

"Transport geografiyasi" mavzusida transportning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati, transport turlari – quruqlik, suv, havo, quvur, elektron transport, transportning ishi, O'zbekistonda transportning zamonaliv rivojlanishi va ularning geografiyasi haqida ma'lumot beriladi.

O'zbekiston milliy iqtisodiyotining moddiy ne'matlar ishlab chiqarmaydigan sohalariga oid bo'lgan "Aholiga xizmat ko'rsatish sohalar" va "O'zbekistonda rekreatsiya va turizm" mavzularda xizmat ko'rsatish sohalarining turlari va tarkibi, rivojlanishi, rekreatsiya turlari, mamlakatimizda turizmni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, rekreansiya xo'jaligi, soha tarmoqlarini rivojlantirishning milliy iqtisodiyotdagi ahamiyati o'rganiladi. Ushbu mavzularni o'rganish jarayonida o'quvchilar o'z yashash joyining mazkur sohani rivojlantirishdagi imkoniyatlari va istiqbollari haqidagi mustaqil va ijodiy fikr yuritish qobiliyatları ham rivojlantrib boriladi.

"Tashqi iqtisodiy aloqalar" mavzusida O'zbekiston bilan iqtisodiy aloqada bo'lgan davlatlar, eksport va import tushunchalari, O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan tashqi savdosi va tashqi savdo aylanmasi, hamkorlikda faoliyat olib borayotgan xalqaro moliyaviy tashkilotlar haqida tushuncha beriladi.

"O'zbekistonning regional tavsifi" nomli to'rtinchi bobda dastlab "O'zbekiston iqtisodiyotini hududiy tashkil etish" mavzusi o'rganiladi. Unda hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiy rayonlar, ixtisoslashgan va xizmat ko'rsatish tarmoqlari, hududiy ishlab chiqarish majmualari (HICHM), YAIMni shakllantirishda hududlarning ishtiropi o'rganiladi.

O'zbekistonning iqtisodiy geografik rayonlari quyidagi ketma-ketlikda o'rganiladi:

- Toshkent iqtisodiy rayoni:
  - *Toshkent viloyati*;
  - *Toshkent shahri*;
- Mirzacho'l iqtisodiy rayoni:
  - *Sirdaryoviloyati*;
  - *Jizzax viloyati*;
- Farg'on a iqtisodiy rayoni:
  - *Andijon viloyati*;
  - *Farg'ona viloyati*;
  - *Namangan viloyati*;
- Zarafshon iqtisodiy rayoni:
  - *Samarqand viloyati*;
  - *Navoiy viloyati*;
  - *Buxoro viloyati*;
- Janubiy iqtisodiy rayon:
  - *Qashqadaryo viloyati*;
  - *Surxondaryo viloyati*;

➤ Quyi Amudaryo iqtisodiy rayoni:

- Xorazm viloyati;
- Qoraqalpog'iston Respublikasi.

O'zbekiston iqtisodiy rayonlariga quyidagi tartibda iqtisodiy geografik tavsif beriladi:

- a) iqtisodiy geografik o'rni va tabiiy resurslari;
- b) aholisi va mehnat resurslari;
- c) iqtisodiyot tarmoqlari (sanoati, qishloq xo'jaligi va transporti);
- d) shaharlari.

Iqtisodiy rayon tavsifida iqtisodiyot tarmoqlarini o'rganish asosiy o'rinni egallaydi. Iqtisodiy rayon iqtisodiyotining ixtisoslashgan tarmog'i va uning sababi asoslanadi, hududiy ishlab chiqarish majmuasi va rayon rivojlanishining asosiy istiqbollari aniqlanadi. Shuningdek, ixtisoslashgan tarmoqlarning qo'shni rayonlardagi rivojlanganlik darajasi va ularning sabablari xarita yordamida tahlil qilinadi.

**O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kursi materiallarini o'rganish texnologiyalari.** O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi materiallari mazmuni, o'zlashtiriladigan ma'lumotlarning xarakteriga ko'ra tabiiy geografiya kurslari materiallaridan keskin farq qiladi. Binobarin, kursni o'rganish uchun tadbiq etiladigan metod, usul va texnologiyalar puxta o'ylab, aniq tanlashni taqazo etadi.

Yangi mavzuni o'rganishda o'qituvchining tushuntirishi katta ahamiyatga ega bo'lish bilan birga, pedagogik texnologiyalarning modulli ta'lim, hamkorlikda o'qitish va muammoli ta'lim texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish talab qilinadi. Shuningdek, o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish maqsadida darsning turli bosqichlarida interfaol metodlarning bir necha turlaridan foydalanish samarali natija beradi.

O'zbekiston sanoati tarmoqlari mavzularini o'rganishda fanlararo bog'lanishga alohida urg'u bergen holda o'quvchilarning kimyo, fizika, iqtisod kurslaridan egallagan bilimlariga tayaniladi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi mavzularini o'rganishda O'zbekiston tabiiy geografiyasi kursida o'rganilgan O'zbekiston iqlimi, ichki suvlari, tabiat zonalari haqidagi, qishloq xo'jligidagi asosiy ekinlarning xususiyatlarini o'rganishda esa botanika va zoologiya kurslarida olgan bilimlariga tayaniladi natijada tayanch kopmpetensiya shakllantiriladi.

Shuningdek, kurs materiallarini o'rganishda iqtisodiy xaritalar, darslikdagi xarita-sxemalar, statistik materiallar (jadval, diagramma va grafiklar) bilan ish olib boriladi. Ushbu o'quv vositalari darslik matnnini to'ldiradi va o'quvchilar ular yordamida mustaqil ishlar, amaliy

topshiriqlarni bajarish orqali amaliy ko'nikma va malakalari rivojlantiriladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kursi umumiyl o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan predmetlar ichida eng harakatchani hisoblanadi. Chunki iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi raqamli ma'lumotlar ishlab chiqarishga bog'liq ravishda o'zgarib boradi. Shuning uchun ham O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kursi materiallarini o'rganishda respublika iqtisodiyotiga oid davriy matbuot, televideniya va radio, internet ma'lumotlari, statistik ko'rsatkichlarga oid ma'lumotnoma, ilmiy ommabop adabiyotlardan foydalanish ham maqsadga muvofiq.

O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasining "Milliy iqtisodiyotning tarkibiy tuzilishi" bobu mavzulari hamda iqtisodiy rayonlarni o'rganish jarayonida o'quv filmlari hamda axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalaniladi. Masalan, "Sharg'un gaz-kimyo majmuasi", "GM Uzbekistan", oziq-ovqat sanoati, to'qimachilik yoki tikuvchilik korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlari bilan bevosita tarishishadilar.

Iqtisodiy rayonlarni o'rganishda uning ixtisoslanish xususiyatini o'rganishda muammoli ta'lim texnologiyasi keng qo'llaniladi. Ayni vaqtida iqtisodiy rayonning iqtisodiy geografik o'rni, tabiiy resurslari, aholisi, iqtisodiyot tarmoqlari va shaharlarini o'rganishda qiyosiy taqqoslashga asoslangan "Venn diagrammasi", "Yelpig'ich" va boshqa metodlaridan foydalanish maqsadga muvofiq. Iqtisodiy rayonlarni bir-biriga taqqoslab o'rganish ilgari o'rganilgan materialarni takrorlash va mustahkamlash imkoniyatini beradi, shuningdek, yangi material puxta o'zlashtiriladi. Zero, o'quvchinin bevosita o'z mehnati evaziga egallagan bilimi uzoq vaqt yodda saqlanadi.

#### **4.2. Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi kursining mazmuni, tuzilishi va o'qitish texnologiyalari**

**Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi kursining mazmuni va tuzilishi.** Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi ta'limida o'rganiladigan tabiiy, ijtimoiy hodisalar va tushunchalar, qonuniyatlarini o'quvchilarga tushunarli holda umumiyl o'rta ta'lim maktablari darsliklarida sodda va aniq bayon etish, bunda asosiy e'tiborni o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini, bilim olish, o'quv materialini tushunish hamda puxta va mukammal o'zlashtirish imkoniyatiga e'tibor qaratishdan iborat.

Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi Yer shari aholishi va mehnat resurslari, aholining mehnat faoliyati turlari, jahon iqtisodiyoti, iqtisodiyot

tarmoqlari, ularni tashkil etish va joylashtirish qoniniyatlar, xalqaro geografik mehnat taqsimoti, mamlakatlar o'rtasidagi xalqaro iqtisodiy aloqalar to'g'risidagi bilimlar bilan o'quvchilarni qurollantiradi. Shuningdek, o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Umumiy o'rta ta'limga maktablarida o'qitiladigan biron-bir predmet yo'qki, o'quvchilar dunyoqarashini kengayishiga Jahoniqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi kursidek ta'sir ko'rsatadigan.

Hozirgi ishlab chiqarish, texnika va tabiatdan foydalanish jadal rivojlanayotgan, iqtisodiy-ijtimoiy, ekologik, demografik, geosiyosiy sharoit tadirijiy ravishda o'zgarib borayotgan vaqtida maktablarda geografiya, xususan Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi kursining ahamiyati ortib borishi bilan birga, uning mazmunini zamon talablari asosida o'zgartirib borish ham maqsadga muvofiqdir.

Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi fanidan ta'limga berish, uning ilm-fan taraqqiyotida, ishlab chiqarish va tabiatdan foydalanish sohalari, ijtimoiy-madaniy va kundalik hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi.

Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasini o'qitishning asosiy **maqsadi**: o'quvchilarga xorijiy mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasiidan zaruriy bilimlar berish. Bunda o'quvchilar mamlakatlarning iqtisodiy geografik xususiyatlarini tavsiflovchi aniq materiallarni o'zlashtirishlari va uning sabablarini tushunib yetishlari nazarda tutiladi.

Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasingning asosiy **vazifalari**: o'quvchilarda tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy obyekt, jarayon va hodisalar, jahonning tabiiy sharoiti, aholisi va iqtisodiyoti, jamiyat va tabiatning o'zaro aloqadorligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarishni oqilona tashkil etish, global va regional muammolar haqida tushunchalarini shakllantirish, tahliliy fikrlashga o'rgatish, olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi dasturi o'quvchilarda kurs materiallarini o'rganish bilan birga mamlakatlarning tiplari haqida yetarli tushuncha tarkib topishini, mintaqalar va mintaqalardagi hozirgi jahon iqtisodiyotida muhim rol o'ynayotgan davlatlar bilan tanishib chiqishlarini e'tiborga olgan holda tuzilgan.

Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi kuri ikki bo'lim, yetti bobdan iborat.

1. Jahonning umumiy tafsifi.
2. Jahonning regional tafsifi.

Birinchi bo'lim to'rt bobdan: Jahonning siyosiy xaritasi (3 soat); Jahonning tabiiy resurslari (4 soat); Jahon aholisi (5 soat); Jahon xo'jaligi (10 soat) geografiyasidan iborat.

Ikkinci bo'lim uch bobdan iborat bo'lib, ular: Yevropa mamlakatlari (9 soat); Osiyo mamlakatlari (17 soat); Afrika, Avstraliya va Okeaniya, Amerika mamlakatlari (12 soat).

"Jahonning siyosiy xaritasi" bobu "Jahonning siyosiy xaritasi" mavzusidan boshlanadi. Ushbu mavzuda jahon mamlakatlarining bir qancha xususiyatlari (maydoni, joylashgan o'rni) b'oymicha turlari, siyosiy xaritaning shakllanishiga tarixiy jarayonlarning ta'siri, jahon va qit'alarda mustaqil davlatlarning sonini ortib borishiga oid ma'lumotlar berilgan.

"Jahon mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanganlik bo'yicha tafsifi" mavzusida davlatlarning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanganligini baholash mezonlari asosida guruhlarga ajratilgan, ularning rivojlanish xususiyatlari ko'rsatilgan va aniq misollar keltirilgan. "Mamlakatlarning boshqaruva shakli va davlat tuzilishi" mavzusida esa mamlakatlar siyosiy boshqaruvingin respublika va monarxiya shakli, turli tiplari, ularni shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar, mamlakatlarning ma'muriy-hududi tizimiga ko'ra turlari o'rganiladi.

"Dunyoning tabiiy resurslari", "Mineral resurslar geografiyasi", "Tegaydigan va tiklanadigan tabiiy resurslar geografiyasi" mavzularida tabiiy resurslarning turlari, foydalanish xususiyatlariga ko'ra guruhlari (tugaydigan va tugamaydigan, tiklanadigan va tiklanmaydigan), tabiiy resurslar bilan ta'minlanganlik darajasiga ko'ra jahon mamlakatlarining guruhlari, mineral yoqilg'i-energetika resurslari (ko'mir, neft, tabiiy gaz, torf, yonuvchi slanes, uran), rudali va noruda mineral boyliklar, agroqlimiy, yer, suv va biologik resurslar, ularning xususiyatlari va geografiyasi ochib berilgan.

"Zamonaviy ekologik muammolar" mavzusida tabiatdan foydalanish turlari, ekologik muammolar va ularning hududi ko'lamiga ko'ra pog'onalar (sayyoraviy, mintaqaviy, mahalliy), ular natijasida tabiatga ko'rsatilayotgan salbiy ta'sir, tabiatni muhofaza qilish borasida olib borilayotgan ekologik siyosat, atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi to'g'risida bilimlar beriladi.

"Jahon aholisi" bobidagi "Jahon aholisining soni, o'sishi va joylashuvi", "Jahon aholisining jinsiy, yosh, irqiy tarkibi", "Dunyo aholisining etnik va diniy tarkibi", "Jahon mamlakatlarining urbanizatsiyasi" kabi mavzularda o'quvchilarga jahon aholisi soni, aholi soni dinamikasi, tug'ilish, o'lim, tabiiy o'sish koefitsientlari, jahon

aholisining mintaqalar va ayrim alohida mamlakatlar bo'yicha yosh, jins va irqiy tarkibi, ularning o'ziga xos jihatlari, aholining etnik (qabila, elat, millat), jahon mamlakatlarining milliy tarkib xususiyatlari ko'ra turlari, til oilalari, aholining diniy tarkibi, dunyoviy va mahalliy dinlar hamda ularning tarqalishi, urbanizatsiya darajasi, jahon mintaqalarida urbanizatsiya darajasining o'zgarishi, urbanizatsiya ko'rinishlari haqida bilim berish nazarda tutiladi. Shuningdek, ushbu mavzularda demografik portlash, depopulyatsiya, soxta urbanizatsiya, megalopolis tushunchalarining mazmuniga alohida e'tibor qaratiladi.

Aholiga oid mavzularni o'rganish jarayonida o'quvchilar tabiiy va aholiga oid xaritalarni taqqoslash orqali umumiylar xulosalar chiqarishga, aholi zichligi, shahar yoki qishloq aholisi, migratsiya, tabiiy o'sish koeffitsenti va h.k.larga oid amaliy topshiriqlarni bajaradilar. Mazkur mavzularda olgan bilim va amaliy ko'nikmalardan mintaqalar hamda mamlakatlarning aholi ko'rsatkichlarini hisoblashda foydalilanildi.

Jahon xo'jalgiga oid mavzular "Jahon xo'jaligi va xalqaro mehnat taqsimoti" mavzusi bilan boshlanadi. Mavzuda jahon xo'jaligining rivojlanishi, jahon iqtisodiyotining tarkibiy tuzilishi, xalqaro mehnat taqsimoti va minaqalar ixtisoslashuviga oid tushunchalar berilgan. So'ngra, "Jahon iqtisodiyot markazlari va xalqaro integratsiya jarayonlari", "Fan-texnika inqilobi va ishlab chiqarishning rivojlanishiga innovatsion texnologilarning ta'siri" mavzulari berilgan bo'lib, ushbu mavzularda o'quvchilar jahon iqtisodiyotining asosiy markazlari, globallashuv jarayoni va xaqaro iqtisodiy inregratsiya, inegratsion uyushmalar, fan-texnika inqilobi davrida erishilgan natijalar, fan-texnika inqilobining davlatlar iqtisodiyoti rivojlanishiga ta'sirini bilib oladilar.

Jahon sanoat geografiyasiga oid mavzularda energetika (neft, gaz, ko'mir, elektr energetika, IES, GES, AES) metallurgiya (qora va rangli), kimyo, mashinasozlik, yengil sanoat tarmoqlari geografiyasi, jahon qishloq xo'jaligi mavzularida dehqonchilik (donli, moyli ekinlar, ildizmevali, quvvat beruvchi va texnik ekinlar) va chorvachilik (qoramolchilik, qo'ychilik, cho'chqachilik, parrandachilik, pillachilik, tuyachilik, yilqichilik, bug'uchilik, darrandachilik) va baliqchilik geografiyasiga oid ma'lumotlar ochib berilgan.

"Jahon transporti geografiyasi" mavzusida o'quvchilar jahon transporti turlari, ularning jahon xo'jaligining shakllanishi va rivojlanishiga ta'siri, fan-texnika inqilobining transport tarmoqlarining rivojlanishidagi ahamiyati, "Xalqaro iqtisodiy aloqalar geografiyasi" mavzusida esa xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga ta'sir

ko'rsatuvchi omillar va xalqaro iqtisodiy aloqalarning yo'nalishlari (xalqaro savdo, kredit-moliya munosabatlari, xalqaro turizm, mehnat resurslarining xalqaro migratsiyasi, xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik) bilan tanishadilar.

"Jahonning regional tavsifi" bo'limida Yevropa, Osiyo, Afrika, Avstraliya va Okeaniya, Amerika mamlakatlarining geografik o'rni, chegaralari va siyosiy xaritasi, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi hamda iqtisodiyotining umumiylar xususiyatlari o'rganiladi. So'ngra har bir mintaqaning iqtisodiy jihatdan rivojlangan mamlakatlari (Yevropa – GFR, Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi, Fransiya Respublikasi, Italiya Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi; Osiyo – Qozog'iston Respublikasi, Qirg'iziston Respublikasi, Turkmaniston Respublikasi, Tojikiston Respublikasi, Turkiya Respublikasi, Eron, Afg'oniston, Pokiston Islom Respublikalari, Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya, Hindiston Respublikasi, Fors qo'ltig'i arab davlatlari, Indoneziya, Malayziya, Singapur davlatlari; Afrika – Janubiy Afrika Respublikasi, Nigeriya Federativ Respublikasi, Misr Arab Respublikasi; Avstraliya – Avstraliya Ittifoqi; Amerika – Amerika Qo'shma Shtatlari, Kanada, Braziliya) o'rganiladi. Mintaqalar va mamlakatlarning iqtisodiy geografik tavsifi quyidagi reja asosida o'rganiladi:

- Iqtisodiy geografik o'rni va chegaralari;
- Siyosiy xaritasi, boshqaruv shakli va ma'muriy-hududiy tuzilishi;
- Tabiiy sharoiti va resurslari;
- Aholisi va mehnat resurslari;
- Iqtisodiyoti (sanoati, qishloq xo'jaligi va transporti)
- Tashqi iqtisodiy aloqalari.

Iqtisodiy-ijtimoiy geografiya kurslarida iqtisodiy geografik ta'lim beriladi. Iqtisodiy geografik ta'lim esa kundalik iqtisodiy va siyosiy materiallardan foydalanib borishni taqazo etadi. Iqtisodiy geografiya ta'limida kundalik yangiliklardan foydalanish o'quvchilarning saviyasini yanada oshiradi va bilim doirasini kengayishida katta ahamiyatga ega.

**Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi kursi materiallarini o'rganish texnologiyalari.** Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi kursini o'rganishda "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi" va "Jahon tarixi" kurslaridan olgan bilimlariga tayaniлади.

Kurs materiallarini o'rganishda har bir bob va mintaqalarning umumiylar tavsifi kirish darslari tarzida, ma'ruza usulida o'rganiladi. Mavzularni o'rganishda og'zaki, amaliy va ko'rsatmali metodlar, modulli ta'lim, hamkorlikda o'qitish, muammoli ta'lim, loyihalash, al'ternativ,

tabaqlashtirib o'qitish, didaktik o'yinlar, kartografik texnologiyalar va interfaol metodlardan foydalaniladi. Dars jarayonida o'quvchilar faoliyatini faollashtirish maqsadida tarix, materiklar va okeanlar tabiiy geografiysi kursi materiallaridan foydalaniшning ahamiyati katta.

Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiysi kursi materiallarini o'rganishda vaqtli matbuot va internet materiallari hamda qo'shimcha adabiyotlardan foydalaniш maqsadga muvofiqdir. Natijada o'quvchilar gazeta va jurnallarni muntazam o'qib borishga, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi raqamli ma'lumotlarni tahlil qilish, kurs materiallarini hozirgi voqealar bilan bog'lab borish, xulosa chiqarishga o'rganadilar. Bu albatta o'quvchilarning mustaqil ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

O'quvchilarni kasb tanlashga to'g'ri yo'naltisih maqsadida "Jahon xo'jaligi" va "Jahonning regional tavsifi" mavzularini o'qitishda didaktik o'yinlar texnologiyasining syujetli rolli o'yinlar, ishbilarmonlar o'yini, auksion darslar tashkil etiladi. Bunday darslarda o'quvchilar yirik kompaniya, TMKlarning vitse prezidenti, menejer, direktor, muhandis, xalqaro integratsion uyushma Bosh kotibi, turistik firma rahbari va h.k. rollari orqali kelgusida o'z kasbini tanlashga to'g'ri yo'naltiriladi.

Kurs materiallarini o'rganish jarayonida o'quvchilar faolligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan muammoli ta'limga ham e'tibor berib borish lozim. Masalan, Yaponiya mavzusini o'quvchilarga "Ikkinchı jahon urushidan keyin Yaponiya iqtisodiy jihatdan tez rivojlana boshladi" degan muammoli savol berish mumkin.

Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiysi kursi materiallarini o'rganishda ko'pgina masalalarni o'rganishda ko'pchilik masalalarni hal etish uchun bilim manbai bo'lib xizmat qiladigan, turli mazmundagi xaritalar suhabat va mustaqil va amaliy ishlarni tashkil etishda katta imkoniyatlar vujudga keltiradi.

Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiysi kursi 1964 yildan boshlab o'rganib kelinmoqda. Bu kurs dastlab A.G.Artemyeva, V.P.Maksakovskiy va boshqalarning "Chet mamlakatlar iqtisodiy geografiysi" darsligi asosida o'rganilgan bo'lsa, hozirda A.Qayumov, I.Safarov va boshqalar tomonidan yozilgan "Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiysi" darsligi asosida o'rganilmoqda.

#### 4.3. Amaliy geografiya kursining mazmuni, tuzilishi va o'qitish texnologiyalari

**Amaliy geografiya kursining mazmuni va tuzilishi.** Amaliy geografiya kursi umumiyo о'rta ta'lif maktabları, akademik litsiey va kas-

hunar kollejlarida o'qitiladigan fanlardan biri bo'lib, o'quvchilarning geografiyadan olgan bilimlari hamda geografik madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Amaliy geografiya kursining **maqsadi** – geografik obyektlar, jarayon va hodisalar, Yer yuzining tabiiy manzarasi, aholisi va uning xo'jaligi, jamiyat va tabiatning o'zaro bog'liqligi, tabiatdan oqilona foydalaniш, Yer yuzidagi global muammolar haqida fikr-mulohaza yuritishga o'rgatish, tabiiy muhit va resurslarni baholash, tabiiy va ijtimoiy muhit o'zgarishini bashorat qilish, tabiatni qadrlash va muhofaza qilish, olgan nazariy bilimlarini amalda qo'llash mahoratini shakllantirishdan iborat.

Amaliy geografiya kursining muhim **vazifalari** quiydagilardan iborat:

- ✓ xo'jalik maqsadlarida foydalaniш nuqtai nazaridan tabiiy sharoit va resurslarni, tabiiy-geografik jarayonlarni o'rganish, baholash va bashorat qilish;

- ✓ inson tomonidan tabiiy va ijtimoiy muhitning o'zgartirish jarayonini o'rganish, baholash va bashorat qilish;

- ✓ dunyoning geosiyosiy manzarasi va insoniyatning global muammolarini o'rganish, ularning yuzaga kelish sabablarini ochib berish va ushbu muammolarning yechimining geografik asoslarini ishlab chiqish;

- ✓ O'zbekistonning geosiyosiy o'rni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va geoekologik muammolari hamda ularning bartaraf etishning yo'llarini o'rganish, baholash;

- ✓ o'quvchilarning hayotiy tasavvurlari bilan amaliy faoliyatlarini umumlashtirib borishga o'rgatish;

- ✓ geografik bilimlarni hayotga tatbiq eta olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirish;

- ✓ tayanch kompetentsiya (kommunikativ, axborot bilan ishlash, o'zini rivojlantirish, ijtimoiy faol fuqarolik, milliy va umummadaniy, matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda foydalaniш kompetentsiyasi) elementlarini shakllantirish.

Insoniyat paydo bo'lgan davrdan boshlab jamiyat taraqqiy etgan sari inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlар murakkablashib bormoqda. Buning natijasida mahalliy, mintaqaviy hamda umumsayyoraviy ekologik muammolar va inqirozlar paydo bo'lmoxda. Ana shunday muammolarni o'rganish, baholash va ularni sodir bo'lishini oldindan bashorat qilishda geografiya fanining o'rni va ahamiyati nihoyatda muhimdir.

Amaliy geografiya fani endi rivojlanib kelayotgan fan bo'lsada, uning ildizi uzoq tarixiy davrlarga borib taqaladi. Yurtimizdan yetishib chiqqan

buyuk allomalar amaliy geografiyaning rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan.

Amaliy geografiya fani tabiiy resurslardan foydalanishning ilmiy asoslarini ishlab chiqish, tabiat va jamiyatning o'zaro ta'sirini yaxshilash, tabiiy oqibatlarning oldini olish, hududlarning rivojlanishini bashoratlash, yirik loyihalarni ekspertiza qilishning geografik-ekologik asoslab berish kabi muammolarni hal etmoqda. Bu esa amaliy geografiya faning yirik davlatlar va dunyo ahamiyatiga ega bo'lgan muammolarni yechishdagi ishtiroki ortib borishiga sabab bo'lmoqda.

Amaliy geografiya tabiiy va ijtimoiy muhitning o'zgarishini baholash va bashort qilish bilan shug'ullanadi. Ushbu kurs quyidagi 10 bobdan iborat.

Amaliy geografiyaning birinchi bob "Geografiya fani va uning tarixi" deb nomlanadi va u "Geografiya fanlar tizimi haqida tushuncha" va "Geografiya fanining tarixi va hozirgi davrdagi rivojlanishi" mavzularidan iborat. Bu mavzularda o'quvchilar geografik qobiq va uning birliklari, geografiya fanlar tizimi - tabiiy, iqtisodiy, oraliq va maxsus geografiya fanlar tizimi, ularning o'r ganish obyekti, geografiya fanining qadimgi yoki antik davr, o'rta asrlar, buyuk geografik kashfiyotlar, ilmiy geografik ishlar, XIX asr va XX asrning 1-yarmi va hozirgi zamon bosqichi geografiya fanining rivojolanish xususiyatlariiga oid ma'lumotlar berilgan.

"Yerning tabiat" bobiga 10 soat ajratilgan. Ushbu bobda tabiiy geografiya kurslarida egallagan bilimlari rivojlantiriladi va kengaytiriladi.

"Yer yuzi tabiat rivojlanishining fazoviy omillari" mavzusida koinot, galaktika, Quyosh, Quyosh tizimi, Oy, Yerning shakli va o'lchamlari, Yerning harakatlari va ularning geografik oqibatlari, Quyosh va Oyning Yer tabiatiga ta'siri to'g'risida tushunchalar berilgan.

"Yerning ichki tuzilishi va tektonik jarayonlar" mavzusida o'quvchilar Yerning ichki tuzilishi ga oid bilimlarini yer po'sti, okean va materik yer po'stining qalinligi va ularning qatlamlari, oraliq va riftogen yer po'sti, mantiya, yadro, litosfera, seysmik mintaqalar, zilzila va vulqonlar to'g'risadagi qo'shimcha ilmiy ma'lumotlar bilan kengaytiradi.

"Yer yuzi tabiatining rivojlanish tarixi" mavzusida Yer taraqqiyotining astronomik, geologik, biologik va antropogen bosqichlarida bo'lib o'tgan hodisa va jarayonlar, geoxronologik shkala, geoxronologik jadvaldagi geologik sanalar va Yer tarixidagi muhim voqealar va poleogeografik sharoitga oid ma'lumotlar berilgan bo'lib, ushbu bilimlar o'quvchilarning tabiiy geografiya kurslarida egallagan

bilimlarini rivojlantirish, kengaytirish va yangi sharoitlarda qo'llashga xizmat qiladi.

"Geografik qobiq va uning umumiyl qonuniyatlar", "Geografik qobiqning kenglik va zonalligi", "Balandlik mintaqalanish qonuniyat" mavzularida geografik qobiqning tarkibiy tuzilish darajalari, ya'ni geokomponentli, geosferali va geotizimli tuzilishi, geografik qobiqning xususiyatlari va qonuniyatlar (bir butunligi, modda va energiyaning aylanma harakati, ritmiklik (shakli, davomiyligiga ko'ra turlari)hodisalari), zonallik qonuniyatining rivojlanishida A.Gumbold, V.V.Dokuchayev xizmatlari, kenglik zonalligi (Quyosh nurlari tushish burchagini o'zgarishi hisobiga tabiat komponentlari va geotizimlarning ekvatordan qutblarga tomon qonuniy o'zgarishi), sektorlik (quruqlik ichkarisiga tomon okeanlardan uzoqlashgan sari iqlim xususiyatlarining o'zgarishi hisobiga tabiat komponentlari va geotizimlarning o'zgarib borishi), azonallik (Yerning ichki jarayonlari va mahalliy omillar tufayli tabiat komponentlari va geotizimlarning o'zgarishi), balandlik mintaqalanishi (tog'larning etagidan suvayirg'ich tomon tabiatning qonuniy o'zgarib borishi) qonuniyatlar, balandlik mintaqalarining soni va tuzilishi, yonbag'ir ekspozitsiyasi (tog' va tepalik yonbag'irlarining usq tomonlariga, Quyosh niri tushadigan tomonga nisbatan joylashuv), qor chizig'i va uning balandligini o'zgarishi haqida bilimlar berilgan.

"Geotizimlar va ularning pog'onasimonligi" mavzusi ham quyi sinflarda o'rganilgan tabiat kompleksi, tabiiy hududiy kompleks, geografik kompleks tushunchalari bilan bog'liq bo'lib, ammo ushbu mavzu o'quvchilarning yosh psixologik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ancha murakkabdir. Chunki, o'quvchilar ushbu mavzuda geotizim tushunchasi bilan tanishadi va uning mazmun mohiyatini bilib oladi. Mavzuda geotizim tushunchasi, uning tuzilishi (modda va energiya almashinuvni xususiyatiga ko'ra va ko'lamiga ko'ra), landshaft va uning morfologik birliklari bilan tanishadilar.

Uchinchi bob "Jamiyat va tabiat" deb nomlanadi (3 soat). Mazkur bobda "Jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlar", "Antropogen landshaftlar", "Tabiatni muhofaza qilishning geografik asoslari" mavzulari berilgan. Mavzularda tabiat, tabiiy muhit, geografik muhit, texnogen muhit, atrof-muhit tushunchalarining mazmuni, jamiyatning tabiatga ta'siri etish bosqichlsari (ibtidoiy jamoa, qishloq xo'jalik inqilobi, sanoat inqilobi, fan-texnika inqilobi va ekologik munosabatlar davri) va ushbu bosqichlarda insonning tabiatga ta'sir darajalari, antropogen landshaftlarning vujudga kelishi va ularning turlari, madaniy va buzilgan

landshaftlar, geotextizim, tabiatni muhofaza qilish maqsadida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar, alohida muhofaza etiladigan hududlar, milliy bog‘, qo‘riqxonan, biosfera rezervatlari, buyurtmaxona, tabiat yodgorliklari, tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan foydalanishning geografik-ekologik tamoyillari haqida ma’lumotlar berilgan.

“Amaliy geografik tadqiqotlar” deb nomlangan to‘rtinchchi bob (4 soat) “Tabiiy geografik jarayonlar” mavzusi bilan boshlanadi. Mavzuda tabiiy geografik jarayonlarning turlari – nurash, eroziya, abraziya, deflyatsiya, sel, karst, surilma, ularning vujudga kelishida tashqi va ichki kuchlarning ta’siri ochib berilgan.

“Geografik baholash” mavzusida baholash, geografik baholash bosqichlari, baholash usullari (sifat va miqdor), yer resurslari va rekreatsion resurslarni turli maqsadlarda baholash va uning ahamiyati yoritilgan bo‘lsa, “Geografik prognoz” mavzusida geografik prognoz, uning muddatlari, miqyosiga ko‘ra prognoz turlari va ularning maqsadlari, oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar, O‘zbekistonda tabiat komponentlarining o‘zgarishini prognozlash haqida tushunchalar berilgan.

“Atrof-muhit monitoringi va geografik-ekologik ekspertiza asoslari” mavzusida o‘quvchilar atrof-muhit monitoringi tushunchasining vujudga kelishi, monitoring va uni tashkil qilish bosqichlari, mamlakatimizda atrof-muhit monitoringini amalga oshirish, geografik va ekologik ekspertiza, O‘zbekistonda geografik-ekologik ekspertiza o‘tkazish borasida amalga oshirilayotgan ishlarga oid bilimlarga ega bo‘ladilar.

“Dunyo aholisi” bobiga (3 soat)da o‘quvchilar “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasiga” kursidagi “Jahon aholisi” mavzusida egallagan bilimlarini rivojlantiradi va kengaytiradi, mustaqil topshiriqlarni bajarish orqali amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiriladi. “Dunyo aholisi va zamonaviy geografik vaziyat” mavzusida dunyo aholisini dinamikasiga ta’sir ko‘rsatgan omillar, demografik o‘tish bosqichlari, dunyo va yirik regionlarning asosiy demografik ko‘rsatkichlari, demografik siyosat yo‘nalishlariga oid ma’lumotlar berilgan.

VI bob “Dunyoning geosiyosi manzarasi va global muammolar” deb nomlanadi (3 soat). Ushbu bob yangi va ancha murakkab, o‘quvchilarni mushohada yurutishga, fikr almashishga undaydigan mavzularni o‘z ichiga oladi. Bu mavzuda o‘quvchilar dunyoning geosiyosi tizimi va uning shakllanishi (geosiyosi yondashuvlar, geosiyosi davrlar), jahondagi zamonaviy geosiyosi vaziyat (geosiyosi markazlar – Yevropa, AQSH, Rossiya, Xitoy, Yaqin Sharqdagi geosiyosi vaziyat, ularning siyosiy,

ijtimoiy, iqtisodiy mavqe) va davlatlarning integratsion uyushmaları (Yevropa Ittifoqi (YI), Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH), Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT) va ular o‘rtasidagi munosabatlari), insoniyatning global muammoları (demografik va oziq-ovqat, energetika va ekologik, tinchlikni saqlash va quolsizlanish, sust rivojlanchagan mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy qoloqligi va qashshoqligi, oziq-ovqat) muammolariga oid tushunchalarga ega bo‘ladilar.

VII-IX- boblarida Yevropa, Amerika Afrika va Osiyo subregionlari hamda Okeaniya davlatlari (8 soat) yoritilgan. Yevropa subregionlari mavzusida mintaqqa Shimoliy, G‘arbiy, Janubiy va Sharqiy subregionlarga; Amerika Lotin Amerikasi va Karib havzasidagi orol mamlakatlar subregionlariga; Afrika mintaqasi Shimoliy, Garbiy, Sharqiy, Markaziy va Janubiy subregionlariga; Osiyo mintaqasi Janubi-G‘arbiy, Janubiy, Sharqiy, Janubi-Sarqiy Osiyo davlatlari va Markaziy Osiyo mamlakatlari subregionlariga hamda Okeaniya davlatlarining iqtisodiy-geografik o‘rnini, aholisi va iqtisodiyotiga oid bilimlar berilgan. Mazkur bilimlarning Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasiga kursida egallagan bilimlarini rivojlantiradi va kengaytiradi.

Amaliy geografiyaning oxirgi bobiga “O‘zbekiston respublikasi” (4 soat) deb nomlanadi. Bobning birinchi mavzusida “O‘zbekistonning geosiyosiy o‘rnini va munosabatlari” deb nomlanadi. Mavzuda O‘zbekistonning mikro, mezo va makroiqtisodiy va siyosiy geografik o‘rniga xos xususiyatlar berilgan. “O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi” mavzusida mamlakatimiz mustaqilligining dastlabki davrlaridan to bugungi kungacha bo‘lgan davrda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga oid olib borilgan islohatlar va ularning eng muhim natijalari, sanoat, qishloq xo‘jaligi, taransport va tashqi iqtisodiy aloqalardagi muhim o‘zgarishlar ochib berilgan.

“O‘zbekistonning geoekologik muammolar” mavzusida o‘quvchilar geoekologik muammolar va ularning turlari, O‘zbekistonning lokal geoekologik muammolar, geoekologik muammolar echimining ilmiy asoslari (hududiy, geotizimli, ekologik) ni o‘rganadilar.

Binobarin, o‘qituvchi O‘zbekiston respublikasi haqidagi ushbu yangi materiallarni so‘zlar ekan, bunda o‘quvchilarning 8-sinfda egallagan bilim va ko‘nikmalarini e’tiborga olmog‘i kerak. Ushbu mavzuga oid bilimlarni shakllantirishda xaritadan bilan ishslash ko‘nikmalarini rivojlantirishga ham alohida e’tibor qaratmoq lozim.

**Amaliy geografiya kursi materiallarini o‘qitish texnologiyalari.**  
Amaliy geografiya kursini o‘rganish davomida Tabiiy geografiya (Tabaiiiy

geografiya boshlang'ich kursi (5-sinf), Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi (6-sinf), O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi (7-sinf) va Iqtisodiy-ijtimoiy geografiya (Ozbekiston tabiiy iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi (8-sinf), Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi (9-sinf) hamda "Biologiya", "Jahon tarixi", "Fizika" kurslaridan olgan bilimlariga tayaniladi.

Kurs materiallari 10-sinf o'quvchilarining yosh psixofiziologik xususiyatlariga mos ravishda ancha murakkab va keng yoritilgan. Ushbu materiallarni o'rganishda darsning barcha tiplari, o'qitishning og'zaki va amaliy mutodlari, pedagogik texnologiyalarning muammoli ta'lif, modulli ta'lif, hamkorlikda o'qitish, loyihalash, alternativ, didaktik o'yinlar, kartografik texnologiyalar va interfaol metodlarning "Charxpalar", "Nilufar guli", "Musbat, mahfiy, qiziqarli", "Yelpig'ich", "Venn diagrammasi", "Tushunchalar tahlili" va h.k. kabi turlari, "Keys stadi" texnologiyasi hamda axborot texnologiyalaridan foydalaniladi.

Har bir bob va mintaqalarning umumiy tavsifi kirish darslari tarzida, og'zaki metodning ma'ruza usulida o'rganiladi. Dars jarayonida o'quvchilar faoliyatini faollashtirish maqsadida tarix, biologiya, fizika, tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografiya kurslari materiallaridan foydalanishning ahamiyati katta.

Amaliy geografiya kursi materiallarini o'rganishda mavzu mazmuniiga mos ravishda kundalik vaqtli matbuot va internet materiallari hamda qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Binobarin, dars jarayonida qo'shimcha materiallardan foydalanish oqibatida o'quvchilar gazeta va jurnallarni muntazam o'qib borishga, iqtisodiyotning turli sohalarida, xususan, ijtimoiy va iqtisodiy sohalardagi raqamli ma'lumotlarni tahlil qilishga, bo'lib o'tayotgan tabiiy geografik jarayonlar (zilzila, nurash, surilma, suffoziya, abraziya, karst va h.k.) esa kurs materiallarini hozirgi voqealar bilan bog'lab, taqqoslab borish, xulosa chiqarishga o'rganadilar. Bu albatta o'quvchilarining mustaqil ijodiy fikrlesh qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Kurs materiallaridan "Jamiyat va tabiat o'rtasidagi munosabatlari" "Tabiatni muhofaza qilishning geografik asoslari", "Tabiiy geografik jarayonlar", "Geografik baholash", "Geografik prognoz", "Atrof-muhit monitoringi" va h.k. mavzularni o'rganish jarayonida o'quvchilar faolligini oshirish bilan bog'liq bo'lgan interfaol metodlar, muammoli ta'lif va "Keys stadi" texnologiyasidan unumli foydalanish lozim. Masalan, "Dunyoning geosiyosiy manzarasi va global muammolar" mavzusini o'rganishda o'quvchilarga "Nima sababdan global muammolar

vujudga keldi" degan muammoli savol berish bilan boshlash va "Nilufar guli" metodidan foydalanib davom ettirish mumkin.

Amaliy geografiya kursida o'quvchilarning mustaqil va amaliy ishlarni tashkil etishda geografik bilim manbai bo'lib xizmat qiladigan turli mazmundagi xaritalardan, raqamli va statistik ma'lumotlardan foydalaniladi.

Amaliy geografiya kursi 2003 yildan akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida 40 soatlik hajmda o'rganib kelingan. Bu kurs dastlab A.Rafiqov, H.Vaxobov, A.Qayumov, Sh.Azimovlarning "Amaliy geografiya" darsligi asosida o'rganilgan bo'lsa, 2018 yildan boshlab esa umumiy o'rta ta'lif maktablari, akademik litseylarda Sh.Sharirov va boshqalar tomonidan yozilgan "Geografiya (Amaliy geografiya)" darsligi asosida o'rganilmoqda.

## 5. Ichki fanlararo aloqalar

Ichki fanlararo aloqalar – bu har bir kursning ma'lum bir dastur asosida o'rganishdir. Bunda bilimlarni, ko'nikimalarni va dunyoqarash g'oyalarni hosil bo'lishini ketma-ketligi alohida o'rinn tutadi.

Tabiiy geografiya kursida bir qancha bilimlar tizimi bor: geologik – geomorfologik, iqlimi, gidrologik va THKlar va h.k. Ushbu har bir tizimga ham nazariy, ham empirik bilimlar, aniq ko'nikmalar kiradi. Masalan, ob-havoni kuzatish, iqlim xaritalarni o'qish ko'nikmalarini. Bilimlar har biri kursda rivojlanib boradi (6-jadval).


6-jadval

| Geologik- geomorfologik bilimlarni rivojlanishi.   |  |   |   |
|--|--|---|---|
| IV sinf  | V sinf   | VI sinf   | VII sinf  |
| Tog' jinslar, nurash va yemirilish jarayoni ( <sup>10</sup> , shamol va suv ta'siri-da), Er osti boyliklarini qo'riqlash | Yerning ichki tuzilishi. "Atmosfera" "tog' jinslar" "tekisliliklari" tushunchalari. Tog' va tekisliliklarni ichki va tashki kuchlar ta'sirida o'zgarishi. Inson faoliyatini relyefga ta'siri. Tog' va tekislilik relyefini bayoni. | Yer qobig'i va relyefi, materik va okean yer qobig'i ning nisbatan hara katchan qismlari. Yer qobig'i tuzilish xaritasi Okean tubi relyefi. Quruqlik relyefi. Materik relyefi va h.k. bayoni. | Geoxronologik janval. "Platforma" "Geosinklinal" tushunchalari. Tektonik xarita qadimgi muzlanish relyefi va h.k. bayoni. |

Iqtisodiy geografiya kursining mazmuni quyidagi asosiy tushunchalar bo'yicha ichki aloqalarni hisobga olgan holda ishlab chiqarish, iqtisodiy geografik joylanishi, tabiiy sharoit, tabiiy resurslar, aholi va mehnat resurslari, iqtisodiyot va uning muhim tarmoqlarni – sanoat, qishloq xo'jaligi, transporti, tashqi iqtisodiy aloqalar va h.k.

Tabiiy va iqtisodiy geografiya o'rtasidagi aloqalar ham chambarchasdir (1-rasm). Chunki ishlab chiqarish tabiiy geografiyada insonni tabiatga ta'siri, omili sifatida o'rnatiladi. Bunda ishlab chiqish mohiyati muhim o'rinn tutadi.

Iqtisodiy geografiyada tabiiy geografik bilimlar tabiiy boyliklarga xo'jalik jihatdan baholashda ishlataladi.



**1-rasm. Ichki fanlararo aloqalar.**

**Tayanch so'z va atamalar:** Iqtisodiy, ijtimoiy, aholi, mehnat resursi, jahon iqtisodiyoti, transport, xalqaro iqtisodiy aloqa, geografik mehnat taqsimoti, xalqaro geografik mehnat taqsimoti, global muammo, geografik prognoz, monitoring, geografik baholash, geosiyosat.

#### **TALABALARING O'ZLASHTIRGAN BILIMLARINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLARI**

- Umumi o'rta ta'limga muktablari Iqtisodi geografiya va Amaliy geografiya o'quv fanlari dasturlarini tahlil qiling.
- Umumi o'rta ta'limga muktablari Iqtisodi geografiya va Amaliy geografiya darsliklarining tuzilishini o'rganib chiqing.
- Umumi o'rta ta'limga muktablari Iqtisodi geografiya va Amaliy geografiya o'quv fanlari darsliklarining metodik jihozlanishini tahlil qiling va o'rtog'ingiz bilan fikr almashing.
- Umumi o'rta ta'limga muktablari Iqtisodi geografiya va Amaliy geografiya o'quv fanlari kompetensiyalariga xos jihatlarni ajrating.
- Umumi o'rta ta'limga muktablari Iqtisodi geografiya va Amaliy geografiya o'quv fanlari yuzasidan VENN diagrammasi tuzing.

## **II-QISM. O'QITISH METODLARI**

### **VIII BOB. GEOGRAFIK TUSHUNCHALAR, ULARNING TURLARI VA SHAKLLANISHI**

#### **1. Umumiy va xususiy geografik tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish**

Umumiy o'rta ta'limga muktablari geografiyanı o'qitishning asosiy maqsadi o'quvchilarda DTS bilan me'yorlangan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish sanaladi.

Shu sababli, geografiya o'qitish metodikasining asosiy muammolaridan biri o'quvchilarda ta'limga mazmunining asosiy tarkibiy qismi bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish masalasi hisoblanadi va mazkur masala juda ko'p geograf-metodistlar tomonidan tadqiq etilgan.

O'quvchilarda bilimlarni shakllantirish uchun, avvalo uning ta'rifini bilib olish zarur.

Bilim – narsa va hodisalarining muhim belgi va xususiyatlari, jarayonlar va ular o'rtasidagi bog'lanishlar to'g'risida fan tomonidan aniqlangan tushunchalardan tarkib topgan bo'lib, u – tushunchalar tizimidan iborat. Shuning uchun ham o'quvchilarga bilim berishda tushunchalarni shakllantirish muammosi yetakchi o'rinn egallaydi.

Geografik bilim, geografik tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish geografik ta'limga tarbiyaning harakatlantiruvchi kuchi, o'quv materiali mazmunining asosiy birligi sanaladi.

**Tushuncha** - insonga uning dunyoni idrok etishdagi intilishiiga yordam beradi. Tushuncha bilan ish ko'rish – bu fikr yuritish demakdir. Odam tushunchalar vositasida fikr yuritadi. Fikr real dunyoni aks ettiradi va bilmaslikdan bilishga tomon qator bosqichlarni bosib o'tadi.

O'quvchilarda tushunchalarni shakllantirish quyidagi bosqichlarda amalga oshiriladi:

- O'quv materialini sezgi organlari orqali qabul qilish;
- Idrok etish;
- Tasavvur qilish;
- Yodda saqlash;
- Amalda qo'llash;
- Natijalarni tekshirish;

- Axborotlarni umumlashtirish va xulosa yasash;

O'qituvchi tomonidan tushunchalarni shakllantirish bosqichlariga amal qilinishi o'quvchilarning tushunchalarni qabul qilishiga, tushunishiga imkon yaratadi.

Shu sababli, o'qituvchi har bir o'quv fani mazmuniyagi tushunchalarni belgilab olishi, diqqat markazini o'quvchilarda shu tushunchalarni shakllantirishga qaratishi lozim.

Tushunchalar mavzudan mavzuga o'tgan sari asta-sekin rivojlantirilib, mukammallahib boradi, shunga ko'ra tushunchalarni shakllantirish bilan bir qatorda rivojlantirish ham muhim ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Shuni esdan chiqarmaslik lozimki, tushunchalarni o'quvchilar birdaniga egallay olmaydilar, tushunchalarni hosil bo'lishida yuqorida qayd etilgan bosqichlarni amalga oshirish, buning uchun esa muayyan vaqt kerak bo'ladi. Mavzu matnida keltirilgan faktlardan tushunchalarni keltirib chiqarish uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, eng muhimi tushunchalarni «tayyor» holda berishdan saqlanish, qiyinchiliksiz qabul qilingan tushunchalar tez esdan chiqishini unutmaslik kerak.

O'qituvchi tushunchalarni shakllantirish bosqichlariga amal qilishi, mazkur bosqichlarda o'quvchilarning aqliy faoliyatini jalb etishi, ular tomonidan obyektlarni taqqoslash, o'xshashlik va farqini topish, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi mantiqiy fikr yuritish jarayonlardan foydalanish ko'nikmalarini egallashlariga zamin yaratishi lozim.

Geografiya o'quv fani mazmuni mantiqiy izchillikda shakllantirish, rivojlantirish va o'zaro aloqada bo'lgan tushunchalar tizimidan iborat.

Geografiya o'quv fani mazmuniga geografiya fanining geologiya, geomorfologiya, gidrologiya, iqlimi, tuproqshunoslik, geobotanik, zoogeografik, aholi geografiyasi va demografiyasi, iqtisodiy geografiya va h.k.larga oid ma'lumotlar kiritilgan bo'lib, tushunchalar tizimi shu fan asoslari bilan belgilanadi.

Shu sababli, geografiya o'quv fanining asosiy geografik tushunchalari sirasiga geologik, geomorfologik, hidrologik, iqlimi, tuproqshunoslik, geobotanik, zoogeografik, ijtimoiy geografik va iqtisodiy geografik tushunchalarni kiritish mumkin.

Geografik tushunchalar mazmuni va mohiyatiga ko'ra: oddiy va murakkab, xususiy va umumiyligining tushunchalarga ajratish mumkin.

Ma'lumki, har bir tushuncha avval oddiy, so'ngra boshqa oddiy tushunchalar bilan birlashib murakkab tushunchalarni hosi qiladi.

Umumiyligining tushunchalar bir xil xususiyatga ega bo'lgan ko'p narsa hodisalarini gavdalantiradi. Ularga alohida narsa va hodisalar kirmasdan, balki bir xil nom bilan ataluvchi narsa va hodisalar kiradi. Masalan, tog, tekislik, relyef, daryo, ko'l va h.k. Butun tabiatdagi barcha voqealar va hodisalarga ta'luqli geografik qonuniyatlar to'g'risida va ayrim geografiya kurslarining maxsus tushunchalarini umumlashtiruvchi tushunchalar umumiyligining geografik tushunchalar hisoblanadi.

Xususiy tushunchalar ichida faqat bitta mavzuda rivojlantiriladigan tushunchalar lokal tushunchalar deyiladi. Masalan, Farg'onasi vodiysi qanday tog'lar o'rabi turadi? Qizilqum cho'li O'zbekistonning qaysi qismida joylashgan? Kaynazoy erasida respublikamiz yer yuzasi qanday o'zgardi? Yoqilg'i resurslari respublikamizning qaelarida ko'p tarqalgan?, Nima sababdan Quyi Amudaryo iqtisodiy rayonida sholichilik rivojlangan? va h.k. Bunda Farg'onasi vodiysi, Qizilqum cho'li, kaynazoy erasi, yoqilg'i resurslari, Quyi Amudaryo yakka tushunchalar. Ularga javob topish uchun tabiiy, geologik va tektonik xaritalardan foydalanish zarur bo'ladi.

Xususiy tushunchalarni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- ✓ Tabiiy geografik xususiy tushunchalar;
- ✓ Iqtisodiy geografik xususiy tushunchalar;
- ✓ Kartografik xususiy tushunchalar.

Xususiy tushunchalar umumiyligining tushunchalar kabi bir-biriga chambarchas bog'langan bo'lib, bir xususiy geografik tushuncha ikkinchi xususiy tushunchani mazmun mohiyatini tushunib olishga yordam beradi

Geografiya o'quv fani mazmuni mantiqiy izchillikda shakllantirish, rivojlantirish va o'zaro aloqada bo'lgan tushunchalar tizimidan iborat. Bu tushunchalar tizimi geografiya predmetiga kiritilgan fan asoslari bilan belgilanadi. Geografik o'rinni, geologik tuzilish, relyef, iqlim, ichki suvlari, tabiat zonalari, tabiiy resurs, aholi, sanoat, qishloq xo'jaligi, transport, tashqi iqtisodiy aloqava h.k.lar mablag'i geografiya kursining asosiy geografik tushunchalaridir.

Geografik bilimlarning bilish xususiyatiga ko'ra tushunchalar quyidagi turlarga bo'linadi:

- Geografik voqealar va hodisalarining tashqi ko'rinishi haqidagi bilimlar.
- Geografik voqealar va hodisalarining fazoda joylashuv haqidagi bilimlar.
- Geografik voqealar va hodisalarining xossalari haqidagi bilimlar.
- Geografik jarayonlar haqidagi bilimlar.
- Geografik borliq va hodisalarining tarkibi haqidagi bilimlar.

- Geografik borliq va hodisalarning tuzilishi haqidagi bilimlar.
  - Geografik voqeа va hodisalar orasidagi aloqlar haqidagi bilimlar.
- Tushunchalar mavzudan mavzuga o'tgan sari asta-sekin rivojlantirilib, mukammallahib boradi, shunga ko'ra tushunchalarni shakllantirish bilan bir qatorda rivojlantirilishi muhim ta'lif-tarbiyaviy ahamiyatga ega.

## **2. Geografiyani o'qitishda o'quvchilarda mustaqil va ijodiy faoliyatini tarkib toptirish**

Geografiyani o'qitishda o'quvchilarda mustaqil va ijodiy faoliyatni tarkib toptirish o'quvchilar bilan birlgilikda mustaqil bajaradigan ishlар: darslik, yozuvlari xarita, rasm, jadval, statistik ma'lumotlar va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash hamda amaliy mashg'ulotlarni bajarish katta ahamiyatga ega. Darslik, yozuvlari xarita va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlashning ahamiyati va metodikasiga darslikning IX va XI boblarida batafsil to'xtalib o'tamiz.

Geografiya ta'limida rasmlar juda keng qo'llaniladi. Ular orqali geografik voqeа va hodisalarni tasviri bilan birga ularni o'ziga xos xususiyatlari va qirralarini ham ochib beradi.

Rasmlar (kartinalar) quyidagi xususiyatlarga ega:

- rasmlar o'quvchilarni bilish faoliyatini tashkil qilishga imkon beradi. Rasmlardan foydalangan holda o'qituvchi uning mazmuni haqida so'zlab berishi mumkin, o'quvchilar bilan suhbat o'tkazishi mumkin yoki o'quvchilarga rasmni mustaqil tahlil qilish bo'yicha topshiriqlar berishi mumkin. Masalan, cho'l tabiatni tasvirlangan rasm, Qizilqum tabiiy geografik o'lkasini o'rganayotgan bo'lsa o'qituvchi o'quvchilarga rasmni tahlil qilish asosida Qizilqumni asosiy relyef shakillarini, o'simlik va hayvonot dunyosi haqida yozma ish bajarishni topshirishi mumkin. Rasm sinf xonasiga osib qo'yilganda uni hamma joyidan aniq ko'rinish turishi kerak;

- juda yaxshi ishlangan rasm geografik obyekt, voqeа va hodisalar haqida tasavvurlar hosil qilishda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ularni ayrimlari tabiatni kuzatish ishlарini o'rmini bosishi mumkin. Masalan, o'quvchilar cho'l yoki tog' relyef shakillarini rasmda ko'rib, ular to'g'risida to'la tasavvurga ega bo'lishi mumkin. Rasmlar ayniqsa bevosita ko'rib yoki o'rganib bo'lmaydigan geografik voqeа va hodisalarni o'rganishda katta ahamiyatga ega. Masalan, Antarktida tabiat, Tornado,

Sunami va h.k. Demak, rasmlar geografik voqeа va hodisalar haqida tasavvur hosil qilishga imkon beradi;

- o'quv rasmlari (kartinalari) aniq geografik voqeа va hodisalarni umumlashgan tasviri hisoblanadi. Badiiy rasmlar yoki foto suratlardan farq qilib, ularda voqeа va hodisalarning ayrim xususiyatlari bo'rtirilib ko'rsatiladi. Bunda geografik voqeа va hodisalarni eng muhim jihatlari oson o'zlashtiriladi, ikkinchi tomondan mazkur obyekt, voqeа, hodisalarning muhim jihatlarini ikkinchi darajali jihatlaridan ajratib olish imkonini tug'diradi. Bilimlarni shakllantirish jarayonida rasmlarni o'rganish va tahlil qilish o'qituvchi yordamida amalga oshiriladi. Bilimlarni tekshirish va baholashda esa o'quvchilar rasmlarni mustaqil ravishda o'rganishadi, tahlil qilishadi va xulosalar yozishadi. Rasmlarni o'rganishdagi bunday yondoshish ikkita muhim ta'limiylar muammolarni yechishga imkon beradi: o'quvchilar geografik bilish metodlari bilan tanishtiradi, o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni, abstrakt-nazariy tuzilmalarni ishlash qobiliyatini rivojlantirishga imkon beradi. Bunday faoliyat o'quvchilarni hissiy qabul qilishiga tayanadi.

Rasmlardan foydalanishning asosiy talablari quyidagilardan iborat:

- ✓ rasm dars mavzusi mazmuniga mos tushishi lozim;
- ✓ rasmda geografik obyekt, voqeа va hodisalarni eng muhim xususiyatlari tasvirlangan bo'lmog'i lozim;
- ✓ rasm aniq va ravshan ko'rinxmog'i lozim.

Misol uchun O'zbekiston xalq rassomi Chingiz Axmarovni tabiat manzaralariga bag'ishlangan rasmlaridan O'zbekiston va O'rta Osiyo tabiiy geografiyasini o'rganishda keng foydalanish mumkin. Mazkur rasmlarni tahlil qilish asosida o'quvchilar ongida umumiy tushunchalar oson va tez shakllantiriladi. Masalan, yassi va to'lqinsimon tekisliklar, burmali, palaxsali va qoldiqli tog'lar, tropik o'rmonlar, Antarktida muz qoplami, cho'llar, tog'lar va h.k.

**Statistik ma'lumotlar bilan ishlash.** Statistik ma'lumotlar geografiya ta'limida ikki xil maqsadda ishlataladi:

- aniq geografik ma'lumot sifatida. Bularga materik va okeanlarning maydoni, quruqlikning eng baland va past nuqtasi, materiklarning chekka nuqtalari, davlatlarning maydoni, yirik dengiz, ko'llarning maydoni va chuqurligi, yirik daryolarning uzunligi va h.k. lar kiradi. Mazkur statistik ko'rsatgichlarni o'quvchilar yodlab olishlari lozim;

- geografik bilimlar manbai sifatida. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarida juda ko'p statistik ma'lumotlar jadval, diagramma va grafik sifatida berilgan. Ulardan o'quvchilar bilim olish maqsadida

foydalanishlari, mazkur ma'lumotlarni tahlil qilish asosida o'quvchilar turli xulosalar chiqarishlari mumkin.

Shuning uchun o'qituvchilar o'quvchilarni statistik ma'lumotlar bilan ishlashga o'rgatishlari va tegishli ko'nikmalarni hosil qilishga erishishlari lozim.

Geografiya ta'limida qo'llaniladigan statistik ma'lumotlarni shartli ravishda uch guruhga bo'lishimiz mumkin:

- ✓ yakka holdagi guruhlashdirilgan sonli ma'lumotlar;
- ✓ chizmalarda ifodalangan sonli ma'lumotlar (diagramma, grafik, kartogramma, kartodiagramma);
- ✓ jadvallarda ifodalangan sonli ma'lumotlar.

**Yakka xoldagi statistik ma'lumotlardan foydalanish.** Mazkur guruhdagi sonli ma'lumotlar guruhlashdirilmagan bo'ladi. Ularning har biri bilan ishlaganda fikrlash talab qilinadi ayrimlari bilan ishlaganda ularni esda saqlab qolish talab qilinadi. Sonlarni esda saqlab qolish va ular haqida fikr yuritishda ular butun son xoliga keltiriladi, ya'ni kasr son butun sonlarga aylantiriladi. Ayniqsa yodda saqlab qolinadigan sonlar albatta yaxlitlanishi lozim. O'quvchilar o'z jadvallarida yaxlitlangan sonlarni aytishlari lozim. Masalan, Afrikaning maydoni 30 mln. km<sup>2</sup> dan oshiq, O'zbekiston maydoni deyarli 0,5 mln km<sup>2</sup> va h.k.

Dars jarayonida ishlatiladigan har bir son izohlanishi lozim. Masalan, daryoning uzunligini so'rayotganda uni kema qancha vaqtida bosib o'tishini, davlatlarning maydonini tushuntirayotganda uni g'arbdan sharqqa tomon, shimaldan janubga tomon qancha masofaga cho'zilganligi va ushbu masofalarni po'ezdda yoki avtomobilida qancha vaqtida bosib o'tishini tushuntirilsa, o'quvchilarda maydon tushunchasi tez va oson shakllanadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar esa jon boshiga hisoblanadi. Masalan, jon boshiga bug'doy yetishtirish, jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlan chiqarish va h.k.

Statistik ma'lumotlar bilan ishlashning muhim usullaridan biri qiyoslash hisoblanadi. Bunda sonlarni yodlab qolish shart emas. Masalan, Turkmanistonning maydoni O'zbekistonning maydoni bilan deyarli bir xil yoki bo'limasa Balxash va Ladoga ko'llarining maydoni deyarli bir xil va h.k.

Bundan tashqari o'quvchilarga sonlarni qiyoslash bo'yicha topshiriqlar ham berish mumkin. Masalan, O'zbekiston aholisi Osiyodagi qaysi davlatlar aholisidan ko'p yoki O'zbekistonning maydoni Osiyodagi qaysi davlatlar maydoni bilan deyarli bir xil.

**Geografiya darslarda diagramma va grafiklardan foydalanish.** Geografiya ta'limida diagramma va grafiklardan keng foydalaniladi. Diagramma va grafiklar orqali bir geografik obyektni boshqasiga nisbatan katta yoki kichkina ekanligi, bir tarmoqlarni iqtisodiy ko'rsatgichidan yuqori yoki pastligini ko'rsatish mumkin.

Diagramma va chizmalarini o'qish, o'rganish va tahlil qilish metodikasi umumi yususiyatlarga ega. Diagramma va chizmalar bilan ishlash texnologiyasi quyidagi qismlardan iborat:

- o'quvchilarga diagramma va chizmalarini ahamiyatini tushuntirish;
- diagramma va chizmalarini tuzishni o'rganish;
- geografik ko'rsatkichlarni diagramma va chizmalarda tasvirlash bo'yicha o'quvchilarga topshiriqlar berish. Masalan, 5-sinf o'quvchilar havo haroratini chizmasini, bulutsiz va bulutli kunlar diagrammasini tuzishlari mumkin;
- diagramma va chizmalarini o'qishga va tahlil qilishga o'rgatish. Avval diagramma va chizmada nima tasvirlanganligini tushuntiriladi. So'ngra diagramma va chizmada tasvirlangan sonlarni o'qishga va tahlil qilishga o'rgatiladi. Diagramma yoki chizmada ko'rsatilgan geografik ko'rsatkichlarni yillar bo'yicha o'zgarishini tahlil qilib ma'lum bir ko'rsatkichni o'sish yoki o'zgarish qonuniyatlarini aniqlanadi;
- diagramma va chizmalarini tahlili asosida xulosalar qilishni o'rgatish. Masalan, havo harorati chizmasini tahlil qilganda oylik va yillik o'rtacha harorat, eng yuqori va eng past harorat haqida xulosalar qilinadi, yoki bo'limasa ma'lum mamlakatlarda ishlab chiqilgan yalpi miqdorni taqqoslab yalpi mahsulot miqdori bo'yicha mamlakatlar jadvalini tuzish mumkin.

**Statistik jadvallar bilan ishlash texnologiyasi.** Jadvallar maktab geografiyasida, ayniqsa iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarida keng qo'llaniladi. Shu munosabat bilan maktab geografiya darsliklarida keltirilgan jadvallarni quyidagi yirik ikki guruhga bo'lishimiz mumkin: tabiiy geografiya kurslarida keltirilgan jadvallar; iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarida keltirilgan jadvallar.

Tabiiy geografiya kurslarida jadvallar ko'proq ilova shaklida beriladi. Masalan, 7-sinf geografiya darsligining ilova qismida quyidagi jadvallar berilgan: O'rta Osiyodagi eng baland cho'qqilar; O'rta Osiyodagi eng chuqur botiqlar; yirik daryolar; ko'llar; suv omborlari; qo'riqxonalar; yirik konlar.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarida jadvallar juda keng qo'llaniladi, shuning uchun ularda matnda va ilovada ham jadval berilgan.

Statistik jadvallar bilan ishlash quyidagi tartibda olib boriladi:

- jadvalni nomini o'qish;
- jadvaldagi ko'rsatkichlarni o'Ichov birliklarini tushuntirish;
- jadvallarni qatorlarini va ustunlarini nomlarini o'qish;
- qator va ustunlardagi raqamli ko'rsatgichlarni solishtirish;
- jadvalda berilgan ma'lumot haqida xulosa qilish.

Jadvallarni o'qishga o'rgatish quyidagi qismlardan iborat:

- o'qituvchi iqtisodiy-ijtimoiy geografiya kurslarida jadvallarning ahamiyatini tushuntiradi va jadvallarni tuzish haqida ma'lumotlar beradi;
- jadvalni o'Ichov birliklari haqida ma'lumot beradi. O'Ichov birliklarini natural va nisbiy ekanligi tushuntiriladi;
- shundan so'ng o'qituvchi jadvalni o'qish usullari bilan tanishtiradi. Qaysi hollarda ustundagi, qaysi hollarda qatordagi raqamlarni o'qish tushuntirib beriladi. Jadvalni qatordagi raqamlarini unda mamlakatlarning maydoni berilganda o'qiladi;
- o'quvchilarga jadvallar bilan ishlash bo'yicha mustaqil ishlar berish.

Bundan tashqari o'quvchilarda iqtisodiy hisoblar olib borish ko'nikmalarini ham shakllantirish lozim. Masalan, maydon birligiga to'g'ri keladigan aholi soni, jon boshiga mahsulot ishlab chiqarish, o'rtacha yillik harorat va h.k.

**Tayanch so'z va iboralar:** tushuncha, ijodiy faoliyat, mustaqil faoliyat, statistik ma'lumot, jadval, diagramma, grafik.

#### TALABALAR BILIMINI MUSTAHKAMLASH UCHUN

##### SAVOL VA TOPSHIRIQLAR:

1. Qanday tushunchalarni geografik tushunchalar taribiga kiritish mumkin?
2. Geografik tushunchalar qanday turlarga ajratiladi? Geografik tushunchalarni o'rtoqlaringiz bilan tahlil qiling va ularni guruhlarga ajruting.
3. O'quvchilarning qaysi faoliyatini mustaqil faoliyat deb ataymiz?
4. O'quvchilarni ijodiy faoliyatga qanday yo'llash mumkin? Fikringizni aniq misollar bilan tushuntiring.
5. O'quvchilarning mustaqil va ijodiy faoliyatiga VENN diagrammasi tuzing.
6. Qanday ma'lumotlarni statistik ma'lumotlar deyishimiz mumkin?
7. Geografiyanı o'qitishda statistik ma'lumotlar qanday ahamiyatga ega? O'quvchilarning mustaqil faoliyatini tashkil etishdachi?
8. Statistik ma'lumotlarning turlariga klaster tuzing.

## IX BOB. O'QITISH METODLARI TASNIFI, O'QITISH USULLARI

### 1. Geografiya ta'limi metodlari haqida tushuncha

Geografiya asoslarini puxta o'zlashtirish, o'quvchilarning bilim olish qobiliyatlarini rivojlantirish va ularni hayotga tayyorlash ma'lum darajada ta'lim metodlariga bog'liq. O'qitish metodlarining mazmuni, mohiyati va vazifasi haqida juda ko'p fikrlar mavjud.

Falsafa fanida «metod» tushunchasiga qo'yidagicha ta'rif beriladi; «Borliqni amaliy va nazariy o'rganish». Ushbu ta'rifni asosan ilmiy va o'quv tomonlari turlicha, shuning uchun ushbu ta'rifni to'g'ridan-to'g'ri o'quv jarayoniga qo'llab bo'lmaydi, chunki ularni maqsadlari va faoliyat shakllari turlicha. Ammo ularning umumiy tomonlari ham bor. Ularning eng umumiy tomoni fan ham, o'qitish ham bilish jarayoni hisoblanadi. Ilmiy bilishda obyekt bu – borliq, sub'ekt bu – tadqiqotchi (olim) hisoblanadi. O'qitish jarayonida obyekt bu – o'quv predmetining mazmuni, sub'ekt bu – o'quvchilar hisoblanadi. Ikkala sharoitda ham alohida o'rinni sub'ektning faoliyati egallaydi. Mana shu narsa o'qitish metodini falsafiy ta'rifini o'quv jarayoniga qo'llashga imkon beradi. Ta'lim jarayoni o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati hisoblanib, har ikkalasi o'z oldiga qo'ygan maqsadiga erishish uchun harakat qiladi.

O'qituvchining o'qitish maqsadlari qo'yidagilardan iborat:

- o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarni egallashini ta'minlash;
- o'quvchilarni ongini rivojlanishini ta'minlash;
- egallangan bilim va ko'nikmalar asosida o'quvchilarni shakllanishini ta'minlash, ya'ni, ularni tarbiyalash.

O'qitish (o'quvchi) metodi bitta maqsadga yo'naltirilgan, ya'ni bilim va ko'nikmalarni egallash. Demak, o'quvchilarning maqsadi – o'quvchilarning o'qitish metodining asosini tashkil qiladi. O'qituvchi o'quv jarayonini boshqaribgina qolmasdan balki mana shu jarayoning ichida bo'lmos'hish lozim, ya'ni o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarni egallashida bir paytning o'zida ham boshqaruvchi ham yordam beruvchi bo'lishi zarur. Bularning barchasi o'qitish metodlariga qo'yidagicha ta'rif berishga imkon beradi: «O'quv mazmunini o'zlashtirishga imkon beradigan o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatidir».

Metod doimo o'quv mazmuniga mos kelishi lozim. Maktab geografiyasida esa geografiya o'qitish metodlari so'zsiz geografiya fanining bilish metodlariga mos kelishi kerak. O'qituvchi va o'quvchining

faoliyatiga quyidagilar kiradi: kartografik ma'lumotlar va qo'llanmalar bilan ishlash usullari; kuzatish va tajriba o'tkazish; statistik ma'lumotlar bilan ishlash; turli xil chizmalar bilan ishlash; iqtisodiy hisob-kitoblar. Demak, o'qituvchi va o'quvchining faoliyati o'qitish metodini tashkil qilar ekan.

Ta'lim metodlari o'quvchilarga bilim berish, ko'nikma va malakalarni egallash bilangina cheklanib qolmaydi. Ta'lim metodlari deyilganda, o'quvchilarning ijodiy faoliyatlarini rivojlantiradigan, bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga o'rgatadigan, ularda ilmiy bilimga asoslangan to'g'ri ilmiy dunyoqarash va e'tiqodni tarbiyalaydigan usullar tushuniladi.

Metodlar o'qituvchining ish usullari bo'lish bilan birga o'quvchilarning qay tariqa fikrlashlarini belgilashga imkon beradigan yo'l hamdir.

Shu o'rinda "metod" va "usul" so'zlarini bir-biridan farqiga oydinlik kiritib ketamiz. "Metod" – usullar yig'indisidan iborat. "Usul" – metodlarning tarkibiy qismidir. Bir metod tarkibida bir necha xil usullar mavzud. O'z navbatida bir xil usul bir necvha xil metod tarkibida ishtirok etishi ham mumkin. Masalan, solishtirish usuli bir vaqtning o'zida ham og'zaki metod, ham kartografik qo'llanmalar bilan ishslash metodlari tarkibiga kiradi. Metod va usul o'rtasida o'zaro uzviy bog'lanish mavjud. Har bir metod ma'lum bir masalani o'rganishda hal qiluvchi bo'lsa, boshqa bir masalani o'rganishda yordamchi sifatida keladi.

### 1.1.O'qitish metodlarini sinflashtirish

O'qitish metodlari juda ko'p belgilari asosida sinflashtirilgan. Shuning uchun o'qitish metodlarini sinflashtirishni qator variantlari mavjud.

Dastlab o'qitish metodlarini sinflashtirish nemis olimi Oberlender tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur sinflashtirishdan XX asrning 30-yillarigacha foydalanildi.

Oberlender geografiya o'qitish metodlarni qo'yidagicha sinflashtirgan:

- *analitik metodlar*. Avval Yer bir butun obyekt sifatida o'rganiladi, so'ngra uning ayrim qismlari o'rganiladi. Masalan, «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasida avval Yerning umumiy xususiyatlari va qonunyatlari o'chib beriladi. So'ngra alohida materik va okeanlarning tabiiy geografik xususiyatlari o'rganiladi;

- *sintetik metodlar*. Avval alohida joylar o'rganiladi, so'ngra Yer bir butun o'rganiladi;

- *konstruktiv metodlar*. Bunda o'quvchi xarita chizish davomida yer yuzasi relyefi haqida bilimlarni egallaydi;

- *bog'lovchi metodlar*. Bunday metodlar bilan ishlanganda o'rganilayotgan hodisalar o'rtasidagi aloqa va bog'liqliklarni o'rganishga katta e'tibor beriladi; masalan, balandga chiqqan sari harorat va bosimni pasayishi va h.k.

- *guruhalashtiruvchi metodlar*. Bir xil geografik hodisalarini qiyoslashga asoslangan. Masalan, daryolarning to'yinishi, yog'inlarni taqsimlanishi, sanoatni ayrim tarmoqlarini joylanishi va h.k.

Keyinchalik ushbu metodlar boshqa olimlar tomonidan takomillashtira boshlanadi. D.D. Semenov, E.Yu. Petri, A.S. Sokolov, V.P. Budanov, S.P. Arjanov tomonidan qayta ishlab chiqildi. S.P. Arjanov geografiya o'qitish usullariini quyidagi guruhg'a bo'ladi: analitik, sintetik, kontsentrik, assotsiyalashtiruvchi, guruhalashtiruvchi, taqqoslash, tajriba, o'zaro aloqa, evristik, degmatik, sintetik-genetik, tajriba-evristik.

Sobiq Xalq komissariatining 1934 yil 15 may «Geografiyanı boshlang'ich va o'rta maktablarida o'qitish haqida» qaroridan so'ng mavjud o'qitish metodlari qattiq tanqid ostiga olinadi. Natijada «O'qitish metodi» degan tushunchani yangi mazmuni va mohiyati ishlab chiqildi. Keyinchalik V.G. Erdeli tomonidan geografiya o'qitish metodlarini ikki guruhg'a bo'lish tavsiya etiladi:

a) barcha fanlarda qo'llaniladigan metodlar;

b) faqat geografiya fanida qo'llaniladigan metodlar (masalan, xarita bilan ishslash metodlari).

A.A. Polovinkin 1938 yili «Tabiiy geografiya metodikasi» nomli darsligida quyidagi metodlarni ajratadi: og'zaki bayon, xarita, diapositiv, plastilin, darslik va globus bilan ishslash, ekskursiya va tajriba metodlari. V.P. Budanov 1939 yil «Tabiiy geografiyanı o'qitish metodikasi » nomli kitobida o'qitish metodikasiga quyidagicha ta'rif beradi: «O'quvchilarni yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishni o'qituvchi tomonidan boshqarilishi». V.P. Budanov quyidagi metodlarni ajratadi: jonli so'z, darslik bilan ishslash, globus va xarita bilan ishslash, ko'rgazmali, kuzatish va tajriba. XX asrning 50-yillaridan so'ng ushbu muammo N.N. Baranskiy, A.V. Darinskiy, V.A. Juchkevich, V.A. Korinskaya O. Mo'minovlar tomonidan rivojlantirildi.

Shuni ta'kidlab aytish joizki, har doim turli davrlarda o'qitish metodlarini sinflashtirish bitta yagona qoida asosida olib borildi, ya'ni bilish manbalariga asosan. Shuning uchun hozirgi davrda geografiya o'qitish metoddikasida metodlarni bilish manbalariga ko'ra sinflashtirish

keng tarqalgan. Suhbat, ma'ruza, xaritalar bilan ishlash, kuzatish, tajriba, darslik bilan ishlash, statistik ma'lumotlar bilan ishlash metodlari umumta'lim maktablarida u yoki bu shaklda keng qo'llanilamoqda. Oxirgi davrlarda o'qitish metodlarini ishlab chiqish kuchayib ketdi.

Geografiya o'qitish metodlarini bilish manbalariga ko'ra sinflashtirish tanqid ostiga oliga boshlandi, chunki ushbu metodlar asosan tashqi belgilarga qarab, o'quvchilarni o'quv faoliyatini hisobga olgan holda sinflashtirilgan.

Hozirgi vaqtida geografiya ta'limida o'qitish metodlarini qo'yidagicha sinflashtirish keng tarqalgan:

#### I.Bilim olishning asosiy manbalariga ko'ra

- 1.O'qitishning og'zaki usullari (hikoya, suhbat, tushuntirish, ma'ruza);
2. Kartografik qo'llanmalar bilan ishlash (globus, xarita, atlas, xarita-sxema, chiziqli xarita);
3. Ko'rgazmali qo'llanmalar bilan ishlash (mavzuga oid turli xil rasm, maket, gerbariy);
4. Kuzatish va tajriba metodlari;
5. Statistik ma'lumotlar bilan ishlash (jadval, diagramma, grafik);
6. Darslik va qo'shimcha adabiyotlar bilan ishlash;
7. Amaliy metodlar;
8. Zamonaviy axbarot texnologiyalaridan foydalanish;
9. Yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish;

#### II. Didaktik maqsadlariga ko'ra

1. Yangi bilimlarni o'rganish
2. Bilimlarni mustahkamlash
3. Bilim, malaka va ko'nikmalarni tekshirish metodlari

#### III.Xulosa chiqarish faoliyatiga ko'ra

1. Analitik
2. Sintetik
3. Induktiv
4. Deduktiv

#### IV. Fikrlash faoliyati va bilim olish faolligi xususiyati bo'yicha

1. Izohli ko'rgazmali metod
2. Reproduktiv yoki olingen bilimlarni qayta tiklash metodi
3. Muammoli bayon metodi
4. Muammoli ta'lim metodi
5. Qisman izlanuvchan metodi
6. Izlanuvchan metod

Ta'lim metodlari uning maqsad va mazmuniga bog'liq. Yuqoridagi ta'lim metodlari boshqa o'quv fanlarida ham qo'llaniladi. Ta'lim metodlarining geografiyaga xos tomonlari bir necha metod va usulning bir-biri bilan uyg'unlashib borishidir. Chunonchi, xarita bilan ishlash darslik matni bilan, o'qituvchining og'zaki bayoni xaritada ishlash bilan, xarita bilan ishlash rasmlar bilan qo'shib olib borilishi shular jumlasidandir. Yangi DTS va o'quv dasturi asosida ta'lim berish bir necha metdlardan birgalikda foydalanishni taqozo etadi. Ta'lim berish jarayonida bir necha metodlardan foydalanish orqali o'quvchilarning mustaqil ishlari ham takomillashtirilib boriladi, mantiqiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalari, mustaqil fikr yuritish ko'nikmalari rivojlantiriladi.

Yuqoridagilarni hisobga olgan holda O.A.Mo'minov o'quvchilarning bilim olish manbalari asos qilib olingen sinflashtirishdagi ta'lim metodlarini asosan quyidagi uch guruhga bo'ladi:

#### **1.Og'zaki metodlar.**

- a) o'qituvchining og'zaki bayoni (hikoya, suhbat, tushuntirish, ma'ruza, o'qib berish);
- b) darslik va boshqa adabiyot (ilmiy-ommabop, ma'lumotnomalar bilan ishlash;
- c) raqamli materiallar bilan ishlash.

#### **2.Ko'rsatmali metodlar.**

- a) Kartografik materiallar (xarita, xarita-sxema, chiziqli xarita)lar bilan ishlash;
- b) statistik material (grafik, diagramma, jadval)lar bilan ishlash;
- c) tasvirli vosita (rasm, sxema, profil, o'quv filmlari)lar, natural obyektlar bilan ishlash;
- d) kuzatish.

#### **3. Amaliy metodlar.**

- a) Tajribalar;
- b) joyda o'lichev ishlari (plan olish, tepalikni balandligini o'chash, daryoning eni, chuqurligi va oqimini o'chash);
- c) Ijtimoiy foydali mehnat<sup>6</sup>

#### **1.2.Geografiya darslarida o'qitish metodlarini tanlash**

Geografiya darslarida o'qitish metodlarini tanlash o'ta muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Agar tegishli metod noto'g'ri tanlangan bo'lsa o'qituvchi va o'quvchining birgalikdagi faoliyati samarasiz bo'lib

<sup>6</sup> Мўминов О. География таълими методикаси. Т.: Ўқитувчи 1986 й. 66-б.

qoladi. Shuning uchun o'qitish metodlarini tanlash ma'lum bir tamoillar asosida olib borilmog'i lozim. Ular quyidagilardan iborat.

Tanlangan metod o'tiladigan mavzuning mazmuniga mos bo'lishi lozim. Bu metodni samaradorligini birinchi va muhim sharti hisoblanadi. Ko'p xollarda bir xil mazmundagi dars o'tish uchun yagona bitta metodni qo'llash yaxshi samara bermaydi. Shuning uchun o'rganiladigan har bir mavzu uchun o'qituvchi va o'quvchilarning faoliyatiga mos keladigan metodlarni tanlash lozim. Bunda o'quvchilarni bilish imkoniyatlari, ular amalga oshiradigan faoliyatning murakkablik darajasi, vaqt omili va geografiya xonasida zarur bilim manbalarining bor yo'qligi metod turini aniqlab beradi. O'qitish metodini tanlaganda quyidagi tamoyillarga amal qilishi lozim:

I. O'qitish metodini tanlaganda o'quvchilarni bilish qobiliyatlarini hisobga olish tamoyili. Bunda o'qituvchi quyidagilarga e'tibor qaratishi lozim:

- o'quv mavzusining murakkabligiga;
- nazariy bilimlar hajmiga;
- sinf o'quvchilari darajasiga;
- o'quvchilarning mustaqil ishlarni bajara olish qobiliyatiga;

II. Geografiya bilimlarni xususiyatlarini hisobga olish tamoyili. Geografik bilimlar bilishning xususiyatiga qarab quyidagi turlarga bo'linadi:

- geografik voqeа va hodisalarни tashqi kurinishi haqidagi bilimlar. Mazkur bilimlar o'quvchilarda o'rganilayotgan voqealar haqida tasavvurlarni shakillantiradi. Masalan, tog'lar, o'rmonlar, cho'llar, ko'llar, daryolar va h.k.;

- geografiya voqeа va hodisalarни fazoda joylashishi haqidagi bilimlar tabiat zonalari, iqlim mintaqalari, davlatlar, shaharlar, ma'muriy birliklarini joylashuvi;

- geografiya voqeа va hodisalarни xossalari haqidagi bilimlar. Bunday bilimlarga tuproqning hosildorligi, namgarchilik, bug'lanish, , intensiv va ekstensiv xo'jalik, tog' jinslarining qattiqligi, suvning sho'rligi va harorati va h.k.

- geografik jarayonlar haqidagi bilimlar. Mazkur bilimlarga shamol, yog'inlar, suv erroziyasi, surilmalar, zilzilalar, ishlab chiqarish jarayonlari, migratsiya, urbanizatsiya, vulkan va boshqa jarayonlar kiradi;

- geografik borliq va hodisalarning tarkibi haqida bilimlar. Masalan, tog' jinslarining tarkibi, yog'inlarning tarkibi, yer resurslarniing tarkibi, aholining milliy tarkibi va h.k.

- geografik borliq va hodisalarining tuzilishi haqidagi bilimlar. Mazkur bilimlarga yerning qobig'i, yerning tuzilishi, atmosferaning tuzilishi, yerning ichki tuzilishi, qishloq xo'jaligining tuzilish, tuproqning tuzilishi, xalq xo'jaligining tuzilishi va h.k.

- geografik voqeа va hodisalar orasidagi aloqalar haqidagi bilimlar, masalan, sabab va oqibatlar, davriy, fazoviy, funktsional aloqalar.

Mazkur bilimlarning har biri alohida o'qitish usullarini qo'llashni taqazo etadi.

Geografiya ta'limida har bir mavzu uchun qo'llaniladigan metodlar quyidagi talabalarga javob berishi lozim:

- a) metod tarbiyaviy bo'lishi lozim, ya'ni o'quvchilarning rivojlanishga, qiziqishlariga ta'sir ko'rsatishi lozim;
- b) tanlangan metod ilmiy bo'lishi lozim, metod ilmiy jihatdan qanchalik asoslangan bo'lsa, shunchalik ravshan va aniq bo'ladi;
- v) metod ommabop bo'lishi lozim;
- g) metod samarali bo'lmog'i zarur, ya'ni o'quv materiallarini mustahkamlashga yo'naltirilgan bo'lishi zarur.

Quyida geografiya ta'limi metodlariga to'xtalib o'tamiz.

## 2. O'qitishning og'zaki metodlari

O'qituvchi geografiya darsida foydalilaniladiga metod va usullarning qay biridan foydalanishdan qat'iy nazar jonli so'zdan foydalanadi. Geografiya ta'limida og'zaki bayon metodlari bilim berishning asosiy metodlaridan biri hisoblanadi. Chunki o'qitish metodlarini barcha turlarini qo'llaganda mazkur metod u yoki bu shaklda albatta qo'llaniladi. O'qituvchining og'zaki bayoni ta'lim-tarbiyada muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'quvchilarga jonli so'z orqali chuqr bilim beradi, ularning geografiya fanining so'nggi yutuqlari va asosiy muammolari bilan tanishtiradi.

O'qituvchining og'zaki bayoni quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- ilmiy jihatdan to'g'ri bo'lishi va ilmiy asoslangan bo'lishi zarur;
- bilimlar mantiqan to'g'ri bo'lishi lozim;
- bilimlar o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi kerak;
- o'qituvchining og'zaki nutqi qiziqarli bo'lishi zarur;
- bayon me'yorida bo'lishi va uni o'quvchilar yozib olishga ulgurishi kerak;
- og'zaki bayon boshqa usullar bilan qo'shib olib borilishi lozim;

- og'zaki bayonda nutq yaxshi rivojlangan bo'lishi lozim.  
Geografiya ta'limida og'zaki bayon usullari to'g'i qo'llanilganda u o'quvchilarda quyidagi xususiyatlarni rivojlantiradi:

- ✓ o'qtuvchi fikrlarni kuzatib borish ko'nikmasini rivojlantiradi;
- ✓ geografik bilimlar va ular orasidagi aloqalarni yaxshi qabul qiladi;
- ✓ og'aki bayondagi asosiy fikrni o'zlashtirish ko'nikmasi shakllanadi. O'qituvchi tomonidan o'quv materialini aniq bir mantiqiy yo'nalishda ochib berilishi o'quvchilarda tafakkurni rivojlanishiga yordam beradi.

Og'zaki bayon metodini afzalliklaridan biri shundaki unda 15-20 minutda katta hajimdagi material beriladi va vaqtadan samarali foydalilanildi.

Ta'lim jarayonida og'zaki bayon metodi yordamida faqat o'quv materialining asosiy mazmunini ochib berishga harakat qilinadi, ammo sinf o'quvchilari kamroq ishlaydi, o'quvchilarni faollashtirishga kamroq e'tibor beriladi.

Og'zaki bayon metodi o'quvchilarni diqqat bilan tinglashni talab qiladi. Shuning uchun og'zaki bayon metodlari bilan dars o'tishda o'quvchilarda tinglash ko'nikmasini shakllantirish lozim. Bunda o'quvchilar berilayotgan materialni faqat qabul qilishi va fikrashi talab etiladi. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun o'qituvchi o'quvchilarni bilimini o'zlashtirishni boshqarishi lozim. Bu esa o'quvchilarga dars mavzusi va rejasini tushuntirish orqali amalga oshiriladi.

O'quvchilar geografik bog'liqliklarni yaxshi tushunishi uchun o'quvchi geografik borliq va hodisalar bayonining rejasini ishlab chiqishi lozim. Reja o'qituvchi tomonidan sinf taxtasiga yozib chiqiladi yoki og'zaki e'lon qilinadi. O'quvchilar mazkur rejani daftarlarga yozib olishadi. Bu esa o'quvchilarni bayon qilayotgan mavzu mazmunini yaxshi o'zlashtirishiga yordam beradi.

Reja bo'yicha o'quv materialini mazmuni bayon qilingandan so'ng o'qituvchi xulosa qiladi. Agar o'quvchilar darsni yaxshi o'zlashtirgan bo'lsa, o'zları mustaqil ravishda xulosa qilib gapirib berishlari mumkin. Bunda suhbat usulidan foydalilanildi.

O'quv materiali mazmunini o'quvchilar o'zlashtirishini osonlashtirish maqsadida o'quvchilar diqqatini eng muhim narsalarga qaratish lozim.

O'qitishning og'zaki bayon metodi yuqorida aytib o'tilgan qator yutuqlari bilan birga ayrim kamchiliklari ham mavjud. Masalan; og'zaki bayon metodlari yordamida xaritalar bilan ishslash, darslik bilan ishslash ko'nikmalarini shakllantirib bo'lmaydi. Ayrim vaqtarda og'zaki bayon

metodlari o'qitishning asosiy metodiga aylanib qolishi mumkin, bunda o'quvchilarda mustaqil ishlarni bajarish ko'nikmalari shakllanmaydi yoki mazkur ishlarga kam e'tibor beriladi.

O'quvchilarda eshitish ko'nikmasi asta-sekin shakillanadi. Shuning uchun turli sinflarda og'zaki bayon davomiyligi turlicha bo'ladi. Quyi sinflarda og'zaki bayon 5-10 minut, yuqori sinflarda esa darsni to'liq egallashi mumkin.

O'qitishning og'zaki metodlari quyidagi usullarga bo'linadi:

- 1.Tushuntirish
- 2.Hikoya
- 3.Suhbat
- 4.Ma'ruza
- 5.O'qib berish.

## 2.1. Tushuntirish usuli

Geografik qonuniyatlar, qonunlar va bog'liqliklar hamda tabiiy va iqtisodiy geografik jarayonlar tushuntirish metodi orqali o'rganiladi.

Quyi sinflarda tushintirish usuli quyidagi mavzularni o'rganishda qo'llaniladi: plan va xarita, Yerning yillik harakati, Yerning ichki tuzilishi, tog' jinslari, relyef va uning turlari, vulkanlar, okean suvlarning sho'rлиgi va harorati, quruqlik suvlari, atmosferaning tuzilishi, mussonlar, siklonlar va passatlarning, past bosim va yuqori bosim oblastlarning hosil bo'lishi va x.k

Yuqori sinflarda esa tushintirish usuli xalq xo'jaligining asosiy tarmoqlarni tuzilishi va ularni rivojlantirish qonuniyatlarini, mehnatni geografik taqsimotini, iqtisodiy rayonlarni vujudga kelishini, transport tizimini va xalqaro iqtisodiy aloqalarni asosiy turlarini va boshqa mavzularni o'rganishda qo'llaniladi.

Tushuntirish usuli isbotlash shaklida olib boriladi. Tushuntirish jarayonida o'qituvchi hodisalar orasidagi bog'liqliklarni ochib beradi va o'quvchilarni asosiy tabiiy geografik va iqtisodiy geografik qonuniyatlar bilan tanishtiradi. Masalan, ma'lum bir joyda tutashayotgan issiqlikni Quyosh nurlarni tushish burchagiga bog'liqligini, harorat va bosimni balandlik ortgan sari kamayib borishini va h.k.

Tushuntirish o'quvchilarni bilish qobiliyatlarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Tushuntirish davomida o'qituvchi o'quvchilar diqqatini oshirish maqsadida ular oldiga savollar qo'yadi va o'z fikrini ifoda qilishni

taklif etadi. Masalan, passatlar Afrika iqlimiga qanday ta'sir ko'rsatadi; havo Yer yuzasidan ko'tarilganda nima sodir bo'ladi va h.k.

Tusuntirish usuli geografik bilimlarni izchil o'rganish imkoniyatini beradi. Maktab tabiiy geografiya kurslarida Yerning shakli va kattaligi, Yerning sutkalik va yillik harakati, daraja to'ri, tog'larning paydo bo'lishi, shamollar (briz, musson, passat va h.k.)ning vujudga kelishi va h.k.larni o'rganishda tushuntirish usulidan foydalanadi.

Iqtisodiy geografiya kurslarida quyidagi mavzular tushintirish usuli yordamida olib borilishi mumkin: xo'jalikni tarkibiy qismlari, sa'noat va qishloq xo'jaligining tarkibiy qismlari va tuzilishi. Tushintirish ma'lum bir tartibda, ayrim qismlarga bo'lingan holda olib borilishi lozim. Masalan, biror hududni qishloq xo'jaligini tushintirishda mavzuni quyidagi qismlarga bo'lib o'tish mumkin:

- 1.Qishloq xo'jalikni tabiiy sharoit bilan chambarchas bog'langanligi
- 2.Qishloq xo'jaligini rivojlanishining umumiyl xususiyatlari
- 3.Qishloq xo'jalik tarmoqlari
- 4.Qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi, asosiy dehqonchilik va chorvachilik rivojlangan joylar.

Tushintirish davomida o'qituvchi xaritadan, sind taxtasidan va turli xil ko'rgazmali qurollar bilan ishslash usullaridan foydalanishi lozim. U sodda, aniq, ravon bo'lishi kerak.

## 2.2. Hikoya va suhbat usullari

**Hikoya usuli.** Hikoya usuli deb geografik borliq, voqeа va hodisalarni jonli tasvirlashga aytildi. Bunda o'qituvchining jonli so'zi muhim o'rн tutadi. Agar o'qituvchi aniq ma'lumotlarni to'plab, bu ma'lumotlarni va geografik voqeа va hodisalarni, borliqni, geografik kashfiyotlarni, o'ziga xos landshaftlarni, turli xil davlatlardagi aholining hayoti va faoliyatini ustalik bilan o'z o'mida so'zlab bersa va o'quvchilar ongida jonli tasavvurlarni shakllantirsa, shuningdek hikoya jonli, badiiy va hayajonli bo'lsa o'quvchilar maroq bilan tinglaydi hamda ushbu hikoya o'zining ijobjiy samarasini beradi.

Hikoya usuli quyidagi talablarga javob berishi zarur:

- hikoya qilinishi lozim bo'lgan geografik borliq, voqeа va hodisalar oldindan tanlab olinishi lozim;
- hikoya o'quvchilar ongida o'rganilayotgan geografik borliq, voqeа va hodisalar haqida aniq tasavvur hosil qilishi lozim;

- hikoya ishonchli bo'lishi lozim, asosiy ma'lumotlar ikkinchi darajali ma'lumotlardan ajralib turishi zarur;

- hikoya davomida turli xil ko'rgazmali qurollardan foydalanish kerak;

- quiy sinflarda ko'proq o'qituvchi o'zi ko'rgan geografik voqeа va hodisalar haqida hikoya qilib berishi kerak;

- hikoya hayot bilan bog'langan, oson tushunadigan va qiziqarli bo'lishi kerak;

-hikoya geografiya fanining eng so'ngi yutuqlaridan foydalangan xolda bayon qilinishi lozim;

- hikoya g'oyaviy siyosiy jihatdan to'g'ri yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Unda kundalik matbuotda e'lon qilingan ma'lumotlardan foydalanmoq zarur.

Hikoyaning samaradorligi ko'p xollarda o'quv materialini tanlashga, dalillar va umumlashmalarni to'g'ri nisbatiga bog'liq.

Hikoya davomida o'qituvchi turli xil ma'lumotlarni bayon qilish davomida asosiy va eng muhim narsalarni, ya'niy geografik tushunchalarini shakillantirishni esdan chiqarmasligi kerak. Beriladigan ma'lumotlar qancha ko'p va qiziqarli bo'lmashin, agar ular bir tizimga solinmagan bo'lsa, ular orasidagi aloqalar va bog'liqliklar ochilmasa va tegishli xulosalar qilinmasa hikoya ko'zda tutilgan samarani bermaydi. Dalillar xulosa va umumlashmalarni mustahkamlashi, aniqlashtirish hamda o'quvchilarni o'zlashtirishini osonlashtirish lozim.

O'quvchilar ongida geografik voqeа va hodisalar haqida ongli tasavvur hosil qilish uchun o'qituvchi hikoya davomida ekskursiya va sayohatlar davrida olgan shaxsiy ma'lumotlaridan ham foydalanishi mumkin.

Hikoya yaxshi chiqishi va samarali bo'lishi uchun bayon davomida xarita, gerbariy, maket, diagramma va boshqa materiallardan foydalanish zarur. Ko'rgazmali qurollar o'qituvchi hikoya yordamida shakillantiriladigan tasavvurlarni to'ldiradi va aniqlashtiradi. Hikoya davomida geografik borliq, voqeа va hodisalar tasvirlangan rasmlardan ham foydalaniladi.

Hikoya usuli alohida mamlakatlar va o'lkalar geografiyasini o'rganishda katta foyda beradi.

Hikoyadan darsning turli bosqichlarida foydalaniladi. Hikoya qo'shimcha bilimlarni habar qilish vositasi ham bo'lishi mumkin. Ba'zida hikoya dars jarayonida mustaqil o'rн ham egallashi, uning turli bosqichlarida tushintirish metodini qo'llash mumkin. Ayrim hollarda o'qituvchi qisqa hikoyadan so'ng tushuntirishga o'tishi mumkin. Masalan,

zilzila jarayonini hikoya qilib keyin uni sababini tushuntiradi. V-VII sinfarda mavzular ko'proq tasviriy tarzda hikoya qilib beriladi. Masalan, yirik sharsharalardan Niagara va Viktoriya yoki Kongo havzasidagi nam ekvatorial o'rmonlarni yoki baland tog' o'liasi Tibet manzarasini tasvirlab berish mumkin. VI-VII sinflarda geografik borliq va hodisalarni tasvirlash, tushuntirish, sharxlash ilmiy dalillar bilan qo'shib olib boriladi, V-VI sinflarda 3-10 minut, VI-VII sinflarda 10-15 minut, VIII-IX sinflarda 15-20 minut bo'lishi lozim.

**Suhbat usuli.** Suhbat usuli—o'qitishning savol-javob shaklidir. Bu metodda o'qituvchining savoli va o'quvchining javobi asosiy o'r'in tutadi. O'qituvchi suhbat davomida o'quvchilar fikrini o'rganiladigan geografik borliq va hodisalarni asosiy belgilariga yo'naltiradi va ularni bilish faoliyatini boshqarib boradi. O'qituvchi darsda o'tiladigan mavzuni e'lon qiladi, zarur savollarni o'rtaga tashlaydi, suhbatni mantiqiy qismlarga bo'ladi, o'quvchilar javobini tinglaydi, javobdagi xatolarni tuzatadi va to'ldiradi.

O'qituvchi suhbat davomida xarita va boshqa ko'rgazmali qurollardan hamda o'quvchilarni avval egallagan bilimlaridan foydalanadi.

Mazkur usulda o'quvchilar bilimlarini boshqa metodlarga nisbatan yaxshiroq o'zlashtira olishadi. Ushbu metodning afzal tomonlari shundaki, dars davomida o'quvchilarni bilimlari tekshirib boriladi. Shuning uchun suhbatni geografiya ta'limidagi yetakchi metodlardan biri deyish mumkin. Lekin hamma darslarda ham ushbu metodni qo'llab bo'lmaydi. Masalan, Quyosh tizimida sayyoralar, Yerning Quyosh atrofidagi harakati, Beruniyning geografiya faniga qo'shgan hissasi kabi mavzularni suhbat usuli yordamida tushuntirib bo'lmaydi. Suhbat usulini umumiyl bilimlarni berib bo'lgandan so'ng, ayrim materiklar geografiyasini o'rganayotganda qo'llash mumkin. Masalan, Afrikaning iqlimi, Osiyoning relyefi, Janubiy Amerika daryolari va h.k., ya'ni, o'quvchilar zarur bilimlarni egallab bo'lgandagina ushbu metodni qo'llash mumkin. Ushbu usul ikki turga bo'linadi: katexezik (savol-javob); evristik (keng ko'lamdag'i) suhbat.

**Katexezik suhbat.** Katexezik suhbatda o'qituvchining savoliga o'quvchilar qisqa va aniq javob beradi. Savol-javob orqali geografik ma'lumotlar va hodisalarning joylanishi haqidagi bilimlar aniqlanadi. Masalan, Afrika bilan Yevropaning chegarasi qayerdan o'tadi, qaysi kanal Shimoliy va Janubiy Amerika qit'alarini ajratib turadi, faqat bitta yarim sharda joylashgan materik qaysi, maktabga  $180^{\circ}$  azimut bilan borsangiz, uyga qaysi azimutda qaytib kelasiz va h.k.

Katexezik suhbat eng oddiy suhbat turi bo'lib hisoblanadi. Bunda o'qituvchining qisqa va aniq savollariga o'quvchi qisqa va aniq javob berishi shart. Katexezik suhbatda o'qituvchining savollari mantiqiy jihatdan bir-biri bilan bog'langan bo'lishi mumkin va ular o'quvchini qaysidir muammoni yechishga undamaydi. Masalan, Volga daryosi qaysi ko'lga (dengizga) quyiladi, Marianna cho'kmasi qaysi okeanda joylashgan, O'zbekistonning eng past nuqtasi qaerda joylashgan va h.k. Mazkur suhbat o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarini tekshirish, o'quv materialini mustahkamlash va qisman takrorlash uchun qo'llaniladi.

**Evristik suhbat.** Evristik suhbat usulida o'qituvchi o'quvchilar oldiga ma'lum bir muammoli masalani qo'yadi. So'ngra o'qituvchi yordamchi savollar va ayrim ma'lumotlarni eslatish yo'li bilan o'quvchilarni ilgari olgan bilimlariga tayanib muammoni mustaqil hal etishga undaydi. Bu yerda o'qituvchi o'quvchilarni bilish faolligi ustidan nazorat qiladi, savollar shunday qo'yilishi kerakki, berilgan javob asosiy fikrni isbotlashi va shu fikrni davom ettirishi zarur. Masalan, Markaziy va Sharqiy Osiyoda havo haroratining yillik farqi qanday?, Markaziy va Sharqiy Osiyo yillik harorati favrqining sababi nima?, Iqlim diagrammasiga qarab Sharqiy Osiyoda yil davomida yog'inning taqsimlanishini aniqlang? Yog'in nima uchun ko'p yog'adi? Mazkur savollarga o'quvchilar javob bergenlaridan so'ng Markaziy va Sharqiy Osiyo iqlimlarining turi aniqlanadi. Markaziy Osiyo iqlimi quruq va o'zgaruvchan, Sharqiy Osiyoniki esa nam.

Evristik suhbat katexezik suhbatga nisbatan murakkabroq. Evristik suhbat o'tkazganda o'quvchilarga keng ma'noda gapirishga imkon beriladi, bunda ular hayotiy tajribaga qiyoslashga va fikrlashga asoslanishadi.

Evristik suhbat asosan yangi o'quv materialini o'tishda va umumlashtiruvchi takrorlashda qo'llaniladi.

Tabiiy geografiyaning boshlang'ich kursida evristik suhbat barcha mavzularni o'rganishda qo'llanishi mumkin. Materiklar va okeanlar geografiyasida va jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasida evristik suhbat quyidagi mavzularni o'rganishda qo'llanishi mumkin: materikni yoki mamlakatni geografik joylashishini aniqlashda; turli o'lklar va mamlakatlar tabiiy sharoitining asosiy xususiyatlarini o'rganishda.

Har qanday suhbatning samarasи o'qituvchining savoliga bog'liq. Shuning uchun darsga tayyogarlik davomida o'qituvchi beriladigan savollarni o'ylab ko'rishi lozim.

Birinchi navbatda bir-biri bilan mantiqan bog'langan va bir-birini to'ldiradigan, o'quvchilar bilimiga tayanadigan va o'quvchilarni xulosalar

chiqarishga undaydigan savollar tuzish lozim. Didaktik maqsadlarga ko'ra suhbat 3 turga bo'linadi: kirish, yangi bilimlarni o'rganish; umumlashtiruvchi yoki yakuniy suhbat.

- kirish suhbat: maqsadi yangi bilimni puxtarot o'zlashtirish uchun zarur bo'lgan (ilgari o'zlashtirilgan) bilim va ko'nikmalarini o'quvchilar xotirasida qayta tiklashdan iborat. O'quvchilar geografik borliq va hodisalar o'rtasidagi aloqalarni mustaqil aniqlashdan iborat bo'lgan vazifalarni bajaradi. Suhbat usulida xarita va boshqa qo'llanmalar vositasida yangi bilimlar eski bilimlar bilan bog'lanadi. Masalan, Afrika iqlimi o'tishda V-sinfda va yil boshida o'zlashtirishgan iqlim tushunchasi esga solinib, iqlimga ta'sir etuvchi omillar aniqlanadi;

- yangi o'quv materiallarini o'rganish suhbat. Bunda yangi mavzu o'quvchilarni ilgari olgan bilimlari tayangan holda o'rganiladi. Mazkur suhbatning eng asosiy qismlari o'quvchilar tomonidan qaytarilishi lozim. Masalan, O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'rganayotganda tabiiy geografik rayonlarni ajratish tamoillariga e'tibor beriladi. Bayon qilingan metodlar o'qituvchi tomonidan xulosalanishi va mazkur materialni o'zlashtirilganligini tekshirib ko'rish lozim. Shundan so'ng o'quvchilarni mustaqil ishlarni tashkil qilish lozim;

- yakunlovchi suhbat. Ma'zkur suhbat takrorlash va bilimlarni muayyan bir tartibga solish, shuningdek o'rganilgan bilimlarni umumlashtirish va chuqurlashtirish hamda kengaytirishda tatbiq etiladi. Bunda o'quvchilar xulosalar chiqrishga o'rgatiladi. Bu suhbat yirik mavzular o'tib bo'linganidan keyin qo'llaniladi.

Suhbat davomida beriladigan savollar quyidagi talablarga javob berishi kerak:

1. Savol va javoblar aniq va ravshan bo'lishi kerak.
2. Qo'shaloq savol bermasligi kerak. Masalan, Hisor tog'lari qanday relyef shakllari tarqalgan va ular qanday paydo bo'lgan? Jamolungma cho'qqisini kim qachon zabit etgan?
3. Savollarda keraksiz so'zlar bo'imasligi, javobi sezilib turadigan savollar ham bermasligi lozim. Masalan kuzatuvchi yuqoriga ko'tarilgan sari ufq chizig'i kengayadimi?
4. Murakkab yoki "Ha" yoki "Yo'q" javobini talab qiladigan savollar bo'imasligi lozim. Masalan, Volga daryosi Kasbiyga quyiladimi?
5. Savollar o'quvchini o'ylab ko'rishni, muhokama qilishni talab etadigan shaklda tuzilishi kerak.

Savollarning murakkablik darajasi sinflarga qarab ortib boradi.

V sinfda beriladigan savollar murakab javoblarni talab qilmaydi. Masalan, daryo qaerdan boshlanadi?, Daryo qaerga quyiladi? U qaysi yo'nalishda oqadi?

VI sinfda o'rganiladigan «Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyası» da savollar biroz murakkablashadi. Berilgaan savollar o'quvchilarning o'ylab ko'rishga va ma'lum bir aqliy faoliyatni amalga oshirishga majbur etiladi. Masalan, Anxil sharsharasini geografik joylashishini aniqlang.

VII sinfda savollar yanada murakkablashadi, bunda savolga javob berish uchun o'quvchilar katta aqliy faoliyatni amalga oshirishlari lozim. Masalan, O'zbekiston tabiiy xaritasida qanday proeksiyalar (andozalar) yordamida tuzilgan? O'zbekistonda Tyanshan tog' tizmasining qaysi qisimlari joylashgan?

Yuqori sinflarda o'rganiladigan iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarida o'quvchilarga keng va to'liq javobni talab qiladigan savollar beriladi. Masalan, jahon davlatlari qanday guruhlarga bo'linadi?, Yoqilg'i-energetika sanoati O'zbekistonni qaysi iqtisodiy rayonlarida yaxshi rivojlangan?

Geografiya ta'limida suhbat usuli ko'p hollarda xarita va ko'rgazmali qurollar bilan ishslash metodlari bilan birga qo'llaniladi. Ayrim xollarda suhbat usuli hikoya va tushuntirish elementlarini ham o'z ichiga oladi. Shunday qilib suhbat usuli geografiya ta'limida asosiy metod sifatida ham, yoki alohida usul sifatida ham qo'llaniladi.

### 2.3. O'qib berish va ma'ruza usullari

**O'qib berish.** Dars jarayonida o'qituvchi tomonidan o'qib berish usuli ham keng qo'llaniladi. O'qituvchi o'qib berish uchun mavzuga oid turli maqolalar, darslikning ayrim qismlari, gazeta va jurnallardagi maqolalar, badiiy adabiyotlardagi geografiyaga oid bayonlar, olim va sayyoohlarning esdaliklaridan foydalanadi.

O'qib berish usuli o'zining bir necha xususiyatlari ko'ra og'zaki metodning boshqa usullaridan farq qiladi. O'qib berish usulidan quyidagi hollarda keng foydalaniladi:

- 1.O'qitish metodining tez-tez o'zgartirib turish lozim bo'lganda;
2. Darsni va ta'lim-tarbiya jarayonini faollashtirishda;
- 3.Darsda o'tiladigan mavzuni o'qituvchi o'z so'zları bilan aytib berolmaydigan darajada bo'lsa;

4. Geografik borliq, voqeа va hodisalar badiiy adabiyotlarda yoki esdaliklarda juda yaxshi bayon qilingan bo'lsa. Masalan, jala yog'ishi, suv toshqini, ekvatorial o'rmonlar, cho'llar, tog'lar tabiatи va h.k.

Geografiya darslarida quyidagilarni o'qib berish mumkin:

- mavzuga oid badiiy matinlar (Navoiy, Bobur, Cho'lpon, Fitrat, Oybek, A. Qaxxon va boshqalar);

- mavzuga oid ilmiy-ommabop kitob va maqolalarni qiziqarli joylari;
- dars mavzusiga oid gazeta va jurnallarda chiqqan maqolalar.

**Ma'ruza usuli.** Ma'ruza usuli asosan yuqori sinflarda qo'llaniladi. Yuqori sinflarda iqtisodiy geografiya kurslari o'tilganligi munosabati bilan ma'ruza usulidan asosan iqtisodiy geografik bilimlarni berishda foydalaniladi. Ma'ruza uzoq muddatgacha tinglashni talab etadi. Shuning uchun uyuqori sinflarda qo'llaniladi.

Ma'ruza kasvirlash va tushuntirish elementlarini qamrab oladi. Ma'ruzada birinchi o'ringa geografik dalillarni tahlili, ularni umumlashtirish, iqtisodiy geografik qonunlarni chuqurroq olib berish asosiy o'rinni egallaydi.

Ma'ruza bu o'qituvchi darsining bayon qilishni ancha murakkab shakli bo'lib hisoblanadi. Ma'ruza uzoq vaqtga mo'ljallanga bo'ladi va uni asosiy qismlarini o'quvchilar yozib olishlari ta'lab etiladi. Ma'ruza usuli o'quvchilarda eshitish ko'nikmalarini shakillantirishga imkon beradi. Bu esa kundalik hayotda va oliy o'quv yurtlarida zarur bo'ladi. Shuningdek, yuqori sinflarda ma'ruza usulini keng qo'llanilishi o'quvchilarning mustaqil ishlarni bajarishi uchun vaqtini tejashta imkon beradi. Ammo ko'p hollarda umumta'lim maktablarida ma'ruza usuli kam hollarda qo'llaniladi.

Ma'ruza usulini ko'proq kirish va yakuniy mavzularni va mavzular guruhini o'tishda qo'llash yaxshi samara beradi. Masalan, jahon siyosiy xaritasi, jahon tabiiy resurslari, jahon xo'jaligi, materiklar yoki qit'alar hamda regionlar siyosiy xaritasi va xo'jaligi va h.k.

Ma'ruzada o'qituvchi o'quvchilarni qiziqishini oshirish va ularning o'zlashtirishni osonlashtirish uchun quyidagilarga amal qilish lozim:

- ma'ruzani rejasini e'lon qilish yoki sinf taxtasiga yozib qo'yish;
- ma'ruza davomida turli xil mavzuga oid ko'rgazmali vositalardan foydalanish (xaritalar, jadvallar, chizmalar, rasmlar);
- ma'ruzani eng muhim joylarini baland ovozda, alohida urg'u berib o'qish;
- o'quvchilarni ma'ruzani yozib olishga o'rgatish;

- ma'ruzani o'qish davomida faqat ko'rgazma vositalardangina emas, balki sinf taxtasidan ham turli xil xomaki xaritalar va chizmalar chizishda keng foydalanish;

- ma'ruza davomida uchraydigan barcha geografik atamalar sinf taxtasiga yozilishi lozim. Bunday sharoitda o'quvchilar geografik nomlarni yozishda va talaffuz qilishda xatoga yo'l qo'yishmaydi;

- o'quvchilarni faolligini oshirish maqsadida o'qituvchi vaqtiga bilan sinfga savol bilan murojat qilishi va ma'lum bir vaqt dan so'ng unga o'zi javob berishi darkor;

- ma'ruzani so'ngida o'qituvchi o'quvchilarning savollariga javob beradi.

Mazkur talabalardan tashqari ma'ruza mazmunan bir butun bo'limni qamrab olgan, masalalar tugal, ilmiy jihatdan mukammal va ko'rgazmali bo'lishi lozim.

Ma'ruza yuqori sinflarda bir darsda 30-35 minutga mo'jallanadi. Ma'ruza boshqa metodlar bilan birga olib boriladi. Mazkur darslarda mustaqil ishlarga vaqt qolmaydi, o'quvchilar asosan nazariy bilimlar olishadi va keyingi darslarda olib boriladigan mustaqil ishlarni uchun zamin yaratiladi. Savollar ma'ruzani oxirida berilgani maql.

### 3. Muammoli o'qitish metodlari

Muammoli o'qitish metodlari ilg'or o'qitish metodlaridan hisoblanadi, chunki u o'quvchilarni o'yashga izlanishga majbur qiladi, natijada ularning bilimlari chuqurlashadi va turli muammolarni qo'yish va yechish ko'nikmalari shakillanadi.

Muammoli o'qitish metodi deb, o'quvchilarni o'qituvchi tomonidan ular uchun yangi bo'lgan geografik muammolarni yechishga jalb etishga aytildi.

Muammoli metodlar muammoli bayon, qisman izlanuvchan va izlanuvchan metodlar hamda o'zlashtirish darajalari bilan tanishgandan so'ng zamona viy o'qitish tizimining tarkibiy qismlaridan bo'lgan muammoli o'qitish metodiga o'tishi mumkin.

Muammoli o'qitishning asosiy shartlaridan biri muammoli vaziyatni tashkil qilish hisoblanadi. Muammoli vaziyat deganda yechilishi o'quvchilar uchun qiyin tuyilgan va uni yechish uchun yangi izlanish va yondashishlarni talab qiladigan muammoga aytildi. Muammoli vaziyatni vujudga kelishi o'quvchilar uchun qiyin tushuniladigan holat bilan bog'liq bo'ladi. Agar mazkur vaziyatni tahlili davomida o'quvchilar uning

mohiyatini tushunib yetishga va uni yechish yo'llarini topmasa muammoli vaziyat muammoga aylanadi, agar vujudga kelgan muammoli vaziyatini yechishga o'quvchilarning bilim va ko'nikmalari yetishmasa unda muammoli vaziyat yechilmaydi va muammoli dars emas muammoli bayon shaklida o'qituvchini o'zi yechib beradi.

Hozirgi davrda o'quvchilarни mustaqil ishlariga katta e'tibor berilmoqda ammo shunga qaramasdan muammoli o'qitishga ancha sust darajada e'tibor berilmoqda.

O'qitish jarayonida ijodiy metodlarni va muammoli o'qitishni qo'llash geografiya o'qituvchilarining asosiy metodi bo'lib qolishi lozim.

### **3.1. Geografiya fanidagi muammolar va ulardan ta'lif jarayonida foydalanish**

Geografiya fani tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy qismlardan iborat bo'lganligi uchun unda tabiat va jamiyatdagi barcha muammolar mujassamlashgan. Mazkur muammolar tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlar hamda ularni o'zar o'sirish natijasida shakillanadi va rivojlanadi. Mazkur muammolardan ta'lif jarayonida foydalanishning eng muhim shartlaridan biri, ularni kelib chiqishiga ko'ra gruhlarga bo'lishdir. Ushbu muammolarni quyidagi guruhlarga bo'lish mumkin:

- tabiiy geografik muammolar;
- iqtisodiy-ijtimoiy geografik muammolar;
- geoekologik muammolar;
- ta'limiylar va tarbiyaviy muammolar.

Tabiiy geografik muammolar insoniyat tarixi davomida jamiyatga ta'sir etgan asosiy muammolardan biri bo'lib kelgan va bo'lib qolmoqda. Bunday muammolarga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

- a) Yer qobig'ining xususiyati bilan bog'liq bo'lgan muammolar (zilzila, vulqonlar, tiktonik harakatlar va h.k.);
- b) atmosfera va iqlim bilan bog'liq bo'lgan muammolar (kuchli shamollar, sellar, yashin tushishi, do'l, sovuq urishi, qurg'oqchilik va h.k.);
- c) Yer usti suvlari bilan bog'liq bo'lgan muammolar (suv toshqini, botqoqlanish, va h.k.);
- d) geografik muammolar, ya'ni tuproq, o'simlik va hayvanot dunyosi bilan bog'liq bo'lgan muammolar;
- e) Dunyo okeani bilan bog'liq bo'lgan muammolar (okean sathining ko'tarilishi, tayfun, tsunami) va h.k.

Yer qobig'ini xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan muammolarni (jarayonlarni) oldindan ayтиб bo'lmaydi, faqat ularni sodir bo'lishini oldindan bilib tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin. Masalan, zilzila yoki vulqon otilishining sodir bo'lishini oldindan aytishni, iloji bo'lsa mazkur hududlarda aholi olib chiqib ketiladi. Buni zilzila va vulqonlar sodir bo'lib turadigan hududlarda yashovchi o'quvchilarga tushuntirish katta amaliy va ilmiy hamda ta'limiylar ahamiyatga ega. Tektonik harakatlar natijasida Yer yuzasining ma'lum bir joylarini asta-sekin pasayishi va ko'tarilishini Nedirlandiya hududi misolida tushuntirish mumkin. Yer po'stini asta-sekin cho'kishi natijasida Nedirlandiya hududi dengiz sathidan pastda qolib ketmoqda. Natijada Nedirlandiya hududini suv bosish havfi tug'ilgan. Buni oldini olish uchun dengiz qirg'og'iga to'g'on qurilgan, uning balandligi har yili ko'tarilib turiladi.

Atmosfera va iqlim bilan bog'liq bo'lgan muammolar insoniyatni qadimdan qiziqitirib keladi. Hozirgi vaqtida ayrim atmosfera hodisalarini sodir bo'lishini oldindan ayтиб beriladi va shunga mos ravishda chora tadbirlar ishlab chiqiladi. Masalan, sel, sovuq urishi, qirg'oqchilik, bo'ronlar va h.k.

Yer usti suvlari bilan bog'liq bo'lgan muammolar ham hozirgi vaqtida oldindan aniqlanadi va tegishli chora tadbirlar ishlab chiqiladi. Bunday muammolarga (jarayonlarga) suv toshqinlari, botqoqlar hosil bo'lishi kiradi.

Biogeografik muammolarga tuproq erroziyasi, o'simlik va hayvonot dunyosining o'zgarishi yoki kamayib ketishi kiradi. Ular asosan tabiiy sharoitni keskin o'zgarishi natijasida sodir bo'ladi.

Dunyo okeani bilan bog'liq bo'lgan muammolar qirg'oq va orollarda joylashgan davlatlar uchun muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Yer shari iqlimini asta-sekin isishi natijasida materik va tog' muzliklari erib Dunyo okeani suv sathi ko'tarilmoqda, okeanlarda tayfunlar va sunami qirg'oqlarda va orollarda yashovchi xalqlarga katta zarar keltirmoqda. Masalan, 2005 yil qishda Indoniziyada sodir bo'lgan sunami natijasida minglab aholi va dam oluvchilar halok bo'lishdi, yoki 2011 yil Tinch okeanida bo'lb o'tgan sunami natijasida Yaponiya davlati jida katta iqtisodiy va ma'naviy zarar keltirgan.

Iqtisodiy geografik muammolar ham insonlarni asosiy muammolari qatoriga kiradi. Masalan, tabiiy resurslar va ulardan foydalanish; aholishunoslik va demografik muammolar; ishlab chiqarishni joylashtirish va rivojlantirish muammolari; transpart va xaoqaro iqtisodiy munosabatlar muammolari va h.k.

Geoeklogik muammolar tabiat va jamiyatning o‘zaro ta’siri natijasida vujudga keladi va ularni quyidagi guruhlarga bo‘lishimiz mumkin:

- tabiiy resurslardan oqilona foydalanish muammolari;
- tabiatni muhofaza qilish muammolari;
- tabiatni tiklash muammolari.

Tabiatdan va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish muammolari hozirgi davrda barcha fanlar oldida turgan umuminsoniy muammo bo‘lib hisoblanadi. Tabiatdan noto‘g‘ri foydalanish oqibatida katta maydonlarda tuproqlar sho‘rlanib ketgan, shamol va suv erroziysi oqibatida tuproqni sifati pasayib ketgan, yaylovlardan intensiv foydalanishi oqibatida ularni mahsuldarligi kamayib ketgan, o‘simglik resurslaridan noto‘g‘ri foydalanish oqibatida o‘rmonlar maydoni qisqarib ketgan, ovchilikni rivojlanishi bilan insoniyat tarixida ko‘p hayvonlar butunlay qirilib ketgan yoki butunlay yo‘qolish arafasida.

Shu munosabat bilan tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish maqsadida butun jahonda qo‘riqxonalar, milliy bog‘lar, beosfera qo‘riqxonalar, buyurtmaxonalar tashkil qilingan. Jahon va alohida Davlatlarning “Qizil kitob”lari nashr qilingan va qilinmoqda.

Hozirgi paytda inson tomonidan buzilgan tabiat komplekslarini tiklash bo‘yicha juda katta ishlardan amalga oshirilmoqda. Sanoat ishlab chiqarish natijasida hosil bo‘lgan texnogen landshaftlar bog‘larga, o‘rmonlarga, ekinzorlarga va dam olish maskanlariga aylantirilmoqda.

Geografiya ta’limining asosiy vazifalaridan biri muammoli dars texnologiyalarini ishlab chiqish jarayonida yuqoridaq muammolardan keng foydalanish va ularni o‘quvchilar ongiga chuqurroq singdirishdan iborat.

Muammoli ta’lim texnologiyasini ishlab chiqishda O‘zbekiston va O‘rtta Osiyodagi muammolardan foydalansa katta samara beradi. Masalan, Orol muammosi, Sibir daryolarini O‘rtta Osiyoga burish muammosi, chuchuk suv, qishloq xo‘jaligini keng rivojlanishi va tuproqlarni sho‘rlanishi muammosi va h.k.

### 3.2. Muammoli bayon metodi

O‘quvvchi tomonidan muammoni quyilishi va uni yechish yo‘llarini asoslashga muammoli bayon metodi deb ataladi. Mazkur metod yordamida o‘quvvchilar tabiiy geografik, iqtisodiy geografik va geoekologik muammolarni yechish yo‘llari va ularni asoslash usullari haqida ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi.

Mazkur metodni qo‘llanganda qo‘yidagilarga e’tibor beriladi:

- ✓ o‘quvvchi muammoni o‘rtaga tashlaydi va uni yechish namunasini ko‘rsatib beradi, ya’ni mazkur muammoni dars mavzusi bayoni davomida o‘zi yechib beradi;
- ✓ o‘quvvchilar o‘quvvchini mazkur muammoni yechish bosqichlarini nazorat qilib kuzatib turishadi va dars davomida geografik muammolarni yechish ko‘nikmalariga ega bo‘lishadi.

Ma’lum bir muammoni yechish davomida o‘quvvchi uni yechish yo‘llarini ko‘rsatib beradi, muammoni yechish davomida fikrlar qarama-qarshilagini vujudga kelishi, fikrlarni rivojlanish xususiyatlarga o‘quvvchilar fikrlarni jalb qiladi.

Muammo yechilishining bayoni davomida o‘quvvchi ilmiy bilish va ilmiy fikrlash na’munasini ko‘rsatadi. O‘quvvchilar esa muammoni yechilish bosqichlarini, uni ilmiy asoslanganlik darajasini, fikrlarni rivojlanishini kuzatib va nazorat qilib turishi.

Tabiiy geografiya darslarda quyidagi muamolarni o‘rtaga tashlab uni yechish na’munasini ko‘rsatishi mumkin:

- Orol va Orol atrofi muammosi, bundan o‘quvvchi Orol dengizini qurishi sabablarini va uni oqibatlarini hamda Orol muammosini yechish yo‘llarini ilmiy asoslab berishi lozim;

- atmosferani ifloslanishi va u bilan bog‘liq ravishda Yer yuzasida o‘rtacha haroratni mutazam ortib borishi va uning oqibatlarini ochib berishi lozim;

- o‘rmonlarni kesilishi va u bilan bog‘liq ravishda tabiiy sharoitni o‘zgarishini asoslab berishi lozim.

“O‘zbekiston relyefi” (7-sinf) mavzusini o‘tganda o‘quvvchi qo‘yidagi muammolarni o‘rtaga tashlab uni yechib berish na’munasini ko‘rsatish mumkin. “O‘zbekiston relyefi ichki va tashqi kuchlarning o‘zaro ta’siri hosilasidir”. Bunda ichki va tashqi kuchlarning o‘zaro ta’sirida qanday relyef shakillari hosil bo‘lishini va tashqi kuchlar ta’sirida ular qanday o‘zgarishi dars bayonida ochib beriladi. Yoki, “O‘zbekiston tabiat mintaqalari” mavzusini o‘tishda qo‘yidagi muammoni o‘rtaga tashlab uni yechish yo‘llarini ko‘rsatib berish mumkin. O‘zbekiston tabiiy sharoiti g‘arbdan sharqqa tomon mutloq balandlikni ortishi va iqlimni o‘zgarishi tufayli almashinadi. Bunda o‘quvvchilar e’tiborini balandlik ortgan sari iqlimni sovushi va natijada O‘zbekistonda cho‘l, adir, tog‘ va baland tog‘ mintaqalari vujudga kelganligi asoslab beriladi.

Iqtisodiy-ijtimoiy geografiya darslarida tabiiy resurslar, aholi geografiyasi ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, transporti va xalqaro

iqtisodiy aloqalar, iqtisodiy rayonlarning vujudga kelishi, mehnatni geografik taqsimoti mavzulari bo'yicha muammoli darslarni tashkil qilish va iqdissodiy ijtimoiy geografiya darslarida quyidagi muammolarni o'rganish mumkin:

"Har qanday davlaning qudrati uning rivojlanish darajasi va tabiiy boyliklariga bog'liq". Ushbu jumlani tushuntirib bering. Nima sababdan tabiiy resurslar bilan ta'minlangan bo'lmasada Yaponiya jahoning iqtisodiy jihatdan eng yaxshi rivojlangan davlatlar qatoriga kiradik? Davlat yuqori darajada rivojlangan bo'lsa va tabiiy boyliklari yetarli bo'lsa u davlatning qudrati yuqori bo'ladi masalan, Rossiya, Xitoy, AQSH, Buyuk Britaniya va h.k. Davlatlar yuqori darajada rivojlangan bo'lsa ammo tabiiy resurslari kam bo'lib aqliy (insoniy) resurslari yuqori darajada bo'lsa ham qudratli bo'lishi mumkin.

-ishlab chiqarish kuchlarini joylanishini tabiiy sharoit va tabiiy resurslar hamda ishchi kuchlariga bog'liqligi;

- aholi ko'chib yurishini iqtisodiy va siyosiy sharoitga bog'liq ekanligi;

-aholini ko'chib yurishini iqtisodiy va siyosiy sharoitga bog'liq ekanligi;

-aholini ko'payishi va urbanizatsiya darajasini davlatni rivojlantirish darajasiga bog'liq ekanligi;

-sanoatni rivojlanish darajasi ilmiy texnik inqilob natijalaridan foydalanish darajasiga bog'liq ekanligi;

-har qanday davlatni rivojlantirish uning xalqaro ixtisoslashgan sohasini rivojlantirishga bog'liqligi va h.k.

Geografiya darslarida deyarli har qanday mavzuni o'tishda geoekologik muammolarga duch kelinadi. Shuning uchun geografiya fani o'quvchilarga va keng xalq ommasiga ekologik ta'lim va tarbiya beradigan asosiy fanlardan biri hisoblanadi.

Geoekologiya bo'yicha muammolarni shakillantirib, ularni yechish namunasini ko'rsatish mumkin:

- Orol dengizi butunlay qurib qolsa Orol atrofida qanday geografik o'zgarishlar sodir bo'ladi. Mazkur muammolarni yechishda o'qituvchi avval uning tabiiy geografik oqibatlarini so'ngra iqtisodiy geografik oqibatlarini, natijada esa geoekologik oqibatlarini ochib berishi darkor. Shundan so'ng, Orol dengizini qurishini oldini olish chora-tadbirlarini asoslab berish lozim;

-"Sanoat korxonalarini noto'g'ri joylashtirish va uning geoekologik oqibatlari". Mazkur muammolarga misol qilib Tojikistondagi Alyuminiy

zavodini keltirish mumkin. Mazkur zavodni qurilishi va faoliyati oqibatida janubiy O'zbekistonda sodir bo'lgan noxush ekologik jarayonlarning sabablari ochib berilishi lozim;

-Sobiq ittifoq davrida O'zbekistonda paxta yakka xokimligini rivojlanishi va uning ekologik oqibatlarini o'qituvchi muammoli bayon sifatida ochib bermog'i lozim;

-iqlimi o'zgarishi va uni tabiiy sharoitga ta'siri ham muammoli bayon jarayonida ochib berilishi mumkin.

Muammoli bayon metodini reproduktiv (qisman izlanuvchan) va izlanuvchan usullari mavjud.

### 3.3. Reproduktiv va izlanuvchan usul

**Reproduktiv usul.** Ma'lum bir tanish sharoitda yoki ma'lum bir namuna asosida o'quvchilar egallagan bilimi va ko'nikmalarini yangi sharoitda qo'llashga o'rgatadigan usulga reproduktiv usul deb ataladi. Uning asosiy maqsadi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga va mustaqil ishlarni bajarishga o'rgatishdir.

Mazkur usulni qo'llaganda o'qituvchi bir qolipdagil savollarni ketma-ketlikda tuzishi va unga o'quvchilar javob berishlari lozim.

Reproduktiv usul bilan tabiiy geografiya va iqtisodiy geografiya kurslarida bajariladigan ma'lum bir hududni yoki ishlab chiqarish komplekslarini tavsifini tuzish vazifalari kiradi. Masalan, Farg'onaviyodisiiga quyidagi reja asosida tabiiy geografik tavsif berish mumkin:

- a) geografik joylanishi;
- b) geologik tuzilishi;
- c) relyefi;
- d) foydali qazilmalari;
- e) iqlimi;
- i) ichki suvlar;
- k) tuproqlari;
- l) o'simligi;
- m) hayvonot dunyosi;
- n) tabiiy geografik birliklari.

Iqtisodiy geografik tavsif tuzilishida ham qo'yidagi rejadan foydalanish mumkin:

- a) iqtisodiy geografik joylanishi;
- b) ma'lum birliklari yoki siyosiy xaritasi;
- v) tabiiy resurslari;

- g) aholisni va mehnat resurslari;
- d) xo'jaligining tarkibiy tuzilishi;
- e) sanoati;
- yo) qishloq xo'jaligi;
- j) transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari.

Bundan tashqari har bir tabiiy geografik yoki iqtisodiy geografik komponentlarni o'rganish bo'yicha ham bir reja asosidagi savollar tuzish mumkin. masalan, iqlimni o'rganishda quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

- a) iqlim hosil qiluvchi omillar;
- b) qish va yoz iqlimi;
- v) yog'inlar;
- g) shamollar;
- d) yil fasllari;
- y) iqlim mintaqalari.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografik tasvirni asosiy tarkibiy qisimlaridan bo'lgan tabiiy resurslarni o'rganishda quyidagi savollardan foydalanish mumkin:

- a) mineral resurslari;
- b) iqlim resurslari;
- v) suv resurslari;
- g) tuproq resurslari;
- d) biologik resurslari;
- e) rekratsiya resurslari.

Bu yerda tabiiy resurslarni alohida tarkibiy qismlarini o'rganish uchun bir qolipdagi savollar tuzish mumkin. Masalan, miniral resurslarini o'rganishda quyidagi savollar tuzish mumkin:

- a) yoqilg'i energetika resurslari;
- b) rudali foydali qazilmalar;
- v) nometall foydali qazilmalar; va h.k.

Ushbu usul bilan ishlaganda o'quvchilardan bilish va ko'nikmalarni ma'lum bir qolipda qo'llash talab etiladi.

Qisman izlanuvchan usulning asosiy maqsadi o'quvchilarda ijodiy ko'nikmalarni hosil qilishdir. O'quvchilarni ijodiy ishga qiziqtirish va o'rgatish muammoli yoki ijodiy vazifalarni ishlab chiqish va ularni dars jarayonida o'quvchilar tomonidan yechilishi orqali amalga oshiriladi. Mazkur vazifalarni yechish usullari o'quvchilarga oldindan ma'lum qilinmog'i lozim. Mazkur usulni qo'llaganda o'quvvachining faoliyati quyidagilardan iborat bo'ladi;

- o'quvvachini vazifani ishlab chiqadi va uni o'quvchilarga e'lon qiladi;
- so'ngra o'quvvachini vazifani alohida qismlarga bo'lib yuboradi yoki alohida savollar tuziladi;

O'quvchilar mazkur vazifani yechish davomida quyidagi faoliyatni amalga oshiradi:

- vazifani to'la va har tomonlama tushunishi lozim;
- birin- ketin ma'lum bir qismlarga bo'lgan vazifani yechishadi. Bunda ular qisman izlanuvchanlikni amalga oshiradi. Izlanuvchanlik ishlari o'quvvachini rahbarligida va uni boshqarishda amalga oshiriladi.

O'quvvach "Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyası" kursida Shimoliy Amerikaning tabiat zonalari mavzusida o'quvchilarga quyidagi savollarni berishi mumkin: "Qadimgi muzliklar Shimoliy Amerika tuproqlariga qanday ta'sir qilganini tushuntirib bering". O'quvchilar mazkur savollarga birdaniga javob bera olishmaydi. Shuning uchun o'quvvach o'quvchilarga yo'naltiruvchi va yordamchi savollarni berishi lozim. Masalan, yuqoridaq savolni ayrim qismlarga quyidagicha bo'lib chiqadi:

- muzlar Shimoliy Amerika materigida qanday ishlarni amalga oshirgan?;
- Shimoliy Amerika qaysi qismida tarqalgan tuproqlar yosh (shimoldami yoki janubdami)?;
- qanday tuproqning qalinligi katta bo'ladi, qadimgilari-mi yoki yoshrog'ni?;
- nima sababdan Kanada-Arktika to'plam orollaridagi tuproqlar yupqa va toshli?

Mazkur savollarga o'quvchilar javob berib bo'lishgandan so'ng o'quvvach dastlab bergen savolini qaytaradi "Qadimgi muzliklar Shimoliy Amerika tuproqlariga qanday ta'sir etgan" o'quvchilar endi mazkur savolga to'liq javob berishadi. Mazkur metodni qo'llaganda evristik suhbatdan foydalanish katta samara beradi.

**Izlanuvchan usul.** O'quvchilarni ijodiy faoliyatga o'rgatadigan usul izlanuvchan usul deb ataladi. Qisman izlanuvchan usul yordamida o'quvchilar o'quvvachini yordamida qisman ijodiy ish olib borish ko'nikmasiga ega bo'lishdi. Izlanuvchan usulda esa o'quvchilar mustaqil ravishda izlanish olib borishadi. Mazkur ishlarni umum ta'lim maktablarida asosan o'quv sayohatlarida hamda mustaqil ishlarni bajarish davomida bajariladi. Masalan, o'quv sayohatiga chiqilganda hududni o'simliklarini o'rganish, hududni xo'jaligini o'rganish va h.k. O'quvchilar izlanuvchan metod yordamida mustaqil ishlarni bajarish davomida quyidagi

**Geografik bilimlarni o'zlashtirish darajalari**  
(L.M.Pancheshevnikova)

| O'zlashtirish darajasi | O'zlashtirish darajasini ko'rsatgichlari  | O'qitish metodlari                           |
|------------------------|---|--|
| I-daraja               | O'quvchi tayyor ma'lumotlarni o'zlashtirada va aytib beradi                           | Tushuntirish - ko'rgazmali                   |
| II-daraja              | O'qituvchi tanish o'quv sharoitida o'z bilmi va ko'nikmasini namuna asosida qo'llaydi | Reproduktiv                                  |
| III-daraja             | O'quvchilar yangi o'quv sharoitida o'z bilim va ko'nikmalarini ijodiy qo'llashadi     | Qisman izlanuvchan va izlanuvchan (tadqiqot) |

Mazkur darajalar va ularga mos keluvchi metodlarni o'qitishni barcha bosqichlarida ajratish lozim: yangi mavzuni o'rganishda, takrorlashda, umumlashtirishda va bilimlarni mustahkamlashda.

O'qitish jarayonini har bir bosqichida unga mos keluvchi metodlar tanlansa o'qitish yaxshi samara beradi. Izlanuvchan usuldan foydalanish jarayonida o'quvchilarga quyidagicha savollar berish mumkin: 1. Toshkent-Moskva yo'nalishida eng qisqa magistral yo'lni tuzing. Uni amalga oshirish uchun hozirgi davrda qanday siyosiy va iqtisodiy omillar to'sqinlik qilmoqda. 2. Nima uchun qo'ng'ir ko'mirni uzoqqa olib borish samara bermaydi va IESlar ko'mir koniga yaqin quriladi? 3. Nima uchun oxirgi davrlarda metallurgiya zavodlari dengiz qirg'oqlariga yaqin qurilmoqda?

Bunday savollarning qo'yilishi iqtisodiy geografiya fanidagi ilmiy muammolarga asoslanadi (xo'jalikning hududdiy tarkibi va uni aniqlaydigan omillar, ichki va tashqi omillarni ishlab chiqarish kuchlarini joylanishiga ta'siri va h.k).

Tabiiy geografiya darslarida izlanuvchan usuldan foydalanib quyidagi muammolarni yechishga o'quvchilarni jalb qilish katta ahamiyatga ega. Bu muammolar turli bosqichlarda amalga oshiriladi. Mazkur bosqichlar quyidagilardan iborat bo'lishi hamda o'quvchilarga quyidagi savollarni berish mumkin.

1. Ma'lumotlarni yig'ish (xaritalar, adabiyotlar, statistik ma'lumotlar va o'lakashunoslik ishlarida yig'ilgan ma'lumotlar asosida); yig'ilgan ma'lumotlarni tartibga solish (xaritalar, diagrammalar, chizmalar, jadvallar tuzish); tahlil qilish; umumlashtirish va xulosa ishlab chiqish.

muammolarni yechish mumkin: Toshkentdan Farg'ona vodiysiga temir yo'l o'tkazish yo'nalishini aniqlash; O'zbekistonda suvni tejash usullarini asoslash; O'zbekistonda shakar ishlab chiqarishni asoslab berish; O'zbekistonda mashinasozlikni rivojlantirish muammolarini hal qilish yo'llari va h.k.

Muammoli vazifalarni yechishda faqat tabiat va jamiyat to'g'risida yangi bilimlarnigina topib qolmasdan mazkur muammoni yechishning yangi samarali yo'llarni ham qidirish lozim. Bu esa o'quvchilarni ijodiy tafakkurini rivojlantirishga, yangi metodlarni o'rganishga va ularda ijodiy faoliyatni ko'nikmalarni shakillantirishga yordam beradi. Izlanuvchan usulni qo'llaganda o'qituvchiining vazifasi muammoli vazifani ishlab chiqish va ularni o'quvchilar oldiga qo'yishdan iborat. O'quvchilarni vazifasi esa mazkur muammoni qabul qilish, o'ylab ko'rish va yechishdan iborat. Demak reproduktiv, qisman izlanuvchan va izlanuvchanlik lari beusullar vosita mustaqil mashg'ulotlar jarayonida bajariladi. Mustaqil mashg'ulotlar odatda o'quvchilarni topshirig'iga binoan o'qituvchini ishtirosiz amalga oshiriladi. Mustaqil ishlarning asosiy belgilari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: og'zaki javob; yozma ish; chizma ishlari; kartografik ishlar va h.k.

Mustaqil ishlar uchun vazifalar ikki turga bo'linadi: bir qolipdagi va muammoli yoki ijodiy.

Bir qolipdagi vazifalar reproduktiv metodga kiradi. Bunda o'quvchilardan o'xhash o'quv jarayonida bir qolipdagi savollarga javob berish talab etiladi.

Ijodiy yoki muammoli vazifalarni yechish qisman izlanuvchan va izlanuvchan usullar yordamida amalga oshiriladi. Mazkur usullar o'quvchilardan bilim va ko'nikmalarni yangi o'quv sharoitida qo'llashni va mustaqil fikrashni talab etadi. Bir qolipdagi vazifalar yangi bilimlarni olishga va ilgari olgan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlashga imkon beradi.

O'qitish metodlarini tanlash va o'quvchilarni bilish faoliyatini va o'qish jarayonini samaradorligini baholash, bilimlarni o'zlashtirish darajalari orqali amalga oshiriladi. Geografiya o'qitish metodidagi o'zlashtirish darajalari 7-jadvalda keltirilgan.

2. Sharqiy Yevropa platformasida joylashgan Rossiya tekisligini relyefi shakillanib bo 'lgan deyish mumkinmi?
3. Afrika platformasida joylashgan cho'llarning relyefni shakillanib bo 'lgan deb hisoblash mumkinmi?
4. Agar Qozog'iston pasi tog'lar ko'tarilib, uning balandligi 5-6 ming metrga yetsa O'zbekistonda qanday o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin?
5. Sibir daryolarining bir qismi O'rta Osiyo tomon oqizilsa Sibir tabiiy sharoitida qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi?
6. Litosferani vulkanlar otilib turgan qismlarida qanday o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin?
7. Nima uchun Antraktidada tabiati juda ham sovuq?

Mazkur muammolar geografik qobiqning bir butunligini ifodalaydi va geografik qobiqning bir komponentining o'zgarishi boshqa komponentlarni ham o'zgarishiga olib kelishini asoslab beradi.

Ijodiy fikrlarning birinchi bosqichi bo'lib muammoni aniqlash va uni shakllantirishdir. Muammoni ifoda qilishni shakillari bo'lib muammoli savol, muammoli masala, muammoli vazifa hisoblanadi. Muammoli o'qitishning asosiy belgisi bo'lib muammoni yechish orqali o'qitishdir.

Har bir geografiya kursi bo'yicha muammoli savollar tizimi ishlab chiqilmog'i lozim. Ular didaktik maqsadlariga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linishi mumkin: yangi mavzuni o'rganish; bilimlarni nazorat qilish; olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash.

Geografiya pridmetlarining barchasi bo'yicha muammoli vazifalar tizimini tuzish mumkin. Masalan, yonbag'irlardagi o'monlar kesilsa tabiatda qanday o'zgarishlar sodir bo'lishi mumkin? Mazkur muammoni hal qilish jarayoni o'quvchilarga qiyinchilik tug'dirsa, u holda o'qituvchi tomonidan yordamchi va yo'naltiruvchi savollar berilishi maqsadga muvofiq. Shuni unutmaslik kerakki, muammoli ta'lim metodidan foydalanilganda muammo yechimi o'quvchilar tomonidan yechilishi lozim.

#### **4. O'qitishning amaliy va ko'rgazmali metodlari**

O'qitishning amaliy va ko'rgazmali metodlarga – kartografik materiallar, statistik ma'lumotlar, tasvirli vositalar va natural obyektlar bilan ishlash hamda kuzatish va tajriba, joyda o'lchov ishlarini olib borish metodlarini kiritiladi.

#### **4.1. Kartografik metod**

Xaritalar geografiya ta'limida asosiy o'qitish vositalari bo'lib hisoblanadi. Geografiyanı xaritasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Geografik xarita geografiya o'rganadigan barcha predmet va hodisalar haqida hikoya qila oladi, xarita tez, aniq va lo'nda qilib hikoya qilishda kitobdan deyarli qolishmaydi. Maktabda geografiya bilan birga xarita ham o'rganiladi.

Xarita – geografiya darslarida bilim olishning asosiy manbaidir. Shuning uchun ham har bir o'quvchi xaritani o'qiy olishi lozim. Agar o'quvchi xaritaga qarab hali o'rganilmagan dengiz yoki daryo haqida gapira olsa, tog'larning balandligi va yo'nalishini aniqlay olsa, ma'lum bir joyning yer yuzasi yoki iqlimini ta'riflay olsa bu o'quvchi xaritani biladi deyish mumkin. Geografik xaritalardan o'qitishning barcha shakillarida foydalanish mumkin; dars berishda, amaliy ishlarda, mustaqil ishlarda, bilimlarni baholashda va h.k.

**Asosiy kartografik tushunchalar.** Geografik xaritalarda turli – tuman voqeja va hodisalar tasvirlangani uchun, ular juda xilma-xil bo'ladi. Xaritashunoslikda quyidagi tushunchalar uchraydi:

**Plan** - joyning yirik mashtabda (5000va undan kattaroq) tuzilgan chizmasidir. Planda maydoni uncha katta bo'Imagan kichik-kichik joylar tasvirlanadi.

**Xarita**- Yer yuzasini kichraytirilib va umumlashtirilib shartli belgilar bilan tekislikka tushurilgan tasviridir. Ularda tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy voqeja va hodisalar tasvirlanadi.

**Aerofotosurat**- samolyot yoki uchar asboblar yordamida olingan Yer yuzasini yoki uning bir qismining tasviridir. Ular orqali joyning tuzulishi, relyefi, o'simlik qoplami, yo'llari, qishloqlar, jihozlar va korxonalarining joylanishi aniqlanadi.

**Kosmosurat** - Yerning va boshqa sayyoralarining kosmik kemalari yordamida olingan tasvirdir. Ular fanning va xalq ho'jaligining turli sohalarda keng qo'llaniladi. Har bir plan, xarita, kosmo va aerosurat ma'lum bir mashtabda tuzuladi.

**Masshtab**- bu xaritadagi chiziqning uzunligini Yer yuzasidagi shu chiziqqaga mos keladigan haqiqiy uzunlikka nisbatdir. U xaritadagi tasvir necha marta kichraytirilganini ko'rsatadi. Masalan, xaritada daryoning uzunligi 1sm , haqiqiy uzunligi 10 km, yoki 1000000 sm. Demak, xaritaning mashtabi 1: 1000000. Masshtablar sonli, chiziqli va nomli bo'ladi. Sonli masshtab kasrdan iborat, uning surati birga teng, maxraji esa xaritada tasvir necha marta kichraytirilganni ko'rsatadigan son bo'ladi.

Masalan, 1: 1000 bu tasvirni ming marta kichraytirilganligini ko'rsatadi. Chiziqli masshtab - bu teng bo'laklarga bo'lingan to'g'ri chiziqdir. Har bir bo'lak qancha masofaga tengligi uning ustiga yozib qo'yiladi. Nomli masshtab xaritadagi 1sm masofa haqiqatda qanchaga tengligini ko'rsatadi. Masalan 1sm 10 km ga teng.

**Andozalarlar (proektsiyalar)** - bu Yer yuzasining xaritada tasvirlash usulidir. Yer dumaloq bo'lganligi tufayli uni tekislikda tasvirlayotganda ma'lum bir xatoliklarga yo'l qo'yiladi. Bunday xotaliklarga asosan maydonni, uzunlikni va burchaklarni tasvirlayotganda yo'l qo'yiladi. Shuning uchun turli hil (teng burchakli, teng maydonli, teng masofali va aralash) andozalar qo'llaniladi.

**Shartli belgilari** – voqeа va hodisalarning ma'lum bir belgilari yordamida xaritada tasvirlanishidir. Shartli belgilari ikki xil – masshtali va masshtabsiz bo'ladi. Masshtabli shartli belgilari yordamida voqeа va hodisalar haqiqiy o'lchamlari bilan tasvirlanadi. Masshtabsiz shartli belgilari bilan xaritalarning masshtabida ko'rsatib bo'lmaydigan voqeа va hodisalar tasvirlanadi (TES, kon, aholi yashaydigan joylar).

Xaritada voqeа va hodisalar quydagi usullar bilan tasvirlanadi:

- belgilari usuli – masshtabda tasvirlab bo'lmaydigan narsalar, voqeа va hodisalar tasvirlanadi;

- chiziqli usuli – asosan uzunlik bo'yicha joylashgan daryo, yo'l va chegaralar tasvirlanadi;

- rang berish usuli – voqeа va hodisalarni maydon bo'yicha tarqalishini tasvirlashda qo'llanadi (o'simlik, tuproq, iqlim, aholi xaritalari);

- teng qiymatli chiziqlar usuli – bir xil qiymatga ega bo'lgan voqeа va hodisalar tasvirlanadi (harorat, balandlik, aholi zichligi);

- bog'langan diagrammalar usuli – ma'lum bir joydagи meterologik stantsiyada haroratni mavsumiy o'zgarishini, yog'in va shamollarni taqsimlanishini tasvirlashda qo'llaniladi;

- chegara usuli – bir xil voqeа va hodisalarni tasvirlashda qo'llanadi, foydali qazilmalar, hayvonlar va qishloq xo'jaligi xaritalari.

- nuqta usuli – narsalarni, voqeа va hodisalarni tarqoq holda miqdorini beradi. Masalan bitta nuqta 200 bosh sigir;

- harakat belgilari usuli – voqeа va hodisalarni harakat yo'nalishini ko'rsatadi (daryo oqimi, shamol va oqim yo'nalishi, yuk tashish yo'llari).

**Xaritalar masshtabiga qarab quydagi turlarga bo'linadi:**

- planlar masshtabi - 1:5000 va undan katta;
- yirik masshtabli xaritalar - 1: 1 0000 dan 1:200000 cha;

- o'rta masshtabli xaritalar - 1: 200000 dan 1:1000000 cha;
- mayda masshtabli xaritalar - 1: 1000000 dan kichik

**Xaritalar ularda tasvirlanadigan maydonning ko'lamiga qarab quydagi turlarga bo'linadi:**

- yulduzlar xaritasi;
- sayyoralar va Yer xaritasi;
- yarim sharlar xaritasi;
- quruqlik va okeanlar xaritalari;
- tabiiy geografik o'lkalar xaritalari;
- mamlakatlar xaritalari;
- ma'muriy birliklar xaritalari;
- maxsus hududlar xaritalari (qo'riqxona, sayohatbon joylar);
- shaharlar va aholi punktlari xaritalari ;
- shahar va viloyat tumanlari xaritalari;

**Mazmuniga ko'ra xaritalar.** - umumgeografik va mavzuli xaritalarga bo'linadi. Umumgeografik xaritalar o'z navbatida yana a) topografik ( 1: 100000 va undan katta);  
b) umumtopografik (1: 200000 dan 1: 1000000 cha)  
v) umumtasavvur (tavsif) xaritalarga bo'linadi (masshtabi 1:1000000 kichik).

Mavzuli xaritalar tabiiy va iqtisodiy (iqlim, tuproq, o'simlik, qishloq xo'jalik, sa'noat va x. k.) xaritalarga bo'linadi:

**Vazifasiga ko'ra xaritalar quydagi turlarga bo'linadi:**

- a) ilmiy xaritalar;
- b) madaniy va tashviqot xaritalari;
- v) texnik xaritalar (kosmik, havo, dengiz, yo'l va muxandislik xaritalari);
- g) o'quv xaritalari;
- d) sayohat xaritalari;

**Tuzilishiga ko'ra xaritalar 3 turga bo'linadi:**

a) tasviriy xaritalar – alohida voqeа va hodisalarni tasvirlaydi. Masalan havo harorati, yog'inlar va bosim xaritalari;

b) jamlanma xaritalar – ma'lum bir hodisaning hamma o'lchamlari birga tasvirlanadi. Masalan, bitta xaritada shamol va bosimni tasvirlash mumkin:

v) yakuniy xaritalar – bir-biri bilan o'zaro bog'langan hodisalar bir butun holda tasvirlanadi (iqlim mintaqalari xaritasi).

**Atlaslar-** to'la va aniq ma'lumotga ega bo'lgan, yagona dastur asosida tuzilgan, tartibga solingen xaritalar to'plamidir.

«Atlas» atamasi Flamand xaritashunosi Merkator tomonidan kiritilgan. U o‘zi tuzgan xaritalar to‘plamini (1595 yili) Liviyaning afsonaviy qiroli Atlas nomi bilan ataydi. Xaritalar to‘plami birinchi marta eramizning II asrida Klavdiy Ptolomiy tomonidan tuzilgan. Atlaslar egallagan maydonga qarab, sayyoralar, dunyo, materiklar, okeanlar, o‘lkalar, davlatlar, viloyatlar atlaslariga bo‘linadi. Mazmuniga qarab umumgeografik va mavzuli atlasmaga bo‘linadi. Vazifasiga ko‘ra ilmiy ma’lumotli, ommabop (o‘lkashunoslik), o‘quv, sayoh va yo‘l atlasmaga bo‘linadi.

**Globus** (lotincha globus – dumoloq) Yerning kichraytirilgan nusxasi, unda Yer yuzasi, mareriklar va okeanlar, tog‘lar va tekisliklar shakli xatosiz aniq va to‘g‘ri tasvirlanadi. Birinchi marta globus Beruniy tomonidan X asrda, Bexaym tomonidan XV asrda yasalgan.

Globuslar mashtabiga ko‘ra mayda (1:30000000) va yirik globuslarga bo‘linadi.

O‘quv va boshqa maqsadlar uchun yirik globuslar yasaladi.

#### 4.2. Maktab geografik xaritalarining turlari

Maktab geografik xaritalarining boshqa xaritalardan farqi ularni o‘quvchilarini yoshi va rivojlanishiga moslab chiqarilishidir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar uchun oddiyroq, tushunishi va o‘qishi oson bo‘lgan xaritalar chiqariladi, yuqori sinflar uchun esa murakkabroq xaritalar nashr qilinadi.

Umumta‘lim maktablarida qo‘llaniladigan xaritalarni quyidagi guruhlarga bo‘lishimiz mumkin: devoriy xaritalar; darsliklar ichidagi xaritalar; atlasmalar; globuslar; chiziqli xaritalar.

Mazmuniga ko‘ra devoriy maktab xaritalari juda xilma xil bo‘ladi: tabiiy, iqlimi, tuproq, o‘simgilik, zoogeografik, geologik, foydali qazilmalar, iqtisodiy, siyosiy, sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport va h.k. Ular turlicha bo‘lgani bilan umumiyl o‘xshashlikka ham ega. Ularning barchasidan sinfa foydalilanadi, o‘quvchilarning uzoqdan ko‘rishiha moslashgan bo‘ladi, ya’ni masshtabi yirik bo‘ladi. Mazkur xaritalar yordamida o‘quvchilar mavzularni o‘rganishda, amaliy va mustaqil ish bajarishda va ma’lum bir savollarga javob berishadi. Shuning uchun ular yaxshi ko‘rinishga va katta aniqlikka ega bo‘lgan o‘lchamda bo‘lishi lozim.

Xaritalarning turiga ko‘ra ularning o‘lchamlari turlicha bo‘ladi. Dunyo xaritalari, alohida materiklarning xaritalari. Xaritalar hozirgi vaqtida

1,5x1,8m o‘lchamda chiqarilmoqda. O‘zbekiston va O‘rtal Osiyo xaritalari ham deyarli mazkur o‘lchamda chiqarilmoqda. Maktab devoriy xaritalari quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- ✓ xaritalar aniq va ravshan ko‘rinib turishi lozim. Ulardagi geografik voqe va borliqni o‘quvchilar 5-6 m dan aniq ko‘ra bilishlari lozim. Buning uchun xaritada eng muhim narsalar aks ettirilishi kerak. Masalan, daryo tavsiflanayotganida uning asosiy qismi va eng yirik irmoqlari ko‘rsatiladi, mayda irmoqlari esa ko‘rsatilmaydi. Xarita ravshan ko‘rinib turishi uchun esa ranglar yaxshi tanlanishi lozim. Ranglar bir- biridan keskin ajralib turishi lozim.
- ✓ devoriy xaritalar chiroli bo‘lishi lozim. Agar xarita chiroli va aniq qilib ishlangan bo‘lsa o‘quvchilar ularni oson o‘qishadi va tushunishadi hamda estetik zavq olishadi. Bu o‘quvchilarda ko‘tarinki ruhni hosil qilib, dars samaradorligiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi;
- ✓ Xarita geografik nomlar bilan to‘lib qolmasligi kerak. Unda faqat o‘quvchilarni yoshi va bilimi darajasiga mos bo‘lgan yozuvlar bo‘lmog‘i lozim. Boshlang‘ich sinf xaritalarida geografik nomlar kamroq va yirikroq yozilishi, o‘rtal va yuqori sinflarda ularning soni ko‘payib va o‘lchamlari maydalashib borishi mumkin.

Maktab xaritalarida relyef asosan turli qalinlikda rang berish bilan amalga oshiriladi. Past tekisliklar to‘q yashil, tekisliklar esa och yashil, balandliklar och jigarrang, o‘rtacha tog‘lar jigarrang, baland tog‘lar esa to‘q jigarrangda beriladi.

**Darsliklar ichiga qo‘yladigan xaritalar.** Geografiya predmetlarining oxirida alohida xarita ilova qilinad edi. Hozirgi vaqtida darsliklarni matnida xaritalar berilmoqda. Bunday xaritalar tabiiy geografik va iqtisodiy geografik voqe va hodisalarni tasvirlaydi. Ular oq-qora va rangli bo‘lishi mumkin. Tabiiy geografik xaritalar ham, iqtisodiy geografik xaritalar ham ko‘pincha rangli xolda beriladi. Ayrim iqtisordiy geografik voqe va hodisalarni ko‘rsatishda oq-qora rangdan foydalilanadi. Masalan, foydali qazilmalar, transport, ayrim ekinlar, chorvachilik xaritalari hamda siyosiy xaritalar rangli tasvirda beriladi. Ko‘p hollarda materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi (6-sinf), Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi (9-sinf) kurslarini darsliklari matnlarida xaritalar ko‘proq beriladi.

**Atlaslar** ma’lum bir mavzuda va yo‘nalishlarda tuzilgan xaritalar jamlamasidir. Hozirda umumiyl o‘rtal ta’limning har bir sinf uchun o‘quv atlasmalari mavjud, ya’ni, 3-sinfdan to 9-sinfgacha. Geografik xaritalar

singari o'quv atlaslariga ham bir qancha talablar qo'yiladi. O'quv atlaslari quyidagi talablarga javob berishi lozim:

- atlasda ko'rsatilgan geografik borliq va voqealar soni darslikdagidan ko'proq bo'lmog'i lozim;

- atlas o'quvchilar uchun ma'lumotnomma vazifasini bajarishi lozim;

- atlasda geografik nomlar ro'yhati albatta bo'lishi zarur;

Atlasda xaritalar soni 40-45 tadan kam bo'lmasisligi lozim.

**Chiziqli (yozivsiz) xaritalar.** Ular geografiya ta'limida keng qo'llaniladi. Ular asosan o'quv va nazorat maqsadlarida ishlataladi.

Chiziqli xaritalar o'quv maqsadlarida quyidagi hollarda qo'llaniladi:

- chiziqli xaritaga tabiiy geografik obyekt nomlarini tushirish (daryo, ko'l, dengiz va h.k.), bu esa geografik nomlarni o'quvchilar tomonidan yaxshi eslab qolinishiga imkon beradi;

- tog'lar, daryo havzallari, izotermalar, tabiat zonalari chegaralarni chiziqli xaritaga tushirish;

- davlatlarni chegaralarini chiziqli xaritaga tushirish;

- iqtisodiy rayonlarni chiziqli xaritaga tushirish;

- qishloq xo'jaligi ekinlari chegaralarini chiziqli xaritaga tushirish.

Chiziqli xaritalar nazorat maqsadida ham ishlataladi. Buning uchun quyidagi shartlar bajarilishi lozim:

-sinfdagi barcha o'quvchilarda bir xil chiziqli xarita bo'lmog'i lozim;

-barcha o'quvchilar uchun bir xil shartli belgilar berilishi zarur;

-barcha o'quvchilar chiziqli xaritalarida mashtab, shartli belgi (legenda), o'quvchining ismi sharfi bir xil joyda ko'rsatilgan bo'lmog'i lozim.

#### 4.2.1.Xaritalarni tushuntirish texnologiyasi

Umumta'lim maktablarida xaritalarni tuzilishin tushutirish o'quvchilarga o'rgatish geografik bilimlarni egallashda muhim o'rinnutadi.

O'quvchilarni geografik xaritalarni tuzilishini o'rgatish uchun joyda amaliy ishlar olib boriladi, joy plani bilan ishlanadi, gorizontallarni o'qish bo'yicha amaliy ishlar bajariladi, daraja to'ri bilan mashq qilinadi, turli xaritalar solishtiriladi, nuqtalarni geografik kordinatalari aniqlanadi, turli mashtablar bilan mashq qilinadi va h.k.

Xaritalarni tushunishini eng yaxshi yo'li joyni o'rganish va uni xaritada qanday tasvirlanganligini aniqlashdir. Bundan tashqari globusdan xaritaga o'tish, plandan geografik xaritaga o'tish orqali ham geografik

xaritalarni tuzilishinii tushunishga yordam beradi. Mazkur usullar yordamida o'quvchilarni daraja to'ri, kartografik yiriklashtirish (generalizatsi) va geografik xaritalarni tushuntirishga imkon beradi.

Joyda va sinfda olib boriladigan amaliy mashg'ulotlar (yo'nalishlarini aniqlash, masofani o'chash va ularni chizmada tasvirlash hamda ularni joy planiga tushirish) o'quvchilarni geografik xaritalarda haqiqatda borliq va hodisalar tasvirlanganligiga ishonch hosil qilishiga undaydi.

Geografik xaritalarni tuzilishini tushunishga faqat joyda olib borilgan ishlargina emas, balki joyning xomaki plani bilan ishlash ham yordam beradi. Bunday ishlar o'quv sayohatlari, turistik poxodlarda va joyda amaliy ishlar olib borganda bajariladi.

O'quvchilar yirik mashtabli xaritalarni tuzilishini gorizontallarni o'qish bo'yicha olib boriladigan mashqlarda, topografik xaritalar yordamida relyefni tasvirini tushirish jarayonida, joyni planini tuzish davomida o'rganishadi.

O'z yashash joyini tuzilishi va joy planini o'rganish davomida o'quvchilar asta-sekin yirik va mayda mashtabli xaritalarni tuzilishini anglay boshlashadi. Ular topografik va geografik xaritalarni solishtirish asosida joy plani va geografik xarita o'rtasidagi farqlarni tushuna boshlashadi.

O'quvchilar kartografik andozalarni (proektlarni) turlarini o'rganish davomida geografik xaritalardagi xatoliklar va ularning mashtabini tushuna boshlashadi, xatoliklarni qanday sodir bo'lishini o'quvchilar tushunishi uchun globusdagi va ma'lum bir xaritadagi borliqni o'chami solishtiriladi. Masalan, Chukotka yarim oroli yoki Grelandiya orolini globusda va xaritada tasvirini solishtiradi. Ularning tasviri xaritada globusdagiga ko'ra kattaroq tasvirlangan, ana shu farqlarning asosiy sababi xaritalardagi xatoliklar ekanligi tushuntiriladi. Masalan, globus Yerning kichiklashtirilgan modeli hisoblanadi, shuning uchun unda geografik borliq xatosiz tasvirlanadi, xarita esa globusning tekislikka yoyish natijasida hosil bo'lgan, shuning uchun uning chekka qismlarida xatoliklar katta bo'lishi tushuntiriladi.

Xaritalarning daraja to'ri, meridianlar va parallellar o'rganib bo'lingandan so'ng o'quvchilar geografik koordinatalar bilan mashq qilishadi. Buning natijasida ular har qanday nuqtani geografik o'rnini topishni o'rganishadi va daraja to'rini ahamiyatini anglashadi, bundan tashqari ular daraja to'ri meridian va parallelariga qarab yo'nalish va masofani aniqlashni o'rganadi. O'quvchilar nuqtani geografik koordinatasini aniqlashni yaxshi o'zlashtirib olishlari uchun hayotdan

misollar keltirish lozim. Masalan, o‘z shahrini, yoki tumani markazini koordinatalarini aniqlash, O‘zbekistonni chekka nuqtalarini, eng baland va eng past nuqtalarini koordinatalarini aniqlash.

Xarita masshtabi bilan ishlaganda o‘quvchilar geografik borliqni kichrayish yoki kattalashishi darajalari bilan tanishishi lozim. Buning uchun avval yirik, o‘rtalari va mayda mashtablar haqida tushunchalarga ega bo‘lmoqlari lozim. Shundan so‘ng, har xil geografik obyektni, masalan, Chorbog‘ suv omborini kengligi va uzunligini aniqlashlari lozim. O‘quvchilar geografik xaritada masofani taxminan aniqlashlari uchun ayrim geografik obyektning uzunligini aniqlab, uning yordamida kerakli masofani topishlari mumkin. Masalan, Sahalin orolini uzunligi 1000 km, shundan foydalanib Osiyodagi joylarni uzunligini topish mumkin. Biror joyni uzunligini topish uchun Saxalin orolini hayolan joylashtiriladi va masofa aniqlanadi. Masalan, uzunligi aniqlangan joygacha 2 ta Saxalin oroli sig‘sa, demak, uning uzunligi 2000 km ekan.

Bundan tashqari daraja to‘ridan foydalanib masofa o‘lchashni ham o‘quvchilar o‘rganmog‘i lozim. Buning uchun  $1^{\circ}$  yoyning uzunligini bilish kifoya. Meridian bo‘yicha  $1^{\circ}$  yoyning o‘rtacha uzunligi 111,1 km ga teng. Agar ikki nuqta orasidagi masofa  $10^{\circ}$  bo‘lsa u km da quyidagicha ifodalanadi:  $10 \times 111,1 = 1111$  km.

#### **4.2.2. Geografik xaritalarni o‘qish texnologiyalari**

Geografik xaritalarni to‘g‘ri o‘qish va ulardan to‘g‘ri foydalanishni o‘rganish uchun geografiya o‘qituvchisi o‘quvchilarni har qaysi yangi xarita bilan quyidagilarni tushuntirib birishi lozim: xaritaning turi, undan qanday maqsadda foydalanish va uning shartli belgilarini tushuntirishi; o‘quvchilar e’tiborini xarita masshtabiga qaratishi; xaritadagi joyni ko‘z bilan chamlab o‘lchay olishlari uchun “o‘lchov” sifatida xizmat qiladigan “mo‘ljal”larni ko‘rsatib o‘tishi (masalan, Qora dengiz, Kaspiy dengizi va Saxalin orolining bo‘yi 1000 km, Baykal va Tanganika ko‘llarining bo‘yi 600 km), xarita andozalarining xususiyatlarini ko‘rsatib o‘tishi lozim. Geografik xaritalar bilan ishlashning eng ma’suliyatlari qismi bo‘lib ularning o‘qish va ular asosida tegishli xulosalar chiqarishdir.

Geografik xaritalarni o‘qish quyidagi bosqichlardan iborat:

- xaritalarning daraja to‘ri, masshtabi va shartli belgilarini o‘qish;
- topografik xaritalarni o‘qish asosida diktantlar yozish;
- relyefni o‘qish va uning tavsifini tuzish;
- geologik va tektonik tuzilishni o‘rganish va xulosa chiqarish;

- foydali qazilmalarni o‘rganish;
- iqlimi o‘rganish va uning tavsifini tuzish;
- geografik sharoitni o‘rganish;
- tuproqni va o‘simliklar qoplamini o‘rganish;
- hayvonot dunyosini o‘rganish;
- tabiat zonalarini o‘rganish;
- joyning umumiyligi tabiiy geografik tavsifini tuzish;
- tabiat resurslarini o‘rganish;
- aholi xaritasini o‘qish;
- yoqilg‘i energetika sanoatini o‘rganish;
- sanoat xaritasini o‘qish;
- qishloq xo‘jalik xaritalarini o‘qish;
- transport xaritalarini o‘qish;
- xalqaro iqtisodiy aloqalar xaritasini o‘qish;
- kompleks iqtisodiy-geografik xaritalarni o‘qish.

Geografik xaritalarni o‘qishning eng muhim shartlaridan biri uni masshtabi va shartli belgilarini o‘qiy bilishidir. Shartli belgilar topografik, tabiiy geografik va iqtisodiy geografik hamda siyosiy geografik belgilarga bo‘linadi.

O‘quvchilar topografik xaritalarni o‘rtalari masshtabli va mayda masshtabli xaritalarni shartli belgilarini to‘la o‘rganib bo‘lgandan so‘ng, masshtab va daraja to‘ridan foydalanib yuqorida vazifalarni bajarishlari mumkin. Ular joy planini tuzish jarayonida ham shartli belgilar bilan ishslash ko‘nikmasiga ega bo‘lishadi.

O‘quvchilar daraja to‘ri, masshtab va shartli belgilarini to‘la o‘zlashtirib olgandan so‘ng xaritadan foydalanib ma’lum bir yo‘nalishni tavsifini tuzishi mumkin, ya’ni topografik diktant yozishlari mumkin.

Topografik diktant deganda qog‘ozga o‘qituvchini bergen ma’lumotlari asosida yo‘nalish chizmasini tushirishdir. Mazkur ishda: o‘quvchilar o‘qituvchi topshirig‘i asosida ikki xil ishni bajarishi mumkin: berilgan yo‘nalishni xarita asosida tavsifini tuzishadi; berilgan yo‘nalishni chizmasini daftarga chizishadi.

Ma’lum bir yo‘nalishni tavsifini xarita asosida tuzishda o‘quvchilar kerakli yo‘nalishlarni aniqlashadi, masshtabdan foydalanib nuqtalar orasidagi masofani o‘lchashadi, shartli belgilar bilan ko‘rsatilgan geografik borliqni (ko‘pri, yo‘l, shahar, zavod, yaylov, ekinzor, o‘rmon va h.k.) nomlarini aniqlaydi va joyning (relyefi, tuprog‘i, o‘simligi, suvlari) tavsifini tuzadi. Avval o‘quvchilar topografik xaritadan foydalanib o‘qituvchining qisqa savollariga javob beradi, masalan, o‘rikzor qishloq

markazining qaysi tomonida joylashgan, maktabga boriladigan yo'lda qanday o'simliklar uchraydi. Buning natijasida o'quvchilar yo'nalishni og'zaki tavsifini tuzish ko'nikmasiga ega bo'lishadi.

Topografik diktant tuzganda o'quvchilar o'qituvchining hikoyasi orqali yo'nalish yo'lini chizmasini tuzishadi. Topografik diktant daftар varag'iga chiziladi. Varaqning yuqorisida sh-j (shimol, janub) belgisi, pastki qismiga masshtab yoziladi. O'qituvchi varaqda dastlabki nuqtani belgilab beradi. So'ngra yo'nalishni va geografik borliqni ko'rsatadi, ularni o'quvchi qog'ozga tushiradi. Topografik diktant yo'nalishni tavsifini tuzishdan murakkabroq. U o'quvchilardan diqqat va ijodiy fikrashni talab qiladi. Ushbu vazifani bajarish davomida o'quvchilar olgan bilimlarini amalda qo'llash ko'nikmasiga ega bo'ladilar.

Joy relyefini o'rganish turli masshtabli xaritalarda olib borilishi mumkin. Topografik xaritalar yordamida relyefni o'rganish gorizontallarni tahlili asosida olib boriladi. Gorizontallarni orasi keng va mutloq balandligi kam o'zgarsa tekislik, gorizontallar orasi tor va ular qalin va zinch joylashgan bo'lsa tik yonbag'ir va h.k. Tabiiy geografik xaritalarda relyef ranglarni tahlili asosida olib boriladi: yashil rang tekislik, jigarrang tog'lik. Relyefning o'rganganda xaritada berilgan nuqtalarni mutloq balanligi ham tahlil qilinadi.

Geologik va tektonik tuzulishni o'rganish VI va VII-sinflarda bajariladi.

VI –sinf atlasida litosfera plitalari xaritasi berilgan. Uning yordamida litosfera plitalari, ularning yoshlari, harakat tezligi aniqlanadi. VII-sinf atlasida O'rta Osiyo va O'zbekistonning geologik va tektonik xaritalari berilgan. Uning yordamida har bir hududda tarqalgan tog' jinslari komplekslari va ularni qaysi davrlarga mansubligi aniqlanadi. O'qituvchi yordamida o'quvchilar geologik kesmalar ham tuzishi mumkin. Mazkur xaritalarni o'qish va tahlil qilish asosida tegishli xulosalar qilinadi. Masalan, mazkur joyda qaysi davrda vujudga kelgan qanday tog' jinslari keng tarqalgan.

Joyning yoki ma'lum bir hududning foydali qazilmalari tegishli foydali qazilma xaritasini o'qish asosida amalga oshiriladi. Bunda avval yoqilg'i-energetika foydali qazilmalari xaritasidan neft-gaz, ko'mir konlari aniqlanadi, metalli foydali qazilmalar xaritasidan qora, rangli va nodir metallar konlari aniqlanadi. Nometall foydali qazilmalar xaritasidan esa qurilish, kimyo sanoati xom ashyosi konlari aniqlanadi. So'ngra joyda yoki hududda qaysi foydali qazilma turi kengroq tarqalganligini o'quvchilar aniqlashadi.

Materik, o'lka yoki davlatning iqlimi xususiyatlari iqlim xaritalarini o'qish orqali o'rganiladi. Bunda yozgi va qishki harorat izotermalari, yozgi va qishki shamollar yo'nalishi, yog'in miqdori, sovuqsiz kunlar soni va boshqa xaritalar o'qiladi tahlil qilinadi va tegishli xulosalar chiqariladi. O'quvchilarning xulosalari o'qituvchi tomonidan ko'rib chiqiladi va baholanadi.

O'quvchilar joyni yoki ma'lum bir hududni gidrografik sharoitini tuzilishini o'qituvchi rahbarligida tabiiy xaritani o'qish va tahlil qilish asosida o'rganishadi. Ular o'qituvchining topshirig'iga binoan avval daryolarni, so'ngra ko'llar va muzliklarni aniqlashadi va ularni ro'yhatini tuzishadi.

O'quvchilar joyning tuproq va o'simlik qoplami xaritalarini o'qish va tahlil qilish asosida asosiy tuproq va o'simlik turlarini aniqlashda va tegishli xulosalar qilishadi.

Materiklarni tabiiy geografik sharoiti o'rganilganda o'quvchilar tabiat zonalari xaritasini o'qish va tahlil qilish asosida mazkur materikda tarkib topgan tabiat zonalarini aniqlashadi. Mazkur xaritani o'qish va tahlil qilish asosida joyning yoki ma'lum bir hududning tabiiy geografik tavsifi o'quvchilar tomonidan tuziladi. Iqtisodiy geografik tavsifdan tegishli iqtisodiy xaritalarni o'qish va tahlil qilish asosida tuziladi.

Xaritani o'qiy olish avvalo oddiy tarzda bo'lib, bora-bora murakkablashtirib boriladi. VI sinf oddiy savollarga javob berishlari mumkin. Masalan, Afrikada relyefning qanday shakllari uchraydi, degan savolga, o'quvchilar xaritaga qarab tog' va pasttekisliklarni ko'rsatish bilan kifoyalanadilar. Bunday ish VII sinfda ancha murakkablashib boradi. Yuqoridaq savol endi Afrika emas, balki, O'zbekistonda qanday relyef turlari tarqalgan degan savolga o'quvchilar to'liq va mukammal javob berishga harakat qilishadi. Xaritadan foydalanib, O'bekistonda asosan tog' va tekislik relyef shakllari tarqalganligi, tekisliklar respublikanining markaziy va g'arbiy qismlarini, tog'lar esa shimoli-sharqi (G'arbiy Tyanshan), sharqiy va janubi-sharqi (Oloy-Hisor) qismida tarqalganligini aytish bilan birga, O'bekiston tekislik qismida Qizilqum cho'li va u yerdagi past tog'larni ko'rsatish bilan birga O'zbekistonning eng past nuqtasi hisoblangan Mingbuloq (-12 m) botig'ini, yirik tog'larini ham ko'rsatadilar. Ko'rinish turibdiki, xaritani o'qish murakkablashgani sari o'quvchilarning bilimi ham chuqurlashib boradi.

Xaritani o'qish murakkablashib borgan sari o'quvchilar keyinchalik xaritada berilmagan ayrim ma'lumotlarni ham bilib olishga intiladilar. Xaritani o'qish asosida tegishli xulosa va yakunlar chiqara olishlari uchun

o‘quvchilarga beriladigan savollar nazariy bilimlarga asoslangan, hodisa sabablarini aniqlovchi savollar bo‘lishi kerak. Masalan, nima uchun bir xil kenglikda joylashgan Janubiy Yevropaga nisbatan O‘rta Osiyoda yog‘in miqdori kam-u, janubiy Yevropada ko‘p?

O‘quvchilarning xaritani o‘qish ko‘nikmalarini takomillashtirishda xarita bo‘ylab “sayohat” ning ahamiyati katta. Xaritada qilinadigan “sayohat” bilan o‘quvchilar xaritani jonlantiradilar, xaritadagi obyektlarni guyoki o‘zлari o‘sha joylarda bo‘lgandek hikoya qilib beradilar. Buning uchun avvalo o‘quvchilar “sayohat” yo‘nalishlari bilan, so‘ngra “sayohat” davomida amalga oshiriladigan ishlari bilan tanishtirilishi kerak. “Sayohat”ni har bir materik yoki okean o‘rganib bo‘lingandan so‘ng tashkil etish mumkin. Masalan, Yevrosiyo materigiga oig quyidagi yo‘nalishlarda “sayohat” tashkil etish mumkin:

1-yo‘nalish. Islandiya orolidan Yevrosiyoning janubiy qirg‘oqlari bo‘ylab kemada Xokkaydo oroligacha sayohat.

2-yo‘nalish. Moskva–Toshkent–Kobul–Dehli (avtomashina) – Kolkata (poyezdda) – Jakarta–Manila (kemada) sayohat.

3-yo‘nalish. Toshkent kengligi bo‘ylab Yevrosiyo materigining g‘arbiy chekkasidan sharqiy chekkasigacha samolyotda sayohat.

4-yo‘nalish. Madrid – Berlin – Moskva – Astana – Ulan-Bator – Anadir shahrigacha avtomobilda sayohat.

Yuqoridaqgi yo‘nalishlar bo‘yicha qilingan sayohatlar davomida o‘quvchilar quyidagilarga asosiy e’tiborni qaratishlari lozim. Bu sayohatlarda o‘quvchilar Yevrosiyo materigining turli mazmundagi xaritalar, rasmlar, gerbarylardan foydalaniadi.

Birinchi yo‘nalishda o‘quvchilar yo‘nalish davomida kesib o‘tgan okean, dengiz, qo‘ltiq, bo‘g‘izlar va ularning muzlashi yoki va muzlamasligi sabablari, qaysi yarimorol va orollar yonidan o‘tganligi ularning tabiatiga xos asosiy jihatlarini so‘zlab beradilar.

Ikkinci, uchinchi va to‘rtinchi yo‘nalishlarda o‘quvchilar yo‘nalish davomida yo‘lda uchragan har bir joyning yer yuzasining tuzilishi, ya’ni, tekislik va tog‘lar, tog‘oraliq botiqlari, dengizlar, iqlimning o‘ziga xos xususiyatlari, daryo va ularning xususiyati, o‘simgili va hayvonot dunyosi, aholisi, shuningdek, sayohat uchun qulay vaqt va yo‘lda uchraydigan qiyinchiliklar haqida gapirib beradilar.

“Sayohat”dan avval o‘quvchilarga har bir joyning tabiiy sharoitini o‘z o‘lkasi tabiiy sharoiti bilan taqqoslab borish lozimligini alohida topshiriq sifatida ta’kidlash maqsadga muvofiq.

### 4.3. Chiziqli xaritalar bilan ishlash texnologiyasi

Geografik bilimlarni egallashda chiziqli xaritalar bilan ishlash muhim o‘rin tutadi. Ular geografiya ta’limining barcha shakllarida qo‘llanilishi mumkin. Chiziqli xaritalar bilan ishlash geografik nomlar va ularning xaritadagi o‘rnini o‘quvchilar tomonidan yaxshi eslab qolishga imkon beradi.

Chiziqli xaritalar bilan ishlash samarali bo‘lishi uchun u quyidagi talablarga javob berishi lozim: xaritaning nomi yirik harflarda uning yuqori qismida yoziladi; o‘quvchining ismi sharfi va sinfi xaritasining quyi o‘ng qismiga yoziladi (mayda harflar bilan); geografik borliq nomlari bosh harflar bilan yoziladi; daryo, tog‘ tizmalari, qo‘ltiqlar va dengizlar nomi ularning yo‘nalishi bo‘yicha yoziladi; shaharlar, ko‘llar nomlari kengliklar bo‘yicha yoziladi; foydali qazilmalar, xalq xo‘jaligi tarmoqlari umumqabul qilingan shartli belgilari yordamida belgilanadi:

Sinf sharoitida chiziqli xaritalar qalam bilan bo‘yaladi, uy sharoitida esa tush yoki siyoh bilan bo‘yaladi. Chiziqli xaritalarni to‘ldirish devoriy xaritalar va atlasdagи xaritalar bilan ishlash bilan uyg‘unlikda olib boriladi. O‘qituvchi dars o‘tish jarayonida geografik borliqni devoriy xaritada ko‘rsatib ularni atlasdan topishni va chiziqli xaritaga shartli belgilari bilan tushirishni tavsiya etadi. Xaritada geografik borliqni tushirish uchun mo‘ljal bo‘lib daraja to‘ri, daryolar, shaharlarning punsonlari, qirg‘oq chizig‘i, chegaralari hisoblanadi.

Chiziqli xarita bilan bajariladigan har bir yangi ish dastlab o‘qituvchi yordamida amalga oshirilishi zarur. O‘quvchilar chiziqli xaritaga tushirishni yaxshi o‘rganib olgandan so‘ngina ularga mustaqil ishlashga ruhsat berish mumkin.

Chiziqli xaritaga tushiriladagan geografik nomlar soni chegaralangan bo‘lmog‘i lozim. Chiziqli xarita bo‘yicha o‘quvchilarga murakkab bo‘lgan vazifalarni bermagan maql. Masalan, atlasdagи ma’lumotlarni chiziqli xaritaga tushirish. Chiziqli xaritalarga faqat dasturda uchraydigan geografik nomlarni tushirish lozim.

Chiziqli xaritalar bilan ishlash ijodiy yo‘nalishga ega bo‘lmog‘i va o‘quvchilar tomonidan mustaqil ravishda bajarilishi lozim. Umumta’lim maktabalarida chiziqli xaritalar bilan quyidagi vazifalarni bajarish mumkin:

➤ chiziqli xaritalarga geografik borliq, hodisa va jarayonlarning nomlарini tushirish. Mazkur geografik nomlar darslik matnida uchrashi

mumkin, o'qituvchi dars jarayonida xaritadan ko'rsatgan bo'lishi mumkin, boshqa xaritalar bilan mustaqil ishlash aniqlangan bo'lishi mumkin;

➤ geografik (tabiiy va iqtisodiy) voqeа va hodisalarining shartli belgilarini o'qituvchi yordamida chiziqli xaritaga tushirish;

➤ o'qituvchini darsni gapirib berishi davomida chiziqli xaritalarni to'ldirish. Bunday ishlar asosan yuqori sinflarda bajariladi. Bunda o'quvchilar shartli belgilarini to'la o'zlashtirgan bo'lishlari shart;

➤ tog' tizmalarini, shamollarni, oqimlarning yo'nalishlari, yuk tashish yo'llari, migratsiya yo'nalishlarini xarita sxemalarini tuzish;

➤ chiziqli xaritaga iqlim elementlarini tushirish, yog'in miqdorini ranglar bilan, shamol yo'nalishini strelka bilan tasvirlash;

➤ chiziqli xaritaga tuproq turlarini tushirish. Ko'proq materiklar tabiiy geografiyasini o'rganishda qo'llaniladi;

➤ chiziqli xaritaga foydali qazilmalarni tushirish. Bunda o'quvchilar foydali qazilmalarni shartli belgilarini yaxshi bilishi zarur;

➤ chiziqli xaritaga aholini ko'rsatgichlarini tushirish (zichligi, milliy tarkibi, urbanizatsiya darajasi, til va kasb, jinsiy tarkibi va h.k.);

➤ chiziqli xaritada sanoat tarmoqlarini ko'rsatish (yoqilg'i-energitika, metallurgiya, mashinasozlik, transport yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati, va x.k.) va qishloq xo'jaligi tarmoqlarini tasvirlash (dehqonchilik, bog'dorchilik, uzumchilik, chovchachilik va h.k.);

➤ chiziqli xaritada mamlakatlarni tasvirlash (rivojlangan, rivojlanayotgan, o'tish iqtisodiyotiga ega);

➤ chiziqli xaritada nazorat ishi olish. Bu usul o'quvchilarining xaritani qanchalik o'zlashtirganligini aniqlashda amaliy ahamiyatga ega. Nazorat ishi geografik diktant shaklida bo'lishi mumkin.

Geografik diktant avval o'rganigan materiallar asosida o'tkaziladi. Bunda o'qituvchi tomonidan aytib turilgan nomlarni chiziqli xaritaning tegishli o'rniiga yozib boradilar. Geografik diktantda geografik nomlarni o'z o'rniiga yozishdan tashqari, tabiat zonalarini ajratib yizish, tog' tizmalarining yo'nalishlarini chizib, nomini yozish yoki foydalni qazilmalarni tegishli belgilar bilan tushirish, davlat yoki viloyatlarni chegarasini ajratish va chegaradosh davlat va viloyat nomini yozish va h.k. ishlarni bajarish mumkin.

O'quvchilarni chiziqli xaritada olib boriladigan ishlarni o'qituvchi muttazam ravishda o'z vaqtida nazorat qilib borishi, baholanib va tegishli ko'rsatmalar berilib turilishi hamda ijobiylar va kamchilik tomonlari sinfda muhokama qilib borilishi kerak.

#### 4.4. Globus bilan ishslash texnologiyasi

Globus Yerning kichraytirilgan modeli bo'lganligi uchun unda geografik xaritalarda uchraydigan xatoliklar bo'lmaydi. U teng masshtabli, tengburchakli va teng maydonli bo'lgani uchun unda tasvirlangan geografik borliq, voqeа va hodisalar to'g'ri va aniqligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun globuslar umumta'lim, o'rtा va oly ta'limning deyarli barcha predmetlarini o'rganishda albatta qo'llaniladi.

Globus yordamida o'quvchilar ongida jahondagi yirik hududlarning tasviriy o'lchamlari va maydoni haqida to'la va aniq tasavvurlar shakillanadi. Faqat globusdagina daraja to'ri xech qanday xatoliklarsiz tasvirlanadi, paralellar va meridianlar orasidagi masofa joydagi masofaga mos keladi.

Globusdan tabiiy geografik, iqtisodiy geografik hamda amaliy geografiya kurslari darslarini o'tkazishda keng foydalaniladi.

Tabiiy geografiya darslarida quyidagi mavzularni o'rganishda globusdan foydalanish mumkin:

- Yerning umumiyo ko'rinishini tasavvur etishda;
- Yerning shakli va o'lchamlari;
- daraja to'ri, qutblar, ekvator, meridianlar, paralellar, geografik kengliklar va uzunliklarni o'rganishda;
- Yer yuzasidan yuqoriga ko'tarilgan sari ko'rinda gorizontning kengayib borishini tushuntirishda;
- Yerning o'z o'qi va Quyosh atrofida aylanishi va uning oqibatlarini tushuntirishda;
- Yer o'qining orbita yuzasiga nisbatan og'ganligini tushuntirishda;
- geografik koordinatalarni belgilashda;
- Quyosh nurining Yer sharini turli kengliklarida turli burchak bilan tushishini ko'rsatishda;
  - atmosferaning umumiyo sirkulyatsiyasi, passatlarni o'rganishda;
  - eng muhim ekspeditsiyalar, sayohatlar yo'nalishlarini o'rganishda;
  - havo va suv yo'llarini ko'rsatishda;
  - davlatlar, jumladan, O'zbekistonning yer sharida joylashgan o'rnini tasavvur qilishda;
  - Yer sharining ayrim nuqtalari, masalan, Toshkent bilan Pekin o'rtaisdagi masofani aniqlashda qo'llaniladi.
- Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida quyidagi mavzularni globus yordamida o'tish mumkin:
  - jahon siyosiy xaritasi;

- qit'alar va alohida mintaqalar xaritasi;
  - mamlakat maydonlarini, chegaralar uzunligini aniqlash;
  - quruqlikda va suvda yo'llarni yo'nalishi va uzunligini aniqlash.
- Globusdan tabiiy geografiya kurslarida ko'proq foydalaniladi.

Yerning shakli va o'lchamlarini tabiiy geografik globuslarda o'rganish mumkin. Bunda Yerning dumaloqligi va uning og'irligi oson tushintiriladi. Yerning maydoni, aylanasining uzunligi globus masshtabidan foydalanib aniqlanadi. Masalan, globusning masshtabi 1:40000000 bo'lsa, globusdagi 1 sm oraliq Yer yuzasidagi 400 km ga teng ekanligi o'quvchilarga tushuntiriladi. Shundan so'ng, globusning ekvator bo'yicha uzunligi santimetrlarda yoki santimetrlarga bo'lingan matoli metr bilan aniqlanadi. Santemetrda o'lchangan globusning aylanasining uzunligi globus masshtabiga ko'paytiriladi. Masalan, globus aylanasining uzunligi 100 sm bo'lsa unda globus aylanasining (ekvatorning) uzunligi  $100\text{sm} \times 400 = 40000$  km. Huddi shu taxlitda sinf o'quvchilarining yarmi ekvatordan shimoldagi, yarmi ekvatordan janubdagisi paralellarni uzunligini aniqlashi mumkin. Bunda ular ekvatordan shimol va janub tomon paralellarni uzunligini kamayib borishini va qutblarda ular eng qisqa ekanligini bilib olishadi.

Daraja to'ri, paralellar, geografik uzunlik va kenglik tushunchalarini shakillantirishda ham globus katta ahamiyatga ega bo'ladi. Bunda har bir tushuncha masalan ekvator, qutblar, meridian va paralellar bevosita globusda ko'rsatilib tushuncha hosil qilinadi. Masalan, Yer sharini teng ikkiga bo'lib turadigan, uni o'rtasidan o'tkazilgan chiziqqa ekvator deb ataladi deb o'qituvchi globusdan ekvatorni joylashishini ko'rsatadi va undan Shimoliy va janubiy qutblargacha so'ng meridian, parallel, geografik koordinatalar tushunchalari hosil qilinadi va tegishli mashqlar o'tkaziladi.

Yerni o'z o'qi atrofida va Quyosh atrofida aylanishini ko'rsatish uchun globus va lampadan foydalaniladi. Bunda globus lampa atrofida aylantiriladi va yoritish mintaqalarini hosil bo'lishi tushuntiriladi. Globusni o'z o'qi atrofida aylantirib tong, tush, kech va qorong'u tushunchalarini ko'rsatish mumkin. Mazkur ishlar kecha va kunduzni, fasllar hosil bo'lishini tushuntirishga imkon beradi.

Mazkur tajribalar yordamida Quyosh nurlarini Yer yuzining turli joylarida turlicha burchaklarda tushishini, ya'ni, ekvator atroflariga tik, qublarga borgan sari tushish burchagi kamayib borishini va buning oqibatida Yer yuzasining turli joylari turli miqdorda issiqlik olishini

hamda qutblarda yarim yil to'xtovsiz Quyoshni botmasligi yoki chiqmasligini tushuntirish mumkin.

Tabiiy geografik globuslarda eng muhim ekspeditsiya va sayohatlar yo'nalishini ham tushirilgan. Mazkur ma'lumotlardan materiklar va okeanlar geografiyasini o'rganishda foydalanish mumkin. Masalan, Amireka qit'asini kashf qilinishi va tekshirish tarixini o'rganish davomida X. Kolumb ekspeditsiyasi yo'nalishlarini aniq va to'la tushintirish mumkin.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida globuslar ko'proq jahon siyosiy xaritasini o'rganishda davlatlarni joylashishi va maydonini aniqlashda, dengiz va quruqlikdagi yo'llarni yo'nalishi va uzunligini aniqlashda, yirik iqtisodiy va siyosiy ahamiyatga ega bo'lgan portlarni aniqlashda ishlataladi.

Bundan tashqari globuslar alohida materiklar, qit'alar, mintaqalar siyosiy xaritasini va ularda davlatlani joylashishini va ularni o'ziga xos xususiyatlarini o'rganishda ham ishlataladi.

#### **4.5. Kartografik tasavvurlarni shakillantirish texnologiyasi**

Kartografik tasavvurlarni shakillantirish geografik bilimlarni o'zlashtirishda katta ahamiyatga ega. Kartografik tasavvurlar quydagi usullar yordamida shakillantiriladi: geografik borliq, voqe va hodisalarini xaritada ko'rsatish; geografik voqe va hodisalarini nomlarini yozish; geografik borliq, voqe va hodisalar haqida o'quvchilarga ma'lumot berish; didaktik materiallardan foydalinish; geografik diktantlar tayyorlash; turli xil xarita chizmalarini chizish; chiziqli xaritalar bilan ishlash; globus va turli xil xaritalar bilan ishslash.

Geografik tasavvurlarni shakillantirishdan maqsad o'quvchilar tomonidan geografik obyektlar va ularni nomlarini hamda joylarini mustahkam o'zlashtirishdir.

Kartografik tasavvurlarni shakillantirish texnologiyasi quydagi bosqichlardan iborat:

1. Xaritalar haqida tasavvur hosil qilish;  
Dunyo xaritasi, yarimsharlar xaritasi, materiklar va okeanlar xaritasi, tabiiy geografik o'lklar va jahondagi davlatlar xaritalari. Xaritalar geografik borliq, voqe va hodisalarini kichraytilgan tasviri ekanligi haqida tasavvurlarni shakillantirish;
2. Xaritalarning masshtablari haqida tasavvurlarni shakillantirish.  
Masshtab bilan ishslash yo'llarini tushuntirish. Xaritalarni masshtabiga

ko'ra yirik, o'rta va mayda mashtabli xaritalarga bo'linishi haqida tasavvurlarni shakillantirish. Xaritalar mashtabi qancha mayda bo'lsa undagi borliq, voqeа va hodisalar shuncha kichraytirib tasvirlanishi haqida tasavvurlarni shakllantirish.

3. Geografik xaritalarning shartli belgilari haqida tasavvurlarni shakillantirish. Shartli belgilarning turlari va ularni o'qish hamda ulardan foydalanish texnologiyasini shakillantirish. Shartli belgililar asosida turli xil xaritalarni o'qish, o'lchash ishlari olib borish ko'nikmalarni shakillantirish.

4. Geografik xaritalarning matematik asosi (ekvator, meridian, parallel, daraja to'ri, geografik kenglik va uzunlik, geografik kordinatalar) va ulardan foydalanish texnologiyasini hosil qilish;

5. Geografik nomenklaturani o'qitish va aniqlash texnologiyasidan foydalanish ko'nikmasini shakillantirish. Geografik nomenklaturani va geografik obyektlarni Yer yuzasida joylashishini bilmasdan o'quvchilar xarita bilan ishlay olishmaydi va o'qituvchi dars jarayonida berilgan bilimlarni o'zlashtira olmaydi. Kartografik tasavvurlar tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografiyaning asoslarini o'zlashtirishda va har bir insonni amaliy faoliyatida katta ahamiyatga ega. Kartografik tasavvurlarni shakillantirish geografik ma'lumotlarni o'rganish davomida amalga oshadi. Bunda o'qituvchi o'quvchilarning xotirasini turli xil turlariga suyansa (eshitish, ko'rish, harakat, so'z, mantiq) katta natija beradi.

Geografik nomenklaturani o'rganishda fazoviy tasavvurlarni shakillantirish muhim o'rIN tutadi. Geografik nomenklaturani o'rganishni ikkita muhim guruhga ajratishimiz mumkin: tabiiy geografik, iqtisodiy-ijtimoiy geografik. Tabiiy geografik nomenklaturaga tog'lar, tekisliklar, daryolar, ko'llar, okeanlar, dengizlar, qo'lqiqlar, bo'g'izlar, okean osti tog'tizmalari, cho'kmalar, vulkanlar, botqoqlar, tabiat zonalari, iqlim mintaqalari, muzliklar, materiklar, qit'alar, o'lkalar nomlari kiradi. Iqtisodiy geografik nomenklaturaga davlatlar, shaharlar, portlar, harbiy bloklar, sanoat rayonlari, foydali qazilma konlari, ko'mir, neft, gaz havzalari nomlari kiradi.

## 5. Kuzatish va tajriba

Tabiatda va ishlab chiqarish jarayonida bevosita olib boriladigan kuzatishlar bilim olishning muhim manbalaridan biri hisoblanadi.

Geografiya bilimlarni berishning yana bir shakli bu tajriba metodidir. Bunda o'quvchilar tabiatda kuzatib bo'lmaydigan voqeа va hodisalarini

labaratoriya yoki sinf sharoitida tajriba yordamida ko'rishada va o'rganishadi.

**Ko'zatish** deganda, tabiiy sharoitda geografik borliq, voqeа va hodisalarini ma'lum bir maqsadli yo'nalishlarda o'quvchilar tomonidan qabul qilish tushiniladi.

**Tajriba** deganda, geografik voqeа va hodisalarini sodir bo'lishini suniy sharoitda amalga oshirish va o'rganish tushuniladi.

Kuzatish metodini ko'proq maktab hovlisida, o'quv sayohatlari jarayonida o'tkaziladi. Tajriba metodi geografiya ta'limida juda kam qo'llaniladi. Bu geografiya xonalarida tegishli asbob-uskunalarning yo'qligi, geografiya o'qituvchilarining tajribasizligi va uni kimyo, fizika o'qituvchilari bilan yaxshi aloqada emasligi tufayli sodir bo'ladi.

### 5.1. Kuzatish metodi

Kuzatish davomida o'quvchilar geografik borliq, voqeа va hodisalarini bevosita ko'rishadi va kuzatishadi. O'quvchilarni kuzatish jarayonida olgan bilimlariga asoslanib o'qituvchi ularni geografik borliq, voqeа va hodisalarini mohiyatiga tushunishni o'rgatadi. O'quvchilarning kuzatishga asoslangan bilimlari puxta va chuqurligi bilan ajralib turadi.

Kuzatish sinda, geografiya maydonchasida, o'z shahri yoki qishlog'i chekkasida, o'z viloyati va tumani doirasida o'tkazilishi mumkin.

Geografik kuzatishlar mazmuniga ko'ra quyidagi turlarga bo'linadi:

Astronomik; meteorologik va fenologik.

**Astronomik kuzatishlar.** Astronomik kuzatishlar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Quyoshni chiqishi va botishini kuzatish;
- yulduzlar va sayyoralarini kuzatish;
- qutub yulduzlarini aniqlash;
- Oy fazalarini aniqlash;
- imkoniyat bo'lsa observatoriyalagi asboblar bilan tanishish;
- planetariya sayohat.

Quyoshni chiqishi va botishini kuzatish. Quyoshni chiqishi va botishini sinfdan tashqarida yani maktab xovlisida kuzatish mumkin. Bevosita dars jarayonida Quyoshni chiqishi va botishini kuzatib bo'lmaydi. Quyosh chiqishini kuzatish uchun avval kalendardan ertalab Quyoshni chiqish vaqtini aniqlash lozim. Iloji boricha Quyoshni chiqishi va botishini bahorning oxiri va kuzning boshlarida kuzatgan ma'qul.

Yozda o'quvchilar ta'tilda bo'lganliklari uchun mazkur kuzatishlarni amalga oshirib bo'lmaydi.

Quyoshni kuzatish quyidagi tartibda olib boriladi:

- o'quvchilar Quyoshning chiqishadan 5-10 minut oldin yig'iladi;
- Quyoshni chiqishini kuzatishda quyidagilarga ahamiyat beriladi:
  - a) Quyoshning ko'rinish vaqt;
  - b) Quyoshning to'la ko'rinish vaqt;
  - v) Quyoshning ufqdan ko'tarilish vaqt;
- Quyosh qaysi tabiiy geografik borliqlar orqasidan ko'rinishi aniqlanadi (tog', qir, balandlik, tekislik va h.k.);
- Quyoshning botishini kuzatish quyidagi tartibda olib boriladi:
  - a) Quyosh doirasini Yer yuzasiga tegish vaqt;
  - b) Quyosh doirasini yarmini ufq ortiga o'tish vaqt;
  - v) Quyoshning to'la ko'rinxmay qolgan vaqt;
- g) Quyoshning qaysi geografik borliq orqasiga botganligi aniqlanadi;
- Quyosh chiqqan tomon sharq, botgan tomon g'arb ekanligi o'quvchilarga tushuntiriladi.

Yulduzlarni va sayyoralarini kuzatish tunda olib borilganligi uchun maktab sharoitida keng tarqalmagan. Qutib yulduzini aniqlash ham tunda olib boriladi. Yulduzlarni, sayyoralarini va Oyning davrlarini kuzatishni o'quvchilar mustaqil o'rganishlari mumkin. Buning uchun o'qituvchi dars paytida ulardagi yulduzlar, sayyoralar va Oy davrlarini qanday kuzatishni o'rganishi lozim, yoki vaqt topib ular bilan birga astronomik kuzatishlar olib borib, so'ngra boshqa paytlarda ularga osmon jismlarini kuzatish bo'yicha topshiriq berishi mumkin.

**Meteorologik kuzatishlar.** Meteorologik kuzatishlarda umumta'lim maktablarida ob-havoni kuzatish alohida o'rinn tutadi.

Ob-havoni kuzatish bir necha bosqichlardan iborat:

-o'quv yilining boshida ob-havoni kuzatishni tashkil etish va kuzatish usullari bilan maxsus darsda o'quvchilarni tanishtirish;


-kuzatishdan avval meteorologik asboblar bilan ishslash ko'nikmalarini shakillantirish lozim. Masalan, termometrdan hisob olish texnologiyasi va h.k.;

-maxsus bilimlarni o'tgunga qadar oddiy meteorologik kuzatishlar olib boriladi (harorat, shamol, bulutlar, yog'ingarchilik);

-iqlim haqida maxsus mavzular o'tib bo'lingandan so'ng atmosfera bosimi, shamol kuchi, bulutlarning xillari va ularning xolati haqida kuzatishlar olib boriladi. Havoning haroratini va shamol yo'nalishini

dastlab bir kunda bir marta kuzatishi mumkin, bulutlik va yog'inlarni kun davomida kuzatish mumkin;

-shamolning kuchi va yo'nalishini quyidagicha aniqlash va tasvirlash mumkin:



O'qlardagi qanot ballni ko'rsatiladi. Uzun qanot -2 ball, kalta qanot -1 ball.

Bulutlikni kuzatish natijalari quyidagicha ifodalanadi:

Atmosfera yog'inlarini kuzatish natijalarini quyidagicha tasvirlanadi:

### ... - Yomg'ir

|         |            |
|---------|------------|
| * - qor |            |
| ==      | - tuman    |
| └       | - qirov    |
| △       | - do'l     |
| ◐       | - shudring |

VI sinfdan boshlab ob-havoni kuzatish quyidagi 7-jadval asosida olib boriladi.

7-jadval

|           |               |             |                                |          |            |                              |      |
|-----------|---------------|-------------|--------------------------------|----------|------------|------------------------------|------|
| Oy va kun | Havo harorati | Havo bosimi | Shamolning yo'nalishi va kuchi | Bulutlik | Yog'in lar | Quyoshning ufqdan balandligi | Izoh |
|-----------|---------------|-------------|--------------------------------|----------|------------|------------------------------|------|

Mazkur jadval har kuni muntazam kuzatish natijalari bilan to'ldirib boriladi va har oy oxirida tahlil qilinadi. Tahlilda oy davomidagi eng yuqori va eng past harorat, bosimning pasaygan va ko'tarilgan kunlari, shamolning asosiy yo'nalishlari, bulutlik, yog'inlar. So'ngra ob-havoni o'zgarishi fasllar bo'yicha tahlil qilinadi va yillik o'rtacha harorat va bosim aniqlanadi.

**Fenologik kuzatishlar.** Tabiatda sodir bo'ladigan fasliy o'zgarishlarni va ular bilan bog'liq ravishda o'simlik va hayvonot dunyosining o'zgarishini kuzatish geografik bilimlarni oshirishda va ularni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Fenologik kuzatishlar maktab hovlisida, geograiya maydonchalarda olib borilishi mumkin.

Fenalogiya-tabiatdagi mavsumiy hodisalar, ularning boshlanish muddatlari va shu muddatlarni belgilovchi sabablar to'g'risidagi bilimlar tizimidir. Fenalogiya atamasini fanga Belgiyalik botanik Sh.Morran 1853 yil kiritgan.

Fenologik kuzatishlar quyidagi qismlardan iborat:

a) yuksak o'simliklarda kurtaklarning bo'rtishi va yozilishi, barg chiqarishi, g'unchalash, gullash, urug' va mevalarning pishib yetilishi, kuzda barglarning sarg'ayishi va to'kilishi;

b) sut emizuvchi hayvonlarni kuzatishda quyidagilarga e'tibor beriladi: qishki uyqidan uyg'onishi, juftlashishi, bolalash, mavsumiy tullah va h.k.;

v) qushlarni kuzatishda quyidagilarga e'tibor beriladi: bahorda uchib kelishi, in qurishi, tuxum qo'yishi, jo'ja ochishi, kuzda uchib ketishi;

g) baliqlar quyidagicha kuzatiladi: bahorgi serharakat hayot, uvildiriqlar tashlash, mavsumiy ko'chib yurish va h.k.

Fenalogiya fani quyidagi tarmoqlarga bo'linadi: umumiyligi va xususiy fenologiyaga bo'linadi. Umumiyligi fenologiya tabiat taraqqiyotini yil fasllarini bir me'yorda almashib turishi bilan bog'liq xoldagi hodisa sifatida o'rjaniladi. Xususiy fenologiya fitofenologiya va zoofenologiyaga bo'linadi.

Tabiatdagi mavsumiy hodisalarning boshlanish muddatlarini belgilab beruvchi omillar va qonuniyatlarni ekologik fenologiya o'rjanadi. Mazkur omillar endogen va ekzogen guruhlarga bo'linadi. Endogen omillar

Yerning ichki kuchlari bilan bog'liq. Tashqi ekzogen omillarni iqlim belgilab beradi. Masalan, o'simlik va hayvonot dunyosini bahorgi uyg'onishini va qishki uyquga ketishini joyning issiqlik me'yori belgilab beradi.

Fenologik-geografik qonuniyatlarni aniqlash uchun fenologik kuzatishlar olib boriladi. Fenologik qonuniyatlar asosida qishloq xo'jalik tarmoqlari bo'yicha qilinadigan mavsumiy ishlar va tadbirlarni mintaqaviy taqvimi tuziladi. Bunday taqvimdan tabiatni muhofaza qilish tadbirlari ishlab chiqishda foydalilanadi.

Kuzatish metodi o'quvchilarning bilish qobiliyatini rivojlantiradi. Uzoq muddatli kuzatishlar katta ahamiyatga ega, uning natijasida o'quvchilar mustaqil ravishda tegishli xulosalar qilishi mumkin.

O'z o'lkasini tabiatni va aholisini, aholining xo'jalik faoliyatini kuzatish geografiya o'qitish metodikasida o'lakashunoslik tamoilini amalga oshirish imkonini beradi.

Kuzatish boshqa hududlarni diqqat bilan o'rganishga imkon beradi. Masalan, jahon tabiiy va iqtisodiy geografiyasini o'rganishda, materiklar va davlatlarning geografik sharoitlari o'quvchilarni o'z yashash joyi sharoiti bilan taqqoslashga imkon beradi.

Geografik kuzatishlar o'quvchilarni tabiatdagi voqe va hodisalarini ko'p qirrali xususiyatlari bilan tanishtiribgina qolmasdan, balki, tabiiy geografik va iqtisodiy geografik voqe va hodisalarini bir-biri bilan o'zaro bog'liqligini ham oolib beradi.

Geografik voqe va hodisalarini kuzatish muddatlari ham turlicha. Ayrim hodisalarini (ob-hovo) uzoq muddat kuzatishga to'g'ri kelsa, boshqa hodisalarini esa qisqa vaqtda kuzatish mumkin (yomg'ir yog'iши, shamol, chaqmoq va h.k.). Dastlab geografik bilimlarni o'zlashtirishga imkon beradigan voqe va hodisalarini kuzatmoq darkor. Ko'p geografik tushunchalarni tegishli kuzatishsiz o'rjanib bo'lmaydi (ob-havo, iqlim, relyef shakillari, ichki suvlari va h.k.).

Geografik kuzatish ko'nikmalarini shakllartirish murakkab vazifalardan hisoblanadi va unda quyidagi talablarga javob berish lozim:

1. O'quvchilarga kuzatishni maqsadi, vazifalari, mazmuni va obyekti haqida so'zlab berish lozim. Bunda kuzatish dasturini ishlab chiqish katta ahamiyat kasb etadi.

2. O'quvchilarga tegishli asboblar bilan ishslashni o'rgatish lozim (kompass, barometr, flyuger, niveler va h.k.).

3. Kuzatish natijalarini aniq qayd etishni o'rjanish lozim (daftarga, kuzatish jurnaliga).

4. Kuzatish natijalarini umumlashtirish va qayta ishslash ko'nikmalarini shakillantirish. Masalan, o'rtacha sutkalik, oylik va yillik haroratlarni hisoblash, daryo oqimini hisoblash; bosim chizmalarini tuzish; korxonani ishlab chiqarish aloqlari chizmasini tuzish.

5. O'quvchilarni geografik voqeа va hodisalar o'rtasidagi o'zaro aloqalarni aniqlashga o'rgatish. Masalan, iqlimiш sharoit va qishloq xo'jaligi o'rtasidagi bog'liqlig.

6.O'quvchilarni kuzatish ishlariga qiziqish uyg'otish zarur. Buning uchun kuzatish ishlarini muntazam nazorat qilib turish zarur. Ularga kuzatish ishlarini oldindan aytmaslik kerak.

Kuzatishning mazmuni xilma-xil bo'lmog'i lozim va sinfdan sinfga o'tgan sari murakablashib borishi zarur. Dars jarayonida kuzatish natijalaridan muntazam foydalanib borish kerak.

O'quv yili boshida mavzular bo'yicha kuzatish natijalaridan foydalanish rejasini tuzmoq zarur. Geografik voqeа va hodisalarni kuzatish malakalari ortishi bilan o'quvchilarni mustaqil ish olib borish qobiliyatlar ortib boradi. Kuzatish davomida o'quvchilarni mustaqilligini oshirish tartibi quyidagilardir:

-o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida kuzatish olib borishadi. Kuzatish sinfda, geografiya maydonlarida yoki joylarda olib boriladi. Asosan havo harorati, yog'inlar, shamollar, Quyoshning balandligi kuzatiladi;

-o'qituvchi bergen reja asosida o'quvchilarni tabiatda va ishlab chiqarishda olib boriladigan mustaqil ishlari (meteorologik, gidrologik, fenologik, xo'jalik) kuzatish natijalarini o'quvchilar mustaqil ravishda qayta ishslashadi va umumlashtiriladi;

-o'quvchilarni kuzatish ishlari dasturini ishlab chiqishda qatnashishi. Ular tomonidan uzoq vaqt kuzatish ishlari olib borilishi va ularni natijalarini umumlashtirishi (diagramma, xarita, chizmalar tuzish)

Kuzatish metodlarini takomillashtirishning asosiy yo'li o'quvchilarning mustaqilligini oshirishdir.

## 5.2. Tajribalar

**Tajriba metodi** deb, o'quvchilar tabiatda bevosita kuzata olmaydigan voqeа va hodisalarni laboratoriya mashg'ulotida yaratishga aytildi. Ayrim voqeа va hodisalar juda tez sodir bo'ladi (zilzila, vulqon va h.k) ayrimlari juda uzoq vaqt davom etadi (tog' jinslarini hosil bo'lishi, tog'larni ko'tarilishi, daryo vodiylarni shakillanishi va h. k.). bunday jarayonlarni bevosita kuzatib bo'lmaydi.

Tabiiy geografiyanı qator mavzularini o'rganishda tajribalar o'tkazish muhim o'rın tutadi. Tajriba yordamida murakkab tabiiy geografik jarayonlarning sodir bo'lishini o'quvchilarga sinf sharoitida ko'rsatish mumkin.

Geografiya o'qitish metodikasida quyidagi tajribalar o'tkaziladi:

- 1.Litosfera mavzusini o'rganishda o'tkaziladigan tajribalar
- 2.Gedrosfera mavzusini o'rganishda o'tkaziladigan tajribalar
- 3.Atmosfera mavzusini o'rganishda o'tkaziladigan tajribalar.

### Litosfera mavzusini o'rganishda tajriba metodidan foydalanish.

Mazkur mavzuni o'tishda cho'kindi jinslarni hosil bo'lishini, burmalarni vujudga kelishini tajribada ko'rsatish mumkin.

Cho'kindi jinslarni hosil bo'lishini tajribada quyidagicha ko'rsatish mumkin: buning uchun 11 shisha bankaga yarim litr suv quyiladi. Unga qum va gil solinadi, so'ngra banka silkitiladi. Silkish jarayonida qum va gil suv bilan aralashadi va loyqa hosil bo'ladi. Shundan so'ng banka stol ustiga qo'yilib tindiriladi. Tindirish jarayonini o'quvchilar kuzatib turishlari lozim. Tindirish jarayonida banka tubiga avval og'irroq jins, yani, qum tusha boshlaydi va qum qatlami hosil bo'ladi, keyin yengilroq gil qatlami cho'ka boshlaydi hamda qum qatlamini tepasida gil (loyqa) qatlami hosil bo'ladi, uni tepasida suv qatlami joylashadi.

Tajribadan so'ng o'qituvchi sinfga quyidagi savollar bilan murojat qiladi:

- qaysi tog' jinslari oldinroq cho'kdi?
- qaysi tog' jinslari keyinroq cho'kdi?
- nima uchun idish tubida hosil bo'lgan jinsn cho'kindi tog' jinsi deb ataladi?

- cho'kindi tog' jinslarini qanday belgilarga qarab aniqlash mumkin.

Tog' tizmalarini yoki burmalarni hosil bo'lishini ko'rsatish uchun 20-30 dona qog'oz varag'i yoki o'quvchilarni daftarlardan foydalanish mumkin. Buning uchun qog'ozlar qatlami yoki sinf daftari stol ustiga gorizontal xolatda qo'yiladi. So'ngra ikki tomonidan siqiladi, natijada tog' tizmasi va tizmalar orasidagi vodiy (botiq) hosil bo'ladi. Vertikal qatlami esa burmalarni vujudga kelishini ifodalaydi. Bundan tashqari graben va gorstlerni hosil bo'lishini plastilindan foydalanib o'quvchilarga ko'rsatilsa ham bo'ladi.

### Gidrosfera mavzusini o'rganishda tajriba metodidan foydalanish.

Gidrosfera mavzusini o'qitish jarayonida quyidagi tajribalarni o'tkazish mumkin:

- suvni isiganda kengayib soviganda torayishini;

- tog' jinslarining o'zidan suvni turlicha o'tkazishni;
- suvning tushish burchagiga qarab tog' jinslarini yuvilishi va jarlarni hosil bo'lishini;
- sharsharani vujudga kelishini.

Suvni isiganda kengayishi, soviganda torayishini quyidagi tajribada ko'rish mumkin (O.Mo'minov, 1986):

-kolbaga suv quyiladi va suvgaga bir necha tomchi siyoh tomizib rangli qilinadi;

-suvning kolbadagi sathi (kolbaning tor og'zi)ga ip boylab belgilanadi va kolbaning og'zi o'rtasidan shisha naycha o'kazilgan qopqoq bilan yaxshilab berkitiladi;

-kolbadagi suvni spirt lampasi yordamida qizdiriladi. Shunda suv ip bilan belgilab qo'yilgan sathdan yuqori ko'tarilib, shisha naycha ichiga kiradi.

Turli tog' jinslarini suvni turlicha o'tkazishini quyidagi tajribada ko'rsatish mumkin:

-ikkita shisha varonka shtativga o'rnatiladi va ularning pastki teshigi paxta bilan berkitiladi;

-birinchi kolbaga yarim stakan gil (tuproq), ikkinchisiga yarim stakan qum solinadi;

-voronkalardagi gil va qum ustiga yarim stakan suv quyiladi;

-tajribada suv qumdan tez o'tishi va gildan juda sekin o'tishi aniqlanadi;

-suv quyilishi va uni qum yoki tuproqdan o'tishi vaqtini belgilab yer osti suvlari tezligini ham aniqlash mumkin.

Bundan tashqari turli tog' jinslarining suvda eruvchanligini ham o'rganish mumkin. Buning uchun slindrga suv quyiladi va unga o'rganilayotgan tog' jinslarining bir bo'lagi solinadi, so'ng uning to'la erish vaqtini kuzatiladi. Eriydigan tog' jinslariga turli xil tuzlar, tuproqlar va qumtoshlar kiradi.

Mazkur tajribalar asosida o'quvchilar turli tog' jinslarini turlicha suv o'tkazishi va yer osti suvlari harakati haqida bilimlarga ega bo'lishadi.

#### **Atmosfera mavzusini o'rganishda bajariladigan tajribalar.**

Mazkur mavzuni o'rganishda tajriba metodi o'quvchilarni tegishli bilimlarini egallashi va kunikmalarni hosil qilishida katta ahamiyatga ega.

Atmosfera mavzusini o'rganishda quyidagi tajribalarni o'tkazish mumkin:

- quruqlik va suvlikni turlicha isishini;
- bulut va yomg'irlarni hosil bo'lishini;

- qirov va qorni hosil bo'lishini va h.k.

Quruqlik va suvlikning turlicha isishini ko'rsatadigan tajriba o'quvchilarda quruqlik va musson iqlimi haqida tushunchalarini shakillantirishda katta ahamiyatga ega. Mazkur tajribani «Ob-havo va iqlim» mavzusini o'tishda ko'rsatish mumkin. Tajriba quyidagi tartibda olib boriladi:

- ikkita bir xil quticha shaklidagi idish olinadi. Mazkur idishlarning o'lchamlari quyidagicha bo'lishi lozim; uzunligi 15 sm, kengligi- 7,5 sm, balandligi - 5 sm, ikkita bir xil termometr, lampa (qizdirish uchun):

- idishlarni biriga suv, ikkinchisiga tuproq solinadi, bir paytni o'zida ikkalasini ham harorati o'lchanadi (har ikkala idishning harorati bir xil bo'lishi kerak, masalan, 20°C);

- ikkala idishdagi suv va tuproq lampa yordamida qizdiriladi va 6-7 minutdan so'ng haroratlar yana qaytadan o'lchanadi (masalan, tuproq harorati taxminan 42°C ga yetganda, suv harorati 23°C bo'ladi);

- idishlar salqin joyda sovitiladi va har ikkalasining harorati qayta o'lchanadi (masalan, tuproq harorati 19°C, suvning harorati 21°C).

Tajribadan ko'rinish turibdiki, tuproq 22°C isiganda, suv 3°C isigan, tuproq 23°C soviganda, suv 2°C sovigan.

Termometrdan olingan ma'lumotlar o'qituvchi tomonidan sinf taxtasiga yoziladi, o'quvchilar esa daftarlariiga yozib olishadi. Ma'lumotlar quyidagi 8-jadval shaklida ifoda qilinadi.

8-jadval

| Yuza   | Harorat darajasi |                      |                     | Farqi |
|--------|------------------|----------------------|---------------------|-------|
|        | Dastlabki        | Qizdirilgandan so'ng | Sovutilgandan so'ng |       |
| Suv    | 20               | 23                   | 21                  | 2     |
| Tuproq | 20               | 42                   | 19                  | 23    |

Suv va tuproq haroratidagi farqning kattalgi tuproq, yani Yer yuzasiga nisbatan tezroq isib tezroq sovishiga o'quvchilarda ishonch hosil bo'ladi. Bu esa quruklik va okaenda iqlimni turlichaligini asoslab beradi.

Bulut va yomg'irni hosil bo'lishini tajribada ko'rsatish uchun baladligi 25-30 sm keladigan shisha idish (slindr) olinadi. Idishning devori terlamasligi uchun u bir oz qizdiriladi. Idish ichiga suv solinadi va spirtli lampada qizdiriladi. Idishning qopqog'ini tepasiga muz solib qo'yilsa, muz ostida bulut (bug') hosil bo'ladi, sungra undan yomg'ir (suv tomchilari) ajralib chiqqa boshlaydi. Demak, o'quvchilar bulutlar va yog'inlar hosil

bo'lishining sinf sharoitida kuzatishi va ushbu jarayonni to'la kuzatishi mumkin.

**Geografiya darslarida o'tkaziladigan tajribalarga qo'yiladigan talablar.** O'tkaziladigan tajriba ko'zlangan maqsadga erishish va unda beriladigan bilimlarni o'quvchilar yaxshi o'zlashtirishlari uchun u quyildagi talablarga javob berishi lozim (Gerasimova, Korinskaya):

1. o'qituvchi dars rejasini tuzayotganida qanday masalalarni tajriba yordamida tushuntirishni oldindan belgilashi zarur. Tajriba o'rganilayotgan mavzu bilan bevosita bog'langan bo'lmg'i lozim;

2. tajribani boshlashdan avval o'quvchilarni tajriba mavzusi, uning ahamiyati va tajriba o'tkazishni asosiy bosqichlari bilan tanishtirish lozim. Masalan, o'qituvchi shag'al va gilni suv o'tkazuvchanligini o'rganish bo'yicha tajriba o'tkazishdan oldin o'quvchilar mazkur tajriba orqali nimalarni bilib olishlarini aytib berish lozim. Mazkur bilimlar buлоqlarni artezian va oddiy quduqlarni o'rganishda zarur bo'lishini takidlashi lozim;

3. o'quvchilarni faolligini oshirish va o'tkazilayotgan tajribani mohiyatini tushunayotganini tekshirish maqsadida sinfga savol bilan murojat qilish va har bir o'quvchini kuzatib turish lozim;

4. tajriba davomida o'qituvchi o'quvchilarda kuzatilayotgan hodisa haqida mustaqil fikrlash qobiliyatini uyg'otish zarur va tajribani oxirida ular mustaqil xulosalar qilishlari lozim. Masalan, quruqlik va suvlikni isishi vasovushini tajribada o'rganish davomida o'quvchilar quruqlik okeanlarga nisbatan tez isib va tez sovishi, buni oqibatlarida turli iqlim va tuproqlarini shakillanishi haqida bilimlarga ega bo'lishadi;

5. tajriba davomida rasmlar, jadvallar, chizmalar va ko'rgazma qurollarni ham ko'rsatib borishi lozim;

6. tajriba o'tkazish uzoq davom etmasligi lozim. O'ta murakkab tajribalar bir soatdan ortiq davom etmasligi kerak;

7. tajribani o'tkazishga o'quvchilar puxta tayyorlanishi lozim.

8. tajriba o'tkazilayotganda jihozlarni shunday joylashtirish kerakki, ularni o'quvchilarning hammasi ko'rib tursin.

Maktab geografiya maydonchasida quyidagi tajribalarni o'tkazish mumkin: suvni yemirish ishi; yer yuzasini yonbag'rini qiyaligi va nima bilan qoplanganini bog'liq xolda turlicha isishi.

Suv va quruqlik yuzasini havoning isishiga ta'sirini o'rganish uchun quruqlik va suv havzasi yuzasida harorat turli vaqtida o'rganiladi va tahlil qilinadi.

Relyefni haroratga ta'sirini o'rganish uchun havo harorati tekislik va tog' yonbag'rida o'rganiladi. Olingan ma'lumotlarni tahlil qilish asosida

tekislik va yonbag'irni turlicha isishi haqida o'quvchilar bilimlarga ega bo'lishadi. Ya'ni o'quvchilar tajriba asosida yonbag'irlarni shimoliy va janubiy qismlarida o'simlik turlarining xilma-xilligini tushunib olishadi.

Gruntlarni turi, mexanik tarkibi, rangi, o'simlik bilan qoplanganlik darajasi, namligining yer yuzasini isishiga ta'sirini saqlash uchun quyidagi tajriba o'tkaziladi:

- chuqurligi 0,5 m, kengligi 0,5 m, uzunligi 1 m bo'lgan bir necha chuqur qaziladi;

- mazkur chuqurlar turli xil tog' jinslari va tuproqlar bilan to'ldiriladi;

- ma'lum vaqt o'tgandan so'ng ularni haroroti o'chanadi;

- turli vaqtarda turli tog' jinslari va tuproqlar haroratining qiymatlari tahlil qilinadi va tog' jinslarining turlari, mexanik tarkibi hamda namlik darajasi haroratga qanday ta'sir etishi aniqlanadi.

Geografiya maydonida yoki ochiq joyda o'quvchilar tomonidan tuproqlarni va tog' jinslarini haroratini mustaqil o'rganilishi geografiya ta'limini hayot bilan bog'liqligini mustahkamlaydi.

## 6. Matematik va statistik metod

Geografiya ta'limida matematik va statistik metodlardan foydalanish o'quvchilarda mayjud qonuniyatlarni to'laroq tushuntirishga, geografik voqe va hodisalar orasidagi o'zaro bog'liqliklarni aniqlash ko'nikmalarini shakillantirishga imkon beradi.

### 6.1. Geografiya ta'limida matematik metodlar

Geografiya darslarini deyarli barchasida matematik metodlardan foydalanishga to'g'ri keladi, ammo mazkur metodga shu paytgacha kamroq e'tibor berilgan.

Maktab geografiya kurslarining o'rganishda matematik metodlar quyidagi masalalarni yechishda qo'llaniladi:

- uzunlik va maydonni hisoblashda;

- geografik koordinatalarni aniqlashda;

- gorizontallar yordamida relyefning asosiy ko'rsatgichlarini aniqlashda;

- iqlimi y o'rsatgichlarni hisolashda;

- gidrologik ko'rsatgichlarni hisoblashda;

- biologik ko'rsatgichlarni hisoblashda;

- tabiiy resurslarni ko'rsatgichlarini hisoblashda;

- aholi soni va uni ko'rsatgichlarini aniqlashda;

- sanoat va qishloq xo'jaligi bo'yicha ko'rsatgichlarni hisoblaganda;
- eksport va import ko'rsatgichlarini aniqlaganda;
- yuk tushirish ko'rsatgichlarini aniqlashda va h.k.

Matematik metodlar yordamida geografik ma'lumotlarni quyidagicha ifodalash mumkin:

- jadvallar yordamida;
- grafiklar yordamida;
- diagrammalar yordamida;
- kartadiogrammalar yordamida;
- xaritalar yordamida.

Geografiya fanining ikkita katta tarmog'ining barcha qismlari bo'yicha bilimlar berishda va tegishli ko'nikmalarni shakllantirishda matematik metodlardan unumli foydalanish katta samara beradi. Shu munosabat bilan matematik metodlardan foydalanish texnologiyasini tabiiy va iqtisodiy geografiya kurslari uchun alohida-alohida ko'rib chiqamiz. Chunki geografiya fanining ushbu ikki tarmog'i bir birini to'ldirishi bilan birga o'ziga xos xususiyatlarga ham ega.

## **6.2. Tabiiy geografik bilimlar berishda matematik metodlardan foydalanish**

Tabiiy geografiya kurslarida matematik metodlar plan va xaritalar bilan ishlashda, masofalarni daraja va metrlar yordamida hisoblash, geografik koordinatalarni aniqlash, gorizontallar bilan ishlash, mutloq va nisbiy balandliklar bilan ishlash, litosfera, gedrosfera va beosfera, tabiatni muhofazasi va boshqa mavzularni o'rganishda matematik metodlar qo'llaniladi.

Tabiiy geografiya boshlang'ich kursida matematik metodlardan foydalanish deyarli barcha mavzularni o'rganish jarayonida amalga oshiriladi. Plan va xarita bo'limida masofani o'lchash, masshtab, gorizontallar geografik koordinatalar bo'yicha o'tiladigan nazariy va amaliy mashg'ulotlarda matematik metodlar qo'llaniladi.

O'quvchilar qiyin tushunadigan va amaliy mashg'ulotlarni bajarishga qynaladigan mavzulardan biri mashtab mavzusidir. Mashstabni tushuntirganda sinf xonasidan foydalanish mumkin. Sinf xonasining uzunligi va kengligini qog'ozga tushiradigan bo'lsak, undan foydalanish noqulay bo'lishi, agar stadion yoki bog'ni planini tuzadigan bo'lsak ularni maydoniga teng qog'oz kerak bo'ladi, shuning uchun sinf xonasini, stadionni, bog'ni, tuman, viloyat, davlat va materiklarni xaritasini

tuzganda ular matematik jihatdan kichraytirib olinadi. Joydagি bir kilometr masofa qog'ozda bir santimetrga teng deb olinishi mumkin, bunda joydagи masofa qog'ozda 100 000 marotaba kichraytirib tasvirlangan bo'ladi. Demak, joydagи masofani xaritalarda necha marta kichraytirib tasvirlanishini ko'rsatadigan ifodaga masshtab deb atiladi. Yuqoridagi ifoda matematik jihatdan quyidagicha ifodalanadi: 1:100 000 ushbu masofa xaritadagi 1sm masofa joydagи 100 000 sm ya'ni bir kilometr masofaga teng ekanligini bildiradi. Xaritalarda masofalar kilometrda va darajalarda ifodalanadi. Masalan,  $1^{\circ}$  meridian yoyining uzunligi o'rtacha 111,1 km.,  $1^{\circ}$  ekvator yoyining uzunligi esa 111,3 km ga teng. Xaritada ekvatordan qutblar tomon parallelning qisqarishi munosabati bilan ularda  $1^{\circ}$  yoyni uzunligini qisqarib boradi, ammo meridian bo'yicha esa o'zgarmaydi. Bir muyan uzunligini bilgan holda xarita yoki globuslarda ikki nuqta orasidagi masofani quyidagicha aniqlash mumkin:

$$L = N^0 \times M$$

L – ikki nuqta orasidagi masofa, km da

$N^0$  – ikki nuqta orasidagi masofani darajada ifodalanganligi, ya'ni mazkur nuqtalar orasidagi darajalar farqi ( $f_1^0 - f_2^0 = N^0$ ).

M – ma'lum bir parallel yoki meridian yoyi bo'yicha  $1^{\circ}$  yoyni uzunligi.

Masalan, ekvatordan Toshkentgacha bo'lgan masofa darajalarda  $41^{\circ}$ . Mazkur masofani kilometrda ifodalash uchun L meridian yoyini uzunligini topamiz.  $1^{\circ} = 111,1$  km. U holda

$$L = 41^{\circ} \times 111,1 = 4555,1 \text{ km.}$$

Xaritadagi uzunlikni santimetrda aniqlab uni haqiqiy uzunligini masshtab o'lchamiga ko'paytirish orqali topish mumkin. Masalan, xaritaning masshtabi 1:10 000 000 bo'lsin, masshtab o'lchami 1 sm da 100 km. Ikkinci nuqta orasidagi masofa 5 sm. Unda joydagи haqiqiy masofa



$$L = l_1 \times l_0^{-1} = 5 \times 100 = 500 \text{ km}$$

$l_1$  = xaritadagi ikki nuqta orasidagi masofa sm.

$l_0^{-1}$  = masshtab o'lchami

L = joydagи haqiqiy masofa

Gorizontallar bilan ishslash ko'nikmalarini shakllantirish topografik xaritalarni o'qishda muhim ahamiyatga ega. Gorizontallarni balandligini qaysi tomonga qarab ortishi yoki kamayishiga qarab balandlik yoki botiqni qaerda joylashganini va o'lchalarimini aniqlashimiz mumkin. Masalan, quyidagi chizmaga qarab qanday relyef shakli tasvirlanganini va uning o'lchamlarini aniqlaymiz.



«a» rasmida gorizontallarning mutloq balandligi markazdan atrofga tomon ortib bormoqda, demak, bu yerda botiq tasvirlangan. Botiqni chuqurligini topish uchun chekkadagi va markazdagi gorizontallar farqini topamiz

$$(N_1 - N_2) \text{ ya'ni } 300 \text{ m} - 200 \text{ m} = 100 \text{ m. botiqning chuqurligi } H = N_1 - N_2$$

«b» rasmida gorizontallarning mutlaq balandligi chekkadan markaz tomon ortib bormoqda, demak, mazkur chizmada balandlik tasvirlangan. Uning balandligi qo'yidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$N = N_2 - N_1 = 1000 - 600 = 400 \text{ m}$$

Demak, tepalikning balandligi 400 m ekan.

Gidrosfera mavzusini o'rganishda matematik metodlar qo'yidagi xollarda qo'llanildi: daryo suv sarfini aniqlash, daryo tizimi zichligini aniqlash, daryo havzasini, maydonini aniqlash, okean suvi shorligini aniqlash va h.k.

Daryolarning suv sarfi doimo kerak bo'ladi dan o'lchamlardan biri hisoblanadi. Har qanday daryolarni yoki soyni suv sarfini aniqlash uchun quyidagi ma'lumotlar zarur bo'ladi: daryo ko'ndalang kesimining maydoni, suv oqimining tezligi. Ushbu ma'lumotlar bo'lgan taqdirda daryoning suv sarfi qo'yidagi formula orqali aniqlanadi:

$$Q = F \times V \text{ m}^3 / \text{sek.}$$

$$Q = \text{daryoning suv sarfi, m}^3 / \text{sek}$$

$$F = \text{daryoning suv oqimining ko'ndalang kesimi maydoni}$$

$$F = H \times L = \text{m}^2$$

$$H = \text{daryo suv qatlaming balandligi, m.}$$

$$L = \text{daryo suv qatlaming kengligi, m.}$$

Masalan, daryo suv oqimining balandligi 1,0 m, kengligi ( $L$ ) 5 m, suv oqimining tezligi sekundiga 10 sm bo'lsa, uning suv sarfi quyidagicha bo'ladi:

$$Q = 15 \times 10 = 50 \text{ m/sec.}$$

Daryo havzasining maydonni turli usullar yordamida aniqlanishi mumkin. Umumta'lim maktablari o'quvchilari uchun eng sodda usul daryo havzasini o'rtacha kengligi va uzunligini ko'paytmasini hisoblashdan iborat. Masalan, daryoning havzasini o'rtacha kengligi 16 km, o'rtacha uzunligi 150 km. Unda daryo havzasining maydoni

$$F = L \times H = 16 \times 150 = 2400 \text{ km}^2$$

Daryo havzasining zichligi quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

$$3 = 500 \text{ km} : 500 \text{ km} = 1 \text{ km}$$

Demak, 1 km<sup>2</sup> maydonga 1 km uzunlikdagi daryo to'g'ri kelar ekan.

Ko'l suvini hajmi quyidagi tartibda aniqlanadi: a) ko'lning maydoni aniqlanadi; b) ko'lning chuqurligi aniqlanadi (N); v) ko'lning suv hajmi aniqlanadi.

$$Q = F \times H \text{ m}^3$$

$$F = \text{ko'l maydoni}$$

$$N = \text{ko'lning chuqurligi, m}$$

Masalan, ko'lning suv yuzasini maydoni 15000 km<sup>2</sup>, chuqurligi 50 m. Uning hajmi  $Q = 15000 \times 0,05 = 750 \text{ km}^3$  ga teng bo'ladi.

Atmosfera mavzusini o'rganishda matematik metodlar quyidagi xollarda qo'llaniladi: harorat o'lchanlarini, bosimni, namlikni hisoblash va h.k.

Haroratni hisoblashni quyidagi turlari mavjud: sutkalik o'rtacha haroratni; 10 kunlik o'rtacha haroratni; oylik o'rtacha haroratni; yillik o'rtacha haroratni; ko'p yillik o'rtacha haroratni hisoblash.

Yog'in miqdori ham oylik va yillik hisobida chiqariladi..

Mutloq va nisbiy namlikni hisoblashda ham o'quvchilar chalkashlikka yo'l qo'yishlari mumkin. Mutloq namlik  $1 \text{ m}^3$  havodagi nam miqdori hisoblanadi va  $\text{g/m}^3$  da o'chanadi. Nisbiy namlik foizda yoki  $\text{g/m}^3$  ifodalanadi. Nisbiy namlik ma'lum bir harorat uchun hisoblanadi. Masalan, havo harorati  $10^0 \text{ C}$  bo'lganda nisbiy namlik 50 % bo'lsa,  $1 \text{ m}^3$  havoda 4,5 gramm nam bo'ladi.

Atmosfera bosimi va haroratni balandlikka chiqqan sari pasayishi va pastga tushgan sari ortishini quyidagi ifodalar orqali aniqlash mumkin;

$$R = R_0 \cdot (N : 10)$$

$$R = \text{atmosfera bosimi}$$

$$R_0 = \text{Yer yuzasidagi atmosfera bosimi}$$

$$N = \text{nisbiy balandlik km yoki 'm' da}$$

Masalan, Yer yuzasida atmosfera bosimi 800 mm bo'lsa, 3 km balanlikda qancha bo'ladi

$$R = 800 - (3000:10) = 500 \text{ mm}$$

Javob: 3 km balandlikda atmosfera bosimi 500 mm ga teng bo'ladi.

Biosfera mavzusini o'tganda ko'proq biomassa hisoblab chiqiladi. Ammo bunga mifik geografiyasida yetaricha e'tibor berilmaydi. Biomassa har bir maydon uchun tonna hisobida aniqlanadi. Quruqlikdagi maydonlar uchun Yer usti va osti biomassasi hisoblanadi. Bunda  $100 \text{ sm}^2$  maydondagi Yer usti va osti biomassasi hisoblanadi va ularning yig'indisi aniqlanadi. Masalan, dasht zonasida  $100 \text{ sm}^2$  maydonda yer osti biomassasi 2 kg, yer usti biomassasi esa 3 kg bo'lishi mumkin. Unda umumiy biomassasi 5 kg bo'ladi. Uni  $\text{km}^2$  da hisoblab chiqish mumkin. O'rmonlarda yer usti biomassasi miqdori yuqori bo'ladi. Okeanlarda biomassa miqdori asosan hayvonot dunyosi biomassasidan iborat.

**Iqtisodiy va ijtimoiy bilimlar berishda matematik metodlardan foydalanish.** Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarida matematik metodlarni quyidagi hollarda qo'llash mumkin: tabiiy resurslar, aholi, sanoat va qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlarini aniqlaganda, eksport va import ko'rsatkichlari va transport ko'rsatkichlarini hisoblashda qo'llaniladi.

Tabiiy resurslarga baho berganda ularni zahirasi, yillik ishlatalish miqdori asosiy ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Chunonchi, mineral resurslarni baholayotganda birinchi navbatda ularning zahirasi hisobga olinadi, so'ngra yillik qazib olish miqdori aniqlanadi. Masalan, ohaktosh konini zahirasi 800 mln. tonna deb aniqlandi, agar yiliga 10 mln. tonnadan ohaktosh qazib olinsa  $800 : 10 = 80$  yilga yetadi. Bundan tashqari foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishslash jarayonida atrof muhitga tashlanadigan chiqindilar miqdorini ham aniqlash mumkin. Masalan, ruda tarkibida foydali qazilma ulushi 30% bo'lsa, har tonna rudadan 700 kg gacha chiqindi hosil bo'ladi. Bir yilda 50 mln tonna ruda qazib olinsa  $50 \times 0,71=35$  mln. tonna chiqindi vujudga keladi. Chunki qazib olingan va qayta ishlanayotgan rуданing 70 % chiqindidan iborat. Agar foydali qazilma konini tasdiqlangan zahirasi mlrd tonna bo'lsa, mazkur kon qazib bo'lingandan so'ng 700 mln tonna chiqindi hosil bo'ladi, ya'ni,

$$1000\,000\,000 \times 0,7 = 700\,000\,000 \text{ tonna.}$$

Huddi shunday hisoblarni boshqa tabiiy resurslar uchun ham amalga oshirish mumkin.

Aholi geografiyasini o'rganayotganda juda ko'p matematik omillardan foydalaniladi. Aholini zichligini hisoblaganda quyidagi usullardan foydalaniladi.

$$Z = \frac{N}{S} \text{ kishi/km}^2$$

N-aholi soni

S-maydon

Aholining milliy, kasbiy, jinsiy va diniy, til va boshqa tarkiblarini o'rganayotganda quyidagi ifodadan foydalanish mumkin

$$T = \frac{\sum T_i}{\sum N} \times 100\% \quad (1)$$

T- aholining mu'lum bir ko'rsatgich bo'yicha tarkibi

$T_{\Sigma}$ -mu'lum bir guruh aholining soni

$N_{\Sigma}$ - aholining umumiy soni

Masalan, ma'lum bir viloyat aholisining umumiy soni 1 mln. kishi bo'lsa. Ularning 700 000 kishi turkiy til guruhi, 300 000 kishi hind-yevropa guruhiga kirsa, unda

$$T_t = \frac{700\,000}{1\,000\,000} \times 100\% = 70\%$$

$$T_{xe} = \frac{300\,000}{1\,000\,000} \times 100\% = 30\%$$

Demak, mazkur viloyat aholisining 70% turkiy tillar, 30% hind-yevropa tillari guruhiga mansub ekan.

Huddi shunday usulda boshqa tarkiblarni ham hisoblab chiqish mumkin.

Qishloq xo'jaligi ekinlarining yalpi hosili va ularni aholi jon boshiga ishlab chiqarilishi umumiy usullar yordamida hisoblanadi.

### 6.3. Geografiya kurslarida sonli ma'lumotlar

Mifik geografiya ta'limida juda ko'p sonli ma'lumotlar mavjud. Ular tabiatshunoslik kurslaridan tortib amaliy geografiya kurslarigacha uchraydi. Sonli, ya'ni statistik ma'lumotlar bilan ishslash ko'nikmalarini shakkantirish o'quvchilarni bilish va fikrlash faoliyatini rivojlantirishda juda katta ahamiyatga ega.

Geografiya darsliklarida uchraydigan statistik ko'rsatgichlarni quyidagi guruhlarga bo'lishimiz mumkin: mutlaq o'lchamlar, nisbiy o'lchamlar, koeffitsentlar.

**Mutlaq o'lchamlar** ma'lumot ahamiyatiga ega bo'ladi, ular orqali geografik hudud, voqeа va hodisalarni o'lchamlari beriladi, masalan, davlatlar maydoni, aholi soni, tog'larning balandligi, daryo uzunligi, okeanlar maydoni, chuqurligi va h.k.

**Nisbiy o'lchamlar** mutlaq o'lchamlarni qiylash natijalarini ifodalaydi. Geografik voqeа va hodisalarni qonuniyatlarini aniqlashga

imkon beradi. Masalan, havoning o'rtacha harorati, bosimni o'zgarishi, demografik jarayonlarni kechishi, ishlab chiqarishni joylashishi va h.k.

**Koeffitsentlar** alohida voqeа va hodisalarни o'ziga xos xususiyatларини ifodalaydigan ko'rsatkichlar. Masalan, filtratsiya koeffitsienti, namlanish koeffitsenti, iqtisodiy rayonларни ixtisoslashuvi, aholi va sanoatni o'sish suratlari va h.k.

Tabiiy va iqtisodiy geografiya kurslarida qo'llaniladigan statistik ma'lumotlarni shakliga ko'ra quyidagi uch guruha bo'lish mumkin:

- yakka raqamlar shaklida, asosan mutlaq qiymatlarda, masalan tonna, kilometr, kilovatt-soat, kilogramm va h.k.;
- chizma tarzida (diagramma, grafik, kartogrammalar, xarita-diagrammalar) ifodalangan raqamlar;
- statistik jadvallar tarzida ifodalangan raqamlar.

Maktab geografiya darsliklarida uchraydigan raqamlar bilan ishlashni quyidagi shakllari mavjud:

- a) kerakli statistik ma'lumotlarni yig'ish;
- b) statistik ma'lumotlarni solishtirish;
- v) umumlashgan statistik ko'rsatkichlarni aniqlash;
- g) grafik, diagramma va jadvallardagi statistik ma'lumotlarni tahlil qilish;
- d) grafik, diagramma va jadvallar tuzish.

Kerakli statistik ma'lumotlarni yig'ish 5-sinfdan boshlanadi. Mazkur ma'lumotlarni o'quvchilar ob-havo kalendari bilan ishlaganda yig'ishadi. Bunda o'qituvchi ma'lum bir oyni tanlab olib ob-havoni kuzatishni tashkil qiladi. Shuningdek, 5-sinfda gidrosfera, litosfera va biosfera mavzularini o'rganish davomida ham statistik ma'lumotlarni yig'ib tegishli qonuniyatlarni aniqlash mumkin.

Umumlashgan ko'rsatkichlarni geografik mohiyatini o'quvchilar chuqur anglashlari lozim ular asosida o'quvchilar to'g'ri va aniq geografik xulosalar chiqarishlari lozim. Masalan, o'quvchilar "iqlim" mavzusini darslik asosida o'rganishayotganda umumlashgan statistik ko'rsatgichlar iqlimni okean, dengizlarga bog'liq ekanligini aniqlashga imkon beradi.

Turli xil chizma va diagrammalarini tahlil qilish uchun o'quvchilarda tafakkur yuqori darajada rivojlangan bo'lmog'i lozim. Matematika, tarix, chizmachilik, geografiya fanlarini o'rganayotganda o'quvchilar ongida ikki turdag'i aloqalar shakllanadi:

- vaqt va miqdoriy tasavvurlar orasidagi bog'liqlik;
- fazoviy va miqdoriy tasavvurlar orasidagi bog'liqlik.

Chizma va diagrammalar bilan ishlash jarayonida mazkur ikki tur aloqalar bir-biri bilan bog'lanadi, ya'ni bitta tizimni hosil qiladi. Shuning uchun ham chizma va diagrammalar bilan ishlaganda o'qituvchi fanlararo aloqalarga ko'proq e'tibor bermog'i lozim. Avval chizmada minus (manfiy) va musbat qiymatlar koordinata o'qini qaysi tomonida joylashishi haqida tushunchalar beriladi.

Shundan so'ng, o'quvchilarni iqlimi birin-ketin tahlil qilishga undaydi:

- koordinata o'qlari belgisini aniqlash;
- koordinata o'qlarida masshtabni aniqlash;
- chizma yoki diagrammani miqdoriy tahlil qilish;
- chizma yoki diagrammani sifat jihatdan tahlil qilish.

Yuqorida ko'rsatilgan faoliyatlarning eng murakkabi iqlimi chizma yoki diagrammalarini miqdoriy va sifatiy tahlil qilishdir. Chizma yoki diagrammani miqdoriy tahliliida miqdoriy ko'rsatkichlar va bog'liqliklar o'rganiladi. Bunday tahlil o'quvchilarni matematik bilimlariga asoslanadi.

Sifat jihatdan baholashning metodik yo'llaridan biri *qiyoslashdir*. Masalan, dars jarayonida iqlimi diagrammalarni tushuntirish davomida o'qituvchi turli xil iqlimlar va iqlimi hodisalar haqida qiyosiy hikoya qilib berishi mumkin.

7-sinf darsligida iqlimi o'rganish jarayonida umumlashgan statistik ma'lumotlardan foydalanish ko'nikmasi shakllantiriladi. Masalan, namlik koeffitsenti, yalpi Quyosh radiatsiyasi, yutilgan Quyosh radiatsiyasi, bug'lanuvchanlik. Mazkur tushunchalarni o'rganish o'qituvchidan o'quvchilar bilan muntazam ishlashni talab qiladi.

O'qituvchi o'quvchilarga har bir yangi ko'rsatkichlarni mohiyati va ma'nosini alohida-alohida tushuntirishi, uni qanday aniqlashini va aniqlash tartiblarini ko'rsatishi lozim.

Alovida iqlim turlarini o'zlashtirib bo'lganidan so'ng, iqlimi umumlashgan ko'rsatgichlarni aniqlash boshlanadi: ular quyidagicha tartibda aniqlanadi:

- Quyosh radiatsiyasi, Quyosh balandligi va bulutlikning turli sharoitlarida aniqlanadi;
- o'rtacha yillik, eng yuqori va eng past harorat, haroratni yillik o'zgarishi;
- havoni namligi va bug'lanish;
- o'rtacha yillik yog'in miqdori, eng ko'p va eng kam yog'in miqdori, yog'inni yil davomida taqsimlanishi;

- havo bosimi va uni mavsumiy o'zgarishi, shamollar va ularning asosiy yo'nalishlari hamda kuchi.

**Yakka xoldagi raqamlar bilan ishlash.** Yakka xoldagi raqamlarga mutlaq ko'rsatkichlarda ifodalangan sonlar kiradi. Ular ko'pincha og'irlik, balandlik, chuqurlik, masofa, energiya va boshqa o'chovlarda berilishi mumkin.

Yakka xoldagi raqamlarni ayrimlarini o'quvchilar esda saqlab qolishlari uchun yaxlitlab aytildi. Ayrimlari haqida esa fikrlash talab etiladi. Yakka holdagi raqamlardan goydalanganda o'quvchilar eslab qoladigan raqamlardan foydalanish va ular ko'p bo'lmasligi mumkin. Yakka holdagi raqamlarni ikkita yirik guruhga bo'lishimiz mumkin: tabiiy geografik; iqtisodiy geografik.

Tabiiy geografik raqamlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- yer yuzasi haqidagi umumiy ma'lumotlar (eng baland va past nuqtasi, materiklar va okeanlar maydoni, soni) eng katta va kichik okeanlar, dengiz, materik, qit'a daryo, ko'l, cho'l, tog' va h.k.;
- materiklar haqida u mumiy ma'lumotlar (maydoni, eng baland va past nuqtasi, yog'in miqdori, harorat, iqlim mintaqalari soni va h.k.);
- okeanlar haqidagi umumiy ma'lumotlar (maydoni, cho'kmalar, sho'rлиgi, harorati va h.k.);
- iqlim ko'rsatgichlari;
- gidrologik ko'rsatgichlar va h.k.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografik raqamlarga quyidagilar kiradi:

- jahonning umumiy ta'rifi (davlatlar soni, aholi soni, tabiiy resurslar miqdori, jon boshiga to'g'ri keladigan daromad va h.k.)
- aholi haqidagi ma'lumotlar (jahon aholisi va uning tarkibi shahar hamda qishloq aholisi, erkaklar va ayollar soni, migratsiya salmog'i, tug'ilish, o'lim, ko'payish);
- tabiiy resurslar va ularning miqdori;
- sanoat va qishloq xo'jaligi ko'rsatkichlari;
- transport va tashqi iqtisodiy aloqalar, eksport va import ko'rsatgichlari;
- davlatlar haqidagi ma'lumotlar (maydoni, aholisi, xo'jaligi)

O'quvchilarni raqamlarni yaxshi eslab qolishlari uchun ularni butun son holda berish yaxshi natija beradi. Masalan, Xitoyning maydoni 10 mln km<sup>2</sup>, aholisi 1 mird. dan ortiq.

Dars jarayonida o'quvchilarga berilayotgan raqamlarga ta'rif berishi lozim. Bunday ta'rif berishning usullaridan biri miqdoriy tasavvurlarni aniqlashtirishdir. Maktab geografiyasida eng keng tarqalgan aniqlashtirish

usuli masofani vaqtga o'tkazish orqali uni ifodalash hisoblanadi. Masalan, 100 km masofani turli transport turlari qancha vaqtida bosib o'tishi mumkin.

Iqtisodiy geografiya darslarida xo'jalik tarmoqlarini davlat iqtisodiyotidagi ahamiyatini tushuntirishda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan ishlab chiqarish hajmi hisobga olinadi.

Raqamlar bilan ishlashning eng muhim usullaridan biri qiyoslash hisoblanadi. Qiyoslashda o'quvchilar raqamlarni tez eslab qolishadi. Masalan, Tinch okeani maydoni Atlantika okeani maydonidan ikki marta katta. Qiyoslash bilan faqat o'qituvchi emas, o'quvchilar ham shug'ullanishi mumkin. Masalan, o'qituvchi o'quvchilarga quyidagicha vazifa berishi mumkin, O'zbekistonni maydoni dunyodagi qaysi davlatlar maydoni bilan bir xil va h.k.

**Jadvallar bilan ishlash.** Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida ko'pincha raqamlar ma'lum bir ko'rsatgichlar bo'yicha guruhlashtirilgan bo'ladi. Bunday guruhlashtirilgan raqamlar yig'indisiga *jadvallar* deb ataladi. Jadvallar maktab geografiyasining barcha tarmoqlarida foydalaniлади. Tabiiy geografiya ko'proq quyidagi jadvallardan foydalaniлади:

- Yer yuzasida quruqlik va suvlarning taqsimlanishi;
- okeanlar, dengizlar cho'kmalar, bo'g'izlar;
- materiklar va ulardagи daryolar, ko'llar, orollar, cho'qqilar vulqonlar jadvallari;

- iqlim ko'rsatgichlari jadvallari; va h.k.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kurslarida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha jadvallardan foydalaniлади:

- davlatlar guruhlari bo'yicha;
- aholii va uning ko'rsatgichlari;
- tabiiy resurslar ko'rsatgichlari;
- sanoat tarmoqlari ko'rsatgichlari;
- qishloq xo'jaligi ko'rsatgichlari;
- transport ko'rsatgichlari;
- xalqaro iqtisodiy aloqalar ko'rsatgichlari;
- ma'muriy birliklar ko'rsatgichlari.

Geografiya ta'limida jadvallar quyidagi guruhlarga bo'linadi: Oddiy; guruhlashtirilgan; kombinatsion va boshqa jadvallar.

Oddiy jadvallarda xalq xo'jaligini tarmoqlari bo'yicha rejalashtirish uchun asos bo'ladigan statistik kuzatishlar natijalari ma'lum bir tizimga solinadi. Bunday jadvallarga markaziy statistika qo'mitasi tomonidan

chiqariladigan statistik to‘plamlar kiradi. Mazkur jadvallardan O‘zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi kursini o‘rganishda foydalaniladi. Shuningdek, ushu jadvallardan har bir viloyatning xo‘jaligini rivojlantirish xususiyatlarini o‘rganishda ham foydalaniladi.

Guruhalashtirilgan jadvallarda statistik ma’lumotlar ma’lum bir ko‘rsatgichlar bo‘yicha guruhlantiriladi. Masalan, aholini quyidagi guruhlarga bo‘lib ko‘rsatish mumkin: shahar va qishloqlar aholisi, erkaklar va ayollar, dehqonlar, ziyolilar, bolalar, o‘smlar, qariyalar va h.k.

Kombinatsion jadvallar murakkabroq bo‘ladi. Masalan, ishchi kuchi ixtisosligi bilangina emas, balki jinsi, yoshi bilan ham guruhlanshtiriladi. Kombinatsion jadvallar guruhalarni solishtirishga imkon beradi.

Darslikda keltirilgan jadvallardagi statistik ko‘rsatgichlarni tahlil qilishga kirishishdan oldin, o‘quvchilarga tahlilning maqsadini tushuntirish lozim. Ularga tahlilni vazifa sifatida bermaslik lozim. Chunki jadvallar bo‘yicha tushunmovchiliklar tug‘ilishi mumkin.

Maktab geografiyasi kurslarida voqe va hodisalarni statistik tahlildan oldin ularni nazariy jihatdan asoslab berish lozim. Masalan, iqlim haqidagi statistik ma’lumotlarni tahlil qilishdan avval iqlim hosil qiluvchi omillar haqida nazariy bilimlar berib o‘tish lozim. Jadvallarni tahlil qilayotganda statistik ko‘rsatgichlarni qiyo slash iqtisodiy geografiya darslarida katta ahamiyatga ega.

**Diagramma va chizmalar bilan ishlash.** Maktab geografiyasi darslarida diagramma va chizmalardan juda ko‘p foydalaniladi. Diagramma va chizmalarda raqamli ma’lumotlar ifodalaniladi. Diagramma orqali ma’lum bir ko‘rsatgichlarni boshqasidan kattaligini yaqqol ko‘rsatish mumkin. Diagramma va chizmalarni chizish usullari bilan o‘quvchilar matematika darslarida tanishishadi. Shuning uchun geografiya darslarida to‘g‘ridan-to‘g‘ri ularni mohiyati va mazmuniga o‘quvchilar diqqatini qaratiladi.

Diagramma va chizmalarni tushintirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

- diagramma va chizmalarda nimalar tasvirlanganini o‘quvchilarga tushuntiriladi;
- diagramma va chizmalarda qanday tabiiy geografik va iqtisodiy geografik voqe va hodisalar tasvirlangani ochib beriladi;
- diagramma va chizmalarda qanday bog‘liqlik yoki qonuniyatni aniqlash mumkinligi tushuntiriladi. Masalan, tabiiy geografiya darslarida iqlim mavzusini o‘rganishda yer yuzasiga tushayotgan issiqlik miqdorini Quyosh nurlarini tushish burchagiga bog‘liqligini ko‘rsatuvchi chizma.

Bunda Quyosh nurlari ekvatorial, tropik mintaqalarda Yer yuzasiga tik tushishi, shuning uchun mazkur mintaqalarda Quyosh issiqligining miqdori katta, qutublarda esa Quyosh nurlarini tushish burchagi kichik, shuning uchun bu yerlarda yer yuzasiga kelayotgan Quyosh issiqligini miqdori kam ekanligi oqibatida qutbiy o‘lkalar muz va qor bilan yil davomida qoplanib yotganligi asoslab beriladi. Iqtisodiy geografiya darslarida diagramma va chizmalar orqali aholini, mineral resurslarni, sanoat va qishloq xo‘jaligi ko‘rsatgichlarini ifodalash mumkin.

Maktab geografiyasida statistik ma’lumotlarning quyidagi metodik ma’lumotlarni qo‘llashi mumkin:

- statistik ma’lumotlar geografik bilimlarni manba siftida foydalanilganda;
- o‘rganilayotgan mavzu nazariyasi bilan uning statistik ko‘rsatkichlari orasidagi bog‘liqlik o‘rganiladi;
- fanlararo aloqalarda foydalanilada. Masalan, matematika, kimyo, biologiya va h.k. bilan. Bunday aloqalar diagramma, chizma, hisoblash ishlarini amalga oshirganda qo‘llaniladi;
- darslik matnidagi va xaritalardagi statistik ma’lumotlardan foydalaniladi.

Statistik ma’lumotlardan darsning barcha bosqichlari, ya’ni, yangi mavzularni o‘rganish va o‘tilgan darsni mustahkamlashda foydalanish mumkin.

**Tayanch so‘z va iboralar:** metod, og‘zaki metod, kartografik metod, muammoli metod, amaliy metod, statistik metod, kuzatish va tajriba, astronimik, meteorologik, fenologik, raqam, jadval, diagramma, grafik.

#### **TALABALARING O‘ZLASHTIRGAN BILIMLARINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. O‘qitish metodi deb nimaga aytildi?
2. O‘qitish metodlarini dastlab kim sinflashtirgan?
3. Analitik va sintetik metodlarini farqi nimada?
4. Konstruktiv metod haqida so‘zlab bering.
5. 1934 yil geografiya ta‘limi haqida qanday davlat qarori qabul qilindi?
6. A.A.Polovinkin va Budanovlar qanday darsliklar yozgan?
7. O‘zbekistonda geografiya o‘qitish metodikasi bo‘yicha kim tomonidan darslik yozilgan?
8. O‘qitish metodlari ko‘pincha nimaga asoslanib sinflashtirilgan?
9. Hozirgi paytda o‘qitish metodlari qanday tamoil asosida sinflashtiriladi?
10. Geografiya darslarida metodlarni tanlashda nimalarga e’tibor beriladi?

11. Geografik borliq va hodisalarning xususiyatlarini jadvalini tuzing.
12. Geografik borliq va hodisalarning tashqi ko‘rinishi haqidagi bilimlar qanday shakillantiriladi?
13. Geografiya darslarida metodlarni tanlashga qanday talablar qo‘yiladi?
14. Geografiya fanidagi muammolar jadvalini tuzing.
15. Tabiiy geografik muammolar qanday qismlardan iborat?
16. Kartografik tushunchalar jadvalini tuzing va to‘ldiring.
17. Maktab geografik xaritalari qanday turlarga bo‘linadi?
18. Xaritalarda voqeа va hodisalar qanday usullarda tasvirlanadi?
19. Xaritalar ularda tasvirlangan maydonning ko‘lamiga ko‘ra qanday turlarga bo‘linadi?
20. Mazmuniga ko‘ra xaritalar qanday guruhlarga bo‘linadi?
21. «Atlas» atamasini fanga kim kiritgan?
22. Xaritalni tuzilishi texnologiyasi haqida so‘zlab bering.
23. Geografik xaritalarni o‘qish texnologiyasi sxemasini tuzing.
24. Chiziqli xaritalar bilan ishslash texnologiyasi nimalardan iborat?
25. Globus yordamida qanday ishlar amalga oshiriladi?
26. Kartografik tasavvurlar qanday tartibda shakllantiriladi?
27. Geografik kuzatishlar qanday guruhlarga bo‘linadi?
28. Astronomik kuzatishlar nimalardan iborat?
29. Meteorologik kuzatishlar qanday qismlardan iborat?
30. Ob-havoni kuzatish qanday qismlardan iborat?
31. Fenologiya deganda nimani tushunasiz?
32. Ekologik fenologiya nimani o‘rganadi?
33. Matematik va statistik metod nima?
34. Matematik va statistik metoddan asosan qaysi sinflarda foydalanish maqsadga muvofiq?

## **X BOB. O‘QITISHDA PEDAGOGIK TEXNALOGIYALAR. NOANA’NAVIY USULLAR VA KOMPYUTER TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH TAJRIBASI**

### **1. Pedagogik texnologiyalar va ularning turlari**

O‘zbekiston, Rossiya va boshqa qator MDH davlatlari ta’lim tizimiga XX asrning 90-yillaridan boshlab «Yangi pedagogik texnologiyalar», «Ilg‘or pedagogik texnologiyalar», «Pedagogik texnologiyalar», «Ta’lim texnologiyalar», «Maktab texnologiyalar», «Axborot texnologiyalar» va boshqa shunga o‘xhash tushunchalar kirib keldi.

XX asrga kelib fan texnikaning yuksak darajada rivojlanishi munosabati bilan ta’lim tizimida ham qator muammolar vujudga keldi. Bunday muammolarga avvaldan kafolatlangan natijalarni olishga

yo‘naltirilgan ta’lim texnologiyalarni loyihalashtirish va amalga oshirish kiradi.

Shu maqsadda XX asrning 50-70 yillarida AQSH da B.Bluem, D.Kratvoll, N.Gronlund, Dj.Kerol, Dj.Blok, A.Anderson va boshqa olimlar tomonidan rejalshtirilgan natijalarni olishni kafolatlaydigan, qayta takrorlanadigan pedagogik siklni o‘z ichiga olgan texnologiyalar ishlab chiqildi. Mazkur texnologiyalar so‘ngra Yevropada qo‘llanila boshlandi. Pedagogik texnologiyalar bo‘yicha ilmiy jurnallar nashr qilina boshlandi.

Rossiyada pedagogik texnologiyalar XX asrning 90-yillaridan boshlab tarqala boshladi. Mazkur texnologiyalar sohasida B.P. Bespalko, M.V.Klarin, V.G.Guzeev, T.S.Nazarov, N.D.Nikondova, N.F.Kostenko, V.R.Imakova, G.II’ni, B.I.Bulin, Sokolova, Yu.G.Molokova, O.Episheva, P.K.Selevko va boshqalar ulkan ishlarni amalga oshirishdi, “школьные технологии” jurnali nashr qilina boshladi. Yangi pedagogik texnologiyalar ta’limning barcha bosqichlarida (maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich, o‘rtा, o‘rtा maxsus va oliy ta’lim) qo‘llanila boshlandi.

O‘zbekistonda pedagogik texnologiyalar sohasida 2000 yildan boshlab yirik ilmiy ishlar va o‘quv qo‘llanmalari nashr qilina boshlandi. Bu sohada B.P.Farberman, N.Saydaxmedov, F.Jumabaev, M.Ochilov, L.Golish, B.Ziyamuhamedov, J.O.Tolipova, A.T.G‘ofurov va boshqalar katta ishlarni amalga oshirishdi. Nizomiy nomidagi Toshkent Pedagogika Universitetida “Ta’lim texnologiyalari” jurnali nashr etilgan.

Geografiya ta’limida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash va geografik ta’lim texnologiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha I.V.Dushina, V.T.Dmitreva, A.N.Vorobyev, O.A.Ushakova, N.V.Novenko, I.I.Barina, O.A.Baxchieva, U.X. Safarov, X.Nikadamboyeva va boshqalar ish olib borishgan.

O‘zbekistonda geografiya ta’limida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo‘llash va geografik texnologiyalarini ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy va metodik ishlar endi boshlanmoqda, ammo bu sohada yirik ko‘zga ko‘rinadigan ishlar hali qilinganicha yo‘q. Ammo pedagogik texnologiyalarini ajralmas qismi bo‘lgan test topshiriqlaridan hamma fanlarda, ayniqsa Oliy o‘quv yurtlariga kirish imtihonlarida keng qo‘llanilib kelinmoqda. Shuni ham aytib o‘tish lozimki, barcha o‘quv fanlarida ham test topshiriqlarini tuzish bo‘yicha aniq bir metodik qo‘llanmalar va ko‘rsatmalar ishlanmasdan turib test topshiriqlari ishlab chiqildi va nashr qilindi. Bu esa ayrim chalkashliklarga va testlarni faqat bir yo‘nalishda tuzilishiga olib keldi. Testologiya, ya’ni o‘qitish maqsadlarini test topshiriqlari orqali ifodalash pedagogik texnologiyalarni

oxirgi bosqichlaridan biri hisoblanadi. Demak, O'zbekistonda va boshqa MDH davlatlarida yangi pedagogik texnologiyalarni ma'lum bir bo'g'inlarini qo'llash ancha oldin boshlangan.

O'zbekistonda 1992 yildan boshlab Oliy o'quv yurtlariga qabul test sinovlari asosida o'tkaziladigan bo'ldi.

Geografiya ta'limida ko'pgina o'qitish texnologiyalari ilgaritdan qo'llanilib kelinadi, ayrimlari endi qo'llanilmoida. I.V.Dushina (2004) geografiya ta'limida qo'llaniladigan texnologiyalarni quyidagi turlarga bo'lgan: mantiqiy tayanch konspektlar texnologiyasi; o'quv ishlari usullarini shakllantirish texnologiyasi; o'quvchilarini o'quv faoliyatini shakllantirish texnologiyasi; komunikativ-aloqa texnologiyasi; o'quvchilarini loyihamda tuzish faoliyatini texnologiyasi.

Hozirgi paytda geografiya ta'limida pedagogik va axborot texnologiyalarini qo'llashni ilmiy-metodik asoslari bir nechta yo'nalishlarda ishlab chiqilishi lozim.

Pedagogik texnologiyalarni tushunishni muhim jihatlaridan biri quyidagilardir:

- a) juda yaxshi aniqlangan maqsadlarga yo'naltirilganligi;
- b) o'quvchilarini o'qitish o'quvchilar faoliyati orqali olib borilishi.

Geografiya ta'limida quyidagi texnologiyalardan foydalanish mumkin.

Kartografik texnologiyalar. Geografiya ta'limining barcha bosqichlarida qadimdan qo'llanib keladi. Kartografik materiallar ko'pincha darsga qo'shimcha ko'rgazma sifatida ishlatiladi. Alovida kartografik texnologiyalar yordamida hozircha dars o'tilmaydi. Kartografik texnologiyalarni qo'llash quyidagi bosqichlardan iborat:

a) ilk, sodda kartografik tushunchalarni shakllantirish bosqichi. Mazkur bosqich umumta'lim maktablarida 5-sinfda "Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi"da, Oliy o'quv yurtlarida esa topografiya va kartografiya kurslarida beriladi. Bunda, xarita, mashtab (mashstab), shartli belgililar, geografik koordinatalar haqida tushunchalar, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi. Mazkur bosqich o'z navbatida quyidagi texnologiyalardan iborat: mashtab (mashstab) texnologiyasi; shartli belgililar texnologiyasi; geografik koordinatalar texnologiyasi;

b) kartografik dars texnologiyasi – to'la kartografik texnologiyalarni qo'llash asosida o'tiladi. Mazkur texnologiyalarni o'rta va oliy ta'limda regional tabiiy va iqtisodiy geografik predmetlarini o'rganishda qo'llanishi (materiklar va okeanlar, o'lkalar, davlatlar ma'muriy birliklarning tabiiy va iqtisodiy hamda siyosiy geografik sharoiti) mumkin.

O'quv ishlari usullarini shakllantirish texnologiyasi (Dushina, Gerasimova, Neklyukova, G'ulomov, Qurban niyozov, Vaxobov va boshqalar). Mazkur usul ham geografiya ta'limida ilgaritdan qo'llanib kelinadi. Ushbu texnologiya geografik borliqni, hodisa va jarayonlarni tafsiflash tartibi, qoidasi, algoritmlar sifatida ifodalangan. Mazkur texnologiya har bir darslik uchun metodik qo'llanma sifatida kengroq tarqalgan. Masalan, har bir sinf bo'yicha nashr qilingan darsliklar albatta metodik qo'llanmasi bilan birga nashr qilinmoqda. Unda geografik ko'nikmalarni shakllantrish texnologiyalari ishlab chiqilgan.

Tabaqalashtirilgan o'qitish texnologiyasi (Episheva, Dushina). Ushbu texnologiya ham geografiya ta'limida ilgaritdan qo'llanib kelinadi. Ushbu usulni qo'llaganda sinf o'quvchilar qobiliyati va qiziqisiga ko'ra ma'lum bir guruhlarga bo'linadi. Bunda o'quv maqsadlari tabaqalashtiriladi, har bir guruh uchun o'quv jarayonini ta'minlaydigan texnologiya ishlab chiqiladi. Mazkur texnologiyani regional geografiya fanlarini o'rganishda qo'llash yaxshi natija beradi. Masalan, Yevropadagi rivojlangan davlatlar iqtisodiy geografiyasini o'rganishda har bir guruh ma'lum bir davlatni o'rganishi mumkin.

O'quvchilarini o'quv faoliyatini shakllantirish texnologiyasi (Suxov, Rom, Dronov, Dushina va boshqalar). Bunda o'quv faoliyati o'quvchilarini faolligini oshirishni maxsus, alohida shakli sifatida ko'riladi. Ushbu texnologiyada o'quvchilar bilimlarni ma'lum bir o'quv topshiriqlarni bajarish orqali olishadi. Ushbu texnologiyani qo'llash quyidagi bosqichlardan iborat: ma'lum bir mavzu yoki bo'lim bo'yicha topshiriqlar tizimi tuziladi (masalan, Shimoliy Amerika iqlimi; Xitoyning qishloq xo'jaligi; Yaponiya transporti va h.k.); o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini tashkil qilish loyihasini ishlab chiqish; mavzu bo'yicha o'quvchilar bilimini tekshirish uchun test topshiriqlarini tuzish; dars o'tish, o'quvchilar bilimini baholash. Mazkur texnologiyalarga o'quvchilar faoliyatini faollashtirish texnologiyasini ham kirlitsa bo'ladi. O'quvchilar faoliyatini faollashtirish va Jadallashtirish geografik o'yinlar texnologiyasi, muammoli o'qitish texnologiyasi, o'quv materiallarini chizmali, belgili va kartografik modellardan foydalanish orqali amalga oshiriladi. Geografik o'yinlar texnologiyasi geografiya ta'limida juda keng qo'llaniladi va o'zining qiziqrilikligi, bilimlarni o'quvchilar tomonidan oson o'zlashtirishlari bilan ajralib turadi. Geografik o'yinlar texnologiyasidan barcha geografiya predmetlarini o'rganishda foydalanish mumkin.

Muammoli o'qitish texnologiyasi ham geografiya ta'limida yangi emas. U ilgaridan qo'llanilib kelingan muammoli metod asosida ishlab

chiqilgan. Bunda asosiy vazifa bo'lib, ma'lum bir mavzu bo'yicha muammoli savollar yoki topshiriqlar tizimini ishlab chiqish va uni o'quvchilarga tushuntirishdir. Masalan, relyefni shakllanishi va rivojlanishi; atmosfera yog'inlarini hosil bo'lishi: qishloq xo'jaligini tabiat zonalari bo'yicha ixtisoslashuvi, sanoat tarmoqlarining joylashuvi va h.lar.

Alternativ texnologiyalarni juda ko'p variantlari mavjud, ulardan geografiya ta'limda foydalanish mumkin (Kollen, Okunev). Uning keng tarqalgn usullardan biri ustaxona texnologiyasidir. Bunda usta (o'qituvchi) kerakli ma'lumotlarni o'quvchilarga beradi va uning asosida o'quvchilar o'zlarining bilimlariga tayangan holda topshiriqni bajarishadi. Masalan, o'qituvchi bergen quyidagi materiallar asosida (yillik o'rtacha harorat, yildagi eng baland va eng past haroratlar, yog'in miqdori va uning qaysi faslda yog'ishi, shamollar, havo massalar) iqlim turi, yillik havo harorati farqi, iqlim mintaqasi va u tarqalgan hududlarni aniqlashlari lozim.

Integratsiya texnologiyalari. Geografiya ta'limida integrativ predmetlarni o'rganishda qo'llaniladi. Geografiya ta'limida 10-sinf, akademik litsey va kasb-hunar kollejlardida o'tiladigan «Amaliy geografiya» predmeti integrativ predmet hisoblanadi. Unda tabiiy geografik, ekologik, iqtisodiy geografiya, siyosiy geografiya va geosiyosiy bilimlar majmuasi berilgan. Bunda geografik qobiqdagi tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ekologik va geosiyosiy tizimlar haqida yaxlit bilimlar berilgan. Shuning uchun mazkur kursning vazifasi geografik borliqni yaxlit tushunish va qabul qilishni shakllantirishdir.

Kommunikativ — suhbat texnologiyasi ham geografiya ta'limida u yoki bu darajada ilgaritdan foydalanib kelinadi. Bunda o'qituvchidan o'quv jarayonida ijodiy yondashish, suhbat texnologiyasi usullaridan foydalana bilish, suhbat uchun savol va topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, o'quvchilar yoki talabalar o'rtasida munozaralarni tashkil qila bilish talab qilinadi. Geografiya predmetlarini deyarli barchasini o'rganishda ushbu usuldan foydalanish mumkin. Masalan, «Orol dengizini qutqarib qolish mumkinmi», «Qozog'iston past tog'lari o'mida shimoliy tog'lar bo'lsa, O'rta Osiyo iqlimi qanday bo'ladi?», «Qanday tuproqlar hosildor va nima uchun», «Shimoliy Atlantika iliq oqimi bo'limasa Yevropa iqlimi qanday bo'ladi» va h.lar.

Bundan tashqari reyting, jamoa, rivojlaniruvchi, shaxsga yo'naltirilgan, mualliflik, didaktik maqsadlarni yiriklashtirish, mantiqiy tayanch konspektlar va boshqa texnologiyalar mavjud.

Demak, geografiya fani ta'lim texnologiyalarini qo'llash uchun juda katta imkoniyatlarga ega, ammo mazkur texnologiyalarni qo'llash bo'yicha ilmiy-metodik ishlar endi rivojlantirilmoqda.

**Geografiya ta'limining maqsadlarini aniqlash.** Geografiya ta'limining maqsadlari ta'limining maqsadlarini aniqlash va vazifalari mavjud ta'lim standartlarida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Standartlar bo'yicha har bir geografiya predmeti bo'yicha ta'lim maqsadlari va vazifalari ishlab chiqilgan. Geografiya ta'limining asosiy ko'rsatkichlarini B.Blumming taksonomik birliklari orqali ifodalansa ular aniq bir o'lchamlarga ega bo'lar edi. Mazkur muammo sohasida hozircha geografiya ta'limida sezilarli ishlar olib borilayotgani yo'q.

Odatda har bir davlatning ta'lim tizimi jamiyatni ijtimoiy buyurtmasini oladi. Mazkur buyurtma umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'lim muassalari uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ijtimoiy buyurtma asosida har bir o'quv fanining maqsadi ishlab chiqiladi. So'ngra mazkur fanning har bir o'quv predmeti uchun, ma'lum bir predmetlarning bo'limlari, mavzulari va alohida darslar uchun maqsadlar ishlab chiqiladi.

O'zbekistonda ijtimoiy byurtma «Ta'lim to'g'risida», «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi Qonunlari hamda Vazirlar mahkamasining «O'zbekiston Respublikasida umumiy o'rta ta'limni tashkil etish to'g'risida» 1998 yil 13 maydagi 203-sonli qarorida ifodalangan.

Mazkur qonunlarda va qarorlarda yuqori malakali pedagog kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlashga alohida e'tibor berilishi, yangi darsliklarni, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarini o'z vaqtida ishlab chiqish va joriy etishni ta'minlashni alohida nazorat ostiga olish zarurligi ko'psatib o'tilgan.

Geografiya ta'limining maqsad va vazifalari Davlat ta'lim standartiga sharxlarda aniqlab berilgan, ya'ni geografik madaniyatni shakillantirish, xaritalardan mohirona foydalanishni o'rgatish, tabiat bilan jamiyat munosabatlariga majmuali yondoshishni anglatmoq va h.k.

Pedagogik texnologiyalarda maqsadlar o'qituvchi uchun alohida ishlab chiqiladi, o'quvchilarning maqsadi esa vazifalar deb ataladi. Chunki o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatida o'qituvchilarni maqsadi o'qitish o'quvchilarni maqsadi o'rganishdir (Ziyamuhammedov 2002).

B.A. Farberman, S.Ziyamuhammedov va boshqalarning fikricha o'qitishning mazmuni odatda mavzuli yo'nalishga ega bo'lganligi uchun undan aniq ta'lim maqsadlarini ajratib olish mushkul. Shuning uchun

vazifalarini shakillanishini osonlashtirish uchun, ularning tavsifida fa'ellar ishlataladi. Fa'ellar o'quvchilarni o'quv faoliyatini aks ettiradi, masalan, aniq faktlarni biladi; qoidalarni biladi; so'z ifodalagan ma'lumotlarni matematik jihatdan ifodalay oladi; chizma va sxemalarni tushuntirib beradi; berilgan ma'lumotlar bo'yicha oqibatlarni aniqlay oladi va h.k.

O'xhash o'quv maqsadlari va vazifalari uchun aniq fa'ellardan foydalanmoq lozim. Aniq fa'ellar bir tarzda tavsiflanadigan va o'lchanadigan, o'quvchilar o'qishi natijasida bajaradigan operatsiyalardan iborat bo'lishi lozim.

Qator olimlarning fikricha, maqsadlarni aniqlashtirishning umumiyl usuli-bu aniq natijalar beradigin faoliyatni ko'rsatadigan fa'ellardan foydalanishdir.

O'xhash ta'limga maqsadlarini shakillantirish bir necha bosqichdan iborat: o'quv mavzusini o'rganishning umumiyl maqsadi-xususiy maqsadi – o'xhash ta'limga maqsadi. Ammo ba'zi hollarda o'zhash ta'limga maqsadlarini shakllantirishda qiyinchiliklar tug'iladi. Ayrim hollarda ta'limga natijalarini ayrim qismlarga bo'lish oson bo'ladi. Bunday hollarda B.B. Blum tomonidan ishlab chiqilgan taksonomiyadan foydalanish qulay bo'ladi. Mazkur taksonomiya asosida umumiyoq maqsadlarni shakillantirish, so'ngra esa ularni aniqlashtirish mumkin. Shu maqsadda geografiya ta'limi maqsadlarining taksonomiyasi ishlab chiqiladi. Mazkur taksonomiya asosi bo'lib, B.B. Blum tomonidan ishlab chiqilgan umumiyl ta'limga maqsadlarini taksonomiyasi olindi (9-jadval).

9-jadval

#### Geografiya ta'limi maqsadlari taksonolmiyasi (B.B. Blum taksonomiyasi asosida)

| No | Geografiya ta'limi maqsadlarining asosiy toifalari   | Ta'limga maqsadlarining turlarining ta'rif  |
|----|--|---|
| 1. | <b>Bilish</b><br>Mazkur toifa geografiya bilimlarni eslab qolish va aytib berishdan iborat. Bu yerda gap aniq geografiya faktlarning mazmunidan biri butun nazariyalargacha bo'lishi mumkin. Ushbu toifaning asosiy xususiyati tegishli ma'lumotlarni eslab qolishdir. | <b>Geografiyaning nazariy asoslarini bilish.</b> Geografiya tadqiqot metodlarini bilish tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy obyektlarni bilish va ularni sinflashtirish. Geografiya hodisa va jarayonlarni bilish olamni idrok etishning moddiy va ma'naviy shaklda ifodalani bilishi, hudud |

|    |  | geografik tuzilishini bilishi tavsifining   |
|----|--|---|
| 2. | <b>Tushuntirish</b><br>Ushbu toifani ko'rsatgichlari qo'yidagilardan iborat: geografik ma'lumotlarni bir shakldan ikkinchi shaklga aylantirish (masalan, sonlarni xaritalarda ifodalash): o'quvchilar tomonidan ma'lumotlarni bayoni yoki voqealarni kelajakdag'i holati haqida tavsiyalar berish (masalan, iqlim muzlarni rivojlanishi, o'rmonlar, tabiiy resurslar, aholi, xo'jalik, atrof-muhit va h.k) tushintirish (tabiiy geografik va iqtisodiy geografik qonun va qonuniyatlar, ma'lumotlar, hodisa va jarayonlar) oddiy eslab qolishdan ustundir. | <b>Geografik obyektlarni ko'rsata bilish.</b> Geografik voqealar va hodisalarini hamda obyektlarni aniqlay (o'lchay) olishi, geografik ma'lumotlarni talqin (interpretatsiya) qila olishi, geografik ma'lumotlarni tasvirlay olishi. Geografik voqealar va hodisalarini, qonuniyatlarini, nazariyalarni tushuntira olish. Atrof-muhitni o'zgarishini bashorat qila olish (ekstropolyatsiyalar). |
| 3. | <b>Qo'llash</b><br>Geografik metodlarni, umumiyl tushunchalarini, qoidalarni qo'llash. Bunga quyidagilar kiradi: qoida, metod, tushuncha, nazariya, qonuniyatlar. Tegishli ta'limga natijalarini bilimlarni tushuntirishga nisbatan yuqori darajada bilishni talab etadi.  | <b>Geografik nazariya va ta'limotlarni qo'llay olish:</b> Geografik qobiq, geografik o'rinni, zonallik, modda va energiyaning aylanishi, suv muvozanati, mehnatni geografik taqsimoti, hududiy ishlab chiqarish majmualari, rayonlashtirish. Geografik tadqiqot metodlari: kuzatish tajriba, kartografik, statistik, tizimli, tarixiy qiyosiy, aerokosmik, modellashtirish.                     |
| 4. | <b>Tahlil</b><br>O'quvchilar qo'yidagilarni uddalay olishlari lozim: yaxlit geografik qobiqni ma'lum bir qismlarga bo'linishi; geografik borliqni elementlarini o'zgarishidagi izchilliklarini aniqlashni; geosferalar orasidagi munosabatlarni aniqlay  | <b>Geografik qobiq qismlari tahlili</b><br>Geografik qobiq qismlari (litosfera, hidrosfera, atmosfera, biosfera, issiqlik, iqlim mintaqalari, tabiat zonalari, landshaftlar xo'jalik komplekslari).   |

|    |  |  |
|----|--|--|
|    | olishni; geografik tahlil qila olishni; yaxlit jahon xo'jaligini tuzilishini tahlil qila olishi lozim.<br>Ta'lif natijalarini tushuntirish va qo'llashga nisatan yuqori intelektual darajasi bilan ajralib turadi, chunki unda o'quv materialini mazmuni ham uning ichki tuzilishini ham bilish lozim bo'ladi.   | Tabiiy hududiy komplekslarni, hududiy ishlab chiqarish kompalekslarni tashkil topish tamoillarini tahlili.   |
| 5. | <b>Umumlashtirish (sintez).</b><br>Berilgan ma'lumotlarni tahlili asosida yaxlit geografik birlikni yaratish. Masalan, fatsiyalar yig'indisi urochisheni, urochishelar yig'indisi joyni, joylar yig'indisi yaxlit landshaftlarni tashkil qilishi. Yoki xo'jaliklar yig'indisi tuman xo'jaligini, viloyat xo'jaligi iqtisodiy rayonlar esa davlat iqtisodiyotini, davlatlar iqtisodiyoti jahon xo'jaligini tashkil qilishni. Ta'lif natijalari yangi chizma va tuzilmalarini yaratishga yo'naltirilgan, ijodiy faoliyat bo'lishini taqozo qiladi. | <b>Turli mavzuli xaritalar va ma'lumotlarning tahlili asosida yozma ish tayyorlash.</b><br>Ma'lum bir geografik muammoni yechish bo'yicha faoliyat rejasini ishlab chiqish.<br>Xususiy ma'lumotlar asosida yaxlit tabiiy geografik va iqtisodiy geografik yoki geosiyosiy yaxlit obrazni yaratish. |
| 6. | <b>Baholash.</b><br>Mavjud qabul qilingan ta'lif maqsadlarini hisobga olgan holda ma'lumotlarni va metodlarni baholash. Masalan, metodologik, gidrologik, statistik ma'lumotlarni hamda kuzatish, kartografik, qiyosiy-geografik, matematik metodlarni baholash.<br>Ushbu toifa ta'lif natijalari yuqorida toifalar bo'yicha natijalar olinishi aniq ifodalangan o'lchamlar asosida baholashni talab qildi.  | Tabiiy geografik va iqtisodiy geografik rayonlarni ichki o'lchamlar (ma'lumotlar) asosida baholash.<br>Geografik qobiq va va uning qismalarini hamda jahon xo'jaligini, jahon geosiyosiy maydonlarini tashqi o'lchamlar asosida baholash.  |

Geografiya ta'lifi maqsadlari taksonomiyasini ishlab chiqishda geografiya faning umumiyligi maqsad va vazifalari, geografiya ta'lifi mazmunining majburiy minimumi hamda bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablar hisobga olinadi.

## 2. Geografiya ta'lifi maqsadlarini test topshiriqlarida ifodalash

Pedagogik texnologiyalarning ajralmas qismi bo'lgan test topshiriqlari barcha o'quv fanlarida bilimlarni tekshirishni asosiy usuli bo'lib qoldi, ayniqsa XX asrning 90-yillardan boshlab kirish imtihonlarida keng qo'llanila boshlandi. Shuni ham aytib o'tish lozimki, deyarli barcha fanlarda ham test topshiriqlarini tuzish bo'yicha aniq bir metodik qullanmalar va ko'rsatmalar ishlanmasdan turib test topshiriqlari ishlab chiqildi va nashr qilindi. Bu esa ayrim chalkashliklarni keltirib chiqardi. Testalogiya, ya'ni o'qitish maqsadlarini test topshiriqlarida ifodalash pedagogik texnologiyalarning oxirgi bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Demak, O'zbekistonda va boshqa qator MDH davlatlarda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash uning oxirgi bosqichlaridan boshlangan.

Umumta'lif va o'rta maxsus maktablarni eng dolzarb, murakkab va muhim muammolaridan biri o'quvchilarning bilim va malakalarini tekshirishdir. XX asrning 90-yillarigacha o'quvchilar bilim va malakalarini tekshirishni og'zaki va yozma usuli keng tarqalgan edi. Mazkur usullarning asosiy kamchiligi bilim va malakalarga baho qo'yishdagi subektivlikdir. Har bir imtihon oluvchi bir xil ishga turli yondoshib, turlicha baho qo'yish mumkin. Eng muhimi bu usulda aniq bir muvozanatning sust ishlanganligidir.

Shu munosabat bilan O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «O'zbekiston Respublikasi Oliy o'quv yurtlarining kunduzgi bo'limlariga qabul tizimini takomillashtirish haqida»gi farmoniga binoan, hamda 1992 yilgi Oliy o'quv yurtlariga test bo'yicha qabulning ijobjiy natijalarini hisobga olib, Vazirlar mahkamasini O'zbekistondagi barcha o'quv yurtlari qabulini test usulida o'tkazish haqida qaror qabul qildi.

O'zbekistonda geografiya fani bo'yicha test topshiriqlari tuzilib nashr qilina boshlandi. Bu sohada X.Vaxobov, P G'ulomov, R.Qurban niyozov, A.Soatov, A.Qayumov, N.Sultanova, F.Saydamatov va boshqalar tomonidan katta ishlar amalga ogshirildi. 1994 yildan 2002 yilgacha

Davlat test markazi tomonidan test topshiriqlari to'plamlari «Axbarotnoma» shaklida nashr qilindi.

Test ingilizcha «Test» so'zidan olingen bo'lib, topshirish, sinash, nazorat qilish ma'nolarini anglatadi (BSE, 42 t, 1956 g). Dastlab testlar psixologiya fanida kishining fikrlash qobiliyati, alohida muhim imkoniyatlari, irodasini va boshqa tomonlarni aniqlashda qo'llaniladigan bir qolipdagi topshiriqlardan iborat bo'lgan (so'zli yoki rasmi shaklda).

Maktablarda testlar (N.Grayvz, 1979) dastlab asrimizning 20-yillaridan boshlab AQSHda qo'llanila boshlangan, bu paytgacha AQSH va Buyuk Britaniyada imtihonlar asosan yozma shaklda o'tkazilar edi. XX asr boshlarida AQSHda yozma imtihonlar qattiq tanqid ostiga olina boshlandi, natijada bilim va malakalarni tekshirish bo'yicha turli tajribalar sinab ko'rila boshlandi. Chunki AQSHda o'quv jarayonini rejalashtirish bo'yicha maktablar juda katta xuquqga ega edi, natijada o'quvchilarning umumiy ta'lim darajalari turlicha bo'lган. 1920 yildan boshlab N'yu-Yorkning maorif bo'limi aniq (obyektlar) testlar bo'yicha imtihon olish tajribasini boshladilar va 30-yillardan boshlab bunday usul AQSHning hamma maktablarida qo'llanila boshlandi. AQSHning shimoliy -sharqi shtatlarining oliv o'quv yurtlariga kirish imtihonlari bo'yicha kengash ham universitetlarga kirishni tartibga solish maqsadida 30-yillarda testlar tuzishga kirishdi. Natijada testlar tuzish bo'yicha kooperativ xizmat tashkil qilindi, uning asosiy vazifasi, AQSHning mакtab va kollejlarida o'quvchilar o'zlashtirishini ko'rsatilgan talablar asosida aniq baholash mezonlari bilan ta'minlash edi. 1948 yilda ushbu kooperativ xizmat ta'lim testlari xizmatiga aylantirildi. Imtihonlar bo'yicha kengash test xizmatlarining ma'lumotlarini kollej va univesitetlarga kiruvchilarning bilimi tekshirishda ishlata boshladi.

Test bo'yicha bilim va malakalarni tekshirish quydagilarni o'z ichiga oladi: a) fikrlash va matematik qobiliyatni aniqlashga mo'ljallangan testlar (ko'p javobli savollardan tuzilgan, imtihon 3-soat davom etadi); b) yakuniy test, asosan ingliz tili, ijtimoiy fanlar, matematika, chet tillari va tarix bo'yicha bilimlarni tekshiradi, kiruvchilardan 3-ta predmet bo'yicha testdan o'tish talab qilinadi (har bir predmet bo'yicha imtihon 1-soat davom etadi, hammasi ketma ket bo'ladi). Barcha testlar (ingliz tilidan tashqari) ko'p savolli toshiriqlar iborat. Buyuk Britaniyada testlar boshlang'ich maktablarning bitiruvchi sinflarida qobiliyatli o'quvchilarni o'rta maktablarga taqsimlash maqsadida o'tkaziladi. Imtihon topshirish jarayonida o'quvlardan to'g'ri javobni aniqlash talab qilinadi va har bir

to'g'ri javob uchun bir ball qo'yiladi. Baholar aniq bo'lgani uchun imtihon oluvchilarning sub'ektiv qarashlari yo'q bo'ladi.

Sobiq ittifoqda bilim va malakalarni test orqali tekshirish noilmiy deb qaralib, VKP (b)ning 1936 yil 4-iyulda chiqqan «Xalq maorifi komisarligi tizimidagi pedagogik noto'g'ri talqinlar haqida» nomli qarorida qattiq tanqid ostiga olindi va man qilindi. 1970 yildan boshlab test usuli maktablarda yana asta sekin tajriba sifatida olimlar va ilg'or o'qituvchilar tomonidan qo'llanila boshlandi.

Geografiya sohasida mazkur ishlar T.P.Gerasimova, M.K.Kovalevskaya, V.A.Korinskaya, L.M. Teltevskaya va boshqalar tomonidan amalgal oshirildi.

Hozirgi paytda jahonda testlarning juda ko'p turlari mavjud, ulardan eng asosiyları, quyidagilar (G'ulomov, Vaxobov, Qurban niyozov, 1993):

**1. Ko'p javobli testlar.** Bunday testlar juda keng tarqalgan. O'zbekistonda ham hozir asosan shunday testlar qo'llanilmoqda. Maskur testlarda bitta savolga uchtdan beshtagacha javob bo'ladi, imtihon topshiruvchi to'g'ri javobni aniqlab belgilashi lozim masalan,:

Ikki materik, ikki qit'a, ikki okean, ikki dengiz, ikki yarim orol va ikki davlatni ajratib turuvchi bo'g'izni aniqlang.

A.Bosfor  
V.Gibraltar  
S.Dreyk  
D.Torres  
E. Bering

**2. "To'g'ri- noto'g'ri"** (alternativ testlar) **testlar.** Ushbu turdag'i testlar "to'g'ri" va "noto'g'ri" xilidagi savollardan iborat bo'ladi. Bunda imtihon topshiruvchi topshiriqqa binoan to'g'ri yoki noto'g'ri javoblarni aniqlash kerak. Masalan, Yevropaga kirmaydigan davlatlarni tagiga chizing.

Ispaniya, Kuba, Fransiya, Lixtenshteyn, Shri Lanka, Chexiya, Surinam, Barbados.

Yoki quydagi to'g'ri yozilgan nomlarni tagiga chizing.

Andijon, Samarqand, Farg'on'a, Sirdaryo, Namangan, Jizzax viloyatlari Farg'on'a vodiysida joylashgan.

**3. Uyg'unlashgan savolli testlar.** Bunday testlarda berilgan savollar yoki nomlar yoniga ularga mos bo'lgan tayyor javoblarni yozib qo'yish talab qilinadi. Masalan, Toshkent viloyatida joylashgan shaharlar yoniga, ular uchun hos bo'lgan sanoat tarmog'ini yozing.

Yoqilg'i – energetika sanoati, rangli metallurgiya, oziq-ovqat, kimyo, qurilish mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati.

Yangiyo'l-  
Chirchiq-  
Ohangaron-  
Olmaliq-  
Bekobod-  
Angren-

#### **4. Tushrib qoldirilgan so'zlarni to'ldirishga mo'ljallangan testlar.**

Ushbu testlar tabiiy geografiyada keng tarqalgan geografik diktantlarga to'g'ri keladi. Masalan, «Farg'ona vodiysini shimoli g'arbdan ..... tizmasi, ..... dan Farg'ona tizmasi, .....dan Oloy va Turkiston tizmalari o'rabi turadi. Ma'muriy jihatdan Farg'ona vodiysida O'zbekistonga qarashli 3 ta viloyat- ..... , ..... vloyatlari Qirg'izistonning ..... viloyatlari va ..... ning Xo'jand viloyati joylashgan».

**5. Rasm yoki chizmali testlar.** Ushbu testlarda 3-5 ta rasm yoki chizma beriladi, ularning ichidan geografiya obyektini topish, yoki bo'limasa chizmadagi xatolarni topish talab qilinadi. Masalan, «Quyidagi rasmlar ichidan Tanganika ko'lini aniqlang»

**6. Murakkab testlar** ular o'quvchilarni fikrlashga va olgan bilimlarini qo'llay bilishga majbur qiladi. Masalan, Ishbilarmonlar g'isht ishlab chiqarishning qulay va arzon usulini o'ylab topishdi. G'ishtni ishlab chiqarishni boshlash uchun ish kuchi, rangli metallurgiya sanoati chiqindilari kerak, mablag'ni tog'- metallurgiya birlashmasi beradi. Bu g'ishtlar assan shaxsiy uylar qurishda ishlatiladi, shuning uchun aholiga sotishga mo'ljallangan, ammo mahsulotning 60% ni tog'-metallurgiya birlashmasi oladi. Xokimiyat quyidagi shaharlardan biriga mazkur zavodni qurishga ruhsat berdi. Ishbilarmonlar g'isht zavodi qurish uchun qaysi shaharni tanlashadi (yerning narxi hama joyda bir hil)?

A. Andijon, B. Olmaliq; C. Bekobod; D. Toshkent; E. Chirchiq

**7. Jadval shaklida testlar.** Jadvalli testlar uch qismidan (ustundan) iborat bo'dadi. Birinchi ustunda geografik joy, voqeа va hodisalarining nomlari beriladi, ikkinchi ustunda ularning shakli, xususiyati va xossalari ko'rsatiladi, uchinchi ustunda Ushbu xususiyatlar qaysi joyga, voqeа va hodisaga xos bo'lsa, o'sha voqeа va hodisaning hamda joyning tartib raqamni imtihon topshiruvchi yozib chiqishi kerak. Masalan, Yevroсиyo relyefining qanday shakllari qaysi geologik tuzilishlarga to'g'ri kelishini ko'rsating?

| Yevroсиyo relyef shakllari  | Geologik tuzilmalari         | Javoblar            |
|---|------------------------------|---------------------|
| 1.O'rta Sibir yassi tog'ligi<br>2.Turon pasttekisligi<br>3.Tyanshan<br>4.Sharqiy Yevropa tekisligi<br>5.Dekan yassi tog'ligi<br>6.G'arbiy Sibr pasttekisligi<br>7.O'rta russiya balandligi<br>8.Arabiston yarim oroli cho'llari va yassi tog'lari | Platforma<br>Plita<br>Qalqon | 1,4,5,8<br>2,6<br>7 |
|   |                              |                     |
|   |                              |                     |

**8. Didaktik testlar** yoki ko'p savolli va javobli testlar. Bu turdagи testlarda avval javoblar ro'yhati beriladi, keyin savollar beriladi, imtihon topshiruvchidan tayyor javoblardan moslarini topish talab qilinadi.

Misol. Javoblar.

Ptolemy

Beruniy

Kolumb

Magellan

Eratosfen

Savollar: 1.Amerika qit'asiga kim boshchiligidagi ekspeditsiya birinchi bo'lib borgan?

2. «Geografika» degan kitobni kim yozgan?

3.Xaritalarni daraja to'ri bilan tuzishni kim birinchi bo'lib taklif qilgan?

4.Globusni birinchi bo'lib kim yasagan?

5.Kemada kim birinchi dunyo aylana sayohat qilgan?

Test savollari va javoblarini tuzishning eng muhim tomonlardidan biri uning vazifasini maqsadlarini va kimlarga mo'ljallangan hamda nimalar asosida tuzishni aniqlab olishdir.

Testlar vazifasiga ko'ra kundalik, oraliq va yakuniy testlarga hamda oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda qo'llaniladigan umumiy yoki maxsus testlarga bo'linadi. Har bir yirik mavzu o'tib bo'lingandan so'ng o'tkaziladigan testlarning maqsadi, o'quvchilar va talabalarning mazkur mavzu bo'yicha bilimlarini qay darajada bilib olganliklarini aniqlashdir (kundalik nazorat). Har bir yirik bo'lim o'tib bo'lingandan keyin o'tkaziladigan testlar oraliq yoki chegaraviy nazoratni tashkil qiladi. Yakuniy test butun kurs o'tib bo'lingandan keyin sinov yoki imtihon

tarzida o'tkaziladigan va o'quvchilar hamda talabalar egallagan bilim, malakalar ball bilan aniqlanadi. Oliy o'quv yurtlariga qabul qilishda ishlataladigan testlar tegishli sohalar bo'yicha mutaxassislar tomonidan tuziladi.

Testlarning maqsadi o'quvchilar va talabalarning olgan bilim va malakalarini, fikrlash qobiliyatini, qaysi fanga yoki sohaga moyilligini aniqlashdan iboratdir. Har bir sinfda, har bir kursda turli xil murakkablikdagi bilim va malakalar tekshiriladi. Boshlang'ich tabiiy geografiya kursida test savollari va javoblari asosan quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'quvchilar bilim va malakalarini tekshirishga mo'ljallanadi: topografik va kartografik bilim va malakalar, tasavvurlar (Yerning qobiqlari, tuzilishi, o'chamlari, tabiat uyg'unliklari va h.k.); o'z yashash joyining geografik xususiyatlari haqida bilimlar va dunyo aholisi haqidagi bilimlar.

Materiklar va okeanlar geografiyasi kursi bo'yicha test savollari va javoblari ikki yo'nalishda tuzilishi mumkin:

- umumiy tushunchalar bo'yicha testlar quyidagi bilimlarni tekshirish uchun tuzilishi kerak; tabiat tarkiblari haqida umumiy tushunchalar tizimi bo'yicha bilimlar; umumiy geografik qonunlar haqidagi bilimlar;
- yakka tushunchalar bo'yicha testlar har bir materik va okeanlar haqida quyidagi bilimlarni tekshirish uchun tuziladi; materik va okeanlarning geografik joylarini; tabiat tarkibining asosiy xususiyatlari, yirik geografik obyektlarning joylashishi; tabiat uyg'unliklari (birliklari) ning joylashishi; har bir materikning aholisi va yirik davlatlari.

Iqtisodiy geografiya kursi bo'yicha test savollariga javoblari quyidagi bilim va malakalarni tekshirish uchun tuzilishi kerak:

- umumiy iqtisodiy geografik tushunchalar haqida bilimlar;
- tarmoqlar geografiyasi haqida bilimlar;
- alohida davlatlar, iqtisodiy zonalar, hududlar, viloyatlar iqtisodiy geografiyasi haqida bilimlar;

Test savollari va javoblarini qanday ma'lumotlar vositasida tuzish kerak, bu ham eng muhim masalalardan biri bo'lib hisoblanadi. Test tuzayotganda doimo bitta qoidani esdan chiqarmaslik kerak, u ham bo'lsa test savollari va javoblarini dastur doirasida bo'lishi qoidasidir. Agar test savollari va javoblarini dastur doirasiga kirmsa, o'quvchilar yoki talabalar savollarga noto'g'ri javob berishi mumkin. Har bir kurs va uning qoidalari bo'yicha tuzilgan testlar ham shu kurs yoki qism doirasidagi bilimlar asosida tuzilishi kerak. Test savollari va javoblar quyidagi ma'lumotlar asosida tuziladi:

- tegishli darslik matni asosida;
- darslikdagi xaritalar, rasmlar, chizmalar va jadvallar vositasida;
- tegishli sinflar va kurslar uchun chiqarilgan atlaslar va xaritalar asosida;

-tegishli kurslar uchun chiqarilgan metodik qo'llanma, ko'rsatma va yo'riqnomalar asosida;

- fakul'tativ mashg'ulotlar bo'yicha darslik va qo'llanmalar asosida geografik ma'lumotlar test savollari va javoblari tuzish darajasiga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- a) test savollari va javoblari oson tuziladigan ma'lumotlar;
- b) test savollari va javoblari qiyin tuziladigan ma'lumotlar;
- c) test savollari va javoblari tuzib bo'lmaydigan yoki juda qiyin tuziladigan ma'lumotlar. Masalan, ayrim tushuncha va ta'riflar, jarayonning tavsifi kabi masalalar.

Testlar qamroviga qarab turlicha bo'lishi mumkin. Kursning ayrim mavzulariga, bo'limlariga tuzilgan testlar masalaning mohiyatini chuqur ochib beradi, mavzular juda chuqur va aniq yoritiladi. Yakuniy testlar esa asosan umumiy qonuniyatlar va xususiyatlarni ochib berishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Testlar o'quvchilar bilmini tekshirishda va baholashda har qanday subyektiv shart – sharoitlarga qaramasdan bahoning obyektiv bo'lishini ta'minlaydi.

Ko'p javobli testlar tuzayotganda quyidagi qoidalarga amal qilish lozim:

- javoblar eng kamida 3 ta bo'lishi kerak, javoblar qancha ko'p bo'lsa, tasodify baholar soni shuncha kam bo'ladi, odatda hozirgi paytda to'rtta javobli testlar keng tarqalgan;

- noto'g'ri javoblar ham haqiqatga yaqinroq bo'lishi kerak;

Testdagi har bir savol va unga berilgan javoblar o'quvchi va talabarni chuqur o'ylashga, tafakkur qilishga majbur qilish kerak. Talabalar bilimini va malakasini tekshirishda test usulini qo'llashni quyidagi afzallikkari bor:

- test usulida o'tkazilgan imtihonda o'rganilgan hamma masalalarni talabalar qanday o'zlashtirganligini bira to'la aniqlash mumkin. Oddiy imtihonda buni iloji yo'q;

- ko'pchilik talabalar qaysi mavzularni to'liq o'zlashtirgan, qaysilarini kam o'zlashtirgan, qaysi masalalarni qisman o'zlashtirgan, qaysilarini butunlay bilib olmaganligini aniqlash mumkin;

- barcha talabalar bilmini qisqa vaqt ichida tekshirib olish mumkin;
- talabalar bilmini obyektiv baholash mumkin.

Test usulini qo'llashning qiyinchiliklari va noqulayliklari quyidagilardan iborat:

- test savollari va javoblarini tuzish juda qiyin va katta ma'suliyatni talab qiladi;
- talabalar bilan bevosita muloqotda bo'linmaydi;
- talabaning ilmiy va og'zaki nutqini o'stirishga yordam bermaydi;
- an'anaviy imtihon va sinovlarda talabalar bilmagan narsalarni bilib olishadi;
- talabalar 40-50 ta savolning qaysi biriga to'g'ri va qaysi biriga noto'g'ri javob bergenliklarini ham bilmaydilar.

Shuning uchun testga talabalar bilmini tekshirish usullaridan biri sifatida qarash lozim. Lekin oliy o'quv yurtlariga qabul imtihonini test usulida o'tkazish eng maqlul usul. Chunki bunda subyektivlikka o'rinn qolmaydi. Test usuli kompyuter yordamida amalga oshirilishi kerak. Javoblarga qo'yadagan ballarni ham mashina hisoblashi kerak.

Joriy testda muayyan mazmuni o'quvchi yoki talabalar qanday o'zlashtirganini nazorat qilinadi, shuning uchun savollar maydaroy va chuoqroq bo'ladi. Oraliq testda savollar kengroq bo'ladi. Yakuniy testlar butun o'quv kursi materialini o'z ichiga oladi.

### 3. Didaktik o'yinlar texnologiyasi

Geografiya ta'limida didaktik o'yinlar texnologiyasi o'quvchilarni bilish faoliyatini rivojlantirishning asosiy usullaridan biri sifatida ilgaridan qo'llanib kelinadi. O'quvchilarga geografik o'yinlar orqali bilim berish didaktik o'yinli darslar deb ataladi.

Geografik o'yinlarning asosiy xususiyatlari qo'yidagilardan iborat.

1. Geografik o'yinlar bilan dars o'tilganda o'quvchilarda rivojlantiruvchi faoliyat vujudga keladi. Bunda o'yinda ishtirot etayotgan o'quvchilar rollarini, vazifalarini erkin tanlashadi. Masalan, ekspeditsiya o'yinlarida kema darg'asi, boshqaruvchi, kuzatuvchi, kartograflar, dengizchilar va boshqa roller.

2. Geografik o'yinlar bilan shug'ullanish jarayonida ijodiy muhitni va munozaralni vaziyatlarni vujudga kelishi. O'quvchilar geografik o'yin davomida aniq bir roller va vazifalarini bajarish jarayonida ijodiy ishlarni bilan mashg'ul bo'ladi, ma'lum bir muammoli vaziyat vujudga kelsa ularni hamkorlikda yechishadi.

Geografik o'yinlar darsini mavzusi va o'tkaziladigan muddatini o'qituvchi oldindan belgilaydi. O'yinga tayyorgarlik davomida o'qituvchi

geografik o'yinlarning tarkibiy tuzilishini aniqlab oladi. Geografik o'yinlarning tarkibiy tuzilishiga quyidalilar kiradi: o'yining maqsadi va loyihasini ishlab chiqish; o'yinda ishtirot etadigan rollarni aniqlash; o'yinda ko'zda tutilgan rollarni vazifalarini ishlab chiqish; geografik o'yinda ishtirot etadigan ishtirokchilar o'rtasidagi munosabatlarni ishlab chiqish.

Geografik o'yinlar individual, guruhli va ommaviy holda tashkil etish mumkin. Ularning barchasi ma'lum bir o'quv sharoitlarida qo'llaniladi. Geografik o'yinlar syujetli-rolli, ijodiy, ishbilarmonlik, konferensiya va boshqa turlarga bo'linadi.

Syujetli-rolli o'yinlar tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy borliq, voqeа va hodisalar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganishga yo'naltirilgan bo'ladi.

Ijodiy o'yinlar o'quvchilarni avval olgan bilimlariga asoslanib, ma'lum bir muammoli geografik masalani didaktik o'yin orqali yechishga mo'ljallangan bo'ladi.

Ishbilarmonlik yoki biznes o'yini iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida ko'proq qo'llaniladi.

Geografiya darslarida qo'llaniladigan didaktik o'yinlarni ikkita katta guruhga bo'lishimiz mumkin: tabiiy geografik o'yinlar va iqtisodiy-ijtimoiy geografik o'yinlar.

### 3.1. Tabiiy geografik o'yinlar

Didaktik o'yinlar texnologiyasi tabiiy geografik bilimlarni o'rganishni va o'zlatirishni faollashtiradi. Mazkur didaktik o'yinlarni sinflar bo'yicha ham, aniq bir mavzular bo'yicha ham ishlab chiqish mumkin. Sinflar bo'yicha quyidagi predmetlar uchun ishlab chiqish mumkin: tabiiy geografiya boshlang'ich kursi (5-sinf); materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi (6-sinf); O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi (7-sinf). Tabiiy geografiya darslarida qo'yidagi mavzular bo'yicha didaktik o'yinlarni ishlab chiqish mumkin:

-geografik tadqiqotlar tarixi. Fanning rivojlanish tarixi, hududlarni va ayrim muammolarni o'rganish tarixi;

- plan va xarita, shartli belgililar, andozalar, gorizontallar, geografik kordinatalar, mashstab va h.k.;

- litosfera, yerning ichki tuzilishi, yer po'sti, tog' jinslari, relyef va uning turlari, ayrim hududlar relyefi;

- gidrosfera va uning tarkibiy qismlari, Dunyo okeani, quruqlik suvlari, yer osti va yer usti suvlari, materiklar va ayrim hududlarning ichki suvlari;

- atmosfera, uning tuzilishi, tarkibi, havo massalari, ob-havo va iqlim, iqlim hosil qiluvchi omillar, iqlim mintaqalari, siklonlar, yog'inlar, materiklar va ayrim hududlar iqlimi;

-biosfera. Materiklar ayrim hududlarining tuprog'i, o'simligi va hayvonot dunyosi.

Yuqorida keltirilgan tabiat tarkiblarining har biri bo'yicha juda ko'p didaktik o'yinlar ishlab chiqish mumkin. Didaktik o'yinlarni individual va kichik guruhlarda tashkil etish mimkin.

Individual didaktik o'yinni quyidagicha masalalar tuzishib o'tkazishimiz mumkin.

1. Ekvator bo'yicha Atlantika okeannining kengligi  $60^{\circ}$  bo'lsa, yerning harakat tezigidagi uchayotgan kosmik kema uni necha soatda bir qirg'og'dan ikkinchi qirg'og'iga yetib boradi. Mazkur o'yinni yechish uchun o'quvchi quyidagilarni bilishi lozim. Yerning burchak tezligini, ekvatorda  $1^{\circ}$  yoyning uzunligini. Yerning burchak tezligi soatiga  $15^{\circ}$ , ya'ni, yer bir soatda  $15^{\circ}$  masofani bosib o'tadi. Demak kosmik kema yer tezligida uchayotgan bo'lsa Atlantika okeannining kengligi  $60^{\circ}:15=4$  soatda yetib boradi. Ekvator bo'yab  $1^{\circ}$  yoyning uzunligi  $111,3 \text{ km}^2$  teng, unda ekvator bo'yicha Atlantika okeannining kengligi  $60 \times 111,3 \text{ km}^2 = 6678 \text{ km}^2$ .

Yoki, koordinata to'ri bo'yicha quyidagicha individual o'yinni ishlab chiqish mumkin: Sharqiy yarimsharning  $105^{\circ}$  meridiani g'arbiy yarim sharning qaysi meridianiga to'g'ri keladi. Buning uchun o'quvchi quyidagi bilimlarga ega bo'lishi lozim: har bir yarim sharning va Yer sharning necha darajaga teng ekanligini. Shundan so'ng mazkur o'yin quyidagicha yechiladi:

$180^{\circ}-105^{\circ}=75^{\circ}$ , demak, sharqiy yarim sharning  $105^{\circ}$  meridiani g'arbiy yarim sharning  $75^{\circ}$  meridianiga to'g'ri kelar ekan.

7-sinfda "O'rta Osiyo foydali qazilmalari" mavzusida guruhli o'yinni tashkil qilish mumkin. O'rta Osiyo yozuvsız xaritasi shunday bo'laklarga ajratiladiki, uning har bir bo'lagida ma'lum bir foydali qazilma albatta bo'lsin. Bo'laklarga mos qilib kartochkalar kesiladi, uning har biriga foydali qazilma koni bor joy nomi yozib chiqiladi. Masalan, Angren, Polvontosh, Boysun.

Boshqaruvchi kartochkalarni yig'ib olib, yozuvsız xaritalarni o'yin ishtirokchilariga tarqatadi. O'yin boshqaruvchi joy nomlari yozilgan

kartochkalarni bittadan olib o'qiydi va ishtirokchilaridan kimni qo'l ko'tarishini kuzatadi, qo'l ko'targan o'quvchiga kartochkani beradi. Mazkur kartochka yozuvsız xaritaning kerakli joyiga qo'yilishi lozim. Qachon o'yin ishtirokchilaridan biri yozuvsız xaritalarni kerakli kartochkalar bilan to'ldirib bo'lgandan so'ng o'yin tugaydi va u o'quvchi g'olib hisoblanadi.

Ommaviy geografik o'yinlar, 2-3 ta parallel sinflar bilan o'tkazilishi mumkin. Ommaviy o'yinlar odatda chorak oxirida yoki o'quv yili oxirida, bayramlarda, maktab olimpiadalarida o'tkazilishi mumkin.

### 3.2. Iqtisodiy – ijtimoiy geografiya darslarida didaktik o'yinlar o'tkazish texnologiyasi

Umumta'lim maktablarida iqtisodiy–ijtimoiy geografiya kurslari VIII-IX sinflarda o'rganiladi. Mazkur kurslarda quyidagi mavzular bo'yicha didaktik o'yinlarni tashkil etish mumkin:

- tabbiy resurslar geografiysi va ulardan foydalanish;
  - siyosiy xarita va uning shakillanish bosqichlari. Davlatlar va ularning turlari;
  - aholining ko'payishi, tarkibi, shahar va qishloq aholisi, urbanizatsiya darajasi, ko'chib yurishi;
  - ilmiy texnik inqilob va uning ishlab chiqarishni rivojlanishiga ta'siri, sanoatini postindustrial rivojlanishi;
  - mehnatni xalqaro geografik taqsimoti, xalqaro ixtisoslashuv, mintaqaviy va tarmoq ixtisoslashuv;
  - sanoat va uning tarmoqlari, regionlar va alohida davlatlar sanoati;
  - qishloq xo'jaligi va uning tarmoqlari, regionlar va alohida davlatlar qishloq xo'jaligi;
  - transport va xalqaro iqtisodiy aloqalar;
  - mintaqalar va davlatlar iqtisodiy geografiysi.
- Iqtisodiy – ijtimoiy geografiya kursi bo'yicha individual va kichik guruhlarda tashkil etish uchun quyidagicha o'yin mashqlarining ishlab chiqish mumkin:
1. Afrika materigi siyosiy xaritasidagi davlatlarni chegarasi bo'yicha qirqib olib, ularni joylashtirish bo'yicha o'yin tashkil qilinadi (mazayka). Bunda 2-3 ta o'quvchi navbat bilan davlatlarni joy-joyiga to'g'ri qo'yib chiqadi. Kim qisqa vaqtida mazkur ishni bajarsa o'sha g'olib hisoblanadi. Bunda o'quvchilarni siyosiy xarita va davlatlarni geografik joylanishi haqidagi bilimlari tekshiriladi.

2. Maydoni 1 mln. km<sup>2</sup> ortiq bo'lgan davlatlar soni qaysi materikda ko'p ekanligini aniqlang.

3. Sharqdan-g'arba, shimoldan-janubga geografik o'yini. O'qituvchi yoki o'yin boshqaruvchisi sinf o'quvchilariga besh va undan ortiq davlat nomi yozilgan kartochkalar tarqatadi. O'yin ishtirokchilariga kartochkada yozilgan davlatlarni ma'lum tartibda, ya'ni, sharqdan g'arba yoki shimoldan janubga tomon tartib bilan ma'lum ajratilgan vaqt ichida yozib chiqishlari topshiriladi. Masalan, kartochkada quyidagi davlatlar yozilgan deylik: Jazoir, Chad, Markaziy Afrika Respublikasi, Liviya, Misr, Saudiya Arabiston, Marokash, Kongo, Tunis, Efiopiya. Agar sharqdan g'arba ma'lum tartibda davlatlarning nomini yozish talab etilsa – Saudiya Arabiston, Misr, Liviya, Tunis, Jazoir, Marokash tartibida yoziladi.

Agar shimoldan janubga tomon yozish talab etilsa quyidagi tartibda Latviya, Chad, Markaziy Afrika Respublikasi, Kongo. Shunga o'xshash geografik o'ynlarni har bir davlat iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi bo'yicha ham ishlab chiqish mumkin.

O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi va uning tarmoqlari bo'yicha qator didaktik o'yinlar ishlab chiqib, o'quvchilarini bilish faoliyatini rivojlantirish mumkin.

#### 4. Modulli ta'lim texnologiyasi

*Modulli ta'lim texnologiyasi* geografiya ta'limida endi rivojlanib kelmoqa. Modulli ta'lim texnologiyasi modullarga asoslanadi. Modul lotincha so'zdan olingan bo'lib, qism (blok) degan ma'noni bildiradi.

Geografiyani o'qitishda modulli ta'lim texnologiyalaridan foydalanishda darsda foydalaniladigan mavzu mantiqiy tugallangan fikrli qismlar, ya'ni modullarga ajratiladi va har bir qismni o'quvchilar mustaqil o'zlashtirishlari uchun o'quv topshiriqlari tuziladi. Shu o'quv topshiriqlari asosida, har bir modul yakunida savol-javob o'tkaziladi va xulosa chiqariladi. Modulli ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchilar modul dasturlari yordamida mustaqil ishlashiga asoslangan o'quv-bilish faoliyati orqali belgilangan maqsadga erishadilar.

Darslik, bo'lim, mavzu ayrim modullarga bo'linadi. Har bir modulda o'quvchilar albatta egallashi lozim bo'lgan bilimlar tizimi aniqlanadi. Masalan, geografik koordinatalar mavzusini quyidagi modullarga bo'lishimiz mumkin: ekvator, bosh meridian, parallellar, meridianlar, daraja to'ri, geografik kenglik, geografik uzunlik, geografik koordinatalar. Bunda o'quvchilar albatta bilishi shart bo'lgan bilimlarga parallel,

meridian, kenglik, uzunlik, geografik koordinata kiradi. Mazkur texnologiyani geografiya predmetlarining barchasida qo'llash mumkin. Mazkur texnologiya o'qituvchi va o'quvchini birqalikdagi faoliyatini engillashtiradi va rivojlantiriladi.

Umumta'limga muktablarida geografiya predmetlari oddiydan murakablikka tomon bir – birini to'ldiradigan holda joylashtirigan.

Har bir geografiya predmetida bir-biri bilan bog'langan voqe va hodisalar xususiyatlari va qonunyatlari ochib berilgan. Shuning uchun bir-biri bilan bog'liq bo'lgan borliq, voqe va hodisalar haqidagi bilimlar tizimiga **geografik modullar** deb ataladi. Har bir modul yanada mayda modullarga bo'linib ketadi. Agar umumta'limga muktablarida geografiya predmetlarini bitta katta modul deb qaraydigan bo'lsak, har bir sinf geografiyasi alohida modul deb qaralishi mumkin. (2- rasm.)

| Geografiya ta'limi modullari                  |   |   |   |  |                             |
|---|---|---|---|--|-----------------------------|
| Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi (5-sinf) | Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyası (6-sinf) | O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyası (8-sinf) | Ozbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiyası (8-sinf) | Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyası (9-sinf) | Amaliy geografiya (10-sinf) |
| 1-modul                                       | 2-modul   | 3-modul   | 4-modul   | 5-modul  | 6-modul                     |

#### 2- rasm. Geografiya ta'limining yirik modullari

Yuqoridagi yirik modullarni yanada kichikroq modullarga bo'lish mumkin. Bunda har bir sinf geografiya dasturi mazmunidan kelib chiqqan holda modullarga bo'linadi.

Mazkur xohni beshinchini sinf geografiya predmeti misolida ko'rib chiqamiz.

5-sinfda o'rganiladigan "Tabiiy geografiya boshlang'ich kursu" predmetini 5 ta modulga bo'lishimiz mumkin.

**1-modul.** Kirish. ya'ni geografiya fanini predmeti, tarmoqlari, rivojlanish tarixi. Mazkur modulni yanada mayda modullalarga bo'lib yuboramiz.

**1.1-modul.** Geografiya fani nimani o'rganadi va u qanday tarmoqlarga bo'linadi. Demak, bu yerda geografiya fani haqida umumiy tasavvur va bilimlar beriladi. Shundan so'ng, geografiya fanini ikkita yirik tarmoqqa, ya'ni, tabiatni va tabiiy sharoitni o'rganadigan tabiiy

geografiyaga, aholini va uning xo'jalik faoliyatini o'rganadigan iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaga bo'linishi haqida o'quvchilarga bilimlar beriladi.

**1.2-modul.** Geografik bilimlarning rivojlanishi. Mazkur modulni tushuntirish qadimgi Yunoniston geografiya maktabi vakillari Aristotel, Ptolomey, Strabon geografiyasidan boshlanadi. So'ngra O'rta asrlarda sharq, jumladan O'rta Osiyoda geografiya fanini rivojlanishi, buyuk geografik kashfiyotlar, XVIII-XIX asrlarda va XX asrlarda geografiya fanlarining rivojlanishi haqida bilimlar beriladi.

**1.3-modul.** Zamonaliv geografiya. Hozirgi davrda geografiya fanining asosiy vazifalari haqida bilimlar beriladi.

**2-modul.** Plan. Mazkur modul quyidagi kichik modullarga bo'linadi.

**2.1-modul.** Joy plani haqida tushuncha. Rasm, aerosurat, kosmosurat va plan. Ularning bir-biridan farqi.

**2.2-modul.** Masshtab. Sonli, chiziqli va so'zli, bir masshtabni ikkinchi masshtabga o'tkazish. Masalan so'zli mashtabni sonli yoki chiziqli mashtabda ifodalash. Masshtab bilan mashqlarni amalga oshirish.

**2.3-modul.** Shartli belgilar, ularning turlari. Masshtabli va masshtsiz shartli belgilar.

**2.4-modul.** Azimut. Ufq tomonlari. Kompas va u bilan ishslash.

**2.5-modul.** Mutloq va nisbiyi balandlik. Joyda masofani aniqlash. Gorizontallar va ular bilan ishslash.

**2.6-modul.** Plan olish. Qutbiy va yo'naliш bo'yicha plan olish.

**3-modul.** Geografik xaritalar.

**3.1-modul.** Xaritalar haqida tushuncha. Globus. Dunyo xaritasi. Yarim sharlar xaritasi. O'zbekiston xaritalari. Yozuvsiz xaritalar. Atlaslar.

**3.2-modul.** Daraja to'ri. Ekvator, meridian, parallelar. Qutblar.

**3.3-modul.** Geografik kordinatalar. Geografik uzunlik. Geografik kenglik. Geografik kordinatalarni aniqlash.

Qolgan modullar ham xuddi shu tartibda tuzib chiqiladi (4 modul Yer Quyosh tizimida; 5 –modul – Yer qobiqlari. Yer qobiqlari o'z navbatida 7-ta kichik modulga bo'linadi.)

Modulli ta'lif texnologiya bilan dars o'tilganda bilimlar bosqichma-bosqich beriladi va o'zlashtiriladi. Mazkur texnologiya o'qituvchi uchun ham juda qulay.

6-sinfda o'rganiladigan "Materiklar va okeanlar" tabiiy geografiya kursini 4 ta yirik modulga bo'lishimiz mumkin:

1.Kirish; 2.Geografik qobiq; 3.Dunyo okeani; 4.Materiklar va okeanlar tabiatini. Mazkur ajratilgan modullarni yanada maydaroq modullarga bo'lish mumkin. Masalan, geografik qobiq modulini quyidagi

kichik modullarga bo'lish mumkin: 2.1.Geografik qobiqning xususiyatlari. 2.2.Geografik qobiqning bo'ylama (vertikal) tuzilishi. 2.3.Geografik qobiqning yuzlama (gorizontal) tuzilishi. Yoki, materiklar va okeanlar tabiatini moduli quyidagi mezo modullarga ajratiladi: 4.1.Afrika materigi. 4.2.Atlantika okeani. 4.3.Hind okeani. 4.4.Avstraliya va Okeaniya. 4.5.Tinch okeani. 4.6.Antarktida. 4.7.Janubiy Amerika. 4.8.Shimoliy Amerika. 4.9.Shimoliy Muz okeani. 4.10.Yevrosiyo. Ushbu modullar mikromoddullarga, ular o'z navbatida yanada kichik modullarga ajratishimiz mumkin.

## 5. Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi XX asming oxirlarida AQSH olimlari tomonidan ishlab chiqilgan, so'ngra Yevropa davlatlarida qo'llanila boshlangan. O'zbekistonda mazkur usul J.O.Tolipova va A.T.G'ofurovlar (2002) tomonidan qo'llangan va uning ilmiy metodik asoslari ishlab chiqilgan.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasining *asosiy g'oyasi* o'quv topshiriqlarni nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o'qishni o'rganishdir.

Mazkur texnologiyaning bir necha usullari mavjud. Ulardan keng tarqalgani quyidagilardir: a) kichik guruhlarda ijodiy izlanishlarni tashkil qilish; b)"arra" c) kichik guruhlarda hamkorlikda o'qitish; d) birgalikda o'ynaymiz; e) komandada o'qitish (Tolipova, G'ofurov, 2002).

Kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish usuli 1976 yil Sh.Sharon (Isroiil) tomonidan ishlab chiqarilgan. Mazkur metod bilan o'qitish texnologiyasi quyidagi qismlardan iborat:

- 6 kishidan iborat o'quvchilar ijodiy guruhi tuziladi;
- darsda o'rganiladigan mavzu yanada kichik modullarga (qismlarga) ajratiladi;
  - so'ngra modullar (qismlar) o'quvchilar o'rtasida taqsimlanadi;
  - har bir o'quvchi o'ziga taqsimlangan modulni bajaradi;
  - modulni topshiriqlari bajarib bo'lingandan so'ng munozara o'tkaziladi, so'ngra guruh tomonidan ma'ruza tayyorlanadi;
  - guruh a'zolari tayyorlagan ma'ruzani sinfda himoya qilishadi.
- Masalan, Afrika iqlimini o'rganish 6 kishilik guruhga topshirildi deb faraz qilsak, uni quyidagi 6 ta modulga (qismiga) bo'lamiz:
  - 1- modul-Afrika iqlimini shakillanish omillarini o'rganish.

2- modul- Afrikani qish faslidagi iqlimini asosiy xususiyatlarini olib berish.

3- modul-Afrikani yoz faslidagi iqlimini asosiy hususiyatlarini olib berish.

4- modul-Afrika materigida yog‘inlar taqsimotini asoslab berish.

5- modul-Afrika materigidagi shamollarning asosiy turlari va yo‘nalishlarini aniqlash

6 modul- Afrika iqlim mintaqalarini tavsiifini tuzish

Mazkur topshiriqlar (modullar) bajarilgandan so‘ng, guruh o‘quvchilari tomonidan Afrika iqlimi haqida ma’ruza tayyorlanadi va sinf o‘quvchilari oldida himoya qilinadi.

Hamkorlikda o‘qitishni “arra” yoki “zig-zag” usuli 1978 yilda E.Aronson tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur metod bilan dars o‘tish texnologiyasi quyidagi qismlardan iborat:

- 6-8 ta o‘quvchidan iborat kichik guruh tashkil qilinadi;

- darsda o‘rganiladigan mavzu ma’lum bir mantiqiy modullarga bo‘linadi;

- har bir modul bo‘yicha o‘quvchilar bajarishi lozim bo‘lgan topshiriqlar tizimi tuziladi;

- ma’lum bir o‘quvchilar guruhi bitta topshiriqni bajaradi va mazkur topshiriq bo‘yicha mutaxasisga aylanadi;

- guruhlar qayta tashkil etiladi va har bir guruhda ma’lum bir topshiriq bo‘yicha mutaxassis albatta qatnashishi zarur;

- har bir topshiriq bo‘yicha shakllangan “mutaxasis” o‘zi egallagan bilimlarini sinfdoshlariga gapirib beradi.

Kichik guruhlarda hamkorlikda o‘qitish usuli 1986 yil R.Slatin tomonidan ishlab chiqilgan. Mazkur metod bilan o‘qitish texnologiyasi quyidagi qismlardan iborat:

- o‘qituvchi 4 ta o‘quvchidan iborat kichik guruhlar tuzadi;

- o‘qituvchi ma’lum mavzu bo‘yicha o‘quvchilarni mustaqil ishlarini tashkil etadi;

- topshiriq 4 qismga bo‘linib, har bir topshiriqni bittadan o‘quvchi bajaradi;

- har bir o‘quvchi bajargan topshirig‘ini guruhdoshiga tushuntiradi;

- har bir guruh topshiriq yuzasidan xulosa tayyorlaydi;

- o‘qituvchi har bir guruh xulosasini tinglaydi va ular bilimini baholaydi.

Masalan, O‘zbekistonni ma’lum bir tabiiy geografik o‘lkasini tabiatini o‘rganishda, sinf o‘quvchilarini 4 kishidan iborat kichik-kichik guruhlarga bo‘lib, quyidagi topshiriqni berish mumkin (Farg‘ona vodiysi misolida):

1-guruh. Farg‘ona vodiysining geografik joylashishi va chegaralari hamda tekshirish tarixi;

2-guruh. Farg‘ona vodiysining geologik tuzilishi, relyefi va foydali qazilmalari;

3-guruh. Farg‘ona vodiysining iqlimi;

4-guruh. Farg‘ona vodiysining ichki suvlari;

5-guruh. Farg‘ona vodiysining tuproqlari, o‘simligi va hayvonot dunyosi.

Komandada o‘qitish usulida ikkita guruhga bo‘linadi va ikkala guruhga bir xil topshiriq beriladi. Masalan, yog‘inlar va ularning turlari.

## 6. Interfaol metodlar

**Interfaol** inglizcha **interakt** so‘zidan olingan bo‘lib, **inter-** hamkorlikda akt- harakat qilmoq ma’nosini bildiradi.

Ta’limning interfaol metodi XX asrning oxiri va XXI asrning boshlaridan pedagogik adabiyotlarda keng ishlatalmoqda va ta’lim sohasida foydalilanmoqda. Uning asosiy *maqsadi* – o‘quvchilarni mustaqil bilim olishga qiziqtirish, o‘z ustida ko‘proq ishslash, qo‘sishmcha adabiyotlarni o‘qish, zamon bilan hamnafas ta’lim-tarbiyaga, mustaqil fikr yurita oladigan komil insonni voyaga yetkazish.

Interfaol o‘qitishning *asosiy mohiyati* – o‘qitish jarayonida barcha o‘quvchilar bilish jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, ular muhokama etilayotgan muammolarni, voqeа va hodisalarining rivojini tushunadi, muammoli vaziyatlarni anglaydi, uni hal etish yo‘llarini izlab, eng maqbul variantni tavsija etadi.

O‘quv materialini o‘rganish, muammoni hal etish bo‘yicha turli variantdagi yechimni tavsija etishga asoslangan bilish jarayonida o‘quvchilarning hamkorligi har bir o‘quvchiga, guruh muvaffaqiyati uchun o‘z ulushini qo‘sishga, ular o‘rtasida fikr, axborot va tajriba almashinuviga zamin tayyorlaydi. Ushbu hamkorlik samimiy, qulay ijtimoiy psixologik, o‘zaro yordam muhitida sodir bo‘lganligi uchun, o‘quvchilar nafaqat yangi bilimlarni o‘zlashtiradilar, balki o‘zining bilish faoliyatlarini rivojlantiradi, uni yuqori darajaga ko‘tarib, hamkorlikka kirishishga imkon beradi.

Interfaol usullardan foydalilanilgan darslarda bitta o'quvchining ustunlik qilishi, uning o'z fikrini o'tkazishiga yo'l qo'yilmaydi.

Interfaol usullar qo'llanilganida o'quvchilar tanqidiy fikr yuritish, axborot manbalari va vaziyatni tahlil qilish, murakkab muammoli vaziyatlarni hal etish, o'rtoqlarining fikrini tahlil qilib, asoslangan xulosalar chiqarish, munozarada ishtirok etish, boshqa shaxslar bilan muloqotga kirishish ko'nikmalarini egallaydi.

O'qitishning interfaol metodlarining quyidagi xususiyatlari mavjud:

- insonning muhim hayotiy ehtiyoji bo'lgan muloqot – o'qitish jarayonining barcha bosqichlarida qo'llaniladi;
- o'qitish jarayonida o'quvchilarga o'z kuchi, bilimi, iqtidorini namoyon etishga teng imkoniyatlar beriladi;
- o'quvchilarining kichik guruhlarda hamkorlikda ishlashida ijtimoiy-psixologik jihatdan qulay muhit yaratilib, muloqotda bosqichma-bosqich va samarali ishtirok etishga zamin tayyorlanadi;
- o'quvchilar muloqotda faol ishtirok etishlari uchun faqat eshitishlari shart emas, balki eshitiganlarini tahlil qilish, fikr yuritish, fikrlarning asosli va tushunarli bo'lishiga erishish lozimligini anglaydilar;

- o'quvchilar bilan hamkorlikda, kichik guruhlarda ishlashi orqali qo'yilgan vazifalarni talab darajasida bajarish, olingen natijalarni tahlil qilish, ularning to'g'rilingini tekshirib ko'rish, taqdim etish va boshqa guruhlar tomonidan e'tirof etishlariga erishishlari lozim.

Interfaollik daraja qancha yuqori bo'lsa, ta'lif berish jarayoni shuncha natijali bo'ladi. Intrafaol metodlar qo'llanilish xususiyatiga ko'ra ikki guruuga ajratiladi: a) grafikli organayzerlar b) og'zaki bayonli.

**Grafikli organayzerlar (tashkil etuvchi)** – fikriy jarayonlarni ko'rgazmali taqdim etish vositasi. Mazkur metodlarga Venn diagrammasi, klaster, BBB jadvali, toifalash jadvali, insert, baliq skeleti, SWOT tahlili, nima uchun, blits o'yin, qanday diagrammasi va h.k.larni kiritishimiz mumkin.

**Og'zaki bayonli** – geografik borliq, voqeа va hodisalar to'g'risidagi fikriy jarayonlar nutq vositasi yordamida og'zaki bayon tarzida taqdim etiladi. Ularga aqliy hujum, blis-savol, hayoliy sayohat va h.k.metodlarni misol qilishimiz mumkin.

**BBB jadvali** - Bilaman, Bilishni hohlayman, Bilib oldim. Mavzu, matn, bo'lim bo'yicha izlanuvchilikni olib borish imkonini beradi. Jadvalni tuzish qoidasi bilan tanishadilar. Alovida kichik guruhlarda jadvalni rasmiylashtiradilar. Mavzu bo'yicha "Nimalarni bilasiz" va "Nimani bilishni xohlaysiz" degan savollarga javob beradilar (oldindagi

ish uchun yo'naltiruvchi asos yaratiladi). Mashg'ulot boshida o'quvchilar jadvalning 1 va 2 bo'limlarini to'ldiradilar. Ma'ruzani tinglaydilar, mustaqil o'qiydilar. Egallagan bilimlari asosida kichik guruhlarda jadvalning 3 bo'limini to'ldiradilar. Masalan, AQSH xo'jaligi mavzusini o'tishdan avval ushbu metoddan quyidagicha foydalanish mumkin:

| Mavzuga oid asosiy tushunchalar                               | Bilaman | Bilib oldim | Bilishni xohlayman |
|---|---------|-------------|--------------------|
| AQShning iqtisodiy geografik o'rnинг qulayligi va noqulayligi |         |             |                    |
| AQSH aholisi soni dinamikasida mexanik ko'payish              |         |             |                    |
| AQShning sanoat mintaqalari                                   |         |             |                    |
| AQSH importi va eksporti                                      |         |             |                    |


**"YELPIG'ICH" metodi** - bu texnologiya murakkab ko'p tarmoqli, mumkin qadar, muammo harakteridagi mavzularni o'rganishga qaratilgan. Texnologiyaning mohiyati shundaki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo'yicha bir yo'la axborot beriladi. Ayni paytda, ularning har biri alovida nuqtalardan muhokama etiladi. Masalan, ijobjiy va salbiy tomonlari, afzallik va kamchiliklari, foyda va zararlari belgilanadi.

"Yelpig'ich" texnologiyasi umumiy mavzuning ayrim tarmoqlarini muhokama qiluvchi kichik guruhlarning, har bir qatnashuvchining, guruhning faol ishlashiga qaratilgan. "Yelpig'ich" texnologiyasi mavzuni o'rganishning turli bosqichlarida qo'llanishi mumkin:

- mavzuning boshida o'z bilimlarini erkin faollashtirish;
- mavzuni o'rganish jarayonida, uning asoslarini chuqur farqlash va anglab yetish;

- yakunlash bosqichida: olingen bilimlarni tartibga solish.

Bu texnologiya ham hozirgi kunda juda keng qo'llanilib kelinayotgan texnologiyalardan biri bo'lib, bu texnologiya, ya'ni "Yelpig'ich" mavzuning kamchilik hamda afzalliklarini ochib berishga xizmat qiladi. Ushbu texnologiyaning yana bir muhim, aytish lozim bo'lgan tomonlardan biri bu texnologiya o'quvchilarni mavzu yuzasidan xulosha chiqarishga o'rgatadi.



**Toifalash jadvalining maqsadi:** Ajratilgan alomatlar asosida olingan ma'lumotlarni birlashtirishni ta'minlaydi. Bu esa tizimli fikrlash, ma'lumotlarni tuzilmaga keltirish, tizimlashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

*Toifalash sharhida quyidagi qoidaga amal qilish lozim:*

1. Toifalar bo'yicha ma'lumotlarni taqsimlashning yagona usuli mavjud emas.
2. Bitta mini - guruhda toifalarga ajratish boshqa guruhda ajratilgan toifalardan farq qilishi mumkin.
3. Ta'lrim oluvchilarga oldindan tayyorlab qo'yilgan toifalarni berish mumkin emas bu ularning mustaqil tarlovi bo'la qolsin.

Ushbu metoddan ham geografiya darslarida foydalanish imkoniyati keng.

Masalan, Jahonning siyosiy xaritasi mavzusida mamlakatlarni toifaga ajratish uchun ushbu metoddan quyidagicha foydalanish mumkin:


| <b>Toifalar</b> |                 |                               |                  |                   |
|-----------------|-----------------|-------------------------------|------------------|-------------------|
| <b>Davlat</b>   | <b>Mamlakat</b> | <b>Maqomi noma'lum davlat</b> | <b>Monarxiya</b> | <b>Respublika</b> |
|                 |                 |                               |                  |                   |

**"Musbat, manfiy, qiziqarli (MMQ)"** metodi o'quvchilarini geografiya darslarida mavzuning mavjud vaziyatini barcha detallarini puxta o'rghanish asosida xulosa chiqarishga odatlantirish orqali ongi boyitish, tafakkurni kengaytirishga xizmat qiladi. Geografiya ta'lif jarayonida MMQ metodini qo'llash o'quvchilarning ma'lum voqelik, hodisa yoki jarayonning barcha jihatlariga e'tibor qaratish, ularni salbiy jihatlarini baholash, qiziqarli tomonlarini aniqlash va kengaytirishga doir ko'nikma, malakalarini rivojlantirishda samarali sanaladi. Bunda asosiy e'tibor mavjud vaziyatning barcha ijobiylarini inobatga olishga qaratiladi. O'rganilayotgan vaziyat yuzasidan xulosa chiqarish, qaror qabul qilish faqat u batafsil o'rganib chiqilgandan keyingina amalga oshirilishi mumkin.

"Quyi Amudaryo" mavzusi yuzasidan bilimlarni o'zlashtirishda MMQ metodi qo'llanilganda o'quvchining fikrlash samaradorligi bir necha marta oshadi. Ko'p hollarda bir qarorga kelishni talab qiladigan vaziyatlarda ham ushbu metodni qo'llash rnaqsadga muvofiqdir.

MMQ metodi bir vaqtning o'zida o'quvchilar faoliyatini o'rganish va baholash metodi ham hisoblanadi. Uni qo'llash sxemasi quyidagicha (D.Ro'ziyeva, 2011):

#### **"Musbat, manfiy, qiziqarli" metodini qo'llash sxemasi**



Quyi Amudaryo o'lkasining musbat, manfiy va qiziqarli tomonlari to'g'risida gapirganda o'quvchilar quyidagicha ma'lumotlarni berishlari mumkin:

**Musbat (ijobiy).** Amudaryoning qadimiy va hozirgi deltasini o'z ichiga oladi. O'lkanning yer yuzasi tekis, ba'zi yerlarda kengayib 140—150 km ga yetadi. Quyi Amudaryo okrugi antropogen davrning allyuvial delta yotqiziqlarining asta-sekin to'planishi va uning Orol dengizi tomonga o'sishi tufayli vujudga kelgan. Quyi Amudaryoning hozirgi zamon deltasi esa, asosan, antropogen davr allyuvial, eol yotqiziqlaridan — qumoq, qumli, gilli qum, gil kabi jinslardan tashkil topib, qalinligi 80—140 m ga yetadi. O'lkada eng qadimiy jinslar uning negizini tashkil etuvchi bo'r davr yotqiziqlari bo'lib, ustini paleogen, neogen va antropogen jinslar qoplab olgan.

Quyi Amudaryo okrugi hududidagi eng muhim qadimiy o'zanlari uning o'ng qirg'og'idagilaridan Orol tomon yo'nalgan Shortonbay, Kreyt-Uzak, Itkra-Uzak, QoraUzak, Kindiksay, Qorako'lsay hamda chap qirg'oqdan boshlanuvchi va Sariqamish botig'i tomon yo'nalgan eng qadimiy o'zani Ko'hnadaryo, Daryoliq va Daudan hisoblanadi.

**Manfiy (salbiy).** Quyi Amudaryo relyefining tabiiy holatini o'zgartirishda insонning xo'jalik faoliyatini ham muhim relyef hosil qiluvchi omilga aylangan. Chunki inson o'zining ko'p asrlik xo'jalik faoliyatida Quyi Amudaryo yerlarini tekislagan, jarlarni to'ldirgan, ariq va zovurlar qurgan, oqibatda okrug yer usti tabiiy holatini o'zgartirgan. Quyi Amudaryo O'zbekistonning eng sovuq hududidan biri hisoblanadi. Amudaryo suvining Orol dengiziga yetib bormasligi natijasida dengiz suvi chekinib, o'lkada ekologik tang vaziyatni vujudga keltirdi. Natijada bugungi kunda mazkur hududda "Orolqum" vujudga keldi. Shamol ta'sirida qumlar uchib Amudaryoga tuz yog'ini yog'moqda. Mo'ynoq shahri atrofidagi har gektar maydonga 1000 kg tuzli changlar tushmoqda.

**Qiziqarli.** Quyi Amudaryo tabiiy-geografik o'lkasi Qoraqum cho'li bilan Orol dengizi orasida joylashgan. O'lkanning eng tor joyi Tuyamo'yin tangligida bo'lib, kengligi taxminan 10—12 km. Amudaryoning hozirgi zamon deltasini Orol dengiziga tutashgan mintaqasida «eng yosh» delta bo'lib, uning maydoni Orol dengizi suv sathining pasayishi hisobiga mutaassil kengayib bormoqda. Quyi Amudaryo yotqiziqlari yoshi va litologik tuzilishi jihatidan bir xil emas.

So'nggi 35 yil ichida Orol dengizi suv sathining 15,5 metr pasayishi tufayli uning suvi ba'zi joylarida 100 km gacha chekinib, quruqlikka aylanib qoldi. Ma'lumotlarga qaraganda XVI asrgacha Amudaryo suvining

bir qismi vaqtiga bilan (suvi ko'p bo'lganda) Ko'hnadaryo orqali Sariqamish ko'liga quyilib turgan.

O'lkada Amudaryo ilon izi bo'lib, sekin oqadi. Shuning uchun Amudaryoning qadimiy o'zanlari vujudga kelib uning relyefini ancha murakkablashtirgan. Qadimda Amudaryoning «tentirab» oqishi tufayli o'zanlar orasida nisbiy balandliklari 60—80 m ga yetuvchi bir necha tepalik, marzalar va qoldiq tog'lar bo'laklarga bo'linib ketgan.

Guruh a'zolari "Quyi Amudaryo" o'lkasi mavzusi bo'yicha o'lkanning musbat, manfiy va qiziqarli tomonlarini o'zlariga belgilangan mavzuning tegishli qismlarini o'rganib bo'lganidan so'ng, ko'rgazmali qurollar asosida ma'ruzalarni bayon qiladilar. Guruhlar o'rtasida savol-javob, o'quv bahsi o'tkaziladi.

**"Aqliy hujum" metodi-** Ushbu metodning asosiy vazifasi ma'lum vaqt orasida ko'proq g'oyalarni yig'ishdan iborat. Barcha g'oyalar katta qog'ozga yoki doskaga izohsiz yoziladi. Metodning hususiyatlari:

- miqdor jihatdan cheklanganligi (guruhdha o'quvchi va talabalar soni 20 kishidan oshmasligi) va guruhlarning hilma-xilligi;
- eshitishga o'rganish;
- bir-birlarini g'oyalarini rivojlantirish;
- «O'yamasdan» aytilgan g'oyalar va hazil mutoyibalar uchun rag'batlantirish;
- tanqidga yo'l qo'ymaslik va baholashni muhokama qilmaslik;
- vaqtning cheklanganligi.

Zamonaviy sharoitda xorij mamlakatlarida talabalarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashda o'ziga xos innovatsion harakterli texnologiyalardan samarali foydalanilmoqda. Shunday texnologiyalardan biri – assesment texnologiyasıdir.

**"Assesment" texnologiyasi-** (inglizcha- "baho", "baholash") o'quvchi talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta'minlovchi topshiriqlar to'plami.

U biografik anketa, ta'lim sohasidagi yutuqlar bayoni, o'quv individual topshiriq, bahs-munozara, intervyu, ijodiy ish, test, individul keys, taqdimot, ekspert kuzatish, rolli hamda ishbilarmonlik o'yinlari kabilardan tashkil topadi. Texnologiya quyidagi uch maqsadga xizmat qiladi:

- o'quvchi va talabalarning BKMni har tomonlama, xolis baholash;
- o'quvchi va talabalarning BKMni rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlash;

- o'quvchi va talabalarning BKMni rivojlantirishga xizmat qiladigan yillik reja (maqsadli dastur)ni shakllantirish.

Ushbu metod muammoli vaziyat, izohli lug'at, kichik, test kabi qismlardan iborat bo'lib, u quyidagicha tuziladi:

|   |  |
|---|--|
| <b>Test</b><br><br><b>1. h=90 tenglik nimani bildiradi?</b><br>A. Quyosning ukfdan balandligi<br>B. Quyoshning tropos feradas balandligi<br>C. Quyosning yer yuzidan balandligi<br>D. Quyoshning atmosferadan balandligi<br><br><b>2. Yer tezligi 29,8km/s ekan, 2 saatda qancha masofani bosib o'tdi?</b><br>A. 214000 B. 314000<br>C. 414000 D. 514000 | <b>МУАММОЛИ ВАЗИЯТ</b><br><br><b>Nima sababdan qutb kunlariva qutb tunbari hosi bo'la di?</b>                             |
| <b>Sintom</b><br><br><b>Yerning shaxsimonligini is bolovchi qanday datillarni bilasiz?</b>   | <b>AMALIY KONIKMA</b><br><br><b>Yerning Quyosh atrofida aylanishining geografiyaligini qo'shib qotarini aytilib bering</b> |

Interfaol metodlarning boshqa texnologiyalardan farqi, ulardan darsning barcha bosqichlarida foydalanish imkoniyatining kengligidir.

## 7. Geografiya ta'lrimida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish

Umumta'limga muktabalarini hamda akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini axborotlashtirish zamoni yana qo'shishga imkon beradi. Hozirgi vaqtida bilim olishni axborotlashtirish va axborot vositalaridan foydalanishni tashkil etish bo'yicha juda ko'p ishlar amalga oshirilgan.

Umumta'limga muktabalarini axborotlashtirish murakkab masalalardan bo'lib hisoblanadi. Chunki axborot vositalarini takomillashtirish va yangilarini ishlab chiqish bo'yicha mutazam ilmiy-tadqiqot va tajriba - sinov ishlari olib boriladi. Buning natijasida axborot vositalarini yangi modellari vujudga keladi. Shuning uchun o'quv muassalarini axborotlashtirish uchun doimo axborot vositalarini yangilab turish lozim. Buning uchun esa moddiy mablag'lar zarur.

Ta'limga sohasini axborotlashtirish natijasida qator atama va tushunchalar vujudga keladi. Ammo maktablarda kompyuterlarni paydo bo'lishi bilan vujudga kelgan tushuncha va atamalar bir tekisda va mazmunda emas. Bunda so'z "Kompyuterlashtirish" va

"Axborotlashtirish" tushunchalari haqida boradi. Ba'zi hollarda ikkala atamadan u yoki bunisi ishlataladi.

"Kompyuterlashtirish" yoki "Axborotlashtirish" deganda umumta'limga muktabalarini, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini kompyuterlar bilan ta'minlash hamda turli ma'lumotlarni o'zlashtirish tushuniladi.

XX asrning 80-yillardan boshlab har bir muktabda kompyuter xonalari tashkil qilina boshlandi. Kompyuter xonalarida 10 dan ortiq kompyuterlar bo'lgan, ammo ularni sifati, ya'ni ko'rsatgichlari past bo'lgan.

Ammo olib borilgan tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, umumta'limga muktabalarini kompyuterlashtirish natijasida ta'limga tarbiya jarayonida keskin o'zgarishlar sodir bo'lindi. Mazkur hol quyidagi holatlarda namoyon bo'lgan: a) o'qitish va mustaqil o'quv faoliyatini texnologiyasining motivatsiyasi o'zgarmadi; b) o'qituvchi faoliyatini motivatsiyasi o'zgarmadi; c) o'quv jarayonini boshqarish texnologiyasi o'zgarmadi; d) bu yerda gap XX asrning 80-yillardagi ommaviy muktablari haqida ketmoqda. Chuqurlashtirilgan maxsus muktablarda esa ta'limga jarayonida katta o'zgarishlar sodir bo'lgan.

Bugungi kunda amaliy pedagogikada kompyuterlarni qo'llash bo'yicha ustuvor yo'nalishlar shakllandi. Ular quyidagilarda namoyon bo'ldi:

- informatika va hisoblash texnikasi asoslarini o'rganish;
- ta'limga jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llash;
- axborot texnologiyalari yordamida ta'limga muassalarini va mintaqaviy ta'limga tizimlarini boshqarish. Bu esa axborot texnologiyalarini qo'llashni birinchi darajali ishlar qatoriga qo'shishga imkon beradi. Ushbu sohada olingan samaralar umumta'limga muktabalarini kompyuterlashtirishga ketgan harajatlarni qoplashi mumkin.

Ta'limga jarayonini samaradorligini oshirishda yangi ta'limga texnologiyalari katta ahamiyatga ega. Yangi ta'limga texnologiyalari quyidagilarga imkon beradi: a) har bir muktab o'quvchisida o'zining shaxsiy ta'limga yo'nalishini rivojlantiradi; b) o'quv jarayonini tubdan o'zgartirishga va uni tizimli tafakkurlash tomoniga loyihalashga imkon beradi; c) o'quvchilarni bilish faoliyatini samarali tashkil qilishga imkon beradi. Bunday yondashish kompyuterni bilish vositasiga aylantiradi. Maktablarda kompyuterlarni o'rni qanday bo'lishi kerak?, - degan savol ta'limga kompyuterlashtirishning dastlabki bosqichlaridayoq qo'yilgan edi. Ammo kompyuterlarni o'rganishdan undan foydalanishga o'tish juda

qiyinchilik bilan amalga oshirilmoqda. Ko'p hollarda geografiya va boshqa fanlardan ishlab chiqilgan kompyuter texnologiyalari talabsiz qolib ketadi. Buning asosiy sabablaridan biri ular odatiy darslarning davomi bo'lib qolishidir. Elektron darsliklar ko'p hollarda darsliklarni bir nusxasiga (kopiyasiga) aylanib qolmoqda. Shuning uchun ularga talab kamroq bo'immoqda. Ularni samaradorligi tajribali o'qituvchi samaradorligidan yuqori bo'lmayapti.

Elektron darsliklarni yoki kompyuter texnologiyasidan foydalanishga talabni kamayib borishining asosiy sabablaridan biri o'quvchilarni zamonaviy ta'lim talablari va zamonaviy tamoyillar bilan shaxsga yo'naltirilgan yondashish va sinf-dars tizimida foydalanishga yo'naltirilgan dasturlarni bir biriga mos kelmasligidir.

Kompyuterlarni yangi avlodini yaratish bilan yangi texnologiyalar ishlab chiqiladi, shu bilan birga ta'lim texnologiyalari ham ishlab chiqiladi. Kompyuterda matn, chizma, audio va video ma'lumotlarni birlashtirish o'quv ma'lumotlari sifatini keskin oshirib yuboradi.

Kompyuterlar industriyasini rivojlantirish pedagogik jarayonda inqilobi o'zgarishlarni keltirib chiqardi. Uning asosida esa o'quvchini individual faoliyatini ta'minlaydigan texnologiyalarga o'tish yotadi. Bunday texnologiyalarga o'tish dasturiy vositalarni yaratishi bilan bog'liq. Yaxlit kompyuterlashtirilgan predmetli kurslarda odatiy dasturiy asosnomalarning ayrim qismlari saqlab qolinadi, ular esa maktab darsliklarini turli darajalarda qaytarishadi. Shuning uchun mazkur kurslar quyidagilarga yo'naltirilgan bo'lmog'i lozim: a) ixcham (kompakt) predmetni mavjud bo'lishi, u o'quvchilarni mustaqilligini yuqori darajada ta'minlashi lozim; b) turli sohalarda bilimlarni yuqori darajadagi integratsiyasi mavjud bo'lgan predmetlarni o'rganishda; c) maktablarda o'qituvchilarni to'la kompyuter bilan ishlashga o'rgatish; d) sinf-dars tizimiga asoslanmagan eksperimental ta'limiy texnologiyalarni yaratish; e) o'quv jarayonida kompyuterlardan foydalanishni yangi yondoshuvlarini ishlab chiqish; k) shaxsga yo'naltirilgan dasturiy asoslarni ishlab chiqish.

Ta'lim muassalarida kompyuterlardan samarali foydalanish qator tashkiliy pedagogik izohlanishlarni yechish bilan bog'liq. O'qituvchilarni kompyuterli maktablarda ishlashga tayyorlash muhim muammo bo'lib hisoblanadi, kompyuter texnologiyalarini maktablarda dastlabki davrlarda kam talab etilishi oliy ta'limda ushbu soha bo'yicha yetarli bilim berilmasligidir. Elektron pochta imkoniyatlaridan foydalanishni dars va darsdan tashqari vaqtarda jahon kommunikatsion tarmog'i (internet)dan foydalanish maxsus metodik tayyorgarlikni talab qiladi. Maktablarni

zamonaviy axborot texnologiyalari bilan ta'minlash ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Geografiya ta'limida axborot texnologiyalardan foydalanishni quyidagi shart-sharoitlarini ta'kidlab o'tish lozim:

- geografiya o'qituvchisi axborot texnologiyalardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi shart;

- maktab o'quvchilari kompyuterlardan foydalanish ko'nikmasiga ega bo'lishi shart;

- maktabda kompyuterlar sinfi bo'lishi shart.

Geografiya ta'limida axborot texnologiyalarini qo'llash quyidagi sohalarda olib borilmoqda: elektron darsliklardan foydalanish; elektron xaritalardan foydalanish; internet imkoniyatlaridan foydalanish; videofilmlardan foydalanish; masofaviy o'qitish texnologiyalaridan foydalanish.

Hozirgi davrda juda ko'p darsliklarning elektron versiyalari yaratilmoqda. Shu munosabat bilan o'quvchilar berilgan mavzuni elektron darslikdan topib uni o'qituvchi yordamida yoki mustaqil o'rganishi, darsni esa o'qituvchi boshqarib turishi mumkin. Bunda o'qituvchi matnni o'rganishda izohlar berib boradi. Matndagi chizmalar, rasmlar, xaritalar, jadvallar alohida tushuntiriladi. Darsni oxirida o'qituvchi kompyuter orqali o'quvchilarga savollar berishi mumkin. O'quvchilar esa kompyuter orqali javob berishadi. Ularning bergen javoblari o'qituvchi tomonidan baholanadi.

Geografiya ta'limida xaritalar asosiy o'quv vositalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shuning uchun xaritalar bilan mustaqil ish bajarayotganida elektron xaritalardan foydalanish mumkin. O'quvchilar elektron xaritalar orqali quyidagi ishlarni bajarishi mumkin:

- elektron xarita orqali tabiiy geografik va iqtisodiy geografik tavsiflar tuzish. Masalan, iqlim xaritalaridan foydalanib ma'lum bir materik yoki hudud iqlimi tavsifini tuzish yoki iqtisodiy geografik xaritalardan foydalanib ayrim mamlakatlar yoki hududlarga iqtisodiy ta'rif berish va h.k;

- internet imkoniyatlaridan foydalanib geografiyaning turli sohalari bo'yicha yangi-yangi ma'lumotlar olish mumkin. Masalan, kundalik iqlim haqida, mamlakatlar haqida, aholi haqida, xo'jaligi va geosiyosiy sharoit haqida va h.k;

- geografiya ta'limida videofilmlar juda katta ahamiyatga ega. Videofilmlardan quyidagi sohalar bo'yicha foydalanish mumkin: a) boshlang'ich tabiiy geografiya kursida; b) materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi

kursida; v) O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasini o'rganishda; d) O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini o'rganishda; e) jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiysi kursini o'rganishda; k) fakultativ mashg'ulotlarda; l) geografik to'garaklarda va h.k.;

- masofaviy o'qitish geografiya ta'limali endi rivojlanib kelmoqda. Masofaviy o'qitish usulidan malaka oshirish kurslarida keng foydalanish mumkin.

Axborot texnologiyalardan foydalanish geografiya ta'limali katta imkoniyatlarga ega. Geografiya ta'limalini axborotlashtirishni to'xtovsiz takomillshtirib bormoq zarur.

**Tayanch so'z va iboralar:** Pedagogik texnologiya, alternativ texnologiya, tabaqalashtirilgan o'qitish, modulli ta'lim, hamkorlikda o'qitish, didaktik o'yin, test, kichik guruh, interfaol metodlar, kompyuter texnologiyasi.

#### **TALABALARING O'ZLASHTIRGAN BILIMLARINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Pedagogik texnologiyalarni vujudga kelish sabablarini tushuntirib bering.
2. Pedagogika texnologiya deganda nimani tushunasiz?
3. Dastlab pedagogik texnologiyalar qaysi davlatda va kimlar tomonidan ishlab chiqildi?
4. Rossiya pedagogik texnologiyalar qachondan boshlab tarqala boshladi?
5. O'zbekistonda pedagogik texnologiyalar qachondan boshlab qo'llanila boshladi va bu sohada kimlar katta ishlarni amalga oshirishi?
6. Geografiya ta'limali pedagogik texnologiyalarni qo'llash va ishlab chiqish bo'yicha kimlar ish olib borishgan?
7. Hozirgi paytda geografiyada pedagogik texnologiyalarni qaysi turlari keng qo'llanilmoqda.
8. Geografiya ta'limali pedagogik texnologiyalarni qo'llashning asosiy bosqichlari nimalardan iborat?
9. Geografiya ta'limi maqsadlari taksonomiyasining asosiy ko'rsatkichlari nimalardan iborat?
10. Test yordamida bilim va malakalarni tekshirish nimalarni o'z ichiga oladi?
11. Didaktik o'yinlarni qanday turlarini bilasiz?
12. Modul deb nimaga aytildi?
13. Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari qanday turlarga bo'linadi?
14. Interfaol metodlarning turlariga dars ishlanmasi tuzing.

### **III-QISM. OQITISH VOSITALARI**

#### **XI BOB. GEOGRAFIYANI O'QITISH VOSITALARI**

##### **1. O'quv ko'rgazmali qurollar, asbob va jihozlar**

O'qitish vositalari – bu bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish maqsadida o'quv jarayoni tarkibiga kiritilgan turli xil bilim manbalaridir. O'qitishdagi ko'rsatmalilik o'quvchilarning geografik tasavvur doiralarini kengayishiga, mavzuni tushunarli bo'lishiga va puxta o'zlashtirilishiga imkon beradi.

O'quv dasturi bo'yicha o'quvchilar o'zlashtirishi lozim bo'lgan o'quv materiali turli manbalardan olinadi. Ushbu bilimlar o'quvchilar tomonidan qabul qilishi va o'zlashtirishi uchun aniq bir pedagogik va metodik sharoitlar bo'lmog'i lozim. Mazkur maqsadni amalga oshirish uchun o'qituvchi o'quvchilarning bilish faoliyatini to'g'ri tashkil qilmog'i lozim. O'quvchilar bilish faoliyatini tashkil qilishga quyidagilar kiradi:

- eshittrish;
- eshitgan geografik ma'lumotlarni belgilash;
- eshitgan geografik ma'lumotlarni eslab qolish;
- nashriy manbalardan ma'lumotlarni qabul qilish;
- kuzatish va h.k.

Umumta'lim maktablarida ta'limiylar vazifalarni amalga oshirish maqsadida, o'quv jarayoni tarbiyaviy vazifalarini yechish maqsadida o'quv jarayoni tarkibiga kiritilgan bilim manbalari o'qitish yoki o'quv vositalariga aylanadi. Masalan, tog' jinslari ochilmasi o'quvchilar tomonidan o'rganilgan taqdirdagina o'qitish vositalariga aylanadi.

O'qitish vositalari tabiat va jamiyat haqidagi ilmiy bilimlarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. O'qitish vositalarining asosiy vazifasi bilim olish jarayonida ko'rgazmalilikni ta'minlashdir.

Demak, ta'lim-tarbiya savyasini yanada yuqorida ko'tarish maqsadida maxsus tayyorlangan va darsda bevosita tadbiq etiladigan qo'llaniladigan, foydalilanadigan barcha qo'llanmalar o'qitish vositalari, ya'ni o'quv qurollari deyiladi.

Geografik voqe va hodisalarini tasvirlash usuliga ko'ra o'qitish vositalari to'rt turga bo'linadi (I.S. Matrusov, L.M. Pancheshnikova):

- a) natural obyektlar;
- b) geografik borliq, voqe va hodisalarini tasvirlash;
- c) predmet va hodisalarini belgilash bilan tasvirlash;
- d) tabiat hodisalarini hosil bo'lishini ko'rsatish va tahlil qilish uchun jihozlar.

Natural, ya'ni tabiiy obyektlarga quyidagilar kiradi:

- sind sharoitida o'rganiladigan tabiat obyektlari va inson xo'jalik faoliyati predmetlari (tog' jinslarining namunalari, gerbariylar, tuproq, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarining namunalari);

- bevosita o'quv sayohati jarayonida o'rganiladigan tabiiy obyektlar va xo'jalik faoliyati mahsulotlari: bevosita tabiiy sharoitda o'rganiladigan obyektlarga geografik ochilmalar, daryolar, soylar, ko'llar, tuproqlar, o'simliklar va hayvonot dunyosi kiradi. Xo'jalik faoliyati mahsulotlariga ekinzorlar, polizlar, bog'lar, uzumzorlar va boshqalar kiradi;

Natural o'quv vositalari yordamida o'rganilayotgan predmet va hodisalar haqida bevosita tasavvurlar hosil qilinadi.

Geografik voqeа va hodisalarning tasviri quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- tabiiy va xo'jalik obyektlarining modellari. Ularga relyef shakllari, daryo vodiylari, botiqlar, tekisliklar, muzliklar, g'orlar, suv omborlari va boshqa xo'jalik obyektlarining modellari kiradi;

- yassi ko'rgazmali qo'llanmalar. Mazkur vositalarga quyidagilar kiradi: devoriy rasmlar, portretlar, diapositivlar, diafilmlar, kinofilmlar, kinolavhalar, videotasmalar va h.k.

Shartli belgilari yordamida geografik predmet va hodisalarni bayoni va tasviri (so'zli, belgili, sonli). Mazkur vositalar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- verbal vositalar. Darsliklar, ma'lumotnomalar, matndagi jadvallar;

- kartografik vositalar: xaritalar, atamalar, xarita-sxemalar, chiziqli xaritalar, devoriy xaritalar;

-chizmali sxematik qo'llanmalar. Ularga quyidagilar kiradi: tarkibiy sxemalar, masalan gidrosferaning tuzilishi, xalq xo'jaligini tuzilishi; sinflashtirish sxemalari (tog' jinslari, landshaftlar va h.k); tabiiy va iqtisodiy voqeа va hodisalarning o'zaro aloqalari va o'zaro ta'siri;

-chizmali statistik qo'llanmalar; chizmalar, diagrammalar, jadvallar.

Mazkur o'quv vositalari geografik voqeа va hodisalarni fozoviy joylashishini va ularning tuzilishi va mohiyati haqida tasavvurlarni shakllantiradi.

Tabiiy hodisalarni sodir bo'lish jarayonini ko'rsatish va tahlil qilish uchun zarur bo'lgan vositalarga quyidagilar kiradi:

- joyda o'lhash ishlari olib borish uchun zarur bo'lgan jihozlar (ruletka, kompas, nivelir, teodolit);

- tabiiy hodisalarni miqdoriy va sifat ko'rsatgichlarini aniqlaydigan jihozlar (termometr, barometr);

- kartometrik ishlarni olib borish uchun ishlataladigan jihozlar (kurvaymetr, lineyka, transportir va h.k.);

- Yerni sutkalik va yillik harakatini ko'rsatadigan jihozlar (telluriy).

## 1.2. Natural vositalar va ulardan foydalanish texnologiyasi

Geografiya darslarida o'qitishning samarasи o'quvchilarni tabiat va xo'jalik haqida bevosita olgan tasavvurlariga tayanadi. Shuning uchun geografik bilimlarni o'zlashtirishda natural vositalardan foydalanish katta ahamiyatga ega. Natural vositalar o'rganiladigan obyekt va narsalarning shakli, rangi, ba'zan kattaligi haqida to'g'ri va aniq tasavvur hosil qiladi. Ushbu qo'llanmalar yordamida o'quvchilar o'rganiladigan materiallarni puxta o'zlashtirib oladi.

Natural geografik vositalar ikkita katta guruhgа bo'linadi:

✓ bevosita tabiiy sharoitda o'rganiladigan natural vositalar;

✓ sind sharoitida o'rganiladigan natural vositalar.

Bevosita tabiiy sharoitda o'rganiladigan natural vositalarga geologik ochilmalar, relyef shakllari, tuproqlar, o'simliklar, soylar, ko'llar, qishloq xo'jaligi ekinlari, sanoat korxonalari kiradi. Mazkur natural vositalar o'quv sayohatlari davomida o'rganiladi. Tabiiy va ishlab chiqarish obyektlarini tabiiy sharoitda bevosita o'rganish yoki kuzatish boshqa o'quv vositalarini o'rganish uchun asos bo'lib hisoblanadi (namunalar, gerbariylar va h.k.). Tabiiy sharoitni va jarayonlarni kuzatish murakkab jarayon hisoblanadi. Kuzatish davomida o'quvchilarga ma'lum vazifalar topshiriladi va ularni bajarilishini nazorat qilib turiladi va kuzatish natijalari qiyoslab beriladi. O'quvchilar kuzatgan voqeа va hodisalarini qayd qilib borishlari lozim.

Mazkur kuzatish natijalaridan dars jarayonida foydalanish mumkin. Tabiiy holda voqeа va hodisalarni kuzatish ko'nikmalari dars jarayonida mashq qilish va rasmlarni kuzatish hamda statistik ekrani qo'llanmalarni kuzatish asosida shakllantiriladi. Masalan, "Cho'l tabiat tasvirlari" dipozitivini ko'rsatayotib o'qituvchi o'quvchilariga quyidagicha savol berishi mumkin "Cho'l relyef shakllarini hosil bo'lishining sababi nimada? Cho'l relyef shakllarining asosiy belgilari nimadan iborat?".

O'quv sayohatlari davomida geografik obyektlarni kuzatish juda murakkab muammo hisoblanadi. Shuning uchun o'qituvchi avval tashkiliy ishlarni amalga oshirmog'i lozim. Buning uchun o'quvchilarga o'quv sayohatini maqsadi va vazifalarini tushuntiradi, sind o'quvchilarini ma'lum bir guruhlarga bo'ladi, har bir guruhgа topshiriq beriladi. Masalan, Tabiiy

gogeografiya boshlang'ich (V sinf) kursi bo'yicha o'quv sayohatiga chiqqanda quyidagi topshiriqlarni ifodalash mumkin.

- geologik ochilmalarni diqqat bilan ko'zdan kechirish;
- ochilmadagi qatlamlar sonini aniqlash. Qatlamlarni qalinligini o'lchan;
- qatlamlarni yotish holatini o'rganish va ularni sabablarini aniqlash;
- yotqiziqlar hosil bo'lishi qanday sharoitda sodir bo'lgan;
- relyefni o'zgarishiga qanday tashqi kuchlar ta'sir etadi;
- tashqi kuchlarni relyefga ta'siri nimalarda ifodalangan.

Mazkur topshiriqni bajarish o'quvchilardan o'ta kuzatuvchanlikni talab qiladi. Ular qatlamlarni chegaralarini, qatlamlarni joylanishidagi o'ziga xos xususiyatlarni, qatlamlar tarkibidagi tog' jinslarini o'lchamlarini aniqlashlari lozim. Olib borilgan kuzatishlar natijasida o'quvchilar guruhi tog' jinslarini hosil bo'lishi, ularni to'planishi va yotishi haqida bilimlarni yaxshi o'zlashtirishlariga imkon beradi.

O'quvchilarni natural obyektlarni kuzatishi o'qituvchilarning bevosita rahbarligida olib boriladi, ayrim hollarda kuzatish ishlarida o'qituvchilarni o'zi ham qatnashadi.

- Sinf sharoitida quyidagi natural obyektlarni kuzatish mumkin:
- a) tog' jinslari namunalari;
  - b) tuproq namunalari;
  - c) gerbaryilar;
  - g) hayvonlarning qotirilgan tanalari (tulum va mulyaj);
  - d) sanoat va xo'jaligi mahsulotlari namunalari.

*Tog' jinslari.* Tabiiy geografiya kurslarida tog' jinslari, ayrim hududlardagi foydali qazilmalar va ularning ahamiyatini o'rganishda foydalaniladi. Tog' jinslari namunalariga granit, bazalt, qumtosh; yoqilg'ilar – ko'mir, torf; rudali foydali qazilmalar – temir, mis va h.k.; qurilish materiallari shag'al, qum, gil kabilardan iborat.

*Tuproq namunalari.* Tabiatshunoslik va tabiiy geografiya kurslarida "Tuproq", "Tabiat zonalari" mavzularida turli tuproq namunalaridan foydalanib darsni tashkil etish o'quvchilar darsni yaxshi o'zlashtirishlariga imkon beradi.

*Gerbaryilar.* Materiklar va ayrim tabiiy geografik o'lkalarning tabiat zonalarini o'rganishda o'simliklardan yig'ilgan gerbarylardan foydalanish maqsadga muvofiq. Gerbaryi yig'ganda o'tlarning namunalarini shikastlanmagan holda daraxtlarning namunalarini bargi, guli, mevasi va novdasining bir bo'lagi bilan olinishi lozim. Gerbarylardan foydalanib dars o'tilganda o'simliklarning iqtisodiyotdagi ahamiyatiga ham to'xtalib

o'tish orqali o'quvchilarga ham ekologik, ham estetik, ham iqtisodiy tarbiya berib boriladi.

## 1.2. Geografik voqeа va hodisalarni tasvirlaydigan o'quv vositalaridan foydalanish texnologiyasi

O'quv vositalarini mazkur guruhi ikkiga bo'linadi: hajmli o'quv vositalari va geografik voqeа va hodisalarni tasviri. Ushbu ikki guruh ham geografik obyekt, voqeа va hodisalarni tasvirlaydi.

**Hajmli o'qitish vositalari va ular bilan ishlash texnologiyasi.** Geografiya darslarida hajmli o'qitish vositalaridan ham foydalaniladi. Ularga modellar va maketlar kiradi. Modellar geografik voqeа va hodisalarni hamda obyektlarni uch o'qli (hajmiy) tasviri hisoblanadi. Ular ma'lum bir masshtabda kichraytirilgan bo'ladi yoki o'z o'lchamida tasvirlanadi. Ammo hajmli modellarda xatoliklarga ham yo'l qo'yiladi.

Geografiya darslarida Yer sharing modeli ko'proq ishlatiladi. Barcha voqeа va hodisalarning ham modellarini o'quv maqsadlarida yasab bo'lmaydi. Masalan, vulqon, geyzer, tog', sunami, sel, tornadolarning sodir bo'lishi jarayoni. Ammo harakatdagi artezian qudug'ini modelini yasab, o'quv jarayonida bemalol ishlatish mumkin. Dars jarayonida termometr, barometr, flyunger, kompas va boshqa asboblarni modellaridan ham foydalanish mumkin. Modellar yordam o'quvchilar ularni tuzilishini va ishlashi bilan tanishib, o'rganib olishadi. Modellar yordamida kanallar, to'g'onlar va suv omborlari tuzilishi va ishlashini ham ko'rsatish mumkin.

Geografiya ta'lilda maketlardan ham keng qo'llaniladi. Maketlar geografik obyektlar, voqeа va hodisalarning soddalashtirilgan nusxasi hisoblanadi. Ular tabiiy geografik hamda iqtisodiy-ijtimoiy geografik maketlarga bo'linadi.

Tabiiy geografik maketlarga landshaftlar, relyef, daryo vodiysi, tog'lar, cho'qqilar, g'orlarning maketlari kiradi.

Yer yuzasi shakllarini o'rganishda relyef shakllari maketlari juda katta ahamiyatga ega. Relyef bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish o'quvchi uchun juda qiyin kechadi, chunki relyef uchta o'lchamli hisoblanadi. Shuning uchun relyefni o'rganishda dalada olib borilgan kuzatishlar katta ahamiyatga ega. Joyda relyefni shakllanishini ko'ribgina qolmasdan balki o'rganilayotgan obyekt bevosita har tomonlama o'rganiladi, o'lchamlarani aniqlanadi va aniq tasavvurlar hosil bo'ladi. Relyef haqidagi bilimlarni o'zlashtirishning oson yo'llaridan biri geografiya maydochasida ularning shakllarini maketlarini yasashdir. Geografiya o'qituvchisi rahbarligida

o'quvchilar turli relyef maketlarini yasashlari va undan geografiya darslarida foydalanish mumkin.

Maketlardan foydalanib dars o'tganda o'qituvchi maketni hamma tomonini ko'rsatishi lozim, shundagina mazkur maketda tasvirlangan geografik obyekt yoki voqe va hodisalar haqida o'quvchilar ongida to'la va aniq tasavvurlar hosil bo'ladi.

## 2. O'qitishning texnik vositalari va ular bilan ishlash texnologiyasi

Fan va texnikaning rivojlanishi bilan maktab geografiyasining oldiga qo'yiladigan talablar ham ortib boradi. Mazkur talablarni bajarish uchun o'qitish shakllari va metodlarini takomillashtirish lozim bo'ladi. Bu esa o'quvchilar bilish faoliyatini jadallashadiradi, ularni fikrlashga va ilmiy mushohada yuritishga undaydi hamda o'rganayotgan geografik voqe va hodisalar bilan hayot o'rtaisdagi aloqalarni tushunishga yordam beradi. Darslarda o'qitishning texnik vositalarini qo'llash o'quvchilarni dunyoqarashini shakllantirishga, shaxs sifatida rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'qitishning texnik vositalari o'qituvchi yordamida qo'yilgan maqsadga erishishga, o'tkazilayotgan mashg'ulotlarni samaradorligini keskin oshirishga imkon beradi.

Texnik vositalarni qo'llashning quyidagi afzallikkleri mavjud:

- qiziqarliligi, o'quvchilar birinchidan texnika vositalarini o'ziga qiziqsa, ikkinchi tomondan uni ishlatishga va unda ko'rsatilgan ma'lumotlarga qiziqishadi;

- voqealarni tez rivojlanishi va aniq ko'rsatilishi o'quv materiallarini tez o'zlashtirishga yordam beradi. Masalan, tabiiy geografik jarayonlarni sodir bo'lishi, tekislik va tog' relyefining turlari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlari, tropik o'rmonlarning sharoiti, ishlab chiqarish jarayoni va h.k.

- texnik vositalar orqali murakkab o'quv materialini oson tushuntirish imkoniyati mavjud. Masalan, havo massalarini vujudga kelishi, siklon va antisiklonlarni shakllanishi, tornado, sunami va boshqa tabiiy geografik jarayonlarni hosil bo'lishi va ularning oqibatlari;

- o'quvchilar qabul qilishi murakkab bo'lgan geografik obyektlarni texnik vositalar orqali osongina bajarishi mumkin. Masalan, temir yo'l paromi, dengizdag'i neft qazib oladigan moslamalar va h.k.

O'qitishning texnik vositalarini qo'llashda quyidagi qoidalarga amal qilinishi lozim:

## IV-QISM. GEOGRAFIYA TA'LIMINI TASHKIL ETISH SHAKLLARI

### XII BOB. GEOGRAFIYA DARSLARI VA ULARGA QO'YILADIGAN TALABLAR. DARS TIPLARI

#### 1. Geografiyanı o'qitishni tashkil etish shakllarining umumiy tavsifi va ular o'rtaisdagi uzviylik

Geografiyanı o'qitish jarayoni deganda, o'quvchilarning muayyan o'quv materialini o'zlashtirish, bilish usullarini egallashga qaratilgan o'quv-bilish faoliyati va o'qituvchining mazkur jarayonni tashkil etish va boshqarishiga asoslangan pedagogik faoliyati orqali o'zaro hamkorlikda o'quv maqsadlariga erishiladigan jarayon tushuniladi.

O'qitish jarayoni tashkil etiladigan va boshqariladigan jarayon bo'lib, u bir qancha shakllarda tashkil etiladi.

Didaktika va geografiya o'qitish metodikasiga oid manbalarda o'qitish jarayoni va uning shakllariga turlicha ta'rif berilgan. Jumladan, didakt olim Yu.K. Babanskiy fikricha, *o'qitishni tashkil etish shakllari ta'limgartbiya jarayonida o'quvchilar bilan individual yoki yalpi o'qitishning nisbati, o'quv-bilish faoliyatining faollik darajasi, hamkorlikda tashkil etilgan o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati va o'qituvchining rahbarlik roli, pedagogik faoliyatining me'yorini belgilaydi.*

B.P. Yesipov tomonidan chop etilgan "Основы дидактики" kitobida *o'quv ishlarini tashkil etish shakllari o'quvchilarning bilish faoliyati turlarining ketma-ketligi, o'qituvchining mazkur faoliyatni boshqarish usullari, mashg'ulotlarning mazmuni, tarkibi va vaqtini belgilaydi deb uqtirilgan.*

N.M. Verzilin, V.M. Korsunkayeva ta'rifi bo'yicha, o'qitish jarayonini tashkil etish shakllari – o'qituvchi tomonidan *tarbiyalovchi ta'limgarayonida foydalaniladigan turli sharoit (geografiya o'quv xonasi, ekskursiya, tirik tabiat burchagi, tabiat)da o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini tashkil etish tushuniladi.*

O'quvchilar tomonidan geografiya o'quv fani dasturlari va DTS bilan me'yorlangan muayyan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, ularni tarbiyalash va rivojlanirish jarayoni o'qitishning turli shakllaridan foydalanishni taqoza etadi.

Geografiya o'qitish metodikasida o'qitish jarayonini tashkil etishning turli shakllari belgilangan. Ularga dastur talablarini amalga oshiradigan

o'qitishning asosiy shakli bo'lgan dars, unga bog'liq holda ekskursiyalar, geografiya maydonchasidagi ishlari, uy ishlari, darsdan tashqari ishlari va ixtiyor ravishda tashkil etiladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlar kiradi.

Mazkur o'qitish shakllari birgalikda geografiya o'qitish shakllari tizimini tashkil etadi. O'qitishning asosiy shakli bo'lgan – dars, ularni bog'lovchi vazifasini bajaradi va o'qitishda yetakchi o'rinni egallaydi.

Dars, ekskursiyalar, geografiya maydonchasidagi ishlari, uy ishlari, darsdan tashqari ishlari va sinfdan tashqari mashg'ulotlar birgalikda geografiyani o'qitishdan ko'zda tutilgan umumiyoq o'quv maqsadlariga erishishni ta'minlaydi, o'quvchilar tomonidan o'quv materialini o'zlashtirish, olingan natijalarni tahlil qilishga xizmat qiladi.

O'qitishni tashkil etish tizimining tarkibiy qismlari bo'lgan dars, ekskursiya, geografiya maydonchasidagi ishlari, uy ishlari, darsdan tashqari ishlari va sinfdan tashqari mashg'ulotlarning har birining geografik ta'lim oldiga qo'yilgan umumiyoq maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladigan alohida o'z ulushi mavjud. Mazkur ulushni xususiy maqsadlar ham deyish mumkin.

O'qitish jarayonini tashkil etishning turli shakllarida ta'lim mazmuni, maqsadi, vazifasiga bog'liq holda muayyan metod va vositalardan foydalananiladi.

Shu sababli, o'qituvchi tomonidan o'qitish shakllarini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi, unda o'qituvchi ta'lim mazmuni, mazkur shakllarning maqsadi, vazifasi, ta'lim-tarbiya jarayonida tutgan o'rni, ularning xususiy maqsadlariga mosligi e'tiborga olinishi lozim.

Masalan, o'rganiladigan mavzu meteorologik asboblar yoki laboratoriya jihozlari bilan bog'liq, shuningdek, tabiiy geografik jarayonlar, nazariya, g'oya, tushunchalar, qonunlar, masala yechish orqali o'rganiladigan bo'lsa, unda albatta o'qitishning asosiy shakli bo'lgan darsni tanlash zarur.

Agar ta'lim mazmuni turli relyef shakllarini, daryo va uning qismalarini o'rganishni talab etsa, bu holda ekskursiya tashkil etilishi yoki videofilmlar namoyish qilish maqsadga muvofiq.

Ekologik tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirishda dars bilan bir qatorda, darsdan va sinfdan tashqari ishlari ham muhim o'rinni tutadi.

Kuzatish o'tkazish va tajriba qo'yishda geografiya maydonchasida olib boriladigan ishlari, uy ishlari, darsdan va sinfdan tashqari ishlari muhim ahamiyatga ega.

O'qituvchi tomonidan o'qitish shakllarini to'g'ri tanlashda geografiya o'quv xonasining jihozlanishi va o'quv-moddiy texnika bazasi bilan

ta'minlanganlik ham muhim ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi o'qitish shakllarining maqsadi va vazifalarini to'g'ri anglagan holda, mazkur jarayondan tasviriy, tabiiy va tarqatma materiallar tayyorlash orqali ko'rgazmalilikni amalga oshirishni ko'zda tutishi lozim.

Shunday qilib, geografiyanı o'qitish shakllari: dars, ekskursiya, uy ishlari, darsdan tashqari ishlari va sinfdan tashqari mashg'ulotlar muayyan tizimni hosil qilib, ular o'quvchilar tomonidan belgilangan bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, tabiatga nisbatan ongli munosabatni tarkib toptirish, bilish faoliyati usullarini egallah va o'qitish samaradorligini orttirishga xizmat qiladi.

Dars o'qitishning asosiy shakli bo'lib, unda geografiya o'quv dasturidan o'rin olgan o'quv materialining asosiy qismi o'rganiladi. Darsda o'qituvchi ta'lim mazmuni, o'qitish metodi va vositalarining uyg'unligi orqali o'qitish maqsadlariga erishishni nazarda tutadi. Lekin, hamma masalalarni ham darsda o'rganish imkonni bo'lmaydi, masalan uzoq muddatli kuzatish ishlarni talab etadigan tajribalarni o'tkazishda darsdan tashqari ishlardan foydalaniadi.

Uy ishlari dars bilan uzviy bog'langan bo'lib, u darsda o'rganilgan mazmunning mantiqiy davomi va o'quvchilarining mustaqil bilim olish omili sanaladi. O'qituvchining topshirig'i va ko'rsatmasiga binoan, o'quvchilar uncha murakkab bo'limgan tajribalarni o'tkazish (masalan, Yer shar shaklida bo'lganligi uchun Quyosh uni hamma qismini bir xilda yoritmasligi va isitmasligi, suvning tarkibida turli erigan moddalar mavjudligini), tabiatda kuzatishlar olib borish, qo'shimcha adabiyotlarni o'rganish, muayyan mavzularda ma'ruza yoki referat tayyorlash ishlarni bajaradilar. O'quvchilar o'quv topshiriqlarini bajarish orqali bilish faoliyati usullarini egallahsha zamin tayyorlanadi.

Darsdan tashqari ishlari o'qituvchining ko'rsatmasi asosida o'quvchilar tomonidan bajariladigan majburiy o'qitish shakli sanaladi. Dastur talablari asosida o'quvchilar darsdan tashqari ishlarni yakka tartibda yoki kichik guruhlarda bajarilishi lozim. Darsdan tashqari ishlari jumlasiga muayyan mavzularda geografiya maydonchasida kuzatish olib borish, tajribalar o'tkazish, o'quv jihozlari, ko'rgazma materialini tayyorlash kiradi.

Ekskursiya–o'qitish jarayonining muhim shakli bo'lib, ular o'quvchilarini tirik tabiat obyektlari, hodisalari, qonunlari, asosiy nazariy g'oyalari bilan tanishtirish, nazariy bilimlarni amaliyatga qo'llash, olamni bilish metodlarini egallah imkonini beradi. Ekskursiya davomida o'quvchilar tomonidan egallangan bilimlar, yangi mavzularni o'rganish jarayonida

bilimlarni mustahkamlash, tizimga solish va umumlashtirish kabi maqsadlarda foydalaniladi.

Shu bilan bir qatorda ekskursiyalar o'quvchilarning mustaqil bilim olish faoliyatini faollashtirish va rivojlantirish imkonini beradi. Ekskursiyada o'quvchilar o'quv topshiriqlarini yakka tartibda yoki kichik guruhlarda bajarish jarayonida avval o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalari dan foydalanish orqali yangi bilim va ko'nikmani egallaydilar.

Ekologik jihatdan tabiatga to'g'ri tashkil etilgan ekskursiyalar o'quvchilarda mahalliy o'simliklar va hayvonat olamining xilma-xilligi haqida bilimlarini kengaytirish, mahalliy obyektlardan ko'rgazmali materiallarini tayyorlash, ularni jihozlash, tabiatga muhabbat uyg'otish, estetik did va madaniyat, tabiatga nisbatan ongli munosabatni tarkib toptirish imkonini beradi.

Geografiyanı o'qitishda sinfdan tashqari mashg'ulotlar muhim o'rın tutadi. Mazkur o'qitish shakli ixtiyoriy bo'lib, o'quvchilarning geografiya o'quv faniga bo'lgan qiziqishi, olamni o'rganishga bo'lgan ehtiyojlar hisobga olingan holda tashkil etiladi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning uch turi mavjud:

- yakka tartibda individual tarzda tashkil etiladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlar;
- ✓ guruhlarda tashkil etiladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlar;
- ✓ ommaviy tarzda tashkil etiladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlar.

Yakka tartibda individual tarzda tashkil etiladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'qituvchi o'quvchilar tomonidan muayyan mavzularda kuzatishlar o'tkazish, tajriba qo'yish, qo'shimcha adabiyotlar bilan ishslash, ma'ruzalar tayyorlash va ularni jihozlash ishlarini rejalashtiradi.

Guruhlarda tashkil etiladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlarda turli sinflarda "Yosh geograflar" to'garagi, fakul'tativ mashg'ulotlar, tanlovlarga tayyorgarlik ko'rish, tirik tabiat burchagidagi ishlar tashkil etiladi.

Ommaviy tarzda tashkil etiladigan sinfdan tashqari mashg'ulotlarda asosan, turli mavzularda kechalar va bayramlar, geograf-olimlar bilan uchrashuvlar tashkil etish, maktab bog'ida ko'kalamzorlashtirish ishlarini tashkil etish, ijtimoiy foydali mehnatni amalga oshirish nazarda tutiladi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar dasturdagi o'quv materiali asosida tashkil etiladi, lekin uni takrorlamasligi kerak. O'qituvchi o'rganilayotgan o'quv fani mazmuni mahalliy sharoit, o'quvchilarning qiziqishi va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, sinfdan tashqari mashg'ulotlarning mavzularini tanlaydi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning mavzulari o'quvchilarning dunyoqarashi, ular o'zlashtirayotgan ta'limga mazmunini kengaytirish, to'ldirish, kasbga yo'llash, tabiiy fanlar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va ularning yangi qirralarini yoritishga xizmat qiladi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar darsdan tashqari vaqtida tashkil etilib, matabning umumiylidagi o'rinni olmaydi, lekin o'qituvchi o'zining yillik rejasida ularni o'tkazish vaqtini belgilaydi.

Geografiyanı o'qitishning yuqorida qayd etilgan shakllari: dars, darsdan tashqari ishlar, sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'rtasida doimiy ravishda izchillik, o'zaro uzviylik va aloqadorlik mavjud bo'lib, ular o'quv-tarbiya jarayonining yaxlitligini ta'minlaydi. Geografiya o'qitishning maqsadi va vazifalarini amalga oshirish, samaradorlikka erishish uchun o'qituvchi ularni uyg'unlashtirgan tarzda yillik rejasini tuzishi lozim.

## 2. Dars – geografiyanı o'qitishning asosiy shakli

O'quvchilarga bilim berish va ularni tarbiyalash dars jarayonida olib boriladi. Shuning uchun dars geografiya ta'limining eng asosiy va markaziyligi qismi hisoblanadi. Dars jarayonida o'qituvchi darsga ajratilgan aniq vaqt davomida belgilangan ta'limiylar, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarni amalga oshiradi. Har bir darsning maqsadi aniq ifodalangan bo'ladi. Dars jarayonida o'quvchilar ko'zda tutilgan bilim va ko'nikmalarni samarali bilish uchun geografiya darslariga qator talablar qo'yilgan. Ular quyidagilardan iborat:

- ✓ darsning ta'limiylar, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini aniq ishlab chiqish;
- ✓ darsning mazmunini ilmiyligiga erishish;
- ✓ darsda o'quvchilarni kasbga yo'naltirishi;
- ✓ tanlangan o'qitish metodi dars mazmuniga mos kelishi;
- ✓ geografiya darslarida fanlararo aloqalar o'rnatilishi;
- ✓ har bir dars ekologik yo'nalishiga ega bo'lishi;
- ✓ har bir geografiya darsida o'lkashunoslik ta'moyillari hisobga olinishi zarur.

**Darsning ta'limiylar, tarbiyaviy maqsadlarini ishlab chiqish.** Geografiya darslarini ta'limiylar, tarbiyaviy maqsadlarini to'g'ri va aniq ishlab chiqish darsni samaradorligini belgilab beradi. Dastlab darsni ta'limiylar maqsadlari ishlab chiqiladi. Buning uchun: geografik borliq, voqealar va hodisalar haqida tasavvurlar, ilmiy tushunchalar, tamoillar,

qonuniyatlar shakllantiriladi; asosiy ilmiy ma'lumotlar va bilimlar takrorlanadi va mustahkamlanadi; geografik ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish ta'minlanadi va takomillashtiriladi; umumiyo ko'nikmalarni shakllantirish davom ettiriladi (javoblarni rejalashtirish, darslik bilan ishslash, qo'shimcha adabiyotlar bilan ishslash va h.k.); dunyoqarash, g'oyaviy-siyosiy, ahloqiy va kasbga yo'naltirilgan bilimlarni o'zlashtirish; o'quvchilarini tafakkurini, qiziquvchanligini rivojlanitirish.

Geografiya darslari aniq tarbiyaviy maqsadga yo'naltirilgan bo'lmog'i lozim. Bu esa o'quvchilarini vatanparvarlik, aqliy, g'oyaviy-siyosiy jihatdan tarbiyalashga imkon beradi. Geografiya darslari olamning yaxlitligi g'oyasini shakllantirishga, geografik voqe va hodisalar hamda xo'jalik faoliyati orasidagi sabab va oqibatlarni ochishga yo'naltiradi. Darsning tarbiyaviy vazifalariga Vatanimizni mustaqillik davrida rivojlanishini o'rganish, mustaqil mamlakatimizning erishgan yutuqlarini bo'rttirib ko'rsatish, mehnat va estetik tarbiya berish; fan, madaniyat va sport sohasidagi yutuqlarimiz ruhida tarbiyalash katta samara beradi.

Darsning aniq vazifalari undan oldinga va keyingi darslarni maqsadlari bilan bog'langan bo'lmog'i lozim. Masalan, "O'rta Osiyoning relyefi" mavzusida (7-sinf) quyidagi vazifalarni ko'rish mumkin: yirik relyef shakllarini joylashish xususiyatlari va sabablarini ochib berish; yirik relyef shakllari haqida bilimlarni kengaytirish; cho'l relyef shakllarini hosil bo'lishida shamolni o'rni va ahamiyatini ochib berish; relyefni hosil bo'lishida va rivojlanishida ichki va tashqi kuchlarni o'zar o'tsiri g'oyasini yanada rivojlantirish; xarita asosida relyefga tavsif berish ko'nikmalarini shakllantirishni davom ettirish.

**Darsning mazmuni ilmiy bo'lmog'i zarur.** Geografiya darslarida bilim, malaka, tarbiyaviy g'oyalari va ular bilan bog'liq bo'lgan tushunchalar ochib beriladi. Ammo darsning asosiy maqsadi dasturda ko'rsatilgan nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni shakllantirishdir. Geografik ilmiy bilimlar asosiy va ikkinchi darajali qismlarga bo'linadi. Asosiy bilim va ko'nikmalarga ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga yordam beradigan, amaliy faoliyat va hayot bilan bog'liq bo'lgan ko'nikma va malakalar kiradi. Asosiy bilimlarga dalillar, umumiyo tushunchalar va tasavvurlar, o'zar aloqa va qonuniyatlar haqidagi bilimlar dunyoqarash g'oyalari, faoliyat turlari haqidagi bilimlar kiradi. Mazkur bilimlar har bir geografiya predmeti bo'yicha asosiy yakuniy bilimlar bo'lib hisoblanadi.

Asosiy bilimlarni chucherroq va to'laroq o'zlashtirish uchun geografiya ta'limida ikkinchi darajali bilimlar ham ishlatiladi. Ular asosan

tasavvurlarni shakllantirish, tushunchalarni belgilanishini aniqlashtirishda ko'proq foydalaniladi. Ikkinci darajadi bilimlarga tabiiy geografiyada tadqiqot materiallarni o'rganish ya'nii, yer po'stini, okeanni, atmosferani o'rganish usullari haqidagi ma'lumotlar, materiklarni o'rganish va ulardagi aholining xo'jalik faoliyati haqida bilimlar, ular dasturda albbata o'zlashtirilishi zarur bo'lgan bilimlar qatoriga kiritilgan.

Yuqoridagi bilimlardan tashqari dastur va darsliklarda uchramaydigan qo'shimcha bilimlar ham ishlatiladi. Masalan, davlatlarning bayrog'i, gerbi (tamg'asi), aholisining turmush sharoiti, odatlari haqidagi bilimlar o'quvchilarning bilish faoliyatini rivojlanitirish uchun qo'llaniladi. Albatta qo'shimcha materialdan asosan darsda qo'shimcha vaqt bo'lganida foydalaniladi.

**Geografik bilimlarni hayot bilan bog'lash** geografiya darslariga qo'yiladigan asosiy talablardan biri bo'lib hisoblanadi. Geografiya predmetlarida beriladigan bilimlarning deyarli barchasi hayot bilan bog'langan. Atrof muhitni muhofaza qilish, siyosiy iqtisodiy soha bo'yicha davlat qarorlari geografik bilimlarni hyotga bog'lash uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Masalan, atmosfera mavzusini o'tishda atmosfera havosini muhofaza qilish va qo'riqlash bo'yicha davlat qarorlariga suyanmoq lozim. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini o'rganishda mamlakatimiz Prezidenti asarlari, davlat qarorlariga asoslanmoq zarur. Mazkur materiallardan dars jarayonida foydalanish uchun mavzu mazmuniga mos bo'lgan ma'lumotlarni topmoq lozim. Shundagina o'quvchilar olgan bilim va ko'nikmalarni hayot bilan bog'lay oladi.

**Darsni kasbga yo'naltirilganligi.** Geografik bilim va ko'nikmalarni egallash jarayonida o'quvchilar juda ko'p kasblar bilan tanishadi. Masalan, "Tabiiy geografiya boshlang'ich kursi" da "Plan va xarita" mavzusini o'tilganida geodezis va topograflar kasbi haqida, litosferani o'rganishda geologlar kasbi haqida, gidrosferani o'rganishda gidrolog kasbi, iqtisodiy geografiya darslarida iqtisodchi va boshqa kasblar haqida bilimlar va ma'lumotlar beriladi. Bundan tashqari har bir materikni tekirilish tarixini o'rganganda sayyoqlar va olimlar haqida ham ma'lumotlar beriladi.

**Dars tuzilishini aniqlash** ham asosiy talablardan biri bo'lib hisoblanadi. Dars tuzilishini aniqlashga quyidagilar kiradi:

a) darsning turini tanlash. O'quv materialini mazmuniga ko'ra ma'lum bir dars turi tanlanadi. Quyi sinflarda ko'proq aralash dars turiga e'tibor beriladi, ya'ni o'tgan darsni takrorlash, yangi darsni o'qitish, o'rganilgan darsni mustahkamlash va uyga vazifa berish;

b) darsning alohida qismlarini asoslash va ular orasidagi bog'liqliklarni bo'rttirib ko'rsatish; Masalan, "Tabiiy geografiya boshlang'ich" kursida "Masshtab" mavzusini o'rganganda uni quyidagi qismlarga bo'lish mumkin: masshtab haqidagi umumi y tushuncha, sonli masshtab; chiziqli masshtab; nomli masshtab; masshtab bilan ishslash.

Darsning tuzilishi uning ta'limi, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari bilan hamda ulardan oldingi va keyingi darslar bilan bog'liqligi bilan aniqlanadi.

**O'qitish metodlarini tanlash.** O'qitish metodlarini tanlash darsning tuzilishi bilan bevosita bog'langan. Har bir dars tuzilmasi uchun alohida metod tanlanadi. O'qitish metodlari bu – o'qituvchi va o'quvchilarni ta'lim maqsadlarga erishishdagi birgalikdagi va hamkorlikdagi faoliyatidir. Darsning mazmuniga ko'ra tanlangan o'qitish metodlariga qo'yiladigan asosiy talablaridan biri dars jarayonida o'quvchilarning bilish faoliyatini ta'minlashidir. Tanlagan o'qitish metodi sinfdagi barcha o'quvchilarni bilish faoliyatini faollashtirishi, geografik bilim va ko'nikmalarni egallashga qiziquvchanligini kuchaytirishi lozim. Bunda shuni esdan chiqarmaslik kerakki, o'quvchilarni faol bilish faoliyati geografik bilim manbalaridan foydalanish ko'nikmalari shakllantirilgandagina ta'minlanadi. Masalan, xaritalar, darslik, chizmalar va h.k.

**Geografiya darslarida fanlararo aloqalarni aniqlash.** Geografiya fani tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy fanlar tizimiga kirganligi munosabati bilan qator predmetlar bilan chambarchas bog'langan. Geografiya predmetining noyob va o'ziga xos ta'limi va tarbiyaviy vazifasi atrof-muhit to'g'risida, iqtisodiy va ijtimoiy soha bo'yicha turli xil bilimlarni umumlashtirishga imkon beradi. Geografiya darslarida tarix, biologiya, kimyo, fizika, matematika, astronomiya fanlari bilan aloqalarni aniqlash va asoslab berish o'quvchilarni bilish faoliyatini rivojlantiradi.

**Geografiya darslarida o'lkashunoslik tamoillariga amal qilish.** Geografiya fani tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarni bergani uchun unda o'lkashunoslik tamoillaridan foydalanishni katta imkoniyatlari mavjud. Geografiya predmetlaridagi deyarli barcha mavzularni o'lkashunoslik tamoillaridan foydalanib o'rganish mumkin. Relyef mavzusini maktab atrofidagi relyef shakllari orqali, gidrosfera mavzusini maktab atrofidagi suv obyektlar misolida, qishloq xo'jaligi yoki sanoatni o'zi yashayotgan joyi misolida o'tish mumkin. Mazkur tamoyilni qo'llash geografik bilimlarni oson va tez o'zlashtirishiga hamda o'quvchilarning o'z vataniga va yashab turgan joyiga mehr – muhabbat ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

**Iqtisodiy ta'lim tamoyilini hisobga olish.** Geografiya ayniqsa iqtisodiy geografiya darslarida o'quvchilarga iqtisodiy ta'lim va tarbiya berish katta ahamiyatga ega. Har bir xo'jalik tarmog'ini o'rganishda ularning iqtisodiy samarasini haqida bilimlar beriladi, shu bilan birga xom ashyo va tabiiy resurslardan tejab tergab foydalanish, o'z mulkiga va davlat mulkiga ehtiyyotkorlik bilan munosabatda bo'lishni o'rgatish o'quvchilarning iqtisodiy tarbiyasini yuqori darajaga ko'tarishga imkon beradi.

**Geografiya darslarida ekologik tarbiya berish.** Geografiya fani atrof-muhit va xo'jalik tarmoqlarini joylashtirish haqida bilim beradigan yagona fan bo'lganligi sababli, unda o'quvchilarga ekologik tarbiya berishning katta imkoniyatlari mavjud. Tabiiy va iqtisodiy geografiya predmetlarini o'rganishda har bir mavzu bo'yicha ekologik bilim ta'lim va tarbiya berish mumkin. Ayniqsa, O'rta Osiyodagi regional ekologik muammolarni yoritib berish yoki ulardan misollar keltirish katta ahamiyatga ega.

## 2.1. Geografiya darslarining tuzilishi

Geografiya darslarini tuzilishi didaktika va geografiya o'qitish metodikasida umum qabul qilingan qoidaga asoslangan. Mazkur qoidalarga binoan geografiya darslari quyidagi qismlardan iborat: bilimni tekshirish (uyga berilgan vazifalarni tekshirish va baholash); yangi mavzuni o'qitish; yangi mavzuni mustahkamlash; uyga vazifa berish.

**Tashkiliy qism.** Mazkur qismda yoki bosqichda o'quvchilar bilan salomlashiladi, yo'qlama qilinadi, tozalik tekshiriladi, o'quvchilarning darsga tayyorgarligi (kitob, daftar, atlaslari) borligi tekshiriladi. So'ngra o'quvchilarni darsga tayyorlaydi. Bunda o'tgan mavzu va yangi mavzuni ilmiy va amaliy ahamiyati haqida o'quvchilarga ma'lumotlar beriladi va ularni darsga tayyorlaydi.

**O'quvchilar bilimini tekshirish va baholash.** Geografiya darslarining eng asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Mazkur qism yangi darsni o'tish uchun asos bo'lib hisoblanadi. Darsda asosiy materialni o'zlashtirish darjasini, olingan bilimlarni o'xshash va yangi o'quv sharoitida qo'llash holati tekshiriladi. Bunday bilimlarga dunyoqarash g'oyalari, nazariy bilimlar (umumi y tushunchalar, tamoillar, aloqalar, qonuniyatlar), dalillar va o'quv ishlari usullari kiradi. Bilimlarni tekshirishning mazmuni mazkur bo'limni yoki kursni o'qitishning yakuniy natijalariga mos kelishi lozim. Ular dasturlarda berilgan bo'ladi.

O'quvchilar bilimi va ko'nikmalarini tekshirish uchun turli xil usullar qo'llaniladi. O'quvchilarni bilim va malakalarini ma'lum bir mavzu bo'yicha tekshirish uchun o'qituvchi svollarni yoki tarqatma materiallarni oldindan tayyorlab qo'yomog'i zarur.

**Yangi mavzuni o'rganish.** Deyarli barcha darslarda yangi mavzuni o'rganish qismi albatta bo'ladi. Yangi mavzuni o'qitishda yangi bilim, ko'nikma va malakalar shakkantiriladi. Darsga ajratilgan vaqtning katta qism yangi mavzuni o'rganishga sarflanadi. Yangi mavzuning mazmuni va hajmi o'quv dasturlarida berilgan bo'ladi, darsliklarda esa ular aniqlashtiriladi. Dastur o'qituvchi uchun asosiy vosita hisoblanadi. Yangi darsning mazmuni o'qituvchi tomonidan tanlab olinadi. Bunda mavzu bo'lim yoki butun kursni o'quv maqsadlaridan kelib chiqdi. O'qituvchiga dasturda berilgan yangi materialni o'tish uchun asosiy va qo'shimcha materiallar tizimi beriladi. Qo'shimcha materiallarga turli xil daliliy ma'lumotlar kiradi. Ular mavzuning asosiy mazmunini ochib berishga xizmat qiladi. Yangi mavzuni o'rganish natijasida o'quvchilarning bilimi kengayadi va chuqurlashadi, o'rganilayotgan voqeja va hoisalarni mohiyati ochib beriladi. Geografik bilimlar va ko'nikmalarni amaliy tomonlari ko'rsatiladi. Yangi mavzuni o'rganish ilgari olingen bilimlarga tayangan holda amalga oshiriladi. Demak, har bir mavzuni o'rganayotganda fanlararo va ichki fanlararo aloqalar ochib beriladi. Masalan, VI va VII sinflarda har bir materikni va yirik o'lkalarni relyefini o'rganishda V-sinfda litosfera mavzusida o'tilgan bilimlarga suyanadi.

**Olingen bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash** geografiya darslarini asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. O'quvchilar bilimini mustahkamlash ikki usulda olib boriladi: bosqichli, yakuniy.

Geografiya darslarida ko'proq bosqichma bosqich bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash keng tarqalgan. Bunda o'rganiladigan yangi mavzu bir necha mantiqiy qismlarga bo'linali. Har bir qism o'tib bo'lingandan so'ng olingen bilimlar mustahkamlanadi. Masalan, V-sinfda masshtab mavzusini o'rganishda uni quyidagi mantiqiy qismlarga bo'lishimiz mumkin: masshtab nima; sonli masshtab; chiziqli masshtab; nomli masshtab. Demak, ushbu mavzuni o'rganishda o'qituvchi masshtab haqida tushuncha beradi va uni mustahkamlaydi. So'ngra sonli, chiziqli va nomli masshtablarni tushuntirib, olingen bilimlarni yangi misollarni o'quvchilarga yechtirish orqali mustahkamlaydi.

Olingen bilimlarni bir necha usullar yordamida mustahkamlash mumkin: test topshiriqlari, amaliy ishlar, mustaqil ishlar va h.k

O'quvchilar bilim va ko'nikmalarini bosqichma-bosqich mustahkamlash bilan birga yakuniy mustahkamlash ham mumkin. Bunda o'quvchilarga tarqatma material berish yoki 3-4 ta o'quvchidan og'zaki so'rash orqali ham bilimlarni yakuniy mustahkamlash mumkin. So'ngra o'quvchilar bilimlariga qo'yilgan baholar e'lon qilinadi, ularning kamchiliklar to'g'rilaniladi va dars yakunlanadi.

**Uyga vazifa berish.** Darsning yakunida uyga vazifa beriladi. Uyga vazifa mavzusi sind taxtasiga yozib qo'yiladi va uni bajarish bo'yicha o'qituvchi o'quvchilarga ko'rsatmalar beradi.

Uyga vazifa ko'p hollarda darsning oxirida beriladi. Bunda o'quvchilar uy vazifasini maqsadi va mohiyatini tushunib yetishmaydi. Ko'p hollarda o'qituvchi uy vazifasini berib ham, tushuntirib ham ulgurmaydi. Shuning uchun uyga vazifa darsning boshida, yangi mavzuni o'tib bo'lgandan so'ng berilsa, uni qanday bajarishni o'quvchilarga to'laroq tushuntirib berish mumkin.

Uyga berilgan vazifani tushuntirganda uni o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olmoq zarurdir. Matn bo'yicha beriladigan vazifalarni, xaritalar, jadvallar va chizmalar bo'yicha beriladigan topshiriqlarni alohida tushuntirish lozim.

### 3. Geografiya darslarining tiplari

Geografiya darslari ta'lmni tashkil qilishning eng asosiy turlardan hisoblanadi. Geografiya darslari didaktik maqsadlarga ko'ra quyidagi tiplarga bo'linadi: kirish darsi; yangi bilimlarni o'rganish darsi; aralash dars; ko'nikma va malakalarni rivojlantirish darsi; takrarlash darsi.

#### 3.1. Kirish darsi

Kirish darsi umumta'lim maktablarida geografiya predmetlarini va yirik mavzularni o'rganishda yo'llanma vazifasini o'taydi.

Kirish darsining asosiy maqsadi ma'lum bir kurs va mavzu bo'yicha bilim va ko'nikmalar berishdir. Kirish darsi quyidagi qismlardan iborat: o'quv yilini boshida o'tkaziladigan kirish darslari; yirik mavzularni o'rganishdan olidin tashkil qilinadigan kirish darslari; chorak boshlanishida o'tkaziladigan kirish darslari.

O'quv yilining boshida birinchi dars kirish darsi hisoblanib, unda o'qituvchi quyidagi ishlarni bajaradi:

- ✓ darslik va uning mualliflari bilan tanishtirish;

✓ darslikni tuzilishi bilan tanishtirish (qismlar, boblar, ilovalar, rasmlar, jadvallar);

✓ darslikdan foydalanish tartibi bilan tanishtirish. Toza tutish yirtmaslik, chizmaslik, yozmaslik va h.k.

Yirik bo‘limlarni o‘rganishda ham kirish darslaridan foydalanish mumkin. “Tabiiy geografiya boshlang‘ich kursi”da (5-sinf) Yer qobiqlari bo‘limini o‘rganishdan oldin kirish darsi o‘tkazish mumkin. Unda quyidagi xolatlarga e’tibor bermoq lozim:

- geografik qobiqni qatlamsimon bo‘lib tuzilganligi, ya’ni litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosferalardan iborat ekanligi;

- har bir qobiq alohida moddalardan tuzilganligi, ya’ni litosfera qattiq moddalardan, gidrosfera suyuq modalardan (suv), atmosfera gazsimon moddalardan, biosfera esa tirik moddalardan iborat ekanligi haqida bilimlar shakllantiriladi. Shundan so‘ng o‘quvchilar ongida Yer qobiqlarining xususiyatlari, o‘ziga xos jihatlari haqida tushunchalar shakllanadi va umumiy tasavvurlar hosil bo‘ladi.

Iqtisodiy geografiya darslarida ham huddi shunday kirish darslarini tashkil qilish mumkin. Masalan, “Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi” kursida “Jahon xo‘jaligi” mavzusini o‘tishdan oldin kirish darsi o‘tkazish mumkin: unda quyidagi holatlarga o‘quvchilar diqqati qaratiladi:

- jahon xo‘jaligi haqida tushuncha beriladi;

- jahon xo‘jaligining tarkibiy qismlari chizib ko‘rsatiladi.

- iqtisodiyot tarmoqlari – sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport va xalqaro iqtisodiy aloqalarning tuzilishi alohida tushunriladi. Masalan, transport tarmog‘i quyidagi qismlarga bo‘linadi: quruqlik, suv, havo, quvur, elektron.

Bundan tashqri kirish darslarida quyidagi maqsadlar ham amalga oshiriladi; bo‘lajak o‘quv ishlari uchun o‘quvchilar psixalogik jihatdan tayyorlanadi; o‘quvchilarda geografiya fani va geografik bilimlariga nisbatan qiziqish uyg‘tiladi.

Kirish darsida bitta mavzu o‘rganilmaganligi uchun unda darsni barcha elementlari mavjud emas. Unda tashkiliy qism, yangi bilimlarni o‘rganish, ayrim xollarda vaqt yetarli bo‘lsa bilimlarni mustahkamlash va uya vazifa berish amalga oshiriladi. Ko‘p hollarda kirish darsida asosan yangi material o‘tiladi, uya vazifa berilmasligi ham mumkin.

### 3.2. Aralash dars

Aralash dars umumta’lim maktablarida eng keng tarqalgan dars tipi hisoblanadi. Aralash darslarda bir necha didaktik maqsadlar amalga

- texnik vositalarda ko‘rsatiladigan geografik voqeа va hodisalar dars mavzusiga mos bo‘lishi;

- texnik vositalarni qo‘llash oldidan uning ishlash tamoyili, mazkur darsda nima ko‘rsatilishi haqida o‘qituvchi axborot berishi;

- texnik vositalar avvaldan ishga tayyorlab qo‘yilishi lozim. Uni dars jarayonida sozlash o‘quv soatini ancha qismini olib qo‘yishi mumkin;

- texnik vositalar orqali ma’lum bir mavzuni o‘rganishda uni alohida qismlarga bo‘lish lozim. Har bir qismda ko‘zda utilgan material tugallangandan so‘ng o‘qituvchi izoh berishi, namoyish qilingan geografik voqeа va hodisalarini o‘quvchilar qanday qabul qilganini tekshirib ko‘rishi mumkin. Ko‘zda utilgan materiallar namoyish qilib bo‘lingandan so‘ng o‘qituvchi darsni yakunlashi;

- namoyish etilgan material aniq va ravshan ko‘rinishi lozim.

Geografiya darslarida foydalaniladigan o‘qitishning texnik vositalarini quyidagi guruhgа bo‘lishimiz mumkin:

- audiovizual vositalar;

- videotexnika vositalari;

- axborot vositalari.

O‘qitishni audiovizual vositalariga o‘quv kinosi, teleeshittirishlar, diafilmlar, diopozitivlar, transparantlar kiradi.

Video texnika vositalariga turli xil videomagnitafonlar kiradi. O‘qitishning axborot vositalariga kompyuterlar, internet imkoniyatlari, masofaviy o‘qitish vositalari kiradi.

O‘qituvchi o‘quv yilini boshida texnika vositalardan foydalanish rejasini tuzishi va u asosida texnika vositalari hafta boshida tayyorlab qo‘yilmog‘i zarur.

### 2.1. Geografiya darslarida kinofilmlardan foydalanish

Kinofilmlardan geografiya darslarida foydalanish dars mavzusi, dars turi va boshqa holat hamda sharoitlarga qarab turlicha bo‘lishi mumkin.

Dars jarayonida darsning mazmunidan kelib chiqqan holda kinofilmlardan to‘la, uning ayrim bo‘limlari va qism yoki lavhalaridan foydalanish mumkin. Kinofilmni namoyish qilishni darsning turli xil bosqichlarida amalga oshirish mumkin.

Kinofilmlar dars jarayonida foydalanishga ko‘ra quyidagi guruhlarga bo‘linadi:

- maxsus o‘quv maqsadlarida chiqarilgan filmlar;

- ilmiy – ommabop kinofilmlar;

- tabiat komponentlarining ayrim qismlariga bag'ishlangan filmlar (tog'lar, o'rmonlar, daryolar, ko'llar, hayvonot dunyosi va h. k.)

- badiiy filmlar;
- videofilmlar.

Maxsus o'quv filmlari aniq bir mavzuga bag'ishlangan bo'ladi, ulardan dars jarayonida to'liq foydalanish mumkin. Masalan, tog'lar, Sahroi Kabir cho'li, tundra, o'rmonlar, Ustyurt, Qizilqum va h.k.

Ilmiy-ommabop kinofilmlar asosan keng xalq ommasiga mo'jallab chiqariladi. Dars jarayonida uning ayrim qismlaridan foydalanish mumkin.

Tabiat komponentlarining ayrim qismlariga bag'ishlangan kinofilmlardan ham dars jarayonida foydalanish mumkin. Masalan, hayvonlarni ayrim turlariga, okean mavjudotlariga, aholiga va uning turmush tarziga bag'ishlangan filmlar.

Badiiy filmlarni ham ayrim dars mavzusiga oid qismlaridan foydalanish mumkin. Bunday filmlar toifasiga ko'proq sarguzasht filmlar kiradi. Unda tasvirlangan tabiat manzaralari, o'simlik va hayvonot dunyosidan dars jarayonida foydalanish mumkin.

Turli xil videofilmlardan ham mavzuga mos joylaridan foydalanish mumkin.

Yuqorida aytilganidek kinofilmlardan darsning boshida, ya'ni o'tilgan darslarni takrorlashda, yangi mavzuni o'tishda, olingan bilimlarni mustahkamlashda foydalanish mumkin.

Takrorlash darslarida mavzu bo'yicha kinofilm yoki uning bir qismi namoyish qilinadi va o'quvchilardan unga izoh berish yoki uni tushuntirib berish talab qilinadi. Yangi mavzuni o'rganishda mavzuga oid kinofilm to'la ko'rsatiladi. Bunda filmga o'qituvchi izoh beradi.

O'tilgan mavzuni mustahkamlashda ham kinofilmlardan foydalanish mumkin. Bunda kinofilm namoyish qilinadi va uning mazmuni o'quvchilardan so'raladi.

Ayrim xollarda kinofilmlar darsni kirish qismi sifatida ko'rsatiladi.

Filmni dars jarayonidagi o'rni darsning maqsadi, mazmuni va o'ziga xos xususiyatlari bilan aniqlanadi. O'quv filmlaridan bilim olish manbai sifatida ham, mustaqil ishlarni bajarish bo'yicha o'quv qo'llanma sifatida ham foydalanish mumkin. Masalan, berilgan savollarga javob topish, namoyish qilinayotgan materiallarni mavjud (bor) material bilan, darslik bilan, o'qituvchini ma'ruzasi, qator boshqa filmlarni mazmuni bilan solishtirish. Filmlar o'quvchilar bilimini tekshirishda va o'rganilgan mavzu mazmunini o'zlashtirish darajasini aniqlashda, o'tilgan materiallarni umumlashtirishda yoki ma'lum mavzuni umumiyl tafsifini

o'tishda foydalanish mumkin. Bundan tashqari filmlar yordamida sinf sharoitida sayohatlar ham uyushtirish yoki o'quvchilar bevosita ko'rolmaydigan jarayonlarni ko'rsatish mumkin. Masalan, "Qora metallurgiya", "Sintetik tolalar", "Tropik o'rmonlar", "Cho'llar", "Dashtlar".

Dars jarayonida filmlar bilan ishslash metodikasi quyidagi qismlardan iborat: a) o'quvchilarning ma'lum bir mavzu bo'yicha kinofilmni ko'rishga tayyorlash; b) o'quvchilarning filmni ko'rish jarayonidagi ishlarini tashkil qilish; v) ko'rilgan film mazmunini mustahkamlash; g) kinolashtirilgan darsni samaradorligini tekshirish.

O'quvchilarni dars oldidan aniq filmni ko'rishga tayyorlash film mazmunini faol tushunishga va uni to'la o'zlashtirishga imkon beradi. Filmni o'quvchilar o'qituvchi kuzatuvida ko'rishadi. Agar filmni ko'rish jarayonida nazorat bo'lmasa o'quvchilar filmga diqqat berishmaydi va boshqa narsa bilan shug'ullana boshlaydilar yoki bir-biri bilan gaplashib o'tishadi. Natijada film mazmuni yuzaki o'zlashtiriladi.

Agar film qiziqarli bo'lsa, o'quvchilar uni qiziqib diqqat bilan tomosha qilishadi. Ammo ularning faoliyati shunda ham nazorat qilinmasa filmni mazmunini tahlil qila olishmaydi. Shuning uchun film boshlanishidan oldin o'qituvchi filmni maqsadini, unda nimalar tasvirlangani, qanday savollarga oq'uvchilar javob topishini tushuntiradi. Bunday tashqari o'qituvchi kirish suhbatida filmning qayerlariga e'tibor berishni, qayerlarini alohida ajratib tahlil qilinishini ham tushuntirishi lozim. Masalan, O'zbekiston tabiiy geografiyasi kursida "Qizilqum" mavzusini o'tishda A.Nizomovning "Qizilqum" o'quv filmidan foydalanish mumkin. Ushbu filmni ko'rish jarayonida quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- asosiy relyef shakllariga;
- o'simlik bilan qoplanish darajasiga;
- hayvonot dunyosiga.

Filmni ko'rish jarayonida o'quvchilar qo'yidagi savollarga javob berishlari lozim: "Barxan nima?", "Qum tepaliklari nima?", "Cho'lda asosiy transport vazifasini bajaruvchi hayvonni aniqlang?".

Geografiya ta'llimida o'quv kinofilmlarining yana bir asosiy sharti o'qituvchini film namoyishida faol ishtirot etishidir. Eng yaxshi va qiziqarli film bo'lgan taqdirda ham o'qituvchi darsni boshqarishi shart hisoblanadi. Film namoyishi jarayonida o'qituvchi ko'rsatilayotgan kinolavhalarga izoh berib borishi, kerakli joylarda film namoyishini to'xtatib bilimlarni chuqurlashtirishi mumkin. Ayrim nazariy qonun

qoidalarga oid bo'lsa, uni kengroq tushuntirib berishi, so'ngra film namoyishini davom ettirishi mumkin.

Filmni ko'rish davomida o'qituvchining izohlari o'quvchilarga xalaqit bermasligi lozim. Shuning uchun faqat kerakli joylaridagina izoh berish kerak. Agar kinofilmda metodik xatolar bo'lsa o'qituvchi uni to'g'rilab ketishi zarur. Ma'lum bir voqeа hodisalarni mohiyatini o'quvchilar yaxshiroq tushunib olishlari uchun filmni namoyishini biroz to'xtatib turish mumkin.

**Namoyish etilgan filmda berilgan bilimlarni mazmunini mustahkamlash.** Bunda filmda keltirilgan dalillar, mulohazalar, taassurotlar ilgari olingen bilimlar bilan solishtiriladi. Filmda olingen bilimlar bilan darslik matni orasidagi aloqalar ochib beriladi. Dars yakunlanadi va xulosa qilinadi. Mazkur ishlarni amalga oshirish uchun o'qituvchi o'quvchilar bilan suhbat o'tkazadi va suhbat davomida yalpi (butun sinf o'quvchilaridan) so'rov amalga oshiriladi. Filmni ko'rib bo'lgandan so'ng xomaki chizmalar, rasmlar chizish, jadvallar to'ldirish, hatto filmga annotatsiya tayyorlash, taqriz yozish yoki maxsus yozma ish tayyorlatish mumkin.

O'quvchilar filmda ko'rgan narsalariga kitobdan asosnoma topishlari, filmda namoyish etilgan geografik obyektlarni xaritalardan topishlari yoki filmdagi geografik obyekt, voqeа va hodisalarni yozuvsız xaritaga tushirishlari, ular asosida grafiklar tuzilishlari mumkin.

**Kinolashtirilgan darsni samaradorligini aniqlash.** Filmni ko'rish natijasida olingen yangi bilimlar, ma'lumotlar darsni oxirida amalga oshiriladi. Natijada filmning ayrim lavhalari qayta namoyish qilinadi va o'zlashtirilmagan bilimlar yana qaytadan namoyish etiladi va takrorlanadi. Eng asosiysi o'qituvchi izohi muhim o'rinn tutadi. Filmni eng murakkab joylarida o'qituvchi namoyishini to'xtatib batafsil izoh bermog'i lozim. Shundagina darsni maqsadi amalga oshdi desa bo'ladi.

**O'qituvchini kinofilmlardan foydalanib dars o'tishga tayyorgarligi.** Kinofilmlar darsga o'ziga xos xususiyatlarni beradi, o'quvchilarini bilish faoliyatini rivojlantiradi, bilimlarni bevosita ko'rish orqali o'zlashtirishga imkon beradi, filmda geografik voqeа va hodisalarni sodir bo'lishini kuzatishga imkon beradi. Ammo, kinofilmlar geografiya darslarini asosiy tarkibiy qismlarini ochib bera olmaydi. Masalan, bilimlarni tekshirish, uyga vazifa, tushuntirish va mustahkamlash.

Geografiya o'qituvchisi kinofilmlardan foydalanib dars o'tishga tayyorgarlik ko'rayotganda quyidagilarga e'tibor berishi lozim:

Darsning ta'limiy va tarbiyaviy maqsadlarini, mazmunini ishlab chiqish, darsda foydalaniladigan ekranli va statistik ko'rgazmalar fondi bilan tanishish va dars mazmuniga mos keladigan ko'rgazmali vositalarni tanlash. Tanlab olingen ekran materiallarini dars mazmuniga mosligi aniqlanadi. Dars rejasи ishlab chiqiladi va unda albatta kirish so'zi ko'zda tutilmog'i lozim. Bundan tashqari film namoyishi jarayonida o'quvchilarga beriladigan savollar va ularga beriladigan javoblar (filmni ko'rish jarayonida) oldindan aniqlab olinishi lozim. Filmni namoyishi davomida qisqa-qisqa izohlar ko'zda tutilmog'i kerak. Filmni eng ma'qul joylarida namoyish to'xtatilib o'quvchilar bilan suhbat o'tkazish ko'zda tutilmog'i zarur.

Ma'lum bir paytlarda filmni to'xtatib izoh berish uchun darsga tayyorgarlik jarayonida o'qituvchi filmni to'xtatiladigan joylarini belgilab qo'yishi lozim. O'quvchilar filmni ko'rish jarayonida diktorni so'zini qiyin qabul qilishadi, shuning uchun pauzalarda o'qituvchi filmda namoyish etilgan geografik voqeа va hodisalarga izoh berib o'tishi maqsadga muvofiq. Agar diktorni so'zlar yoki filmni muzikasi o'qituvchiga yoqmasa u filmni ovozini o'chirib o'zi tushuntirishi ham mumkin.

Filmni namoyish qilayotganda boshqa o'quv vositalaridan albatta xarita bo'lmog'i shart. O'quvchi filmni ijobjiy va salbiy tomonlarini chuqur biladigan so'nggi darslarda filmdan foydalanish masalasini hal qilish mumkin. Filmning mazmuni zamonaviy talab darajasida bo'lishi kerak. Buni ayniqsa xalq xo'jaligi tarmoqlarini namoyish qilishda e'tiborga olish lozim.

Darsda filmlarni namoyish qilishni samaradorligi uni qo'llash turiga bog'liq. Film darslarda muntazam va nomuntazam qo'llanishi mumkin. Filmlar muntazam ko'rsatilganda o'quvchilarda uni ko'rish, tahlil qilish, qabul qilish ko'nikmalari shakllanadi. Dars samaradorligi ortadi. Nomuntazam, ya'ni onda-sonda dars paytida film namoyish qilinsa, u samara bermaydi, o'quvchilar undan ko'nikma olishmaydi.

## 2.2. Televedeniyadan geografiya darslarida foydalanish

XXI asrda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish va internet tarmoqlarining jadal rivojlanishi geografiya darslarida mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda turli o'quv ko'rsatuvlaridan bevosita foydalanish imkoniyatini bermoqda. Televidenianing "Dunyo bo'y lab" va boshqa kanallarda eng qiziqarli o'quv filmlari olib boriladi.

Geografiya darslarida televideniyadan foydalanishni ikki yo'nalishga bo'lish mumkin: kundalik teleko'rsatuvlardan foydalanish; videokassetalardan foydalanish. Kundalik teleko'rsatuvlardan foydalanish uchun teledasturlardan kerakli dars mavzusiga mos tushadigan ko'satuvalar tanlab olinadi va ular videokasseta, disk yoki fleshkaga yozib olinadi yoki internetdan yuklab olinadi. So'ngra mazkur yozib olingan material kerakli mavzuni o'tishda namoyish qilinadi.


**Tayyor videokassetalardan foydalanish.** Geografiya predmetlari mavzulari bo'yicha videokassetalar kartotekasini tashkil qilish mumkin. Hozirgi davrda har bir geografiya xonasida albatta videomagnitofonlar bo'ilishi zarur. Ma'lum bir mavzuni o'rganayotganda unga mos bo'lgan videokassetani olib namoyish qilish mumkin.

Televideniyadan foydalanishga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

- namoyish etiladigan telelavha dars mavzusiga mos bo'ilishi shart;
  - videomagnitofon va televizor bir kun oldin tayyorlab qo'yilishi lozim;
  - namoyish etiladigan videolavhalar aniq va ravshan ko'rinnog'i lozim;
  - videolavha dars vaqtini to'la ishg'ol qilishi lozim emas. Darsni boshida va oxirida o'qituvchini izohi va tushuntirishi uchun hamda xulosasi uchun vaqt qoldirishi lozim;
  - video darsharni ko'rish o'qituvchi nazoratida olib borilishi lozim;
- Bundan tashqari geografiya darslarida radio eshitirishlardan, magnitafon yozuvlaridan ham foydalanish mumkin.

### 3. Geografiya darsligi va u bilan ishlash texnologiyasi

**Geografiya darsligining tuzilishi.** Geografiya ta'limida darsliklar asosiy bilim olish manbai bo'ilib hisoblanadi, shuning uchun ular asosiy o'qitish vostilaridir. Geografiya darsliklari yuqori ilmiy darajaga ega bo'ilishi metodik apparati pedagogik jihaldan asoslangan bo'ilishi lozim. Darslikning metodik tuzilishi o'quvchilarni o'qishga o'rgatishga yo'naltirilgan. Darslik juda ko'p ta'limiy vazifalarni bajaradi. Darslik bilan ishlaganda o'quvchilar quyidagi ishlarni bajarishadi: matn, kartografik ma'lumotlar; statistik ma'lumotlar; chizmalar, rasmlar, fotografiyalar; matndagi jadvallar; matndan tashqaridagi materiallar; darslikdagi ilovalar bilan ishlash usullari va h.k. Geografiya darsliklari ikkita yirik qisimga bo'linadi (3-rasm):



3-rasm. Geografik darsliklarni tuzilishi ( I.V. Dushina sxemasi asosida)

Geografiya o'qituvchisi darslikning mazmuni bilan yaxshi tanishgan va o'zlashtirgan taqdirdagina darslik bilan ishlash ishlarini yaxshi tashkil qilish mumkin. Rasmida keltirilgan ikki qism:

a) darslikning o'quv matni; b) matndan tashqaridagi materiallar. Mazkur qismlarning har biri yana o'z navbatda alohida – alohida qismlarga bo'linib ketadi.

Darslikning asosini uning matni tashkil qiladi. Matnda o'quvchilar uchun yangi ma'lumotlar beriladi.

Matndan tashqaridagi ma'lumotlar o'qitish va nazorat vazifalarini bajaradi. Ularga quyidagilar kiradi: a) savol va topshiriqlar; b) mundarija, shriftlar; c) ko'rgazmali materiallar.

Har bir darslikda juda ko'p savol va topshiriqlar tizimi berilgan. Ular tushunchalarni o'zlashtirishga, geografik voqeа va hodisalar orasidagi aloqalarni aniqlashga, ko'nikmalarni qo'llashga yo'naltirilgan. Savol va topshiriqlar darslikni turli joylarida uchraydi: yangi mavzu oldidan; matn ichida; matnning oxirida.

Darslik matni oldida joylashgan savol va topshiriqlar o'quvchilar tomonidan ilgari olingan bilimlarni faollashtirishga yo'naltirilgan bo'ladi. Masalan, biror hududni iqlimini o'rganishdan oldin iqlim hosil qiluvchi omillar haqidagi bilimlarini faollashtirish.

Matn ichidagi savol va topshiriqlar o'quvchilarni fikrlash faoliyatini yangi o'quv materialini o'zlashtirishga yo'naltiradi. Matnning so'ngida berilgan savol va topshiriqlar esa olingan bilim va ko'nikmalarni qo'llash va mustahkamlashga yo'naltiradi. Masalan, daryolar mavzusini o'tganda, daryo nima, o'zan nima, daryo vodiysi, daryoni to'yinishi haqida olingan bilimlarni qo'llash mumkin.

Yirik bo'limlar so'ngida berilgan savol va topshiriqlar umumlashgan xususiyatga ega, ular bilimlarni tartibga solishga undaydi, o'quvchilarning umumiyl dunyoqarashi bo'yicha xulosalar qilishga olib keladi.

Matndagi ko'rgazmali materiallarga quyidagilar kiradi: matndagi xaritalar; muqovadagi xaritalar; diagrammalar, chizmalar va jadvallar; rasmlar va fotografiyalar; turli xil kesmalar; orografik chizmalar. Ko'rgazmalar faqat matn mazmunini boyitibgina qolmasdan, alohida bilim manbai bo'lib ham hisoblanadi

Geografiya darsliklarining oxirida berilgan atama va tushunchalar lug'atida mazkur mavzuda berilgan tushunchalar tizimining ro'yhati beriladi.

### 3.1. Darslik bilan ishlash texnologiyasi

Darslik bilan ishlash geografiya ta'limida muntazam olib boriladi. Darslik bilan ishlash texnologiyasi quyidagi qismlardan iborat: darslik bilan tanishish va u bilan ishlash qoidalarini o'rgatish; darslik matni bilan ishlash; darslikdagi xaritalar bilan ishlash; matndagi chizmalar bilan ishlash; matndagi rasmlar bilan ishlash; matndagi jadvallar bilan ishlash; darslik ilovalari bilan ishlash; darslik bilan ishlashni tashkil qilish; har bir sinf darsligi bilan ishlashni o'ziga xos xususiyatlari.

O'quv yilini boshida o'qituvchi o'quvchilarni darslik bilan tanishtiradi. Darslik bilan tanishtirish quyidagi tartibda amalga oshiriladi. Dastlab darslikni nomi, mualliflari, qaysi nashriyotda va qachon chop etilganini o'quvchilarga tushuntiradi. Shundan so'ng, darslikning tarkibiy tuzulishi oshib beriladi (kirish, necha qism, necha bob, ilovaning bor yo'qligi). Masalan, 7-sinf darsligini oladigan bo'lsak, darslik O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasini deb nomlanadi, darslikni mualliflari P.G'ulomov, X.Vaxobov, P.Baratov, M.Mamatqulov hisoblanadi, darslik "O'qituvchi" nashriyotida 2017 yil chop etilgan. Darslik kirish, ikkita bo'lim, 9 qism va ilovadan iborat. Darslikning birinchi bo'limi O'rta Osiyo tabiiy geografiyasiga bag'ishlangan, ikkinchi bo'limi esa O'zbekiston tabiiy geografiyasini bayoniga bag'ishlangan. Darslikning ilova qismi 1 ta jadvaldan iborat (O'rta Osiyo qo'riqxonalari). Darslikning umumiy hajmi 174 bet. Darslikda 44 ta rasm berilgan. Rasmlar xaritalardan, diagrammalardan, chizmalardan iborat.

Shundan so'ng, darslikdan foydalinish qoidalari tushuntiriladi (toza tutish, darslik sahifalariga turli xil so'zlarni yozmaslik, buzmaslik, yirtmaslik va h.k)

**Darslikning matni bilan ishlash.** Darslikni matni bilan ishlash quyidagi qismlardan iborat: izohli o'qish, matni asosida reja tuzish, matnni ma'lum bir qismini o'qib so'ngra so'zlab berish.

Izohli o'qish o'qituvchi yoki o'quvchi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Bunda matn qismlarga bo'linib o'qiladi so'ng o'qilgan matnga izoh beriladi. Masalan, 7-sinf darsligining birinchi bo'lim 14-§ dan quyidagi jumlanı keltirishimiz mumkin: "Tekisliklar O'rta Osyoning markazi, g'arbiy va shimoliy qismlarida joylashgan. O'rta Osyoning anchagini qismini Turon tekisligi egallagan. Bu tekislikda O'rta Osyoning yirik cho'llari – Qoraqum va Qizilqum joylashgan" (41 bet). Mazkur jumlanı o'qigandan so'ng o'qituvchi unga quyidagicha izox beradi: tekisliklar, ularning turlari, kelib chiqishi haqida so'zlab, O'rta

Osiyodagi eng yirik bo‘lgan Turon tekisligini xaritadan ko‘rsatib, uning asosiy xususiyatlarini gapirib beradi.

**Matning ayrim qismlariga reja tuzish.** Bunda matn ma’lum bir qismлага bo‘linib o‘quvchilarga bo‘lib beriladi va ulardan matning ushbu qismiga reja tuzish vazifasi beriladi. Masalan, O‘rta Osiyo hududining rivojlanish tarixi va foydali qazilmalari mavzusi matnini quyidagi qismлага bo‘lish mumkin:

- paleozoy erasida hududning rivojlanishi;
- mezozoy erasida hududning rivojlanishi;
- kaynazoy erasida hududning rivojlanishi;
- zilzilar;
- foydali qazilmalar.

Shulardan foydali qazilmalar qismiga quyidagicha reja tuzish mumkin: yoqilg‘i foydali qazilmalari: (ko‘mir, neft, gaz), qora metall konlari, rangli metallar konlar, mineral o‘g‘itlar konlari, qurilish xom ashyosi konlari (marmar, ohak, qum, granit).

**Darslikdagi xaritalar bilan ishlash.** Har bir sinf geografiya darsligining matnidagi mavzuga oid turli xil xaritalari mavjud. Xaritalar 6,7,8 va 9-sinf darsliklarida ko‘proq. Matndagi xaritalar asosan mustaqil ishlarni bajarishda ko‘proq ishlatiladi. Masalan, 7-sinf darsligining 7-sahifasida Yevrosiyoning tabiiy geografik o‘lkalari xaritasi berilgan. Ushbu xarita bo‘yicha quyidagi topshiriqlarni o‘quvchilarga mustaqil bajarishlari uchun berish mumkin:

- Janubiy Osiyoda joylashgan Yevrosiyo tabiiy geografik o‘lkalarini aniqlang va ularning geografik joylanishiga baho bering;
- Yevropada joylashgan tabiiy geografik o‘lkalarni aniqlang;
- O‘rta Osiyo tabiiy geografik o‘lkasi qaysi o‘lkalar orasida joylashgan;
- Shimoliy Osiyo qanday tabiiy geografik o‘lkalardan iborat va h.k.

Shunday o‘xshash mustaqil ish uchun vazifalarni o‘quvchilarga har bir mavzuli xarita bo‘yicha berish mumkin.

Darsliklarda juda ko‘p rasmlar ham berilgan. Mazkur rasmlar tabiiy va iqtisodiy geografik obyektlarning tasviriga bag‘ishlangan. Shuning uchun xaritadagi rasmlar bo‘yicha ham o‘quvchilarga mustaqil ishlari berish mumkin. Geografiya darslaridagi rasmlarni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin: buyuk olim va sayyohlarning rasmlari; tabiiy landshaftlar manzarasini tasvirlaydigan rasmlar (tug‘lar, tekisliklar, vodiylar, chuqurlar va h.k); tabiiy geografik jarayonlarning oqibatlari va ko‘rinishlarini tasvirlaydigan rasmlar (nurash, sho‘rxok, vulqon, zilzila va h.k); iqtisodiy

geografik obyektlarni tasvirlaydigan rasmlar (zavod, fabrika, suv ombolari, qishloq xo‘jalik ekinlari, yo‘llar, kanallar va h.k).

Chizmalar xaritalarga o‘xshab darslikda juda ko‘p uchraydi. Ular geografik aloqalar va qonuniyatlarini ifodalaydi, ular orqali mavzuga tegishli qonuniyatlarini o‘quvchilarga oson tushuntirish mumkin. Masalan, Yerga Quyoshdan keladigan issiqlikni miqdori uning tushish burchagiga bog‘liqligini ko‘rsatuvchi chizmalar.

Darsliklarda berilgan chizmalarni quyidagi guruhlarga bo‘lish mumkin:

- boshlang‘ich tabiiy geografiya kurslarida berilgan chizmalar (koinot, litosfera, gidrosfera, atmosfera, biosfera mavzularida);
- materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasini hamda O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tabiiy geografiya kurslari bo‘yicha berilgan chizmalar;
- iqtisodiy-ijtimoiy geografiya kurslarida berilgan chizmalar. Mazkur chizmalar asosan diagrammalardan iborat. Ular xalq xo‘jalik tarmog‘ini ma’lum bir qismlarining ko‘rsatkichlarini tasvirlaydi.

Umumta’lim maktablari geografiya darslarida jadvallardan ham keng foydalanilgan. Tabiiy geografiya darsliklarida jadvallar asosan ilovalarda berilgan. Iqtisodiy-ijtimoiy geografiya darsliklarida matndagi jadvallar ko‘proq o‘rin olgan bo‘lib, ularda ko‘proq iqtisodiy ko‘rsatkichlar berilgan. Jadvallarning ko‘pi ma’lum bir iqtisodiy tarmoqni o‘sish dinamikasini ochib berishga qaratilgan. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darsliklardagi jadvallarni quyidagi guruhlarga bo‘lishimiz mumkin: siyosiy geografik; demografik; tabiiy resurslar; sanoat; qishloq xo‘jaligi; transport va xalqaro iqtisodiy aloqalar; regional iqtisodiy geografik sharoitni tasvirlaydigan jadvallar. Berilgan bunday jadvallarning tahlili bo‘yicha o‘quvchilarga juda ko‘p mustaqil ishlari berish mumkin.

Har bir sinfda darslik bilan ishslash o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Beshinchi sinf tabiiy geografiya boshlang‘ich kursini o‘rganishda izohlari o‘qish, matndagi savollarga javob berish, matning rejasini tuzish, matndagi asosiy fikrni aniqlash muhim o‘rin tutadi.

VI sinfda “Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasini”ni o‘rganishda quyidagi holatlarga katta e’tibor berish lozim: qiyoslash, matning mazmuni bo‘yicha chizmalar, rasmlar va jadvallar tuzish, matndan ma’lumotlarni ko‘chirib olish, geografik obyektlar ro‘yhatini tuzish, matnni kengaytirilgan rejasini tuzish.

7-sinfda O‘rta Osiyo va O‘zbekiston tabiiy geografiyasini o‘rganishda ishlari bir oz murakkablashadi. Mazkur kurs bo‘yicha matnga kengaytirilgan reja tuzish, chizmalar chizish, turli xil aloqalar va

bog'liqliklarni ko'rsatadigan jadvallar tuzish (tabiiy geografik o'lkalar), iqlimiylardan tuzish va h.k.larga oid topshiriqlarni berish mumkin.

VIII-sinfda "O'zbekiston iqtisodiy-ijtimoiy geografiya" kursi o'tiladi. Mazkur kurs darsligi bo'yicha quyidagi ishlarni bajarish mumkin: matnga reja tuzish, turli xil xaritalar bilan ishslash (foydale qazilmalar, ma'muriy, iqtisodiy, transport va h.k.), jadvallar bilan ishslash (aholi, mineral resurslar, tarmoqlar bo'yicha iqtisodiy ko'rsatkichlar), chizmalar (diagrammalar bilan ishslash) bilan ishslash va tahlil qilish va h.k.

IX sinfda "Jahon iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi" kursini o'rganishda o'quvchilarga murakkabroq topshiriqlar beriladi: matnni o'qib xulosalar tayyorlash, iqtisodiy geografik xaritalarni tahlil qilib ma'lum bir davlatni iqtisodiy geografik tafsifini tuzish, sanoat va qishloq xo'jaligi rivojlangan hududlarni aniqlash, jadvallarni tahlili asosida turli xil chizmalar va diagrammalar tuzish va h.k.

**Tayanch so'z va iboralar:** o'qitish vositalari, natural obyektlar, geografiya darsligi, chizma, jadval, maketlar, model, illyustrasiya, texnik vosita, televideniya, kompyuter.

#### **TALABALARING O'ZLASHTIRGAN BILIMLARINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. O'qitish vositalari deb nimaga aytildi?
2. O'quvchilarni bilish faoliyatini tashkil qilishni qanday turlarini bilasiz?
3. O'qitish vositalari qanday turlarga bo'linadi?
4. Natural obektlarga nimalar kiradi?
5. Geografiya darsligi qanday o'qitish vositalari turiga kiradi?
6. Geografiya darsliklarini tuzilish chizmasini tuzing.
7. Darsliklar qanday qismlardan iborat?
8. Darslikdagi savol va topshiriqlar necha turga bo'linadi?
9. Darslikdagi chizmalar qanday guruhlarga bo'linadi?
10. Sinf sharoitida qanday natural vositalardan foydalansh mumkin?
11. Geografik voqeа va hodisalarini tasvirlovchi o'quv vositalariga nimalar kiradi?
12. Vulqonni yoki vodiyni modeli qanday o'qitish vositalariga kiradi?
13. Maketlar bilan qanday geografik obyekt, voqeа va hodisalar tasvirlanadi?

oshiriladi va ularda o'quv jarayonining barcha qismlari mavjud: yangi bilimlarni o'zlashtirish; olingen bilimlarni tahlil qilish va fikrlash; olingen bilimlarni mustahkamlash; olingen bilimlarni esda saqlab qolish; o'zlashtirilgan bilimlarni qo'llash.

Mazkur darslarda quyidagi maqsadlar amalga oshiriladi: yangi mavzuni o'rganish; geografik ko'nikmalarni shakillantirish; olingen bilim va ko'nikmalarni tekshirish.

Aralash dars quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: tashkiliy qism. Ushbu qismda yo'qlama qilinadi, o'quvchilarni darsga tayyorgarligi, ya'ni o'quv qurollari bor yo'qligi aniqlanadi; uyga berilgan vazifa tekshiriladi; yangi darsni maqsad va vazifalari tushuntiriladi, oldindi dars bilan yangi mavzu o'rtasida bog'liqlik aniqlanadi va tushuntiriladi; yangi mavzu o'rganiladi va umumlashtiriladi; olingen bilimlar mustahkamlanadi va darsda o'quvchilar faoliyati tekshiriladi; uyga azifa va uni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar beriladi. (I.V. Dushina, 1985).

Aralash darsning har bir tarkibiy qismidagi maqsadlarini amalga oshirish uchun alohida o'ziga xos metodlar tanlanadi, o'qituvchi va o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatini shakillari ishlab chiqiladi. Ammo shuni ham aytish joizki, aralash darsni muntazam ravishda bir xil qolipda o'tilishi o'quvchilarning darsga qiziquvchanligi va diqqatini pasaytirib yuboradi hamda ularni zeriktirib qo'yadi. Shuning uchun aralash darsning tarkibi, metodlari va faoliyat shakllarini tez-tez almashtirib turish lozim bo'ladi.

Aralash dars quyidagi hollarda o'tkaziladi: yirik ko'p soatlarga mo'ljallangan mavzularni o'rganishda; o'tkaziladigan mavzu oldin o'tilgan dars mazmuni bilan bog'langan bo'lsa.

- Agar aralash dars mavzusi oldindi o'tilgan dars bilan bog'langan bo'lsa, darsni o'quvchilar o'tgan darsda o'zlashtirilgan bilimlarni tekshirish va baholashdan boshlanadi. Bunday hollarda uyga vazifa yangi mavzuni o'tishdan oldin yoki o'zlashtirilgan bilimlarni mustahkamlashdan oldin beriladi. Uyga vazifa berilganda uni bajarish bo'yicha metodik ko'rsatmalar aniq va tushunarli bo'lishi lozim.

Aralash darsda berilgan materialni mustahkamlashda o'quvchilar o'zlashtirishi kerak bo'lgan eng muhim bilim va ko'nikmalar ajratib olinadi.

Masalan, 5-sinfda Quyosh, Oy va yulduzlar bo'limini o'rganayotganda koinot, yulduzlar, gallaktika, Quyosh, Quyosh tizimi sayyoralar, yo'ldoshlar, meteoritlar tushunchalarini yaxshi o'zlashtirilishiga katta e'tibor beriladi.

Hozirgi paytda geografiya ta'limi mazmunida nazariy bilimlar masshtabini ortib borishini hisobga olib, bilimlarni mustahkamlashning yangi mavzuni tushuntirayotganda amalga oshirish mumkin, masalan, "Tog' jinslari" mavzusini o'tishda magmatik, cho'qindi va metamorfik tog' jinslarini hosil bo'lishi va tarqalishini tushuntirish davomida mazkur bilim va ko'nikmalarni birdaniga mustahkamlab va umumlashtirib ketish mumkin.

Bunda o'quv materiali ma'lum bir mantiqiy qismlarga bo'linadi va har bir mantiqiy qism bo'yicha bilim, ko'nikmalar mustahkamlanadi hamda umumlashtiriladi. Masalan, magmatik tog' jinslarini tushuntirgandan so'ng olingan bilimlarni birdaniga mustahkamlab ketish mumkin. Bunda magmatik tog' jinslarini hosil bo'lishi, turlari (intruziv, effiziv) va ularni xossalariiga urg'u beriladi.

Demak, aralash darsni tarkibiy qismlari qotib qolgan narsa emas, uni doimo o'zgartirib turish lozim bo'ladi. Ba'zi xollarda avval yangi mavzuni o'tib, so'ngra uyg'a berilgan vazifani tekshirish mumkin, ayrim hollarda darsni uyg'a vazifa berish bilan boshlash mumkin.

Aralash darsni 5-sinfda Yer qobiqlari, 6-sinfda har bir materiklar va okeanlarning tabiiy sharoiti, 9-sinfda materiklar yoki ayrim mintaqalarning iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasini o'tishda qo'llash mumkin.

### 3.3. Yangi bilimlarni o'rganish darsi

Mazkur bilimlarni tipi to'la yangi mavzuni o'tishga bag'ishlanadi. Shuning uchun unda uyg'a berilgan vazifani tekshirish va baholash qismi bo'lmaydi. Mazkur dars quyidagi hollarda qo'llaniladi:

- darsni hajmi katta bo'lgan taqdirda;
- dars murakkab bo'lgan taqdirda.

Mazkur darsda bilimlar chuqur va har tomonlama ochib beriladi. Mazkur darslar uchun mavzuni o'qituvchi oldindan tanlab oladi va unga tegishli o'quv vositalarini tayyorlaydi.

Ushbu darslarda asosiy o'qitish metodi bo'lib tushuntirish hisoblanadi. Bunda o'qituvchi sinf taxtasidan, xaritalardan, chizmalardan, rasm va jadvallardan hamda qo'shimcha adabiyotlardan foydalanishi lozim.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash maqsadida o'quvchilarga qator topshiriqlar berish mumkin. Bunda ular olgan bilimlarni amalda qo'llashadi yoki bir necha vazifalarni bajarishni topshiriq sifatida berish mumkin. Bu esa yangi materiallarni o'zlashtirishni osonlashtiradi. Masalan, dunyo siyosiy xaritasini o'rganayotganda tarixiy va siyosiy

xaritadan foydalanib qo'yidagi vazifalarni o'quvchilarga topshirish mumkin:

- XX asrning boshigicha dunyoda qanday yirik davlatlar bor edi;
- XX asrning boshlarida Afrikada qanday mustaqil davlatlar mayjud edi;
- ikkinchi jahon urushidan so'ng qanday mustaqil davlatlar vujudga keldi;
- XX asrning oxirida qaysi davlatlar parchalanib ketdi va qanday yangi mustaqil davlatlar paydo bo'ldi;
- XXI asrda qaysi davlatlar mustaqillikni qo'lga kiritdi va h.k.

Yangi mavzuni o'rganish darsi qo'yidagi tarkibiy qismlardan iborat: darsni maqsadini aniqlash; yangi mavzuni tushuntirish davomida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil qilishi; mavzuni alohida mantiqiy qismlari bo'yicha umulashdirish va mustahkamlash; o'zlashtirilgan bilim va ko'nikmalarni amalda qo'llash bo'yicha o'quvchilarga topshiriqlar berish; uyg'a vazifa berish.

Mazkur darslarda quyidagi mavzularni o'rganish mumkin; "Yer po'stining tuzulishi (V-sinf); "O'rta Osiyoning tabiiy geografik rayonlashtirish" (VII-sinf), "O'zbekistonni iqtisodiy rayonlashtirish" (VIII-sinf); "Jahon siyosiy xaritasi", "Jahon tabiiy resurslari", "Jahon aholisi" (IX-sinf) va h.k.

### 2.4. Ko'nikma va malakalarini rivojlantirish va mustahkamlash darsi

Geografik ko'nikma va malakalar uzoq vaqt davomida shakllanadi. Mazkur darsning asosiy vazifasi esa o'quvchilarda geografik ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir. Geografik ko'nikma va malakalar nazariy bilimlarni o'zlashtirishga, mustahkamlashga va amalda qo'llashga imkon beradi. Ko'p xollarda ushbu darslarni bilimlarni mustahkamlash va geografik ko'nikma va malakalarni shakllantirish darsi ham deb ataladi. O'qitishni sifatini oshirishdagi vazifalarni qo'yilishi va yechilishi munosabati hamda o'quvchilarni amaliy faoliyatiga bo'lgan e'tiborni ortishi bilan mazkur darslar turini ahamiti yanada ortadi. Bunday darslarda o'quvchilar faoliyatining asosiy shakli amaliy ishlar hisoblanadi. Ularni bajarish davomida esa o'quvchilarda geografik ko'nikmalar shakllanib boradi.


Ushbu darslarda o'quvchilarni nazariy va amaliy faoliyati bir-biri bilan chambarchas bog'langan holda olib boriladi. Shuning uchun geografik ko'nikmalarni katta qismi yangi bilimlarni o'rganish jarayonida

shakllatiriladi. Ayrimlari amaliy dars jarayonida bajariladi, masalan, yuqoriga ko'tarilgan sari haroratni o'zgarishini hisoblash, surkalik o'rtacha havo haroratini aniqlash, Turon tekisligi bo'ylab o'tkazilgan tabiiy geografik kesmani tahlil qilish (VII sinf) va h.k. Ayrim amaliy ishlarni olingen bilim va ko'nikmalar mustahkamlanadi. Masalan, o'quvchilarни iqtisodiy diagrammalar bilan ishslash ko'nikmalarni darsni mustahkamlash bosqchida olib borish mumkin. Amaliy mashg'ulotlarni uya vazifani tekshirish jarayonida ham o'tkazish mumkin. Bunda o'quvchilar ma'lum bir reja asosida ishslashadi, masalan, xaritadan foydalanib daryoga, dengizga yoki ko'llarga ta'rif berish, ayrim davlatlarni iqtisodiy geografik ta'rifini tuzish va h.k.

Amaliy ishlar ikki turga bo'linadi: *o'qitadigan* (o'rgatadigan); *yakuniy*. O'rgatadigan (mashq qildiradigan) amaliy ishlarning maqsadi o'quvchilarini ma'lum bir geografik topshiriqi bajarishga o'rgatishdir. Masalan, geografik kordinatalarni aniqlash, xaritada masofani masshtab orqali aniqlash; daryo suv sarfini hisoblash; hududni tabiiy geografik tafsifini tuzish; demografik ko'rsatgichlarni hisoblash; iqtisodiy geografik tafsiflarni tuzish. Demak, o'rganuvchi amaliy ishlarda turli ko'nikmalar shakllantiriladi, tegishli bilmlar mustahkamlanadi.

Yakuniy amaliy ishning maqsadi olingen bilim va shakllantirilgan ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasini tekshirishdir. Masalan, Chirchiq-Oxangaron o'lkasini tabiiy geografik tavsifi ko'nikmalar shakllantirilgandan so'ng, O'zbekistonning boshqa tabiiy geografik o'lkalarini o'quvchilar amaliy mashg'ulot darslarida mustaqil o'rganishlari mumkin. Buning uchun o'quvchi tabiiy geografik o'kalarni o'rganish texnologiyasining modul tizimini ishlab chiqishi mumkin (4-rasm).

Har bir tabiiy geografik rayon uchta quyidagi modullarga bo'linadi: tabiiy geografik rayoni geografik joylashishi va chegaralari; yet yuzasini tuzilishi, geologlik sharoiti va foydali qazilmalari; ichki suvlar, tuprog'i o'simligi va hayvonot dunyosi. Mazkur modullar yanada mayda modullarga bo'linadi. Masalan, ikkinchi modulni quyidagi modulchalarga bo'lishimiz mumkin: rayonnning relyefi; rayonnning geologik tuzilishi; rayonning foydali qazilmalari. O'quvchilar bilim va ko'nikmalarni yaxshi o'zlashtirishlari uchun mazkur modullarni yanada maydarol qismlarga bo'lish mumkin. Masalan, foydali qazilmalar modulini quyidagi qismlarga



4-rasm. O'zbekiston tabiiy geografik rayonlarini o'rganishni modulli texnologiyasi.

bo'lish mumkin: yoqilg'i-energitika foydali qazilmalar; metalli foydali qazilmalar; nometall foydali qazilmalar.

Demak, yakuniy amaliy ishlar geografik voqe va hodisa hamda obyektlarni tavsifiga bag'ishlanar ekan. Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida hamma xalq xo'jaligi tarmoqlarini yoki ayrim davlatlarni modulli ta'lim texnologiyasidan foydalaniib o'rganish mumkin. Masalan, jahon sanoatini o'rganishda uni quyidagi modullarga bo'lib o'rganish mumkin: metallurgiya sanoati; mashinasozlik; yengil sanoat; qurilish xom ashyosi sanoati; oziq-ovqat sanoati; va h.k., ular o'z navbatida yana maydaroq modullarga bo'linib ketishadi. Masalan, mashinasozlikni yana quyidagi modulchalarga bo'lib yuborish mumkin: avtomobilsozlik; stanoksozlik; podshipnik ishlab chiqarish; teplovozsozlik; samalyotsozlik; ekskovatorsozlik; vagonsozlik; qishloq xo'jaligi mashina sozligi; kema sozlik; va h.k.

Geografik ko'nikma va malakalarni shakillantirish darsi quyidagi qismlarga bo'linadi: ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni qo'yish; o'quvchilarni o'quv vositalari bilan tanishtirish (darslik, xarita, jadvallar, diagrammalar). Ular amaliy mashg'ulotlarni bajarishda; o'quv ishlari usullarini o'zlashtirish bo'yicha ko'rsatmalar berish; amaliy ishlarni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar berish; bajarilgan amaliy ishlar natijalarini rasmiylashtirish; qilingan ishlarni yakunlash; uyga vazifa beish va uni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar berishda zarur bo'ladi.

Amaliy ishlar bajarishni samaradorligi ishni aniq tashkil qilishga bog'liq bo'lib, bunda qiyoslash; solishtirish; oddiy hisob-kitoblarni bajarish; ma'lum reja yoki qolip asosida geografik voqe va hodisalarni tavsifini tuzish; bog'liqliklarni aniqlash; xarita bilan ishslash va h.k.

### 3.5. Takrorlash darslari, umumlashtirish va bilimlarni tekshirish darslari

**Takrorlash darsi.** Geografiya ta'limida keng tarqalmagan, juda kam hollardagina qo'llaniladi. Chunki, har bir geografiya darsida mutazam ravishda o'quvchilarni bilim va ko'nikmalari tekshirib boriladi, ya'ni ushbu dars umumlashtirish va yakunlash maqsadida tashkil etiladi.

Takrorlash darslari quyidagi xollarda qo'llaniladi:

- yirik bo'limlar va mavzularni o'tib bo'lingandan so'ng, bilimlarni mustahkamlash maqsadida;
- agar yangi material oldingi darslar bilan bog'langan bo'lsa, takrorlash yangi mavzuni o'zlashtirishga yordam beradi.

Geografiya ta'limida takrorlash darsini qachon va qaysi mavzuni o'rganishda qo'llashni o'qituvchi hal qiladi. Takrolash darslarini quyidagi mavzularni o'rganishdan so'ng qo'lash mumkin: Yer qobiqlari (5-sinf); materiklar tabiiy sharoiti; okeanlar tabiiy sharoiti; materiklar iqtisodiy va ijtimoiy geografiysi.

Takrorlash darslarida tegishli bo'limdagi hamma material takrorlanmay, asosiy e'tibor mavzudagi eng muhim masalalarni chuqurlashtirish, yakunlash va yangi bilim elementlari boyitishga qaratilmog'i lozim.

Takrorlash darsi mavzuni eslatish va o'qituvchini kirish so'zi bilan boshlanadi. Takrorlash vaqtida yangi materialni o'rganishda avval qo'llanilgan o'quv qurollari bilan birgalikda takrorlash uchun maxsus tayyorlangan o'quv qurollari (yakunlovchi mazmundagi sxema, grafik, diagramma)dan foydalilanildi.

Yaxshi tashkil etilgan takrorlash darslari o'quvchilarni faollashtiradi va ular bu darsdan mamnun bo'ladi, bu albatta o'quvchilarni geografiya faniga bo'lgan qiziqishlarini oshiradi. Takrorlash darslaridan yana biri o'quv yili oxirida o'tkaziladigan yakuniy takrorlashdir. Bu darsda butub o'quv yili davomida olib borilgan ishlarga yakun yasaladi.

**Bilimlarni umumlashtirish darsi.** Mazkur darslar quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: o'quvchilarni darsning maqsadi va vazifalari bilan tanishtirish; ta'limiy-tariyaviy vazifalarni bajarish; darsni yakunlash; uyga vazifa berish. Hozirgi paytda umumlashtirish darslari keng tarqalmoqda. Ular maktab geografiya kurslarini barchasida ko'zda tutilgan. Ko'p hollarda bunday darslarni umumiylashtiruvchi takrorlash darsi ham deb ataladi. Chunki bilimlar umumlashtirilganda ular albatta takrorlanadi.

Bilimlarni umumlashtirishni ahamiyati quyidagi hollarda namoyon bo'ladi:

- bilimlarni umumlashtirish o'quvchilar ongida dunyoqarash g'oyalarni shakillantirishda muhim ahamiyatga ega;
- bilimlarni umumlashtirish har bir geografiya predmetidagi bilimlarni tizimlashda, ya'ni, tartibga solishda katta ahamiyatga ega.

Bilimlarni tizimlashtirish deganda geografik voqe va hodisalar, obyektlarni tarqalishi va taqsimlanishi tushuniladi. Bunda geografik voqe va hodisalar hamda obyektlar o'xshash belgilarga ko'ra tizimlarga yoki guruhlarga bo'linadi. Masalan, daryo vodiylari, tekislik landshaftlari, cho'llar, rivojlanayotgan davlatlar, rivojlangan davlatlar, yevropoidlar, mongoloidlar, negroidlar va h.k.

Shuning uchun ham umumlashtruvchi darslarini yirik bo'limlarni o'rganib bo'lgandan so'ng o'tkaziladi.

Umumlashtiruvchi darslarning muhim xususiyatlaridan biri o'quvchilar bilimlarini tizimlashtirish va umumlashtirish asosida yangi bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishadi. Shuning uchun o'quvchilar o'zlarining bilimlariga asoslanib dunyoqarash g'oyalarining umumiyligi belgilari, to moyillari qonuniyatlarini egallash bo'yicha geografik ko'nikmalarga ega bo'lishadi.

**O'quvchilar bilimlarini tekshirish va hisobga olish darslari.** Yirik mavzularni o'rganib bo'lgandan so'ng mazkur darslar o'tkaziladi. Bunday darslar quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: dars maqsadi va vazifasini qo'yish; bilimlarini tekshirish va hisobga olish shakllari va usullari haqida o'quvchilarga ma'lumotlar yoki ko'rsatmalar berish; baholash mezonlarini e'lon qilish.

Mazkur darslarni quyidagi mavzularni o'rganib bo'lgandan so'ng yushtirish mumkin: Yer qobiqlari (5-sinf); har bir materik tabiiy sharoiti; har bir minitaqaning iqtisodiy geografik sharoiti va h.k.

#### 4. Ekskursiya – geografiyani o'qitishning muhim shakli

**Geografik ekskursiyalar** – sinf yoki muayyan o'quvchilar guruhi bilan o'quv dasturiga muvofiq, o'qituvchi tomonidan maktabdan tashqarida tabiiy muhit yoki sun'iy yaratilgan sharoitda obyektlarning yashash muhiti va unga bog'liq holda o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish maqsadida o'tkaziladigan o'quv-tarbiya jarayonining muhim shakli sanaladi.

O'quv ekskursiyalarini umuma'lim maktablari ta'limiy-tarbiyaviy ishlarda katta o'rinn tutadi. O'quv ekskursiyalarida yil davomida olingen bilimlar mustahkamlanadi hamda tabiatda va ishlab chiqarishda mustaqil tadqiqotlar olib borish ko'nikmalarini shakllantiriladi.

**Ekskursiyaning turlari.** Umumiyligi o'rta ta'lim maktablarida ekskursiyalar davomiyligiga ko'ra, bir soatlik, bir kunlik va ko'p kunlik bo'lishi mumkin.

Bir soatga mo'ljallangan ekskursiya – geografiya maydonchasida yoki o'quv tajriba yer maydonchasida o'tkaziladi.

Bir kunga mo'ljallangan ekskursiya – tabiatga, ishlab chiqarish korxonalariga, fermer xo'jaliklariga, hayvonot yoki botanika bog'iga, suv omboriga yushtiriladi, mazkur ekskursiyalar ro'yhati muktab ilmiy bo'lim mudiri tomonidan tasdiqlanadi.

Ko'p kunlik ekskursiya – o'quv yilining oxirida kompleks ekskursiya deb, bunga tarix, geografiya, biologiya, til va adabiyot, jismoniy tarbiya yoki harbiy ta'lim fani o'qituvchilari bilan birgalikda o'tkaziladi. Ko'p kunlik ekskursiya – rejasini pedagogik kengashda tasdiqlanadi.

O'quv ekskursiyalarini maktablarda bahorda va kuzda o'tkaziladi. Ularning asosiy qismi tabiatga, ishlab chiqarish korxonalariga yushtiriladi.

O'quv ekskursiyalarining maqsadi maktabda olingen geografik bilim va ko'nikmalarini yanada mustahkamlash, maktabdan va sinfdan tashqari ishlarda kuzatishlar olib borish ko'nikmalarini shakllantirishdir.

Mazkur maqsadlardan kelib chiqqan holda o'quv ekskursiyalarining asosiy vazifalari quydagilardan iborat:

1. Joyda reja olish va xaritalar bilan ishlash bo'yicha olingen bilimlarini yanada chuqurlashtirish va dala, ya'ni, tabiiy sharoitda topografik va kartografik ishlarini olib borish ko'nikmalarini shakllantirish.

2. Astronomik bilimlarini yanada chuqurlashtirish va osmon jismlari, Oy, sayyoralar va yulduzlar (katta va kichik ayiq, qutb yulduzlarini)ni aniqlash va ularga qarab mo'ljal olish ko'nikmalarini shakllantirish.

3. Joyning relyefini o'rganish hamda relyef to'g'risidagi bilimlar va ko'nikmalarini yanada chuqurlashtirish, dalada mustaqil ravishda relyefning asosiy turlarini o'rganish ko'nikmalarini shakillantirish. Bundan tashqari relyef hosil qiluvchi omillarni ham o'rganish usullari bilan tanishtiradi.

4. Joyning geologik tuzilishini o'rganish metodikasi bilan tanishtirish.

5. Ob-havoni kuzatish va suv havzalarini o'rganish ko'nikmalarini shakillantirish. O'quvchilar ob-havo turlarini aniqlay olishlari lozim.

6. Joyning tuproq qoplamini o'rganish va asosiy tuproq turlarini aniqlash ko'nikmalarini shakillantirish

7. Joyning o'simlik qoplamini o'rganish usuli bilan tanishtirish. O'simliklarni qavatlarga (yaroslarga) bo'lib o'rganish ko'nikmasini shakillantirish.

8. Hayvonot dunyosini o'rganish ko'nikmalarini shakllantirish.

9. Landshaftlarni ajratish ko'nikmalarini shakllantirish.

10. Korxonani o'rganish ko'nikmasini shakllantirish.

Demak, mazkur vazifani bajarish davomida o'quvchilarning olgan geografik bilimlari va ko'nikmalarini yanada chuqurlashadi, ular tabiatni va tabiiy geografik jarayonlarni o'rganish, kuzatish tajribalariga va

ko'nikmalariga ega bo'ladilar. Bu esa keyingi sinflardagi geografik bilimlarni o'zlashtirishga juda katta zamin yaratadi.

O'quv ekskursiyalari tabiiy geografiya kurslari (V-VII sinflar) bo'yicha 4 marta uyuştiriladi, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya kursi bo'yicha 1 marta ishlab chiqarish korxonasiga uyuştiriladi.

O'quv ekskursiyalari quyidagi turlarga bo'linadi:

- tabiiy geografik o'quv ekskursiyalari;
- iqtisodiy va ijtimoiy geografik o'quv ekskursiyalari;
- o'lakashunoslik o'quv ekskursiyalari;
- maxsus o'quv ekskursiyalari (geografik, biogeografik, meteorologik va h.k.).

O'quv ekskursiyalari turi va o'tkazilish joyini geografiya o'qituvchisi tanlaydi.

Tabiiy geografiya o'quv ekskursiyalarining asosiy maqsadi o'quvchilarni maktabda olgan bilim va ko'nikmalarini yanada mustahkamlashdir. Iqtisodiy geografik o'quv ekskursiyalari davomida o'quvchilar ishlab chiqarish jarayonini o'rganishadi va sanoat geografiyasi haqida bilim va ko'nikmalarini kengaytiriladi.

O'lakashunoslik bo'yicha o'quv ekskursiyalari davomida o'quvchilar o'lkanli tabiatni, boyliklari, xo'jaligi, madaniy-tarixiy yodgorliklarini o'rganishadi va tegishli ma'lumotlar yig'iladi.

Maxsus geografik sayohatlar o'qituvchini dasturiga binoan olib boriladi. Ular ko'pincha joyning geologik sharoitini va foydali qazilmalarini, o'simligi va hayvonot dunyosini o'rganishga bag'ishlangan bo'ladi.

O'quv ekskursiyalariga chiqishdan oldin tayyorgarlik ishlari olib boriladi. Tayyorgarlik ishlari quyidagi qismlarga bo'linadi: nazariy, amaliy, tashkiliy.

Nazariy tayyorgarlik jarayonida o'quv ekskursiyada amalga oshiriladigan ishlar xususiyati va turiga ko'ra o'quvchilarni bilimlari mustahkamlanadi. Tabiatga uyuştiriladigan ekskursiyalarni olib borishdan avval sind sharoitida tabiiy geografik bilimlar mustahkamlanadi, ya'ni plan olish, litosfera, gidrosfera, atmosfera, biosfera haqidagi nazariy bilimlar takrorlanadi va mustahkamlanadi.

Amaliy tayyorgarlik bosqichida o'quvchilarga ekskursiya davomida zarur bo'ladigan ish usullari haqida bilim va ko'nikmalar shakllantiriladi. Agar o'quv ekskursiya daryo vodiysi bo'ylab o'tkaziladigan bo'lsa, daryoning ko'ndalang kesimini, suvni tozaligini va sarfini aniqlashni bilishlari va uddalay olishlari lozim. Agar o'quv ekskursiyada plan olish

ko'zda tutilgan bo'lsa, uning turlari bo'yicha amaliy ko'nikmalar shakllangan bo'lmog'i lozim.

Tashkiliy tayyorgarlik quyidagi bosqichlardan iborat:

- o'qituvchi ekskursiyani mavzusini e'lon qiladi. Mavzu tabiiy geografik yoki iqtisodiy geografik bo'lishi mumkin. Masalan, qishloqda suv havzallarini o'rganish, maktab atrofidagi o'simliklarni o'rganish, ishlab chiqarish korxonasini o'rganish;

- o'qituvchi ekskursiyani maqsadi va rejasи bilan o'quvchilarni tanishtiradi. O'quv ekskursiyaining maqsadini o'qituvchi aniqlaydi. Uning maqsadi o'quvchilarga topografik xaritalar bilan joyda ishlash ko'nikmalarini shakllantirish. O'quv ekskursiyaini rejasи bilan o'quvchilarni tanishtirish. Rejada yo'nalish, to'xtash joylari ko'rsatilgan bo'lishi lozim;

- sind ma'lum bir guruhga bo'linadi; har bir guruhda 5-6 tadan o'quvchi bo'lishi lozim. Har bir guruhga rahbar tayinlanadi. Har bir guruhni vazifalar tushuntiriladi;

- o'quvchilar qanday kiyim kiyishi, nimalarni o'zları bilan olib borishini va ekskursiyada o'zlarini qanday tutishlarini va xavfsizlik muhofazasi qoidalariga roya qilishlari haqqa ko'rsatma beriladi.

O'qituvchi ekskursiyani maqsadi va vazifalaridan kelib chiqqan holda jihozlar, priborlar va anjomlar ro'yhatini tuzadi va ularni yig'adi. O'quv ekskursiyalarida quyidagi jihoz asboblar va uskunalar lozim bo'lishi mumkin: kompas, termometr, reyka, arkon, xarita, barometr, tuproq parmasi (bur) va h.k.

O'quv ekskursiyalarini quyidagi hollarda o'tkazish mumkin: yangi mavzuni o'rganishdan oldin; qator mavzularni o'rganib bo'lgandan so'ng.

O'quv ekskursiyalarini muvoffaqiyatlari o'tkazish ekskursiya o'tkaziladigan joyni tanlashga bog'lik. Agar ekskursiyani mavzusi relyef shakllarini o'rganishga bag'ishlangan bo'lsa, iloji boricha relyefi xilma-xil bo'lgan joy tanlanishi lozim. Tog' jinslariga bag'ishlangan ekskursiyalarni o'tkazishda geologik ochilmalar mavjud bo'lgan joylar tanlanadi.

O'quv ekskursiyalari o'tkaziladigan joylarni tanlashda quyidagilarga e'tibor berish lozim:

- tanlangan joy o'quv mavzulari o'quv o'lakashunoslik maqsadi va vazifalariga mos kelishi zarur. Demak, o'lakashunoslik materiallari bilan bevosita bog'liq bo'lgan mavzu va masalalarini o'rganishda;

- o'ziga xos o'quv ekskursiya obyektlari bo'yicha ma'lumotlar to'plash, o'rganish, ularni tasvirlash va bevosita ko'rish imkonini yaratmog'i lozim;

- o'quv ekskursiyalari davomida tarbiyaviy ishlar amalga oshirilmog'i lozim. Masalan, maktab joylashgan qishloq, tuman, shaharda noyob va yo'qolib borayotgan o'simlik va hayvonot dunyosining, noyob tabiat yodgorliklarini mavjudligi va h.k;
- o'quv ekskursiyalarida o'quvchilarni yoshi bilan bog'lik bo'lgan xususiyatlarni hisobga olish;
- geografiya va o'lakashunoslik obyektlarini o'zgarishini o'quvchilar tomonidan qabul qilinishini xissiy-emotsional xususiyatlarini hisobga olish;
- ma'lum bir geografiya predmetlari bo'yicha aniq mavzularning o'quv tarbiyaviy talablarini hisobga olish;
- o'qituvchi va o'quvchilarni o'quv ekskursiyaini o'tkazishga tayyorgarlik darajasini hisobga olish;
- o'quv sayhatlarida ma'lumotlarni yig'ish imkonini hisobga olish. Mazkur ma'lumotlar qayta ishlangandan so'ng ularni kitob shaklida nashr qilish mumkin.

#### **4.1. Tabiiy geografik o'quv ekskursiyalari**

Umumta'lim maktablarida o'quv ekskursiyalarining katta qismi tabiiy geografiya kurslari bo'yicha o'tkaziladi. Shuning uchun tabiiy geografik o'quv ekskursiyalari bo'yicha juda ko'p ishlar amalga oshirilgan.

Tabiiy geografiya o'quv ekskursiyalarini ikkita yirik guruhga bo'lishimiz mumkin:

-umumiyl tabiiy geografik o'quv ekskursiyalari. Bunda ekskursiya davomida o'quvchilar joyni umumiyl tabiiy geografik sharoitini o'rganish ko'nikmalariga ega bo'ladi;

-maxsus tabiiy geografik o'quv ekskursiyalari. Bunday ekskursiyalarda tabiiy geografik sharoitlarni ayrim tarkiblari alohida o'rganiladi. Masalan, relyefi, tuproq, o'simlik va h.k.

**Umumiyl tabiiy geografik o'quv ekskursiyalari** mакtab tabiiy geografiya kurslarining ma'lum bir predmetlarini o'rganib bo'lingandan so'ng uyushtiriladi.

Tabiiy geografik o'quv ekskursiyalari quyidagi tartibda o'tkaziladi:

1. O'quv ekskursiyalariga tayyorgarlik ishlari. Tayyorgarlik ishlariغا quyidagilar kiradi: ekskursiya o'tkaziladigan joyni tanlash va uni xaritasini tuzish yoki xomaki rejasini tuzish; ekskursiyaning vaqtini va davomiyligini aniqlash; ekskursiya uchun zarur bo'lган jihozlar va

priborlar ro'yhatini tuzish va ularni topish; o'quvchilar bilan suhbat o'tkazish, ma'lum bir kichik guruhlarga bo'lish;

2. O'quv ekskursiyasini o'tkazish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: ma'lum bir vaqtida o'quvchilar yig'iladi. Ular bilan yana bir marta suhbat o'tkaziladi. Unda o'quv ekskursiyaining maqsadi va vazifalari tushuntiriladi.

Har bir to'xtalgan joyda quyidagi ishlar bajariladi. Nuqtaning (joyning) geografik o'rni aniqlanadi. Nuqtaning geografik o'rni mакtabga nisbatan, daryoga nisbatan, yo'lga va boshqa tabiiy geografik yoki iqtisodiy obyektlarga nisbatan aniqlanishi mumkin.

Bundan tashqari agar topografik xarita mavjud bo'lsa nuqtaning matematik geografik o'rni ham aniqlanadi. Shundan so'ng nuqtaning umumiyl tabiiy geografik xususiyatlari o'rganiladi. Avval nuqtaning geologik tuzilishi, foydali qazilmalari, relyefi, gidrografik tarmoqlari, tuproqlari, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda landshaftlari o'rganiladi. Demak, umumiyl tabiiy geografik ekskursiyalarda o'quvchilar har bir nuqta yoki joyning umumiyl tabiiy geografik sharoitini o'rganish va baholash ko'nikmalariga ega bo'lishadi. Bu esa yil davomida olgan tabiiy geografik bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash va yanada chuqurlashtirish imkonini beradi.

Joyning geologik tuzilishini o'rganish iloji boricha ochilmalar mavjud bo'lган joyda olib boriladi. Birinchi navbatda, ochilmada qaysi davr yotqiziqlari va qanday tog' jinslari ochilib qolganligi aniqlanadi. Tekislikda ko'proq to'rtlamchi davr yotqiziqlari keng tarqalgan bo'ladi. Tog'li o'lkalarda bir necha geologik davrlarga xos bo'lган ochilmalar bo'lishi mumkin. Ochilmada qanday tog' jinslari joylashganligi aniqlanadi. Ular magmatik, cho'kindi va metamorfik jinslarning qaysi guruhiga mansubligi aniqlanadi. O'quvchilarga ular qanday sharoitda hosil bo'lганligi tushuntiriladi. Cho'kindi jinslar ochilmasi o'rganilayotganda ularni qatlamsimon joylashganligiga o'quvchilar e'tibori qaratiladi va har qatlamdagи jinslarni xususiyatiga qarab ularni qanday sharoitda hosil bo'lганligi tushuntiriladi. Masalan, agar ochilmani tubida shag'al va harsang toshlar qatlami, uning ustida qumlar, qumlarni ustida gillar qatlami joylashgan bo'lsa, demak, dastlab kuchli oqim ta'sirida harsang toshlar oqizib kelingan, so'ngra sokin oqim sharoitida qum qatlami hosil bo'lган. Dengiz yoki ko'l sharoitida, yoki sekin oqadigan ariq, daryo sharoitida gillar qatlami vujudga kelgan.

Joyning foydalı qazilmalari o'rganilganda ekskursiya davomida g'isht xomashyosi, shag'allar, toshlar va qurilish materiallari o'rganilishi mumkin.

Joyni relyefini o'rganishda o'quvchilar diqqatini relyef hosil qiluvchi omillar va asosiy relyef shakillarini ajratishga qaratilishi lozim. Bundan tashqari tashqi kuchlar va inson faoliyati ta'sirida hosil bo'lgan reylef shakillari ham alohida ajratib ko'rsatilishi zarur.

Joydag'i suv havzalari daryo, soy, ko'l, buloq bo'lishi mumkin. Shuning uchun o'quvchilarga gidrografik sharoitni asosiy tarkibiy qismlari haqida gapirib, mazkur tarkibiy qismlarni qaysi biri o'rganilayotgan joyda mavjudligi aytiladi va uni o'rganiladigan o'lchamlari ko'rsatib beriladi.

Joydag'i tuproqlar o'rganilganda ularning asosiy turlariga e'tibor beriladi. O'simliklar o'rganilganda ular uchta qatlama bo'lib o'rganiladi: daraxtlar, butalar, o'tlar; hayvonlarni o'rganishda ular ham guruhlarga bo'lib yuboriladi: sudralib yuruvchilar, tuyqlilar, qushlar.

**Maxsus tabiiy geografik ekskursiyalari** ayrim mavzularni o'tib bo'lgandan so'ng amaliy ko'nikmalarni shakillantirish maqsadida o'tkaziladi. Masalan, litosfera, gidrosfera, atmosfera va biosfera mavzularini o'tib bo'lgandan so'ng uyushtirish mumkin.

Maxsus tabiiy geografik o'quv ekskursiyalarini o'tkazish quyidagi tartibda amalga oshiriladi: o'quv ekskursiyaining maqsadi va vazifalari hamda o'tkazish joyi, vaqt o'qituvchi tomonidan ishlab chiqiladi. O'quv ekskursiyasi haqida va ekskursiya o'tkazish tartibi, qoidalari haqida o'quvchilar bilan suhbat o'tkaziladi.

Maxsus o'quv ekskursiyalari quyidagi mavzularda olib borilishi mumkin: joyning geologik tuzilishini o'rganish; joyning relyefini o'rganish; joynining ichki suvlarini o'rganish; joyning tuprog'ini, o'simlik va hayvonot dunyosini o'rganish; joyning landshaftlarini o'rganish.

Umumiy tabiiy geografik o'quv ekskursiyalaridan farq qilib maxsus tabiiy geografik ekskursiyalarda tabiatni ayrim tarkibiy qitsmlarini juda chuqur va har tomaonlama o'rganiladi. Masalan, joyning geologik tuzilishi ochilma mavjud bo'lgan sharoitda quyidagicha o'rganiladi (B. A. Chernov, 1985)

1. Kundalikda ochilmaning tartib raqami va ochilmani o'rganish vaqt yozipladi, ochilmani geografik o'rni aniqlanadi va kundalikka yozib qo'yiladi.

2. Ochilmani qatlamlarini joylanishini aniqlash. Har bir qatlamning qalinligi va tog' jinslarining holatini o'rganiladi.

3. Ochilmaning kundalikda chizmasini chizish. Har bir qatlanni chizish davomida undagi tog'jinslarining tarkibiga e'tibor berish lozim. Tarkibi nimalardan iborat, qo'shilmlar bormi, bor bo'lsa ularning o'lchamlarini aniqlash. Qatlamlar chizmasida pastdan yuqoriga qarab harflar bilan belgilanadi.

4. Qatlamlardagi tog' jinslarining rangi, tarkibi, qo'shilmlari, xolati tavsifi tuziladi. Masalan, qizil rangli gil, tarkibida mayda shag'al toshlar mavjud, gilning namligi o'rtacha. Gillar plastik xolatda. Qatlamlarni yotish xolati aniqlanadi: gorizontal yoki qiya yotish. Qatlarni qiya yotgan bo'lsa uning qiyaligi aniqlanadi. Agar fotoapparat bo'lsa ochilmani rasmga olish mumkin.

5. Tog' jinslarini namunalari olinadi. Namunalar qopchalarga olinishi mumkin. Agar uning tarkibiy xolati o'zgarmagan xolda olish lozim bo'lsa, o'lchami 10x10x10sm li maydonlar olinib, ular paramanlanadi. Buning parafin (sham) eritilib, dokacha o'ralgan monolit unga botiriladi. So'ngra monolitga etiketka yopishdiriladi. Unda quyidagi ma'lumotlar yozilgan bo'lishi lozim. Monolit olingan ochilmani tartib raqami, tog' jinslarining nomi, olingan chuqurlik, monolit olingan yil, oy, kun.

O'quvchilar ochilmalarni o'rganish ko'nikmasiga ega bo'lganlaridan so'ng bunday ishlarni mustaqil ravishda bajarishlari mumkin.

#### 4.2. Iqtisodiy geografik o'quv ekskursiyalari

Iqtisodiy – ijtimoiy geografik o'quv ekskursiyalari yuqori sinflarda o'tkaziladi va o'quvchilarning iqtisodiy bilim va ko'nikmalari mustahkamlaydi hamda bir vaqtning o'zida iqtisodiy geografik tadqiqotlar olib borish usullarini egallashadi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya bo'yicha o'quv ekskursiyalari ham ikki guruhga bo'linadi: umumiy iqtisodiy geografik o'quv ekskursiyalari; maxsus iqtisodiy o'quv ekskursiyalari.

**Umumiy iqtisodiy-ijtimoiy geografik o'quv ekskursiyalari.** Umumiy iqtisodiy – ijtimoiy geografik o'quv ekskursiyalari o'quv yilining oxirida ma'lum bir predmet to'la o'rganilib bo'lingandan so'ng olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash uchun o'tkaziladi.

Iqtisodiy-ijtimoiy geografik o'quv ekskursiyalari quyidagi tartibda o'tkaziladi.

O'quv ekskursiyalariga tayyorgarlik davrida o'qituvchi ekskursiya o'tkaziladigan joyni tanlaydi, mazkur joyning iqtisodiy geografik sharoiti haqida ma'lumotlarni to'playdi. O'quv ekskursiyai rejasi ishlab chiqladi.

O'quv ekskursiyaini o'tkazish. O'quv ekskursiyai o'tkaziladigan kun belgilangan vaqtida o'quvchilar yig'ilishganda o'qituvchi yana bir marta suhbat o'tkazadi. O'quv ekskursiyaining maqsadi, vazifalari, obyekti va ekskursiya davomida o'quvchilar amal qilishi lozim bo'lgan qoidalar tushuntiriladi. Shundan so'ng o'quv ekskursiyai boshlanadi.

Ma'lum bir joyning ijtimoiy geografik sharoitini o'rganish quyidagi tartibda olib boriladi:

-obyektning iqtisodiy geografik o'rnni aniqlash. Iqtisodiy geografik obyektlarni geografik o'rnni asosiy davlat ahamiyatiga ega bo'lgan avtomobil, havo va temir yo'llarga nisbatan, tuman, viloyat va markazlarni hamda poytaxtga nisbatan, yirik daryolar va dengizlarga nisbatan joylanishi.

-obyektning tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari o'rganiladi. Tabiiy resurslarni o'rganishda ularni quyidagi guruhlarga bo'lib o'rganish maqsadga muofiqdir: yer resurslari, suv resurlari, mineral resurslar, tuproq resurslari, biologik resurslar, rekratsion resurslar;

-aholi va mehnat resurslari quyidagi tartibda o'rganiladi: qishloq yoki maktab joylashgan joy aholisining joylashishi, ularning kasbi, statistik ma'lumotlar asosida aholining boshqa ko'rsatgichlari ham aniqlanadi.

-obyektning xo'jaligi o'rganiladi. Bunda sanoatning asosiy tarmoqlari, dehqonchilik va chorvachilikning qaysi tarmog'i yaxshi rivojlanganligi aniqlanadi va aynan shu tarmoqqa ko'proq e'tibor beriladi.

-agar qishloq yoki maktab joylashgan joy davlat yoki viloyat ahamiyatiga ega bo'lsa, ular haqida ma'lumotlar aniqlanadi. Bunday yo'llar mavjud bo'lmagan tadqiqotlarda qishloqdagi yoki shahardagi yo'llarni o'rnni tavsi fi beriladi.

**Maxsus iqtisodiy geografik o'quv ekskursiyalari.** Iqtisodiy-ijtimoiy geografiya kurslarida maxsus o'quv ekskursiyalari ko'proq o'tkaziladi.

Maxsus iqtisodiy geografik o'quv ekskursiyalarida xo'jalikni ayrim tarmoqlari alohida chuqur va har tomonlama o'rganiladi. Masalan, joyning miniral resurslari; suv resurslari; ishlab chiqarish korxonalarini va h.k

Mazkur o'quv ekskursiyalari davomida o'quvchilarda sanoat va qishloq xo'jaligi haqida chuqur bilim va ko'nigmalar shakilantiriladi.

Sanoat korxonalarini quyidagi tartibda o'rganish mumkin:

1. Korxonaning barpo etilish vaqtini, sabablari, rivojlanishning asosiy bosqichlari.

2 Korxonaning iqtisodiy geografik o'rni; tabiiy obyektlarga nisbatan joylashishi (joy relyefi, suv havzallari, o'rmonlar, foydali qazilma konlari

va h.k); transport yo'llariga, boshqa aholi manzilgohlari va yirik xo'jalik obyektlariga nisbatan joylashishi.

3. Korxonani qaysi vazirlikka bo'yo'so'nishi: tuzilishi; texnologik jarayonining o'ziga xos xususiyati; texnologik jihatdan ta'minlanganligi va avtomatlashtirish darajasi; korxonani ishlab chiqarish aloqalari; fan texnika yutuqlarining qo'llanilishi.

4. Korxonani ixtisoslashuvi va uni asoslash; mahsulot turlari; foydalilanilgan xom-ashyo, yoqilg'i materiallar turlari va ularni tejash; elektrotexnika ta'minoti; chiqindilardan foydalanish.

5. Korxonadagi ishchilar soni va ularni mehnat kategoriyalari, kasblar va malakalar bo'yicha tarkibi; ishchilarni ma'lumotlik darajasi; mehnat va hayot sharoiti va ularni yaxshilash choralar.

6. Mehnat unumdarligi o'sishi; mahsulot sifatini oshirish va tannarxni pasaytirish.

7. Korxonani rivojlantirish yilliklari.

Qishloq xo'jalik korxonalarini quyidagi tartibda o'rganiladi:

1. Qishloq xo'jalik korxonasining (fermer xo'jaligi) vujudga kelish vaqtini va sabablari. Tabiiy sharoitning o'ziga xos xususiyatlari. Tabiiy va iqtisodiy obyektlarga nisbatan geografik joylashishi; suv ayirg'ichda, vodiyya, botiqda, terassada, yoyilmada joylashishi; yo'llarga (asosiy, ikkinchi darajli, temir yo'llar va h.k.) va aholi punktilariga nisbatan joylanishi.

2. Qishloq xo'jaligi korxonasining o'lchamlari: ekin maydoni, aholisi va uning zichligi ( $1m^2$  ga)

3. Fermer xo'jaligining yer fondi, ularning o'lchamlari va turlari. Foydalilanilayotgan yerlar; yaxshilangan yerlar (sug'orilish, qurilish, sho'r yuvish, jarlarni tekislash).

4. Fermer xo'jaligining ixtisoslashuvi (don, sabzavot, texnika ekinlari, bog'dorchilik, uzumchilik).

5. Chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaligi: ixtisoslashuvi (qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik, yilqichilik, parrandachilik va h.k). yem-xashak ta'minoti.

#### 4.3. Tarixiy geografik va o'lkashunoslik ekskursiyalari

Tarixiy geografik va o'lkashunoslik ekskursiyalari umumta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida o'quvchilarni shaxs sifatida shakillanishida muhim rol o'ynaydi. O'lkashunoslik tadqiqotlarida o'quvchilar quyidagi faoliyatini amalga oshirishadi.

1. O'lkashunoslik bilish faoliyati mazkur faoliyat davomida o'lkashunoslari o'lsa to'g'risidagi alohida tarixiy vaqealar va ma'lumotlar haqida bilimlarga ega bo'lishadi. Mazkur faoliyat ma'naviy yo'nalishga va turli xil murakkablikka ega bo'lgan darajalardan iborat. Masalan, o'lkashunoslari haqida oddiy bilimlardan tortib ekspeditsiyalardan olingan murakkab bilimlarga ega bo'ladilar.

2. O'zgartiruvchi faoliyati. Mazkur faoliyat davomida amaliy ma'naviy qadriyatlar barpo qilinadi (ko'rgazmalar, tarixiy o'lkashunoslik burchaklari, maktab muzeylari, memorial taxtalarni tashkil qilish).

3. Qadriyatlarga yo'naltirilgan faoliyat ham asosan ma'naviy xususiyatga ega. Ushbu faoliyat natijasida har qanday shaxs o'zi uchun va jamiyat uchun u yoki bu tarixiy ma'lumotlarni, voqealarni, kishilarning qahramonligini ahamiyatini angaydi. Qadriyatlarga yo'naltiriigan faoliyat ma'naviy qadriyatlarini ishshlab chiqaruvchi, ularni iste'molchisi sifatida ham namoyon bo'ladi. Masalan, urf-odatlarni avloddan-avlodga o'tishi. Bunda katta avlod ma'naviy qadriyatlarni ishlab chiqarisa, yosh avlod uni iste'mol qiladi.

Yuqorida keltirilgan tarixiy-o'lkashunoslik faoliyatining hamma turlari bir-biri bilan chambarchas o'zaro bog'langan va yaxlit faoliyat turi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, maktabda yoki joyda o'lkashunoslik muzeyini tashkil qilish davomida memorial taxta o'rnatish o'zgartirish faoliyatiga kiradi, uni o'rganish uchun yangi bilimlar olish bilish faoliyatiga kiradi, mazkur bilimlar ichidan eng muhimini tanlab olish kadirlar faoliyatiga, shaxslar bilan bo'ladigan muloqatlar esa kommunikativ faoliyatga kiradi.

O'lsa tarixi o'lkashunoslikning murakkab faoliyatiga kiradi. Bunday tarixiy materiallarning hajmi katta tarixiy davrni o'z ichiga oladi.

**Tayanch so'z va iboralar:** O'qitish jarayoni, o'qitish shakllari, dars, dars tiplari, darsdan tashqari ishlari, ekskursiya va sinfdan tashqari mashg'ulotlar, o'zaro uzviy bog'liqligi.

#### **TALABALARING O'ZLASHTIRGAN BILIMLARINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Geografiyanı o'qitishda foydalaniladigan o'qitish shakllarini aniqlang.
2. Darsning darsdan tashqari ishlari bilan o'zaro uzviy bog'liqligi nimalardan iborat?
3. Darsning ekskursiya bilan o'zaro uzviy bog'liqligini isbotlang.

4. Darsning sinfdan tashqari mashg'ulotlar bilan o'zaro uzviy bog'liqligini misollar yordamida isbotlang.

5. Kirish darsi qanday sharoitlarda o'tiladi?
6. Aralash dars qanday tarkibiy qismlardan iborat?
7. Yangi mavzuni o'rganish darsi qanday sharoitda o'tkazidadi?
8. Darsning asosiy turlari chizmasini chizing.
9. O'quv ekskursiyalarini maqsad va vazifalari nimadan iborat?
10. Tabiiy geografik ekskursiyalarning asosiy maqsadi nima?
11. O'quv ekskursiyalariga tayyorlarlikni qanday turlarini bilasiz?
12. O'quv ekskursiyalari o'tkaziladigan joylarni tanlashda nimalarga e'tibor beriladi?
13. Tabiiy geografik o'quv ekskursiyalari qanday turlarga bo'linadi?
14. Iqtisodiy va ijtimoiy geografik o'quv ekskursiyalari qaysi sinflarda o'tkaziladi?
15. Sanoat korxonalari qanday tartibda o'rganiladi?
16. Qishloq xo'jalik korxonalari qanday tartibda o'rganiladi?
17. Tarixiy-geeografik o'lkashunoslik obyektlariga nimalar kiradi?

### **XIII BOB. GEOGRAFIYA DARSLARINI REJALASHTIRISH**

#### **1. Geografiya darsining yillik va kundalik rejasini ishlab chiqish**

Geografiya darslarini rejalashtirish geografiya ta'limidagi muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Ma'lumki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida geografiyanı o'qitishning asosiy shakli dars sanaladi. Darsda o'quv fani yuzasidan asosiy o'quv materiali o'rganiladi, lekin dars o'qitishning boshqa shakllari bo'lgan darsdan tashqari ishlari, sinfdan tashqari mashg'ulotlar va ekskursiyalar bilan uzviy bog'liq. Chunki darsda darsdan tashqari ishlari masalan, geografiya maydonchasida olib borilgan o'chov ma'lumotlari, tayyorlangan ko'rgazmali qurollar, ekskursiyada tayyorlangan gerbariyalar va kolleksiyalardan foydalananiladi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning geografiya o'quv fanlaridan o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga, kengaytirishga, rivojlantirishga, kasbga ongli ravishda yo'llashga xizmat qiladi.

Demak, geografiyanı o'qitishda dars, darsdan tashqari va sinfdan tashqari mashg'ulotlar, ekskursiyalarni o'z o'rniда rejali va samarali tashkil etilishi, ya'ni o'qitishga tizimli yondoshuvni amalga oshirish lozim.

O'qituvchi ushbu mashg'ulotlarni bir-biri bilan uzviy ravishda tashkil etish asnosida geografik ta'lim samaradorligiga erishish, o'quvchilarda

ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, umumgeografik va xususiy tushunchalar hamda o'quv-amaliy ko'nikmalarni izchil ravishda tarkib toptirish, mantiqiy fikr yuritishga o'rgatishni nazarda tutadi.

Geografiyanı o'qitishda tizimli yondoshuvni amalgalashish uchun o'qituvchi o'quv yili boshida yillik reja tuzishi lozim. Mazkur reja geografiyanı o'qitishning barcha shakllarini uzviy ravishda qamrab olishi, o'quv dasturidan o'rın olgan boblar va mavzular bo'yicha darslar tizimi, o'quv yildagi choraklar va ta'tillar hisobga olingan holda o'tkazish muddatlari, fanlararo bog'lanishlar, ekskursiyalar, darsdan va sinfdan tashqari ishlari aks etadi.

Geografiya darslarini rejalshtirish ikki qismidan iborat: yillik va dars rejası, darsning samaradorligi uni qanday rejalshtirilganligiga bog'liq. Mavzuli va dars rejalar qanday mukammal tuzilgan bo'lsa o'quvchilarni bilim va ko'nikmalarni egallashi shuncha tez va oson bo'ladi.

Geografiya o'qituvchisi yillik reja tuzishi uchun:

- o'quv dasturidagi har bir bobning didaktik maqsadini, shuningdek, bobdagi mavzularning ta'limi, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlarini aniq tasavvur qilishi;
- mavzularni o'qitishda yil fasllari, mavzuning ta'limi, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlari, o'quvchilarda shakllantiriladigan geografik tushunchalar, tarkib toptiriladigan ko'nikmalarni hisobga olgan holda o'qitish metodlari, ko'rgazma vositalarini tanlashi;
- o'quvchilar tomonidan o'tkaziladigan kuzatish va tajribalarning mazmuni va muddatlarini aniqlashi;
- darsda namoyish etiladigan tajribalarni avvaldan o'tkazish muddatlarini belgilashi;
- har bir darsda ta'lim-tarbiyaning uzviyligi, boblar, mavzular va fanlararo bog'lanishlarni amalgalashish yo'llarini belgilashi;
- o'quvchilarning mustaqil ishlari uchun didaktik va tarqatma materiallarni tayyorlash, mustaqil o'qish uchun qo'shimcha adabiyotlarni tanlashi;
- amaliy mashg'ulotlar, ekskursiyalarni tashkil etish uchun zarur bo'ladigan jihoz va asboblarini aniqlashi lozim.

Hulosa qilib aytganda, o'qituvchi yillik rejada o'qitish jarayonining yaxlitligini nazarda tutishi, o'z pedagogik faoliyatini shu reja asosida tashkil etishi, unda o'qitishning barcha shakllarining uzviyligini ta'minlagan holda ularni o'tkazish muddatlarini ko'rsatishi lozim.

Hozirgi vaqtida metodika va muktab amaliyotida geografiya bo'yicha o'quvchilar bilan olib boriladigan o'quv ishlaringin quyidagi shakllari

qabul qilingan: dars va ular bilan bog'liq bo'lgan ekskursiyalar, uy vazifalari, darsdan tashqari ishlari va sinfdan tashqari ishlari.

Metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilingan ta'lim jarayonida o'qitishning barcha shakllari – o'qitishning asosiy shakli bo'lgan dars bilan uzviy bog'liq bo'lib, ular geografik tushunchalarni, dunyoqarashni, tafakkurni va amaliy ko'nikmalarni rivojlantiradi.

Yillik rejalshtirishda ma'lum bir geografiya predmeti bo'limlari bo'yicha o'quv yiliga berilgan soatlar hajmi doirasida taqsimlab chiqiladi. Bunda o'qituvchini bilimlar tizimini shakllantirish, mavzular va darslar orasidagi o'zaro bog'liqliklarni aniqlash, tushunchalarni shakllantirish yo'llarini aniqlash va ularni shakllantirishning asosiy bosqichlarini, tayanch bilim va tushunchalarni ajratishni, amaliy ishlari tizimini aniqlashni rejalshtirish ko'zda tutiladi. Mavzuli rejalshtirish quyidagilarni aniqlashga imkon beradi: a) ma'lum bir kurs bo'yicha o'quv jarayonlarini to'la ko'rishga; b) ma'lum bir kurs bo'yicha dars turlarini aniqlashga; v) o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikda faoliyatini, metodlari va usullarini birgalikda qo'llashga imkon beradi. Odatda mavzuli rejalar soatlar hajmi o'zgarmagan taqdirda ayrim o'zgarishlar va qo'shimchalar kiritilgan holda 3-4 yil davomida foydalanishga mo'jallangan bo'ladi.

Hozirgi davrda geografiya dasturlari va predmetlarining asosiy xususiyati ulardagi bilimlarni sinfdan-sinfga murakkablashib borishidir. Shu munosabat bilan har bir geografiya darsi ma'lum bir bilim va ko'nikmalarni o'quvchilar tomonidan mustaqil o'zlashtirishini shakllantirishda alahida bosqich bo'lmog'i lozim. Shuning uchun umuta'lim maktabalaridagi har bir sinf predmeti bo'yicha, bo'limlar va mavzular rejası bir – biri bilan bog'langan tizim deb qaralmog'i lozim. Mazkur tizimning barcha qismlari bir-biri bilan chambarchas bog'langan. Mazkur tizimni ikkita yirik bo'limga bo'lishimiz mumkin: tabiiy geografik va iqtisodiy geografik. Ushbu ikki tizim bir-birini to'ldiradi. Tabiiy geografik tizimning o'zi alohida geografiya predmeti tizimidani, ular esa bo'limlar, mavzular tizimlaridan iborat. Shuning uchun har bir darsni ma'lum bir yaxlitlikni bir bo'lagi bo'lgan tizim deb qarash mumkin.

Darslar tizimida xilma xil dars turlari ko'zda tutilmog'i lozim. Ular turli xil didaktik maqsadlarga ega bo'lishi mumkin. Ayrim darslarda faqat yangi materialni o'rganish mumkin, ayrimlarida darsni hamma qismlari bo'lishi mumkin, ya'ni, tashkiliy qism, bilimlarni tekshirish yangi mavzuni o'rganish, olingan bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash, uygaga vazifa berish.

Yuqoridagi fikrlar e'tiborga olingan holda geografiyani o'qitishda foydalaniladigan yillik rejani tuzish uchun quyidagi 10-jadval namuna sifatida berilmoqda.

10-jadval

**Geografiyadan yillik o'quv reja**

| Boblar<br>va<br>mavzular | Soat | Sana | Sinf | Foydalanil<br>adigan<br>metod | Eks-<br>kur-<br>siya | Sinfdan<br>tashqari<br>ishlar | Uyga<br>vazifa | Izoh |
|--------------------------|------|------|------|-------------------------------|----------------------|-------------------------------|----------------|------|
|                          |      |      |      |                               |                      |                               |                |      |

O'quv yili uchun tuzilgan yillik reja qat'iy emas, unga yil davomida muayyan holatlarni hisobga olgan holda tegishli o'zgartirishlar kiritish, ekskursiya va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o'tkazish muddatlar o'zgartirilishi mumkin.

**Dars rejasি.** Dars rejasи har bir ajratilgan soat doirasidagi mavzuga tuziladi. Dars rejasи quyidagi qismlardan iborat bo'ladi. Darsning mavzusi: darsning maqsadi; kompetensiyalar; darsning jihizi; darsda qo'llaniladigan o'qitish metodi; o'tilgan mavzuni mustahkamlash; dars mavzusida uchraydigan geografik nomlar tizimi; dars mavzusining qisqacha tavsisi; yngi mavzuni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlartizimi; uyga vazifa berish.

## 2. O'qituvchining darsga tayyorgarligi

O'qituvchi har bir darsga chuqur va to'la tayyorlanmog'i lozim. O'qituvchini darsga tayyorgarligi quyidagi qismlardan iborat: darsni maqsad va vazifalarini aniqlash; darsning mazmunini aniqlash; o'qitishni metodlarni aniqlash; o'qitish vositalarini tanlash; darsni tarkibiy tuzilishini aniqlash. Darsni maqsadi bu mazkur dars davomida o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida o'quv tarbiya va rivojlantirish bo'yicha erishadigan oldindan rejalashtirilgan yakuniy natijadir. Darsning maqsadi mazkur mavzu bo'yicha dasturdagi va darslikdagi materiallar mazmunini ishlab chiqish asosida aniqlanadi. Darsning maqsadini aniqlash uni mazmunini ishlab chiqishga, o'qitish materialini tanlashga va darsni borishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Maqsad aniqlangandan so'ng ushbu maqsadga erishish uchun darsning tuzilishi ishlab chiqiladi. Darsning maqsadini aniqlash quyidagi talablarga javob berishi mumkin:

- darsning maqsadi juda qisqa shaklda ifodalangan bo'lmog'i lozim;
- darsning maqsadida o'quvchilar qanday bilimlarni egallashlari, qanday ko'nikmalar shakllantirilishi ifodalangan bo'lmog'i lozim;

➤ darsda qanday bilim va ko'nikmalarni shakllantirilishi yoki ularni chuqurlashtirish ko'rsatilishi lozim.

**Darsning mazmunini aniqlash.** Darsni mazmunini quyidagi bilim manbalar asosida aniqlash mumkin:

➤ darslik asosida. Darslikda har bir mavzu uchun alohida matn ajratilgan bo'ladi. Matn, rasmlar, chizmalar va jadvallar bilan jihozlangan bo'ladi. Matnni oldida o'tgan darsga doir yoki matnni mazmunini tushunishni yengillashtiradigan savollar beriladi. Matnni oxirida esa olingan bilimlarni va ko'nikmalarni mustahkamlash uchun savol va topshiriqlar tizimi beriladi;

➤ mazkur kurs uchun nashr qilingan metodik qo'llanmalarda har bir mavzu yoki bo'limni o'qitish metodikasi bo'yicha tavsiyalar berilgan. Demak, darslik bilan birga metodik qo'llanma ham dars mazmunini ishlab chiqishda asosiy manba bo'lishi mumkin;

➤ qo'shimcha adabiyotlar dars mavzusi mazmunini ishlab chiqishda muhim manba bo'lib hisoblanadi. Masalan, O'zbekiston iqtisodiy rayonlari o'rganayotganda har bir viloyat bo'yicha chiqarilgan kitob va risolalardan foydalanish mumkin. Materiklar va okeanlar kursini o'rganayotganda har bir materik yoki okean tabiiy sharoitiga bag'ishlangan kitoblardan foydalanish mumkin;

➤ kundalik matbuot. Radio va tileyideniya ma'lumotlaridan ham dars mazmunini ishlab chiqishda foydalanish mumkin;

➤ dars yana qiziqarliroq o'tishini ta'minlash uchun sayyoхlar va olimlarning esdaliklari, turli xil xalqlarning urf-odatlari haqidagi ma'lumotlardan foydalanish ham katta natija beradi.

Dastlab darsni ta'limiy va g'oyaviy mazmuni ishlab chiqiladi. Dars nihoyatda murakkablashib, materiallar ko'payib ketmasligi uchun o'quv mavzusi mazmuni ishlab chiqilayotganda asosiy, ikkinchi darajali va qo'shimcha materiallar ajratiladi. Ikkinchi darajali va qo'shimcha materiallar darsni asosiy mazmunini oydinlashtirish va chuqurlashtirish maqsadida ishlatiladi. Ayrim xollarda darsda ko'zlangan materiallarni o'rganib bo'lmaydi, bunday xollarda qolgan material uygaz vazifa sifatida beriladi va uni o'quvchilar mustaqil o'rganishadi.

Dars mazmuni ishlab chiqilgandan so'ng o'qituvchi uni bayon qilish rejasini ishlab chiqadi.

**O'qitish metodini tanlash.** O'qitish metodlarini tanlash darsni maqsadi va o'quv materiallari mazmuniga bog'liq.

O'qitish metodini tanlash o'rganiladigan mavzuni mazkur kursda tutgan o'miga bog'liq. Ma'lum bir kursni o'rgangan sari o'quvchilarni

bilimlari ortib boradi, shundan so‘ng reproduktiv usulni qo‘llash mumkin. Bundan tashqari ijodiy usullarni ham qo‘llash mumkin. Masalan, O‘zbekiston tabiiy geografiyasini ikkinchi regional qismini o‘quvchilar xaritalar yordamida mustaqil o‘rganishlari mumkin. Xuddi shunday ishlarni o‘quvchilar jahonnning iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasini alohida davlatga bag‘ishlangan qismini o‘rganishda ham amalga oshirishlari mumkin. O‘qitish metodlarini tanlashda o‘quvchilarni yoshlari ham hisobga olinmog‘i lozim. Quyi sinf o‘quvchilari uzoq vaqt diqqat bilan eshita olishmaydi. Tez toliqishadi va zerikishadi. Shuning uchun quyi sinflarda o‘qituvchi o‘qitish metodlarini tez-tez o‘zgartirib turishi zarur. Bunda o‘yinlardan foydalanish katta samara beradi, chunki bunday sharoitda o‘quvchilar toliqmaydi va kerakli bilim va ko‘nikmalarini tez o‘zlashtiradilar.

**Dars uchun o‘quv vositalarini tanlash** ham muhim ishlardan hisoblanadi. O‘quv vositalarini tanlash o‘qituvchi uchun uncha murakkab bo‘lmagan ish hisoblanadi, chunki dasturda har bir mavzu bo‘yicha zarur bo‘lgan o‘quv vositalarining turlari berilgan bo‘ladi. O‘qituvchini vazifasi ulardan darsning qaysi qismida va qanday foydalanishni aniqlash hisoblanadi. O‘quv vositalari bo‘yicha savollar va topshiriqlar ishlab chiqiladi. Bu esa o‘quvchilarni bilim va ko‘nikmalarini egallahlarini osonlashtiradi.

O‘quv vositalarini tanlaganda quyidagilarni hisobga olish zarur:

- o‘quv vositalari darsni mazmuniga mos bo‘lishi lozim;
- o‘quv vositalari tanlangan o‘quv metodi mazmunini to‘ldirishi zarur;
- o‘quv vositalari o‘quvchilarni yoshiga va qobiliyatlariga mos tushishi lozim;
- o‘quv vositlari amaliy va mustaqil ishlarni olib borish uchun imkon yaratishi lozim;
- o‘quv vositalari o‘quvchilarni bilim va ko‘nikmalarini egallahlarini osonlashtirishi lozim.

O‘qitish metodi va vositalari to‘ri tanlangan darsning samaradorligi yuqori bo‘ladi.

### 3. Geografiya darsi tahlili va tahlilga qo‘yiladigan talablar

Dars tahlili o‘qituvchilar ortasida o‘zaro tajriba almashish, pedagogik mahoratni tahlil qilisg‘ va o‘rganish, turli metodlardan dars jarayonida foydalanish yo‘llarini o‘rganish kabi bir qancha maqsadlarda amalga oshiriladi. Geografiya darsining tahlili quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Maktab, sinf, fan oqituvchisining familyasi, ismi.
2. Dars mavzusi, uning maqsadi va vazifalari.
3. Darsdagi o‘quv materialining mazmuni, ilmiyligi, dasturga muofiqligi, tarbiyaviy yo‘nalishi, dars mazmunida nazarya bilan amaliyotning aloqadorligi.

4. Darsning borishi, izchilligi va uning qisimlari o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqligi, o‘quvchilar bilimini tekshirish, ta’lim metodlarining tanlanishi. Dars samaradorligini oshirishga qaratilgan talablar. O‘quvchilarning faoligini oshirish, o‘quvchilar ulgurmasligini oldini olish uchun ko‘riladigan tadbirlar.

5. O‘quvchilarni mustaqil ishlarni tashkil qilishda o‘qituvchining rahbarligi: oqituvchining ish metodi, maqsadga erishishda qatiyatligi, o‘quvchilarga nisbatan talabchanligi, ularni nazorat qilib turishi, o‘qituvchining nutqi, madaniyati, pedagogik mahorati va h.k.

6. Darsda o‘quvchilarning mustaqil ishlari, darsga qiziqishi, ular bilish faoliyatining faolligi, o‘quvchilarni bilim olishga jalb etish metodlari.

7. Dars natijasi, ijobjiy tamoni va kamchiliklari. Dars bo‘yicha umumiy xullosa. Shu dars mavzusni bo‘yicha o‘qituvchining ishini yaxshilash, o‘quvchilar faolligini oshirish bo‘yicha fikr va mulohazalar, tavsiyalar.

### O‘qituvchining darsini kuzatish tartibi quyidagicha amalga oshirildi:

1. Darsga tayyorlanishi: darsning talimiy va tarbiyaviy ahamiyati, darsning reja-ko‘chirmasi, o‘quv qo‘llanmalari, sinf xonasini tayyorlash, o‘qituvchining darsga tayyorligi.

2. Darsning boshlanishi va uning tashkiliy qismi: sinf darsga tayyormi? Zarur xaritalar osilganmi? Sinf doskasi tayyormi? Texnika vositalari tayyormi? Darsga nisbattan sinf o‘quvchilarining kayfiyati qanday?

3. Uy vazifalarini tekshirish: tekshirish metodi, tekshirish jarayonida o‘quvchilar holati, uy vazifasini bajarmagan o‘quvchilar holati.

4. Tekshirilayotgan bilimning yangi mavzu bilan bog‘liqligi, bilimlarni tekshirishda xarita va boshqa o‘quv vositalaridan foydalanish ahvoli, o‘qituvchi bahosini obyektiv qo‘yilganligi, ko‘nikmalarini egalash ahvoli.

5. Yangi materialni o‘rganish: o‘quvchilarni dars mavzusini bilan tanishtirish. Yangi materialni maqsadini ochib beradimi? Yangi materialni o‘rganish va tushuntirish tartibi. Yangi materialni ta’limiy-tarbiyaviy ahamiyati. O‘rganiladigan tushunchalar, atamalar va nomlar.

6. O'rganilgan darsni mustahkamlash, yangi mavzu qaysi savollari orqali mustahkamlanadi. Mustahkamlashda qanday metodlar qo'llaniladi. Mustahkamlash jarayonida maqsadga erishildimi?

7. Dars davomida bajarilgan amaliy va mustaqil ishlar.

8. Uy vazifasi topshirig'ining mazmunida darslik va xaritalardan foydalanish ko'rinishlari mavjudmi? Uy vazifasini bajarish bo'yicha ko'rsatmalar berildimi?

### Dars tahlilining tahminiy mazmuni

#### I. Darsga tayyoragarlik:

- darsning mavzusi;
- darsning maqsadi;
- darsga oid o'quv qurollari;
- darsga o'quvchilar tayyorligi.

#### II. Darsning boshlanishi:

- o'quvchilar intizomi;
- dars mazmunining hozirgi zamon geografiya fani bilan bog'liqligi;
- yangi mavzu bilan o'tilan mavzuni bog'lanishi.

#### III Oquvchilarning bilimi, ko'nikma va malakalarini tekshirish

- o'quvchilar bilimini tekshirish uchun savvillarning qo'yilishi;
  - o'quvchilar malakasini tekshirish uchun savollar;
  - qoyilgan savollarning o'quvchilar saviyasiga mosligi
  - savollarni yechishda o'quvchilar faolligi va bu borada ko'rilgan tadbirlar
- so'rash shakli – yalpi, kichik guruhlarda, yakka

#### IV. Yangi mavzuni o'rganish:

1. o'quvchilarning yangi bilimlarni o'rganishini tashkil qilish bo'yicha o'qituvchi ish metodlarini o'rganish;
2. o'qituvchining yangi bilimlar mazmunini bayon qilishni baholash:
  - ta'lim- tarbiyaviy;
  - darsning umumiyligi;
  - fanlararo aloqlar o'rnatish;
  - o'rganilayotgan materiallarning amaliy ahamiyati;
  - tayanch bilimlarni ishlata olish;
  - yangi materiallarni bayon etish usul va metodlari;
  - amaliy ishlarni tashkil etishda ko'rgazmalilikdan foydalanish;
  - mustaqil ishlar tashkil etish;
  - o'quv materiallarning o'quvchilar yoshiga mosligi;
  - o'quvchilar bialn yakka tartibda ishslash;
  - yaxshi o'zlashtiruvchi o'quvchilar bilan ishslash;

➤ texnika vositalaridan foydalanish.

#### V. Darsning barcha boshqichlarida o'quvchilar ishlarini baholashda quyidagilarga e'ibor qaratmoq lizim:

- o'quvchilar diqqti faolligi;
- o'qituvchi savollariga javob berish tezligi ;
- o'quvchining o'tirib javob berishdagi holati bilan taxta oldida javob berishni qiyoslash;

- javobni xarita bilan bog'lay olishi;
- o'quv materiallarini tartib bilan yorita olish.

#### VI. Yangi materiallarni mustahkamlash:

- Dars rejasida yangi materiallarni mustahkamlashning o'rni;
- O'quv materialini mustahkamlash metodi (suhbat o'quvchilarning mustaqil ishlari va h.k.).

#### VII. Uyga vazifa:

- ✓ darsda uy vazifasini o'rni ;
- ✓ uy vazifasining o'quvchilarga tushunarli bo'lishi;
- ✓ uy vazifasini bajarishni yangi yo'llari;
- ✓ uy vazifasini bajarish uchun o'qituvchining yo'l yo'riqlari va ko'rsatmalar;
- ✓ uyga vazifani bajarishda juda ko'p vaqtini olmaydimi;
- ✓ uy fazifasini bajarishda qanday ko'nikmalar egallash mumkun?

#### VIII. O'qituvchining pedagogik mahorati

- ✓ o'qituvchi qiyofasi, dars berishdagi mustaqilligi fikrni to'liqligi, bilim darajasi;
- ✓ o'zini va sinfni boshqara olish intizomini yo'lga qo'yishi;
- ✓ o'quvchilar bilan muomlesi, pedagogik takt;
- ✓ o'qituvchi nutqi ravonligi;

#### IX. Darsga umumiy baho berish va xullosalash

- ✓ qo'yilagan maqsad va ta'lim-tarbiyaviy vazifani amalga oshirish;
- ✓ o'quvchilar qanday yangilikga erishdilar;
- ✓ qanday bilimlar tizmланди;
- ✓ darsga qo'yilgan vazifalarning (ta'limning, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi) bajarilishi;
- ✓ o'qituvchi faoliyatni (talimiy va tashkiliy ta'lim maqsadi, vazifalari) metodlariga javob bera oladimi;
- ✓ o'qituvchining qaysi xislatlari ijobjiy?
- ✓ o'qituvchinig sizga yoqmagan tamonlari;
- ✓ darsni tashkil etishdagi takliflar;
- ✓ darsning bahosi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Geografiyadan yillik reja va mavzuli-taqvim reja, bob, mavzu, geografik tushuncha, dars, laboratoriya mashg‘uloti, amaliy mashg‘ulot, dars tahlili.

## TALABALARING O‘ZLASHTIRGAN BILIMLARINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Geografiyadan yillik istiqbol reja tuzishning ahamiyatini aniqlang. Mazkur rejani tuzishda o‘qituvchi nimalarni nazarda tutishi lozim?
2. Geografiyadan mavzuli-taqvim reja tuzishning mohiyatini aniqlang.
3. Mavzuli-taqvim reja tuzishda o‘qituvchi nimalarga e’tiborini qaratishi zarur deb hisoblaysiz?
4. O‘quv dasturidagi boblar va mavzular o‘quvchilarda geografik tushunchalarni shakllantirish tizimi qanday ekanligini aniqlang?
5. Geografiyadan laboratoriya va amaliy mashg‘ulotlarning maqsadi, vazifalari, ta’lim-tarbiya jarayonida tutgan o‘rnini belgilang.
6. Geografiya o‘quv fanlarining dasturlarini tahlil qiling va istiqbol, mavzuli-taqvim reja tuzing.
7. Geografiya darslarini tahlil qilishda darsning qaysi jihatlariga asosiy e’tibor qaratish lozim?
8. O‘rtog‘ingiz tomonidan tashkil etilgan sinov darsini tahlil qiling va ular bilan fikr almashing.

## XIV BOB. BILIM, KO‘NIKMA VA MALAKALAR, QO‘YILADIGAN TALABLAR VA SHAKLLANTIRISH METODIKASI

### 1. Bilim, ko‘nikma va malakalar va ularga qo‘yiladigan talablar

Umumiy o‘rta ta’lim maktabalarida geografiyanı o‘qitishning asosiy maqsadi DTS bilan me’yorlangan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish sanaladi.

Shu sababli, geografiya o‘qitish metodikasining asosiy muammolaridan biri o‘quvchilarda ta’lim mazmunining asosiy tarkibiy qismi bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish masalasi hisoblanadi va mazkur masala juda ko‘p geograf-metodistlar tomonidan tadqiq etilgan.

O‘quvchilarda bilimlarni shakllantirish uchun, avvalo uning ta’rifini bilib olish zarur.

Bilim – narsa va hodisalarning muhim belgi va xususiyatlari, jarayonlar va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlar to‘g‘risida fan tomonidan aniqlangan tushunchalardan tarkib topadi.

Demak, bilim – tushunchalar tizimidan iborat bo‘lib, tushunchalarni shakllantirish muammosi yetakchi o‘ringa chiqadi.

Geografik tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish geografik ta’lim va tarbiyaning harakatlantiruvchi kuchi, o‘quv materiali mazmunining asosiy birligi sanaladi.

**Tushuncha** – narsa va hodisalarning umumiylarini belgilarini aks ettiruvchi fikr. Tushunchalar mohiyati jihatidan *aniq* va *mavhum* tushunchalarga ajratiladi.

Bir butun narsaga aloqador tushuncha ***aniq tushuncha*** deyiladi. Masalan, Yevrosiyo, Afrika, Appalachi, musson, bosim va h.k.

Moddiy borliqdagisi narsalarni ajratib olingan ba’zi xususiyat, ya’ni, sifat va xolatlari, shuningdek narsalar o‘rtasidagi ichki munosabatlarga, qonuniyatlarga qaratilgan tushunchalar ***mavhum (abstrakt) tushunchalar*** deb ataladi. Masalan, kenglik, uzunlik, balandlik, tog‘lik, ixtisoslik, bozor va h.k.

Tushunchalar yangi tushunchalarni egallash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi va tushunchalar o‘rtasida to‘g‘ri aloqadorlik o‘rnatishni ta’minlaydi.

Tushunchani egallash deganda: uning mazmuni hamda u bilan bog‘liq bo‘lgan tasavvurlarni egallash tushuniladi. Geografiya kursidan har bir tushuncha oquvchilar ongida turli metodlar, usullar orqali shakllantiriladi. Buni har bir narsa, voqeа, hodisaning mazmuni belgilaydi.

Geografik tushunchalarni egallashning eng asisiy tomoni shundaki, ularga ta’rif bermay turib ularni egallab bo‘lmaydi. Geografik tushunmchalarni induktiv va deduktiv yo‘llar bilan tushuntirilishi mumkin (11-jadval).

11-jadval

### **Geografik tushunmchalarni induktiv va deduktiv yo‘llar bilan tushuntirilish**

| T/r | Induktiv   | Deduktiv  |
|-----|--|---|
| 1   | Geografik obyekt va hodisalarni kuzatish                 | Tushunchaning ta’rifini berish                                  |
| 2   | Ularni taqqoslash orqali tushuncha belgilarini ajratish  | Tushunchaga xos bo‘lgan asosiy belgilarini ajratish va egallash |
| 3   | Umumlashtirilishi  | Tushuncha aloqadorligini aniqlash                               |
| 4   | Tushunchaga ta’rif berish bo‘yicha bajariladigan ishlari | Mashqlar orqali tushuncha belgilarini mustahkamlash             |
| 5   | Tushuncha haqidagi bilimni amalda qo‘llash               | Yangi o‘quv vaziyatida tushunchani qo‘llash                     |

Yuqoridagilarga erishish uchun o'quvchilarda bilish faoliyatini tashkil etish zarur. O'quvchilarning bu faoliyatini tabiiy geografik va iqtisodiy geografik bilim manbalariga, juladan, geografik xarita, statistik ma'lumotlar, kuzatish va tajriba natijalariga tayanmasdan tashkil etib bo'lmaydi. Geografik tushunchalarni egallashdagi ikkinchi muhim xususiyat ilmiy tushunchalarning bir-biri bilan bog'lanib tizim hosil qilganlidadir. Masalan, maktab tabiiy geografiya kurslari Yer tabiatiga, geografik qobiq, uning tarkibi va rivojlanishiga oid bo'lgan yagona bilimlar tizimiga ega. Shu tufayli ham tabiiy geografik tushunchalar mantiqan va geografik mazmun jihatdan bir-biri bilan bog'liq. Bunga misol tariqasida "geografik qobiq", "tabiiy hududiy kompleks", "tabiat komponentlari" va boshqalarni keltirish mumkin. Geografik tushunchalarni shakllantirish uzoq muddat talab qilinadigan jarayon bo'lib, bir necha kurs davomida o'rganiladi. Masalan, ekologiya tushunchasini shakllantirish. U quyidagi sinflardan boshlanib, yuqori sinfgacha davom etadi. Geografik tushunchalarni shakllantirish jarayoni boshqarilish xususiyatiga ega bo'lib, uni o'qitivchi amalga oshiradi. O'qituvchi darslik va darsliklar asosida tushunchalarni ajratadi, ularni egallah, mustahkamlash va amalda qo'llash bosqichlarini belgilaydi, hamda o'quvchilarning tushuncha mazmunini qanday egallah zarurligini ta'minlaydi. Geografik tushunchalar ta'lim jarayonida sekin-asta rivojlanadi. Darsda shu narsaga e'tibor berish kerakki, umumiyligi tushunchalarni shakllantirish yakka tushunchalarga tayanmasdan amalga oshmaydi. Masalan, O'zbekiston relyefi tushunchasi shu paytda yaxshi shakllantirilishi mumkinki, qachonki o'quvchilarda relyef va relyef hosil qiluvchi omillar haqida tushunchalar mavjud bo'lsa. Quyida O'rta Osiyo tabiat tushunchasini shakllantirish jarayonini misol tariqasida keltiramiz. Tahsil va abstrakt (mavhum) dan foydalanib, o'quvchilar hayolan O'rta Osiyonini qismrlarga bo'ladilar. O'rta Osiyonining tog'li qismi va ularning elementlarini (relyefi, iqlimi) bilan tanishish o'quvchilarni O'rta Osiyonining tabiat komponentlari orasidagi aloqadorlikni bilib olishiga yordam beradi. O'rta Osiyo relyefi, iqlimi, suvlari, tuproqlari, o'simliklari va hayvonot dunyosini boshqa hududlarning ushbu komponentlari bilan qiyoslash orqali ularning o'ziga xos bo'lgan umumiyligi xususiyatlarini ajratadilar. Keyinchalik esa deduktiv yo'l bilan tabiat komponentlari haqidagi umumiyligi tushunchalarga tayanib ular o'tasidagi aloqadorlik va bog'liqlikni ajratadilar. O'rta Osiyo tabiatini boshqa hududlar tabiatini bilan taqqoslash orqali O'rta Osiyo tabiat kompleksi degan to'liq tushunchani egallaydilar.

Geografik obyektlarni ko'rgazmali qurollarsiz va xaritasiz o'rganish ularga xos bo'lgan belgilarni ajratishni birmuncha qiyinlashtiradi. Xarita va ko'rgazmali qurollar o'rganilayotgan obyektga doir muhim belgilarni o'zida mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. Yakka tushunchalarni shakllantirish uchun o'quvchilar hayolan shu obyektni xarita bilan bog'lay olish kerak. Shu tufayli ham xarita yakka tushunchalarni shakllantiruvchi asosiy manbadir. Faqat xarita orqaligina istalgan geografik obyektning geografik o'rni xos bo'lgan belgilarni ajratish va shu hududning ichki xususiyatlarini ajratish imkoniyatlari tug'uladi.

Taqqoslash geografik tushunchalarni shakllantirishda katta ahamiyatga ega. O'quvchilar o'zlariga tanish obyektlarni o'rganilayotgan obyektlar bilan taqqoslash orqali ularga xos bo'lgan belgi va xususiyatlarni bilib oladilar. Masalan, Amudaryo va Sirdaryoni taqqoslashda har ikkala daryoning shumolga oqishini, uzunligi deyarli tengligini, ularni baland tog'lardan boshlanishini, to'yinishini hamda deyarli bir xil ekanligini aniqlaydilar. Obyektlar komponentlarini oddiy qiyoslash orqali o'qituvchi murakkabroq taqqoslashga o'tadi. Masalan, nima uchni ularning shimalga tomon oqishi sabablarini, irmoqlari, Amudaryo suvining nima sababdan Sirdaryoga nisbatan loyqa ekanligi kabi ko'plab xususiyatlarini ajratadilar. Tushuncha quyidagi xollarda o'quvchilar tomonidan egallangan hisoblanadi:

1. O'quvchi tushunchaga ta'rif bera olsa (agar u umumiyligi tushuncha bo'lsa).

2. Tushuncha mazmuniga xos bo'lgan belgilarni ajrata olsa, tushuncha belgilari o'tasidagi aloqadorlik va bog'liqlikni farqlay olsa.

3. O'rganilayotgan geografik obyekt yoki hodisa haqida o'quvchi obrazli tasavvurga ega bo'lsa.

4. O'quv vazifalarini bajarishda tushunchani mustaqil qo'llay olsa.

Tushunchaning muvoffaqiyatlari o'zlashtirilishi uchun o'quvchilar e'tiborini tushuncha belgilarni tahsil qilishga qaratishi kerak. Ishning bunday tashkil qilinishi o'quvchilarni obyekt va hodisalardagi eng muhim va ikkinchi darajali belgilarni ajratishlari, ularni taqqoslashga va guruhlashga o'rgatadi. Bunda ekskursiyalar, joyda amaliy ishlar uyushtirish katta rol o'ynaydi. O'quvchilarni umumiyligi tushunchalarni mustaqil qo'llay olishi uchu reprodektiv metod va ijodiy hamda muammoli topshiriqlarni (qisman o'zgaruvchan va tadqiqot metodlari) bajarishga o'rgatish kerak.

Geografiyanı o'qitishda bilimlarni amalda qo'llash o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu quyidagi yo'nalishlarda bo'lishi mumkin:

1. Amaliy topshiriqlarni, masalan, yer osti suvlarining harakatini, chiqurligini aniqlash, daryoning suv sarfi, o'rtacha chuqurligini aniqlash va boshqalar.

2. Geografik bilimlarni tabiat hodisalari va voqealarini tushuntirishda (yil fasllarining almashinishi yoki siyosiy xaritalarni o'zgarishi) ishlatis mumkin.

3. Bilimlarni qo'llash avval o'zlashtirgan bilimlarni va yangi bilimlarni egallash jarayonida ham ishlatis mumkin.

Iqtisodiy geografik tushunchalarni shakllantirish ham o'ziga xos bo'lib, odatda u uchta bo'g'indan iborat bo'ladi.

a) Kirish. O'quvchilar bu bo'g'inda dastlab mamlakat yoki hududning boshqa mamlakatlar va hududlar o'rtaida tutgan o'mni, maydoni va aholisi, tabiiy boyliklari, mehnat resurslari bilan ta'minlanishi, xalq xo'jaligidagi ixtisoslik tarmoqlarining tutgan o'rniga oid ma'lumorlar bilan tanishadilar.

b) Mamlakat yoki hududning iqtisodiy geografik ta'rifiga ega bo'lgan xususiyatlari bilan tanishadilar. Shu bo'g'inda to'liq tushunchaga ega bo'ladi.

c) Mamlakat yoki iqtisodiy rayonni boshqa iqtisodiy rayon va mamlakatlarga qiyoslash orqali tushunchani amalda qo'llashga erishadi. Har bir bo'g'in har xil ishlashni talab qiladi.

## 2. Amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodikasi

Geografik ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodikasi bilim egallash, ko'nikma va malakan shakllanishi bilab chambarchas bog'liq. O'quv ishlari metodikasini bilish ko'nikmalarni shakllantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ilg'or geografiya fani o'qituvchilar va metodistlar o'quvchilar amaliy tayyorlarligiga katta e'tibor beradilar. Maktab geografiyasida shakllantiriladigan ko'nikmalar mazmun va murakkablik darajasiga ko'ra farq qiladi. Masalan, ufq tomonlarini aniqlash oddiy ko'nikma bo'lsa, topografik planni o'qish va uni tuzish esa murakkab ko'nikma hisoblanadi. Geografiya o'qitish metodikasida shakllantiriladigan ko'nikma va malakalarning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini to'laligicha ochib bergan va o'quvchilarga yetkazish metodlarini ham ishlab chiqqan. Faqat geografiya ta'limiga xos bo'lgan amaliy ko'nikma va malakalarga quyidagilar kiradi: joyda mo'ljal ola bilish, joy planini tuzish, topografik plan va turli mazmundagi geografik

xaritalarni o'qish, tabiatda va ishlab chiqarishda kuzatish natijalarini yozib borish va qayta ishlash, statistik iqtisodiy materiallar bilan ishlash va h.k.

Har bir geografik ko'nikmani shakllantirish murakkab harakat tizimlarini talab qiladi. Odatda ko'nikma va malakalar bir vaqtning o'zida ongli ravishda, ba'zilari bevosita, ammo ong nazorati ostida bajariladi. Masalan, topografik planni o'qish ko'nikmasi o'z ichiga yo'naliishlarni aniqlash, masshtab yordamida plandagi masofalarni o'lehash, topografik belgilarni o'qish, joyda obyektlar o'rtasidagi aloqadorlikni o'rnatish kabilarni o'z ichiga oladi. Yuqoridagilardan topografik belgilarni ishlatishni bilishgina malaka darajasini ko'rsatadi. Ob-havoni kuzatish ko'nikmasi deganda esa termometr, barometr, flyuger bilan ishlash, bulutlar shakli va turlarini, ob-havoning boshqa alomatlarini aniqlash tushuniadi. Shular qatorida ob-havo haroratini aniqlash va barometr bilan ishlash malaka darajasigacha ko'tarilishi mumkin.

Geografik ko'nikma va malakalar ko'p xollarda bilim sifatini belgilaydi. Tajribalar shuni ko'rsatyaptiki, qayerda o'quvchilarda xarita bilan ishlash ko'nikmasi shakllantirilsa, ularning javoblari ham xarita bilan bog'langan bo'ladi. Xarita bilan ishlash ko'nikmasini egallay olmagan o'quvchilardagi bilimlar quruq, o'qituvchi bayoni yoki kitobdan o'qiganlarni takroridan iborat bo'lib qoladi.

Geografik xaritalarni o'qiy olishga o'rgatilgan o'quvchilardagi harakat yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Aksariyat o'quvchilar va talabalar javoblarini kuzatish, geografiya bo'yicha olimpiadalarda ishtiroy qilgan o'quvchilarning bilimlarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ular xaritadan bilim manbai sifatida foydalanadilar, ularning bergen javoblari to'liq bo'lib, biror hududning tabiiy sharoiti va xo'jaligini xarita asosida tafsiflab bera oladilar. Boshqa o'quvchilarga bu hislatlar xos emas.

Ko'nikma va malakalar kelgusida o'quvchilarni amaliy hayotga tayyorlanishda turli xil ilmiy-ommabop adabiyotlardan, xaritalardan bilimlarni egallash muhim ahamiyatga ega. Ular o'quvchilar tomonidan mazkur ko'nikmalarning egallanishini yengillashtiradi, masalan, joyda ufq tomonlarini aniqlash ko'nikmasi xaritada mo'ljal olish ko'nikmasini egallashga yordam beradi. O'quvchilarning ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi hamda ularda ilmiy dunyoqarashni shakllantirilishga ham ijobjiy ta'sir qiladi. O'quvchilar ko'nikma va malakarni amalda qo'llash orqali geografik qonuniyatlarining obyektivligiga ishonch hosil qiladilar.

Geografiya o'qitish metodikasida geografik ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodlari to'liq ishlab chiqilmagan. Masalan,

o‘quvchilarning u yoki bu mavzudagi qaysi harakati ko‘nikma darajasiga, qaysilarini malaka darajasiga ko‘tarish mumkin? O‘qituvchi o‘quvchilarga ta’limida atroficha o‘rganilgan. O‘quvchilarda geografik ko‘nikmalarni hosil qilish uchun o‘qituvchi ko‘nikma hosil qilishidagi harakat metodlarini ko‘rsatibgina qolmasdan, balki, o‘quvchilar uchun (ko‘nikma egallashi uchun) zarur topshiriqlarni ishlab chiqishi kerak.

Mashqlar jarayonida oddiy ko‘nikmalar sekin-asta malakaga aylanadi. Amaliy ko‘nikma va malakalarni shakllantirishning metodik shart-sharoitlari o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ba’zi ko‘nikma va malakalar oz vaqt va ko‘p kuch talab qilsa (gerbariylar yig‘ish, komposdan, nivlerdan foydalanish va h.k.), ba’zilari juda ko‘p murakkab harakat metodlarini va ko‘p vaqt talab qiladi. Masalan, geografik xaritani o‘qish ko‘nikmasini hosil qilish quyidagi murakkab jarayonlarni talab qiladi: moljal olish, daraja va kilometr hisobida aniqlash, punktlar, hududlar o‘rtasida fazoviy bog‘liqlikni qiyoslash, geografik koordinatalarni aniqlash, xaritada ko‘rsatilgan obyektlar va hodisalar o‘rtasidagi sabab va oqibatlar aloqadorligini o‘rgatish, alohida obyektlar (daryo, ko‘l, suv ombori, botqoqlik)ni ta’riflash, ko‘rsatilgan hududni mamlakat, tuman, shaharning tabiiy geografik va iqtisodiy geografik tavsifini yozish va h.k.

Ko‘nikma va malakalar shakllanishi ko‘pgina sabablarga: o‘quv jihozlari va vositalari, o‘quvchilarning psixofiziologik xususiyatlariha ham bog‘liq. Lekin, o‘qituvchi asosiy rahbar hisoblanadi. O‘qituvchi rahbarligining mazmuni ham shundan iboratki, ko‘nikma egallash jarayonida u o‘quvchilar harakatini tahlil qiladi. Ushbu ko‘nikma va malakani egallash uchun qanday nazariy bilimlar zarurligini aniqlaydi. Ko‘nikmani shakllantirishdagi muhim omillardan yana biri nazariy materialni amalda qo‘llash vaqtini va o‘rnini hisoblanadi. Masalan, mahalliy kanal, daryo rejimi (oqim tezligi, eni, chuqurligi)ni o‘lchash. Ushbu amaliy ishni O‘zbekiston ichki suvlari mavzisini o‘ganib bo‘lingandan so‘ng bajarish maqsadga muvofiq. Agar ushbu ish mavzu o‘rganilmadan avval bajariladigan bo‘lsa, o‘quvchi uni mexanik tarzda o‘zlashtirib, uning mohiyatiga tushunmasliklari mumkin. Demak, ko‘nikmalarni shakllantirish bevosita mavzuni o‘rganish jarayonida bo‘lsa, uni sifatli bo‘lishini ta’minlaydi.

Har bir kurs darslari rejalashtirilganda shakllantirilishi lozim bo‘lgan ko‘nikma va malakalar o‘z aksini topishi va ularning maqsadi aniq belgilanishi lozim. Shakllantiriladigan ko‘nikmalarni rejalashtirishda uning qayerda o‘tkazilishini aniqlash ham muhim ahamiyatga ega. Darsda

shakllantirilayotgah har bir ko‘nikmaning amaliy ahamiyati uning xalq xo‘jaligidagi roli aniq ochib berilishi lozim. Shundagina o‘quvchilarda ularni egallahsha bo‘lgan havas, qiziqish ortadi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Geografik bilim, geografik ko‘nikma, geografik malaka, ko‘nikma tarkibi, ko‘nikma shakllantirish bosqichi, ko‘nikma va malaka sifati, tabiiy geografik ko‘nikmalar, iqtisodiy geografik ko‘nikmalar

## TALABALARNING O‘ZLASHTIRGAN BILIMLARINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Geografik bilim nima?
2. Nazariy va emperik bilimlarni qiyoslang.
3. Bilimlarni egallah jarayoni qanday qismalarni o‘z ichiga oladi?
4. Geografik tushunchalarning turlarini va ularni shakllantirishning asosiy metodlarini aytинг.
5. Tushunchalarning induktiv va deduktiv turi nima? Misollar keltiring.
6. Qanday xolatlarda tushuncha o‘quvchi tomonidan egallangan hisoblanadi?
7. Geografik ko‘nikmalarni shakllantirish bosqichlarini aytинг.
8. Geografik ko‘nikma va malakalarni shakllantirishning bilimlar sifati bilan qanday aloqadorligi mayjud?
9. Aniq va abstrakt tushunchalarga VENN disgrammassi tuzing.
10. Geografik tushunchalarga “Tushunchalar tahlili” jadvalini tuzing.

## XV BOB. GEOGRAFIYA XONASI VA UNI JIHOZLASH

### 1. Geografiya xonasi va uni jihozlash

Geografik bilimlarni o‘zlashtirishda geografiya xonasi va unda joylashgan jihozlar katta ahamiyatga ega. Geografiya xonasi mavjud bo‘lgandagina tegishli o‘quv vositalaridan ta’lim jarayonida samarali foydalanish mumkin. Geografiya xonasi o‘quv vositalari majmuasini, mebellar, o‘qituvchi va o‘quvchilar uchun moslamalar, o‘quv jihozlarini saqlash qurilmalari, texnik vositalar, ekspozitsion materiallar, ilmiy-metodik qo‘llanmalardan iborat murakkab tuzumni o‘zida birlashtirgan maxsus xonadir.

Geografiya xonasini uch qismga bo‘lishimiz mumkin: a) o‘quvchilarni joyi; b) o‘qituvchini joyi; s) jihozlar.

**O'quvchilarni ish joyi.** Geografiya xonasida o'quvchilarning ish joyi ikki o'rindiqli stol va stuldir. Ular yog'ochdan yoki temirdan qilingan bo'lishi mumkin. Bu yerda asosiy antropometrik talab stol va stullarning balandligi o'quvchilar bo'yiga mos kelishi lozim.

O'quvchilar stol va stullarini joylashtirayotganda umumiyligi gigienik talablarga amal qilish lozim. Stol va stullarni uch qator qilib joylashtirgan ma'qul. Ular sinf taxtasidan 2 m uzoqlikda joylashishi zarur. Deraza va stollar hamda stullar qatori oralig'idagi masofa 60 sm dan kam bo'lmasi lozim. Oxirgi qatoragi stullar bilan shkaflar orasida o'tish uchum masofa bo'lmog'i lozim. O'quvchilar stollarda bo'yiga qarab o'tirishi lozim.

**Geografiya xonasida o'qituvchilarni ish joyi.** O'qituvchi odatda o'rta qatorni boshida joylashadi. Uning ish joyi o'quv vositalarini namoyish qiladigan joy hisoblanadi. O'qituvchi o'tirgan joydan sinfnini hamma tomoni va sinfdagi barcha o'quvchilar ko'rinishi turishi lozim. O'qituvchini ish joyi quyidagi talablarga javob bermog'i lozim:

1. Sinfni barcha tomoni hamda barcha o'quvchilar o'qituvchi nazoratidan chetda qolmasligi lozim;

2. O'qituvchini stoli yonida o'quv vositalarini namoish qiladigan yoki ulardan foydalaniladigan moslamalar bo'lmog'i lozim;

3. Geografiya darslarida ko'p hollarda asosiy o'quv vositasi sifatida xaritadan foydalanilganligi uchun kartografik vositalarni namoish qiladigan moslamalar bo'lishi e'tibordan qochmasligi lozim.

O'quv vositalarini namoyish qiladigan stolni balandligi 90 sm dan oshmasligi lozim, uning yuzasi esa 120x75 bo'lishi zarur. Namoyish stolida proeksiyon apparatlarni, deraza pardalarini, xaritalarni tushuntirib va ko'taradigan boshqaruv pultini joylashtirish mumkin. Namoyish stoli bilan birga o'qituvchi stoli ham bo'lmog'i lozim. Unda o'qituvchini kitoblari, daftarlari, darsga oid materiallar va sinf jurnali joylashadi. Mazkur joyda o'qituvchi o'trib ishlaydi. Stolning baladligi 75 sm, yuzasi 75x76 sm bo'lmog'i lozim.

Geografiya xonasidagi sinf taxtasi o'qituvchi va o'quvchilar tomonidan turli o'quv maqsadlarda foydalaniladi, ularni quyidagi guruhlarga bo'lishimiz mumkin:

- yozish uchun;
- chizmalarni, diagrammalarini, xomaki xaritalarni chizish uchun;
- jadvallarni, rasmlarni joylashtirish uchun;
- ekranli qo'llanmalarini namoyishi uchun;
- o'qituvchi tomonidan topshiriqlar yozish;
- o'qituvchi tomonidan dars mavzusi va rejasini yozish uchun.

Sinf taxtalarining o'lchamlari 180x105 sm bo'lmog'i lozim. Jadvallar va rasmlarni saqlash uchun yasalgan sandiqlarni o'qituvchiga yaqin joylashtirilgani maql.

Geografiya xonasida o'quv vositalarini joylash o'quv dasturi bo'limlari va sinflar bo'yicha bo'lishi lozim. Buning uchun bo'limli shkaflardan foydalaniladi. Mazkur shkaflar olinadigan va qo'yiladigan tokchalardan iborat bo'ladi. Bundan tashqari jihozlarni saqlash uchun ham sandiqlar bo'lishi kerak. Shkaflarda kitoblar, jurnallar, audio, video qo'llanmalar saqlanadi.

Geografiya o'qitishning texnika vositalarini saqlash va ulardan foydalanish uchun moslamalar bo'lmog'i lozim. Masalan, diaproektorlar, kinoproektorlar, grofoproektorlar (plyonkalar bilan ishlash uchun).

Geografiya xonasida turli xil yo'nalishdagi kartotekalar albatta bo'lmog'i lozim. Ularni quyidagi guruhlarga bo'lishimiz mumkin:

- o'qituvchilarni darsga tayyorgarlik kartotekasi. Unda dars mavzusi, mazmuni, o'qitish metodlari va usullari, vositalari, dars rejasini yozilgan bo'ladi;

- o'quv jihozlari kartotekasi;
- mavzular bo'yicha masala va mashqlar kartotekasi;
- yozma ishlari kartotekasi;
- mavzuli kartotekalar;
- qo'shimcha adabiyotlar kartotekasi;
- jurnallar va gazetalar kartotekasi;
- davlatlar kartotekasi va h.k.

Ma'lum bir mavzuga ma'lumotlar tayyorlash jarayonida turli xil ko'rgazmali qurollardan uyg'unlashgan xolda foydalanishni ko'zda tutilsa maqsadga muofiq bo'ladi, ya'ni matnli ma'lumotlar, rasmlar, chizmalar va diagrammalar bilan boyitilgan bo'lmog'i lozim.

Geografiya xonasida o'quv ishlari yaxshi tashkil etish uchun qulay sharoit yaratish zarur. Buning uchun o'quv qurollari va o'quv ko'rgazmali qo'llanmalarini, vositalari tartib bilan joy-joyiga o'rnatish talab etiladi. Shkaflarda o'quv qo'llanmalar, didaktik materiallar shunday joylashtirilishi kerakki, zarur paytda uni topish oson bo'lsin. Geografiya xonasida barcha geografiya kurslaridan dars, to'garak mashg'ulotlari, fakul'tativ kurs mashg'ulotlari o'tkazilishi uchun zarur bo'lgan barcha imkoniyatlar yaratilishi maqsadga muvofiq.

Geografiya xonasi uchun o'quvchilarning o'zlari quyidagi o'quv qurollarini yasashlari mumkin: o'z respublikasining tabiiy sharoitini aks ettiruvchi devoriy ko'rgazmalar, tog' jinslari va foydali qazilmalar

namunalari, gerbariyalar, iqlim diagrammalari va jadvallari, ob-havo kalendari, yog‘inlarning taqsimlanishi, daryo va ko‘llar, o’simliklar kartsxemasi va h.k. Joyda kuzatash va o‘lchash ishlari uchun ishlataladigan asboblar (planshet, burchak o‘lchagich, niveler, flyuger, gnomon, yog‘in o‘chagich, qor qalinligini o‘lchaydigan reyka) va har xil qo‘llanmalarni ko‘rsatish va saqlash uchun moslamalar, relyef shakllarining masetlari, ayrim mamlakatlarning tabiatini tasvirlovch rasmlar va h.k. O‘quvchilar o‘zlarini yasagan ushbu qo‘llanmalardan geografiya darslarida foydalansa, ularning geografiyaga bo‘lgan qiziqishlari yanada ortadi.

Xarita – geografik bilimlarning asosi bo‘lganligi uchun har bir darsda undan foydalaniлади.

Xarita va sinf staxtasidan unumli foydalinish maqsadida sinf taxtasi chekkalariga maxsus xarita iladigan moslama qoqilish zarur. Ushbu moslamani tayyorlashda xaritalarning o‘lchamli inobatga olib xolda uni bir necha yarusli qilish maqsadga muvofiq. Moslamani shunday tayyorlash kerakki, foydalilmagan paytda xaritalarni o‘rab qo‘yish imkoniyati bo‘lsin.

Ko‘rgazmali qurollar saqlanadiga moslama ham geografiya xonasining asosiy jihozlaridan biri hisoblanadi. U ko‘rgazmali qurollar, sxema, diagramma, rasmlarni saqlashga mo‘ljallangan maxsus yashik bo‘lib, sinf taxtasi tagiga o‘rnataladi. Sinf doskasining poldan yoki taglikdan balandligiga qarab yashikning balandligi 70 sm dan 80 sm gacha, eni 100 sm, qalnligi 16-18 sm bo‘ladi. Yashik tepasidagi qopqog‘i ochiladigan qilib yasaladi. Yashikda saqlanadigan ko‘rgasmali qurollarning orqasiga karton yopishtiriladi, old tomoni esa maxsus salafan pylonka bilan (laminat) qoplanadi. Yiqori tomonidan ip o‘tkazilib, maxsus tutqichlarga ilib ishlatishga moslanadi.

Geografiya kursida iqlim mavzusini o‘rganish ancha murakkab masala hisoblanadi. Shuning uchun ushbu mavzuni tushuntirish jarayonida turli ko‘rgazmal qurollardan foydalinish o‘zining yuqori samarasini beradi.

O‘zbekistonning iqlimi o‘rganilayotda O‘zbekistondagi xarakterli ayrim punktlarning yanvar va iyul haroratlari, yog‘inlarning yil davomida taqsimlanishi, yog‘inli kunlarning miqdori, havoning bulutliligi va yil fasllari haqidagi ma’lumot kerak bo‘ladi. Ushbu ma’lumotlarga oid ko‘rgazmali qurollar yo‘qligi sababli, o‘qituvchi rahbarligida o‘quvchilar tomonidan tayyorlanishi, ayrim punktlar bo‘yicha iqlim jadvalini, grafigini va diagrammasini tuzish mumkin.


**Diorama** – bu ikki planli manzaradan iborat. Uni quydagicha yasash mumkin: kattaligi 60×40 sm li ikkita, 30×30 sm li faner, 20×25 sm li va

25×40 sm li karton, 75×75 smli polietilin pylonka, 2 kg albastr kerak bo‘ladi.

Ushbu fanerga masalan, “Antarktida”ning diarammasini yasaylik. Yuqoridagi ikkala fanerning chekkalariga avvalo reykalar qoqib chiqiladi. Fanerning bittasiga (birinchisi) qirg‘oqlari dengizni ko‘rsatuvchi muz bilan qoplangan hududa chiziladi. 25×25 sm li fanernerdan muzyorar kema, pingvinlar shakli – maseti qirqib olinadi. Kartondan chana, teri-chodir tayyorlanadi. Dengiz yuzasi polietilin pylonka bilan qoplanadi. Ustiga albastrdan yasalgan “muz”lar yopishtiriladi. Birinchi taxtaga muzyorar kema va pingvinlar maseti yopishtiriladi, ikkinchi taxtaga chana, teri-chodir o‘rnataladi va chodir tayyor bo‘ladi.

Geografiya xonasida Quyoshning ufqdan balandligini o‘lchaydigan asbob – **skafis** ham bo‘ladi. Skafislardan yordamida o‘quvchilar Quyoshning ufqdan balandligini o‘quvchilar qiziqish bilan kuzatadilar. Ushbu asbobni qadimgi yunon olimi iskandariyalik Erosfen tomonidan ixtiro qilingan. Oddiy skafisni o‘quvchilar bilan yasab, geografiya xonasiga qo‘yish mumkin. Uni yasash uchun ikkita taxta olinadi. Birining kattaligi 25×40 sm, qalnligi 3,5 sm, ikkinchisining kattaligi ham huddi shunday bo‘ladi, ammo qalnligi 2,5 sm bo‘ladi (5-rasm).

Ikkinci taxtaning o‘rtasini mo‘ljallab sirkul yordamida yarim doira chizib, qirqib olinadi, ikkala taxta biriktiriladi. Taxtaning yuzasi silliqlanadi, bo‘yaladi va darajalarga bo‘linadi. Yarim doira ostiga ( $90^{\circ}$  li nuqtaga) ingichka mis o‘zakcha (balandligi yarim doira radiusiga teng bo‘lishi kerak) o‘rnataladi va crafis tayyor bo‘ladi. Kuzatish vaqtida o‘zakchaning soyasi darajalar bilan belgilangan shkalaga tushishi kerak. Shunda o‘zakcha soyasining uchi Quyoshning ufqdan necha daraja balandligi aniqlanadi.



5-rasm. Skafis

## 2. O‘qituvchin geografiya xonasida olib boradigan tashkiliy xo‘jalik ishlari

Geografiya xonasi o‘quvchilarni bilim olish faoliyatini samarali tashkil qilishda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun geografiya xonasini tashkil qilishga katta ahamiyat berilmog‘i lozim. O‘qituvchilarni geografiya xonasida qiladigan ishlari quydagi bosqichlardan iborat:

**Birinchi bosqich.** O'qituvchi geografiya xonasini qabul qilib oladi. Xonani qabul qilib olgandan so'ng o'qituvchi quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

-xonadagi mavjud bo'lgan o'quv jihozlari ro'yhatini tuzadi. O'quv jihozlariga: mebellar, barcha o'quv vositalarini namoiyish qilish va saqlash moslamalari kiradi. Buning uchun barcha ishga yaroqli bo'lgan o'quv jihozlarini ro'yhati tuziladi. Shu bilan birga ishga yaroqsiz ta'imrlash lozim bo'lgan o'quv jihozlari ro'yhati ham tuziladi. O'quv xonasida mavjud o'quv jihozlari optimal xona jihozlari bilan solishtiriladi va xonaning jihozlar bilan ta'minlanganlik darajasi aniqlanadi.

**Ikkinci bosqich.** Mazkur bosqichda barcha o'quv jihozlari ularga ajratilgan joylarga o'rnatiladi. O'qituvchi va o'quvchining ish joyi tashkil qilinadi. O'quv vositalari saqlanadigan joy aniqlanadi va ular o'qitishni texnik vositalari va geografik xaritalardan foydalanish uchun moslamalar bilan jihozlanadi. So'ngra quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- geografiya xonasini qayta jihozlash, namoyish stendlari uchun materiallar toplash, o'lkashunoslik materialini yig'ish bo'yicha ishlar rejasи tuziladi;

- o'lkashunoslik burchagini va muzeyini jihozlash rejasи tuziladi. Unda o'lka tabiiy va iqtisodiy sharoiti tarkibiy qismlari namunalari, modellari va maketlari joylashtiriladi. Masalan, tog' jinslari namunalari, qishloq yoki shahar modeli, qishloq xo'jalik yoki sanoat mahsulotlari namunalari;

- geografik maydonchani jihozlash rejasи tuziladi;

- geografiya xonalaridagi barcha jihozlar, asbob-uskunalar ro'yhati tuziladi.

**Uchinchi bosqichda** geografiya xonasini keyingi faoliyati davomida yetmayotgan jihozlar to'ldiriladi, eskilari yangilanadi, yangi jihozlar chiqqan bo'lsa ular olinadi va o'rnatiladi. Kutubxona yangi adabiyotlar bilan boyitib boriladi. Bir vaqtning o'zida geografiya xonalaridagi barcha o'quv jihozlari tartibga tushiriladi va katalogi tuziladi. O'lkashunoslik burchagi yoki muzeyi hamda geografiya maydonchasi jihozlanadi.

Mazkur ishlarni barchasini geografiya o'qituvchisi o'zining xo'jalik-tashkliy faoliyati davomida bajaradi va uning muhim pedagogik faoliyatiga kiradi. Geografiya xonasi jihozlanish darajasi o'quvchilarini bilish faoliyatini samarasini belgilab beradi. Shuning uchun geografiya xonasini jihozlash bo'yicha o'qituvchi aniq rejani ishlab chiqmog'i lozim.

### 3. Geografiya xonasidan o'quv va sinfdan tashqari ishlarda foydalanish

Hozirgi vaqtida geografiya xonasidan samarali foydalanish muammosi hamon dolzarb muammolardan bo'lib turibdi. Chunki geografiya xonasidagi ayrim o'quv vositalari umuman yil davomida foydalanilmaydi, ayrimlaridan, masalan, geografik xaritalar muntazam foydalaniladi.

Geografiya xonasida joylashgan barcha o'quv vositalaridan dars jarayonida samarali foydalanish uchun ularni ta'lim jarayonida bir nechtasidan uyg'unlikda foydalanish zarurligini geograf-metodist olimlar takidlab o'tishgan (Yu.G. Barishova 1983 y)

Dars jarayonida o'quv vositalaridan uyg'unlikda foydalanish quyidagi samaralarni beradi:

- geografik obyekt, voqeа va hodisalar haqida aniq tasavvurlar hosil qilishga yordam beradi. Masalan, tabiiy obyektlar, audiovizual va ko'rgazmali vositalar;

- yangi darsni tushunishga va yangi tushunchalarni shakllantirishga imkon beradi. Masalan, chizmalar, xaritalar, modellar va h.k;

- olingan bilimlarni amalda qo'llashni taminlaydi. Masalan, ma'lumotnomalar, turli xil topshiriqlarni yechish uchun tayyorlangan tarqatma materiallar, yozuvsiz xaritalar, test topshiriqlari, yozma topshiriqlar va h.k.

O'quv jihozlari majmualari yoki ularning ayrim qismlari (tarkiblari)dan dars jarayonining turli qismlarida foydalanish mumkin (takrorlashda, yangi mavzuni o'rganishda, olingan bilimlarni mustahkamlashda). Bevosita darslardan tashqari geografiya xonasida sinfdan tashqari ishlarni, geografiya to'garagi mashg'ulotlarini o'tkazishda, o'lkashunoslik va boshqa ishlarni olib borishda ham foydalanish mumkin.

Geografiya xonasida sinfdan tashqari ishlarni tashkil qilish juda katta ahamiyat kasb etadi. Geografiya xonasi jihozlaridan foydalanib o'quvchilar darsdan tashqari vaqtlarida geografik kechalar, sayohatlar, ekursiyalar, tanlovlар rejalarini tuzishlari mumkin. O'quvchilar geografik borliq, voqeа va hodisalarni modellashtirish, ularni xomaki materiallarini yasash ko'nikmalariga ega bo'lishadi, texnik o'quv vositalaridan foydalanish malakalariga ega bo'lishadi.

Geografiya xonasidagi kutubxonadan foydalanib o'quvchilar sinfdan tashqari mutoala bilan ham shug'ullanishlari mumkin. Geografiya xonasidagi kutubxonalarda adabiyotlar quyidagi yo'nalishlarda saqlanadi:

ilmiy-geografik, ilmiy-fantastik, ilmiy-ommabop, sarguzasht va badiiy adabiyotlar. Geografiya xonasiga keladigan kitoblar mavzular, bo'limlar, kurslar bo'yicha guruhlashtiriladi. Har bir kitobga annotatsiya yoziladi.

Geografiya xonasida to'garak mashg'ulotlari ham o'tkaziladi. O'quvchilarga mashg'ulot va muhokama o'tkazish uchun turli xil mavzular va topshiriqlar beriladi. Geografiya xonasida o'quvchilar okean tubiga va Yer qariga sayohat uyushtirishlari, fazoga sayohat qilishlari, tropik o'rmonlarda yurishlari, o'z shahri, tuman, viloyati, Pomir va Tyanshan tog'lariga sayohatga chiqishlari mumkin. To'garaklarning o'quv qo'llanmalari va vositalari tayyorlash bo'limida geografiya xonasini yangi o'quv vositalari bilan ta'minlashi mumkin. Geografiya to'garagini mazkur bo'linmasining ishlariiga yuqori sinf o'quvchilarini ham jalg qilish zarur. Bunday sharoitda geografiya xonasida yetishmaydigan jihozlar ro'yhati tuziladi va ular o'quvchilar yordamida tayyorlanib joy-joyiga qo'yiladi.

O'quvchilar tomonidan olib boriladigan o'lkashunoslik materiallari geografiya xonasida o'lkashunoslik burchagiga o'rnatiladi va dars jarayonida foydalilaniladi. O'lkashunoslik ishlari natijalari tog' jinslari namunalardan, gerbariylardan, sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari namunalardan hamda diagrammalar, chizmalar, ko'rgazmali qurollardan iborat. Ular darsdan va sinfdan tashqi ishlarda foydalananlishi mumkin.

Geografiya xonasida fakul'tativ mashg'ulotlar ham o'tkazish mumkin. Fakul'tativ mashg'ulotlar topografiya, ekologiya, geologiya asoslari va boshqa fanlardan o'tkazilishi mumkin. Topografiyadan fakul'tativ mashg'ulotlar o'tkazish uchun geografiya xonasida topografik asbob uskunalar (astrolyabiya, niveler, reyka), topografik xarita, kurvimeetr, transportir, uglomer va boshqa jihozlar bo'lmog'i lozim. Geografiya darslaridan fakul'tativ mashg'ulotlar o'tkazish uchun geografiya xonasida quyidagi jihozlar bo'lmog'i lozim: tog' jinslari namunalari; toshqotgan o'simlik va hayvonlar namunalari; geologik kesmalar; geoxronologik jadval; turli xil geologik davrlarda yashagan o'simliklar va hayvonot dunyosi rasmlari va h.k.

#### 4. Geografiya maydonchasi

Geografiya maydonchasi ochiq joyda amaliy ishlar olib borishga mo'ljallab jihozlangan joy.

Geografiya maydonchasini "**tabiat laboratoriysi**" deyish mumkin, chuki "tabiat laboratoriysi"da o'tkazilgan mashg'ulotlar o'quvchilar bilimini puxta bo'lishini ta'minlaydi, turli asboblar bilan ishlash

ko'nikmalarni hosil bo'lishiga yordam beradi. O'quvchilar geografiya maydonchasida tabiat hodisalarini kuzatishga, ijtimoiy-foydali mehnat qilishga o'rganadilar.

Geografiya maydonchasi imkonи boricha ochiqroq joyda tashkil etilishi lozim. Bu ko'z bilan chamalab plan olish, Quyoshning chiqishi va botishini kuzatish, uning ufqdan balandligini yil davomida o'zgarishini kuzatishga imkon beradi. Geografiya maydonchasi maktab tajriba-sinov uchastkasi yonida bo'lishi maqsadga muvofiq. Chunki bu fenologik hodisalarini tushuntirish, qishloq xo'jalik ekinlarining rivojlanishi iqlimga bog'liq ekanligini o'quvchilar o'z ko'zlar bilan ko'rib, bilib olishlariga imkon beradi<sup>7</sup>.

Maktab yonidagi joyga qarab geografiya maydonchasing kattaligi (o'Ichami) 25×20 m, 20×15m, 20×10 m, 10×10 m bo'lishi mumkin.

Geografiya maydonchasida balandlikni, maydonni, aniqlash, joyda orientrash, astranomik, meteorologik kuzatish olib borish uchun asboblar, qadam uzunliguni aniqlash uchun o'Ichov yo'lakchasi bo'lishi kerak.

Geografiya maydonchasi uchun zarur o'quv jihozlarining miqdori va ular bilan ishlash yo'llari I.A.Abdug'aniyev, V.P.Golov, K.K.Semakin, L.A.Kuzmin, A.V.Suxorukova, X.S.Masudov va boshqa uslubchi-geograflarning ishlarida yoritilgan.

Geografiya maydonchasing zaruriy jihozlari quyidagilardan iborat:

1. Panjarali o'Ichagich;
2. Yo'lka;
3. Tuproq na'munalari;
4. Tog' jinslarining na'munalari;
5. Kvadrat metr;
6. Kub metr;
7. Reper;
8. Flyuger;
9. Nefoskop halqasi;
10. Meteorologik budka;
11. Yog'in o'Ichagich;
12. Qor o'Ichagich chizg'ichi;
13. Astrolyabiya;
14. Eklimeetr;
15. Qutb yulduzi ko'rsatkichi;
16. Rumb, azimutlar halqasi;
17. Gorizontal quyosh soati;
18. Ekvatorial quyosh soati;
19. Yo'nalishlar doirasi;
20. Gnomon;
21. Mahalliy meridian va parallellar;
22. Qumli yashik;
23. Relyef shakllarining modeli;
24. Stol va stullar;
25. Sinf doskasi;
26. O'qituvchi stoli,
27. Meteorologik budka

Balandlik, ya'ni bino va daraxtlarning balandligini aniqlash uchun rostomer, maydonning kattaligini aniqlash uchun kvadrat metr, hajmga oid tasavvurni hosil qilish uchun kub metrdan foydalilaniladi.

Joyda orientr olish uchun: gnomon tayoqchasi – soyaga qarab shimoliy yo'nalishni aniqlaydi, qutb yulduzi ko'rsatkichi, burchak o'Ichagich, azimutlar halqasi –rumb, Quyosh soatlari, o'sha joyning parallel va meridianini ko'rsatuvchi chiziqlar kerak bo'ladi.

<sup>7</sup> Мўминов О. География таълими методикаси. Т.: Ўқитувчи, 1986. 122-б.

Astronomik kuzatish olib borish uchun quyidagi asboblar: shimoliy qutb korsatkichi, transportirdan yasalgan eklimer, oddiy gnomon kerak bo‘ladi. Meteorologik kuzatishlar olib borish uchun esa meteorologik betka, psixrometr, flyuger, yog‘in o‘lchagich, qor qalinligini o‘lchaydigan reyka, har xil termometrlar (maksimal, minimal va tuproq termometrlari) bo‘lishi lozim.

Geografiya maydonchasida shuningek, relyef shakkllari va sun’iy hovuzcha, sun’iy tepa va soylik, qumli yashiklar, tog‘ jinslari to‘plamlari bo‘lishi maqsadga muvofiq.

Ma’lumki, ob-havo va iqlim elementlari tabiatdagagi ko‘p jarayonlarni vujudga kelishida, tabiat komponentlarining shakllanishida katta rol o‘ynaydi. Iqtisodiyotning turli tarmoqlarini rivojlanishi, aholining hududiy tarqalishi va ularning salomatligi ham ob-havo va iqlim bilan chambarchas bog‘liqidir. Maktab dasturi bo‘yicha o‘rganiladigan mavzular, masalan ob-havo va uni oldindan aytish, iqlim, shamol, yog‘in-sochin, bulutlar va boshqa meteorologik elementlarni o‘rganish o‘quvchilar uchun tushunarli bo‘lishida mактабда olib boriladagi meteorologik kuzatish ma’lumotlaridan foydalanish zarur. Bunda aniq va izchil tashkillangan meteorologik kuzatishlar o‘quvchilarga geografiya ta’limida o‘lkashunoslik tadqiqotlarini amalga oshirishga imkon beradi.

**Meteorologik budka** – ayrim meteorologik asboblarni joylashtirish uchun xizmat qiladi. Bu maydonchaning janubiy-sharqi qismida eshigi shimolga qaratilgan holda yer yuzasidan 2 m balandlikka ega bo‘lgan joyga o‘rnatalidi. Bunday holatda budkaning ichkarisidagi asboblarga quyosh nurlari tushmaydi va atrofdagi predmetlar hamda tuproqdan qaytayotgan issiqdan himoya qilinadi. Budka maxsus konstruksiyaga ega bo‘lgan qurilma bo‘lib, devorlari yog‘och panjaradan ishlatilgan va 2 m balandlikda 4 ta yog‘och oyoqqa o‘rnatalgan bo‘ladi. Uning tomi 2 qavat bo‘ladi. Budkaning o‘lchami quyidagicha: balandligi 525 mm, bo‘yi 460 mm, eni 290 mm. Budkaning devorlari qalinligi 6 mm va eni 35 mm li yog‘och taxtaldan iborat. Budkaning ichiga quyosh nurlari tushmasligi uchun reykalar devorga 45° burchak bilan qiya qilib o‘rnatalgan bo‘lib, ular orasidan havo bemalol o‘ta oladi va harakatlanadi. Budka quyosh nuri ta’sirida qizib ketmasligi uchun oq rangga bo‘yaladi. Budkaning ichiga shtativ o‘rnatalib, unga psixrometrik termometrlar mustahkamalanadi. Shtativning quyi qismiga maksimal va minimal termometrlar gorizontal holatda yotqizib qo‘yiladi.

**Psixrometrik termometrlar** havo haroratini va namligini o‘lchash uchun qo‘llaniladigan ikkita vertikal o‘rnatalgan simobli termometrlardan

iborat. Uzunligi 39-43 sm, simob solingen idishchaning diametri 9-12 mm bo‘ladi. Shkalasi 0° dan yuqorida 50° gacha, 0° dan pasti esa -35° gacha har 0,2° aniqlikda ko‘rsatadigan bo‘linmadan iborat. Termometrlarning birini simobli idishi toza tabiiy ip tolali mato bilan o‘rab qo‘yiladi va shu qismi toza suvli stakanga tushirib qo‘yiladi. Quruq termometr ko‘rsatkichidan havoning harorati, quruq va namlangan termometrlarning ko‘rsatishlaridan psixrometrik jadval yordamida havoning namligi tavsifnomasi (to‘yingan suv bug‘larining elastikligi, namlik yetishmasligi, nisbiy namlik, shudring nuqtasi) aniqlanadi.

Termometrlar vertikal ravishda o‘rnashtiriladi. Qishloq joylarida ipak qurti boquvchilariga beriladigan Avgust psixrometridan ham havo haroratsi va namligini aniqlashda foydalanish mumkin. Asbobning termometrlari ko‘rsatishidan uning yuzasiga yozilgan jadvaldan nisbiy namlik aniqlanadi.

**Maksimal termometr** – simobli bo‘lib, havoning eng yuqori haroratini o‘lchash uchun ishlatiladi. Uzunligi 350 mm, shkalasining har bir bo‘limi 0,5° ga teng bo‘lib, havo haroratining 71° C dan 31° C gacha o‘zgarishini ko‘rsatadi. Undan hisob olib bo‘lingandan so‘ng termometri qo‘lga olib, 2-3 marta silkitib, yana gorizontal holatda o‘z joyiga qo‘yiladi.

**Minimal termometr** – biror vaqt ichida eng past haroratni o‘lchash uchun qo‘llaniladi. Bu termometr spirtli bo‘lib, kapilyar naycha ichida qora rangli shtiv (shisha cho‘p) bo‘ladi. Hisob olinganda qo‘l bilan tegilmaydi va hisob shtivning yuqori uchiga to‘g‘ri kelgan shkala qismidan olinadi. Termometrning uzunligi 300 mm, shkalasi 21° C dan -71° C gacha bo‘ladi. Hisob olib bo‘lingandan so‘ng termometri qo‘lga olib shtivni pastga tushirib yuboriladi va termometri gorizontal xolatda o‘z joyiga qo‘yiladi.

**Termograf** – havo haroratini uzlusiz ravishda (sutka yoki hafta davomida) lentaga yozib borish uchun qo‘llaniladigan asbob. Uning qabul qiluvchi qismida egilgan temir, yoki misdon ishlangan 2 ta plastinka mavjud. Plastinkaning bir tomoni mustahkamlangan ikkinchi uchi esa maxsus tutgich bilan strelkaga ulangan. Strelka uchiga maxsus pero o‘rnatalgan va analin siyohi bilan to‘ldirilgan. Haroratning o‘zgarishi bilan plastinka kengayib, strelkani harakatga keltiradi va strelkaning uchidagi pero aylanib turuvchi barabandagi lentaga egri chiziqlar tushira boshlaydi. Baraban maxsus soat mexanizmi yordamida aylanadi. Lentaning vertikal shkalasi har 15 minutdan bo‘lingan, haftalik termografdagi shkala 2 soatdan bo‘lingan. Lentaning gorizontal shkalasi har bir gradusdan bo‘lingan. Termograflarning xiliga mos ravishda uning lentasi har sutkada yoki har

haftaning dushanba kunlari almashtiriladi. Lentada qayd qilingan chiziqlardan haroratni o'zgarishi aniqlanadi.

**Sochli gigrometr** – havoning nisbiy namligini o'lhash uchun ishlataladi. Unda tabiiy soch tolasidan foydalaniladi. Soch tolesi har xil yog' va kirlardan tozalangandan so'ng, u havodagi namning o'zgarishi natijasida, ya'ni nam ko'paysa uzayadi, nam kamaysa qisqaradi. Asbobni psixrometrik budkaga dastlab o'rnatishda strelkasi psixrometr yordamida aniqlangan, nisbiy namlik miqdori bo'yicha shkalada to'g'rilab qo'yiladi. Keyingi vaqtarda asbobning ko'rsatishi bilan taqqoslanib boriladi. Bizning sharoitimidza gigrometr dan asosan qish oylarida foydalanish maqsadga muvofiq.

**Gigrograf** – havodagi nisbiy namlikni sutka yoki hafta davomida uzlusiz yozib borish uchun ishlataladigan asbob. Asbob korpusining orqa tomoniga soch tolasidan iborat kronshteyn o'rnatilgan. Soch tolasining bir uchi strelkaga, ikkinchi uchi esa kronshteynga o'rnatiladi. Havo namligi o'zgarganda soch tolesi uzayadi yoki qisqaradi. Natijada strelka uchidagi siyohli pero lentaga chiziqlar chizadi. Asbob strelkasining holati dastlab psixrometr ko'rsatkichi bo'yicha aniqlanadi.

**Vild flyugeri** – shamolning yo'nalishi va tezligini aniqlashda foydalaniladigan asbob. U maydonchaning janubiy-g'arbiy sektorining o'rtasida, gorizont tomonlari yaxshi ko'rindigan va shamol to'silmaydigan ochiq joyda 8-10 m balandlikda o'rnatiladi. Uning ustunidan balandlik o'lchagich sifatida foydalaniladi. Flyugerni o'rnatishda uning ufq tomonlari ko'rsatkichini ufq tomonlariga moslashtirish kerak.

**Yog'in o'lchagich (osadkomer)** –balandlikda bo'lishi kerak. Paqirchaning hajmi 200 sm<sup>2</sup> bo'lib, unda jo'mrak va varonka mavjud. Varonka yozda yog'inlar miqdorini o'lhash uchun xizmat qiladigan asbob. U 2 dona paqircha, metall plastinkalardan tuzilgan to'siq va o'lchov stakanidan iborat. Paqirchaning yuqori qirrasi yer yuzasiga nisbatan 2 m paqircha ichiga qo'yiladi, qishda esa olib qo'yiladi. Varonka yozda paqirchadagi suvni bug'lanishini ozaytirish vazifasini bajaradi. Yog'in miqdorini o'lhashda paqirchadagi suv o'lchov stakaniga quyiladi. O'lchov stakan 100 bo'lakli shkalaga bo'lingan bo'lib, har qaysi bo'lak 2 sm<sup>2</sup> ga yoki 0,1 mm ga teng. Demak, o'lchov stakanining hajmi paqirchanikidan 10 marta kichikdir. SHuning uchun, o'lchov stakan bo'yicha aniqlangan yog'in miqdori o'ngga taqsimlanadi va unga bug'lanish hamda idish devorlarini namlanishi evaziga 0,2 mm miqdorida qo'shimcha qo'shiladi. Qor yoqqanida paqircha o'lhashga olinib uning

o'rniga ikkinchi paqircha qo'yiladi. Qorli paqircha xonaga olib kirilib, erigan qor suvini o'lchov stakan yordamida yomg'irni o'lchaganday o'lchanadi.

**Qor o'lchagich (snegomer)** qor qoplaming zichligi va undagi suv zahirasini aniqlash uchun xizmat qiladi. U quyidagi qismlardan iborat: hajmi 8 l bo'lgan polietilenli paqircha; 0 dan 50 sm gacha bo'laklarga bo'lingan qor o'lchagich silindr; qor qoplaming qalinligini o'lhashda ishlataladigan balandligi 160 sm li metal lineyka.Qor o'lchagich yordamida qorning zichligi so'ngra qor suv zahirasi aniqlanadi.

**Barograf** – atmosfera bosimini o'zgarishini sutka yoki hafta davomida uzlusiz yozib borish uchun ishlataladigan asbob. Bunda aylanuvchi barabanga o'rnatilgan lentaga bosim o'zgarishini strelkaga o'rnatilgan pero chizib boradi. Barografning lentasi mb da berilgan. Uning strelkasini o'rnatish uchun avval barometr aneroiddan bosim aniqlanadi va uni mb aylantiriladi. Barometr aneroid, barograf hamda qor o'lchagich geografiya xonasida saqlanadi. Bosim, uy ichi va tashqarisida kam farqlanishi natijasida bosim o'lhash ishlari xonada o'tkazilishi ham mumkin.

**Eklimeetr** – quyoshning va qutb yulduzining burchak balandligi, daraxtlar, imoratlар, balandliklarni aniqlashda foydalaniladigan asbob.

**Gnomon.** Quyoshning usq ustidan balandligini aniqlaydigan asbob. Gnomon yordamida, shuningdek usq tomonlarining yo'nalishlarini ham aniqlash mumkin. Chunonchi, kunning yarmida soya shimolga yo'nalishini ko'rsatadi va qisqa bo'ladi, chunki Quyosh tikda (zenitda) turadi, erta bilan soya g'arbg'a, kechqurun esa sharqqa yo'nalgan bo'ladi.

**Quyosh soati** - xohlagan o'lchamli gorizontal qo'yilgan yog'och doira bo'lib, o'rtasida o'qi bor. Doiraning chetiga gnomon bo'yicha (Kun yarmida ustunning, ya'ni o'qning shimolga yo'nalgan soyasi bo'yicha) 12 raqami qo'yiladi. Bir-biridan teng masofada qolgan raqamlar qo'yiladi. Quyosh soatdan barcha sinf o'quvchilar foydalanishlari mumkin. Uni maydonchaning janubiga eng ochiq joyga o'rnatiladi.

Geografiya maydonchasida quyidagi meteorlogik kuzatishlar olib borish mumkin:

- ✓ Havo haroratini o'lhash;
- ✓ Havoning namligini o'lhash;
- ✓ Havoning bosimi o'lhash;
- ✓ Shamolning yo'nalishi va tezligi aniqlash;
- ✓ Bulutlik darajasi va bulut turlarini aniqlash;
- ✓ Yg'in turlari va miqdori aniqlash;

✓ Quyoshning gorizontdan balandligi va unga bog'liq holda quyosh radiatsiyasining miqdorini aniqlash;

✓ Atmosfera hodisalari (momaqaldiroq, kamalak, tuman qirov, shudring va boshqalar)ni kuzatish va aniqlash.

Geografiya maydonchasida meteorologik kuzatishlarni olib borish uchun eng avvalo o'quvchilar asboblar bilan ishlash malakasiga ega bo'lishlari juda zarurdir. O'qituvchi o'quvchilarning ob-havoni kuzatishini tashkil etish va kuzatish usullari bilan o'quv yili boshida maxsus darsda tanishtiradi. V sinfda birinchi darsning oxirida o'quvchilarga keyingi darsda katakli daftar, qalam, lineyka olib kelishlari aytildi. Birinchi darsda ob-havo qanday kuzatiladi va kuzatish natijalari qanday qayd qilinishi tushuntiriladi. O'quvchilar daftarlari ob-havo kuzatishlarini qayd qilish uchun yilnomaga chizib olishadi. Ikkinci dars bevosita geografiya maydonchasida o'tkazilib, unda o'quvchilarni meteorologik kuzatishlarini olib borishida foydalanadigan asboblar bilan tanishtiradi, kuzatish qoidalari va sharhlari belgilarni tushuntiradi, so'ngra dastlab o'qituvchi yordamida, so'ngra esa o'quvchilar mustaqil ravishda kuzatish ishlari olib boriladi.

O'quvchilar kuzatish vaqtida asboblar bilan extiyot bo'lib muomala qilishi, kuzatish qoidalarni buzmasligi va kuzatgan meteorologik elementlarva hodisalarni daftarga oddiy qalam bilan o'z vaqtida aniq qilib yozib borish lozim.

Kuzatish olib borilayotgan vaqtning o'zida natijalar daftarga oddiy qalam bilan yozib boriladi. Kuzatish vaqtida atmosfera hodisalari ham yoziladi, masalan shudring, tuman va boshqalar.

Kuzatish natijalari maxsus jurnallarga qayd qilinadi. Kuzatish natijalari ma'lum davr uchun to'plangandan so'ng, maktab joylashgan xudud uchun ob-havo va iqlim tasnifini berish mumkin. Olingan ma'lumotlar umumlashtirilib bir oy mobaynidagi haroratining o'zgarishi garafigi, o'ratacha sutkalik va oylik havo haroratlari, amplitudasi, bulutli va bulutsiz kunlar, yog'inli va yog'insiz kunlarning doiraviy diagrammasi, yog'lnlarni yillik taqsimlanishi grafigi, shamollar "guli" va boshqalar chiziladi va ularidan dars jarayonida foydalaniladi.

**Tayanch so'z va iboralar:** Geografiya xonasi, o'quv vositalari, o'quv jihizi, fakultativ mashg'ulot, amaliy mashg'ulot, sinfdan tashqari ishlar, geografiya to'garagi, sinf taxtasi, kartoteka, geografiya maydonchasi.

## TALABALARING O'ZLASHTIRGAN BILIMLARINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR

1. Geografiya xonasini jihozlariga qanday talablar qo'yiladi?
2. Geografiya xonasida o'quvchilarni ish joyi qayerda joylashadi?
3. Geografiya xonasida o'qituvchining ish joyini aniqlang.
4. Geografiya xonasida o'quvchining ish joyi qanday talablarga javob berishi lozim?
5. Sinf taxtasidan qanday maqsadlarda foydalilanildi?
6. Geografiya xonasidagi kartotekalar qanday guruhlarga bo'linadi?
7. O'qituvchini geografiya xonasida olib boradigan tashkiliy-xo'jalik ishlari qanday bosqichlarga bo'linadi?
8. Geografiya xonasidan qanday maqsadlarda foydalilanildi?

## V-QISM. GEOGRAFIYA TA'LIMIDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR

### XVI BOB. GEOGRAFIYA TA'LIMIDA SINFDAN TASHQARI ISHLARNING TURLARI, ULARNING MAQSAD VA VAZIFALARI

#### 1. Geografiya ta'lmidtan sinfdan tashqari ishlarning maqsad va vazifalari

Maktabdagagi o'quv ishlari dasturi asosida va cheklangan, belgilangan vaqt doirasida olib borilganligi uchun o'quvchilarining barcha qiziqish va ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega emas.

Sinfdan tashqari ishlar umumta'lim mакtablarida juda muhim ta'limgartarbiyaviy ahamiyatga ega. Shuning uchun ham sinfdan tashqari ishlar o'quv jaryonining ajralmas qismi hisoblanadi. Sinfdan tashqari ishlarga geografiya to'garagi, sinfdan tashqari o'qishlar, geografik konferinsiyalar, geografik kechalar, geografik xaritalar, geografik seksiyalar, geografik jamiyatlar, o'lkashunoslik muzeyi, geografik klublar kiradi.

Sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarini bilish faoliyatini rivojlantirshda, mustaqil ishslash ko'nikmalarni shakkantirishda, o'quvchilarini tabiatga va o'z vataniga muhabbat ruhida tarbiyalashda, o'quvchilarini o'z vatanini yutuqlaridan faxirlanish tuyg'ularini shakkantirishda muhim ahamiyatga ega, shuning uchun sinfdan tashqari ishlarning maqsadi va vazifalari aniq ishglab chiqilsa ularni samarasini juda yuqori bo'ladi.

Sinfdan tashqari ishlarning asosiy **maqsadi** quyidagilardan iborat: o'quvchilarini tabiatni tushunish va tabiatni sevishga o'rgatish; o'z yashab turgan joyi haqida bilimlarini chuqurlashtirish; o'quvchilarini tabiiy muhit haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish; o'quvchilarida geografiya faniga qiziqish uyg'otish; o'quvchilarini geografik tadqiqot usullari bilan tanishtirish va h.k.

**O'quvchilarini tabiatni tushunish va tabiatni sevishga o'rgatish** geografik to'garaklarda, geografik kechalar, geografik haftalar va boshqa sinfdan tashqari ishlarda olib boriladi. Unda o'quvchilar o'qituvchini topshirig'iga binoan tabiat haqida turli ilmiy ommabop va badiy adabiyotlar bilan tanishadi. Mazkur adabiyotlar bilan tanishish va berilgan topshiriqlarni bajarish davomida ularda tabiatning asosiy tarkibiy qismlari va tabiatni qo'riqlash haqidagi bilimlar shakllanadi.

Tabiatni sevish bo'yicha berilgan topshiriqlarda qo'riqxonalar, milliy bog'lar, buyurtmalar, yo'qolib ketgan va yo'qolish arafasida turgan hamda himoya qilinadigan o'simlik va hayvonlar dunyosi, noyob tabiat yodgorliklari haqida ma'lumotlar muhim o'rinni tutadi.

**O'zi yashab turgan joy haqida bilimlarni chuqurlashtirish.** O'zi yashab turgan joy haqida bilimlarni chuqurlashtirish sinfdan tashqari ishlarning bajarishda o'tkazilishi mumkin. Buning uchun o'qituvchi quyidagi yo'nalihsilar bo'yicha ma'lumotlar toplashni o'quvchilarga topshirmog'i lozim:

➢ joyni tabiiy geografik sharoiti haqida: geografik joyylanishi, geologik tuzilishi; foydali qazilmalari; relyefi; iqlimi; ichki suvlari; tuprog'i, o'simlik va hayvonot dunyosi;

➢ joyning iqtisodiy geografik sharoiti haqida: iqtisodiy geografik o'rni; tabiiy resurslari; aholisi; xo'jaligi (sanoati, qishloq xo'jaligi), transporti va tashqi iqtisodiy aloqalari;

➢ rekratsion va turistik obyektlari.

Mazkur yo'nalihsil bo'yicha o'quvchilarga alohida-alohida topshiriqlar berishi mumkin. Joyning tuprog'i, o'simligi va hayvonot dunyosi haqida ma'lumotlar bo'lmasa o'quv sayohatlari davomida yig'ilgan ma'lumotlardan foydalanish mumkin.

Mazkur maqsadni bajarish davomida o'quvchilar o'zi yashayotgan joy haqida bilimlarini yanada chuqurlatirishadi.

**O'quvchilarini tabiiy muhit haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish.**

O'quvchilarini tabiat haqida, o'z yashash joyini geografik sharoitini o'rganish jarayonida tabiiy muhit haqida tasavvurlari yanada kengayadi va rivojlanadi. Tabiatni asosiy tarkibiy qismlarini (litosfera, gidrosfera, atmosfera, biosfera) o'rganish davomida o'quvchilarining tabiiy muhit haqida tasavvurlari kengaya boshlaydi.

**O'quvchilarida geografiya faniga qiziqish uyg'otish.** Geografiya to'garagida, geografik kechalarda va boshqa sinfdan tashqari ishlarda geograf sayyoh va olimlar, yirik geografik kashfiyotlar, materiklarni kashf qilinish tarixi, xalq xo'jaligini rivojlanishida geografiyanı o'rni haqida ma'lumotlarni o'rganish davomida o'quvchilarida geografiya faniga bo'lgan qiziqishi ortib boradi.

O'qituvchilarini geografik tadqiqot usullari bilan tanishtirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, mazkur ishlar ham asosan geografiya to'garagida olib boriladi. Unda to'garak a'zolari turli xil geografik tadqiqotlar haqida ma'lumotlar to'plab, ular asosida ma'ruzalar tayyorlashadi.

Sinfdan tashqari ishlar quyidagilarni amalga oshirishga imkon beradi:

➤ tarbiyaviy ishlarni olib borishga imkon beradi. Sinfdan tashqari ishlarda o'quvchilar o'z yashash joyining tabiatni, xo'jaligi va aholisi haqida chuqur bilimlarga ega bo'lismashadi. Bu esa ularda vatanparvarlik hamda Vatan bilan fahirlanish tuyg'ularini shakllanishiga imkon beradi;

➤ olingan bilimlarni hayot bilan bog'lashga, nazariy bilimlarni O'zbekistonni buyuk davlatga aylantirish amaliyoti bilan bog'lashga imkon beradi;

➤ o'quvchilarni mehnat va kasbga tanlashiga imkon beradi, ularda mustaqillik xususiyatlarini shakllantiradi. Bunday ishlar to'garak ishlarni olib borishda, muhim amaliy tadbirdar, tajriba va eksperimentlarni o'tkazishda amalga oshiriladi;

➤ sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarni geografik bilim va ko'nikmalarini yanada chuqurlashtirish imkon beradi. Binobarin, sinfdan tashqari ishlar o'quv ishlari bilan chambarchas bog'langan.

Sinfdan tashqari ishlar mактабдан ташқари ишлар билан ҳам чамбарчас bog'langan. Mazkur bog'liqlik ushbu ishlarni olib borish shaklida, mazmunida va metodlarida ifodalanadi. Maktabdan tashqari ishlarni sinfdan tashqari ishlardan farqi ular maktabdan tashqari tashkilotlar tomonidan uyushtiriladi va amalga oshiriladi (yoshlar uyi, yosh turistlar uyushmalari va x.k.).

Bilish manbalariga ko'ra sinfdan tashqari ishlarni olib borishni quyidagi usullarini ajratish mumkin (Yu.A. Valishin, 1985):

➤ og'zaki usullar ma'ruza, suhbat, intervyu. Ushbu usullarda bilish manbai bo'lib o'qituvchini so'zi hisoblanadi. Suhbatlar, ma'ruzalar, intervyularni olimlar, ekspedetsiya xodimlari, davlat muassasalarini hodimlari, xalq xo'jaligi mutaxassislari bilan olib boradi;

➤ amaliy usullar. Ular individual yoki o'quvchilar guruhi bilan o'tkaziladigan amaliy ishlarda qo'llaniladi. Mazkur amaliy mashg'ulotlarda o'quvchilar geografik asbob, uskunalar va jihozlardan foydalananini, geografik xaritalar bilan ishlashni, atrof muhitni muhofaza qilishni amalda o'rGANISHADI;

➤ kuzatish usullari. Ushbu usularni tabiatni va xo'jalikni kuzatishda qo'llash mumkin. Bu esa geografik voqeа va hodisalar hamda borliqni har tomonlama o'rGANISHGA imkon beradi. Tabiatni va xo'jalik faoliyatni kuzatish muntazam va vaqtincha bo'lishi mumkin. Masalan, ob-havo, daryo va ko'l suv sathi, yer po'stining harakatlari muntazam kuzatib boriladi. Tabiiy geografik jarayonlar, iqtisodiy geografik jarayonlarni ma'lum bir vositalarda kuzatish mumkin. Masalan, surilmanni rivojlanishi, daryo erroziyasi, yer yuzasini cho'kishi, qishloq xo'jalik yoki sanoat

mahsulotlarni ishlab chiqarish va boshqalarni ma'lum vaqtida ko'zatish mumkin;

➤ tajriba-eksperimental usuli tabiatda kuzatish qiyin bo'lgan geografik voqeа va hodisalarini kuzatish uchun qo'llaniladi. Masalan, cho'kindi jinslarni hosil bo'lishi, qирғоqlarni to'lqin ta'sirida yemirilishi, quduqlarni tuzilishi va shakllanishini namoyish qiladigan moslamalar;

➤ quvish va modellashtirish. O'rganilayotgan geografik voqeа va hodisalarini mohiyatini namoyish qiladigan modellarni turli xillarini yaratish, jihozlar, uskunalarini ko'rish va yasash. Modellar geografik obyektlarni tuzilishini tadqiq etishda qo'llaniladi. Modellar o'rganilayotgan geografik obyektlar hajmi haqida tasavvurlar beradi (daryo vodiysi, tog', vulqon, jar, to'g'on, fabrika, domna pechi va h.k.);

➤ sayohat usuli. Geografik voqeа va hodisalar, obyektlarni tabiatda, ishlab chiqarishda, ko'rgazmalarda, muzeylarda bevosita o'rGANILADI;

➤ manbalarni o'rGANISH usuli. O'quvchilarni mustaqil ishlarida katta ahamiyatga ega. Mazkur usul geografik voqeа va hodisalar hamda obyektlarni o'rGANISHNI turli bosqichlarida qo'llaniladi: tadqiqotga tayyorgarlik bosqichida; tadqiqotni o'tkazish boschiqida; tadqiqot natijalarini umumlashtirish bosqichida;

➤ kartografik usul. Geografik tadqiqotlarda muhim o'rIN tutadi. Geografiya ta'limida geografik bilimlarni tasvirlashda, tadqiq qilishda va o'rGANISHDA qo'llaniladi.

Yugoridagi sinfdan tashqari ishlarni o'tkazish metodlaridan o'quvchilar mustaqil bilim olishlarining faollashtirishni turli bosqichlarida qo'llash mumkin.

## 2. Sinfdan tashqari ishlarning shakllari

Sinfdan tashqari ishlarning asorsiy shakllariga geografiya to'garaklari, geografik seksiyalar, geografik klublar, o'lkashunoslik muzeylari, sinfdan tashqari o'qitish, "Geografiya kechalari" kiradi.

### 2.1. Geografiya to'garaklari

Geografiya to'garaklari sinfdan tashqari ishlarni asosiy shaklidir. Geografiya to'garagini asosiy maqsadi o'quvchilarni geografiya faniga qiziqishini kuchaytirish, ularni geografik bilim va ko'nikmalarini yanada rivojlanishiga, chuqurlashtirish va kengaytirishdan iborat.

Geografiya to'garagini tashkil qilish va uni faoliyatini muntazam olib borishda to'garak boshlig'i quyidagi ishlarni amalga oshiradi: a) tashkiliy

ishlar; b) to'garakni ilmiy yo'nalishlarini aniqlash; c) to'garakda ilmiy ishlarni borishini boshqarish.

To'garakning tashkiliy ishlariiga quyidagilar kiradi:

- geografiya to'garagi uchun joy tanlash. Geografiya to'garagi uchun alohida xona sifatida geografiya xonasini olish mumkin. Chunki, geografiya xonasida to'garak a'zolari uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar, jihozlar, geografik hartitalar va atlaslar mavjud bo'ladi. Mabodo geografiya xonasi bo'lmasa, tanlangan joy to'garak a'zolari tomonidan maktab rahbariyati yordamda jihozlanishi lozim. Geografiya xonasidagi barcha o'quv vositalari ro'yhati bo'lmog'i va o'quv vositalari geografiya fani tarmoqlari bo'yicha joylashtirilgan bo'lmog'i lozim. Masalan, tabiiy geografiya, iqtisodiy geografiya, o'lkashunoslik, qo'shimcha vositalar (qo'shimcha adabiyotlar);

- to'garakni a'zolarini ro'yhatini tuzish. To'garakka turli sinflardan geografiya faniga qiziquvchilar a'zo bo'lishlari mumkin. Shuning uchun to'garak a'zolapring yoshi ham, qiziquvchanlik darajasi ham, bilim va ko'nikmalari ham turlicha bo'ldi, demak to'garakni ishini loyihalashtirilayotganda, to'garak a'zolariga topshiriqlar berayotganda mazkur farqlar hisobga olinmog'i lozim. To'garak a'zolari soni va yoshi cheklanmagan bo'lib, 8-10 nafar o'quvchi bilan ham to'garak faoliyatini boshlash mumkin;

- to'garakni tarkibiy qo'mitasini tuzish. To'garakni birnchi majlisida uning tarkibiy qo'mitasi tuziladi. Bunda to'garakni rahbari, yo'nalishlar bo'yicha rahbar, a'zolar aniqlanadi va tasdiqlanadi;

- to'garakni nomi va uning yo'nalishlari aniqlanadi. To'garakni nomi "Yosh geograf" bo'lishi mumkin. Uning ichida quyidagi yo'nalishlarni tashkil qilish mumkin: "Yosh tabiiy geograf", "Yosh iqtisodiy geograf", "Yosh o'lkashunos", "Yosh geolog", "Yosh topografi", "Yosh kartograf", "Yosh meteorolog", "Yosh gidrolog", "Yosh ekolog", va h.k.

- to'garak va uning tarmoqlarini ish rejasi tasdiqlanadi va uning ish faoliyatini boshlanadi. Ish rejasi o'quv yili va chorak uchun tuziladi. Har o'quv yilda qilingan ishlarni bo'yicha hisobot tuziladi. To'garakning ishi haftada bir marta o'tkaziladi.

**To'garakning faoliyati.** To'garakning faoliyati yuqorida aytganimizdek muttaazam ravishda haftada bir marta o'tkazib turiladi. To'garakda ishlarni sekisiyalar, ya'ni bo'limlar bo'yicha olib boriladi. Har bir bo'limda eng kamida 4-5-nafardan a'zo bo'lishi lozim. Har bo'lim rahbari to'garak a'zolariga olib boriladigan ishlarni bo'lib beradi. Masalan, "Yosh o'lkashunos" bo'limida ishlarni quyidagicha bo'lishi mumkin: Buyuk

tabiiy geograf olimlar merosini o'rganish; Tabiiy geografik sharoit komponentlarini o'rganish (tug' jinsari, relyef, iqlim, ichki suvlari, tuproq o'simlik va hayvonot dunyosini o'rganish), landshaftlarni o'rganish; ob-havoni o'rganish va h.k.

Geografiya to'garagida ilmiy ishlarni olib borishda geografik tadqiqotlar olib borish bo'yicha nashr etilgan metodik qo'llanmalar katta yordam beradi. Masalan, joyni geoglilik sharoitini, o'simlik va hayvonot dunyosi, tuprog'i, tarixi, arxeologik yodgorliklarini o'rganish bo'yicha nashr qilingan metodik qo'llanmalar katta ahamiyatga ega.

Iqtisodiy geografik yo'nalishda olib boriladigan to'garak ishlari statistik ma'lumotlar, iqtisodiy ma'lumotlar, iqtisodiy sharoitni tavsifiga bag'ishlangan qo'llanmalar va monografiyalar katta ahamiyatga ega.

To'garakda to'garak a'zolari haqida ma'lumotlar jurnali, har bir to'garak a'zosida esa kundalik bo'lmog'i lozim.

Chorak oxirida yoki o'quv yilining oxirida har bir tarmoq o'z qilgan ishlari haqida hisobot beradi. Ular asosida to'garak rahbari umumiy yakuniy hisobot tayyorlaydi.

## 2.2. Geografik jamiyat, klub va o'lkashunoslik muzeysi

Sinfdan tashqari ishlarni mazkur shakli yangi hisoblanadi, chunki u ilgari maktabdan tashqari ishlarni toyifasiga kirib, maktabdan tashqari muassalar tomonidan tashkil qilinad edi. Masalan, "Globus" geografiya jamiyat yoshlar kulubini tarkibida keng tarqalgan edi.

Geografiya to'garagiga qaraganda geografiya jamiyatida a'zolar ko'proq bo'ladi va uning faoliyati turli tumanligi bilan ajralib turadi. Geografiya jamiyatining maqsadi o'quvchilar orasida va maktab joylashgan hududa geografik bilimlarni tashviqot qilishdan iborat. Geografiya jamiyatida o'quvchilar izlanuvchanlik va tadqiqotchilik faoliyatini bilan shug'ullanadi.

Geografik izlanuvchanlikda o'quvchilar kutubxonadagi mavjud xujjatlarni o'rganishadi, ya'ni arxiv materiallari, foto rasmlar, davriy nashriyot materiallari, amaliy va ilmiy-ommabop adabiyotlar, statistik materiallari, geografik xaritalar, rasmlar va kartinalarni o'rganishadi.

Geografik izlanishda mahalliy aholidan so'rov o'tkazish ham katta ahamiyat kasb etadi. Izlanuvchanlikda kuzatish katta o'rinn tutadi. Bunda tabiat, tabiat hodisalari, ishlab chiqarish jarayoni kuzatiladi. Izlanuvchanlikda eski va yangi xaritalarni solishtirish ham muhim natijalarni berishi mumkin.

Izlanuvchanlikdan so'ng o'quvchilarni tadqiqot ishlariiga qiziquvchanligini oshirish lozim. O'quvchilar tadqiqot ishlariiga jalg qilinganda ularni tadqiqot o'tkazish usullari bilan tanishtiriladi. Shundan so'ng ularga tadqiqot o'tkazish uchun mustaqil topshiriqlar berish mumkin. Bunda o'quvchilar matematik, kartografik usul bilan hamda geografik asbob-uskunalar va jihozlar bilan ishlash ko'nikmasiga ega bo'lishlari shart. Tadqiqot ishlari quyidagi yo'nalishlarda olib borilaishi mumkin: joyni tuprog'ini o'rganish va xaritaga tushirish; joydagi antropogen landshaftlarni o'rganib, ularni geografik xaritaga tushirish, joydagi ishlab chiqarish korxonalarini o'rganish va h.k.

**Geografik klublar.** Uning asosiy maqsadi o'quvchilarni darsdan bo'sh vaqtlarini ilmiy-bilish faoliyati bilan to'ldirishdir. Geografik kulubdag'i ishlari to'garak, fol'klor ansambl'i va boshqalar bilan birga olib borildi. Geografiya jamiyatiga o'xshab geografik klub ham o'quvchilarni katta qismini jalg qiladi. U o'tkazadigan tadbirdorda maktab joylashgan qishloq yoki mahallaning aholisi ham qatnashishi mumkin. U faqat geografik bilimlarni targ'ibot qilibgina qolmasdan, o'quvchilarni maktabdagi mashg'ulotlar tugagandan so'ng bekorchilik va boshqa keraksiz ishlari bilan shug'ullanishini oldini oladi. Chunki u maktab joylashgan mahalla yoki qishloqning madaniy markazi bo'lib ham hisoblanadi. Geografik klublar hozirgi vaqda maktabdan tashqari muassasalarda ham tashkil qilinishi mumkin.

**O'lakashunoslik muzeyi.** Geografiya to'garagi, geografiya jamiyati yoki klubdag'i ishlari hamda maktabdan tashqari ishlarning natijalari o'lakashunoslik muzeyini tashkil qilish va jihozlashda katta ahamiyatga ega. O'lakashunoslik muzeyida tarix, biologiya fani to'garagi a'zolari ham qatnashishi va muzeyni "Yosh geograf", "Yosh biolog", "Yosh tarixchi" va h.k. bo'limlarga ajratish maqsadga muvofiq. Geografiya to'garagini har bir bo'lim bo'yicha yig'ilgan materiallar muzeyga eksponat (ko'rgazma) sifatida qo'yiladi. Masalan, "Yosh biolog" bo'limi muzeyini tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi namunalari bilan jihozlashlari va muttazam to'ldirib borishlari lozim, "Yosh iqtisodiy geograf" tarmog'i esa joydagi ishlab chiqarish korxonalarini maketlari va ularning mahsulotlari namunalari bilan muzeyni jihozlashlari mumkin. "Yosh tarixchi" to'garagi a'zolari to'plagan materiallari esa o'lka tarixi bo'limining eksponatlarini to'ldiradi.

### 2.3 Geografik konferensiyalar va kechalar

Maktab o'quvchilarini geografiya faniga qiziqirishni yana bir bosqichi "Geografik konferensiya" hisoblanadi. Geografik konferensiyada ishlar quyidagi tartibda olib boriladi:

1. Konferensiyaning mavzusi aniqlanadi. Konferensiyaning mavzusi geografiya fanining hamda o'lka geografiyasining dolzarb muammolariga bag'ishlanadi. Masalan, cho'llanish jarayoni, iqlimni isishi, yoqilg'i resurslarini muammosi, demografik muammo, ekologik muammo va h.k.

2. Konferensiyaga tayyorgarlik bo'yicha ma'lum bir mavzuga bag'ishlangan adabiyotlar ro'yhati tuziladi. 10-15 kun avval konferensiyaga tayyorgarlik ko'rish boshlanadi va o'tkazish haqida ma'lumot osib qo'yiladi.

3. Konferensiyani o'tkazish. Konferensiya qatnashchilarini o'zlarini tanlagan mavzu bo'yicha loyiha tayyorlashadi va uni konferensiyada himoya qilishadi. Masalan, O'zbekiston maktebalarida "Orol muammosi"ga bag'ishlangan konferensiya tashkil qilish mumkin. Geografiya o'qituvchisi mazkur muammoni quyidagi qismlarga bo'lib, har bir bo'lim bo'yicha loyiha tayyorlashni xoxlovchi o'quvchilarga topshirishi mumkin: Orolni XX asrning birinchi yarmidagi tabiiy geografik sharoiti; Orolni XX asrning ikkinchi yarmidan quriy boshlashining asosiy sabablari; Orolni qurishini geografik oqibatlari; Orolni qutqarib qolish bo'yicha loyihamalar.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya bo'yicha quyidagi loyihalarni yashab turgan joyi bo'yicha tuzishi mumkin:

1. Hududning (shahar, tuman, qishloq) geografik joylanishi. Bunda quyidagi ma'lumotlar yoritiladi: tabiiy geografik joylanishi; iqtisodiy geografik joylanishi; siyosiy geografik joylanishi; geogeokologik joylanishi.

2. Hududning tabiiy resurslari

3. Hududning tarixi

4. Hududning iqtisodiy geografik joylanishi

5. Hududning rekratsion va turistik obyektlari

6. Hududning rivojlanish kelajagi

Mazkur mavzularni o'quvchilarga bo'lib beriladi va ular geografik konferensiya uchun ma'ruza tayyorlashadi.

**Geografik kechalar.** Geografik kechalar o'quvchilarni xordig'ini, ya'ni dam olishini tashkil qilish maqsadida uyushtiriladi. Geografik kechalarda sinfdan tashqari ko'p ishlarni uyg'unlashgan holda o'tkaziladi: ma'ruzalar tayyorlash, devoriy gazetalar chiqarish, viktorinalar, KVN, geografik va ekologik mazmunga ega bo'lgan fil'mlar.

Geografik kechalarda quyidagi mavuzalarda ishlar uyuştırılışlı mumkin: alohida viloyat, tuman yoki shaharning iqtisodiy geografik sharoiti; shahar yoki tumanning ekologik muammolari; shahar yoki tumandagi demografik muammolar va h.k.

### 3. Sinfdan tashqari ishlarning asosiy yo'nalishlari

Sinfdan tashqari ishlar juda xilma-xildir. Ayrim sinfdan tashqari ishlar ko'p hollarda bir-birini qaytaradi. Shuning uchun ular ma'lum bir yo'nalishlar bo'yicha guruhshtiriladi: turistik-o'lkashunoslik; madaniy-oqartuv; mehnat; muzey; nashriy, ekologik (Yu.I.Valishina, 1985 y.)

**Turistik o'lkashunoslik yo'nalishi.** Ushbu yo'nalishga sayohatlar, o'quv ekskursiyalari, geografik ekspeditsiyalar, geografik yig'inlar (slyotlar) kiradi. Geografik yurishlar (poxodlar) turistik o'lkashunoslik ishlarning eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Mazkur yurishlarda turistik va o'lkashunoslik ishlar uyg'unlashgan holda olib boriladi. Turistik ishlarga yo'nalishni tanlash va ishlab chiqish, turistik ko'nikmalarini egallash kiradi.

O'lkashunoslik ishlariga esa o'z yashash joyining tabiatini, xo'jaligini, tarixini, madaniy yodgorliklarini o'rganish kiradi.

Yo'nalishga tayyorlanish va o'tkazish quyidagi bosqichlardan iborat:

- tayyorgarlik bosqichi. Mazkur bosqichda yurishga chiqadigan o'quvchilar soni, sinfi, ro'yhati aniqlanadi. Yurishda zarur bo'ladigan jihozlar asbob uskunalar aniqlanadi. Yurishlar bir kunlik va ko'p kunlik bo'lishi mumkin;

- yurish yo'nalishi aniqlanadi. Aniqlangan yo'nalish bo'yicha yurish, dam olish joylari, tushlik qiladigan, tunaydigan joylar aniqlanadi, oziq-ovqat masalalari hal qilinadi;

- yo'nalishni tanlash yurish maqsadiga qarab aniqlanadi. Yurishni maqsadlariga qarab turistik va o'lkashunoslik anjomlari ro'yhati tuziladi va topiladi;

- yurishni o'tkazish. Yurishdan oldin uning maqsadi va vazifalari hamda qoidalari haqida o'quvchilarga ko'rsatma beriladi. O'quvchilar guruhlarga bo'linadi. Har bir guruhning sardori tayinlanadi va vazifalari aniqlanadi. Masalan, bir guruh yonalishni tabiiy sharoitini o'rganadi. Relyef shakillari gidrografik obyektlar, tuproq, o'simlik va hayavonot dunyosi, asosiy landshaft turlari, noyob tabiat obyektlari o'rganib boriladi. Ikkinci guruh esa yo'nalish bo'yicha joylashgan iqtisodiy geografik

obyektlarni o'rganib boradi: qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi, sanoat korxonalarli, aholi punktlari, transort shaxobchalar. Uchunchi guruh tarixiy obidalar, rekreatsion va turistik obyektlarni o'rganib xaritaga tushirib borishadi;

- yurish so'ngida uning natjalarini qayta ishlanadi va hisobot natijalari geografik konferensiya yoki geografiya to'garagi yig'ilishida muhokama qilinadi.

Geografik ekskursiyalar maktabdan va sinfdan tashqari ishlarning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi (XII bob 4-paragrafga qarang)..

**Ilmiy bilish yo'nalishi.** Ilmiy bilish yo'nalishiga geografiya to'garagi, geografiya jamiyatları, klublar va muzey faollari yig'ilishlari kiradi.

O'quvchilarni ilmiy bilish faoliyatida geografik konferensiylar katta ahamiyatga ega. Geografik konferensiylarda o'quvchilarning ekspedetsiya va ekskursiya hamda sinfdan tashqari ishlarda olib borilgan ishlari yakunlanadi.

Bunday konferensiylarda o'quvchilarni ilk manbalar bilan ishslash ko'nikmalarini shakillantirish muhim o'rinn tutadi. Bunda nazariyani amaliyot bilan bog'lash birinchi o'rinda turadi. Konferensiya sinfdan tashqari ishlarda fanlararo aloqalar amalgalga oshiriladi.

O'quvchilarning ilmiy bilish faoliyatini "Geografik xaritalar" yordamida ham muvaffaqiyatlari olib borilishi mumkin. Bunda hafta davomida maktabda olib boriladigan sinfdan tashqari ishlarni barchasi geografiyaga bag'ishlanadi. Bunday haftaliklarning mavzusini geografiya o'qituvchisi tanlaydi. Uning mavzusi geografiyaning, ekologiyaning va o'lkashunoslikning turli muammolariga bag'ishlanishi mumkin.

**Mehnat yo'nalish** sinfdan tashqari ishlarning barcha shakllarida olib boriladi. Mazkur yo'nalish bo'yicha quyidagi tadbirlarni o'tkazish mumkin:

- ✓ tarixiy va madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish;
- ✓ tabiatni muhofaza qilish: o'simlik va hayvonot dunyosini, noyob tabiat obektlarini, rekreatsion va turistik obyektlarni muhofaza qilish;
- ✓ o'quvchilarni maktab o'lkashunoslik muzeyini jihozlashda, geografiya xonasini tashkil qilishda, geografiya maydonchasini tashkil qilishda qatnashishi jarayonida ularga tegishli mehnat tarbiyasi beriladi.

**Muzey va nashriy hamda ekologik yo'nalish.** Geografik muzeylar juda xilma-xil bo'lishi mumkin. O'lka tabiatini o'rgangan olimlar muzeyi, buyuk geograf-olimlar va sayyoohlар muzeyi va h.k.

Maktab geografiya muzeyi o'lkashunoslik muzeylari bilan mazmuni va tuzilishi ba'zi xollarda noo'xshash bo'lishi ham mumkin.

Maktab geografiya muzeylari quyidagi bo‘limlardan iborat bo‘lishi mumkin: tabiiy geografik; iqtisodiy geografik; geoekologik; rekratsion va turistik.

Tabiiy geografik bo‘limda maktab joylashgan qishloq, tuman, shaharning geologik tuzilishi, foydali qazilmalari, relyefning asosiy shakllari, suv havzalari, magistrallari, tuproq namunalari, o‘simpliklar gerbaryylari, hayvonot dunyosining qotirilgan tanalari, landshaft ko‘rinishlari bo‘yicha ko‘rgazma materiallar tayyorlanadi va namoish uchun ma’lum bir tartibda joylashtiriladi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya bo‘limida maktab joylashgan joy maketi yoki xaritasi, tabiiy resurslari, sanoati, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari namunalari, sanoat obyektlarining maketlari, transport tizimi, maorif va sog‘liqni saqlash muassalari maketlari yoki ular haqidagi ma’lumotlar namoyish qilinadi.

Geografiya bo‘limida maktab joylashgan qishloq yoki tumandagi qo‘riqlanadigan joylar, qizil kitobga kiritilgan o‘simplik va hayvonot dunyosi haqida ma’lumotlar ko‘rgazmaga qo‘yiladi.

Rekratsiya va turizm bo‘limida tabiatni go‘zal dam olish joylari, tarixiy-geografik obidalar, memoriy yodgorliklar haqida ko‘rgazmalar joylashtiriladi.

Sinfdan tashari ishlari davomida o‘quvchilar devoriy gazetalar chiqarishlari mumkin. Bundan tashqari o‘quvchilar tuman, shahar viloyat va respublika matbuotida ham maqolalar e’lon qilishlari mumkin.

**Sinfdan tashqari ishlarning** ekologik bilimlarga yo‘naltirilganligi. Sinfdan tashqari olib boriladigan ishlarning diyarli barchasi ekologik yo‘nalishga ega bo‘ladi, mazkur ishlari jarayonida o‘quvchilarda ekologik bilim va ko‘nikmalar, eng muhimmi ekologik madaniyat shakllantiriladi.

Geografiya to‘garagi a’zolari tomonidan olib boriladigan tabiiy geografik va iqtisodiy geografik ishlarning barchasida ekologik tadqiqotlar olib boriladi. Bunda tuproqni, suvni, havoni ifloslanganlik darajasiga baho beriladi. Muhofaza qilinadigan o‘simplik va hayvonot dunyosi vakillari haqida ma’lumotlar to‘planadi. Maktab joylashgan qishloq, tuman va viloyatlardagi atrof muhitni ifloslovchi asosiy manbalar aniqlanadi.

Shunday qilib sinfdan tashqari ishlari davomida o‘quvchilar tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy jarayonlarni o‘rganish bo‘yicha ko‘nikmalarga ega bo‘lishadi.

**Tayanch so‘z va iboralar:** Sinfdan tashqari ishlari, geografiya to‘garagi, sinfdan tashqari o‘qishlar, geografik konferensiylar, geografik

kechalar, geografik xaritalar, geografik seksiyalar, geografiya jamiyatlari, o‘lkashunoslik muzeyi, geografik klublar kiradi.

### **TALABALARING O‘ZLASHTIRGAN BILIMLARINI NAZORAT QILISH UCHUN SAVOL VA TOPSHIRIQLAR**

1. Sinfdan tashqari ishlarni qanday turlarini bilasiz?
2. Sindan tashqari ishlarni maqsadi nimalardan iborat?
3. Sinfdan tashqari ishlarni vazifalari nimalardan iborat?
4. Sinfdan tashqari ishlarni olib borishni qanday usullarini bilasiz?
5. Sinfdan tashqari ishlarni qanday shakllari mavjud?
6. Geografiya to‘garagining asosiy maqsadi nimirlardan iborat?
7. Geografiya to‘garagini tashkil qilish qanday bosqichlardan iborat?
8. Geografiya jamiyatini vazifalari nimalardan iborat?
9. Geografik konferensiya qanday sharoitlarda o‘tkaziladi?
10. Geografik kechalarini maqsadlari nimalardan iborat?
11. Sinfdan tashqari ishlari qanday yo‘nalishlarda olib boriladi?

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Xalq ta'limi tizimida ta'lif sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 2018-yil 8-dekabrdagi 997-son qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"  
2019-yil 29-apreldagi PF-5712 - sonli farmoni
3. Каримов И.А. "Юксак малакали мутахасислар – тараққиёт омили". Т. "Ўзбекистон". 1995
4. "Баркамол авлод–Ўзбекистон тараққиёти пойдевори". Т "Шарқ". 1997
5. "Баркамол авлод орзузи". Т. "Шарқ". 1998
6. Абдуганиев О. География дарсларида техника воситаларидан фойдаланиш.Т. "Ўқитувчи", 1995.
7. Avezov Sh., Sultanova N.B., Saydamatov F.R. Tabiiy geografiya: standart va nostonart test topshiriqlari. Toshkent, "Innovatsiya-Ziyo", 2019,160 б.
8. Бабанский Ю.К. Оптимизация учебно-воспитательного процесса. М. Просвещение,1982
9. Барабанов В.Ш. Итоговый контроль усвоения основных знаний и умений в 9 классе. География в школе, 1990, №3, с.-35
10. Баранский Н.Н. Методика преподавания экономической географии. Учпедицз.М. 1969.
11. Баринова И.И. О базовом уровне географического образования выпускника средней школе. География в школе, 1990, №4, с30-32
12. Баринова И.И. Учебник и технология процесса обучения. География в школе, 1990, №5, с.31-33
13. Бельская Е.М. Мўминов А.А. Методические указания к использованию настенных картин по природоведению в 4 классе. «Ўқитувчи», Т.,1976
14. Вахобов Х., Абдуназаров Ў., Зайнутдинов А. География таълимида дарслклар яратиш муаммоси. Ўзбекистон география жамияти ахбороти. Т. 2000, №21, 188-191 б
15. Вахабов Х., Алимова Н.Х. Махмуджўжа Бехбудийнинг «Китоби мунтахаби жуғрофия умумий ва намунавий жуғрофия» дарслиги хақида. География ва қадриялар. Мақолалар тўплами Т. 2001. 162-164 б
16. Вахобов Х., Абдурахмонов Б., Эшпўлатова Н. Умумтаълим ва ўрта маҳсус таълим муассаларида география таълимининг ўрни ва тузилиши. Ўзбекистон география жамияти ахбороти, 25 жилд, Т.2003
17. Вахобов Х., Тошева Н. Жадидчилик даврида география фанининг ривожланиши " География фанинг долзарб назарий ва амалий муаммоалари" Респ. илм- амал. конф. материаллари. Т. 2006 145-146 б.
18. Вахобов Х., Рафиқиов А.А. Ўзбекистон табиатини муҳофаза қилиш. Университет. Т. 2001, 38 б.
19. Вахобов Х. География. Учебное пособие для 6 класса вспомогательных школ. Узинкомцентр, Т. 2003. 106 б.
20. Вахобов Х., Пўлатова П. География. Ёрдамчи мактабларнинг 7-синфи учун дарслик. Т. Узникомцентр , 2003, 148 б
21. Вахобов Х., Сайдаматов Ф. География таълими мақсадларини тест топшириклиарида ифодалаш. Респуб. Илмий- амалий. Конф. материаллари "Жанубий Ўзбекистонда география мактабларининг шаклланиши ва ривожланиши" Термиз, 2006, 19-20 б.
22. Вахобов Х., Абдурахмонов Б. Ўрта маҳсус ўкув муассаларида ўрганиладиган геонизариялар. " География фанининг долзарб назарий ва амалий муаммолари". Респ. илмий. амалий конф. материаллари: Т. 2006 136-138 б.
23. Вахобов Х., Сайдаматов Ф., Эшпўлатова Н. География таълимида қўлланадиган педагогик технологияларни ишлаб чиқиши. Халқ таълими. 2007. №1, 102-105 б.
24. Всемирная декларация о высшем образовании для XXI века: подходы и практическая мери, ТДПУ ахборот технологиялари ва масофаий ўқитиши маркази Ахборотномаси 2002, № 6 с. 13-26.
25. Герасимова Т.П., Коринская В.А. Методы и формы организации обучения географии. Изд –во «Пресвещение», М. 1964., 221 с.
26. Герасимова Т.П. Основы методики обучения начальному курсу физической географии. М.1978.
27. Герасимова Т.П Требования к современному уроку физической географии. География в школе, 1981 №2
28. Герасимова Т.П., Ковалевская М.К., Панчешникова Л.М. Формирование мировоззрения учащихся средней школы в процессе обучения географии. М. Педагогика, 1982

29. Герасимова Т.П., Грюнберг Г.Ю., Неклюкова Н.П. Новый учебник по курсу физической географии. География в школе, 1990, №2, с32-38
30. Герасимова Т.П. Практические работы нового вида в 6 классе. География в школе, 1990, №4 с.41-44
31. Гладкий Ю.Н. Пробный учебник по социально-экономический географии мира: что нового? География в школе, 1991, №4, с26-30
32. Гузев В.В. Оценка, рейтинг, тест. Школьные технологии, 1998, №3, г. ИИИ.40 с.
33. Даринский А.В. Методика преподавания географии. М. Просвещение, 1975, 368 с.
34. Даринский А.В. Урок географии в средней школе. М. Просвещение, 1984
35. Добржицкий В.С., Урок географии в средней школе. М. Просвещение, 1984
36. Душина И.В., Евлахина Т.И. Приёмы тематического планирование уроков в 6 классе. География в школе, 1980, №3
37. Душина И.В. Педагогические технологии обучения географии. География в школе, 2001, №3 с.49-53
38. Душина И.В., Система геолого-географических знаний в школьном курсе
39. Епишева О. Основные параметры педагогической технологии. ТДПУ Ахборот ва масофавий ўқитиш маркази. Ахборотномаси, 2002, №6, с3-9
40. Мўминов О.А. География таълими методикаси. „Ўқитувчи”, 1986, 206 б
41. Жўрабоев М. География ўқитишида предметлараро алоқа. Т. „Ўқитувчи”, 1983, 37 б
42. Зайченко Н.А. Понятие, необходимость, возможность социально-экономического образования в современной школе. Матлы международного семинарии. «Образование», 1995
43. Игнатьев В.О. О методике рисования на уроках географии «География в школе» 1960
44. Ильин Г. Педагогическая технология и педагогическое мастерство. «Новости интернета», ТДПУ ахборот технологиялари ва масофавий ўқитиш маркази Ахборотномаси. 2003, №5 с.72-82
45. Информационные технологии в общеобразовательной школе. И Т в организации школьного образовательного процесса. Новости Интернета. Ахборот технологиялари ва масофавий ўқитиш маркази Ахборотномаси №14, Т. 2003. с.62-72
46. Каргалова С.Ф., Панфилова Т.С., Эрдели В.Г. Методика Преподавания географии. Госучпедгиз, 1966
47. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе. М. Знание, 1989
48. Ковалевская М.К. Методика массовой проверки качества обучения географии. В.кн. Проверка знаний и умений учащихся по географии. М., Просвещение, 1978
49. Кларин М.В. Педагогическая технология в учебном процессе Анализ зарубежного опыта. М., Народное образование, 1998
50. Курбонниёзов Р. География ўқитиш методикаси. УрДУ, Урганч, 2001, 2226
51. Курбонниёзов Р. “Ўзбекистон географияси” қизиқарли савол ва топшириклар. “Ўқитувчи” Т. 1997
52. Курбонниёзов Р. Географиядан ўқувчилар билимини текширишнинг шакли ва методлари. Т.1993
53. Кулинич Г.С., Николина В.В. Географические игры. География в школе 1991 №1
54. Кутийников С.Е. Модульные блокциклы в преподавании географии. География в школе, 2000, №5, ис. 66-70
55. Панчешникова Л.М. Теория дидактики-учителю и методисту. « География в школе», 1990. №3 с. 24-31
56. Пашканг К.В. География в начальной школе. « География в школе», 1998. №4, с. 53-54
57. Петросян К.К. Вопросы экономики в школьном курсе географии. М., Просвещении, 1986
58. Петросюк А.А., Смирнова М. С. Сборник вопросов и заданий по географии. М. Новая школа, 1994
59. Понурова Г.А. Проблемный подход в обучении географии в средней школе. М., Просвещение, 1991.
60. Сиротин В.И. Тестовые задания для проверки знаний, умений и навыков учащихся. География в школе 1991, №2, с. 36-39
61. Смирнова В.М. Дидактические материалы по экономической и социальной географии мира. М. «Просвещение», 1996
62. Султанова Н.Б. Использование картографических технологий на уроках географии. Педагогические науки. Москва, 2012, №3, 168-171 ст.

63. Щенев В.А. Классификация уроков географии нетрадиционной формы. «География в школе». 1999 №2 с.33-34
64. Раджиев А.Б., Исмаилов А.А., Нарзиев Ж.Р., Ахмедов Х.П., Тог'аева Г.О. Ўқувчилар саводхонлигини баҳолаш бўйича халқаро тадқиқотлар дастури. Кўлланма, Тошкент, 2019.
65. G'ofurov A.T. va boshqalar. Biologiya o'qitish metodikasi. T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.
66. Толипова Ж.О., Азимов И.Т., Султанова Н.Б. Биология. Ўқитувчилар учун услубий қўлланма. Т.: Тафаккур, 2016. 352 б.
67. Ro'zieva D., Usmonboeva M., Holiqova Z. Interfaol metodlar: mohiyati va qo'llanilishi. T.: Nizomiy nomidagi TDPU, 2013.

## MUNDARIJA

|  |           |
|--|-----------|
| <b>KIRISH.....</b>   | <b>3</b>  |
| <b>I-QISM. GEOGRAFIYA O'QITISH METODIKASI<br/>FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI</b>                               |           |
| <b>I BOB. GEOGRAFIYA O'QITISH METODIKASI<br/>FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI.....</b>                           | <b>5</b>  |
| 1   Geografiya o'qitish metodikasi fan va o'quv fan sifatida.....  | 5         |
| 1.1.   Geografiya o'qitish metodikasining maqsadi va vazifalari...   | 6         |
| 1.2.   Geografiya ta'limi metodikasining boshqa fanlar bilan aloqasi.....                                      | 7         |
| <b>II BOB. GEOGRAFIYA TA'LIMINING SHAKLLANISHI<br/>VA RIVOJLANISH TARIXI.....</b>                              | <b>10</b> |
| 1   Geografiya ta'liming rivojlanish bosqichlari.....  | 10        |
| 2   Xorijda geografiya ta'limi.....  | 19        |
| <b>III BOB. O'ZBEKISTONDA GEOGRAFIYA TA'LIMINING<br/>RIVOJLANISHI.....</b>                                     | <b>26</b> |
| 1   XIX arsnинг oxiri va XX asr boshlarida geografiya ta'liming rivojlanishi.....                              | 26        |
| 1.1.   XX arsda O'zbekistonda geografiya ta'liming rivojlanishi  | 31        |
| 2.   O'zbekistonda kadrlar tayyorlash milliy dasturi.....  | 35        |
| <b>IV BOB. GEOGRAFIYA TA'LIMDA ILMY<br/>TADQIQOTLARINI TASHKIL ETISH.....</b>                                  | <b>41</b> |
| 1   Geografiya ta'limida ilmiy tadqiqot ishlarnini tashkil etish muammoları.....                               | 41        |
| 1.1.   Nazariy tadqiqot metodlari.....   | 42        |
| 1.2.   Eksperimental-emprik metodlar.....  | 44        |
| 2   Metodik tadqiqotlar bosqichlari.....   | 47        |
| <b>V BOB. XALQARO BAHOLASH TADQIQOTLARI VA<br/>ULARNI O'ZIGA XOS TOMONLARI.....</b>                            | <b>51</b> |
| 1   Xalqaro baholash tadqiqotlarining ta'lim sifatini baholashdagi ahamiyati.....                              | 51        |
| 2   PISA tadqiqotlari, ularni tashkil etish va o'tkazish metodikasi.....                                       | 54        |
| 3   PIRLS va TIMSS xalqaro baholash tadqiqotlari va ularnngi o'ziga xos tomonlari.....                         | 64        |
| <b>VI BOB. GEOGRAFIYA FANINI O'QITISHNING<br/>TA'LIMIY, TARBIYAVIY VA RIVOJLANTIRUVCHI<br/>MAQSADLARI.....</b> | <b>67</b> |

|   |   |     |
|---|---|-----|
| 1   | Geografiya ta'limining maqsadlari va vazifalari.....  | 67  |
| <b>VII BOB. MAKTAB GEOGRAFIYASINING MAZMUNI, TARKIBI VA O'QITISH TEXNOLOGIYALARI.....</b> | <b>76</b>   |     |
| 1   | Geografiyadan Davlat ta'lif standarti.....  | 76  |
| 1.1.  | Geografiyadan o'quv dasturlari tahlili.....   | 83  |
| 1.2.  | Maktab geografiyasi mazmuning tarkibiy qismlari.....  | 86  |
| 2   | Boshlang'ich ta'limga geografiya ta'limi mazmuni.....   | 88  |
| 2.1.  | Atrofimizdag'i olam kursining mazmuni va tuzilishi.....   | 88  |
| 2.2.  | Tabiatshunoslik kursining mazmuni, tuzilishi va o'qitish texnologiyalari.....                                   | 92  |
| 3   | Tabiiy geografiya kursining mazmuni va vazifalari.....  | 99  |
| 3.1.  | Tabiiy geografiya boshlang'ich kursining mazmuni, tuzilishi va o'qitish texnologiyalari.....                    | 99  |
| 3.2.  | Materiklar va okeanlar tabiiy geografiyasi kursining mazmuni, tuzilishi va o'qitish texnologiyalari.....        | 107 |
| 3.3.  | O'rta Osiyo va O'zbekiston tabiiy geografiyasi kursining mazmuni, tuzilishi va o'qitish texnologiyalari.....    | 115 |
| 4   | Iqtisodiy geografiya kursining mazmuni va vazifalari.....   | 125 |
| 4.1.  | O'zbekiston ijtimoiy va iqtisodiy geografiyasi kursining mazmuni, tuzilishi va o'qitish texnologiyalar.....     | 125 |
| 4.2.  | Jahon mamlakatlari ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi kursining mazmuni, tuzilishi va o'qitish texnologiyalar..... | 131 |
| 4.3.  | Amaliy geografiya kursining mazmuni, tuzilishi va o'qitish texnologiyalar.....                                  | 136 |
| 5   | Ichki fanlararo aloqalar.....   | 143 |
| <b>II-QISM. O'QITISH METODLARI</b>  |   |     |
| <b>VIII BOB. GEOGRAFIK TUSHUNCHALAR, ULARNING TURLARI VA SHAKLLANISHI.....</b>            | <b>145</b>  |     |
| 1   | Umumiy geografik va xususiy tushunchalarni shakllantirish va rivojlantirish.....                                | 145 |
| 2   | Geografiyani o'qitishda o'quvchilarda mustaqil va ijodiy faoliyatini tarkib toptirish.....                      | 148 |
| <b>IX BOB. O'QITISH METODLARI TASNIFI, O'QITISH USULLARI.....</b>                         | <b>153</b>  |     |
| 1   | Geografiya ta'lifi metodlari haqida tushuncha.....  | 153 |
| 1.1.  | O'qitish metodlarini sinflashtirish.....  | 154 |
| 1.2.  | Geografiya darslarida o'qitish metodlarini tanlash.....   | 157 |
| 2   | O'qitishning og'zaki metodlari.....   | 159 |

|  |  |     |
|--|--|-----|
| 2.1.   | Tushuntirish metodi.....   | 161 |
| 2.2.   | Hikoya usuli va suhbat usullari.....   | 162 |
| 2.3.   | O'qib berish va ma'ruza usullari.....  | 167 |
| 3  | Muammoli o'qitish metodlari.....   | 169 |
| 3.1.   | Geografiya fanidagi muammolar va ulardan ta'lif jarayonida foydalanish.....                | 170 |
| 3.2.   | Muammoli bayon metodi.....   | 172 |
| 3.3.   | Reproduktiv va izlanuvchan usuli.....  | 175 |
| 4  | O'qitishning amaliy va ko'rgazmali metodlari.....  | 180 |
| 4.1.   | Kartografik metod.....   | 181 |
| 4.2.   | Maktab geografik xaritalarining turlari.....   | 184 |
| 4.2.1.   | Xaritalarni tushuntirish texnologiyalari.....  | 186 |
| 4.2.2.   | Geografik xaritalarni o'qish texnologiyalari.....  | 188 |
| 4.3.   | Chiziqli xaritalar bilan ishlash texnologiyasi.....  | 193 |
| 4.4.   | Globus bilan ishlash texnologiyasi.....  | 195 |
| 4.5.   | Kartografik tasavvurlarni shakllantirish texnologiyasi.....                                | 197 |
| 5  | Kuzatish va tajriba.....   | 198 |
| 5.1.   | Kuzatish metodi.....   | 199 |
| 5.2.   | Tajribalar.....  | 204 |
| 6  | Matematik va statistik metod.....  | 209 |
| 6.1.   | Geografiya ta'lida matematik metodlar.....   | 209 |
| 6.2.   | Tabiiy geografik bilimlar berishda matematik metodlardan foydalanish.....                  | 210 |
| 6.3.   | Geografiya kurslarida sonli ma'lumotlar.....   | 215 |
| <b>X BOB. O'QITISHDA PEDAGOGIK TEXNALOGIYALAR. NOANA'NAVIIY USULLAR VA KOMPYUTER TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH TAJRIBASI....</b> |  |     |
| <b>222</b>   |  |     |
| 1  | Pedagogik texnologiyalar va ularning turlari.....  | 222 |
| 2  | Geografiya ta'lidi maqsadlarini test topshiriqlarida ifodalash.....                        | 231 |
| 3  | Didaktik o'yinlar texnologiyasi.....   | 238 |
| 3.1.   | Tabiiy geografik o'yinlar.....   | 239 |
| 3.2.   | Iqtisodiy va ijtimoiy geografiya darslarida didaktik o'yinlar o'tkazish texnologiyasi..... | 241 |
| 4  | Modulli ta'lif texnologiyasi.....  | 242 |
| 5  | Hamkorlikda o'qitish texnologiyalari.....  | 245 |
| 6  | Interfaol metodlar.....  | 247 |
| 7  | Geografiya ta'lida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish.....                           | 254 |

| <b>III-QISM. O'QITISH VOSITALARI</b>   |            |  |
|--|------------|--|
| <b>XI BOB. GEOGRAFIYANI O'QITISH VOSITALARI.....</b>   | <b>259</b> |  |
| 1 O'quv ko'rgazmali qurollar, asbob va jihozlar.....   | 259        |  |
| 1.1. Natural vositalar va ulardan foydalanish texnologiyasi.....                                     | 261        |  |
| 1.2. Geografik voqealarni tasvirlaydigan o'quv vositalaridan foydalanish texnologiyasi.....          | 263        |  |
| 2 O'qitishning texnik vositalari va ular bilan ishlash texnologiyasi.....                            | 264        |  |
| 2.1. Geografiya darslarida kinofilmlardan foydalanish.....   | 265        |  |
| 2.2. Televedeniyadan geografiya darslarida foydalanish.....  | 269        |  |
| 3 Geografiya darsligi va u bilan ishlash texnologiyasi.....  | 270        |  |
| 3.1. Darslik bilan ishlash texnologiyasi.....  | 273        |  |
| <b>IV-QISM. GEOGRAFIYA TA'LIMINI TASHKIL ETISH SHAKLLARI</b>   |            |  |
| <b>XII BOB. GEOGRAFIYA DARSLARI VA ULARGA QO'YILADIGAN TALABLAR. DARS TIPLARI.....</b>               | <b>277</b> |  |
| 1 Geografiyani o'qitishni tashkil etish shakllarining umumiy tavsifi va ular o'rtafiga uzviylik..... | 277        |  |
| 2 Dars – geografiyani o'qitishning asosiy shakli.....  | 281        |  |
| 2.1. Geografiya darslarining tuzilishi.....  | 285        |  |
| 3 Geografiya darslarining tiplari.....   | 287        |  |
| 3.1. Kirish darsi.....   | 287        |  |
| 3.2. Aralash dars.....   | 288        |  |
| 3.3. Yangi mavzuni o'rganish darsi.....  | 290        |  |
| 3.4. Geografik ko'nikmalarni shakllantirish darsi.....   | 291        |  |
| 3.5. Takrorlash, umumlashtirish va bilimlarni tekshrish darsları                                     | 294        |  |
| 4 Ekskursiya – geografiyani o'qitishning muhim shakli.....   | 296        |  |
| 4.1. Tabiiy geografik o'quv ekskursiyalari.....  | 300        |  |
| 4.2. Iqtisodiy geografik o'quv ekskursiyalari.....   | 303        |  |
| 4.3. Tarixiy geografik va o'lkashunoslik ekskursiyalari.....   | 305        |  |
| <b>XIII BOB. GEOGRAFIYA DARSLARINI REJALASHTIRISH</b>  | <b>307</b> |  |
| 1 Geografiya darsning yillik va kundalik rejasini ishlab chiqish                                     | 307        |  |
| 2 O'qituvchini darsga tayyorgarligi.....   | 310        |  |
| 3 Geografiya darsi tahlili va tahlilga qo'yiladigan talablar.....                                    | 312        |  |
| <b>XIV BOB. BILIM, KO'NIKMA VA MALAKALAR, QO'YILADIGAN TALABLARVA SHAKLLANTIRISH METODIKASI.....</b> |            |  |
| 1 Bilim, ko'nikma va malakalar va ularga qo'yiladigan talablar                                       | 316        |  |

|   |            |
|---|------------|
| 2 Amaliy ko'nikma va malakalarni shakllantirish metodikasi.   | 320        |
| <b>XV BOB. GEOGRAFIYA XONASI VA UNI JIHOZLASH....</b>   | <b>323</b> |
| 1 Geografiya xonasi va uni jihozlash.....   | 323        |
| 2 O'qituvchini geografiya xonasida olib boradigan tashkiliy xo'jalik ishlari.....                             | 327        |
| 3 Geografiya xonasidan o'quv va sinfdan tashqari ishlarda foydalanish.....                                    | 329        |
| 4 Geografiya maydonchasi.....   | 310        |
| <b>V-QISM. GEOGRAFIYA TA'LIMIDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR</b>   |            |
| <b>XVI BOB. GEOGRAFIYA TA'LIMIDA SINFDAN TASHQARI ISHLAR-NING TURLARI, ULARNING MAQSAD VA VAZIFALARI.....</b> | <b>338</b> |
| 1 Geografiya ta'limdi sinfdan tashqari ishlarning maqsad va vazifalari.....                                   | 338        |
| 2 Sinfdan tashqari ishlarning shakllari.....  | 341        |
| 2.1. Geografiya to'garaklari.....   | 341        |
| 2.2. Geografik jamiyat, klub va o'lkashunoslik muzeyi.....  | 343        |
| 2.3. Geografik konferentsiyalar va kechalar.....  | 345        |
| 3 Sinfdan tashqari ishlarning asosiy yo'nalishalari.....  | 346        |
| Foydalilanigan adabiyotlar ro'yhati.....  | 350        |

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
AXBOROT RESURS MARKAZI

- 5139 -

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM,  
FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI  
CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI  
AXBOROT RESURS MARKAZI  
1-FILIALI

**X.VAXOBOV, N.R.ALIMKULOV, N.B.SULTANOVA**

# **GEOGRAFIYA O‘QITISH METODIKASI**

**Darslik**

“Nodirabegim” nashriyoti

Nashriyot litsenziyasi AI № 313. 24.11.2017 y.

Bosishga ruxsat etildi: 17.02.2021.

“Times New Roman” garniturası. Qog‘oz bichimi: 60x84 1/16

Nashriyot bosma tabog‘i 22,5. Adadi 250 nusxa.

100129, Toshkent shahri, Shayxontohur tumani,

Navoiy ko‘chasi, 30-uy.

ООО “АКТИВ ПРИНТ” босмаконасида чоп этиди.

Ташкент, Чилонзор 25, Лутфий 1А.



Vaxobov Xurboy – geografiya fanlari doktori, professor. Landshaftshunoslik, geografiya ta'limi matodikasi, tabiiy geografiya fanining nazariy-uslubiy masalalari yo'naliishlarida ilmiy faoliyatlar bilan birlgilikda texnogen landshaftlarni o'rganishda injener-geografik yondoshish ishlab chiqilgan va tog'-kon sanoati landshaftshunosligining yangi ilmiy yo'naliishiga asos solingan. X.Vaxobov tomonidan 8 ta darslik, 20 dan ortiq o'quv va uslubiy qo'llanmalar, 5 ta monografiya va 200 dan ortiq ilmiy, ilmiy-uslubiy maqolalar yaratilgan.



Alimkulov Nusratulla Raxmonkulovich – geografiya fanlari nomzodi, dotsent. Nizomiy nomidagi TDPU "Geografiya va uni o'qitish metodikasi" kafedrasini mudiri. 1998-yilda universitetning geografiya-biologiya ixtisosligini bitirgan. Ilmiy faoliyatining asosiyo yo'naliishi – O'zbekiston landshaft-ekologik sharoitini baholashga va geografiya ta'limida ekologik ta'lim-tarbiya muammolariga qaratilgan. N.R.Alimkulov tomonidan 2 ta darslik, 7 ta o'quv qo'llanma, 3 ta elektron darslik, 10 ta uslubiy qo'llanma, 1 ta monografiya va 60dan ortiq ilmiy, ilmiy-uslubiy maqolalar muallifi.



Sultanova Nodiraxon Burxonovna – 1992-yil Nizomiy nomidagi TDPUning "Geografiya-biologiya" ixtisosligini muvoffaqiyatli tamomlagan. "Geografiya va uni o'qitish metodikasi" kafedrasida dotsent v/b. N.B.Sultonova 1 ta risola, 6 ta uslubiy qo'llanma, 1 ta o'quv qo'llanma, 6 ta o'quv fan dasturi, 6 ta o'quv-uslubiy majmua, 90 ga yaqin ilmiy, ilmiy-metodik maqolalar muallifi. Hozirgi faoliyati geografiya ta'limida o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etsih va ta'lim samaradorligini oshirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish ilmiy yo'naliishi muammolariga bag'ishlangan.

ISBN 978-9943-6939-6-8

9 789943 693968